

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

Sapayev O‘tkir To‘rayevich

O‘ZBEKISTON TARIXI

DARSLIK

3240100 – YURISPRUDENSIYA

TOSHKENT – 2019

UDK: 94 (075) (575.1)

Sapaev O'tkir To'raevich. O'zbekiston tarixi. Yuridik kollejlar 3240100 – Yurisprudensiya (*soha mutaxassisliklari va kadrlar*) o'quvchilari uchun darslik. – T.: TDYU, 2019. – 319 b.

“O'zbekiston tarixi” fani o'rta-maxsus ta'lif muassasalari talabalarida mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur yuritish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishga, mamlakatimizning bir necha ming yillik o'tmishi haqida ob'yekтив bilimlar berishga qaratilgan. Ayniqsa, O'zbekiston o'zining rivojlanishida yangi tarixiy bosqichiga chiqayotgan hozirgi davrida o'tmish haqidagi bilimlar muhim ilmiy, amaliy, ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan mazkur darslikda O'zbekiston tarixinining jahon sivilizatsiyasi tarixida, uning rivojlanishida tutgan munosib o'rni, uning boy o'tmishi va undagi asosiy ijtimoiy – tarixiy jarayonlar qamrab olinishiga harakat qilingan.

Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik kollejlari 3240100 – “Yurisprudensiya” (*soha mutaxassisliklari va kasblar*) o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Polvonov N. T. – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti “O'zbekiston tarixi” kafedrasi professori v.b., dotsent, t.f.n.

Taqrizchilar:

Jamolhoji I.N. – O'zFA Temuriylar tairxi davlat muzeyi Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi mudiri, tarix fanlari nomzodi.

Farmonova B.A. – M. V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent filiali “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va iqtisodiy fanlar” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi.

Mundarija

Kirish	5
1 - §. O‘zbekiston tarixi fanining predmeti, manbalari va metodlari	7
I Bob. O‘rta Osiyoda ibtidoiy jamoa tuzumi va ilk davlatlar	17
2 – §. O‘zbekiston hududida ibtidoiy jamoa tuzumi	17
3 – §. O‘zbek davlatchiligining tarixiy genezisi va rivojlanish bosqichlari. Ilk davlatlar va “Buyuk ipak yo‘li”	29
4 – §. O‘zbek xalqining kelib chiqishi va shakllanish bosqichlari	41
II Bob. Bob. O‘rta asrlar davri	54
5 – §. Ilk o‘rta asrlardagi davlatlar: Xorazm, xioniyalar, eftallar, Turk xoqonligi. Arablar tomonidan O‘rta Osiyoning bosib olinishi.....	54
6 – §. IX – XII asrlarda o‘zbek davlatchiligi. Uyg‘onish davri madaniyati	67
7 – §. Movarounnahrning mo‘g‘ullar tomonidan bosib olinishi va Xorazmshohlar sultanatining halokati.....	84
8 – §. Amir Temur davlati va Temuriylar davrida fan va madaniyatning yuksalishi...	98
9 – §. Movarounnahr Shayboniyalar va Ashtarxoniyalar sulolasasi hukmronligi yilarida	115
III Bob. Turkiston siyosiy tarqoqlik va rus mustamlakachiligi davrida	132
10 – §. Turkistonning amirlik va xonliklarga bo‘linib ketishi	132
11 – §. XIX asrda o‘zbek xonliklarida siyosiy boshqaruv, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot	148
12 – §. Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi. Milliy ozodlik harakati va jadidchilik	164
IV Bob. O‘zbekiston sovet hokimiyati yillarida	182
13 – §. Turkistonda sovet hokimiyatining o‘rnatalishi	182
14 – §. 20 – 30-yillarda O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot	199

15 – §. Ikkinchı jahon urushi yillarida O‘zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi	220
16 – §. 1945 – 1985 yillarda O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti. “Qayta qurish” siyosati va SSSRning parchalanishi	235
V Bob. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston rivoji.....	250
17 – §. O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi. Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi.....	250
18 – §. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning iqtisodiy, ma’naviy va madaniy hayoti	266
19 – §. O‘zbekistonning tashqi siyosati va xalqaro aloqalari	283
Muhim tarixiy voqealar	298
ADABIYOTLAR	316

“O‘tmishga berilgan baho albatta xolisona, eng muhimi,
turli mafkuraviy qarashlardan xoli bo‘lishi zarur”.
Shavkat Mirziyoyev

Kirish

Uch ming yillik milliy davlatchiligik an'analariga ega bo‘lgan O‘zbekistonda hozirgi davrda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ulkan o‘zgarishlar va islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqida shunday degan edi: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”. Yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, haqiqatga tashna, xalq manfaatlari yo‘lida kurashuvchan vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashda esa, eng avvalo, ijtimoiy-gumanitar fanlarning, xususan, tarix fanining ahamiyati va roli nihoyatda kattadir. Chunki ijtimoiy ongda tarixiy xotirani ilmiy asoslarda shakllantirish va doimiy ravishda rivojlanirish asosidagina yosh avlod vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda erkin, tanqidiy dunyoqarashn, demak-ki, fuqaroviylar madaniyat, fuqaroviylar pozitsiya shakllanishi va rivojlanishi qat’iy negizlarga ega bo‘lishi mumkin. Tarixni teran anglash, murakkab ijtimoiy-tarixiy jarayonlarni har tomonlama o‘rgansh – odamlarda ertangi kunni belgilovchi bugungi kunni, undagi jarayonlarni tushunishga xizmat qiladi va kelajakka ishonch ruhini shakllantiradi. Zотан, “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab – avaylash, o‘rgansh va avlodlardan avlodlarga qoldirish

davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir”.¹ Shu bois mazkur darslik bo‘lg‘usi yuridik kadrlarda O‘zbekiston tarixini har tomonlama va chuqur o‘rganshga, davlatchilik darajasida, milliy manfaatlar, davlatchilik kategoriyalari asosida fikr yurita oladigan ongli fuqarolarni tarbiyalashga yo‘naltirilgandir.

O‘zbekiston tarixi nihoyatda boy va murakkabdir. Zero milliy davlatchiligidan o‘zi deyarli uch ming yildan iborat bo‘lib, Vatanimiz eng qadimgi davrlardan jahon sivilizatsiyasining o‘choqlaridan biri bo‘lib kelgan. O‘zbekiston hududidan etishib chiqqan buyuk mutafakkirlar, olimlar, shoirlar va adiblar insoniyat madaniyatining rivojiga ulkan hissa qo‘shganlar. Buyuk madaniy meros, buyuk tarix esa hozirgi va keyingi avlodlar uchun faxr manbai bo‘lishi bilan milliy tarbiyaning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Vatanimiz tarixini o‘rganshda Prezident Shavkat Mirziyoevning quyidagi konseptual g‘oyalaridan kelib chiqish o‘rinlidir: “Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qaerda yo‘q. Bu merosni chuqur o‘rganshimiz, xalqimizga, dunyoga etkaza bilishimiz kerak”. Shu bilan birga o‘zbek davlatchiligi, o‘zbek sotsiumi tarixan o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan, u turli madaniyatlar kesishgan, va bir birlariga o‘zaro ta’sir ko‘rsatgan tarixiy chorrahalarda mavjud bo‘lib kelgan. Ya’ni, Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy taqdiri bir-birlariga azaldan bog‘liqdir.

Mazkur darslikni tayyorlashda O‘zbekiston tarixi, milliy davlatchilik va boshqaruv tarixi bilan bog‘liq bo‘lgan fanlararo yondashuv, dialektik-tizimli tahlildan foydalanishga harakat qilindi. Zero tarixiy jarayonlar iqtisodiy, siyosiy, madaniy, huquqiy va intellektual xarakterdagi (g‘oyalar, ta’limotlar, qarashlar, mafkuralar va b.) komponentlar va omillar birligidan, ularning o‘zaro ta’siridan iboratdir.

Darslikni tayyorlashda O‘zbekiston tarixining turli davrlariga oid tadqiqotlar olib borgan olimlarning asarlaridan foydalanildi. Xususan, A.R. Muhammadjonov,

¹ Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатътият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 – жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. 29-6.

E. Rtveladze, A. Asqarov, A. Sagdullaev, R. Sulaymonov, R.X. Murtazaeva, A. Ziyo, O‘. Movlonov, Q. Rajabov, D. Alimova, R. Abdullayev, Q. Usmonov, M. Sodiqov, X. Yunusova, R. shamsutdinov, M. Rahimov, sh. O‘ljaeyva, shaydullayev, N. Polvonov, S. Tillaboyev, T. Xudoyqo‘lov, B. Eshov, S. Saburova, X. Matyoqubov va boshqa olimlarning asarlari va tadqiqotlari darslik uchun manba bo‘lib xizmat qildi.

Darslik yuzasidan bildiriladigan barcha takliflar va mulohazalar TDYu “Umumta’lim fanlar” kafedrasida minnatdorchilik bilan qabul qilinadi hamda keyingi nashrlarda tayyorlashda albatta inobatga olinadi.

1 - §. O‘zbekiston tarixi fanining predmeti, manbalari va metodlari

O‘zbekiston tarixi fanining predmeti va ob’yekti. Tarix – arabcha so‘z bo‘lib, “o‘tgan voqealar haqida hikoya qilish” ma’nosini anglatadi. Zamonaviy fanda tarix atamasi fanda asosan uch xil ma’noda ishlatiladi: 1) koinot yaratilishi – Universal tarix yoki Katta tarix, 2) Er tarixi, 3) insoniyat, kishilik jamiyatining, u yoki bu jamiyatlar tarixi.

Har qanday fanni o‘rganshning, umuman, ilmiy haqiqatga erishishning boshlang‘ich va o‘ta muhim sharti – bu fanning tadqiqot ob’yekti va predmetini to‘g‘ri belgilash hisoblanadi. Chunki fanning ob’yekti va predmeti aniq bo‘lmasa, uning oldidagi asosiy funksiyalari chalkash bo‘lib, ob’yektiv bilimlarga erishish ham qiyinlashib ketadi. Ya’ni har bir fan o‘z tadqiqot predmetiga ega. Buyuk nemis faylasufi Gegel ta’kidlaganidek, predmetsiz fanning o‘zi ham bo‘lishi mumkin emas. Predmet fanning mustaqilligini, uning mavjud bo‘lish huquqini belgilab beradi.

Tarix fani maxsus-ilmiy bilimlar tizimi va tizimlashgan bilimlardan iborat mustaqil ilmiy sohadir. Tarix fani esa insonning sotsial evolyusiyasi, kishilik jamiyatining tarixiy rivojlanishi, uning qonuniyatları, tendensiyalari, o‘tmishdagi

voqealar va hodisalar, ularining omillari va sababiy aloqalarini o'rganadi. Bu esa tarix fanining predmetini tashkil etadi.

Tarix fani, mazmunan-mohiyatan, o'tmish haqidagi fan, ya'ni ilmiy bilimlar tizimi yoki tizimlashtirilgan ilmiy bilimlar sifatidagi ahamiyati hozirgi davr, bugungi kun o'tmishdagi rivojlanishning mahsuli ekanligi bilan namoyon bo'ladi. Ya'ni, kelajak bugundan boshlanar ekan, bugungi kun esa o'tmishdagi rivojlanishning natijasidir. Tarix o'tmish saboqlaridan kelajakni bilish uchun zarur, zero o'tmishda kelgusidagi rivojlanish manbalari yashiringna bo'ladi.

Tarix fani ijtimoiy-gumanitar tarkibiga kiruvchi fandir. Chunki tarix fanining ob'yekti boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar singari jamiyat hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, tarix fanining ijtimoiy-gumanitar fanlari bilan mustahkam va uzviy aloqa birligida rivojlanishi mumkinligini ko'rsatadi. Ayni vaqtda, tarix fani jamiyatni kompleks tarzda, ya'ni uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma'naviy-intellektal sohalari yaxlit dinamik rivojlanishini o'rganadi. Mazkur holat, birinchidan, tarix fanining ijtimoiy-gumanitar bilimlar sohasidagi o'rni va mavqeini belgilaydi. Ikkinchidan, tarix fanining keng qamrovligi va o'ziga xosligi tarixchilarga ulkan mas'uliyat yuklaydi, albatta. Ya'ni, tarixni xolisona o'rgansh o'z gnavbatida falsafiy, iqtisodiy, siyosiy, antropologik, sotsiologik sohalarga fundamental, nazariy bilimlarni taqozo etadi.

Tarix fani paydo bo'libdiki, tarixning mazmuni, uning mohiyati, umuman, tarix nima ekanligi haqidagi savollar doimo insonlarni qiziqtirib kelgan. Bu kabi savollarga turlicha javoblar ham mavjuddir. Tarixni tabiat, jamiyat va inson rivojlanishi jarayoni va insoniyat tarixini, uni turli tumanlikda va konkretlikda o'rganuvchi fanlar kompleksi sifatida ham tushunish mumkin.

Barcha ijtimoiy fanlar kabi tarixning markazida ham inson, uning faoliyati, voqealar va hodisalar sababiyati, determinizm va indeterminizm muammolari turadi. Ayni vaqtda, tarix ushbu muammolarni o'ziga xos tarzda o'rganadi. Boshqa ijtimoiy fanlarning ahamiyatini mutlaqo kansitmagan holda, ta'kidlash mumkinki, tarix – asosiy ijtimoiy fanlar, xususan, falsafa, sotsiologiya, iqtisod, siyosatshunoslik, huquqshunoslik, ayni vaqtda hatto adabiyot yoki jurnalistikani

fundamental faktlar, yaxlit tarixiy dunyoqarash bilan ta'minlaydi. Tarixiy faktlar va tarixiy bilimlarga suyanmaydigan har qanday ijtimoiy nazariyalar yoki ijtimoiy mavzularga bag'ishlangan har qanday badiiy asarlar va ommaviy axborot vositalardagi tahliliy maqolalar saviyasi keskin pasayadi. Ya'ni, tarixiy xotira universal ahamiyat kasb etganidek, tarixiy bilimlar ham umumilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy jarayonlarni ulardagi ichki ziddiyatlar va qarama qarshi tomonlari bilan ko'ra bilishda, tarixni yaxlit holda o'rganshda esa dialektika falsafiy metodologiya sifatida muhim ilmiy ahamiyatga egadir. Binobarin, voqelikning barcha sohalariga xos eng umumiyligi bog'lanishlarni va rivojlanishning eng umumiyligi xususiyatlarini dialektika – olamdagi umumiyligi bog'lanish va rivojlanish haqidagi ta'limot asosida tadqiq etish mumkin. Olamdagi umumiyligi bog'lanish va rivojlanishni tadqiq qilish bilan dialektika insonni o'rabi turgan dunyonni o'rganshga qanday yaqinlashish kerakligini belgilab beradi, ya'ni bilishning ilmiy metodi sifatidan namoyon bo'ladi. Agar doimo o'zgarishda bo'lgan dunyodagi, jamiyatdagi barcha hodisalar o'zaro universal bog'lanishda ekan, u holda biz o'rganayotgan hodisani tevarak-atrofni o'rabi turgan dunyo bilan chambarcha bog'lanishda, rivojlanishda deb qarash lozim. Boshqacha aytganda, hodisaning mohiyati va mazmunini tushunish uchun konkret tarixiy yondashish zarur. Bu talab barcha fanlar uchun majburiydir. Shuning uchun uchun ham dialektika metodologiya sifatida bizni bir yoqlama va qotib qolgan qarashlardan, dogmatizmdan ehtiyyot qiladi. U ziddiyatlar ziddiyatlarning tabiatini o'rganshga, tabiat va jamiyatdagi o'zaro bog'lanishlarni izohlab berishning yangi metodlarini, juda chuqurroq va to'laroq yo'llarini topishga o'rgatadi. Dialektika metodologiya sifatida har qanday mamlakat tarixini, xususan, O'zbekiston tarixini jahon tarixi bilan bog'liq holda o'rganshni taqozo etadi. Shu jihatdan dialektika tarix uchun falsafiy-metodologik asos bo'ladi.

Ijtimoiy-tarixiy jarayonlarini o'rganshni iqtisodiy bilimlarsiz ham tasavvur etib bo'lmaydi. Tarixning, oxir oqibatda, ob'yekтив iqtisodiy qonunlar asosida

rivojlanishini shunchaki inkor etib ham bo‘lmaydi. Chunki moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish har qanday tuzumning asosini tashkil qiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston tarixi bilan mazmun-mohiyati siyosat, huquq, siyosiy va huquqiy jarayonlar, siyosiy, huquqiy tizimlarni o‘rganshdan siyosatshunoslik (politologiya) va huquqshunoslik fanlari o‘rtasidagi munosabatlari nihoyatda o‘xshashdir. Chunki muayyan bir xalq, davlat, jamiyatning tarixiy rivojlanishi yoki tanazzuli, siyosiy omillar, siyosiy – huquqiy madaniyat darajasiga ham bog‘liqdir. Shuningdek, turli davrlardagi siyosiy inqiloblar, qo‘zg‘olonlar va urushlar ham muayyan kuchlar tomonidan olib borilgan siyosatning ham mahsulidir.

O‘zbekiston tarixi sotsiologiya fani bilan ham aloqadordir. Sotsiologianing ham tarix kabi tadqiqot ob’yekti va predmeti jamiyat, uning rivojlanishi qonuniyatlarining konkret ko‘rinishlari hisoblanadi. Tarixchi tarixiy hodisalar va faktlarni o‘rgainshda sotsiologiya usullairdan foydalanadi.

Xullas O‘zbekiston tarixi asosiy ijtimoiy fanlar, xususan, falsafa, iqtisod, siyosatshunoslik, huquqshunoslik va boshqa fanlar kompleksi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Tarix fani bir qarashda oddiy ko‘rinadigan, aslida esa inson mavjudligining negizlariga daxl qiladigan: Biz kimmiz va qaerdan paydo bo‘lgamiz? Biz nima uchun aynan shundaymiz? Bizning ildizlarimiz qaerga borib taqaladi? Biz o‘tmishda qanday yo‘lni bosib o‘tganmiz? Biz aynan nima uchun shunday yo‘lni qabul qilganmiz? singari muammolarga javob izlaydi.

Tarix – bu avvalo inson faoliyatining sohasi. o‘tmishdagi ulug‘ mutafakkirlar, olimlar (Sitseron, Platon, F. Bekon, N.M. Karamzin, I. Kant, G. Gegel, K. Marks, M. Behbudiy va boshqalar) tarixni bilishning naqadar muhimligi va zarurligini ilmiy jihatdan har tomonlama asoslاب berganganlar. Xususan, I.Kant insonning tarixni bilishga intilishi xususida shunday yozadi: “Insonning tabiat shundayki, u hatto olis zamonga ham loqayd qarab turolmaydi”.

Albatta, tarix singari serqirra va o‘ta murakkab ijtimoiy hodisaning mazmun-mohiyatini aniqlashda turlicha talqinlarni keltirish mumkin. Lekin, bizning

nazarimizda, tarixning mohiyatini aniq va qisqa tarzda ingliz tarixchisi v faylasufi Robin Jorj Kollingvud (1889–1943), o‘zining “Tarix g‘oyasi” asarida, “Tarix nima uchun kerak?” degan savolga oddiy, va ayni vaqtda, masala ko‘lamini yoritib bera oladigan darajada “Insonning o‘z-o‘zini bilishi uchun kerak” deb javob beradi.

Boshqacha aytganda, inson tarixni o‘rgansh orqali o‘z-o‘zini anglaydi, biladi. Insonning o‘z o‘tmishini, tarixini bilishga bo‘lgan huquqi ham mavjudki, bu hol tarix fanining o‘ziga xosligini, uning boshqa fanlardan biroz o‘zgachaligini ko‘rsatadi. Tarixni o‘rgansh orqali inson o‘zini o‘zi anglashga, bilishga intiladi va shu orqali insonning bilishga intiluvchan tabiatini namoyon qiladi. Odamlar bugunni kunni tushunish uchun tarixni o‘rganshadi, Chunki bugungi kunning sabablari o‘tmishda yashiringan bo‘ladi. Odamlar tarix saboqlaridan tegishli xulosa chiqarmas ekan, u holda ular tarixni takrorlashga majbur bo‘lib qoladilar. Shu jihatdan o‘z o‘tmishini bilmaydigan xalqning kelajagi bo‘lmaydi. Aynan mana shunda tarixning mahobatli ahamiyati namoyon bo‘ladi. Ayni vaqtda tarixiy hodisalar va jarayonlarga baho berganimizda bugungi kun nuqtai nazaridan emas, balki o‘sha davrdagi shart-sharoitlarni hisobga olgan holda yondashish ham talab etiladi.

Har qanday milliy davlatchilikning tarix sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tishining muhim bir shartlaridan – bu o‘z fuqarolarida tarixiy xotirani doimiy rivojlantirib borishdir. Tarixiy ong va tarixiy xotirasiz esa fuqarolarda vatanparvarlik sifatlarini, fuqaroviylar madaniyatni shakllantirib bo‘lish mumkin emas. Shuning uchun ham milliy davlatchilik tarixini xolis yoritish, nafaqat tarixiy muvaffaqiyatlar, balki fojiali davrlarni ham o‘rgansh, asosiysi esa bundan xulosalar chiqarishga o‘rgansh muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbek milliy davlatchiligining qachon paydo bo‘lganligi, u qanday rivojlanish bosqichlarni bosib o‘tganganligi, davlat qurilishiga doir tarixiy tajribalarimiz to‘g‘risida ertangi kunning egalari bo‘lgan yosh avlod aniq tasavvurlarga, ilmiy bilimlarga ega bo‘lmog‘i lozim. Zero, tarixiy bilimlar asosida yaxlit ilmiy dunyoqarash shakllanadi.

Muayyan voqealar va hodisalar bilan birga ularning orqasida turgan shaxslar, muayyan kuchlar ma'lum bo'lgandagina tarix chinakam tarixga aylanishi va shunda tarixiy jarayonlarni bilish, ularni nazariy tushuntirish mumkin. Faqat shunday tarixgina o'rgansh, bilish va tushunishga arziydi. Zero faqat shunday tarixdan hozirgi hayot uchun tegishli bilimlar nimadir o'rgansh mumkin.

Tarix ko'p qirrali, keng qamrovli bo'lib, uni alohida mamlakatlar va xalqlar tarixi, mintaqalar tarixi, jahon tarixi kabilarga bo'lib o'rgansh ham mumkin. Har qaysi mamlakat, har bir xalq o'ziga xos betakror bo'lganidek, O'zbekistonning tarixi ham juda boy va sermazmundir. Turon, Movarounnahr, Turkiston deb e'tirof etilgan Vatanimiz yozma va arxeologik manbalarga ko'ra insoniyatsivilizatsiyasining beshiklaridan bo'lganligi bilan ham mashhurdir.

O'zbekiston xalqi qadimiy tarix, boy madaniyati va ko'p asrlik ulkan davlatchilik tajribasiga egadir. Zero, O'zbekiston hududida dastlabki davlat tuzilmalari miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlaridayoq vujudga kelgan, ya'ni biz qariyb 3000 yillik milliy davlatchilikka egamiz. Albatta o'lkamizda tarixiy jarayonlar bir xil kechmagan. Vatanimiz tarixining shonli sahifalari bilan birga unda fojiali davrlari ham mavjuddir. Lekin nima bo'lganda ham "tarixdan kulni emas, balki cho'g'ni olish lozim". Uzoq va yaqin o'tmishtagi hodisalar, tarixiy shaxslar va ijtimoiy tuzumlarga baho berishda mana shundan kelib chiqish lozim. Ya'ni, tarixiy hodisalarga baho berilganda, o'sha davrdagi tarixiy shart-sharoitlar va oldin mavjud bo'limgan erishilgan muvaffaqiyatlar hisobga olinishi lozim. (Iqtisodiyot, boshqaruв samaradorligi, fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, ijtimoiy sohalar qanchalik rivojlanganligi yoki rivojlanmaganligi nuqtai nazaridan). Moziy o'zbek xalqining insoniyatsivilizatsiya va madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo'shganligidan guvohlik beradi. Jahon ilm-fani, islom dini va badiiy madaniyatining yorqin namoyandalari – Muhammad Muso al – Xorazmiy, Abu Nasr Farobi, Ahmad al – Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad iby Ismoil al – Buxoriy, Abu Iso at – Termiziy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin

Muhammad Bobur va boshqa minglagan allomalarimizning bebaho merosi nafaqat o‘zbeklar yoki turkiylarning, balki bashariyat mukiga aylangandir.

O‘zbekiston tarixi fanida xalqimizning eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kunlargaucha bosib o‘tgan boy tarixiy rivojlanish jarayoni, undagi barcha murakkabliklar va ziddiyatlar bilan o‘rganiladi. Shu bois mamlakatimiz tarixini o‘rganshda tarixiy jarayonlarni ob’yekтив tahlil qilishda Vatan, ya’ni xalq ommasi, ya’ni undagi katta ko‘pchilikni tashkil qiladigan mehnatkash insonlar manfaatlari nuqtai nazaridan yondashish ham juda muhimdir. Chunki tarixni harakatga keltiruvchi kuch, uning haqiqiy ijodkori baribir xalq ommasi sanaladi. Xalq jamiyatda yaratiladigan barcha moddiy ne’matlar va boyliklarning asosiy yaratuvchisidir. Shuning uchun ham Vatan tarixini o‘rganshda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning, “Xalq dardi bilan yashash lozim” deb ta’kidlashi muhim nazariy mo‘ljal va metodologik tamoyil vazifasini bajaradi.

O‘zbekiston tarixini o‘rganshda uni davrlashtirishning ahamiyati kattadir. Sovet davrida insoniyat tarixi besh formatsiyaga: ibridoij jamoa tuzumi, quidorlik tuzumi, feodalizm, kapitalizm, sotsializmga bo‘lingan. Bunday davrlashtirish tarix o‘zining ob’yekтив qonunlari asosida rivojlanishini ko‘rsatish, ijtimoiy formatsiyalar almashinuvi, oxir oqibatda, sotsializmga, kommunizmga olib kelishini asoslash edi. Ammo ijtimoiy–tarixiy amaliyot sovet marksizmining bunday nazariy sxemasini isbotlamadi. Sotsialistik tizimning inqirozi va SSSRning barham topishi sovet marksizmining nazariy-metodologik jihatdan zaifligini ko‘rsatdi.

Hozirgi davrda tarixiy jarayonlarni davrlashtirishda turlicha yondashuvlar mavjud. Dialektik metodologiya nuqtai nazaridan esa tarix muayyan qonunlar asosida spiralsimon tarzda rivojlanadi.

Ana shulardan kelib chiqqan holda O‘zbekiston tarixini quyidagicha davriylashtirish mumkin:

- Ibtidoiy jamoa tuzumi

- Ilk davlatlarning vujudga kelishi, sinflar, ijtimoiy tabaqalanishning paydo bo‘lishi
- O‘rta asrlar yoki feodal-patriarxal munosabatlar davri
- Rossiya imperiyasining mustamlakachilik davri
- Sovet davri
- Mustaqillik davri

Tarixni o‘rganshning manbalari va metodlari. Tarixiy manbalar – bu tarixiy jarayonni bevosita ifodalaydigan va insoniyat tarixini o‘rganshga imkon beradigan barcha ob’yektlar bo‘lib ularni quyidagilarga ajratish mumkin:

1.Yozma manbalar. Yozuvning eng qadimgi ko‘rinishi ibtidoyi odamlar tomonidan qo‘llanilgan piktografiya, ya’ni rasm–yozuvdir. Aynan shunday yozuvdan ierogrif yozuvlar paydo bo‘lgan. Fikr predmetlar, so‘z iboralar yoki so‘zlar ifodalanadigan yozuv emas, balki til tovushlarini ifodalaydigan yozuvlar ham chuqur uzoq tarixda vujudga kelgan. Birinchi alifboning yaratuvchilari miloddan avvalgi 1200 yilda O‘rta er dengizining sharqiyo sohillarida yashagan finikiyaliklar edi.

Yozma manbalar – bu qadimgi yilnomalar, esdaliklar, maqolalar, ishlab chiqarishga oid hujjatlar, statistik materiallar, toshga, daraxt po‘stloqlariga, pergamentlar, teriga, sopol idishlar va qog‘ozga yozilgan matntlar, diniy va dunyoviy mazmundagi kitoblar, farmonlar, diplomatik yozishmalar, rasmiy, iqtisodiy va maishiy xarakterdagи turli hujjatlar, davlat arxivlari. Shuningdek, muhim yozma tarixiy manbalar qatoriga badiiy adabiyotni ham kiritish mumkin. Zero yozuvchilar va shoirlarning asarlarida u yoki bu davrdagi turmush, axloq, dunyoqarash va ijtimoiy kayfiyatlar aniq tarzda ifodalanishi mumkin.

2.Moddiy manbalar. Tarixiy jarayonlarni o‘rganshda o‘ta muhim o‘rin tutuvchi moddiy manbalarga ibridoiy odamning mehnat qurollari, harbiy aslahalar va qurol-yarog‘lar, tangalar, taqinchoqlar, uy-joylar, qabrular, idish – tovoqlar, devoriy tasvirlar, qal’alar, binolar, ya’ni kishilik tarixini o‘rganshga yordam beradigan barcha predmetlar kiradi.

3.Etnografik manbalar. Ushbu toifadagi manbalarga turli xalqlarning madaniy, diniy, maishiy an'analari kiradi. o'tmish ajdodlardan avlodlarga qolgan, tarixiy xotiraning muhim tarkibiy qismlaridan bo'lган урф-одатлар, ijtimoiy me'yorlar, xulq atvor, har xil bayramlar etnografik manbalarning asosini tashkil qiladi.

4.Og'zaki manbalar. Ushbu tipdagи manbalar bilan har bir odam duch keladi. Chunki har bir inson o'zining ota – onasi, buva va buvilarining xotiralari orqli ham o'tmish xususida muayyan tasavvurlarga ega bo'lib boradi. Zero, o'tmish voqealari insonlarning ko'z o'ngida sodir bo'lган (Ikkinchi jahon urushi, "sotsializm davridagi hayot", "Qayta qurish davri" va b.) va ularning xotiralarida saqlanib qoladi. Ayniqsa, tairxiy ahamiyatga ega bo'lган hodisalar, jarayonlarning shaxsiy ishtirokchilari hamda kuzatuvchilarining og'zaki hikoyalari, hatto-ki jiddiy tarixiy tadqiqotlarning asosi va manbalaridan biri bo'lishi mumkin.

5.Lingvistik manbalar. o'tmish haqidagi xotiralar, bilimlarni nafaqat odamlar xotirasida, balki tilda ham saqlanadi. Aynan shuning uchun ham lingvistik manbalarni aldochida ajratish mumkin. Masalan, biror bir hayvon yoki o'simlik nomining kelib chiqishining tahlili asosida muayyan etnoslar uzoq tarixda qayerlarda yashaganliklari to'g'risida xulosalar chiqarishga izn beradi.

6.Audiovizual hujjatlar foto-, kino-va videohujjatlar, tovush yozuvlarini ifodalab ulardagi materiallar o'ziga xos tarzda "vaqtни to'xtatib qo'yadi". Tarixni o'rgansh va tadqiq qilish muayyan metodlar, ya'ni ilmiy asoslangan qoidar va usullar orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtida tarix fanida asosiy metodlar quyidagilardan iboratdir:

- **tasvirlash metodi** orqali har qanday tarixiy tadqiqot boshlanadi. Chunki tasvirlash – hodisalar mohiyatini tushunishning muhim asoslaridan va shartlaridan biridir.
- **biografik metod** eng qadimgi metodlarda biridir, zero o'tmishda tarix buyuk shaxslarning biografiyasi safatida tushunilgan. Bu metod tarixiy jarayonlarda shaxsni uning hayoti va faoliyatini har tomonlama o'rganshga asoslanadi.

– **qiyosiy-tarixiy metod** tarixni bilishda eng ko‘p qo‘llaniladigan metodlardan bo‘lib u o‘rganilayotgan hodisalarining o‘zaro farqli va o‘xshash jihatlarini topishga asoslanadi, umumiylig va alohidalikni qiyoslash orqali tarixiy jarayonning tendensiyalari va bosqichlarini aniqlashga imkon beradi.

– **retrospektiv metod** o‘tmishga munosabatni, qarashni xarakterlaydi va zamonaviylikdan o‘tmishga qaratilgan tadqiqotchining fikrini faollashtiradi, shuningdek, oldingi tarixiy tadqiqotlarda ilgari surilgan xulosalarni zamonaviy fan ma’lumotlari asosida tekshirishga imkon beradi.

– **terminologik tahlil metodi** faktlar, voqealar va hodisalarни o‘rgansh maqsadida tilda mustahkamlangan atamalar va tushunchalarni tahlil qilish orqali tarixiy terminologiyani egallashni anglatadi.

– **statistik metod** ijtimoiy hayotga oid jarayonlar va hodisalar haqidagi ommaviy miqdoriy ma’lumotlarni to‘plash, o‘lchash va tahlil qilishga asoslanadi.

– **muammoviy-xronologik metod** katta hajmli mavzularni har birini xronologik ketma ketlikda bir qator tor muammolarga ajratishga yordam beradi.

– **strukturaviy-tizimli metod** asosida jamiyat doimiy o‘zaro aloqadorlikda va o‘zgarishda bo‘lgan bir qancha turli xil (iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, mafkuraviy va shu kabi) aloqalardan iborat murakkab tizim sifati o‘rganiladi.

Demak, tarixni o‘rgansh metodlari va manbalari tarixiy haqiqatni bilishga yordam beradi.

Savollar va topshiriqlar

- 1.“Tarix” tushunchasi va uning namoyon bo‘lish shakllari.
- 2.O‘zbekiston tarixi fanining predmetini aniqlang.
- 3.Tarixiy manbalar tarixni o‘rganshda qanday ahamiyatga ega?
- 4.Etnografik manbalarga nimalar kiradi?
- 5.Tarixni o‘rganshda retrospektiv metodning ahamiyatini tahlil qiling.
- 7.Tarixni o‘rganshda yozma manbalar qanday ahamiyatga ega?
- 8.Statistik va strukturaviy metod mazmunini yoriting.
- 9.Tarixni o‘rgansh va tadqiq qilishda metodlarning ahamiyatini tahlil qiyin.

I Bob. O‘rta Osiyoda ibtidoiy jamoa tuzumi va ilk davlatlar


2 – §. O‘zbekiston hududida ibtidoiy jamoa tuzumi

Antroposotsiogenez. Hozirgi davrda ilmiy nuqtai nazardan O‘rta Osiyo insoniyatsivilizatsiyasining beshiklaridan, insonning kelib chiqishi va evolyusiyasi kechgan hududlardan biri ekanligini inkor qilib bo‘lmaydi. Zero O‘rta Osiyo hududlarida olib borilgan keng miqyosdagi tadqiqot ishlarining natijalari shuni ko‘rsatadi.

Mehnat qurollari umumnniki bo‘lgan va umumiy turmushga ega bo‘lgan insoniyatning dastlabki bosqichi ibtidoiy jamoa tuzumi deyiladi. Ibtidoiy jamoa tuzumi – kishilik jamiyati tarixining boshlang‘ich va tarkibiy qismi bo‘lib, u juda katta davrni o‘z ichiga oladi. Ibtidoiy jamoa davri kishilari ibtidoiy to‘da va urug‘– aymoqchilik deb atalgan ikki davrni o‘z boshlaridan o‘tkazganlar. Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixchilar tomonidan asosan moddiy manbalar asosida o‘rganilgan.

Bizning o‘lkamizdan odamzotning qadimgi ajdodlari faoliyatları to‘g‘risida ko‘pdan ko‘p tarixiy materialllar topilgan. O‘rta Osiyo da, xususan, O‘zbekistonda odamzotning ilk faoliyati ashelb davriga (yaqin bir million yilga) tegishli ekanligi aniqlangan. Ibtidoiy jamoa tuzumi – kishilik jamiyati tarixining dastlabki davri bo‘lib u juda katta vaqtini o‘z ichida qamrab oladi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi kishilik jamiyati taraqqiyotining eng uzoq davom etgan davri bo‘lib, u bir necha million yillarni qamrab oladi. Biroq, ibtidoiy jamoa tuzumining boshlanishi dunyoning turli hududlarida turli davrlarga to‘g‘ri keladi. Masalan, Afrikada bu davr 2,5 – 3 million yil ilgari boshlangan bo‘lsa, Amerikada 40-30 ming yil ilgari deb taxmin qilinadi. Agar biz uzoq o‘tmishga, nazar tashlaydigan bo‘lsak, er yuzasida qanday o‘zgarishlar paydo bo‘lganligini, odamlar qiyofasi o‘zgarib borganligini, bir ijtimoiy tuzum o‘rniga boshqasi kelganligini tasavvur qilish mumkin.



Inson evolyutsiyasi

O‘zbekiston kishilik madaniyati tarixining, insonning kelib chiqishi (antropogenez) maskanlaridan biridir. O‘rta Osiyoda ibtidoiy jamoa tuzumi davriga oid tadqiqotlar A. Okladnikov, V. Masson, V. Ranov, Ya. G‘ulomov, O. Islomov, A. Asqarov, A. Sagdullaev, M. Qosimov va boshqalar tomonidan olib borilgan. Ularda mintaqada ibtidoiy odamning tarqalish jarayoni, toshdan quollar yasash uslublari, xo‘jalikning rivojlanishi, xo‘jalik turlari, metalldan foydalanish, uning hunarmandchilikka kirib kelishi muammolri o‘rganilgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat tarixining eng qadimgi davri bo‘lish bilan birga, u eng uzoq davom etgan davr hamdir. Bu davrni o‘rganshning o‘ziga xos hususiyati, uni qadimgi mualliflar qoldirgan yozma manbalar asosida o‘rganib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham bu davr tarixini o‘rganshda arxeologiya, antropologiya, etnologiya kabi fanlarning ahamiyati kattadir. Bu fanlar to‘plagan materiallarni solishtirish usuli bilan uzoq o‘tmishdagи moddiy va ma’naviy madaniyatning ko‘pgina tomonlarini tiklash mumkin.

Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixini o‘rganshning muhim muammolaridan biri – antrpogenez, ya’ni odamning kelib chiqishi muammosidir.

Ibtidoiy jamiyat rivojlanishi quyidagi davrlarga bo‘linadi:

1. Paleolit (“palayos” - qadimgi, «litos»-tosh) davri. Paleolit uchga bo‘linadi;

- a) ilk paleolit Ashel davri, bundan 700-300 ming yilni o‘z ichiga oladi;
 - b) o‘rta paleolit – Mustye davri, miloddan avvalgi 300 – 100 ming yillar ilgari bo‘lib o‘tgan ming yilliklar;
 - v) so‘nggi paleolit – miloddan avvalgi 40 – 12 ming yillik.
2. Mezolit (“mezos” – o‘rta, “litos” – tosh) miloddan avvalgi 12 – 7 ming yilliklar.
 3. Neolit (“neos” - yangi tosh) – miloddan avvalgi 6–4 ming yilliklar.
 4. Eneolit (mis – tosh davri)g‘miloddan avvalgi 4 ming yillikning oxirig‘3 ming yillikning boshi.
 5. Bronza davri – miloddan avvalgi 3–2 ming yilliklar.
 6. Temir davri – miloddan avvalgi I ming yillikning boshlaridan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixini o‘rganshning muhim muammolaridan biri – antrpogenez, ya’ni odamning paydo bo‘lishi va uning evolyusiyasidir.

Insoniyatning kelib chiqishi va rivojlanishi antropologlar tomonidan o‘rganilib kelinayotgan bo‘lsada, ammo insonning kelib chiqishi – antropogenez muammozi hali to‘la to‘kis echimiga ega emas. Hozirda antropologlarining muayyan katta ismi odamzotning ilk vatani Afrika savannalari, Janubiy Afrika deb hisoblashadi. Shuning uchun ham odamlarning eng qadimgi manzilgohlari Afrika mintaqasidan topilgani ham bejiz emas.

1959-yili Luis va Meri Likilar Olduvay darasidan avstralopiteklardan farq qilmaydigan maymunsimon mavjudotning kalla suyagini topishga muvaffaq bo‘ldilar. Mazkur mavjudot miya qutisining hajmi 530 sm^3 bo‘lib, avstrolopiteklarnikidan katta bo‘lmagan. Ammo kalla suyak yotgan qatlamda oddiy tosh qurollarning mavjudligi uni avstorlopitek maymuni emas, balki Yava pitekantropiga nisbatan ilgariroq yashagan maymunsimon odam deb aytishga imkon berdi. Tadqiqotchilar bu odamga “zinjantrop”, – deb nom berishdi. Avtrolopiteklar (“janubiy maymun”) oilasiga mansub ushbu turdagি odam – “Ishbilarmon odam” yoki “Homonabilus” tipiga kiradi.

1890 – 1891 yillarda golland vrachi E. Dyubua Indoneziyaning Yava orolidan qadimgi odamlar suyak qoldiqlari topadi va ular fanda “pitekantrop” (grekcha pithecos – “maymun”, ya’ni maymun odam) deb nomlanadi.

Pitekanthroplar taxminan 1 mln. – 700 – 600 ming yil ilgari yashagan. Pitekanthroplar Janubiy, Sharqiy Osiyo, Yevropaning janubiy va Afrika qit’asiga tarqalganlar.

1927 – yili eng qadimgi xitoy odami “sinantrop” – “xitoy odami” bosh suyagi topiladi. G‘ordan sinantrop qoldiqlari bilan bir qatlamda tosh quollar, gulxan qolddiqlari yirik va mayda hayvonlarning sindirilgan hamda kuygan suyaklari topilgan. Bu hol sinatropharning pitekanthrop va olduvaydag‘i “ishbilarmo‘n odamga” nisbatan taraqqiy etganligini ko‘rsatadi. Sinatropning bo‘yi 144 – 156 sm, peshonasi past qiya bo‘lgan. Pitekanthrop miya qutisining hajmi 850 – 950 sm³ bo‘lsa, sinantropning esa 1050 – 1200 sm³ ga teng. Ya’ni, sinantrop miyas hajmi pitekanthrop miya hajmidan katta, lekin hozirgi odami miya qutisi hajmidan kichikdir. Sinantroplar bundan 500 ming yillar ilgari yashaganlar.

Garchi antropologiya jadal rivojlanayotgan, yirik kashfiyotlar qilinayotsada ammo mabiatning eng murakkab mavjudoti bo‘lgan insonning kelib chiqishi va evolyusiyasi to‘liq o‘rganilgani yo‘q. Umuman, antropologiyada inson genezisi to‘g‘risida yaxlit qarashlar hali shaklanmagan. Ammo shunday bo‘lsada jadal rivojlanayotgan antropologiya ma’lumotlariga ko‘ra aytish mumkinki, avtropolitek, zinjantrop, pitekanthrop, sinantrop, neandertal, kromanlon insonning inson sifatida shakllanishida bioijtimoiy evolyusiyaning turli bosqichlarini ifodalaydi. Eng qadimgi odamlar gavdalarini tik tutib yurishlari va mehnat quollaridan foydalanishlari bilan hayvonot olamidan ajralib turishgan.

Mehnat jarayonining murakkablashishi va mehnat quollarining takomillashib borishi insonning biosotsial evolyusiyasining asosiy omillaridan bo‘ldi. Ya’ni, mehnat jarayoni natijasi insonning jismoniy ko‘rinishida va uning tabiatida, miya hajmi va uning tuzulishida o‘zgarishlar bo‘lib borgan. Inson, eng avvalo, mehnat tufayli tabiatga ta’sir ko‘rsatib va ushbu jarayonda uning ong, oliy nerv tizimi rivojlanishi natjasida qiyofadai odamga aylana bordilar. Bu bilan antropogenez antropogenez jarayoni o‘zining yakuniga etdi. Insonning

evolyusiyasi tabiatning buyuk hodisalardan biri, tabiat inosn orqali zini o‘zi anglaydi, deyish mumkin.

O‘tgan asrning 80–yillarida arxeolog O‘. Islomov boshliq tadqiqotchilar Farg‘ona vodiysidagi Selung‘ur (So‘x tumani) g‘oridan paleolit davri makonini ochishga muvaffaq bo‘ldilar. So‘nggi tadqiqotlar natijalariga qaraganda Selung‘ur ilk paleolit davriga oid bo‘lib o‘n uchta madaniy qatlardan iborat. Bu qatlardan juda ko‘plab tosh qurollar topilgan bo‘lib, ular Olduvay qurollariga o‘xshashdir. Tadqiqotchilar fikricha, Selung‘ur topilmalarining yoshi 1 mln. yildan ziyodroqdir. Selung‘ur topilmalari orasidan eng ahamiyatlisi qadimgi odam jag‘ suyaklari, tishlari va elka suyaklaridir. Fanda “Farg‘ona odami” – “Fergantrop” deb nomlangan odam qoldiqlari eng qadimgi odam haqidagi ilmiy bilimlarni yanada kengaytirdi va ayni vaqtda O‘rtal Osiyo, xususan, O‘zbekistonning insonning kelib chiqishi va rivojlanishi mintaqlaridan ekanligini isb otlaydi.

Bundan tashqari Ko‘lbuloq manzilgohi (Toshkent viloyati) ham ko‘p qatlamlar yodgorlik topilgan bo‘lib, uning eng pastki qatlamlari ilk paleolit davriga oiddir. Shuningdek, Qizilolmasoy va Toshsoy (Ohangaron) makonlaridan ham ilk paleolit qatlamlari ochilgan hamda bu erdan 100dan ziyod chopper, nukleus, qirg‘ich va tarashlag‘ich tosh qurollar topilgan.

Tadqiqotchilar Tyan-Shan etaklaridagi Onarcha (Qirg‘iziston) makonidan hamda Pomir etaklaridagi Qoratov (Janubiy Tojikiston) makonlaridan ham ilk paleolit davri qatlamlarini aniqlab juda ko‘p tosh qurollarni topganlar.

Ilk paleolit (Ashel madaniyati) davri eng qadimgi odamlarning makonlaridagi topilmalarida sodda va qo‘pol tosh qurollar ko‘pchilikni tashkil etadi. Bu davr odamlarining qurollari primitivligi, turlarining kamligi jihatidan keyingi davrlardan keskin farqlanadi. Ilk paleolit davri odamlari asosan termachilik va ovchilik bilan tirikchilik o‘tkazganlar hamda tabiatda mavjud bo‘lgan tayyor mahsulotlarni o‘zlashtirib yashaganlar. Ularda mehnat taqsimoti bo‘lmaganligi sababli hunarmandchilik va chorvachilik mavjud bo‘lmagan.

O‘rta paleolit (Mustye madaniyati) – qadimgi tosh asrining tarkibiy qismi bo‘lib, miloddan avvalgi 100 – 40 ming yilliklarni o‘z ichiga oladi. Bu davrga oid ilk Teshiktosh (Surxondaryo) g‘ori 1938-yilda akademik A. Okladnikov o‘rgangan. Keyinchalik O‘rta Osiyoda o‘rta paleolit davriga oid Omonqo‘ton (Taxtaqoracha Dovoni, Samarqand), Qo‘tirbuloq va Zirabuloq (Zarafshon vodiysi), Qorabura (Vaxsh vohasi), Jarqurg‘on (Shimoliy Tojikiston), Obirahmat (Toshkent viloyati), Ko‘lbuloqning yuqori qatlamlari (Toshkent viloyati) Qizilnur (Qizilqum), Og‘zikichik (Tojikiston), Xo‘jakent (Toshkent viloyati), Qopchig‘ay (Qirg‘iziston) kabi manzilgohlar o‘rganildi.

O‘rta Osiyo hududlarida o‘rta paleolit Surxondaryodagi (Boysuntog‘) Teshiktosh g‘ori topilmalari arxeologiya fanida juda mashhurdir. O‘rta paleolit davriga mansub Teshiktosh manzilgohida 8 – 9 yashar bolaning skelet suyaklari topilgan. U neandertal tipidagi qadimgi odam vakilidir. Bu bola dafn etilganda ibridoiy dafn marosimlariga amal qilinib jasad atrofida tog‘ echkisi shoxlari qadab qo‘yilgan. Shuningdek, g‘or-makondan gulxan izlari va qo‘l qoldiqlari topilib, gulxan o‘rni va atroflaridan tog‘ echkisi suyak qoldiqlari aniqlangan, 3000 ga yaqin tosh qurollar, turli hayvonlar: qoplon, yovvoyi ot, eshak, quyon va turli qushlarning suyak qoldiqlari topilgan.

O‘zbekiston hududida qadimgi odamlarning ilk manzilgohlaridan biri, Toshkent viloyatidagi Obirahmat manzilgohi (miloddan 120 – 40 ming yilliklar) dir. Unda yashagan ibridoiy odamlar terib-termachlik va ovchilik bilan shug‘ullanishgan. Shuningdek, bunday manzilgoh Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on hududidan (Qo‘tirbuloq)dan ham topilgan.

O‘rta paleolit (muste) asri boshlanishi bilan O‘rta Osiyoda tabiiy-iqlim sharoitlari keskin o‘zgargan. Muzlik davrida O‘rta Osiyo Evroosiyo shimaliga nisbatan muzlamasa ham, sovib ketgan edi. Buning ta’sirida qadimgi odamlar turmushida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Odamlar muzlik bosib kelinsh bilan uyjoy zarur bulib kolib, odamlar tabiiy pana joylar – g‘orlarda yashashga harakat kilganlar.

So‘nggi paleolitda (miloddan avvalgi 40 – 12 ming yilliklar) ibtidoiy odamlarning hayot tarzida va mehnat quollarini tayyorlashda sifatiy va miqdori o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bu davrda ibtidoiy to‘da o‘z o‘rnini urug‘chilik jamoasiga bo‘shatib bera boshlaydi. So‘nggi paleolitda antropogenez jarayoni yakuniy bosqichga etadi, ya’ni hozirgi odamga o‘xhash kromanbon tipidagi odam paydo bo‘ladi. O‘rta Osiyoda so‘nggi paleolitga oid 30 dan ziyod manzilgohlar aniqlangan. Toshkent viloyatida (Ohangaron) joylashgan Ko‘lbuloq manzilgohi ham so‘nggi paleolit davriga oiddir. So‘nggi paleolitda odamlar turmushida muhim o‘zgarishlar ro‘y beradi. Xususan, odamlar chaylalar va yarim erto‘lalarda yashay boshladilar. Ular tekisliklarda, daryo va ko‘llar bo‘ylarida joylashadilar hamda urug‘chilik jamoalariga bo‘linadilar. Juft oilalar paydo bo‘ldi va ular ayrim urug‘larni birlashtirgan urug‘ jamoasini tashkil etadilar. Bu vaqtida matriarxat – ona urug‘i hukmronlik qilgan.

So‘nggi paleolitda odamlar ovchilik va baliqchilikka o‘tdilar. Olovdan foydalanish kashf etildi. Ibtidoiy to‘da davridan urug‘chilik tuzumiga o‘tildi. Mehnat qurollari takomillashdi, ularning turlari ko‘paydi. Bu davrda ilk diniy-mifologik tasavvurlar to‘liq shakllanadi. Ammo diniy-mifologik tasavvur elementlari neandertallarda ham mavjud bo‘lgan. Masalan, Teshiktosh g‘oridan topilgan 8 – 9 yashar neandertal bolaning qabrga ko‘milishi, hayvon shoxlarining qadab qo‘yilishi va tosh quollar bilan birga dafn etilishi shuni ko‘rsatadi.

Mezolit (o‘rta tosh) asri O‘rta Osiyoda miloddan avvalgi 12 – 7 ming yilliklarni qamrab oladi va bu davrda odamlar er yuzi bo‘ylab tarqala boshlaydi. O‘rta Osiyoda mezolit davri yodgorliklari Machay (Surxondaryo), Obishir (Farg‘ona), Markaziy Farg‘ona, Bo‘zsuv, Qo‘shilish (Toshkent), Aydabol, Jayronquduq (Ustyurt), Oshxona, Chilchorchashma (Tojikiston) va Darai sho‘r (Vaxsh vohasi) kiradi.

O‘rta Osiyoda mezolit davrida muzlikning chekinishi sababli iqlim mo‘‘tadillashadi. Ayni vaqtida tabiatdagi bu o‘zgarishlar odamlar hayotida ham o‘zgarishlar olib keladi. Bu davrda odamlar oldingi davrga nisbatan yanada

murakkabroq bo‘lgan mehnat quollarini tayyorlashni o‘rganadi. Xususan, mikrolitlar (mayda tosh quollari) paydo bo‘ladi, o‘q – yoy kashf etiladi.

Mezolit davrida xo‘jalik yuritish faoliyatining muhim yutuqlaridan it, qo‘y, echkilarning qo‘lga o‘rgatilishi, xonakilashtirilishi bo‘ldi. Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra mezolit davriga kelib Old, Yaqin va O‘rta Osiyoning ba’zi joylarida terib-termachlashdan yovvoyi o‘simliklarni xonakilashtirishga va ovchilikdan chorvachilikka o‘tish boshlanadi. Bu jarayon mehnat quollarining takomillashuvi va tabiiy-geografik iqlim sharoitlari bilan bog‘liq edi.

O‘zbekiston hududida mezolit davriga oid qadimgi odamlar manzilgohlaridan biri Surxon vohasidagi Machay (Boysun) g‘oridir. Daryo sathidan 70 metrcha balandlikda joylashgan manzilgoh ko‘p madaniy qatlamlili bo‘lib, ushbu qatlamlardan ko‘plab suyak va asosan tosh quollar topilgan. Suyak quollar bigiz, igna, so‘zan kabilardan iborat bo‘lsa, tosh quollar – pichoqlar, arrasimon quollar, kesgichlar, ushatgich toshlar, nayza va o‘q uchlaridan iboratdir. Ushbu topilmalarning eng ahamiyatli tomoni shundaki, bu erdan ibtidoiy odamning bosh suyaklari, tishi, jag‘i va boshqa a’zolari qoldiqlari topilgan bo‘lib, bu topilmalarni o‘rgansh O‘rta Osiyoning janubi mezolit davri odamlarining evropoid irqiga mansub ekanligini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, Machay g‘oridan bo‘ri, tulki, bars, mo‘ynali suvsar, quyon, jayra, olmaxon kabi hayvonlarning ham suyak qoldiqlari topilgan bo‘lib, ularning aksariyati mayda, sindirilgan va olovda kuydirilgan. Bu esa machaylik manzilgohiga mansub odamlarning olovda go‘shtni pishirib eganliklarini ko‘rsatadi.

Farg‘ona vodiysidan mezolit davriga oid Obishir, Sho‘rko‘l, Achchiqko‘l, Yangiqadam, Bekobod, Zambar, Toypoqko‘l kabi 80 ga yaqin yodgorliklar mavjud. Ular asosan ko‘l yoqalaridan joylashgan. Chunki ko‘l atroflari qadimgi odamlarning yashashlari, oziq – ovqat topishlari uchun qulay bo‘lgan. Farg‘ona vodiysidagi mezolit davriga oid mehnat quollari, turli xil buyumlar paleolit davriga nisbatan murakkablig va takomillashgan.

O'rta Osiyo tarixida neolit davri - yangi tosh asri (miloddan avvalgi IV – III ming yilliklar) yodgorliklari Jaytun (hozirgi Turkmaniston), Kaltaminor (Qadimgi Xorazm hududi) va Hisor madaniyatları (Hisor–Pomir tog‘laridan topilgan) mansubdir. Bu davrda odamlar daryolar va ko‘l bo‘ylarida yashaganlar, baliqchilik, ovchilik, dehqonchilik va chorvachilik shug‘ullanishgan. Neolit davrida dehqonchilik va chorvachilik paydo bo‘ldi, kulolchilik, ip yigiruv va qayiq yasash kashf etildi. Ya’ni, neolit davrida mehnat qurollari oldingi mezolit davriga nisbatan takomillashib bordi.

O'rta Osiyoda mis – tosh (eneolit) davri miloddan avvalgi IV ming yillik oxiri – III ming yillik boshlarini qamrab oladi. Bu davr mehnat qurollari asosan toshdan, qisman yasalganligi sababli mis-tosh asri deb nomlanadi. Mis egiluvchanligi sababli mehnat qurollarida yasashda keng tarqalmaydi. Eneolit davrida dehqonchilik alohida xo‘jalik turiga aylanib bordi. Shuningdek, ushbu davrda odamlar jamoalari paxsadan va xom g‘ishtdan katta-katta uylarda yashashga o‘tishgan, xumdonlar, sopol buyumlar paydo bo‘lgan.

Eneolit davriga oid muhim yodgorliklar miloddan avvalgi IV ming yillikka oid Anov va Nomozgohtepa (Turkmaniston), miloddan avvalgi IV – III ming yilliklarda Kaltaminor madaniyati, Buxoro viloyatidagi Beshbuloq, Lavlakon va Zamonbobo manzilgohlari hisoblanadi. Ularda uy-joylar xom g‘ishtdan qurilgan. Mis qurollar tosh qurollarga nisbatan ustunlik qilmagan. Shuningdek, rangdor, turli tasvirlar bilan bezatilgan bilan bezatilgan sopol buyumlarining paydo bo‘lishi ham eneolit davri bilan bog‘liq.

Amudaryoning yuqori Uzboy irmog‘ida S.P. Tolstov 1930 yilda miloddan avvalgi IV – III ming yilliklarga tegishli 18 ta manzilgohni topib o‘rganadi va ularni “Kaltaminor madaniyati” deb ataydi. Bu erda yashagan odamlar tosh va suyaklardan yasalgan mehnat qurollaridan foydalanishgan, ovchilik va baliqchilik bilan shug‘ullanishgan. Shuningdek, “Kaltaminor madaniyati”ga o‘xshash sopol idishlar, chaqmoqtosh, misdan yasalgan ignalar va munchoqlar Buxoro viloyatidagi Lavlakon, Beshbuloq va Zamonbobo manzilgohidan ham topilgan.

Eneolit va bronza davriga yodgorlik Zarafshon vodiysida Tojikistonning O‘zbekiston bilan chegaradosh qishlog‘i – Sarazmdan topildi. Manzilgoh 90 gektardan iborat bo‘lib, u erda yashagan odamlar dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar. Sarazmda bir xonali va xom g‘ishtdan yasalgan ko‘p xonali uylar, ikkita ibodatxona va qishloq ko‘chalari ochildi. Qazishmalar natijasida uylar o‘rtasida oilaviy e’tiqod joyi, dumaloq shaklda ishlangan olovxona, torozi toshlari, to‘qimachilik dastgohining qismlari, urchuq toshlar, pichoq, xanjar, qarmoq, igna va bigizlar, sopol idish parchalari, mis oyna, taqinchoqlar topildi. Metall buyumlar yasash keng tarqalganligi aniqlandi. Kulolchilikda charx dastgohi kashf etilgan.

O‘rta Osiyoda bronza davri miloddan avvalgi III ming yillikdan I ming yillikning boshlarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanilgan. Mulkiy tengsizlik paydo bo‘la boshlaydi, odamlar metall ertishni o‘rganshgan. O‘zbekiston hududida bronza davri moddiy-madaniy yodgorliklari akademik S.P. Tolstov tomonidan Xorazmda aniqlangan bo‘lib ular “Tozabog‘yob” va “Amirobod madaniyati” nomi bilan mashhurdir. Tozabog‘yob madaniyatiga mansub sopol buyumlar Qozog‘iston va Sibir hududlaridan topilgan sopol buyumlarga o‘xshaydi, ammo dehqonchilik orqali farqlanadi. Shuningdek, Xorazmda so‘nggi bronza davriga oid Amirobod madaniyati (miloddan avvalgi IX – III asrlar) nomi bilan mashhur bo‘lib unda Tozabog‘yob madaniyati xususiyatlari saqlanib qoltingan bo‘lib, ular asosan yarim erto‘lalar, sopol idishlar va sug‘orish inshootlarida ifodalanadi.

Zamonbobo ko‘li (Buxoro viloyati Qorako‘l tumani) atrofida 1950 yillarda akademik Ya.G. G‘ulomov, 1960 yillarda esa A. Asqarov arxeologik qazishmalar olib borib, bronza davri manzilgohini o‘rganganlar. Mazkur manzilgohda 170 kv.m. iborat yarim erto‘la, shox-shabbalardan qurilgan ikki chayla, kulolchilik xumdoni va boshqa ashyolar topilgan. Bu erda yashagan odamlar dehqonchilik va xonaki chorvachilik bilan shug‘ullanishgan.

1969 – 1974 yillarda A. Asqarov rahbarligidagi arxeologlar Surxondaryoda miloddan avvalgi II ming yillik boshlari va o‘rtalariga oid bo‘lgan,

O‘zbekistondagi eng qadimgi dehqonchilik qishlog‘i bo‘lgan Sopollitepa yodgorligini o‘rgandilar. Bu erda yashagan aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanishgan. Sopollitepa paxsa va xom g‘ishtdan qurilgan bo‘lib uning hududi 4 gektardan iborat bo‘lib, markazda mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan to‘rtburchak shakldagi qal’a joylashgan.

Bronza davrida O‘rta Osiyoning ijtimoiy tuzumida ham o‘zgarishlar sodir bo‘lib o‘tdi. Bu davrda dehqonchilikdan chorvachilik ajralib chiqdi, matriarxiat, ya’ni ona urug‘i mavqeい pasayib ketdi. Xo‘jalik yuritishning yangi shakllari paydo bo‘lishi natijasida erkaklar etakchi mavqega ega bo‘la borishi natijasida ona urug‘i tuzumi (matriarxat) o‘rniga ota urug‘i (patriarxat) tuzumi keladi.

Ibtidoiy davr tasviriy san’ati. Insonning hayvonot olamidan ajralib chiqishi natijasida so‘nggi paleolitda ibtidoiy tasviriy san’at ham paydo bo‘lgan. San’at mehnat japayonining takomillashuvi, chuqurlashuvi va murakkablashuvi jarayoni natjacida paydo bo‘lgan. Mehnat japayonida incon, uning ongi, tafakkuri kamol topdi, insonda go‘zallik hicci optdi. Umuman san’at oddiy boyliklap bo‘lib qolmay, balki o‘zida incon aql-zakovati, hayot to‘g‘picidagi fikr-o‘ylapini akc ettipuvchi ko‘zgu hamdip. Shu jihatdan ibtidoiy san’at namunalarini o‘rgansh, uning rivojlanish qonunlapini tushunish, nodip yodgoplifik lap bilan tanishish, o‘tmish odamlapning hic-tuyg‘, hayotiyo tajpibalapini o‘pganish g‘oyaviy-ectetik qapashlap shakllanishining ilk bosqichini bilish demakdip.

O‘rta Osiyoda ung‘urlar va qoyatoshlarga ishlangan rasmlar mezolit davrida paydo bo‘lgan. Neolit davriga kelib esa rivojlangan bosqichga ko‘tariladi. Kaltaminor, Hisor, Joytun madaniyatiga mansub yodgorliklardan ibtidoiy san’atga xos namunalar topilgan. O‘rta Osiyoning tog‘lik hududlarida keng tarqalgan qoyatosh rasmlari ishlanish usuliga ko‘ra ikki xil bo‘lgan. Bir xillari bo‘yoq (oxra) bilan, ikkinchi xillari esa urib-o‘yib ishqlash, chizish usuli bilan ishlangan (petrogliflar) rasmlardir.

Ibtidoiy davrga oid tasviriy san’at g‘orlar va qoyatoshlarga chizilgan rasmlar, idishlarga har xil rangdagi bo‘yoq bilan turli naqshlar, odam va hayvon

tasvirlari iboratdir. Shuningdek, loydan yasalgan va olovda pishirilgan ayol haykalchalari ham ibtidoiy davr san'atining nodir namunalari hisoblanadi.

O'zbekistonda qoyatosh rasmlarning eng nodir namunalari Zarautsoy, Sarmishsov, Bironsov, Ko'ksaroy, Takatosh, Teraklisoyda topilgan. O'lkamizda ibtidoiy san'at namunalari yuzdan oshiq qadimgi manzilgohlarda uchraydi. Qoyatosh rasmlarida turli hayvonlar jumladan, buqalar, shyerlar, yo'lbarlar, qoplon, tulki, bo'rilar, bug'ular va jayronlar, shuningdek, ov va mehnat qurollari va boshqalar tasvirlangan.

Eng qadimgi rasmlar Zarautsoy (Surxondaryo) bo'lib, bu rasmlar mezolit-neolit, ya'ni mil avv. VIII – IV ming yilliklarga oiddir. Ibtidoiy san'atning eng rivojlangan bosqichi neolit davriga oiddir. Bu davr Joytun, Kaltaminor va Hisor madaniyatlariga mansub yodgorliklardan ibtidoiy san'atning juda ko'plab namunalari topilgan. Ibtidoiy tasviriy san'at orqali ibtidoiy odamlarning ov jarayoni, mehnat qurollarini, ularning hayotiy, estetik ehtiyojlari va diniy-mifologik e'tiqodlarini bilib olish mumkin.

Xulosa sifatida aytganda, O'zbekiston odamlar qariyb million yillar oldin yashab kelgan hudud sanaladi. Qadimgi odamlar o'zlarining tarixiy rivojlanishida ibtidoiy to'da, urug' jamoasidan iborat uzoq davrni bosib o'tib, ular oddiy tosh qurollari yasashdan metallni kashf etishgacha, metalldan mehnat qurollari, uy-ro'zg'or va turli buyumlari yashashgacha, hayvonlar terisini yopinib yurishdan kiyim tayyorlashgacha, g'orlarda yashashdan uy-joylar qurish, qishloq bo'lib yashashgacha bo'lgan davrni boshdan kechirdilar.

Savollar va topshiriqlar

1. Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat tarixida qanday o'rin tutadi?
2. O'rta Osiyo hududida ibtidoiy jamiyat rivojlanishi qanday tamoyillar asosida davirylashtirish?
3. O'rta Osiyoda o'rta paleolit davriga oid qanday manzilgohlar o'rganilgan?
4. So'nggi paleolit qaysi davrlarni o'z ichiga o'z ichiga oladi va unda insonlar hayotida qanday o'zgarishlar ro'y bergen?

5. Mezolit davri xo‘jalik ayoitda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lgan?
6. Eneolit davri qanday tarixiy-madaniy jarayonlar bilan bog‘liq?
7. Ibtidoiy davrga oid O‘zbekiston hududidagi qoyatosh rasmlari qayerlarda topilgan?
8. Bronza davrida O‘rta Osiyoda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lgan?
9. Matriarxatning patriarchat bilan o‘zgarishi qanday omillar ta’sirida amalga oshgan?

3-§. O‘zbek davlatchiligining tarixiy genezisi va rivojlanish bosqichlari. Ilk davlatlar va “Buyuk ipak yo‘li”.

O‘zbek milliy davlatchiligining tarixiy ildizlari: Qadimgi Xorazm va Baqtriya. Mavjud arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, Markaziy Osiyoda hozirgi O‘zbekiston hududida miloddan avvalgi II – ming yillik o‘rtalarida shahardavlatlar (Qadimgi Misrdagi nomlar singari) vujudga kela boshlagan. Miloddan avvalgi VIII – VII asrlarda mamlakatimiz hududida ilk davlat tuzilmalari, qabilalar konfederatsiyalari tuzila boshladi. Bu davrda, bir tomonidan, xo‘jalik yuritishning yangi shakllari paydo bo‘lib va mehnat qurollarining temirdan yasalishi natijasida qishloq xo‘jaligida mehnat unumдорligi oshgan, ortiqcha oziq-oqat zaxirasini vujudga kelgan, aholi o‘sib, ijtimoiy aloqalar va ijtimoiy munosabatlar murakkablashib borayotgan edi. Ikkinci tomonidan esa qabilalar hayotida harbiy sardorlar va oqsoqollarning nufuzi oshib, qabila boshliqlari zodagonlar qatlagini tashkil etayotgan edi.

Deyarli uch ming yillik tarixga ega o‘zbek milliy davlatchiligi Qadimgi Xorazm va Baqtriya davlatlari bilan bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘zbek davlatchiligining tarixiy ildizlari xususida shunday degan edi: “O‘zbek davlatchiligining tamal toshlari bundan 2700 yil muqaddam ayni Xorazm vohasida qo‘yilgan. Shu ma’noda, milliy

davlatchiligidan tarixi Misr, Xitoy, Hindiston, Yunoniston, Eron kabi eng qadimiy davlatlar tarixi bilan bir qatorda turadi. Xorazm tarixi o‘zbek davlatchiligining asosi, uning qudrati va qadimiyligining tasdig‘idir”².

Miloddan avvalgi VIII – VII asrlarda Qadimgi Xorazm va Baqtriya davlatlari shakllangan. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra Xorazm davlati Amudaryo quyi havzasidan Turkmaniston janubiga qadar hududlarni qamrab olgan.

Miloddan avvalgi IX – VIII asrlarga tegishli “Amirobod madaniyati”, quyi Amudaryo havzasida yuzaga kelgan o‘ziga xos sun’iy sug‘orish inshootlari tizimi hamda shahar-qal’alar – Qal’aliqir, Ko‘zaliqir, Jonbosqal’a va boshqalar – bular Xorazmda davlat tuzilmalari mavjudligidan dalolat beradi. Binobarin, murakkab yirik irrigatsiya tizimlarining qurilishi va ekspluatatsiyasi davlat singari siyosiy tashkilotning mavjudligi, davlat boshqaruvi asosida ro‘y berishi mumkin edi.

Akademik Ya. G‘ulomov Xorazmda aniqlagan murakkab irrigatsiya tizimlari va suv inshootlari Xorazm insoniyatsivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Xorazm shaharsozligi xom g‘isht, paxsalardan keng foydalanilgan. Xorazm vohasida tog‘–kon ishlari, hunarmandchilik sohalari ravnaq topgan. Aholining ma’lum bir qismi dehqonchilik bilan shug‘ullangan bo‘lsa, qolgan qismi chorvachilik bilan shug‘ullangan.

Hozirga qadar Qadimgi Xorazmdagi ilk hukmron sulolalar to‘g‘risida yozma ma’lumotlar etib kelmagan. Ba’zi manbalarda Xorazmning qadimiy sulolasi – Siyovushiylar bo‘lganligi qayd etiladi. Xususan, Beruniyning qayd etishicha: “Siyovush ibn Kayxusravning Xorazmga kelishidan... tarix oldilar. Shu vaqtan Kayxusrav ... turk podsholari (ustidan) hukmronligini yurgizgan edi”.

O‘rta Osiyodagi ilk davlatlardan biri Baqtriya bo‘lib, uning hududi hozirgi O‘zbekiston janubi (Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari), Tojikistonning janubig‘arbi, hozirgi Afg‘onistonning shimoli-sharqiy qismlaridan iborat bo‘lgan. Baqtriya davlati turli yozma manbalarda Baxdi, Baqtrish, Baqtriyona, Baqtriya deb nomlanadi.

² И.А.Каримов. Асарлар. Т. 6. Т.: Ўзбекистон, 1998. Б. 375.

Ba’zi tadqiqotchilar O‘zbekiston hududidagi ilk davlat Baqtriya ekanligi xususida fikr bildiradilar. Ular arxeologik ma’lumotlar miloddan avvalgi II ming yillik o‘rtalariga kelib O‘zbekistonning Surxondaryo viloyatida qadimgi dehqonchilik madaniyati jadal rivojlanganligini va shu asosda ilk davlatchilikka o‘tish jarayoni boshlanishini ko‘rsatishini ta’kidlaydilar. Bu jarayon bosqichma-bosqich rivojlanishning o‘ziga xos xususiyat va qonunlariga ega edi. Agar davlatchilik asosini shahar madaniyati tashkil etilishini hisob olinadigan bo‘lsa, bu jarayon O‘zbekistonning janubida, Baqtriya hududida miloddan avvalgi II ming yillikning birinchi yarmida shaharmonand qishloq Sopollitepa misolida boshlangan edi. Akademik A. Asqarovning fikricha, agar Sopollitepa o‘zining qadimgi shaharsozlik madaniyatiga xos barcha alomatlari bilan protoshahar, ya’ni “Avesto”da tilga olingan “vara” inshootini eslatsa, Jarqo‘ton yodgorligi O‘zbekiston hududida birinchi bor shakllangan tom ma’nodagi shahar edi. Jarqo‘ton qadimgi Sharq shaharlaridan tarkibiy jihatidan farq qilmaydi, xususan, nom-davlatlar bilan o‘xshash. Lekin Mesopotamiyadagi nom-davlatlarga xos yozuv Jarqo‘tonda mavjudligi hozircha ayon emas. Shu jihatdan miloddan avvalgi II ming yillikning so‘nggi choragiga kelib Baqtriya hududlarida davlatchilikning nom yoki voha tipidagi siyosiy uyushmalari shaqllana boshlagan.

Miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida Qadimgi Baqtriya davlati tarkibiga Marg‘iyona va Sug‘diyona ham kirganligi taxmin qilinadi. Bu haqda turli xil ma’lumotlar mavjud bo‘lib, qadimgi fors podshosi Doro I Marg‘iyonada miloddan avvalgi 521 – yilda bo‘lib o‘tgan Frada boshchiligidagi qo‘zg‘oltonni bostirgani haqidagi Behistun yozuvlarini “manā men nīmālarnī qīldim Baqtriyādā” deb xulosalaydi. Doro III davrida Baqtriya va Sug‘diyona birlashtirilgan o‘lka bo‘lib, unda Bess nomli satrap hokimlik qilgan davrda Baqtriya, Marg‘iyona hamda Sug‘diyona aholisining urf-odatlari va madaniyati bir-biriga ancha o‘xshash bo‘lgan.

Baqtriyada oltin, kumush, la’l qazib olingan, ularga ishlov berilgan, va uzoq – yaqin mamlakatlarga chiqarilgan. (Mashhur “La’l yo‘li” Baqtriyadagi Badaxshondan boshlangan). 1877 – yilda topilgan va hozirda Britaniya muzeyida

saqlanayotgan “Amudaryo xazinasi” Baqtriyada madaniyatning naqadar rivojlanganligini ko‘rish mumkin.

Xullas, Baqtriya va Qadimgi Xorazm davlatlari o‘zbek milliy davlatchiligining nechog‘lik chuqur tarixiy ildizlarga ega ekanligini isbotlaydi. Ushbu mamlakatlarda yuksak dehqonchilik madaniyatining qaror topishi, shaharsozlikning rivojlanishi, hunarmandchilik sohalarining jadal taraqqiy etishi, o‘z navbatida, o‘tmish ajdodlarimiz dahosini namoyon etadi.

Zardo‘shtiylik ta’limoti va uning tarixiy ahamiyati. “Avesto”. Har qanday diniy-falsafiy tizimlar, siyosiy ta’limotlar, ijtimoiy doktrinalar, muayyan konkret-tarixiy shart-sharoitlar natijasida vujudga keladi, shakllanadi va rivojlanadi. Ana shuning uchun ham, zardushtiylik ta’limotiga shu taxlitda yondashish maqsadga muvofiqdir.

Tarixiylik nuqtai nazaridan, arablar istilosigacha O‘rta Osiyoda zardushtiylik, buddaviylik, iiudaizm va xristianlik dinlari mavjud bo‘lgan. Ular orasida esa, eng ko‘p tarqalgani zardushtiylik ta’limoti edi. Uzoq vaqtdan buyon olimlar orasida zardushtiylik dini paydo bo‘lgan ilk zamin va uning muqaddas kitobi –“Avesto” yaratilgan mamlakatni aniqlashda ikki xil ilmiy qarash shakllangan.

Birinchi qarash (“G‘arb nazariyasi”) yo‘nalishida A. Meye va P. Tedesco zardushtiylik vatani Parfiya (hozirgi janubiy Turkmaniston va Sharqiy Eron), degan farazni bildirsalar, Deristerer va Jeksonlar zardushtiylik Antropatenda, Harsfeldzen Midiyada tarqalgan deydilar.

“Sharq nazariyasi”ga binoan E. Gersfeld, I. Markwart, B.A. To‘rayev, X. Nyuberg, E. Benvenist, E.E. Bertels, V.V. Bartold, V.V. Struve, Yu.A. Rapoport, S.P. Tolstov, I. Jabborov, N. Proxorov, M. Boys, I.M. Dyakonov, V.M. Lukonin, B.I. Avdiev, Y. Jumaboyev, B. G‘afurov, N. Mallayev, H. Homidov, T. Mahmudov, M. Is’hoqov, F. Sulaymonova, I. Xo‘jamurodov, M. Mahmudov, G. Dresvyanskaya zardushtiylik dini va “Avesto”ning dastlabki qismlari Xorazmda yaratilganini qayd etadilar.

“Avesto ham boshqa ko‘plab muqaddas kitoblar singari murakkab va ko‘p qatlamlidir, — deb yozadi S. P. Tolstov, — biroq unda, shubhasiz, eng qadimgi birinchi boblarda Xorazm tarixining eng qadimgi davriga borib taqaluvchi ma’lumotlar ustunlik qiladi. Bu davrni yangi eradan oldingi I ming yillikning birinchi yarmiga mansub deb hisoblash mumkin”³. E.E. Bertels “Avesto”ning Xorazmda yaratilishi uchun qulay sharoitlar mavjudligi va bu kitob Zardusht tomonidan shu zaminda yozilganligi haqida xulosaga keladi⁴.

Hozirda zardushtiylik va “Avesto” O‘zbekistonda, Xorazmda yaratilganligi tarafdorlari ko‘paymoqda. “Avesto”da ezgulik ilohi Ahura Mazda tilidan shunday deydi: “Men – Ahura Mazda – yaratgan ilk sarzamin va birlamchi yurt – bu Doityo (Amu) daryosi xushmanzara Iyron Vij (hozirgi Xiva o‘rnidagi qadimgi manzilgoh nomi) edi. Men – Ahura Mazda – yaratgan ikkinchi sarzamin va go‘zal yurt Sug‘d diyori edi.... Men – Ahura Mazda – yaratgan uchinchi sarzamin va go‘zal yurt qudratli va pok Marv diyori edi.... Men – Ahura Mazda – yaratgan to‘rtinchı sarzamin va go‘zal yurt zebo va orasta Balx diyori edi.... Men – Ahura Mazda – yaratgan beshinchi sarzamin va go‘zal yurt Balx va Marv oralig‘idagi Nisoyadir”...⁵.

Zardushtiylik ta’limotida Ahuramazda (Hurmuzd) – ezgulik xudosi bo‘lib u yorug‘lik, obodonlik, salomatlik, tinchlik, farovonlik kabi barcha yaxshiliklarnining yaratuvchi va boshqaruvchisi sifatida tushuniladi. Ahuramazdaga qarama qarshi ravishda yovuzlik, zulmat, ochlik, vabo, ayoz, jang, zaharli jonivorlar kabi barcha yovuzliklarni yaratuvchi va ularni boshqaruvchi Ahriman (Anxramaynu) kurashadi. Oxir oqibatda, kurash Ahuramazdaning g‘alabasi bilan tugaydi, shuning uchun ham, bu dunyoda har bir inson Ezgulik, ya’ni Axuramazda tomonida turishi kerak.

³ Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Т., 1964. Б. 155-156.

⁴ Бертельс Е. Э. История персидско-таджикской литературы. М., 1969. С. 49.

⁵ Авесто. Т.: “Шарқ”, 2001. Б. 107.

Zardushtiylik dinining asoschisi Zardusht tarixiy shaxs bo‘lib, u “Avesto”ning maxsus boblarida Spitama urug‘iga mansub kohin sifatida tilga olinadi. Ba’zi manbalarga qaraganda Zardusht taxminan miloddan avvalgi 618 – 541 yillarda yashagan. Zardusht hayoti haqida ma’lumot beruvchi manbaalar orasida Al–Beruniyning “Qadimgi Xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Tabariyning “Tarixi Taqrobariy” va Mas’udiyning “Oltin vodiy” asarlari nihoyatda qimmatlidir.

“Avesto” nafaqt diniy mazmunga ega, balki unda O‘rta Osiyoda miloddan avvalgi I ming yillik boshlarida yashagan qadimgi xalqlar, ularning turmush tarzi, xo‘jalik mashg‘ulotlari, madaniy hayoti haqida ma’lumotlar ham mavjud bo‘lgan qadimiylar yozma manbadir.

Zardusht qabilalarni parokandalikka eltayotgan va ular o‘rtasida tez-tez sodir bo‘ladigan diniy nizolar, bosqinchilik, zo‘ravonlik, qon to‘kishlar, kambag‘allarga nisbatanadolatsizlik, odamlarning mol-mulki va chorvasini o‘g‘irlash, suruv-suruv qo‘ylar, poda-poda qoramollar, ayniqsa, quyosh sharafiga bolalar, go‘zal qizlar va yigitlarni qurbanlik qilishga asoslangan diniy rasm-rusumlardan kishilarni xolos etish maqsadida yakkaxudolikni targ‘ib qila boshlaydi. Ammo Zardusht urug‘ va qabila oqsoqollari va ko‘pxudolik tarafdarlari bo‘lgan kohinlarning qarshiligidagi duch keladi. Natijada u Xorazmni tark etib ketishga majbur bo‘ladi.

Zardusht ta’limotini Baqtriya shohi Kavi Vishtasp davlat dini sifatida qabul qiladi. Zardushtning o‘zi esa, bosh kohin sifatida Vishtasp saroyida faoliyat yuritadi. U 77 yoshda Balxda o‘ldiriladi.

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra “Avesto” miloddan avvalgi II ming yillik va I ming yillikning birinchi choragida, bir necha yuz yillar davomida shakllangan. Bu davrda sug‘orma dehqonchilik, shaharlar, ilk davlatlar paydo bo‘layotgan, ya’ni yangi tarixiy davr yangicha diniy ta’limotni taqozo etayotgan edi.

“Avesto” dagi asosiy qoidalar uch g‘oyaga asoslanadi: “ezgu fikr”, “ezgu so‘z” va “ezgu amal”. Bu uchta fazilatni diliga jo qilgan kishining qalbi haddan ziyoda pokiza bo‘ladi. Demak, “Avesto” ta’limotiga ko‘ra, yaxshi fikr, yaxshi tushuncha, ezgu niyat, latif so‘z, yaxshi ishning birligi deyilganda, faqir kishilarga mehribonlik, inson sha’niga isnod keltiradigan yomon ishlardan, birovga hasad

qilishdan, g‘arazgo‘ylikdan, o‘g‘rilik, talonchilik, zinoga va ichkilikka berilishdan, o‘zgalar molini o‘zlashtirishdan, birovning dilini og‘ritishdan, shuhratparastlikdan tiyilishga da’vat etiladi. “Bergan so‘zning ustidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiqda shartnomalarga qat’iy amal, qarzni vaqtida to‘lash, aldamchilik va xiyonatdan xoli bo‘lish” yuksak axloqlilik alomatlaridir. Ya’ni, “Avesto” da aytilgan so‘zning ustidan chiqish – so‘z va ish birligiga e’tibor qaratilgan. “Ey hushyorlar! Quloqlaringiz bilan puxta eshitingiz eng ezgu kalomlarni va yorug‘ niyat bilan – xoh er, hoh ayol – har biringiz nazar tashladingiz, to buyuk hodisa ro‘y bermasdan va odimlarimiz so‘nggi manzilga etmasdan ikki yo‘ldan birini o‘zingizga ixtiyor etinngizda, bu kalomlarni o‘zgalar ham etkazingizlar”⁶.

“Avesto”da jamiyat 4 ta asosiy qismga bo‘linadi: oila – “nmana”, urug‘ – “vis”, qabila – “zantu”, qabilalar itifoqi – “daxyu”. “Daxyu” viloyat, mamlakat ma’nosini ham anglatadi. Shuningdek, “Avesto”da jamiyat to‘rtta ijtimoiy tabaqa: kohinlar, harbiylar, hunarmandlar va chorvadorlarga ajratiladi.

“Avesto”dagi bosh ma’buda – ezgulik, yorug‘lik, yaxshilik, baxt xudosi Axura Mazda bilan yovuzlik, razolat timsoli – Ahriman o‘rtasidagi kurash borishligi, bu kurashda, oxir oqibatda, ezgulik – Axura Mazda g‘alaba qozonishi, insonlar esa Axura Mazda tarafida turishlari lozimligi zardushtiylik ta’limotining mazmunini tashkil qiladi. “Avesto”da tabiat, tabiiy muhit muqaddaslashtiriladi. Er, suv va havoni iflos qilgan odamlar qattiq jazolangan..

“Avesto” da kishilarning o‘zaro munosabatlarda berilgan va’daning ustidan chiqish, majburiyat va qasamiga sodiq qolish odatiy qonun ekanligi namoyon bo‘ladi. Agar qasam ichib ahd qilgan kishi o‘z ahdini bajarmagan yoki buzgan bo‘lsa, da’vogar o‘z haqligini isbotlash uchun o‘sha davrning protsessual normali, ya’ni Orlaliya (sinash va jazolash) dan foydalanilgan. Odil sudlov uchun Ordaliyaning 33 usuli mayjud bo‘lib, agar so‘z qasami buzilgan bo‘lsa suv bilan

⁶ Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. / Асқар Маҳкам таржимаси. Т.:Шарқ, 2001. 10-б.

sinash, agar shartnomaga oid bo‘lsa, o‘t bilan sinash jarayonida aybdorga o‘zining haqligini isbotlashga imkon berilgan⁷.

“Avesto” da ekologik masalalarga ham e’tibor berilgan. Er, suv va havoni iflos qilgan odam 400 qamchi urish bilan jazolangan. Shuningdek, atrof-muhitni qilganligiga va ayniqsa hayvonlarni azoblaganligiga qarab boshqa jazolarni ham qo‘llashgan.

“Avesto” da oila va nikoh masalalari ham muhim o‘rin tutadi. Zero, oilanikoh masalalari inson hayotida ham muhim o‘ringa ega. Bunda 16 yosh erkak va ayolning balog‘at davri hisoblanib ular turmush qurib, o‘zidan nasl qoldirish shart qilib qo‘yilgan. Qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh man etilgan. Bu esa o‘sha davrlardayoq yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh odamlarning irsiyatiga daxl qilishi anglanganligini ko‘rsatadi.

O‘rta Osiyoning ahomaniylar tomonidan bosib olinishi. Miloddan avvalgi VI asrda Ahomaniylar sulolasiga barcha forslarni o‘z davlati atrofiga birlashtiradi va qisqa vaqtida Eron Kir II hukmronligi yillari (miloddan avvalgi 558 – 530 yillar) da juda qudratli davlatga aylanadi. Miloddan avvalgi 545 – 540 yillarda forslar shohi Kir II O‘rta Osiyoni istilo etadi.

Dastlab Kir II To‘maris boshliq massagetlar yurtini diplomatik yo‘llar, aniqrog‘i, To‘marisni o‘z nikohiga olish orqali egallamoqchi edi. Lekin To‘maris uning taklifini rad etadi. Shundan so‘ng Kir II massagetlar ustiga yurish boshlaydi. Miloddan avvalgi 530 – yilda bo‘lib o‘tgan jangda fors qo‘shinlari tor-mor etiladi va Kir II halok bo‘ladi. Faqat Kambiz II (530 – 522) va Doro I (522 – 486) davrida O‘rta Osiyo hududlari Ahomaniylar imperiyasiga to‘liq qo‘shib olinadi va unda to‘rt satraplik tashkil etiladi.

Doro I 519 – 518 yillarda sak qabilalariga yurishi vaqtida esa cho‘pon Shiroq fors lashkarini cho‘lga aldab olib kiradi va ular o‘sha joyda suvsizlikdan qirilib ketishadi. Garchand o‘z xalqi uchun hayotidan voz kechgan Shiroq halok

⁷ Бобоев Х., Дўстжонов Т., Ҳасанов С. “Авесто” – Шарқ халқларининг бебаҳо ёдгорлиги. – Т., 2004. 22-б.

bo‘lsada, ammo mana necha ming yilki, uning jasorati tarix zarvaraqlarida abadiy qolgan.

O‘rta Osiyoning turli hududlarida, xususan, Marg‘iyonada ahomaniylariga qarshi qo‘zg‘olonlar ko‘tairlib turgan. Erondagi Kermenshoh yaqinidagi Behistun qoyatoshlaridagi yozuvlarda Marg‘iyonadagi qo‘zg‘olonga Frada boshchilik qilganligi, uning asir olinganligi xususida ma’lumotlar uchraydi. Doro I qo‘zg‘olonchilardan qattiq o‘ch oladi, 55 ming qo‘zg‘olonchilar va Frada ham qatl etiladi.

Miloddan avvalgi VI – IV asrlarda ham O‘rta Osiyoning Baqtriya, Sug‘diyona, Marg‘iyona va Xorazm vohasi hududlarida sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik rivojlanadi. Samarqand (Maroqand), Ko‘zaliqir, Baqtra, Erqo‘rg‘on, Qiziltepa va Marvda hunarmandchilik va savdo-sotiq keng taraqqiy etadi hamda dastlabki tangalar zARB etiladi.

Makedoniyalik Aleksandrning Sug‘diyonaga yurishlari. Miloddan avvalgi V asrda Ahamoniylar sultanati urushlar, saroyda fitnalari, qo‘zg‘olonlar natijasida zaiflashib qoladi. Mazkur davrda Makedoniya podshosi Filipp II Bolqon yarim orolida o‘z mavqeini mustahkamlab oladi, ya’ni Spartadan tashqari barcha yunon polislari uning hukmronligi ostida tushadi va Ahomaniylarga qarshi urushga qattiq tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi. Filipp II harbiy islohotlar o‘tkazib o‘z davrining yaxshi ta’lim ko‘rgan, kuchli qurollangan qo‘shin – makedon falangasini tuzishga muvaffaq bo‘ladi. Ammo Eronga qarshi urushga tayyorgarlik ko‘rilayotgan vaqtida Filipp II o‘z saroy ay’yonlari tomonidan o‘ldiriladi va shu tariqa taxtni uning o‘g‘li 20 yoshli Aleksandr egallaydi. Nafaqat antik tarixda, balki jahon tarixida ham o‘zining istilolari, tuzgan yirik imperiyasi bilan dunyo tarixidan o‘rin olgan, Sharqda Iskandar Zulqarnayn nomi bilan mashhur Aleksandr miloddan avvalgi 334 – yilda Eronga qarshi yurish boshlaydi. Miloddan avvalgi 331 – yilda Gavgamela yonida (shimoli-sharqiy Mesopotamiya) va Issa yonida bo‘lgan janglarda Eron shohi Doro III qo‘shinlarini tor-mor keltiradi va miloddan avvalgi 330 – yilga kelib esa ahomaniylar davlatini to‘liq bosib oladi.

Miloddan avvalgi 329-yilda Aleksandr qo'shinlari Amudaryodan kechib o'tib, Navtaka (hozirgi Qashqadaryoning Shahrisabz vohasi)ga bostirib kirishadi. Aleksandr qo'shini Sug'diyona markazi Maroqandni egallaydi va undan keyin shimoli-sharqqa harakatlanadi. Miloddan avvalgi 329-yilda Sug'diyonada Spitamen boshchiligidagi xalq qo'zg'oloni boshlanadi. Aleksandr O'rta Osiyoda hali hech bir erda uchramagan qarshilikka uchraydi. Spitamen qo'zg'oloni xoinlar tufayli shafqatsiz bostiriladi va ba'zi manbalarga ko'ra Sug'diyonada 120 ming odam qatl etiladi.

Ana shunday shafqatsiz kurashdan keyingina Aleksandr miloddan avvalgi 327-yilda Shimoliy Hindistonga bostirib kiradi. Ammo O'rta Osiyodagi talafotlar sababli ham Aleksandrning Shimoliy Hindistondagi yurishlari uning o'ylanganicha tugamaydi: janglardan tinkasi qurigan, ruhan holdan toygan yunon-makedon qo'shinlari o'z sarkardasiga bo'ysunishdan bosh tortadi. Shundan keyin Aleksandr Bobilga qaytishga majbur bo'ladi.

Yunon – Baqtriya davlati. Miloddan avvalgi 323-yilda o'z davlatining poytaxti Bobilda Aleksandr vafoti etadi. U asos solgan davlat qisqa vaqtida imperiya parchalanib ketadi va miloddan avvalgi 312 –yilda sarkarda (diodox)lar: Ptolemy, Salavk va Antigon tomonidan bo'linib olinadi. O'rta Osiyo miloddan avvalgi 312-yildan to miloddan avvalgi 250- yilgacha satraplik (viloyat) sifatida salavkiylar davlati tarkibiga kirgan. Aleksandrning lashkarboshilaridan bo'lgan Salavk asos solgan salavkiylar sulolasiga Suriya, Mesopotamiyadan O'rta Osiyogacha, Xitoyning g'arbiy sarhadlaridan Shimoliy Hindistongacha bo'lgan ulkan hududlarda hukmronlik qilgan. Albatta, salavkiylar davlati mustahkam davlat emasdi, Chunki mamlakat viloyatlar iqtisodiy jihatdan zaif bog'langan edi. Shuningdek, salavkiylar davlatida ko'p sonli turli xalqlarni itoatda saqlab turishga, qo'zg'olnlarni bostirishga katta kuch sarflanar edi. Bularning barchasi esa, oxir oqibatda, salavkiylar davlatining inqirozga yuz tutishiga olib keladi.

Miloddan avvalgi 250–yilda Salavkiylar davlatidan poytaxti Baqtra bo'lgan Yunon – Baqtriya davlati ajralib chiqadi. Uning tarkibi Baqtriya, Sug'd va Marg'iyonadan iborat bo'lgan.

Yunon – Baqtriya davlati “Buyuk ipak yo‘li”ida joylashgan edi. Bu esa shaharlar rivojini ta’minlagan. Shuningdek, Baqtriyada qishloq xo‘jaligi sohalari, jumladan, g‘allachilik, bog‘dorchilik, umuman, dehqonchilik madaniyati ham keng rivoj topgan.

Miloddan avvalgi II asr o‘rtalaridan Yunon – Baqtriya inqirozga yuz tuta boshlaydi. Yuechji qabilalarining hujumi natijasida Yunon – Baqtriya davlati barham topadi.

Kushonlar davlati. Yunon – Baqtriya davlati barham topgach uning hududlarida ko‘chmanchi yuechjilar (toxarlar) joylashib olishadi. I asrda Kudzula Kadfiz tarqoq yuechji (tohar) qabilalarini birlashtiradi va Kushon podsholigiga asos oladi. Kudzula Kadfiz harbiy yurishlarni amalga oshirib, Sug‘diyona, Marg‘iyona, Qandahor, Qobul va Hindistonning shimoli-g‘arbiy qismini istilo etadi. Kudzula Kadfiz nabirasi Kanishka hukmronligi davrida esa Kushon podsholigi o‘zining qudrati cho‘qqisiga chiqadi. Bu vaqtida Kushon davlatiga Hindistondagi Panjob va Kashmir, hozirgi Afg‘oniston, O‘rta Osiyoning ko‘p viloyatlari va Sharqiy Turkistonning katta qismi kirgan. Kushonlar davlati Xitoy, Rim va Parfiya singari qadimgi dunyoning yirik imperiyalari bilan savdo-sotiq, iqtisodiy, madaniy va diplomatik aloqalar olib borgan.

Kanishka siyosatini uning vorislari: Vasishka, Xuvishka, Kanishka II, Vasudeva, Kanishka III va Vasudeva II davom ettirib, siyosiy hokimiyatni kuchaytirishga harakat qilganlar. Ammo taxt uchun o‘zaro kurashlar natijasida kushonlar sultanati asta sekin zaiflashib borgan. 353-yilda xioniylar Kushonlar sultanatiga barham beradi.

Kushonlar betakror madaniyatni yaratgan bo‘lib, unda o‘sha davrdagi xalqlar madaniyatlari o‘zaro uyg‘unlashgan (sintezlashgan). Madaniyatlar uyg‘unlashuvi esa madaniy rang-baranglikka, har bir milliy madaniyatning boyishiga, xalqlar o‘rtasidagi yaqinlikka olib keladi.

Qang‘ va Davan. Miloddan avvalgi III asr boshlarida hozirgi Toshkent vohasi va Sirdaryoning o‘rta oqimi yerlarida Qang‘ davlati vujudga kelgan. Qang‘ hukmdorlarining markaziy shaharlari O‘tror (hozirgi Aris va Turkiston oralig‘ida)

va Qang‘a (hozirgi Toshkent viloyati Oqqa‘rg‘on tumanida) edi. Miloddan avvalgi II – I asrlarda Qang‘ davlati hududari kengayib, Amudaryo va Sirdaryo oralig‘i va Xorazmni o‘z ichiga oladi.

Qang‘ aholisi dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilik shug‘ullangan. Qang‘da shahar madaniyati ham rivoj topgan. Xususan, Qang‘dagi yuqori darajadagi madaniy hayotni “Qovunchitepa madaniyati” namunalari ham isbotlaydi.

Zaiflashib borayotgan Qang‘ davlatidan III asr o‘rtalarida birinchi bo‘lib Xorazm ajralib chiqadi va uni mahalliy afrig‘iylar sulolasiga mansub xorazmshohlar boshqara boshlaydi. Xorazm davlatining poytaxti dastlab hozirgi Qoraqalpog‘istondagi Ellikqal‘a tumanida joylashgan Tuproqqal‘a bo‘lgan.

Poytaxt qalin mudofaa devorlari bilan o‘ralgan bo‘lib shaharga birqancha darvozalar orqali krilgan. Shahar markazida balandligi 25 metr bo‘lgan uch minorali xorazmshohlar qasri joylashgan.

Milodiy 305-yilda Xorazmshoh Afrig‘ o‘z qarorgohini Kat shahriga ko‘chiradi. Afrig‘ pul islohotini o‘tkazadi, bir tarafiga shoh surati, ikkinchi tarafiga esa suvoriy surati tushirilgan kumush tangalarni zarb ettiradi, ichki va tashqi savdoni rivojlantirishga harakat qiladi.

O‘zbekiston hududidagi qadimgi davlatlardan yana bir Farg‘ona vodiysidagi Davan bo‘lib, miloddan avvalgi II asr oxirlarida Xitoy elchisi Chjanssyan bu davlatni Davan (Da–yuan) deb ataydi. Manbalarda Davanda 70 dan ortiq shaharlar bo‘lganligi qayd etiladi. Afsuski, Davan davlati haqida ma’lumotlar bizgacha juda kam etib kelgan.

“Buyuk ipak yo‘li”. “Buyuk ipak yo‘li” miloddan avvalgi II asrda Xitoydan boshlanib O‘rta er dengizining sharqiy qirg‘oqlariga 12 ming kilometrdan iborat qadimiy xalqaro savdo yo‘li bo‘lib, u orqali Sharq va G‘arb o‘zaro bog‘lagan. “Buyuk ipak yo‘li” atamasini ilk bor nemis geografi F. fon Rixtgoften ilmiy iste’molga kiritgan.

O‘rta Osiyo shaharlari esa “Buyuk ipak yo‘li”ning muhim yo‘llarida joylashgan edi. Ayni vaqtida savdo karvonlari nafaqat iqtisodiy, balki madaniy,

diplomatik aloqalar o‘rnatalishida ham muhim ham muhim rolъ o‘ynagan. “Buyuk ipak yo‘li” juda katta daromad manbai bo‘lib kelganligi sababli turli davrlarda yirik davlatlar uning ustidan nazorat o‘rnatishga harakat qilib kelishgan.

1453 – yilda Konstaninopolning turklar tomonidan bosib olinishi, savdo yo‘llarining xavfli bo‘lib qolishi va boshqa omillar tufayli “Buyuk ipak yo‘li” o‘zining ahamiyati yo‘qotdi. Shu sababdan yevropaliklar Sharqqa yo‘lni nisbatan xavfsiz dengiz orqali izlay boshlashadi va 1498–yil portugal dengizchisi Vasko da Gama Afrikani aylanib o‘tib Hindistonga dengiz yo‘lini kashf etadi. Natijada xalqaro savdo yo‘llari quruqlikdan okean, dengiz yo‘llariga ko‘chadi.

Savollar va topshiriqlar

- 1.O‘rta Osiyo mintaqasidagi ilk davlatlar qaysi hududlarda vujudga kelgan?
- 2.“Katta Xorazm” qaysi hududarni o‘z ichiga olgan?
- 3.Qadimgi Baqtriya davlati qaysi hududarni o‘z ichiga olgan va uning poytaxti qaysi shahar bo‘lgan?
- 4.Zardo‘shtiylik ta’limotining asoschisi kim va uning asosiy g‘oyalari nimalardan iborat? “Avesto”da qanday g‘oyalari ilgari suriladi?
- 5.To‘maris, Shiroq va Spitamen jasoratlarining harbiy va tarbiyaviy ahamiyati nimalardan iborat.
- 6.Makedoniyalik Aleksandrning O‘rta Osiyoni bosib olishidan maqsadi nima edi?
- 7.Ellinizm qanday tarixiy sharoitlarda shakllangan?
- 8.Yunon – Baqtriya davlati kuchayishi va inqirozining asosiy sabablari.
- 9.Qang‘ davlati va Davan (Farg‘ona) davlati qanday omillar ta’sirida vujudga kelgan?
- 10.G‘arb va Sharq xalqlarining iqtisodiy va madaniy hayotida “Buyuk ipak yo‘li” qanday rol o‘ynagan?

4-§. O‘zbek xalqining kelib chiqishi va shakllanish bosqichlari

Mustaqillik va etnik tarix. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin O‘zbekiston xalqlarining, xususan, o‘zbek xalqining etnik tarixini o‘rgansh dolzarb

masalalardan biriga aylandi. Bu tabiiy hol. Chunki siyosiy mustaqillikka erishgan har bir mamlakatda etnik tarixga qiziqish kuchayadi, milliy o‘zlikni anglash masalalari oldingi o‘rinlarga chiqadi. Shuning uchun ham bugungi kunda milliy indentiklik, etnogenez masalalari keng ahamiyat kasb etmoqda.

Etnik tarix masalalarining tahlilida eng avvalo shunga alohida e’tibor qaratish lozimki, O‘rtta Osiyoda yashab kelayotgan xalqlar, millatlarning qaysi biri “qadimiyroq” ekanligini to‘g‘risidagi ehtirosli, ilmiy asossiz, asosiysi, g‘ayriinsoniy qarashlardan nihoyatda ehtiyot bo‘lish lozim. Chunki, har bir inson yagona, betakror yaratilganidek, o‘z navbatda shunday insonlardan tashkil topgan har bir xalq, millat, mamlakat ham makon va zamonda betakrordir.

Albatta har bir milliy madaniyat, xalqning tarixiy yutuqlarini dunyoga ko‘rsatish kerak. Lekin bu boshqa xalqlar tarixini kamsitish, ularning milliy sha’nini toptash evaziga bo‘lmasligi lozim. Tarixni o‘rganshda bunday yondashuvlar xalqlar o‘rtasida do‘stlikka, millatlaro munosabatlarga rahna soladi⁸.

Ayni vaqtda qayd etish lozimki, dunyoda “sof”, ya’ni hech bir o‘zga elatlar, xalqlar, irqlar bilan aralashmagan xalq, millat yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas. Aksincha, turli elatlar, xalqlarning o‘zaro yaqinlashuvi, aralashuvi (assimilyatsiyasi), siyosiy, iqtisodiy omillar asosida yangi etnoslar vujudga kelgan va shakllanib kelgan. Shu boisdan etnogenez, ya’ni muayyan xalqning kelib chiqishi murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, bunda xalq o‘zining etnik tarixiy rivojida, hatto tilini ham o‘zgartirishi mumkin. (Masalan, Rim sivilizatsiyasini yaratgan, ammo bugungi kunda tarix sahnasidan yo‘q bo‘lib ketgan lotinlar hozirgi italiyaliklarning ajdoddlardan biridir). Ya’ni, har qanday xalq o‘zga xalqlar bilan iqtisodiy, madaniy, etnik munosabatlarga kirishib, etnik assimiliyatsiya negizida paydo bo‘ladi, rivojlanadi.

Binobarin, xalq, millat, umuman, har qanday etnos, etnik birlik – bu biologik hosila emas, balki uzoq davom etadigan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy,

⁸ Shuningdek, bu haqda qarang: Ртвеладзе Э.В., Сагдуллаев А.С. Современные мифы о далёком прошлом народов Центральной Азии. –Ташкент, 2006; Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. – Ташкент, 2015.

madaniy va etnik munosabatlarning mahsuli, ya’ni ijtimoiy hodisadir. Etnos o‘zining shakllanish jarayonida turli omillarga va sabablarga ko‘ra uning tarkibiga yangidan-yangi etnik qatlamlar qo‘shilib boradi. Dunyoda hech bir xalq, millat o‘zining shakllanish va rivojlanish jarayonida boshqa etnik birliklar bilan aralashmasdan sodir bo‘limgan. Shunga ko‘ra Yer yuzidagi barcha xalqlar, millatlar kelib chiqishi jihatidan ko‘p etnik komponentlidir. Ushbu hol o‘zbek xalqiga ham tegishlidir. Chunki o‘zbek xalqi etnogenezining ilk bosqichlaridan, to xalq sifatida shakllanib bo‘lguniga qadar uning asosiy tarkibini tashkil etgan mahalliy (avtoxton) so‘g‘du-xorazmiy va qadimgi turkiyzabon qatlamlardan tashqari o‘ziga turli davrda har xil miqdorda mahalliy va kelib qo‘shilgan etnik guruhlarni singdirib yubordi.

Biologik nuqtai nazardan esa, o‘zining qobig‘ida qolib populyasiya doirasi torayib ketgan etnoslar esa umuman yo‘q bo‘lib ketishi mumkin. Shuning uchun “millat qonining tozaligi saqlash”, “irqiy soqlik”ka asoslangan ta’limotlar, irqchilik nazariyalari va mafkuralar g‘ayriinsoniy va g‘ayriilmiy mazmun-mohiyatga ham egadir.

Etnogenez jarayoni turli xalqlarning ajdodlari tarixidan boshlanadi. O‘zbek xalqi ajdodlarining tarixi juda katta tarixiy davrni qamrab oladi. Uzoq davom etgan ijtimoiy-tarixiy rivojlanishda O‘zbekiston hududida murakkab etnogenez jarayonlari ro‘y bergan. Etnik jarayonlar antropologik tiplar, turli urug‘lar, qabilalar, xalqlar va elatlarning aralashib ketishi, madaniy an’analarning o‘zaro uyg‘unlashishi bilan bog‘liq holda kechgan. Xalqlar, millatlar, etnoslar kelib chiqishi va shakllanishini tarix faninining tarkibiga kiruvchi etnologiya (yunoncha “etnos” – “xalq”, “logos” – “ta’limot”) fanida maxsus o‘rganiladi.

Xalqlarning etnik kelib chiqishi tarixini o‘rganshda “etnik birlik” va “etnos” asosiy tushunchalar sifatida ishlataladi. “Etnik birlik” – bu ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy va etnik uyushma. “Etnos” (yunoncha – xalq), ya’ni xalq keng va tor ma’noda ishlataladi. Masalan, keng ma’noda: O‘zbekiston xalqi; tor ma’noda: “o‘zbek” xalqi, tojik xalqi. Fanda etnik birlik uch tur: qabila, elat (xalq) va millatga ajratiladi. Ushbu tushunchalar

kishilarning tarixiy uyushuv shakllarini anglatadi. Etnografik tadqiqotlar har qanday etnos o‘z shakllanishining dastlabki vaqtlarida bir-biri bilan iqtisodiy jihatdan o‘zaro bog‘liq odamlar jamoasidan iboratligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotchilar fikricha, qarindosh-urug‘chilikka asoslangan kishilar birliklklari asta-sekin urug‘ jamoalariga aylanib boradi. Urug‘ – birga yashab, hamkorlikda mehnat qilgan qarindoshlar uyushmasi bo‘lib, ma’lum xalqlarning etnik shakllanishidagi dastlabki bosqichlardan biri sifatida muhim ahamiyatga egadir.

O‘rta Osiyo hududidagi qadimgi aholi va o‘zbek xalqining etnogenezi. Hozirgi O‘zbekiston hududi Afrika va Old Osiyo bilan bir qatorda antropogenez, ya’ni Aqqli odam (*Homo sapiens*) turining evolyutsion kelib chiqishi va rivojlanish jarayoni kechgan mintaqalar qatoriga kiradi. Xusan, Farg‘ona vodiysida Selung‘ur g‘oridan topilgan qadimgi tosh davriga oid topilmalar, Surxondaryoning Teshiktosh g‘oridan topilgan o‘rta paleolit davrida yashagan odamlarning qoldiqlari mintaqamiz antropogenez jarayoni kechgan hududlarga kirishini isbotlaydi. Shuningdek, mezolit davriga oid Machay g‘ori, neolit davriga oid ovchilik va baliqchilik madaniyatini aks ettiruvchi Kaltaminor, janubdagagi ilk dehqonchilik madaniyatiga oid bo‘lgan Jaytun, Hisor tog‘ madaniyati, bronza davriga oid – Zamonbobo, Sopolli, Jarqo‘ton, Sarazm, Suvyorgan, Chust madaniyatları O‘rta Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining beshiklaridan ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbeklar nafaqat O‘zbekiston, balki O‘rta Osiyo aholisi ichida eng ko‘p sonli turkiy tilli millat. Ayni vaqtida etnik o‘beklarning ma’lum qismi Shimoliy Afg‘onistonda, Shimoliy, Shimoli-G‘arbiy Tojikistonda, Janubiy Qozog‘istonda, Janubiy Qirg‘izistonda, Shimoliy va Sharqiy Turkmanistonda yashashadi.

Tadqiqotlar bronza davriga kelib O‘rta Osyoning Janubiy viloyatlarida baland bo‘yli, yuzi tor irqning vakillari tarqalganligi, shimoliy dasht va cho‘l hududlarida esa boshi dumaloq, yuzi juda keng va cho‘ziq bo‘lmagan qabilalar yashaganliklarini ko‘rsatmoqda. Janubiy qiyofali odamlar O‘rta er dengizi irqi mansubdirlar. Ular Kichik Osiyo, Mesopotamiya, Eron, Afg‘oniston, O‘rta Osiyo

va Hindiston hududlariga tarqalganlar. Shimoliy qiyofali odamlarning geografik akvatoriyasi esa Volga bo‘yi, Ural, Janubiy Sibir, Qozog‘iston va O‘rta Osiyoning shimoli-sharqiy qismini qamrab olgan.

Akademik A. Sagdullaev tadqiqotlariga ko‘ra, bronza davrida O‘rta Osiyoda qadimgi janubiy va shimoliy qiyofadagi odamlarning o‘zaro aralashuvi (assimilyasiyasi) boshlanadi hamda ushbu davrdagi qabilalar O‘rta Osiyoning qadimgi xalqlarining ilk ajdodlari hisoblanadi. Shuning uchun bronza davrida mintaqamizda murakkab etnik-madaniy jarayonlar bo‘lib o‘tgani bilan izohlanadi. Xususan, janubiy hududlardagi vosilar o‘troq dehqonchilik aholisi tomonidan o‘zlashtirila boshlagan bo‘lsa, shimoliy viloyatlarda ko‘chmanchi chorvador qabilalar tarqala boshlaydi. Ko‘chmanchi chorvadorlar va o‘troq aholi o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va etnik munosabatlar kuchayadi.

Miloddan avvalgi ikkinchi ming yillik o‘rtalaridan O‘rta Osiyo hududlariga shimoli-sharqdan chorvador qabilalar kirib kela boshlaydi. Ular fanda “Tozabog‘yob madaniyati” nomi bilan fanga kiritilgan.

Ilk temir davridan boshlab (miloddan avvalgi IX – VII asrlar), o‘lkamizning qadimgi dehqonchilik vosilarida yashovchi o‘troq aholi o‘zları yashab turgan hudud nomlari bilan atala boshlaganlar. Bular So‘g‘diyonadagi – so‘g‘dlar, qadimgi Xorazmdagi – xorazmiylar, Baqtriyadagi – baxtarlar, qadimgi Chochdagi – chochliklar, Farg‘onadagi – parkanaliklardir. Ushbu nomlarning ayrimlarini ilk yozma manbalarda, xususan, zardo‘shtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da, Ahamoniylar davriga oid yozuvlarda va yunon-rim mualliflari asarlarida uchratish mumkin.

O‘zbek xalqining ajdodlari Movarounnahr va Qadimgi Xorazmning turkiy va qadimgi sharqiy eroniy til lahjalarida so‘zlashuvchi mahalliy o‘troq va chorvador aholisidir. Ushbu ikki tilda so‘zlashuvchi qabilalar va elatlarning dastlabki o‘zaro etnik aralashish jarayoni o‘zbeklar etnogenezining boshlanishi hisoblanadi. Shunga ko‘ra o‘zbek xalqining etnik kelib chiqishi uzoq davom etgan va murakkab jarayon bo‘lib, uning birinchi davrini miloddan avvalgi birinchi ming

yilliklar va VIII – IX asrlar, ikkinchi davrini X – XII asrlar, uchinchi davrini XV asr oxiri – XVI asrlarni qamrab oladi.

O‘rta Osiyoning qadimgi aholisi ilk bor Qadimgi Sharq va yunon-rim yozma manbalarida tilga olinadi. Antik adabiyotlarda O‘rta Osiyo haqida ma’lumotlar Doro I zamondoshi Miletlik Gekateydan boshlab uchraydi. Gerodot, ayniqsa, Ktesiy asarlarida ma’lumotlar kengroq beriladi⁹. Ktesiy O‘rta Osiyoda yashovchi xalqlarni baxtarlar (baqtriyaliklar), xorazmliylar, saklar, parfiyaliklar, girkonliklar va boshqalardan iborat ekanligini yozadi. Ahomaniylar yozuvlarida saklar uchga (xaumavarka, tigraxauda, tiay-tara-darayya) ajratiladi va massagetlar ham chorvador qabilalar bo‘lganligi qayd etiladi.

O‘zbeklar va ularning ajdodlari qadimdan Movarounnahr, Xorazm, Ettisuv va Sharqiy Turkistonning g‘arbiy mintaqalarida yashab kelgan. O‘zbek xalqining qadimgi ajdodlarini qadimgi eroniylar tilli xorazmiylar, baxtarlar (baqtriyaliklar), sug‘dlar, farg‘onaliklar, sak-massagetlar va turkiy qabilalar tashkil etgan. Akademik A. Asqarov “O‘zbek xalqining kelib chiqishi tarixi” nomli fundamental asarida bu haqda shunday yozadi: “Ana shu ikki tilli etnik qatlamlarning uzoq asrlar davomida bir-birlari bilan aralashib-qorishib ketishi natijasida, o‘troq turkiy tilli o‘zbek xalqi tarkib topgan.”¹⁰ Bronza davridayoq O‘rta Osiyodagi mazkur etnik guruhlarning dastlabki aralashuvi sodir bo‘lgan. Antik davrga kelib esa, o‘troq turkiy makon tarkib topgan va o‘zbek xalqiga xos antropologik tip shakllana boshlagan.

Har bir xalqning tarkib topishidagi omillardan – umumiylar madaniyat, hududiy birlik, iqtisodiy aloqlar, til birligi, shuningdek, antropologik tip birligidir. Hozirgi kunda O‘rta Osiyo hududlarida yashab kelayotgan mahalliy aholi asosan uch tipni tashkil qiladi. Qozoqlar va qoraqalpoqlar “Janubiy Sibir” tipini tashkil etsa, tog‘li tojiklar va turkmanlar “Kaspiyorti tipi”ga mansub. Hozirgi o‘zbeklar va voha tojiklari “O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i tipi”ni tashkil etadi. Ilmiy ijodini

⁹ Qarang: Средняя Азия в известиях античного историка Ктесия (Текст, перевод, примечания). Душанбе: Дониш, 1975.

¹⁰ Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи. Т., 2015. Б. 17.

O'rta Osiyo antropologisini o'rganshga bag'ishlagan L.V. Oshanin, V.V. Ginzburg va V.Ya. Zezenkova o'z tadqiqotlarida hozirgi zamon o'zbeklari va voha tojiklari bir antropologik tipni tashkil etishlarini isbotlab, uni "O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i tipi" deb atadilar. Antropolog T.Q. Xo'jayov "O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i tipi" esa antik davrda Sirdaryoning o'rta havzalari rayonlari, xususan, Toshkent vohasida tarkib topganligini aniqlangan¹¹. Ushbu zaminda antik davrda "Qovunchi madaniyati" tarkib topgan bo'lib, uning etnik tarkibi sug'diyalar va turkiy qabilalardan iborat bo'lган. Ularning uzoq davom etgan etnomadaniy o'zaro aralashuvi natijasida miloddan avvalgi III milodiy eraning boshlarida "O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i tipi" (yoki Pomir – Farg'ona irqi) ning tarkib topishi davri bo'ldi. "Qovunchi madaniyati"ning ta'sir doirasi madaniy va antropologik jihatdan Farg'ona vodiysiga kuchli ta'sir etgan.

O'zbeklar etnogenezida qatnashgan keyingi etnik guruh kushonlar va Janubiy Sibir, Jung'oriya, Sharqiy Turkistondan kirib kelgan xioniylar, kidariylar va eftallar bo'ldi. O'zbeklarning etnik kelib chiqishida O'rta Osyoning Turk hoqonligiga qo'shib olinishi, turkiy qabilalarning mahalliy xalq bilan assimiliyatsiyasi ham muhim ahamiyat kasb etgan. Turkiy etnoslar asosan Toshkent, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalari, Farg'ona vodiysi va Xorazmga o'mashishadi hamda o'troq hayot tarzini qabul qilishadi.

Turk xoqonligi hukm surgan VI – VIII asrlarda hozirgi O'zbekiston hududining sharqiy qismiga, xususan Farg'ona va Shoshga turkiy etnosga mansub urug'lar va qabilalarning kirib kelishi kuchayadi. Ularning ko'pchiliginini qarluqlar tashkil etgan. VII asr o'rtalariga kelib Farg'ona vodiysining sharqiy va markaziy yerlarida qarluqlar mustahkam o'mashib oladilar. Shuningdek, Toshkent vohasining tog'li va tog' oldi tumanlari aholisi tarkibining ancha qismini ham qarluqlar tashkil etgan.¹²

¹¹ Хўжайов Т.К. К палеоантропологии древнего Узбекистана. Т., 1980; Шу муаллиф. Палеантропология Средней Азии и этногенетические проблемы. Рукопись докторской диссертации. Москва, 1981. Б. 19, 37.

¹² Qarang: Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Б. 145.

Turk xoqonligi davrida turkiylar va mahalliy aholi o‘rtasidagi etnomadaniy munosabatlarning rivoji hududdagi etnik jarayonlarga katta ta’sir o‘tkazdi. Shuning uchun ham etnolog-olim K. Shoniyoзов, “O‘zbek xalqi mazkur hududda yashagan tub yerli etnoslardan tomir olgan; ikkinchi ildizi esa qadimgi turkiy xalqlardan boshlangan. Har ikkala ildizlarning birikishi – o‘zaro sintez o‘zbek elatini va keyinchalik o‘zbek xalqini tashkil etgan. Har qanday xalq alohida etnik birlik (elat) bo‘lib ma’lum bir hududda, ma’lum tarixiy davrda shakllanadi. O‘zbek xalqi ajdodlari ham elat bo‘lib, Movarounnahr va Xorazm hududida hamda ularga tutash mintaqalarda shakllangan”¹³ deb ta’kidlaydi.

VIII asr boshlarida arablarning Movarounnahr va Xorazmga bostirib kirishi mintaqadagi etnik jarayonlarga unchalik ta’sir etmagan. Bu vaqtida O‘rta Osiyo hududlarida o‘troq va yarim o‘troq turkiyzabon aholi, so‘g‘diylar, toxarlar, chochliklar va xorazmiylar yashagan bo‘lib, ular chet el istilochilariga qarshi mardonavor kurashganlar. Siyosiy parokandalik sababli ular arab xalifalari hukmronligi ostiga tushib qoladilar.

Ammo VIII asrning ikkinchi yarmidan turkiy qabilalardan bo‘lgan qarluqlar kuchaya boshlaydi. IX asrning o‘rtalariga kelib Ettisuv, Chimkent viloyati, Toshkent vohasi, Farg‘onaning shimoliy qismlarini o‘z ichiga olgan Qarluq davlati vujudga keladi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar fikricha, o‘zbek elatining shakllanishida Qarluq davlatining ahamiyati katta bo‘lgan. Qarluqlar ko‘p sonli bo‘lib, ularning bir qismi chorvachilik bilan shug‘ullangan. Qarluqlar yashagan hududlarda yirik etnoslar – chig‘illar, yag‘molar, xalachlar ham yashagan, ular bir-biriga qon-qarindosh bo‘lib turkiy tilda so‘zlashganlar.

XI asrning birinchi o‘n yilligidayoq Janubiy hududlarning to Balx viloyatigacha bo‘lgan yerlari dastlab qoraxoniy turkiylar, so‘ng esa g‘aznaviylar qo‘liga o‘tdi. Buning natijasida navbatdagi katta turkiy etnik qatlam So‘g‘diyona, Xorazm va Toxaristonga kirib boradi. Qoraxoniylar davrida Movaraunnahr va Xorazmda turkiy qatlamlar mavjud edi. Qoraxoniylar davlatida qarluq-chig‘il

¹³ Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Т.: Шарқ, 2001. Б. 9.

turkiy til lahjasi keng tarqaladi. Keyinchalik shu til asosida adabiy turkiy til yuzaga keladi.

Boshqacha aytganda, XI asrdan Movarounnahrda turkiy etnik muhit har jihatdan kuchaya boshlaydi, xorazmiylar, sug‘diylar va boshqa mahalliy etnoslarda ham turkiylashish jarayonlari yanada kengayadi. Yirik etnolog olim K. Shoniyozovning qayd etishicha, IX – X asrlardagi etnik jarayonlar natijasida turkiy qabilalar va elatlarning o‘troqlashish jarayoni kuchaygan. Movarounnahr va Xorazmda yashagan turkiy etnik qatlamning ko‘pchiligini o‘troqlashgan turkiylar tashkil qilgan. XI – XII asrlarga kelib esa Movarounnahr va Xorazmda hokimiyatga turkiy sulolalarning kelishi, turkiy qabilalarning o‘troq hayotga o‘tishi va ularning mahalliy aholi bilan aralashuvi natijasida o‘zbeklar xalq sifatida shakllangan. Ushbu etnik jarayonda qarluq, chigil, yag‘mo, tuxsi, xalach, arg‘in, o‘g‘uz, qipchoq, o‘z, qang‘lilar muhim o‘rin egallahsgan.

Mazkur davrda Movarounnahr va Xorazm aholisi turkiylashishi jarayoni, turkiy qabilalar va elatlarning o‘troq hayotga o‘tishi kuchayishi bilan o‘zaro assimilyatsiya ham kuchayib boradi. Ayniqsa, X asr oxiri – XI asr boshlarida Movarounnahrga qoraxoniylar bilan birga Oltoy, Ettisuv va Sharqiy Turkistondan bir qancha turkiy qabilalar ko‘chib keladi va siyosiy hokimiyat turkiy sulolalar (qoraxoniylar, g‘aznaviylar, saljuqiylar, qoraxitoylar, xorazmshoh-anushteginiylar) ixtiyoriga o‘tadi. Bularning barchasi esa o‘zbeklarning xalq sifatida shakllanishining asosiy omillaridan bo‘ldi. Shuning uchun ham IX – XII asrlar o‘zbek xalqining shakllanishida muhim muhim bosqich sanaladi. Movarounnahr va Xurosonning forsiy-dariy tilda so‘zlashuvchi aholisi X asrdan boshlab o‘zini “tozik”, ya’ni “tojik” deb yurita boshlaydilar.

XIII asr boshlarida Chingizzon bosqini Movarounnahrning iqtisodiy va madaniy rivojiga keskin salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ammo mo‘g‘ullar istilosini mintaqadagi etnik jarayonlarga kuchli ta’sir ko‘rsatishi qiyin edi. Negaki, mo‘g‘ullar bosib olgan juda keng hududlardagi aholiga nisbatan juda kamchilikni tashkil etgan. (Qolaversa, mo‘g‘ullar tarkibida turkiy qabilalar ham bo‘lgan). Mo‘g‘ullar imperiyasi Sharqda Koreyadan G‘arbda Vengriya, Polshagacha, ya’ni

kishilik jamiyati tarixida eng katta davlat bo‘lsada, ammo mo‘g‘ullarning o‘zi kam sonli bo‘lganligi bois etnik jarayonlarga ta’sir qilishi mumkin emas edi. Xuddi shunday holat O‘zbekiston hududida yashagan xalqlarga nisbatan ham tegishlidir. Shuning uchun Mavarounnahr, Xorazm va Xurosonda mo‘g‘ullar hukmronligi davrida etnoslarning o‘zaro assimilyatsiyasi davom etgan, shu bilan birga bunda mo‘g‘ul komponenti nihoyatda kam bo‘lgan. Xullas, mo‘g‘ul istilosini o‘zbeklar va mintaqalari etnogeneziga ta’sir ko‘rsatishi mumkin emas edi.

Mo‘g‘ullar bilan ko‘chib kelganlarning katta qismi esa turkiy qabilalar – jaloyirlar, barloslar, kavchinlar, arlotlar va boshqalar bo‘lib ular bu erdagidan mahalliy aholi, jumladan, qardosh turkiylar tarkibiga singib ketadilar. Ayni vaqtida O‘rta Osiyoga kelib joylashgan kamsonli mo‘g‘ul qabilalari ham asta-sekin o‘troq hayotga o‘tib, o‘zlariga nisbatan ancha yuqori madaniyatga ega bo‘lgan mahalliy aholining urf-odatlari, udumlari, turmush tarzi va islom dinini qabul qila boshlashadi.

O‘zbek xalqining etnik shakllanishida **uchinchidavri** – XV asr oxiri – XVI asrlarda Movarounnahr va Xurosonda temuriy shahzodalarning taxt uchun qurolli kurashlari oqibatida ijtimoiy–iqtisodiy va madaniy hayot izdan chiqqan, aholi o‘zaro urushlardan ko‘p aziyat chekkan edi. Bunday qulay vaziyatdan ko‘chmanchi o‘zbeklar hukmdori Muhammad Shayboniyxon oqilona foydalanadi va O‘rta Osiyo hududlarini bosib oladi. Buning natijasida ko‘chmanchi o‘zbeklar Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm va Toshkent vohalarida kelib joylashadilar.

Shu tariqa XV asr oxiri va XVI asrda Dashti Qipchoqda yashovchi turkiy etnoslar – ko‘chmanchi o‘zbeklarning O‘rta Osiyoga migratsiyasi ro‘y bergan. Ammo bu jarayoni o‘zbeklar etnogenezida etakchi ahamiyat kasb etmagan va mahalliy xalqlar madaniyati va urf-odatlariga kuchli ta’sir ko‘rsatmagan. Binobarin, O‘rta Osiyoning XI – XII asrlarda shakllangan turkiy aholisi o‘zbek xalqining asosi (substrati)ni tashkil qilardi. Dashti Qipchoqlik o‘zbeklar esa kelib qo‘shilgan (superstrat) sifatida O‘rta Osiyoning turkiy aholi tarkibiga singib ketgan va eng oxirgi kelib qo‘shilgan etnik qatlama sifatida unga faqat o‘zining

“o‘zbek” etnonimini bergan. Dashti Qipchoqdan kirib kelgan o‘zbeklar deb nomlanuvchi turkiy qabilalar O‘rta Osiyodagi mahalliy turkiy, turkiylashgan aholi bilan qon-qardosh va etnik jihatdan juda yaqin edi.

Ayni vaqtda shunga ham e’tibor qaratmoq joizki, turkiy xalqlar nafaqat O‘rta Osiyo, balki Evroosiyo qit’asining keng hududlarida, jumladan, Dashti Qipchoqda ham azal azaldan yashab kelgan. Shuning uchun ham akademik B.Ahmedov, “Hozirgi o‘zbeklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar va boshqa xalqlarning ajdodlari shu xalqlar hozir yashayotgan yerlarda qadim zamonlarda ham yashaganlar, lekin o‘zbeklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar deb atalmaganlar” deb ta’kidlaydi.

“O‘zbek” etnonimi. “O‘zbek” etnonimining paydo bo‘lishiga dir bir qancha qarashlar bor. Ilk bor “o‘zbek” so‘zi shaxs nomi sifatida XII-asr arab adabiyotlarida uchraydi: Usoma ibn Munkiz asarida Mosul hukmdori amir O‘zbek tilga olinadi¹⁴. Tarixchi Rashiddidin Tabrizning oxirgi hukmdori O‘zbek Muzaffar (1210 – 1225) ekanligini yozadi¹⁵. Shuningdek, Sulton Jaloliddin Manguberdi lashkarboshilaridan birining ismi ham Jahon Pahlavon O‘zbek bo‘lgan¹⁶. Demak, “o‘zbek” so‘zi O‘rta Osiyoda mo‘g‘ullar istilosidan oldin mavjud bo‘lgan.

Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiy o‘beklarni Oltin O‘rda – “mamlakati o‘zbek” bilan bog‘lashadi. Shuningdek, rus olimlari A.Yakubovskiy va I.Ivanov ham “o‘zbek” atamasini Oltin O‘rda xoni O‘zbekxon (1312 – 1340) bilan bog‘laydilar. Alisher Navoiy o‘z asarlarida “o‘zbek” etnonimini

¹⁴ Усама ибн Мункыз. Книга назидания. Пер. Ю. И. Крачковского. М. Изд-во восточной литературы, 1958. Б.134.

¹⁵ Рашид ад-дин Сборник летописей. Т.1., кн.1. М., 1952.

¹⁶ Шихабаддин Мухаммад ан–Насави. Жизнеописание султана Джалаляддина Манкубурны. Издание крит. текста, перевод с арабского, предисловие, комментарий, примечания и указатели З.М.Буниятова. М., 1996. Б.259.

Movarounnahrdagi etnik guruhlarning birining nomi sifatida qayd etadi¹⁷. XVII srda yashab ijod etgan shoir Turdi O‘rta Osiyo hududlarida yashovchi 92 turkiy urug‘larning barchasining umumiy nomi sifatida ishlataladi¹⁸. Ba’zi olimlar fikricha “o‘zbek” so‘zi “o‘z-o‘ziga bek, xo‘jayin, mustaqil” ma’nolarini anglatadi. Xullas, “o‘zbek” atamasi dastlab Dashti Qipchoqda yashovchi turkiy qabilalarga ishlatalib, ularning Movarounnahrga kelib o‘rnashishi, mahalliy aholi bilan o‘zaro aralashuvi natijasida “o‘zbek” etnonimi O‘rta Osiyo turkiy aholisiga nisbatan qo‘llanila boshlandi.

O‘zbek etnonimi kelib chiqishi davriga qarab o‘zbek, turkman, qozoq, qoraqalpoq xalqlarini aniq bir vaqtida paydo bo‘lgan deb aytish qiyin. O‘zbek xalqining qondosh-qardoshlari bo‘lgan ushbu xalqlar ming yillar davomida hozirgi yashayotgan mintaqalarida yashab kelganganlar. Lekin u vaqtida hali hozirgi nomi bilan atalgan emas. Ular umumiy nom bilan “turkiy” deb yoki bo‘lmasa, o‘z qabilalari nomlari bilan atalganlar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek xalqining etnik shakllanishi uzoq davom etgan murakkab tarixiy jarayondir. O‘zbek xalqining kelib chiqishini hozirgi O‘zbekiston hududlarida bir necha ming yillar davomida birga yashab kelgan so‘g‘dlar, qang‘lar, baxtarlar (baqtriyaliklar), xorazmiylar, chochliklar, dovonliklar, saklar, massagetlar va turkiy qabilalar tashkil etadi. O‘rta Osiyoga turli davrlarda kirib kelgan kelgindi qabilalar, elatlar va xalqlar mahalliy aholiga qisman ta’sir ko‘rsatsada, ammo uning genetikasini tubdan o‘zgartira olmagan. O‘zbek xalqining shakllanish jarayonining barcha bosqichlarida tub mahalliy aholi chetdan kelgan etnoslarga nisbatan hamisha ustun bo‘lib kelgan.

Savollar va topshiriqlar

¹⁷ Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 3 жилд. Тошкент, 1988. 201-бет; Алишер Навоий. Муқаммал асарлар туплами. 4 жилд. Тошкент, 1989. Б.235.

¹⁸ Турды. Избранные произведения. Ташкент, 1951. Б.33

- 1.Nima uchun irqchilikka asoslangan ta’limotlar, millatchilik mafkuralari g‘ayriinsoniy va g‘ayriilmiy hisoblanadi?
2. “Etnik birlik” va “etnos” tushunchalarining mazmunini yoriting.
3. Mustaqillikka erishgan davlatlarda etnik tarixga qiziqish sabablarini tahlil eting.
4. O‘zbek xalqining qadimgi ajdodlari kimlar edi?
5. O‘zbek etnonimini izohlang.
6. VI – VII asrlarida O‘rta Osiyoda sodir bo‘lgan etnik jarayonlarga qaysi etnik guruuhlar ta’sir ko‘rsatgan?
7. IX – XII asrlarda O‘rta Osiyo xalqlari tarkibiga qanday etnik guruuhlar qo‘silgan?
8. Arablar va mo‘g‘ullar bosqini O‘rta Osiyodagi etnik jarayonlarga qanday ta’sir ko‘rsatgan?
9. XV – XVI asrlardagi O‘rta Osiyodagi etnik jarayonlar va ularning omillarini tahlil eting.

II Bob. O‘rta asrlar davri

5 – §. Ilk o‘rta asrlardagi davlatlar: Xorazm, xioniylar, eftallar, Turk xoqonligi. Arablar tomonidan O‘rta Osiyoning bosib olinishi

Xorazm davlati. Qadimgi davrdan XIII asrning birinchi choragiga qadar Xorazm davlatida siyovushiylar, afrig‘iyilar, ma’muniylar, oltintoshlar va anushteginiylar sulolalari Xorazmshoh unvonida hukmronlik qilganlar. Poytaxt Ko‘zaliqir, Qo‘yqirilganqa’la, Tuproqqal’a va Kat shahri bo‘lgan. Yozma manbalar Kat qal’asini Afrig‘iyilar sulolasini vakillarining so‘nggi qarorgohi bo‘lganini tasdiqlaydi, Gurganj (Ko‘hna Urganch) keyinchalik markazga aylangan.

Xorazm milodiy III asrgacha Qang‘ davlati tarkibida edi. III asrda Xorazm mustaqilikka erishadi. Bu vaqtida poytaxt Tuproqqal’a (hozirda Qoraqalpog‘istonning Ellikqal’a tumani) bo‘lgan. Afrig‘ poytaxtni 305 yilda Kat shahriga ko‘chiradi va unda Al-Fir qasrini qurdiradi.

IV asr va X asrlarda Xorazm Afrig‘iyilar sulolasini hukmronlik qiladi. Abu Rayhon Beruniy afrig‘iyilar sulolasiga mansub quyidagi hukmdorlar nomini keltiradi: Afrig‘, Bo‘gra, Saxasek, Askajamuq, Askajuvar, Saxr, Shovush, Hamgiri (Hamjard), Bo‘zgar, Arsamux, Saxr, Sabr, Askijuvar, Askijamt, Shovshafar, Tuksebosa, Abdulla, Mansur, Iroq, Muhammad, Ahmad, Abu Abdulla Muhammad.

Xorazm eftallar va Turk hoqonligi davrida ham o‘z mustaqilligini saqlab qololgan. Hatto dastlabki vaqtida ularga o‘z ta’sirini ham o‘tkazib turgan. Xususan, buni eftallar tangalarining Xorazm tangalarga o‘xshatib zarb qilinganligi, lekin ancha qo‘pol ishlanganligida ham ko‘rish mumkin.

VI – VII asrlarda Xorazm Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan ham savdo munosabatlarini o‘rnatgan. Xorazm davlati Turk hoqonligi tarkibiga mustaqil ittifoqchi bo‘lib kirgan.

Kidariylar, xioniylar va eftallar siyosiy tarixi. IV – V asrlar O‘rta Osiyo tarixinining muhim bosqichlaridan biri sanaladi, zero bu davrda Kushonlar davlati

ichki ziddiyatlar va tashqi ta'sirlar sababli bir qancha mustaqil davlatlarga bo'linib ketadi. Uning tarkibidan Tohariston va Marv ajralib chiqadi. Choch va Xorazm mustaqil edi.

IV – V asrlar O'rta Osiyo hududlariga ko'chmanchi kidariylar kirib keladi. Kidariylar Sug'diyonani, Amudaryo bo'yalaridagi yerlarni egallab, o'z hukmronligini o'rnatadilar. Kidariylar davlatining poytaxti Balx shahri edi. Biroq kidariylarning O'rta Osiyodagi hukmronligi uzoq davom etmaydi.

Kidariylar kelib chiqishi Sharqiy Turkiston bilan bog'liqdir. Beyshi solnomasida berilishicha, yuechjilar hukmdorissidolo jujanlar hujumi tufayli o'z qarorgohini Bolo (Balxga)ga ko'chirgan. Yana shu manbada yozilishicha, Kidar Shimoliy Hindistonga yurish qilib Gandxardan shimolda joylashgan beshta davlatni bo'ysundirgan.

Kidar hukmronlik qilgan davr IV acpning ikkinchi yarmi va V asrning birinchi choragi bilan belgilanadi. Kidar dastlab Eron shohi Shopur II ga bo'ysungan. Oq xunlar bostirib kelishi bilan o'g'li Pirozni Peshovarda qoldirib o'zi Shimolga yo'l olgan. Manbalarda oq xunlar bilan kurash 400 –yillarga to'g'ri kelishi ta'kidlanadi. Kidar Baqtriyada kushonlar hukmronligiga chek qo'yyadi.

Kidariylar tez orada Amudaryo o'ng va chap qirg'oq havzasi hamda Sug'dning katta qismini egallahadi. Kidariylar Eron sosoniylari bilan ko'plab urushlar olib borgan. Kidariylar va sosoniy o'rtasidagi harbiy ixtiloflar Varaxran V (420 – 438) va Yazdigard II (438 – 457) davrida kuchayadi. 456-yilda bo'lib o'tgan jangda kidariylar mag'lubiyatga uchraydi va shundan so'ng ular o'zlarining harbiy qudratini tiklab ololmaydi.

IV asr o'rtalarida O'rta Osiyoga shimoli-sharqdan xion qabilalari bostirib kiradilar. Ba'zi tadqiqotchilar xioniylarning kelib chiqishini Orol dengizining atroflari bilan bog'lashadi. G'arb tarixchilari esa xioniylarni "oq xunlar" deb ham atashadi. IV – asrning o'rtalarida xioniylar Eron shohi Shopur II ni mag'lubiyatga uchratadi. Xioniylar harbiy qudrati IV asrning 70–yillariga to'g'ri keladi. Ammo shundan keyin xioniylar eftallarga tobe bo'lib qolishadi.

Xioniylar va kidariylarga nisbatan eftallar haqidagi ma'lumotlar nisbatan ko'proq saqlangan. Shunga qaramasdan eftallarning kelib chiqishi haqidagi turlicha qarashlar mavjud. Manbalarda eftallar turlicha nomlanadi. Xitoy manbalarida ular “ida, ieda, idan, idyan”, suriya va lotin manbalarida “eftal, abdal” deb nomlansa, arab va fors manbalarida esa “xaytal, yaftal, eftal” deb ataladi. Xitoy manbalarida eftallarni turklar (tukyue) sifatida nomlansa, VI asrda yashagan vizantiyalik tarixchi Prokopyi esa eftallarni oq xunlar sifatida ta'riflaydi. Eftallar davlati V asrning o'rtalarida o'zining qudrati cho'qqisiga chiqadi.

Eftallarning janubdag'i asosiy raqibi Eron edi. Shuning uchun eftallar janubiy hududlarni o'zlariga bo'ysundirar ekanlar, ularning sosoniylar bilan munosabatlari keskinlasha boradi. Eftallar 467 – 473 yillarda Sug'dni egallahadi. 484-yilda Marv shahri yaqinidagi jangda eftallar fors qo'shinlarini tor-mor keltiradi. Ular 477 – 520 yillarda Gandxardan kidariylarni siqib chiqaradi. 490-yilda eftallar Urumchini, 497 – 509 yillarda esa Sharqiy Turkistonni to'liq istilo qilishadi. Shu tariqa VI asr boshlarida eftallar yirik davlatga asos solishadi.

Eftallar Eronning harbiy ekspansiyasiga qarshi tura oldilar va sosoniylarning O'rta Sharqdagi hukmronligiga chek qo'ydilar. Eftallar sosoniylarning ichki ishlariga ham aralashib turdilar, hatto shohlardan qaysi birini tayinlash ham ularning ixtiyorida edi. Eron har yili eftallarga katta miqdorda o'lpon to'lab turgan. Ammo eftallar davlatining o'zi ham mustahkam emasdi va shuning uchun juda qisqa vaqt (taxminan 50 yilcha) yaqin yashadi.

Eftallar davrida aholi dehqonchilik, chorvachilik, yilqichilik bilan shug'ullangan. Dehqonchilik Xorazm, Sug'd Chag'oniyon va Toshkent vohalarida yaxshi rivojlangan edi. Darg'om, Zog'ariq va Bo'zsuv singari kanallarning qazilishi tufayli esa dehqonchilik yanada taraqqiy etgan. Ichki va tashqi savdoda Eron, buxorxudotlar, sug'd va Xorazm tangalari muomalada bo'lgan. Eftallar davrida Eron, Hindiston, Xitoy va Vizantiya bilan savdo aloqalari olib borilgan.

Ilk o'rta asrlarda er egaligi va qo'zg'olonlar. O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy hayotda jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Sun'iy irrigatsiya tizimi kengaytirildi va shu asosda yangi yerlar o'zlashtirildi. Bu ishlarga

urug‘-qabila sardorlari, qishloq oqsoqollari boshchilik qilar edi. Ular yerlarning katta qismini, suv boshida bo‘lgan yerlarni egallahsgan. Shu tariqa katta er egalari mulkdorlar – dehqonlar tabaqasi shakllanadi, ular asta sekin ziroatkorlar ustidan o‘z hukmronligini o‘rnata boshlaydilar.

V asrda sug‘oriladigan yerlarning katta qismi qishloq jamoalari ixtiyorida edi. Qishloq jamoalarida yashab er va suvdan iborat umumiy mulkda o‘ziga tegishli yerlari bo‘lgan erkin ziroatchilar kashovarzlar edi. Ularning bir qismi o‘z yerlaridan mahrum bo‘lib, kadivarlarga aylanib borgan. Kadivarlar dehqonlar – yirik mulkdorlar erida ijarachi sifatida ishlashga majbur bo‘lib, qaram tabaqaga aylanib borgan. Ushbu jarayonlar natijasida qishloq aholisining mulkiy tabaqalanishi kuchayadi. Dehqonlarning iqtisodiy hukmronligi kuchayadi, ularga qaram ijaradorlar – kadivarlar esa ko‘payib boradi. Bu vaqtda o‘z yerlariga ega bo‘lgan ziroatchi-kashovarzlar ham mavjud bo‘lgan.

Mazkur davrda dehqonlar zulmiga qarshi qo‘zg‘olonlar ko‘tarilib turilgan. VI asr birinchi choragida Eronda boshlanib, O‘rtta Osiyoda ham tarqalgan Mazdak (470 – 529) boshchiligidagi qo‘zg‘oloni feodal jamiyatni larzaga soldi. Mazdakiylar nazdida xususiy mulkchilik, boylik jamiyatdagi barcha jinoyatlar va adolatsizlikning bosh sababchisidir. Shuning uchun mazdakiylik diniy mafkurasi er, mol-mulk va siyosiy hokimiyat boshqarilishida tenglik bo‘lishi lozimligiga asoslangan edi. Qo‘zg‘olon shafqatsiz bostiriladi, Mazdak va uning ko‘p tarafдорлари qatl etiladi.

Turk xoqonligi. VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Janubiy Sibir va Oltoyda turkiy qabilalar ittifoqi shakllana boshlaydi. Turk atamasi ilk marta 542–yilda tilga olinadi. Turli manbalarda turklar “turk el”, “turk”, “turkapg”, “tudus”, “tu-kyu”, “tuk-yut” nomlari bilan tilga olinadi. Kuchli, baquvvat, botir ma’nolarni anglatuvchi “turk” atamasi dastlab etnik xususiyatga eta bo‘lmay ijtimoiy ma’noga ega bo‘lgan.

551 – 552 yillarda Turk xoqonligi vujudga keladi. Turkiylarning Ashin urug‘idan bo‘lgan Asan va Tuu turkiy qabilalar ittifoqiga asos soladilar. Tuuning o‘g‘li Bumin boshchiligidagi qabilalar ittifoqi Oltoydagি o‘zлari qaram bo‘lgan

jujanlarga qarshi kurash boshlaydi va 551- yilda ular tor-mor keltiriladi. 552-yilda Bumin xoqon deb e'lon qilinadi va yangi davlat – Turk hoqonligiga asos soladi. Uning poytaxti Olttoydag'i O'tukan edi.

Bumin o'z ukasi Istemiga birinchi sarkarda, davlatning birinchi amaldori unvoniga to'g'ri keluvchi "Yabg'u" (bahodir) unvonini berib, u bilan birgaliqda o'z davlatini kengaytirish siyosatini olib boradi. Qisqa vaqt orasida Enasoy (Enisey) daryosi qirg'oqlarida yashovchi qirg'izlar, Janubi-G'arbiy Manchjuriyadagi kidanlar bo'ysundiriladi va Shimoliy Xitoy istilo etiladi. Xitoy imperatori turklarga katta o'lpon to'lashga majbur bo'ladi.

Turklar Istemiga boshchiligidagi Ettisuv va Sharqiy Turkistonning egallashadi. 555-yildayoq turklar Sharqiy Turkistonning katta qismini, Sirdaryo va Orol dengizi bo'ylarida hududlarni bosib olishadi. 552-yilda Bumin vafot etadi va taxtga Dyangu Qora Issiq xon o'tiradi. Ammo tez orada Qora Issiq xon ham vafot etadi. Shundan so'ng uning ukasi Mug'anxon (554 – 576) hokimiyatga keladi. Mug'anxon hukmronligi davrida Turk xoqonligi o'zining qudrati cho'qqisiga chiqadi. 554-yil Mug'an Uzoq Sharq o'lkalarni o'ziga bo'ysundiradi va Tinch okeanga chiqadi.

Xoqonlik Eron bilan yaxshi munosabatlarni qaror toptirishga, savdo aloqalarini o'rnatishga intiladi. Shu maqsadda Eron shohi Xusrav I Anushirvonga turk malikasi uzatiladi. Aslida Turk xoqoni va Eron shohining maqsadi eftallar davlatini o'zaro bo'lib olish edi. Shu bois 563-yildan eftallarga qarshi shimoldan turkiylar, janubdan esa sosoniylar hujum boshlaydi. Turkiylar tez orada Shosh vodiysini, Samarqand, Kesh, Naxshab egallaydi. Buxoro yaqinida eftallar va turkiylar o'ratasida sakkiz kunlik shiddatli jang bo'lib o'tadi va unda eftallar engiladi. Tabariyning yozishicha, Vars deb yuritilgan eftallar shohini Istami o'ldiradi va butun boyliklarini o'zlashtiradi.

Turk xoqonligi va Eron munosabatlaridagi iliqlik unchalik uzoqqa cho'zilmaydi. Sababi, Eron shohi O'rta Osiyo hududlariga da'vogar edi. Natijada Turk xoqonligi va Eron o'rutasida urush kelib chiqadi. Istami qo'shnlari Eron shohi Xisrav I ni engadi. Eron shohlari Turk xoqonligiga 400 ming Vizantiya tillasi

hajmida tovon to‘lashga majbur bo‘ladi. Mug‘an hoqon va uning avlodlari g‘arbda Qora dengizga qadar cho‘zilgan hududlarni zabit etishadi.

576-yilga kelib Turk xoqonligi Manchjuriyadan Bosfor bo‘g‘ozigacha, Eniseydan Amudaryo yuqori oqimlarigacha cho‘zilgan edi. Shu tariqa turk xoqonlari tomonidan ilk Evrosiyo imperiyasiga asos solinadi.

Turk xoqonligi 568 – 569 yillarda o‘sha davrning qudratli davlati – Sharqiy Rim imperiyasi (Vizantiya) bilan iqtisodiy va savdo-sotiq aloqalarini o‘rnatishga intilib, sug‘d savdogari Maniax boshchiligidagi elchilarni imperator Yustinian II huzuriga yuboradi. Shundan so‘ng Vizantiya elchilari xoqonlikka kelishadi.

Turk xoqonlari O‘rta Osiyo hududlarini mahalliy hukmdorlar orqali boshqarganlar. Mahalliy hokimlarning vazifasi asosan aholidan soliqlarni yig‘ib, ularning ma’lum bir qismini xoqonga yuborish bilan cheklangan. Ya’ni, bu davrda mintaqada oldidan mavjud mahalliy boshqaruv tizimi saqlanib qolingan, mahalliy davlat tuzulmalari ichki siyosatda mustaqil faoliyat olib borishda avom etgan. Shuning uchun ham, Farg‘ona, Sug‘d, Shosh, Tohariston, Xorazm va boshqa mulklardagi boshqaruv tartibi asosan mahalliy sulolalar qo‘lida bo‘lgan. Masalan, Sug‘d va Farg‘onada hukmdor – “ixshid”, Xorazmda – “xorazmshoh”, Toharistonda – “malikshoh”, Keshda – “ixshid”, Buxoroda – “xudot”, Ustrushonada – “afishi”, Choch va Ilokda – “ibudun” deb atalgan. Xitoy manbalariga ko‘ra, O‘rta Osiyoning dehqonchilik vohalarida to‘qqizta mustaqil hokimlik (Samarqand, Ishtixon, Maymurg‘, Kesh, Nahshab, Kushon, Buxoro, Amul, Andxoy) mavjud bo‘lgan. Ayniqsa, Xorazm, Buxoro, Samarqand va Choch (Toshkent) hokimliklari ancha mustaqil bo‘lgan. Mustaqil hokimliklar o‘rtasida esa o‘zaro urushlar, qurolli nizolar to‘xtovsiz sodir bo‘lib turgan. Bunday urushlar va ular bilan bog‘liq holda soliqlarning ko‘payishidan oqibatida esa, birinchi navbatda, oddiy mehnatkashlar aziyat chekishadi. Bu esa turli qo‘zg‘olonlarga olib kelgan. Ana shunday qo‘zg‘olonlardan biri 585 – 586 yillarda Buxoroda zodagon dehqonlar, boy savdogarlar zulmiga qarshi Abro‘y boshchiligidagi bo‘lib o‘tadi. Ammo qo‘zg‘olon shafqatsiz bostiriladi va Abro‘y qatl etiladi.

603 – yilda Turk xoqonligi ikkiga: G‘arbiy Turk xoqonligi va Sharqiy Turk xoqonligiga bo‘linib ketadi. G‘arbiy Turk hoqonligi tarkibiga O‘rta Osiyo, Chu vodiysi, Irtish, Ishim daryosi bo‘yidagi yerlar va Sharqiy Turkistonning bir qismi kirgan. Sharqiy Turk hoqonlik tarkibiga esa Mo‘g‘uliston kirgan. Xoqon Sheguy vafotidan keyin (618) hokimiyatga kelgan xoqon To‘n yabg‘u (To‘n shoh) davrida G‘arbiy xoqonlik yana kuchayadi. Uning chegaralari Oltoydan to Hind daryosigacha cho‘zilib ketadi. VII–asrda g‘arbiy hoqonlikda xo‘jalik hayoti ravnaq topib, shaharlar rivojlangan. Hoqonlikning Eron va Xitoy bilan savdo hamda diplomatik aloqalari kuchaygan. Xitoyda Tan sulolasi hukmronligi davri (618 – 907) da G‘arbiy Turk xoqonligi va Xitoy o‘rtasida savdo va diplomatik aloqalar yaxshilanadi. O‘sha davrda xitoylik sayyoh Syuanssin Choch, Samarqand va Buxoro gavjum va boy shaharlar bo‘lganligi xususida ma’lumotlar beradi. Tan sulolasi 659 – yilda Sharqiy Turk hoqonligini o‘ziga bo‘ysundiradi.

Turk xoqonligining sharqiy yerlaridan farqli o‘laroq G‘arbiy hududda ijtimoiy–iqtisodiy va madaniy hayot ancha yuqori edi. Sharqiy hududlarda esa urug‘-qabilachilik munosabatlari kuchli bo‘lgan. Aholining quyi tabaqasi budun yoki qora budun deb atalgan. Urug‘-qabilaning nomdor vakillari “beklar” deb yuritilgan. Muhim qarorlar xoqon va zodagonlar kengashi – qurultoyda qabul qilingan.

Turk xoqonligida oliv hukmdor xoqon bo‘lib, taxt katta yoshdagil sulola vakili egallagan. Xoqondan keyingi shaxs Yabg‘u (bahodir) davlatdagi birinchi amaldor vazifasida bo‘lgan. Ammo yabg‘u taxtga merosxo‘rlik qila olmas edi. Taxt merosxo‘ri Tegin (shahzoda) deb yuritilgan. Shod unvoni tuman va viloyat hokimligidagi shahzodalarga berilgan.

Ilk o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda sug‘d va xorazm yozuvlari bilan bir qatorda turkiy yozuv ham tarqalgan edi. Sug‘d yozuvi esa 22 ta harfdan iborat bo‘lib, chapdan o‘ngga qarab yozilgan. Shaharlarda sug‘d va turk tillari tarqalgan. Bu haqda Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” (XI asr) asarida ham ma’lumotlar uchraydi.

Shunisi e'tiborlikni, Turk xoqonligida diniy bag'rikenglik hukm surgan, aholi turli diniy e'tiqodlarga sig'ingan, umuman, ko'p xudolilik rasm bo'lган. Bu davrda O'rta Osiyo xalqlari orasida zardushtiylik, buddaviylik, moniylik va xristianlik (nasroniylik) dinlari tarqalgan edi. Turkiylar quyosh, oy, yer - suv, hayvonlar va boshqa narsalarga sig'inishgan, ularning oliv xudosi – Tangri edi.

Turk xoqonligi davrida O'rta Osiyoning iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha rivojlangan. Kushonlar va eftallar davrida boshlangan iqtisodiy o'sish Turk xoqonligi davrida ham davom etadi. Mamlakat asta sekin quldorlik munosabatlariga nisbatan ilg'or bo'lган er egaligi munosabatlariga o'ta boshlaydi.

O'rta Osiyoda arablar hukmronligi. Kishilik jamiyati tarixiga katta ta'sir ko'rsatgan musulmonsivilizatsiyasining yaratilishi – bu G'arbda Atlantika okeanidan Sharqda Hindiston va Xitoygacha bo'lган hududlarda vujudga kelgan Arab xalifaligi bilan bevosita bog'liqdir. Arab xalifaligi O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston, Yaqin va O'rta Sharq, Shimoliy Hindiston, Pireney yarim oroli va Shimoliy Afrika xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida yangi bir davrni belgilab berdi. Eng qizig'i shundaki, arablar VI asrning o'rtalarigacha dunyo taraqqiyotini belgilashdan chekkada, katta tarix sahnasiga chiqmagan edi.

VI asr o'rtalarigacha arablar Arabistonda urug'-qabilachilik munosabatlari emirilayotgan va quldorlik munosabatlari esa hali kuchli bo'lган sharoitlarda kun kechirishgan. Arabiston asosan sahrolardan iborat bo'lib, faqat Hijoz va Yaman vohalarida o'troq hayot kechirish uchun tabiiy sharoitlar birmuncha qulay edi. Vohalarda aholi dehqonchilik, savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullanishgan.

Yamandan boshlangan savdo yo'li Makka va Madina shaharlaridan o'tib Misr, Vizantiya va Suriyaga chiqqan. Lekin Arabistondagi siyosiy tarqoqlik, qabilaviy nizolar, butparastlik, savdo yo'llaridagi qaroqchilik ijtimoiy rivojlanishga katta to'siq edi.

Mazkur sharoitlarda birdan bir haq yo'l, yangi din – islom ("itoat", "bo'ysunish", "bo'yin egish" ma'nolarini anglatadi)ga da'vat boshlandi. Islom harakatiga Muhammad (s. a. v.) (570 – 632) rahnamolik qiladi. Islomni qabul qilib,

rasulullohga ergashgan uning izdoshlari muslim (musulmon)lar, ya’ni islomga sodiq itoatkorlar deb atalardi.

622-yilda Muhammad (s. a. v.) Makkada muvaffaqiyat qozona olmagach, Madinaga ko‘chish (hijrat)ga majbur bo‘ladi. Shu vaqtdan hijriy yil hisobi boshlanadi. Muhammad payg‘ambar 630-yilda ko‘p sonli arab qabilalarining islom dini asosida birlashtirdi va markazlashgan davlatga asos soldi. Muhammad (s. a. v.) 632-yilda vafot etgach, Abu Bakr (632 – 634), Umar (634 – 644), Usmon (644 – 656) va Ali (656 – 661) xalifa (“o‘rinbosar”) deb e’lon qilinadi. Shu tariqa, ularning hukmronligi yillarida ilk markazlashgan musulmon davlati – Arab xalifaligi tashkil topdi, Misr, Suriya, Falastin, Iroq, Eron bo‘ysundirildi va islom jahon dillaridan biriga aylandi..

Umaviylar davrida (661 – 750) esa Arab xalifaligi kengayib, uning tarkibiga Shimoliy Afrika, Misr, Ispaniya, Shimoli-Sharqda Kichik Osiyoning katta qismi, Eron va Shimoliy-G‘arbiy Hindiston kirar edi.

VII asr o‘rtalariga kelib xalifalik e’tibori O‘rtal Osiyo yerlarini bosib olishga qaratiladi. 651 – yilda arablar jangsiz Marv shahrini egallaydilar. Arablar bu hududlarni Xuroson deb ataydilar. Xuroson tarkibiga Eronning shimoli-sharqiy qismi, Janubiy Turkmaniston va hozirgi Afg‘onistonning shimoli kirgan. Arablar Xurosandan Amudaryodan shimolda joylashgan boy hududlarni istilo qilishda platsdarm sifatida foydalanishadi. Bu yerlarni arablar Movarounnahr, ya’ni “daryoning narigi tomoni” deb ataganlar.

Arablar Movarounnahrni ikki bosqichda istilo qildi. Dastlab xalifalik o‘lkamizni bosib olish maqsadida emas, balki o‘ljalar orttirish va mahalliy hukmdorlarning kuchlarini sinab ko‘rish rejasida yurishlar uyushtiradi. Arablar 654 – yilda Maymurg‘ni, 667 – yilda Chag‘oniyonni, 673 – yilda Poykand, Romitonni egallashi, so‘ngra Buxoro hukmdorini engib, katta boyliklarning qo‘lga kiritilishi va 675 – 676 yillarda Said ibn Usmonning yangidan Buxoro va Samarqandga qo‘sish tortishi va yana katta boylik va 30 ming asirlar bilan qaytib ketishi – bular Movarounnahr egallanishining birinchi bosqichi edi.

Movarounnahrning arablar tomonidan istilo qilinishining ikkinchi, hal qiluvchi bosqichi 704-yilda Qutayba ibn Muslim Xuroson noibi etib tayinlanishi va uning Movarounnahrni bosib olishi bilan boshlanadi. Qutayba harbiy yurishni 705-yilda Balx atroflarini bosib olishdan boshlaydi. U 707-yilda katta qo'shin bilan Amudaryodan kechib o'tib, "Madina at-tujjor", ya'ni "savdogarlar shahri" nomi bilan mashhur Poykandni egallaydi. 710-yilda Kesh (Shahrisabz) va Nasafni ishg'ol etiladi va Qutayba Samarqandga yurish boshlashga tayyorgarlik ko'radi. Ammo 711-yilda Xorazmshoh Chag'on o'z ukasi Hurzod boshchiligidagi qo'zg'oltonni bostirishda yordam so'rab Qutaybaga murojaat qiladi. Qutayba Xorazmga yurish boshlaydi va qo'zg'olon bostiriladi, Hurzod esa qatl etiladi. Xorazmshoh Chag'on Qutayba bilan sulk tuzib, unga juda katta miqdorda boj to'laydi, arablarga qo'shin berishga majbur bo'ladi va shu tariqa Xorazm o'z mustaqillagini yo'qotadi.

712-yilda Qutayba o'z qo'shini hamda Xorazmshoh va Buxorxudod qo'shinlari bilan birgalikda Samarqandga yurish qiladi. Kattaqo'rg'on va Karmana oralig'ida arablar va Samarqand ixshidi (hukmdori) G'urak qo'shini o'rtaida shiddatli jang bo'lib o'tadi. Unda G'urak engiladi va Samarqandga chekinadi. Shundan so'ng G'urak va Qutayba o'rtaida sulh tuziladi. Sulh shartnomasiga ko'ra G'urak arablarga bir yo'la 2 ming, yiliga esa 200 ming dirham hisobiga boj to'lashi, 30 ming nafar odam berishi, shaharda askar saqlamasligi, otashparastlik ibodatxonalarini buzishi, butlarni topshirish, masjid bino qilishi lozim edi.

713-yilda Qutayba qo'shini Sirdaryo orqali yurish boshlab, O'rta Osiyoning sharqiy hududlarini, Chochni egallahsga kirishadi. Qutayba 715-yilda Farg'ona vodiysini to'liq bosib olib, Qoshg'argacha bo'lgan hududlari ham istilo etadi. Ammo, u 715-yilda Farg'onada o'z askarlari tomonidan o'ldiriladi. Shu tariqa o'n yil davom etgan qirg'inbarot urushlar natijasida Vatanimiz hududlari istilo qilinadi.

Arab istilochilar Movarounnahrni avval yarim asr davomida muttasil taladilar va katta boy o'ljalarga ega bo'ldilar. Asrlar davomida yaratilgan noyob moddiy va ma'naviy boyliklar, asori atiqalar talandi, yakson qilindi. Mahalliy

yozuvlarda bitilgan son-sanoqsiz nodir kitoblar, qo‘lyozmalar yo‘q qilindi. Zardushtiylik, buddaviylik va nasroniylik ibodatxonalari vayron etildi yoki masjidlarga aylantirildi. Ayniqsa zardushtiylikka qarshi keskin kurash olib borildi. Diniy kitoblar, umuman, biz hozirda tasavvurimizga ham keltirishimiz mumkin bo‘lмаган түрли адабиётлар yo‘q qilindi.

“Qutayba ibn Muslim Xorazm xattotlarini qatl ettirdi va din peshvolarini qirib tashlab, ularning kitob va qo‘lyozmalarini yoqib yuborgandan keyin, – deb yozadi Beruniy, – xorazmliklar savodsiz bo‘lib qoldilar, ularning faqat yodda saqlab qolgan xotiralarigina qoldi, ammo vaqt o‘tishi bilan bu unutilib, faqat o‘zлари учун мос bo‘lgan xotiralargina saqlanib qoldi”.

Movarounnahrda arab istilochilari ko‘plab soliqlar va o‘lponlarni joriy etdilar. Bu vaqtda majburiy bo‘lgan soliq turlari: xiroj (er solig‘i) – daromadning uchdan bir qismi, ushr – daromadning 10 foizi miqdorida, zakot – mol-mulkning 2,5 foizi yoki 40 dan biri miqdorida, jiz’ya (musulmonchilikni qabul qilmaganlarga jon solig‘i) – oziq-ovqat, xomashyo yoki pul hisobida joriy qilingan, shuningdek, mahalliy va mavsumiy soliq va majburiyatlar ham mavjud edi. Soliqlarni to‘lamagan kishilar sazoyi qilingan va qattiq jazolangan.

O‘rta Osiyoda islom dinini tarqatish og‘ir kechgan. Arab istilochilari islomlashdirish siyosatini olib borishda “qamchi va shirinlik”, ya’ni muayyan vaziyatda kuch ishlatish va boshqa holatda esa yangi dinni qabul qilganlarga bir qadar engilliklar berish usulidan foydalanishgan. Shuning uchun ham dastlab odamlar noilojlikdan islomni dinini qabul qilishgan, yashirinchcha tarzda esa eski dinlariga e’tiqod qilishaverган.

O‘rta Osiyoda arab bosqinchilariga qarshi kuchli qo‘zg‘olonlar bo‘lib turgan. 720 – 722 yillarda So‘g‘diyonada Samarqand ixshidi G‘urak va Panjikent hokimi Divashtich boshchiligidagi qo‘zg‘olon bo‘lib o‘tadi. Ushbu qo‘zg‘olon arablar hukmronligiga qarshi uyushgan tarzdagi ilk harakat edi.

Xuroson noibi Said Xaroshiy qo‘zg‘olonchilar bilan muzokaralar olib boradi va G‘urak boshliq sug‘d zodagonlarining bir qismi arablarga taslim bo‘ladi. Qo‘zg‘olonchilarning qolgan qismi esa jangda engiladi. Sulh tuzilgach, katta

mablag‘ evaziga hayotini saqlab qolgan 400 nafar kishidan tashqari, barcha qo‘zg‘olonchilar xiyonatkorona qatl etiladi. Divashtich boshliq qo‘zg‘olonchilarning boshqa qismi Obgar qal’asida qamalga olinadi. Omon qoldirish sharti bilan taslim bo‘lgan Divashtich qatl etiladi, uning boshi Iroq hokimiga yuboriladi, tanasi otashparastlar xilxonasi devoriga qoqib qo‘yiladi.

725 – 729 yillarda og‘ir soliqlarga qarshi Xuttalon va Sug‘dda qo‘zg‘olon ko‘tariladi. Aholini tinchlantirish maqsadida islomni qabul qilganlar xiroj va jiz’ya to‘lamasliklarini e’lon qilinadi. Shundan so‘ng qo‘zg‘olonchilar safidagi zodagonlarning aksariyati arablar tarafiga o‘tishadi. 736–737 yillarda Tohariston va Sug‘dda yana qo‘zg‘olon ko‘tariladi. Arablar tang ahvolda qolib, Xuroson va Movarounnahr noib va amirlari bir necha marta o‘zgartiriladi. Xurosonning yangi noibi Nasr ibn Sayyor (738–748) qo‘zg‘olonlarni bostirish uchun Samarqand, Choch, Farob va Farg‘onaga harbiy yurishlar qiladi. Ayni vaqtda u mahalliy aholiga, ayniqsa, zodagonlarga yon berishga majbur bo‘ladi. Buning natijasida arab istilochilari va mahalliy zodagonlar o‘rtasida ittifoq vujudga keladi.

Har qanday feodal davlat singari Arab xalifaligida ham tarixan qisqa vaqt dan keyin – VIII asrning 40 – yillar oxirida siyosiy ziddiyatlar kuchaydi. Xurosonda 748-yilda Abu Muslim boshchiligidagi qo‘zg‘olon Bag‘dodda Umaviy Marvon II taxtdan ag‘dariladi, umaviylar sulolasining o‘rniga abbosiyalar hukmronligi (750 – 1258) o‘rnatalishiga olib keladi. Qo‘zg‘olonchilar safida kambag‘allar anchagina edi, ular o‘z hayoti yaxshilanishida “yaxshi podsho”ga umid qilardi.

O‘rta Osiyo xalqlarining arab mustamlakachiligiga qarshi kurashi ayniqsa Muqanna boshchiligidagi qo‘zg‘olonda o‘zining cho‘qqisiga chiqadi. Tarixda “Oq kiyimlilar” qo‘zg‘oloni nomi qolgan ushbu qo‘zg‘olonga Hoshim ibn Hakim – Muqanna (“niqobdor”) rahbarlik qilgan. Narshaxiy “Buxoro tarixi” nomli asarida Muqanna haqida shunday deydi: “Muqanna Marv atrofi aholisidan, Kozi deb atalgan qishloqdan bo‘lib nomi Xoshim ibn Hakim edi. U ilgari Kudunga (kigiz bosuvchi)lik qilar edi, keyin ilm o‘rganshga mashhur bo‘ladi va har xil ilmlarni: ko‘zbo‘yamachilik, sehr va tilsim ilmlarini o‘rganadi. Ko‘zbo‘yamachilikni yaxshi bilib olib payg‘ambarlik da’vosini ham qiladi. Muqanna

ko‘zbo‘yamachilikni o‘rgangan va g‘oyatda ziyrak bo‘lib, qadimgi olimlar ilmlariga oid ko‘p kitoblardan o‘qigan va jodugarlikdan ustoz bo‘lgan edi. Uning otasining nomi Hakim, u Abu Ja’far davridagi Xuroson amiri lashkarboshlaridan bo‘lib, asli Balxdan edi”.

Muqanna 769 – yilda Marvda arablarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradi. Qo‘zg‘olonchilar maqsadi ijtimoiy tenglikni qaror toptirish, ma’jusiylikni qayta tiklash va arab istilochilarini mamlakatdan haydab chiqarish edi. Muqannaning o‘zi harbiy bilim va tajribaga ega bo‘lib, u Abu Muslim qo‘zg‘olonida ham qatnashgan. Shuning uchun ham Muqanna qo‘zg‘oloni o‘n to‘rt yil davom etgan va arablar uchun uni bostirish qiyin kechgan.

Muqanna qo‘zg‘oloni Movarounnahrga ham tarqaladi va uni aholining katta qismi qo‘llab quvvatlaydi. Qo‘zg‘olonchilarining ijtimoiy tarkibi bir xil bo‘limgan, unda mahalliy zodagonlar ham ishtirok etishgan. Arab istilochilar esa qo‘zg‘olonchilar kuchlarini zaiflashtirish maqsadida zodagonlarni o‘z tomoniga ag‘darib olishga muvaffaq bo‘lishadi. 783-yilda qo‘zg‘olonchilar Kesh (Shahrisabz)da to‘plangan, Som qal’asi ularning oxirgi tayanchi bo‘ldi. Muqanna arablar qo‘liga tirik tushishni istamay o‘zini olovga tashlab halok qiladi.

Garchand Muqanna qo‘zg‘oloni mag‘lubiyatga uchrasa ham, ammo uning boshchiligidagi qurolli kurash xalifalikning zaiflashuviga xizmat qildi. Arab istilochilar mahalliy xalqqa munosabatni qaytadan ko‘rib chiqishga majbur bo‘lishdi, soliqlarga o‘zgarishlar kiritildi. Shuningdek, Muqanna qo‘zg‘oloni arablar hukmronligining doimiy davom etishi mumkin emasligini ko‘rsatdi.

Movarounnahrda arablarga qarshi xalq harakatlari Muqanna qo‘zg‘olonidan keyin ham davom etadi. 806 – 810 yilda Samarqandda Rofe’ ibn Lays boshchiligida qo‘zg‘olon bo‘lib o‘tadi. Qo‘zg‘olon Farg‘ona, Xo‘jand, Buxoro, Ustrushona, Xorazm, Chag‘aniyon va Xuttalon viloyatlarini qamrab oladi. Rofe’ ibn Lays qo‘zg‘oloni ham mag‘lubiyatga uchrasada, ammo u arablar hukmronligidan xalos bo‘lishga qulay imkoniyatlarni yaratadi.

Xulosa sifatida aytganda, “qilich va qon” bilan O‘rta Osiyoda islom dinining tarqalishi natijasida mintaqalari arab-musulmon madaniyatining yuksalishiga

ham juda katta ta'sir ko'rsatdi, fanda “Musulmon Renessansi” sifatida ta'riflangan, insoniyatsivilizatsiyasi rivojiga nihoyatda kuchli ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-madaniy hodisaning tom ma'nodagi yaratuvchilaridan biriga aylandi.

Arab istilochilariga qarshi qo'zg'olonlar

- | |
|---|
| 720 – 722 yillarda Sug'diyonada G'urak va Divashtich boshchiligidagi qo'zg'olon |
| 725 – 729 yillarda Samarqand, Buxoro va Xuttalondagi qo'zg'olon |
| 736 – 737 yillarda Tohariston va Sug'dda qo'zg'olon |
| 746 – 749 yillarda Xurosonda Abu Muslim boshchiligidagi qo'zg'olon |
| 769 – 784 yillarda Muqanna qo'zg'oloni |
| 806 – 809 yillarda Ro'fi ibn Lays qo'zg'oloni |

Savollar va topshiriqlar

1. Eftallar davlatining vujudga kelishi va parchalanishi sabablarini yoriting.
2. Mazdakiylik g'oyalari tahlil qiling.
3. Turk xoqonligi qachon vujudga kelgan?
4. Turk xoqonligi vujudga kelishi va tarqalib ketishining sabablarini tahlil qiling?
5. Arabistonda islom dini qanday omillar ta'sirida yuzaga keldi?
6. Arab istilochilarining O'rta Osiyoda hukmronligini o'rnatalishining asosiy sabablari nimalardan iborat edi?
7. Muqanna qo'zg'oloni va uning engilish sabablarini yoriting.
8. O'rta Osiyoda islom dini tarqalishida iqtisodiy omillarning roli qanday bo'lган?
9. Nima uchun Movarounnahrda arab istilochilari zodagonlar bilan yaqinlashish siyosati olib borishga majbur bo'lishgan.

6 – §. IX – XII asrlarda o'zbek davlatchiligi. Uyg'onish davri madaniyati

Tohiriyalar davlati. VIII asr oxiri – IX asr boshlariga kelib Movarounnahr va Xurosonda qo'zg'olonlar Arab xalifaligining zaiflashuviga olib keldi. Abbosiy

xalifalar Movarounnahr va Xurosondagi siyosatni bir qadar o‘zgartirishga, boshqaruvda mahalliy zodagonlar xizmatidan foydalanishga majbur bo‘ladi. Shu orqali Abbosiylar o‘lkani xalifalik tasarrufida saqlab qolmoqchi edi.

809-yilda Xalifa Horun ar-Rashid vafot etgach, taxt uchun uning o‘g‘illari Amin va Ma’mun o‘rtasida qurolli kurash boshlanadi. Ma’mun Tohir ibn Husayn yordamida xalifalik taxtini egallaydi va uni minnatdorchilik tariqasida 821-yilda Xuroson va Movarounnahrga noib etib tayinlaydi. Tohir ibn Husayn esa xalifaga bo‘ysunmay qo‘yadi va tohiriylar davlatiga asos soladi. Uning poytaxti dastlab Marv, so‘ng Nishopur bo‘lgan.

Tohiriylar mustahkam hokimiyatni barpo etish va qishloq xo‘jaligini rivojlanТИш borasida bir qancha o‘zgarishlarni amalga oshiradi, soliqlar biroz kamaytiriladi, yangi kanallar bunyod etiladi va suv taqsimoti bo‘yicha qonunlar tuziladi. Ushbu qonunlar esa keyinchalik ham yuz yillar davomida foydalanib kelndi. Tohir ibn Husaynning o‘g‘li Abdullohga yozgan xatida shunday deyiladi: “Shuni bilginki, boylik ko‘payib xazina to‘lib toshganda ham u daromad keltirmaydi. U fuqaro zarurati, ular haq-huquqlarini ado etishga, ularni tashvish va qarzlardan ozod etish uchun sarflangan taqdirdagina ko‘payadi, ortib boradi; bu bilan xalq ommasining e’tibori qozoniladi; shu bilan xalq farovonligi ta’minlansa, bu hokimlarga zeb beradi, davronning emin-erkinligi shu bo‘ladi, shuhrat va qudrat bag‘ishlaydi; shu bilan birga agar shunday ish yuritsang, er solig‘ini katta miqdorda undirish imoniyatiga ega bo‘lasan va boyliging oshadi. Bu bilan sen xalq ommasiga sahovat qo‘lini ochsang, boyliging ortadi, kuch-qudrat egasi bo‘lasan, qo‘shin saqlaysan va hammani o‘zingga maftun etasan”. Ammo tohiriylar hukmdorlar zodagonlar manfatlarini ko‘proq himoya qilgan. Shu bois IX asrning 60 – 70 yillaridan tohiriylarga qarshi g‘alayonlar kuchayadi va ularga g‘oziyalar etakchilik qiladi. (“G‘oziyalar” ko‘chmarchilar hujumini bartaraf qilish maqsadida kambag‘al hunarmandlar va yersiz ziroatchilardan iborat qo‘shin). G‘oziyalar qo‘zg‘oloniga aka-uka hunarmandlar Yoqub va Amir ibn Lays boshchilik qiladi. Qo‘zg‘olonchilar 873-yilda Tohiriylar davlatiga barham beradi

va hokimiyatga Yoqub ibn Lays asos solgan safforiylar (“misgarlar”), sulolası keladi (Yoqub hunarmand-misgar – “saffor” edi).

Manbalarga qaraganda, Yoqub ibn Lays izzat-ikromni, xushomadguylikni, tantanalarни yoqtirmaydigan, oddiy odamlar singari yashagan hukmdor bo‘lgan. Ammo Yoqub ibn Lays oddiy xalqdan chiqsada, uni og‘ir soliqlar va majburiyatlar xalos qilmaydi.

Somoniyalar davlati. IX asr boshlarida Movarounnahrda somoniylar davlatini vujudga keladi. Bu vaqtda abbosiylar xalifalik sharqiy viloyatlarni boshqarishda davlat ishlariga mahalliy zodagonlarni jalb qilish orqali viloyatlarni o‘z tasarrufida saqlab qolishga intilishadi. Shuning uchun ham xalifa Ma’mun taxtni egallahda unga xizmat qilgan balxlik (ba’zi manbalarda esa, Termiz yaqinidan bo‘lgan) mahalliy hukmdorlardan bo‘lgan Somonxudot nabiralariga Movarounnahrni boshqarish huquqini beradi. Nuh Samarqandga, Ahmad Farg‘onaga, Yahyo Shosh va Ustroshonga, Ilyos Hirotg‘a noib etib tayinlandi.

IX asr o‘rtalarida Ahmad va uning katta o‘g‘li Nasr (856 – 888) Movarounnahrni birlashtiradi va Samarqandni poytaxt etib belgilaydi. 873-yilda Xurosonda tohiriylar sulolası ag‘darilgach Buxoroda somoniylar hukmronligi o‘rnataladi. Nasr ibn Ahmad ukasi Ismoilni 874-yilda Buxoroga noib etib tayinlaydi va shu bilan deyarli butun Movarounnahrda somoniylar hukmronligi o‘rnataladi. Ammo Ismoil Buxoroda o‘z hokimiyatini kuchaytira borgach, vassallik mavqeini tan olmay qo‘yadi. Oqibatda aka-uka hukmdorlar o‘rtasida o‘zaro urush boshlanadi. 888-yilda Nasr va Ismoil o‘rtasidagi jang bo‘lib o‘tadi. Jangda Ismoil g‘olib chiqadi va Movarounnahrga hukmdor bo‘ladi.

Ismoil Somoni qobiliyatli davlat arbobi va etuk sarkarda edi. U 893-yilda ko‘chmanchi qabilalarga qarshi yurish qilib, ularning bosqinlariga barham beradi.

Xalifa Mu’tazid (892 – 902) esa safforiylar va somoniylarni to‘qnashtirishga harakat qiladi. 900-yilda Balx yaqinida safforiylar va somoniylar o‘rtasida jang bo‘lib o‘tadi va unda Ismoil Somoni g‘alaba qozonadi. Ismoil Somoni (907 – 914) Movarounnahr, Xuroson, Eronning sharqiy va shimoliy viloyatlarini o‘z ichiga olgan qudratli davlat tuzadi.

907-yilda Ismoil Somoni vafotidan so‘ng taxtga uning o‘g‘li Ahmad keladi. Ahmad davrida davlatni idora etishda arab tili qayta tiklanadi va boshqa bir qancha o‘zgarishlar amalga oshiriladi. Bu esa zodagonlar va saroydagi turk g‘ulomlari orasida norozilik uyg‘otadi. 914-yilda Ahmad o‘ldiriladi, taxtga uning 8 yoshli o‘g‘li Nasr ibn Ahmad o‘tqaziladi.

922-yilda esa Ilyos ibn Ishoq qo‘zg‘oloni bo‘lib o‘tadi. Qo‘zg‘olonlar va isyonlar girdobida qolgan Somoniylar davlati inqirozga yuz tuta boshlaydi. Harbiy xarajatlar tufayli bo‘shab qolgan xazinani to‘ldirish uchun soliqlarning ko‘payishi, viloyat hokimlarining mustaqilikka intilishi va taxt uchun o‘zaro urushlar esa somoniylar saltanatini ichdan emiradi. 992-yil va 999-yilda Qoraxoniy hukmdorlar – Hasan va Nasr Bug‘roxon Buxoroni egallaydilar. Shu vaqtidan Movarounnahrda Qoraxoniyalar hukmronligi boshlanadi.

Qoraxoniyalar davlati. X-asrning ikkinchi yarmida Ettisuv, Sharqiy Turkistonda turkiy elatlar ittifoqi natijasida Abdulkarim Sotuq Bug‘roxon (859–955) boshchiligidida Qoraxoniyalar davlati tashkil topadi. Qoraxoniyalar qisqa vaqtda katta hududlarni istilo qiladi. Bug‘roxon vorislari Markaziy Tyan-Shan va Ettisuvni egallaydi. Shundan keyin Movarounnahr istilo etiladi.

Ammo XI asr o‘rtalarida Qoraxoniyalar sultanati ichki ziddiyatlar sababli G‘arbiy va Sharqiy xoqonlikka bo‘linib ketadi. G‘arbiy xoqonlik markazi Samarqand bo‘lib, uning tarkibiga Movarounnahr kirgan. Sharqiy xoqonlik markazi Sharqiy Turkistondagi Bolasog‘un shahri bo‘lib, uning hududi Talas, Isfijob, Shosh (Toshkent), Farg‘ona, Ettisuv va Qoshg‘ar yyerlaridan iborat edi.

Sulton Sanjar (1118 – 1157) zaiflashib qolgan qoraxoniyarlari vassaliga aylantiradi. 1211-yilda Muhammad Xorazmshoh esa Movarounnahrda qoraxoniyalar hukmronligiga chek qo‘yadi.

Qoraxoniyalar davrida Movarounnahrda yirik feodallar – dehqon mulkchiligi yakun topadi, “dehqon” atamasi esa ziroatachilarga nisbatan qo‘llaniladigan bo‘ldi.

G‘aznaviylar davlati. 961-yilda Somoni hukmdor Abdul Malik vafot etadi va shundan so‘ng davlat zaiflashganligidan foydalanib, G‘azna mulki turkiy qavmga mansub qobiliyatli lashkarboshi Alptegin qo‘liga o‘tadi. Shu tariqa

G‘aznaviyalar davlatiga asos solinadi. Ammo ba’zi tarixiy manbalarda Sabuqtegin G‘aznaviyalar davlatining asoschisi sifatida ta’riflanadi. 997-yilda Amir Sabuqtegin vafot etadi va uning kichik o‘g‘li Ismoil taxtga o‘tiradi. Ammo 998-yilda harbiy jasoratlari uchun Sayf ud-davla – “sultanat qilichi” degan nomga sazovor bo‘lgan, Sabuqteginning ikkinchi o‘g‘li Mahmud (998 – 1030) taxtni egallaydi.

Sulton Mahmud kuchli qo‘sish tuzib, juda ko‘p bosqinchilik yurishlarni amalga oshiradi. Uning davrida G‘aznaviyalar davlati nihoyatda kuchayadi. 1002-yilda Bag‘dod xalifasi Mahmud G‘aznaviyaga hukmronlik qilish uchun yorliq yuboradi. U XI asr boshlarida Amudaryo bilan belgilangan shimoliy chegaralarni Qoraxoniylar bilan kelishib olgach, o‘zining harbiy yurishlarini Hindistonga, G‘arbda – Xuroson va unga chegaradosh hududlarga qaratadi. Sulton Mahmud Hindistonga 17 marta yurish qiladi va u erdan juda ko‘p boyliklar va asirlarni olib keladi. 1008-yilda Balx yaqinida Mahmud G‘aznaviy Qoraxoniylarni engadi va Xuroson, Chag‘aniyon, Xuttalon g‘aznaviyalar tasarrufiga o‘tadi. 1010 – 1011 yillarda G‘ur viloyati, 1024-yilda Sug‘d egallanadi. 1017-yilda Mahmud G‘aznaviy Xorazmga yurish qiladi. Bunga sabab uning kuyovi va ittifoqchisi xorazmshoh Ma’munning qo‘zg‘olonchilar tomonidan o‘ldirilishi bo‘ldi. Xorazm egallangach, Sulton Mahmud “Ma’mun akademiyasi” olimlari, jumladan, Abu Rayhon Beruniyni G‘azna shahriga olib ketadi. 1030-yilda Sulton Mahmud G‘aznaviy vafot etadi. Taxt Mahmud vasiyatiga o‘g‘li Muhammadga ixtiyoriga o‘tadi. Ammo Mahmudning katta o‘g‘li Ma’sud (1030 – 1041) taxtni ukasidan tortib oladi.

Sulton Ma’sud davrida G‘aznaviyalar davlati inqirozga yuz tuta boshlaydi. Dastlab Xorazm o‘z mustaqilligini tiklaydi. G‘aznaviyarlarning kelajakdag‘i yirik raqibi bo‘lgan yangi sulola Saljuqiylarning siyosiy kurash maydoniga kelishi ham sulton Ma’sud davriga to‘g‘ri keladi. Mahmud G‘aznaviyning ruxsati bilan Shimoliy Xurosonga joylashib olgan saljuqiylar vaqtি kelib G‘aznaviyalar asosiy raqibiga aylanadi.

Saljuqiylar 1035-yilda Niso shahrini, 1037-yilda esa Marv viloyatini egallab, Bag‘dod xalifasiga hokimiyatni boshqarish uchun yorliq so‘rab elchi jo‘natdilar.

Keyingi yillarda Saljuqiylar Tog‘rul boshchiligidagi G‘aznaviylargaga bir qancha zarbalar berib Xurosonning katta qismini egallab oladi. 1040- yil mayda Marv yaqinidagi Dandanakon yaqiindagi jangda Sulton Ma’sud qo‘shinini Saljuqiylar tor-mor keltiradi. Sulton Ma’sud G‘aznaga qochadi, ammo o‘sha erda o‘ldiriladi va Taxtni Ma’sudning ukasi Muhammad egallaydi. Lekin Ma’sudning o‘g‘li Ma’dud (1041 – 1048) Muhammadni o‘ldiradi va taxtga keladi. Ammo Sulton Ma’sud vorislari G‘aznaviylar davlatining ilgarigi qudratini tiklashga muvaffaq bo‘la olmaydi. G‘aznaviylar davlati XII asr oxirlarida hozirgi Afg‘oniston hududida tashkil topgan yangi davlat – G‘uriylar tomonidan tugatildi.

Saljuqiylar davlati. O‘rta Osiyo, xususan, O‘zbekiston tarixida Saljuqiylar davlati muhim ahamiyatga egadir. Saljuqiylar turkiy o‘g‘iz qabilalarining qiniq uruhidan bo‘lib ular Sirdaryoning quyi qismida, Orol dengizi atroflarida ko‘chmanchi tarzda hayot kechirganlar. Saljuqiylar sulolasining paydo bo‘lishi qiniq qabilasi boshlig‘i Saljuq nomi bilan bog‘liqdir.

1025-yilda qiniq qabilalari Saljuq nabiralari boshchiligidagi (to‘rt mingdan ziyod oila) sulton Mahmud G‘aznaviydan Shimoliy Xurosonga ko‘chib o‘tishga ruxsat so‘raydilar va Saraxs, Farova va Obivard atroflariga joylashadilar. Ammo og‘ir soliqlar ostida qolgan qiniqlar g‘aznaviylargaga qarshi isyon ko‘taradi va 1035-yilda Xurosonga hujumi boshlaydi. 1037-ular Marv viloyatini egallahadi va Bag‘dod xalifasi Saljuqiylarga hukmronlik uchun yorliq beradi. Shu tariqa Xurosonda Saljuqiylar davlati qaror topadi.

1040-yilda Marv yaqinidagi Dandanakon degan joyda sulton Ma’sud G‘aznaviy va saljuqiylar o‘ratasida hal qiluvchi jang bo‘lib o‘tadi va Ma’sud qo‘shinlari butunlay tor-mor bo‘ladi. Shundan so‘ng Saljuqiylar Gurgon, Dehiston va Xorazmni egallaydilar va Eron, hozirgi Afg‘oniston, Iroq, Kavkazorti va Kichik Osiyoga muvaffaqiyatlari harbiy yurishlar qiladi. Saljuqiy sulton Tog‘rulbek (1038 – 1063) Balx, Shimoliy Iroq, Ozarbayjon, Kurdiston va Qo‘histonni bosib oladi. 1055-yilda Bag‘dod egallanadi va sulton Tog‘rulbek nomiga xutba o‘qiladi. Ya’ni, xalifa diniy hokimiyatni saqlab qolgan holda dunyoviy hokimiyatni Tog‘rulbekka topshirishga majbur bo‘ladi.

Saljuqiylar sultanati Sulton Ali Arslon (1063 – 1072) va Sulton Malikshoh (1072 – 1092) davrida yanada yuksaladi. Sulton Malikshoh Samarqand, Buxoro va Farg‘onani bo‘ysundiradi. 1074-yilda Mansikert yaqinida saljuqiylar Vizantiya imperatori Roman IV Diogen qo‘sishinlarini mag‘lubiyatga uchratadi. Sulton Malikshoh vafotidan keyin esa taxt uchun urushlar boshlanadi, va nihoyat, 1118-yilda Malikshohning o‘g‘li Sulton Sanjar (1118 – 1147) hokimiyatga keladi.

Saljuqiylar sulolasining so‘nggi vakili Sulton Sanjar ulkan hududlarni o‘z davlatiga qo‘shib oladi. Sulton Sanjar sarkardalik mahorati tufayli “Ulug‘ sulton” va “Sultonlarning sultoni” nomlari bilan ulug‘langan. Ammo mahalliy hokimlarning mustaqillikka intilishlari, sulola vakillari o‘rtasidagi qurolli nizolar va turli qo‘zg‘olonlar Saljuqiylar davlatini zaiflashtirib qo‘yadi. 1141-yilda Sulton Sanjar Samarqand yaqinida Katvon cho‘lida qoraxitoylardan engiladi.

Vaziyatdan foydalangan Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad Otsiz 1141-yilda Saljuqiylar poytaxti Marvni bosib oladi va 1142-yilda Nishopurga yurish qildi. Bu vaqtda o‘zini o‘nglab olgan Sulton Sanjar Xorazmshoh qo‘sishinlarini Xurosondan haydab chiqaradi. Ammo Sulton Sanjar harakatlari tanazullga yuz tutgan saljuqiylar davlatini saqlab qololmaydi. 1153-yilda Sulton Sanjar o‘g‘uzlardan qaqshatqich mag‘lubiyatga uchraydi va asir olinadi. Sulton Sanjar 1156-yilda tutqunlikdan xalos bo‘lib, o‘z davlatini tiklashga muvaffaq bo‘ladi, ammo bir yildan keyin vafot etadi. Sulton Sanjar o‘limi bilan Saljuqiylar davlati ham tarixga aylanadi.

Xorazmshohlar davlati. Xorazm qadimgisivilizatsiya markazlaridan biri sifatida O‘rta Osiyo va boshqa yaqin va mintaqalarga o‘z ta’sirini o‘tkazib turgan. Xorazm hukmdorlari “xorazmshoh” nomi bilan davlatni boshqarganlar. Xorazmshohlar nomi bilan 305 – 995 yillarda afrig‘iylar, 995 – 1017 yillarda ma’muniylar (Ma’mun I Abdulhasan Ali, Ma’mun II), 1017 – 1034 esa Oltintoshlar (Oltintosh, Horun, Handon) va Anushteginiylar (1097 – 1231) sulolalari hukmronlik qilgan. XI asr boshlarida Xorazm davlati G‘aznaviylar (1017 – 1044), so‘ngra Saljuqiylar ta’sirida edi. XI asrning 40-yillarida Xorazm

qoraxitoylarga ham xiroj to‘lab turgan. Anushteginiylar sulolası (1097 – 1231) davrida Xorazm qudratlı davlatga aylanadi.

Saljuqiy sultonlardan Malikshoh Anushtegin (1077 – 1097) ni Xorazmga hukmdor etib tayinlaydi va u xorazmshoh unvonini qabul qiladi. 1097-yilda taxt Qutbiddin Muhammadga o‘tadi. Sulton Jaloliddin Otsiz (1127 – 1156) davrida Xorazm to‘la mustaqillikka erishadi.

Mohir diplomat va qobiliyatli sarkarda bo‘lgan Jaloliddin Otsiz va uning vorislari davrida Xorazm har tomonlama yuksaladi. Xorazmshoh Otsiz turkman va qipchoqlarni bo‘ysundiradi, Sirdaryoning quyi yerlarini va Mang‘ishloqni egallaydi. Otsiz siyosatini uning vorislari El-Arslon (1156 – 1172) va Alouddin Takash (1172 – 1200) davom ettiradi. Sulton Takash 1187 – 1193 yillarda Nishopur, Saraxs, Ray va Marv shaharlarini davlatiga qo‘sib oladi. U 1194-yilda saljuqiylar sultoni To‘g‘rulni engadi va Eronni to‘liq bo‘ysundiradi. 1196-yilda Xorazmshoh Takash qo‘sinchilari Bag‘dod xalifasi qo‘sinchilarini mag‘lubiyatga uchratadi. Bu vaqtida Afg‘oniston va Eronning katta qismi Xorazm tarkibiga kiradi va Xorazmshohlar davlati birdaniga ikki barobar kengayadi. 1200-yil Sulton Takash Bag‘dod xalifaligini bosib olish uchun yurishga chiqadi, lekin yo‘lda Takash vafot etadi.

Xorazmshoh Takash davrida iqtisodiy hayot ham taraqqiy etadi. Yangi shaharlar qad rostlaydi, savdo-sotiq, hunarmandchilik, qishloq xo‘jaligi rivojlanadi, ko‘plab kanallar qaziladi va savdo-sotiq kuchayadi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagि bunday ijobjiy o‘zgarishlar Alouddin Muhammad Xorazmshoh (1200 – 1220) hukmronligi yillarda ham davom etadi.

O‘rta asr muarixlari asosida tadqiqotlar olib borgan Z. Buniyotov xulosalariga ko‘ra, Xorazmshoh Takash o‘z fuqarolariga adolatli bo‘lgan. U boshqa sultonlarga nisbatan qobiliyatli, yiriq diplomat va zukko lashkarboshi edi. Xullas, sulton Alouddin Takash o‘g‘li Muhammad Xorazmshohga (1200 – 1220) markazlashgan kuchli davlat va qudratli qo‘sinni meros qilib qoldiradi.

1200-yil avgustda Aloviddin Muhammad (1200 – 1221) Xorazm davlati taxtini egallaydi. Sulton Muhammad Xorazmshoh dastlab Xurosonning zabt

etilmay qolgan qismini istilo etadi. 1207-yilda Xuroson va Fors Iroqida mustahkamlanibb olgandan keyin Muhammad Xorazmshoh Movarounnahrda o‘z hukmronligini o‘rnatishga harakat qiladi. Bu vaqtda qoraxoniylarning so‘nggi hukmdori Usmon qoraxitoylarga qarshi kurashda Sulton Muhammad Xorazmshohdan yordam so‘raydi. Mehnatkash xalq esa qoraxitoylar va mahalliy hukmdorlar tomonidan og‘ir soliqlarni to‘lashga giriftor qilingan, to‘xtovsiz urushlar esa xo‘jalik hayotini izdan chiqargan edi.

1206-yilda Buxoroda Malik Sanjar boshchiligidagi hunarmandlar va dehqonlar sadrlarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradi. Bu vaqtda Buxoroda diniy va dunyoviy hokimiyat sadrlar ixtiyorida edi. Sadr Muhammad qoraxitoylardan yordam so‘raydi. Lekin Xorazmshoh Muhammad qoraxitoylardan oldinroq harakat qilib, Buxoroni egallaydi.

Movarounnahrning qoraxitoylarlardan ozod bo‘lib, Xorazmshohlar davlatiga birlashishi tarixiy ahamiyatga ega edi. Lekin harbiy yurishlar, soliq siyosatidagi beboshliklar, amaldorlar zulmi oddiy fuqarolar hayotini og‘irlashtirar edi. 1210-yilda O‘trorda, 1212-yilda Samarqandda qo‘zg‘olon ko‘tariladi va unda Samarqand hokimi, Muhammad Xorazmshohning kuyovi qoraxoniy Usmon ham ishtirok qiladi. Xorazmshohning qizi shahar ichidagi qal’aga yashirinadi. Katta qo‘shin bilan etib kelgan Muhammad Xorazmshoh qo‘zg‘oltonni shafqatsiz bostiradi.

Aloviddin Muhammad 1210 va 1212-yillarda qoraxitoylar ustiga yurish qilib, ularni tor-mor keltiradi va Ettisuvga qadar yerlarni o‘z davlati tarkibiga kiritadi. 1217-yilga kelib Movarounnahr, Ozarbayjon, Eron, Xurosondan Hindistongacha bo‘lgan hududlarda Xorazmshohlar hukmronligi o‘rnataladi.

Sulton Muhammad davrida Xorazm davlati o‘zining yuksak cho‘qqisiga chiqadi. Xorazmshohlar davlati Shimolda Orol, G‘arbda Kaspiy dengizi, Janubda Xormuz, Fors qo‘ltig‘i, Iroq va G‘aznagacha, Sharqda Ettisuvgacha bo‘lgan hududlarni qamrab oladi. Xorazm sultanati XII asr oxiri – XIII asr boshlarida musulmon Sharqining eng qudratli davlatiga aylanadi. Muhammad Xorazmshoh “Iskandari Soniy” (“Ikkinchi Iskandar”), “Sulton Sanjar” nomlari bilan ulug‘langan. Poytaxt Gurganj (Urganch)da saroyda 27 nafar asir hukmdorlar oltin

nog‘ora chalib, Xorazmshohni olqishlab turishgan. Muhammad Xorazmshoh Bag‘dod xalifaligiga qarshi yurish qiladi, ammo qattiq sovuq tufayli orqaga qaytishga majbur bo‘ladi. U hatto Xitoyni ham bosib olish maqsadida edi. Ammo Xorazmshohlar davlatida ichki ziddiyatlar ham kuchli edi. Sultonning onasi Turko-xotun boshliq qipchoq harbiy aristokratiyasi markaziy hokimiyatni ichdan kuchsizlantirib qo‘ygandi.

Xorazmshohlar doimiy qo‘singha ega bo‘lib, Xorazmda aholi uchun harbiy ta’lim ham joriy qilingan edi. Manbalarda keltirilishicha, 1218- yilda Muhammad Xorazmshoh yalpi qo‘sinchilar ko‘rigi o‘tkazgan va unda 150 ming otliq, 100 ming piyoda askar qatnashgan. Boshqa manbalar esa Muhammad Xorazmshohg 400 minglik qo‘singha ega bo‘lganligi qayd etiladi.

Madaniyat va ilm-fan rivoji. IX asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrning madaniy hayotida yangi davr boshlanadi. Arablar hukmronligining barham topishi va Somoniylar davlatining qaror topishi bilan madaniy hayot jonlanishi uchun keng yo‘l ochiladi. Buxoro, Samarqand, Gurganj (Urganch), Marv va boshqa shaharlar yirik iqtisodiy va madaniy markazlarga aylanadi. O‘rtta Osiyo xalqlari ma’naviy madaniyatining o‘sishida islom madaniyatining ahamiyati katta bo‘ldi. Islom faqat dingina emas, balki yangi ma’naviy yo‘nalish sifatida ham butun madaniy jarayonga, barcha muslimon mamlakatlari orasida ijtimoiy–madaniy va ma’rifiy aloqalarning kuchayishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ilk Uyg‘onish davri nomini olgan IX – XII asrlarda Movarounnahrda ilm-fan yuksalishi natijasida ko‘plab yangi ilmiy yo‘nalishlar va ilmiy sohalar paydo bo‘ldi. So‘nggi Uyg‘onish davridan birmuncha farqli ravishda Ilk Uyg‘onish davrida, ayniqsa, dunyoviy fanlar, xususan, matematika, algebra, astronomiya, meditsina, geologiya, geodeziya, geografiya, falsafa yuqori darajada rivojlandi.

Somoniylar, Qorahoniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazshohlar sulolalari hukmronlik qilgan IX – XII asrlarda Movarounnahrda nisbatan tinchlik, osoyishtalik o‘rnatildi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlandi, shaharlar, savdo-sotiq va hunarmandchilik o‘sdi. Ma’rifatparvar hukmdorlar ilm-fan va madaniyatga

homiylik qilishdi. Ana shularning barchasi Ilk Uyg‘onish davrining siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy omillaridan bo‘ldi.

O‘zbekiston hududidan etishib chiqqan chiqqan ilk qomusiy olim, Bag‘doddagi “Bayt ul-hikma” (“Donishmandalar uyi”)ning rahbari Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783 – 850) edi. Al-Xorazmiy matematika, geometriya, astronomiya, geografiya, tarix va boshqa fanlarda 20 dan ortiq asarlar yozgan. Uning “Al jabr val muqobala” (“Tenglamalar va qarshilantirish”), “Hisob al-hind” (“Hind hisobi”), “Kitob surat al-Arz” (“Er surati haqida kitob”), “Kitab at-Tarix” (“Tarix kitobi”), “Kitob al-Amal Bil Usturlabat” (“Usturlob bilan ishslash haqida kitob”) kabi asarlari unga olamshumul shuhrat keltiradi.

Al-Xorazmiy o‘zining “Aljabr va al-muqobala” asari orqali algebra faniga asos soldi. “Algebra” atamasi ushbu kitobning “Al-jabr”, deb yuritilgan nomning lotincha ifodalanishidir. O‘rta asrlarda esa G‘arbiy Yevropada Xorazmiy nomi matematikada “algoritm” atamasi shaklida o‘z ifodasini topdi. Uning “Al-jabr” asari XII-asrdayoq lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropaga tarqaladi. Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan o‘nlik pozitsion hisoblash tizimi dunyo fanida ulkan ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, Al-Xorazmiyning “Kitob at-Tarix” (“Tarix kitobi”)da Xuroson, Kichik Osiyo va Movarounnahrning VIII – IX asrlar tarixiga ma’lumotlar berilgan. Xorazmiyning “Zij” (“Astronomik jadval”), “Quyosh soati haqida risola” nomli ilmiy asarlari astronomiya rivojiga katta hissa qo‘shtiradi.

O‘rta Osiyolik buyuk qomusiy olimlardan Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Nosir al-Farg‘oniy (797 – 865) bo‘lib, u Farg‘onaning Quva shahrida tug‘ilgan va umrining katta qismini Bag‘dodda o‘tkazgan va “Bayt-ul-hikma”da ilmiy faoliyat olib borgan. Ahmad al-Farg‘oniy matematika, geografiya, astronomiya, tarix sohalarida ijod qilgan. Uning “Kitob fi Usul ilm an-Nujum” (“Falakiyot ilmining usullari haqida kitob”), “Falakiyot risolasi”, “Falak asarlari sababiyati”, “Al-Majistiy”, “Ilm-xayya”, “Al Farg‘oniy jadvallari”, “Usturlob bilan amal qilish haqida”, “Oy, arning ustida va ostida

bo‘lgan vaqtini aniqlash risolasi”, “Etti iqlim hisobi”, “Usturlob yasash haqida kitob” kabi asarlari jahon fani va madaniyatining rivojlantirib, ularning qo‘lyozmalari hozirda Angliya, Fransiya, Germaniya, Misr, Hindiston, AQSh va Rossiyada saqlanmoqda. Uning asarlarini lotin, nemis, ingliz, fransuz, rus va boshqa tillarga tarjima qilingan.

“Musulmon Renessansi”ning yana bir dahosi Abu Nasr Forobiy (873 –950) bo‘lib, u fan, falsafa tarixida yuksak o‘rinni egallaydi. Abu Nasr Forobiy yilda Forob (O‘tror) shahrida tug‘ilgan bo‘lib, avval O‘trorda, keyin Samarqand, Buxoro va Bag‘dodda bilim olgan, umrining oxirida esa Halab (Aleppo) va Damashqda yashagan. Forobiy qomusiy olim, ya’ni bir vaqtning o‘zida bir nechta fanlar bilan shug‘ullanib, ularning har birida ulkan yutuqlarga erishgan. Uning “Al – Muallim as – soniy” – “Ikkinci muallim” (“Birinchi muallim” Aristoteldan keyin), “Sharq Arastusi” deb nomlanishining o‘zi ham Forobiy dahosining mavqeni ko‘rsatadi. Forobiy riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, mantiq, falsafa, tilshunoslik va adabiyot sohalarida ijod etgan va 160 dan ortiq asarlar yaratgan. “Aristotel (Arastu)ning “Metafizika” asari maqsadlari haqida””, “Musiqa kitobi”, “Baxtsaodatga erishuv haqida”, “Tirik mavjudot a’zolari haqida”, “Siyosati al-madaniya” (“Shaharlar ustida siyosat yurgizish”) shular jumlasidandir. Forobiy o‘rta asrlar sharoitida aql va ilm tantanasi, ma’naviy ozodlik, inson baxt-saodati va adolatli jamiyat uchun kurashgan buyuk mutafakkirdir.

Mazkur davrda Xorazm madaniy jihatdan ancha taraqqiy etgan edi. Xorazmshoh Abul Abbos Ma’mun ilm-fan homiysi bo‘lib, poytaxt Gurganjdada “Ma’mun akademiyasi” tashkil etgan vaunda buyuk Ibn Sino va Beruniydan tashqari, tarixchi Miskovayx, matematik Abu Nasr Arroq, faylasuf Abu Sahl Masihiy, tabib Ibn Hammorlar va boshqalar ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishgan.

Vatanimizdan etishib chiqqan ulug‘ mutafakkirlardan biri Abu Rayhon Beruniy (973 – 1048) bo‘lib, u Xorazmnинг Kat shahri (hozirda Qoraqalpog‘istonning Beruniy shahri)da tug‘ilgan. Beruniy falsafa, astronomiya, geografiya, matematika, mineralogiya, geologiya, geodeziya, tarix va boshqa bir qancha fanlar bo‘yicha 154 ta asar yozgan. U Ptolemeyning geosetristik

nazariyasiga qarama qarshi ravishda Nikolay Kopernikdan besh asr oldin Erning Quyosh atrofida aylanishi, Amerika qit'asi mavjudligini haqidagi farazni ilgari suradi, Erning sharsimon ekanligini isbotlaydi. Beruniy o‘zining ilmiy va falsafiy asarlari bilan jahon fani rivojiga ulkan hissa qomusiy olimlardandir.

Insoniyatsivilizatsiyasi, jahon fani tarixida o‘chmas iz qoldirgan yana bir buyuk vatandoshimiz Abu Ali Ibn Sino (980 – 1037)dir. Shunisi hayratlanarlik, uning ilmiy asarlarining o‘zi 450 dan ziyoddir. Ibn Sino o‘sha davrdagi fanning deyarlik barcha sohalarida, hatto nazm va nasrda ham ijod qilgan. Uning “Al-Qonun fit-tib” asari XII-asrdayoq lotin tiliga tarjima qilingan va XVII asrgacha Yevropa universitetlarining tibbiyot fakultetlarida asosiy qo‘llanma bo‘lgan. Ibn Sino Sharqda “Shayxur-rais”, G‘arbda esa “Avitsenna” nomi bilan shuhrat topgan.

Ilk Uyg‘onish davrida ijtimoiy bilimlar ham rivojlangan va unga Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiy (899 – 959) ham katta hissa qo‘shgan. U Buxoro atrofidagi Narshax qishlog‘ida tug‘ilgan. Narshaxiydan faqat “Tarixi Buxoro” (“Buxoro tarixi”) asari etib kelgan. “Tarixi Buxoro” noyob asar bo‘lib, u Somoniylar davlatining siyosiy, iqtisodiy, madaniy ijtimoiy hayotiga oid muhim ilmiy manba hisoblanadi. Asarda Movarounnahr va Xuroson mehnatkashlarining arab istilochilariga qarshi Muqanna boshchiligidagi qo‘zg‘oloniga oid ma’lumotlar ham bor.

Uyg‘onish davrining yorqin vakillaridan Mahmud Zamahshariy (1074 – 1144) bo‘lib, u Xorazmning Zamahshar qishlog‘ida tug‘ilgan. Zamahshariy arab grammatikasi, lug‘atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, geografiya, tafsir, hadis va fiqh (islom qonunshunosligi)ga oid 50 dan ortiq asarlar yozgan. Ayniqsa uning arab tili fonetikasi va morfologiyasiga bag‘ishlangan “Al-Mufassal”, Xorazmshoh Otsizga bag‘ishlangan “Muqaddimat ul-adab”, “Kitob al-Jibol va-lamkina val-miyoh” (“Tog‘lar, joylar va suvlar haqidagi kitob”) kabi asarlari fan tarixida muhim o‘rin tutadi. Allomaning Qur’on tafsiriga oid “Al-Kashshof” asari musulmon dunyosida juda mashhur. Hozirgacha Misr (Qohira)dagi mashhur Al-Azhar madrasasida “Al-Kashshof” asosida Qur’on o‘rganiladi. Mahmud Zamahshariy “Ustoz ul-arab val

ajam” (“Arab va g‘ayri arablar ustozi”), “Faxrul Xorazm” (“Xorazm faxri”) kabi nomlar bilan ulug‘langan.

Xullas, islom ta’limoti tarqalishidan keyin O‘rtal Osiyoda fan, madaniyat va san’atning barcha sohalarida keskin rivojlanish sodir bo‘ldiki, bu davr milliy tariximizda Uyg‘onish davri nomi bilan qoldi. Vatanimizdan etishib chiqqan allomalar esa jahon fanining rivojiga bebaho hissa qo‘sghanlar.

Badiiy adabiyot rivoji. IX – XII asrlarda adabiyot ham keng rivojlandi, fors adabiy tili taraqqiy etdi. Saolabiyning “Yatimat ul-bahr” nomli asarida qayd etilishicha, Buxoro, Xorazm va Xurosonda 119 arabiylar shoirlar ijod qilgan. Bu vaqtida fanda arab tili ustuvor edi. Shu bois tilshunoslik, fiqhshunoslik, falsafa, matematika, tabobat, astronomiya, tarix va boshqa fanlar bo‘yicha ilmiy asarlar asosan arab tilida yozilgan.

Turkiy (eski o‘zbek) adabiyotining asoschilaridan bo‘lgan Mahmud Qoshg‘ariy (XI asr) O‘rtal Osiyo Uyg‘onish davri madaniy taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Uning asosiy asari “Devonu lug‘atit turk” (“Turk tilining lug‘ati”). Unda turkiy xalqlarning etnik tarkibi, geografik joylashishi, ularning urf-odatlari, uduumlari va an‘analari haqidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lib ular hozirgacha o‘zining qimmatini yo‘qotmagan. Shuningdek, bu davrda Movarounnahr va Sharqiy Turkistonda turkiy xalqlar og‘zaki adabiyoti shakllandi, bir qancha poemalar yaratiladi. Bu jarayonda Yusuf Xos Hojib Bolasog‘uniyning “Qutadg‘u bilik” (“Saodatga boshlovchi asar”) nomli didaktik, badiiy-falsafiy asari muhim rol o‘ynagan. Ushbu asarda Yusuf Xos Hojib dehqon, chorvador, hunarmand mehnatini nihoyatda qadrlaydi, ilm-ma’rifatni targ‘ib qiladi, olimlarni ulug‘laydi, davlat boshliqlarini esa olimlardan ta’lim olishga va olimlar maslahati bilan ish ko‘rishga da’vat etadi.

XII asrda turkiy tilda ijod etgan yana bir shoir va mutafakkir Ahmad Yugnakiy bo‘lib, undan turkiy adabiyotning nodir yodgorligi bo‘lgan “Hibat ul-haqoyiq” nomli asar etib kelgan. Ushbu asarda ilm-fan vakillari, olimlar va fozillar ulug‘lanadi, ma’rifatparvarlik targ‘ib qilinadi.

Ilk Uyg'onish davri turkiy adabiy tillar, xususan, eski o'zbek va uyg'ur tilining vujudga kelishida muhim bosqich bo'ldi. Turkiy qabilalarning o'zaro yaqinlashishi natijasida o'g'uz, chigil, qipchoq, uyg'ur tili guruhlari yuzaga keldi. O'rta asrlarda "Turk" yoki "Chig'atoy" tili deb yuritilgan adabiy tilning taraqqiy etishida mahalliy aholi o'rtasidagi iqtisodiy-madaniy aloqalar va yozma adabiyotning roli katta bo'ldi.

Ilk Uyg'onish davrida fors-tojik adabiyoti ham taraqqiy etdi. Fors-tojik adabiyotining buyuk vakillari Abu Abdulloh Ja'far Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy shu davrda yashab, ijod etdilar.

Rudakiy IX asr oxirida Panjikent atrofidagi Panjrudak qishlog'ida tug'ilgan. Rudakiyn Nasr ibn Ahmad (914 – 943) saroyida ijod qilgan. Biroq hukmdorlar muhitidagi fisqu fasodlar tufayli keksaygan chog'ida uning ko'zлari o'yib olinadi va Buxorodan badarg'a qilinadi. Rudakiy o'z qishlog'ida qashshoqlik va xoru zorlikda 941-yilda vafot etadi. Rudakiy ijodiy merosidan juda kam etib kelgan, ammo ular shoir iqtidoridan guvohlik beradi. Rudakiy o'z she'rlarida ilmni ulug'laydi, insoniylikni tarannum etadi, haqsizlik vaadolatsizlikni qoralaydi.

Fors adabiyoti klassiklaridan Abulqosim Firdavsiy (934 – 1012) bo'lib, u Daqiqiy boshlab qo'ygan, ammo tugallanmagan "Shohnoma" nomli yirik epik asarni yaratadi. "Shohnoma"da Eron va Turon xalqlarining Islomgacha bo'lgan tarixi yoritilgan.

IX – XII asrlarda islom dini va so'fiylik. IX – XII asrlarda islom dini mintaqa xalqlari hayotida etachi mavqega ega bo'ldi. Arab tili davlat va fan tili darajasiga ko'tarildi. Tarixan jahonsivilizatsiyalarining markazlaridan bo'lgan O'rta Osiyodan nisbatan juda qisqa vaqtida nafaqat arab tilini, balki islomni ham chuqur o'rganib arab tili va shariatning murakkab muammolarini tadqiq-tahlil etadigan ulamolar ham etishib chiqdi.

Somoniylar, qoraxoniylar, saljuqiylar va g'aznaviylar, xorazmshohlar davrida islom diniga e'tibor kuchaya boshlaydi. Shaharlarda ko'plab masjidlar va madrasalar quriladi. Islom ta'limotini targ'ib qilishda

Buxoro etakchi o‘rinni egallaydi. Xuddi shu davrdan Buxoro “Qubbatul islom” – “Islom gumbazi” yoki Buxoroi sharif deb nomlana boshlaydi.

IX asrda O‘rta Osiyoda hadisshunoslik ilmi ham rivoj topgan. Bu davrda 6 ta ishonchli hadislari to‘plami (as-sihoh as sitta) yaratildi. Hadis ilmi tarixida “Amir al-mo‘minin” degan sharaflı nomga sazovor bo‘lgan Imom al-Buxoriy (810 – 870) yuksak darajada e’tirof etiladi.

Imom al-Buxoriy Buxoroda tug‘iladi, butun umrini hadis ilmiga bag‘ishlaydi. Imom al-Buxoriy 600 mingdan ortiq hadis to‘plab, ulardan eng ishonchlilarini saralab, islom dunyosida Qur’ondan keyin ikkinchi o‘rinda bo‘lgan 4 jildli “Al-jome as-sahih” (“Sahihi Buxoriy”) to‘plamini tuzadi.

Imom Buxoriy shogirdi – Abu Iso Muhammad At-Termiziy (824 – 892) ham hadis ilmi bilan shug‘ullangan. At-Termiziy Termiz yaqinidagi Bug‘ qishlog‘ida tug‘ilgan va hadisshunoslikda “Jome as-Sahih” yoki “Sunani Termiziy”, “Kitob Ilal”, “Kitob at-Tarix”, “Kitob at-Shamoil an-Naboviya”, “Kyatob az-Zuhd” kabi asarlarning muallifidir.

Ilohiyot ilmining zabardast vakillaridan Hakim Termiziy (to‘liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Husayn ibn Bashir al-Hakim at-Termiziy) bo‘lib, u 820-yilda Termizda tavallud topgan. At-Termiziy diniy ilmlar rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi tufayli “Al-hakim” nomi bilan sharaflangan.

XII asrda Qur’on tafsiri, Hadis va fikhshunoslik Abul Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abdul Jalilar-Rishtoniy al-Marg‘inoniy (1118 – 1197) tomonidan yanada rivojlantirildi. U Farg‘onada Rishton qishlog‘ida tug‘ilgan. Marg‘inoniyning 4 jildlik “Al-Hidoya” asari fiqhshunoslikda hozirgacha eng mufassal hisoblanadi.

X asrdan Movarounnahrga Yusuf Hamadoniy orqali tasavvuf, ya’ni so‘fiylik diniy-falsafiy oqimi kirib keladi. So‘fiylik zohid, taqvodorlik ma’nosini anglatadi. Tasavvuf – bu odamlarni halollikka, poklikka undovchi ta’limot bo‘lib, unda bu dunyo lazzatlaridan voz kechish asnosida Allohga etish, uni bilish, unga etishish yo‘li ilgari suriladi. Tasavvufda ruh kamoloti, ya’ni Allohga erishuv to‘rt bosqich: shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqatdan iboratdir.

Movarounnahrda bir qancha tariqatlar mavjud bo‘lgan, ularning eng asosiyлари yassaviya, kubroviya va naqshbandiya edi. 1105-yilda Ahmad Yassaviy yassaviya tariqatiga asos soladi. Yassaviy ta’limoti “Devoni hikmat” asarida bayon etilgan. Ahmad Yassaviy bo‘yicha shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma’rifat, ma’rifatsiz haqiqat bo‘lmaydi va bu yo‘l inson kamoloti yo‘li, uning hayot mazmunini tashkil etadi.

Abduxoliq G‘ijduvoniy (1103 – 1179) “Xojagon” tariqatiga asos solgan. Uning asosiy qarashlari “Risolai Sohibiya”, “Risolai Shayxi buyuk Hazrati Abu Yusuf Hamadoni” nomli asarlarda ifodalangan.

Najmuddin Kubro (1145 – 1221) ham tasavvuf ilmining yirik vakili bo‘lib, kubroviya tariqatining asoschisidir. Kubroviya ta’limoti negizini “tavba”, “zuhd” (“mol-dunyodan voz kechish”), “tavakkal” (“Alloh yo‘lida”), “qanoat”, “uzlat”, “doimiy zikr”, “tavajjuz”, “sabr”, “muroqaba” (“kamolot topish”) va “rizo” (xalqqa etishish) tashkil etadi. Kubroviyada tarkidunyochilik ma’qullanmaydi, har doim xalq bilan birga bo‘lish, vatan himoyasi ilgari suriladi. O‘z g‘oyalariga sodiq bo‘lgan Najmuddin Kubro mo‘g‘ullarga qarshi jangda 74 yoshida halok bo‘ladi.

Savollar va topshiriqlar

1. Arab xalifaligidan Xuroson va Movarounnahr ajralib chiqishining birlamchi sabablari nimada edi?
2. Somoniylar davlati qaysi hukmdor davrida o‘zining kuch-qudrati cho‘qqisiga chiqqan?
3. Somoniylar sultanatining inqirozi va uning sabablari.
4. Qoraxoniylar davlatining kuchayishi va uning ikkiga bo‘linib ketishi sabablarini tahlil qiling?
5. G‘aznaviylar davlati ravnaqi va inqirozining sabablarini yoriting.
6. Saljuqiylar davlatining vujudga kelishi va inqirozining asosiy sabablarini tahlil eting.

7. Qanday omillar va sabablarga ko‘ra XI asr boshlarida Xorazmning yuksalishi ro‘y berdi?
8. Xorazmshohlar sultanati halokati sabablarini yoriting.
9. IX – XII asrlarda O‘rtta Osiyoda ilm-fan rivojlangan, ma’naviy yuksalish omillarini aniqlang? Tasavvuf ta’limotining asosiy g‘oyalarini tahlil eting.
10. Hozirgi zamonda nima uchun qomusiy olimlar deyarlik uchramasligiga munosabat bildiring.

7 – §. Movarounnahrning mo‘g‘ullar tomonidan bosib olinishi va Xorazmshohlar sultanatining halokati

Mo‘g‘ul istilosi. XII asr oxiri – XIII asr boshlarida mo‘g‘ul qabilalarining siyosiy birikuvi bo‘lib o‘tadi. Ushbu jarayonlar mo‘g‘ul zodagoni Esugay Bahodirning o‘g‘li Temuchin – Chingizzon (1155 – 1227) faoliyati bilan bog‘liqdir. U 1186 – 1204 yillarda mo‘g‘ul, tatar, markit, kerayit, jaloyir, nayman, uyg‘ur va qorluq qabilalarini birlashtiradi va ko‘chmanchilar davlatiga asos soladi.

1206–yil bahorida Mo‘g‘ulistonda Onon daryosi bo‘yida Temuchin qurultoyda Temuchin xon deb e’lon qilinadi va unga “Chingizzon” faxriy nom beriladi (“Chingizzon” – kuchli degan ma’noni anglatadi). Qurultoyda “Yaso” – mo‘g‘ullar davlatining asosiy qonuni qabul qilinadi.

Mo‘g‘ul davlati kuchli qo‘singa ega edi, Chunki har bir mo‘g‘ul jangchi bo‘lgan. Qo‘sish o’nlik, yuzlik, minglik, tumanga bo‘lingan va ularga tegishlichcha o‘nboshi, yuzboshi, mingboshi va tumanboshi boshchilik qilgan. Shuningdek, Chingiz davlati muvaffaqiyatining muhim garovlaridan – bu Subutoy, Xubiloy, Jebe va bir qancha davlatchilik manfaatlariga sadoqatli va qobiliyatli sarkardalar bo‘ldi. Qolaversa, chingiziylardan Jo‘ji, Chig‘atoy, O‘qtoy va Tuluy ham etuk sarkardalar edi.

Chingizzon o‘z hokimiyatini mustahkamlab olgach, istilochilik siyosatini olib boradi. 1206–yilda Gobi sahrosidagi qabilalar, 1206 – 1211 yillarda buryatlar,

yoqutlar, tangutlar, qirg‘izlar, oyratlar va uyg‘urlar bo‘ysundiriladi. 1211 – 1215 yillarda Chingizzon qo‘s Shinlari “Buyuk Xitoy devori”ni aylanib o‘tib Shimoliy Xitoy va Pekinni egallaydi. Xitoy istilosini Chingizzon qo‘s Shinining harbiy-texnik qudratini keskin oshirib yuboradi. Chunki o’sha davrda Xitoy harbiy texnikasi, harbiy muhandisligi dunyoda etakchi o‘rinda edi. Shu tariqa Sharqda ikkita davlat – Xorazmshoh-Anushteginiylar va Chingizzon davlatlari shakllanadi, ular o‘rtasida urush bo‘lishi muqarrar edi. Chunonchi, 1215-yildagi Dashti Qipchoq yurishida Xorazmshoh mo‘g‘ullarning Jo‘ji boshchiligidagi harbiy qo‘s Shiniga duch keladi (hozirgi Qozog‘istonning To‘rg‘ay viloyati). Mo‘g‘ullar Xorazmshohning 60 ming kishilik qo‘sShini bilan bir kun jang qiladi. Chingizzondan hech qanday ko‘rsatma olmagan Jo‘ji chekinishga majbur bo‘ladi.

1215 – 1218 yillarda Xorazmshoh va Chingizzon o‘rtasida bir necha marta elchilar almashinadi. Chingizzon 1218-yil Xorazmshohga yuborgan nomasida o‘zini “Iskandari Soniy” – Ikkinci Iskandar sifatida baholaydigan Muhammad Xorazmshohni “o‘z o‘g‘illari qatorida ko‘rishini” ma’lum qiladi. Mafkuraviy jihatdan bu hol esa yirik musulmon davlati hukmdorining madaniy jihatdan past pog‘onada turgan, ko‘chmanchilar xoniga qaramlikni anglatar edi. Ehtimol shuning uchun ham 1218-yilda Chingizzonning Xorazmga yuborgan 450 kishilik elchilar guruhidagi 100 ga yaqin savdogar-josuslardan iborat karvonning O‘tror shahrida talon-taroj qilinib, elchilar o‘ldirilishiga muhim sabablardan biri bo‘lgan.

Chingizzonning maqsadi, mustabid hukmdor sifatida dunyoga hukmronlik qilish, “avlodlari o‘zaro totuvlikda va hamjihatlikda juda-juda uzoq davrlar mobaynida boshqaradigan” davlat yaratish edi. (O’sha davrdagi ko‘chmanchilar davlatchiligi o‘zga xalqlarni talash va ularni asoratga solishga ko‘proq asoslanardi. Ko‘chmanchilar uchun birlamchi boylik bo‘lgan chorva tez ko‘payadi va ayni vaqtda ma’lum bir qisqa muddatda qo‘ldan boy berilishi mumkin bo‘lgan hayotiy resursdir. Noqulay ob-havo, turli kasalliklar oqibatida chorva tez qirilib ketishi, ya’ni ocharchilik tez boshlanishi mumkin edi.) Shu boisdan Chingizzonning Xorazmshohlar davlatini bosib olishga harakat qilishi qonuniyatli jarayon edi.

Haqiqatan ham, bir tomondan, Xorazmshohlar davlati harbiy jihatdan qudratli, hatto qo'shinda jang fillari ham bor edi. Boshqa tomondan esa "markazdan qochuvchi kuchlar" – o'z qo'shinlariga ega bo'lgan viloyat hokimlari, amirlar mustaqilika intilar, Muhammad Xorazmshohning onasi Turkon Xotun boshliq katta harbiy-siyosiy nufuzga ega qipchoq zodagonlari "ikkinchi hokimiyat" mavqeida edi. Feodal munosabatlar hukmron sharoitlarida esa mamlakat hududlari iqtisodiy jihatdan zaif bog'langan edi. Ushbu iqtisodiy omil ham o'rta asrchilik sharoitlarida yirik davlatlar qisqa vaqtda parchalanib ketishiga doimo kuchli ta'sir ko'rsatib kelgan.

Mo'g'ullar davlatida josuslik xizmati juda yaxshi yo'lga qo'yilgan, O'z davrining etuk harbiy strategi bo'lgan Chingizzon Xorazmshohlar sultanating zaif joylari to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega edi. Ba'zi manbalarga ko'ra bunday maxfiy ma'lumotlar bilan uni Xorazmshohlar raqibi bo'lgan Bag'dod xalifasi ta'minlab turgan. Chingizzxonning josuslari savdogarlar qiyofasidagi musulmonlar bo'lib, ularning xizmati g'oyat qadrlangan. Shunday "savdogarlar"lardan bo'lgan Mahmud Yalavoch, Hasan Xoja, Yusuf O'troriy mo'g'ullarga sidqidildan xizmat etishgan.

1218-yilda Chingizzon Xorazmga 450 kishilik musulmon savdogarlardan iborat 500 tuyalik karvon yuboradi. O'trorda shahar hokimi G'oyirxon (Inolchiq) karvonni talon-taroj qiladi, savdogarlarni ayg'oqchilikda ayblab qatl etadi. Chingizzon esa ushbu voqeadan Movarounnahrga bostirib kirishda oqilona foydalanadi. Zero elchilarni o'ldirish ("elchiga o'lim yo'qligi") barcha davrlarda og'ir jinoyat sanalgan.

1219-yilda mo'g'ullar mamlakatga bostirib kiradi. Muhammad Xorazmshoh esa katta qo'shinga ega bo'laturib, o'g'li Jaloliddinning butun qo'shinni yig'ib dushman bilan chegara yonida jang qilish xususidagi maslahatini qabul qilmaydi va qo'shnlarni turli shaharlarga bo'lib yuboradi.

Mo'g'ullar hujumiga dastlab O'tror shahri ro'baro' bo'ladi. Chingizzon savdo karvonining qirib tashlanishi sababli shahar taqdiri ayanchli bo'lishi ayon edi. O'tror G'oирxon (Inolchiq) boshchiligidagi mo'g'ullarga besh oydan ziyod

qarshilik ko'rsatadi. Mirzo Ulug'bek o'zining "To'rt ulus tarixi" nomli asarida shunday yozadi: "...O'troning butun aholisini sahroga haydab chiqdilar va qatl qildilar. ...O'tror xisorini qo'lga kiritib, er bilan barobar qildilar. Tirik qolganlardan, raiyat va hunarmandlarning ba'zilarini hibsga oldilar, ba'zilarni esa qul qilib haydadilar".

1220-yil fevralda Chingizzon 12 kun qamaldan keyin Buxoroni egallaydi va shahar himoyachilari qirib tashlanadi. 1220-yil martda Samarqand qamal qilinadi. Garchand mudofaachilar soni 100 ming, ularda hatto 20 ta jang qilishga o'rgatilgan fil bo'lsa ham, ammo shahar uch kunda egallanadi. Erkaklar odatdagidek qilichdan o'tkaziladi, ayollar va bolalar esa qulga aylantiriladi.

Mo'g'ullarga Temur Malik boshchiligida Xo'jand mudofaachilar qattiq qarshilik ko'rsatishadi. Ular shaharni besh oy davomida o'zlaridan bir necha marta ko'p dushmanidan himoya etishadi. Faqat juda ko'p talafotlardan keyin mudofaachilar Sirdaryodagi orolga o'tib mo'g'ullarga qarshilikni davom ettirishadi. 1000 nafar jangchisi bilan qolgan Temur Malik kemalarda Sirdaryo orqali Xorazm tomon ketadi. Shundan keyin Temur Malik Jaloliddin Manguberdi safiga qo'shilib u bilan birga mo'g'ullarga qarshi kurashni davom ettiradi.

Mo'g'ullarning Movarounnahrdagi asosiy shaharlari, Samarqand, Buxoro, Toshkentning tez bosib olishlari Muhammad Xorazmshohda ishonchszlikni kuchaytiradi. Siyosiy irodasizlik oqibatida bir vaqtlar "Iskandari Soniy" sifatida ulug'langan Muhammad Xorazmshoh umri ayanchli yakunlanadi. U Kaspiy dengizining janubidagi Ashura oroliga qochadi, farzandlari va a'yonlari davrasida sultonlik nishonlarini katta o'g'li Jaloliddinga topshiradi. 1220-yil dekabrda Muhammad Xorazmshoh Ashura orolida vafot etadi. Muhammad Xorazmshoh o'lgandan keyin ham mo'g'ullar uni tinch qo'yishmaydi. Uning jasadi qabrdan olinib, kuydiriladi va kuli ko'kka sovuriladi.

Mo'g'ul istilochilari Movarounnahrda dahshatli yovuzliklarni bilan tarixda qoldi. Urganch, Buxoro, Samarqand, Xo'jand, Termiz kabi boy shaharlar vayronalarga aylanadi, aholining katta qismi qirib tashlanadi. Doimiy qarovga

muhtoj murakkab irrigatsiya tizimlari ishdan chiqadi, bog‘u rog‘lar cho‘lga aylandi, ekin maydonlari yaylovlarga aylantirildi.

Jaloliddin Manguberdining jasorati. Sultonlik rutbasiga ega bo‘lgach Jaloliddin ukalari O‘zloqshoh va Oqshohlar bilan Gurganjga keladi. Ammo poytaxtda Sulton Jaloliddinga qarshi fitna uyushtiriladi. Bunday vaziyatda Jaloliddin Temur Malik va boshqa vatanparvarlar bilan shahardan chiqib ketishdan boshqa chorasi qolmaydi. Jaloliddin Niso yaqinida o‘zining 300 ta askarlari bilan mo‘g‘ullarning 700 kishilik otryadini tor-mor etadi.

1221-yil boshlarida Jo‘ji, Chig‘atoy va O‘qtoy qo‘sishnlari Xorazmshoh-Anushteginiylar poytaxti Gurganjni qamal qilishadi. Gurganj (hozirgi Ko‘hna Urganch) mudofaasi milliy tariximizning ham fojiali, ham shonli sahifalaridan biridir. Chunki, shafqat nimaligini bilmaydigan kuchli dushman poytaxt ostonalarida turgan vaqtda fitnachilar qipchoq amiri Xumorteginni sulton deb e’lon qilishadi, u esa mo‘g‘ullarga taslim bo‘ladi. Bu – fofja edi! Ayni vaqtida Urganch mudofaachilari dushmanga etti oy qarshilik ko‘rsatadi, hatto shahar egallangandan keyin ham ko‘chalarda jang davom etadi. Bu – jasorat edi!

Mo‘g‘ullar Urganch shahridagidek kuchli qarshilikka keyinchalik ham hech qaerda duch kelishmagan va shu bois shahar dahshatli qirg‘inga uchraydi. Asirlar, hatto bolalar ham qilichdan o‘tkaziladi. Har bir mo‘g‘ul askari 64 nafar asirni qatl etadi. Shundan so‘ng Amudaryo o‘zanidagi to‘g‘on ochib yuboriladi va Urganch suvga bostiriladi. Asrlar davomida to‘plangan nodir kitoblar, boy kutubxonalar, noyob san’at asarlari, muhtasham binolar vahshiylarcha yo‘q qilinadi, shu tarzda Sharqning boy shaharlaridan bo‘lgan Gurganj bema’ni darajadagi shafqatsizlik qurban bo‘ladi.

Mo‘g‘ullar O‘zloqshoh va Oqshohni ham qatl etishib, shahzodalar kallalarini Xurosonda namoyishkorona tarzda bir qancha vaqt olib yurishadi. Shahzoda Rukniddin (manbalarda unga “aql-zakovat va ko‘rkamlikda tengi yo‘q” deb ta’rif beriladi) Eronning Ustupavand qal’asida olti oy mo‘g‘ullarga qattiq qarshilik ko‘rsatadi va mardlarcha halok bo‘ladi. Muhammad Xorazmshohning onasi Turkon Xotunning hayoti esa Chingizzon saroyida cho‘rilik bilan yakunlanadi.

Jaloliddin Hirot hokimi, qaynotasi Amin Malik bilan birgalikda Qandahorni qamal qilayotgan mo‘g‘ullarga hujum qiladi. Bunda Jaloliddin piyoda yoyandozlarini mo‘g‘ullarning otliq askarlariga qarshi qo‘yadi. (Keyinchalik shunday usulni Fransiya va Angliya o‘rtasidagi yuz yillik urushdagi Kresi jangida ingлизлар qo‘llaydi). Uch kunlik jangda mo‘g‘ullar to‘liq mag‘lubiyatga uchraydi va qirib tashlanadi.

G‘aznada Jaloliddin xizmatiga Sayfiddin O‘g‘roq al–Xalajiy, Balx hokimi A’zam Malik, afg‘on qabilalari sardori Muzaffar Malik va qarluklar rahbari al–Hasan o‘z qo‘sishinlari bilan kiradi. Ma’lumotlarga ko‘ra bu vaqtida Jaloliddin qo‘sini 90 – 130 mingga etadi. Chingizzon Shiki Xutuxu boshchiligidagi qo‘sinni Jaloliddinga qarshi tashlaydi, ammo mo‘g‘ullar bir hamlada mag‘lub etiladi. 1221–yilning kuzida Afg‘onistonidagi Parvon dashtida shiddatli jang bo‘lib o‘tadi. Mo‘g‘ullar jon-jahdlari bilan jang qilishsada, ular qaqshatqich mag‘lubiyatga uchraydi.

Mo‘g‘ullar ustidan ushbu g‘alabalar mafkuraviy jihatdan juda katta ahamiyatga ega edi. Jaloliddin g‘alabalari mag‘lubiyatga moyil qarashlarga chek qo‘yadi va Saraxs, Marv va Hirotda mo‘g‘ullarga qarshi qo‘zg‘olonlar boshlanib ketadi.

Jaloliddinning kuchayib borishidan qattiq xavfsiragan Chingizzon Jaloliddin Manguberdiga qarshi shaxsan o‘zi qo‘sishin tortadi. 1221–yil 25 noyabrda Hind daryosi bo‘yida harbiy kuchlar nisbati mo‘g‘ullar foydasiga bo‘lgan uch kun davom etgan jang bo‘lib o‘tadi. Dastlab Chingizzonning asosiy kuchlari parokandalikka uchraydi. Faqat uchinchi kunga kelib, mo‘g‘ullar 10 minglik pistirmada qo‘yilgan zaxiradan foydalanib, ustunlikka erisha boshlaydi. Chingizzon Jaloliddinni tiriklay qo‘lga olishga buyruq beradi. Jaloliddin dushman qurshovini yorib chiqib, Sind daryosi bo‘yiga etib keladi. Jaloliddin o‘z onasi Oychechakni, oilasini suvgaga cho‘ktiriadi. O‘zi esa oti bilan daryoga sakraydi va daryoning narigi qirg‘og‘i – Hindiston tomonga suzib o‘tishga muvaffaq bo‘ladi. Jaloliddinning 4000 jangchisi ham Sind daryosidan kechib o‘tadi.

Jaloliddin Xorazmshoh jasoratiga, hatto uning ashaddiy dushmani Chingizzon ham tan beradi va uni ta'qib etishni taqiqlaydi. Ushbu jang xususida Mirzo Ulug'bek shunday yozadi: "Qaysi tomonga ot choptirmasin, tuproqni qonga bo'yar edi. Agar bu jangni Zolning o'g'li ko'rsa edi, u sulton Jalol (uddin) ning qo'lini o'pgan bo'lardi".¹⁹

Hindistonda ham Jaloliddin va uning holdan toygan qo'shinlarini yangi janglar kutib turadi. Bu vaqtda Shatradagi hind hukmdorlari (rojalari)dan biri katta qo'shin bilan xorazmliklarni qirib tashlash uchun etib keladi va ikki o'rtadagi jang bo'lib o'tadi. Jaloliddin jangda shaxsan o'zi hind rojasini o'ldiradi. (Urushlar tarixida hukmdorlarning shaxsiy namuna ko'rsatib ochiq jangga kirishi nihoyatda kam uchraydigan hodisadir).

Jaloliddin Manguberdi Hindistonda o'z davlatini barpo etadi. Uning hokimiyatini Dehli sulton Shamsiddin Eltutmish (1211 – 1236), Sind, Uchcha, Mo'lton, Lohur va Peshovar hokimi Nosiriddin Kubacha (1205 – 1227) tan olishadi. Hindistonda Jaloliddin 1223-yilning oxirigacha bo'ladi, shundan so'ng Iroq va Eronga ketadi. Jaloliddin Shimoliy Hindistonda noib etib, sarkarda Jahon polvon O'zbekni tayinlaydi va u 1229-yilgacha Hindistonda Jaloliddin mulkularini boshqaradi so'ng Iroqqa qaytib, unga xizmatni davom ettiradi. 1224-yil boshida Jaloliddin Kirmonga keladi va Kirmon hokimi, ukasi G'iyosiddindan 4000 kishilik qo'shin oladi. Uning maqsadi mo'g'ul istilochilariga qarshi tura oladigan kuchli davlatni tuzish edi.

Jaloliddin mo'g'ullarga qarshi birgalikda kurash olib borish maqsadida ukasi G'iyosiddin Pirshoh, Bag'dod xalifalari az – Zohir (1225 – 1226) va al – Muntansir (1226 – 1242), Gruziya hukmdori, malika Rusudana va boshqalarga murojaat qiladi. Lekin ular Jaloliddinning kuchayishidan qo'rqib, ittifoq tuzishmaydi. Bag'dod xalifalari, ismoiliylar hokimi Muhammad III (1221 – 1255) va boshqa musulmon hukmdorlari esa Jaloliddingga qarshi ochiqdan-ochiq kurashadi. Shunday sharoitlarda Sulton Jaloliddin 1226-yil fevralda Gruziya

¹⁹ Мирзо Улугбек. Тўрт улус тарихи. –Т.:Чўлпон, 1994. 182-б.

davlait poytaxti Tbilisini egallaydi. Ammo 1228-yilda Gruziya Jaloliddinga qarshi bosh ko‘taradi. Shundan so‘ng mamlakat ikkinchi marta egallanadi va qattiq talon-taroj qilinadi.

Jaloliddin Manguberdi bir vaqtning o‘zida Kirmonda unga qarshi bosh ko‘targan Barak Xojib va ismoiliylarga qarshi kurashadi. Ayni vaqtida kuchli dushman bo‘lgan mo‘g‘ullarga qarshi urushga jiddiy tayyorgarlik ko‘rish lozim edi. Shuningdek, strategik jihatdan muhim bo‘lgan Hilot qal’asi ham Jaloliddinga uzoq vaqt qarshilik ko‘rsatadi. 1227-yil Jaloliddin mo‘g‘ullarning 2000 kishilik avangardini tor-mor etadi va ulardan 400 tasi Isfahonda namoyishkorona qatl etiladi. 1228-yil 25-avgustda Eronni zabt etish uchun kelgan Taynal no‘yon boshchiligidagi mo‘g‘ullar bilan Isfahon yaqinida hal kiluvchi jang bo‘lib o‘tadi. G‘iyosiddin xoinlik qilib jangni tark etsa-da, ammo Jaloliddin mo‘g‘ullarni engishga muvaffaq bo‘ladi. Manbalarda yozilishicha, hatto mo‘g‘ul no‘yonining o‘zi “Sen haqiqatdan ham o‘z davrining erkak o‘g‘loni ekansan” – deb Jaloliddinning jasoratiga tan bergen ekan. Shundan so‘ng Jaloliddin mo‘g‘ullarni Erondan haydab chiqaradi.

Muzaffar sarkarda sifatida Isfahonga kirib kelgan Jaloliddinni xalq shodu-xurramlik bilan kutib oladi. Jaloliddinning zafarli g‘alabasi islom olamiga keng tarqaladi. Hatto mo‘g‘ullarning buyuk xoni Ugedey Jaloliddinning mo‘g‘ullarga asir tushib qolgan singlisi Xonsulton orqali maktub yuborib, u bilan sulh tuzish niyati borligini bayon qiladi. Ammo ushbu taklif javobsiz qoladi.

Jaloliddin Manguberdi o‘ta og‘ir, inson hayoti unchalik qadrlanmaydigan davrda yashagan. U o‘z davrining vakili sifatida qo‘sishinlarining talonchilik va zo‘ravonligiga ba’zida ko‘z yumdi. Bu esa Eron, Ozarbayjon, Iraq va Gruziyada noroziliklarga olib kelgan. Lekin Jaloliddin Manguberdi insoniyat tarixida eng kuchli va eng shafqatsiz bo‘lgan isitochilardan biriga qarshi kurashdi. Bu kurashda esa u musulmon hukmdorlarining yordamiga umid qilgandi, ammo ular Jaloliddin davlatining Yaqin Sharqda kuchayishidan xavfsirar edi. Turk, arab hukmdorlarining ba’zilari, hatto mo‘g‘ullar bilan ochiqdan-ochiq yaqinlashish tarafdori edi. Jaloliddin o‘ziga qarshi ittifoqdan xabardor bo‘lsa-da, hech

bo‘lma ganda musulmon hukmdorlar qo‘llaydi deb yanglishgan edi. Bunday sharoitlarda esa, odatda, siyosiy maqsadga muvofiqlik, manfaat diniy e’tiqoddan ustunlik qilayotgan edi.

1230–yil 10-avgustida Ko‘niya sultonı, Xims hokimi, Xalab hokimi, Mayafirikin hokimi va Baypas hokimlarining birlashgan qo‘shini uzluksiz janglarda holdan toygan Sulton Jaloliddin qo‘shinini mag‘lub etadi. Ismoiliylar esa Jaloliddinning mag‘lubiyyati to‘g‘risida “g‘ayridin” mo‘g‘ullarga yashirin xat ham yuboradi. Jaloliddin mag‘lubiyatidan foydalangan mo‘g‘ullar Ozarbayjonga bostirib kirishadi. 1231–yil bahorda Sulton Jaloliddin barcha gina-kudratlarini unutib mo‘g‘ullarga qarshi ittifoq tuzish uchun musulmon hukmdorlariga murojaat etdi. Lekin uning taklifi javobsiz qoladi. Shundan so‘ng u Iroqda qo‘shimcha harbiy kuch to‘plamoqchi bo‘ladi.

1231–yil avgust bosqlarida Amid yo‘li yaqinida unga to‘satdan mo‘g‘ullar hujum qilishadi. Jaloliddin sheriklaridan ajrab Mayafarikin (Hozirgi Turkiyaning Silvan viloyati) yaqinida Aynaddar qishlog‘iga keladi. Jaloliddin uxlab yotganda kurd inisining xuni uchun o‘ldiradi. Ertasi kuni sulton buyumlarni sotib yurgan kurd xususida Mayafarikin hukmdori al – Malik al-Muzaffarga xabar berishganda u qishloqqa o‘z sarkardasi Shahobiddin g‘oziyini yuboradi va u sulton jasadini olib, qishloqqa o‘t qo‘yadi. Jaloliddin Mayafarikinga dafn etiladi va uning qabri tekislanib yuboriladi. Chunki mo‘g‘ullar Muhammad Xorazmshoh singari Jaloliddinning jasadini ham tahqirlashlari mumkin edi.

Qizig‘i shundaki, Jaloliddinning ashaddiy dushmani Damashq hokimi al – Malik al – Ashrafga sulton halokati xususida xabar etkazib, suyunchi so‘raganlarida, u qayg‘uga botib: “Sizlar uning o‘limi bilan meni qutlamoqchimisizlar? Ammo siz voqeanning achchig‘ini tatib ko‘rasizlar. Olloh nomi bilan qasam ichamanki, uning halokati islam olamiga mo‘g‘ullarning bostirib kirishini anglatadi. Endilikda biz bilan Ya’juj va Ma’jujlar o‘rtasida devor bo‘lib turgan Xorazmshohdek odam yo‘qdir”, - deb javob bergen ekan. Jaloliddinning o‘limidan so‘ng uning nomi yo‘q bo‘lib ketmaydi. “Jaloliddin tirik”, “Jaloliddin qaytib kelayapti” degan ovozalar uzoq vaqtgacha mo‘g‘ullarni tahlikaga solib

keladi. O‘zini “men Jaloliddinman” deb nomlagan shaxslar mo‘g‘ullarga qarshi qo‘zg‘olonlarga boshchilik qilganlar.

O‘sha davr tarixchilari Jaloliddinni mard sarkarda va hukmdor sifatida ta’riflashadi. Sulton Jaloliddin Xorazmshoh haqida uning vaziri an – Nasaviy shunday yozadi: “U turkiy bo‘lib qora mag‘iz yuzli, burni oldida qora xoli bor o‘rta bo‘yli yigit edi. Fors tilida ham bemalol so‘zlasha olar edi. U dovyuraklikda tengi yo‘q, shyerlar ichida arslon, otliqlar ichida eng jasuri edi... qisqa so‘zli, hech qachon so‘kinmagan, yomon so‘zlarni o‘ziga ep ko‘rmagan, juda jiddiy, atrofdagilar oldida o‘zini sipo tutar, hech qachon kulmas, faqatgina tabassum qilib qo‘yar edi xolos. U adolatni sevgan, lekin zamon zayli uni o‘zgartirishga majbur qilgan. U o‘z fuqarolarini dardini engillashtirishga harakat qilgan, shuni xohlagan, lekin tanazzul davri bo‘lganligi bois ham zo‘ravonlikka yo‘l bergen. O‘zini ulug‘lashlarini istamagan. Bachkana ta’riflarni yoqtirmagan, faqat sulton deya murojaat qilishlarini so‘ragan. Uning farmonlarida yolg‘iz so‘z: “Yordam yolg‘iz Ollohdandir” degan shior bo‘lgan””.

Jaloliddin Manguberdining nevarasi Misr sultoni Sayfiddin Kutuz 1260–yilda Yaqin Sharqda Ayn Jalut yonida mo‘g‘ullarga qaqqhatqich zarba beradi. Bu bilan mo‘g‘ullarning Suriya va Misrga qarshi hujumlariga butunlay chek qo‘yiladi.

1999–yil noyabrdagi milliy qahramonimiz Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yillik yubileyi O‘zbekistonda keng nishonlandi va Xorazmda unga mahobatli haykal o‘rnatildi. Shuningdek, buyuk sarkarda, davlat arbobi Jaloliddin Manguberdi sharafiga 2000–yilda “Jaloliddin Manguberdi” ordeni ta’sis etildi.

Chingiziylar o‘rtasidagi o‘zaro urushlar. 1224–yilda Chingizzon bosib olgan hududlarni Jo‘jiga – Dashti Qipchoq, Chig‘atoysa – Ettisuv, Movarounnahr, Sharqiy Turkiston, Xulaguga – Eron, Tuluxonga – Mo‘g‘uliston va Xitoyni ulus sifatida taqsimlab beradi.

Jo‘jining o‘g‘li Botuxon (1227 – 1255) istilochilik yurishlarini davom ettiradi va Dashti Qipchoq, Volga bo‘yi yerlari, Sharqiy Yevropaning katta qismini

bosib olib, qudratli davlatga asos soladi. Movarounnahr, Sharqiy Turkiston va Ettisuv Chig‘atoy va uning vorislariga o‘tib, u Chig‘atoy ulusi deb nomlanadi.

Mo‘g‘ullar Movarounnahr singari madaniy jihatdan o‘zlaridan yuqori taraqqiy etgan hududlarni boshqarishga layoqatsiz edi. Shuning uchun mo‘g‘ul xonlari ma’muriy boshqaruvda mahalliy zodagonlardan foydalanadi. Chig‘atoy ulusi tashkil topgach Movarounnahr va Sharqiy Turkistonni ulug‘ xon tomonidan tayinlangan xorazmlik savdogar Mahmud Yalavoch boshqargan.

Mo‘g‘ul istibdodi davrida o‘lponlar, soliqlar doimiy oshib borgan. Bu vaqtda hunarmandlardan va savdogarlardan soliq tamg‘a bo‘lib, u ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotning o‘ttizdan bir ulushi hajmida olingan, hosilning o‘ndan bir qismi miqdorida bo‘lgan kalon (er solig‘i), chorvadan olinadigan soliq – qopchur joriy, har suruvdan bir qo‘y va qimiz uchun har ming bosh otdan bitta biya bo‘lga shulen joriy etilgan. Chig‘atoy ulusida er egaligi munosabatlari ham o‘zgardi, in’om etilgan yerlar suyurg‘ol nomini oldi. Suyurg‘ol (juda katta er maydonlari va suv havzalari, dasht-yaylovlari) hajmi jihatdan iq’todan farq qilgan. Davlat, mulk (xususiy yerlar), vaqf (diniy idoralar ixtiyoridagi yerlar) yerlarda ijrarachi chorakor dehqonlar ishlashagan. Ugedey (1229 – 1241) davridan ayrim zodagonlar, katta er egalari va yirik savdogarlarga imtiyozlar berila boshlandi.

Mo‘g‘ul istibdodi davrida xalqning ahvoli nihoyatda yomonlashadi. Hunarmandlar, dehqonlar, chorvadorlar hasharlarda qatnashishi, tekinga ishlab berishga majbur edi. Mo‘g‘ul istilochilarining mahalliy zodagonlar yordamida mehnatkash xalqni talab, uni og‘ir soliqlar va o‘lponlar to‘lashga, turli majburiyatlarni bajarishga majburlab kelgan. Aksariyat odamlar xonning mulki sifatida qullarcha ishlatilgan, ular juda ko‘p soliqlarni to‘lashga majbur edi.

Mo‘g‘ul istilochilarining mahalliy zodagonlar yordamida mehnatkash xalqni talab, uni og‘ir soliqlar va o‘lponlar to‘lashga, turli majburiyatlarni bajarishga majburlab kelgan. 1238-yil Buxoro atrofidagi Tarob qishlog‘ida hunarmand Mahmud Torobi y boshchiligidagi mo‘g‘ullarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tariladi. Buxoro sadrlari Mahmud Torobiyni xalifa deb e’lon qilishga majbur bo‘ladi.

Mahmud Tarobiy oddiy xalq manfaatlari yo‘lida bir qancha o‘zgarishlarni amalga oshiradi. Ammo mo‘g‘ullar qo‘zg‘oltonni shafqatsiz bostiradi.

Mahmud Tarobiy qo‘zg‘olonidan so‘ng Mahmud Yalavoch amalidan chetlashtiriladi va Pekin shahriga hokim qilib tayinlanadi. Movarounnahr noibiligini uning o‘g‘li Ma’subek (1238 – 1289) egallaydi. U Movarounnahrda savdo-sotiqni jonlantirish, iqtisodiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga intiladi. U 1271–yili mo‘g‘ullarning madaniy-o‘troq hayot tarafdarlari madadi va Talas qurultoyi (1269) qarorlariga tayanib, pul islohotini o‘tkazadi. Ma’subek islohotlari Movarounnahrda iqtisodiy hayot jonlanishiga, ichki va tashqi savdoning o‘sishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

XIV asrning boshlaridan Chig‘atoy ulusi xonlari o‘z xazinalarini saqlash uchun shaharlar tanlay boshlaydilar yoki o‘zlar yangi shaharlarga asos sola boshlaydi. Chig‘atoy xonlaridan birinchi bo‘lib Kebekxon (1318 – 1326) o‘troq turmush tarziga o‘tadi. U Naxshab shahri atrofida o‘ziga saroy quzdirdi va bu saroy (Qarshi) keyinchalik Kebekxonning qarorgohiga aylandi. Shu tariqa Chig‘atoy zodagonlari Movarounnahrda o‘troq hayotga o‘ta boshlaydi.

Kebekxon pul islohotini ham o‘tkazadi: Xulagiylar va Oltin O‘rda tangalariga o‘xshatib yirik kumush tanga – dinor va mayda kumush tanga – dirham zarb ettiriladi. Shuningdek, Kebekxon davrida ma’muriy islohot ham o‘tkaziladi. Movarounnahr viloyatlarga, viloyatlar tumanlar (mo‘g‘ullar tartibida 10 ming askar beradigan, aholisi 40–50 ming bo‘lgan) ga bo‘linadi.

Ammo mo‘g‘ul zodagonlari orasida Kebekxon islohotlariga, o‘troq hayot, mahalliy aholiga yaqinlashish siyosatiga qarshi muxolif kuchlar ham bor edi. Tarmashirin (1326 – 1334) Kebekxon siyosatini davom ettiradi va Movarounnahr, Ettisuv, Sharqiy Turkistonda islom davlat dini deb e’lon qilinadi. 1334–yilda Tarmashirindan norozi mo‘g‘ul zodagonlari uni o‘ldiradi.

Kebekxonidan keyin uning siyosatini Qozonxon (1334 – 1346) davom ettiradi. U Movarounnahr hududlari birligini saqlash, tubjoy aholi manfaatlarini himoya qilishga, mo‘g‘ul no‘yonlarining bo‘lginchilik harakatlarini bartaraf qilishga intiladi. Muxolif mo‘g‘ul no‘yonlari esa Qozonxonni o‘ldirishadi va taxtga

amir Qazog‘on (1347 – 1358) ni o‘tqazishadi. Ammo muxolif kuchlar o‘rtasidagi ichki ziddiyatlar kuchayib, XIV–asrning 40-yillarida Chig‘atoy ulusi Mo‘g‘uliston va Movarounnahrga bo‘linib ketishi bilan yakunlanadi. Ya’ni, XIV asr o‘rtalaridan o‘zaro feodal urushlar, siyosiy tarqoqlik va ekstensiv xo‘jalik natijasida Chig‘atoy davlati tizimli inqirozga yuz tutadi. Kesh (Shahrisabz) va uning atrofi Xoji Barlos boshchiligidagi barlos urug‘i, Xo‘jand Boyazid Jaloiriy boshchiligida jaloyirlar, Balx va uning atrofi Qozonxon nabirasi Amir Husayn, Shibirg‘on Muhammad Xo‘ja ixtiyoriga o‘tadi, shuningdek, Buxoroda sadrlar, Xuttalondan mahalliy hokimlardan bo‘lgan Kayxusrav, Termizda saidlar, Choch va Farg‘onada maliklar, Badaxshonda mahalliy hukmdorlar hokimiyati o‘rnataladi.

Mo‘g‘ullar istibdodi davrida ijtimoiy–madaniy hayot. Mo‘g‘ullar istilosini Movarounnahr ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini juda og‘ir zarba bo‘ldi. Samarqand, Gurganj, Buxoro, Xo‘jand, Termiz kabi yirik iqtisodiy va madaniy markazlar vayronaga aylanadi, juda ko‘p odamlar qirilib ketadi yoki boshqa mamlakatlarga ketishga majbur bo‘ladi. Movarounnahr xalqlari o‘zining tarixida hech qachon mo‘g‘ul bosqinchilari davridagidek ko‘p talafot ko‘rgan emas. Biroq tarixiy rivojlanish ob‘yekтив xarakterda bo‘lib, uni to‘xtatish mumkin emas. Ya’ni, Movarounnahr xarobazorga aylanmasin, ammo kultepalar o‘rnida asta sekin yangi shaharlar paydo bo‘ladi, ijtimoiy hayot izga tushib boradi: Urganch (Gurganj) qaytadan gavjum shaharga aylanadi, unda O‘rta Osiyoda eng baland minora (62 metr), Najmiddin Kubro, To‘rabekxonim maqbaralari, Samarqand Shohizinda majmuida qurilish ishlari olib boriladi, 1273 – 1276 yillarda Ma’sudbek vayronaga aylangan Buxoroda qayta tiklash ishlarini amalga oshiradi, “Mas’udiya” va “Xoniya” madrasalari quriladi, Chig‘atoy ulusi xoni Duvaxon (1291 – 1306) Andijonda qurilish ishlarini olib boradi, Xo‘jandda Tubaxon maqbarasi va boshqalar bunyod ettiradi.

XIII – XIV asrlarda tarixnavislik ham taraqqiy etadi. Bu davrda Abu Umar Minhojuddin Juzjoniyning “Tabaqoti Nosiriy”, Alouddin Atamatlik Juvaniyining “Tarixi Jahongusha” (“Jahon fotihi tarixi”), Rashididinning “Jomeut–tavorix”

(“Tarixlar to‘plami”) asarlari mo‘g‘ullar istilosiga va hukmronligi davri tarixini o‘rganshda muhim ilmiy manbalardan hisoblanadi.

XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asr boshlarida fan va adabiyot asosan mo‘g‘ullar istilo qilinmagan Kichik Osiyo, Janubiy Eron va Hindistonda taraqqiy qiladi. Bu davrda fors-tojik poeziyasining yirik namoyandalaridan Jaloliddin Rumi, Sa’diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy kabi buyuk siymolar yashab ijod etganlar. Jaloliddin Rumi (1207 – 1272) buyuk tasavvuf shoiri bo‘lib, she’riyatda u so‘fiylik falsafasini rivojlantirib, o‘zining 36 ming baytdan iborat “Masnaviyi ma’naviy” nomli asarini yaratadi. Sa’diy Sheroziy (1219 – 1293) ham zabardast shoirlardan bo‘lib, uning “Guliston” va “Bo‘ston” nomli asarlarida insonparvarlik g‘oyalari tarannum etiladi. Shoir feodal jamiyatni, undagi hukmron kuchlar zulmini qoralaydi, hukmdorlarniadolatparvarlikka chaqiradi.

XIII asrning ikkinchi va XIV asrda Xorazmda yashagan shoir Pahlavon Mahmud ijodi ham madaniy merosimizda yorqin iz qoldirgan. U polvonlik, po‘stindo‘zlik bilan shug‘ullangan, o‘z zamonasining ma’rifatli kishilaridan bo‘lgan. Pahlavon Mahmud ijodidaadolat, Vatan ozodligi, haqsizlikka qarshi kurash etakchilik qiladi.

Xullas, Movarounnahrda mo‘g‘ullar zulmi har qancha kuchli bo‘lmisin, ammo ijtimoiy-madaniy hayot rivojlanishdan to‘xtab qolmadidi.

Savollar va topshiriqlar

- 1.Chingizzon tashkil etgan ko‘chmanchi davlat qanday qilib qisqa vaqtida ulkan hududlarni bosib olgan?
- 2.Xorazmshohlar sultanatidagi ichki qarama qarshiliklar va ziddiyatlar nimalardan iborat edi?
- 3.Mo‘g‘ul istilochilarga mahalliy xalqning qahramonona kurashini misollar bilan tahlil qiling
- 4.Jaloliddin Manguberdining mo‘g‘ullarga qarshi qurashdagi jasorati bugungi avlod tarbiyasi uchun qanday ahamiyatga ega?

- 5.Jaloliddin Manguberdining mo‘g‘ullar bilan kurashda mag‘lubiyatga uchrashi sabablarini yoriting.
- 6.Chingizxonning bosib olgan hududlarni o‘g‘illariga taqsimlab berishining zamirida nimalar yotadi?
- 7.Mahmud Torobiy qo‘zg‘oloni va uning engilish sabablarini yoriting.
- 8.Mahmud Yalavoch va uning o‘g‘li Mas’udbekning Movarounnahrni boshqargan davr xususiyatlari.
- 9.XIV – asrning 40 – 60 yillariga kelib barcha mo‘g‘ul uluslari, xususan, Chig‘atoy ulusining inqirozga yuz tutishi sabablarini keltiring
- 10.Mo‘g‘ullar hukmronligi davrini o‘rganshda qanday tarixiy manbalar mavjud?

8 – §. Amir Temur davlati va Temuriylar davrida fan va madaniyatning yuksalishi

Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi. Markaziy davlat boshqaruvining takomillashuvi. O‘zbek davlatchiligining rivojlanishida buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur ibn Tarag‘ay Bahodir katta o‘rin egallaydi. Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida o‘zbek davlatchiligining qayta tiklanishi va yangi bosqichga ko‘tarilishi Amir Temur shaxsiyati bilan bog‘liqdir. Amir Temurning tarixiy xizmatlari uchun 1996-yil – Amir Temur yili deb e’lon qilindi. Amir Temur tavalludining 660 yilligi O‘zbekistonda va YuNESKO tashabbusi bilan xalqaro miqyosda nishonlandi.

Amir Temur 1336-yil 8-aprelda Shahrisabz (Kesh) yaqinidagi Xo‘ja Ilg‘or (hozirgi Qashqadaryo viloyati, Yakkabog‘ tumani) qishlog‘ida barlos beklaridan bo‘lgan Amir Tarag‘ay Bahodir ibn Barkal va Takina Mohbegim oilasida tug‘ilgan.

XIV – asrning 60-yillarida Movarounnaharda o‘zaro urushlar avj olgan, Chig‘atoy ulusi inqirozga yuz tutayotgan edi: 1346-yil Chig‘atoy ulusi xoni

Qazonxonni amir Qazog‘on o‘ldiradi. 1358-yilda esa amir Qozog‘onning o‘zi ham o‘ldiriladi. Shundan so‘ng Movarounnahr amalda mustaqil bo‘lgan o‘nlagan hokimliklarga bo‘linib ketadi. Mana shunday sharoitlarda Amir Temurning siyosiy faoliyatini boshlanadi.

Mo‘g‘uliston xoni Tug‘luq Temur Movarounnahrni o‘z davlatiga qaytarish uchun bir necha bor urushlar olib boradi. U 1360-yilda Kesh viloyatini bosib oladi. Viloyat hokimi Temurning amakisi Xoji Barlos Xurosonga qochadi. Amir Temur o‘zining merosiy yurtini qo‘ldan bermaslik maqsadida 1361-yilda Tug‘luq Temur xizmatiga kiradi va u Kesh viloyatiga hokimi etib tayinlanadi. Ammo Tug‘luq Temurning o‘g‘li Ilyosxoja Movarounnahr hokimi bo‘lgach Amir Temur unga xizmat qilishdan bosh tortadi va Balx hokimi Amir Qozog‘onning nabirasi Amir Husayn bilan ittifoq tuzadi. O‘sha davrdagi vaziyat taqozosi bilan Temur Movarounnahrni tark etishga majbur bo‘lib, Husayn bilan ittifoq tuzgan edi. 1361 – 1370 yillar davomida Amir Temur va Amir Husayn dastlab do‘stona, keyin esa dushmanlik munosabatida bo‘ladi.

Tug‘luq Temurning o‘g‘li Ilyosxoja 1365-yil bahorda Movarounnahrga yurish qiladi, katta qo‘sish bilan Sirdaryo tomonga yo‘lga chiqadi. Amir Husayn va Amir Temurning birlashgan kuchlari bilan Tug‘luq Temur qo‘sishnlari o‘rtasidagi jang 1365-yil 22-mayda Chinoz va Toshkent oralig‘ida qattiq yog‘ingarchilik vaqtida bo‘lib o‘tadi va u tarixda “Loy jangi” – “Jangi loy” nomi bilan qoladi. Jangda Temur va Husayn o‘zaro kelishib harakat qilmaganliklari tufayli ular mag‘lubiyatga uchraydi. Ba’zi manbalarda ushbu mag‘lubiyatning sababi sifatida Amir Husaynning sust harakat qilganligi keltiriladi. Temurning o‘zi esa engilish sababini Husaynning hasadgo‘yligida deb biladi. Xususan, “Temur tuzuklari”da Amir Temur va Amir Husaynning do‘stona munosabatlarini buzilishiga Husaynning molparastligi va hasadchiligi sabab bo‘lganligi ta’kidlanadi.

Bu vaqtida Samarqand aholisi mo‘g‘ullarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradi va shaharda sarbadorlar (“dorga tik boruvchilar”) hokimiyati o‘rnataladi²⁰. Samarqandda sarbadorlar harakatining ijtimoiy tarkibi madrasa talabalari, oddiy hunarmandlar, kambag‘allardan iborat edi. Sarbadorlar oddiy xalqning hayotini engillashtirishga harakat qilishadi, mo‘g‘ullar tarafdoi bo‘lgan zodagonlar mulkclarini musodara etishadi.

Ilyosxoja qo‘shinlari Samarqandni qamal qilganlarida sarbadorlar muvaafaqiyatli tarzda mudofaani tashkil qildilar. Mudofaaaga madrasa mudarrisi Mavlonzoda, hunarmand Abu Bakr Kalaviy va mergan Xurdaki Buxoriy boshchilik qiladilar. Ammo Ilyosxoja lashkarida yuqumli kasallik (ot vabosi) tarqaladi va mo‘g‘ullarning ko‘p otlari qirilib ketadi. Shu sababdan Ilyosxoja Samarqand qamalini to‘xtatib Movarounnahrdan chiqib ketishga majbur bo‘ladi.

Samarqand sarbadorlari g‘alabasidan xabar topgan amir Husayn va Amir Temur 1366-yilning bahorida Samarqandga etib kelishadi. Amir Husayn hiyla ishlatib sarbadorlar boshliqlari, va aftidan, faollarni ham qo‘lga oladi va qatl etadi. Temurning aralashuvi bilan faqat Mavlonzoda omon qoldirilib, Xurosonga jo‘natiladi.

1366 – 1370 yillar Amir Temur va Amir Husayn o‘rtasidagi ixtilof kuchayyadi. Bu haqda tarixchi Sharofiddin Yazdiy shunday yozadi: “ularning o‘rtalarida sadoqat va do‘stlik munosabati yaqinlik va qarindoshlik aloqasi bilan

²⁰ Sarbadorlar harakati XIV asning 30-yillarida Xuroson (Afg‘onistonnnng shimoli-g‘arbi, Mary vohasi va Eronning shimoli-sharqi qismi)da paydo bo‘lib, mo‘g‘ullar hukmronligi barham beradilar va markazi Sabzavor shahri bo‘lgan Sarbadorlar davlatiga (1337 – 1383) asos soladilar. Sarbadorlar harakati XIV asrning 50 – 60 yillarida ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida Movarounnahrga ham yoyiladi va uning markazi Samarqand edi. Sarbadorlar tarkibi madrasa toliblari va oddiy aholidan iborat edi. Ularning maqsadi zulmdan xoli adolatli jamiyatni tuzish bo‘lgan.

qat’iy qilingan edi. Ammo Amir Husaynning ko‘ngli makr va g‘addorlik o‘y-xayolidan bo‘shamasdi”²¹.

O‘zaro nizo pirovardida 1370-yilning 10-aprelida Amir Temur tomonidan Amir Husayn qarorgohi bo‘lgan Balxning egallanishi va Amir Husaynning qatl etilishi bilan tugallanadi.

1370-yil 9-aprelda nufuzli amirlardan Shayx Muhammad suldo‘z, Kayxisrav Xuttaloni, Dovud duglot, Sarbug‘o jaloyir, Joku barlos, Muayyad dug‘lot, Badaxshon hokimi Shayx Muhammad, Husayn Bahodir, Sayyid Baraka, termizlik sayyidlar Abu Maoliy va Ali Akbar huzurida Amir Temur hokimiyati tan olishadi. 1370-yil iyulda esa Samarqandda qurultoy bo‘lib o‘tadi va Amir Temur hokimiyati Movarounnahrning barcha amirlari va qabila boshliqlari tomonidan tan olinadi. Samarqand poytaxt etib belgilanadi.

Movarounnahrning rasmiy xoni chingiziylardan bo‘lgan Suyurg‘at mish edi, lekin amalda davlat boshqaruvi Amir Temur qo‘lida edi. Amir Temur oldida markazlashgan kuchli davlat tuzishdek g‘oyat murakkab vazifa turardi. Buning uchun, eng avvalo, qat’iy qonunlar joriy qilinishi, kuchli qo‘shin tuzish, sadoqatli lashkarboshilarni shakllantirish, iqtisodiy hayotni jonlashtirish talab qilinar edi. Amir Temur yirik harbiy bo‘linmalarga harb san’atining mohir ustalari bo‘lganlarni tayinlaydi va qobiliyatli jangchilarni katta harbiy lavozimlarga ko‘tardi.

Amir Temur markazlashgan davlat tuzishda, hududlarni kengaytirishda harbiy yurishlardan ham ko‘ra avvalo diplomatik yo‘llardan ham kenng foydalangan. Sirdaryo va Amudaryo oralig‘idagi yerlar, Farg‘ona, Shosh viloyatlari tinch yo‘l bilan birlashtirilgan.

Amir Temur sharqiy hududlarni mo‘g‘ullar zulmidan ozod etish uchun 1370-yil oxiri va 1371-yil boshida Sharqiy Turkistonga bir necha bor yurish qiladi. Mo‘g‘uliston xoni qo‘shinlari tor-mor etiladi va Farg‘ona vodiysi egallandi, O‘tror, Yassi (Turkiston), Sayram, Hisor, Badaxshon va Qunduz saltanat tarkibiga kiradi.

²¹ Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. B. 207.

Tarixiy manbalarda Amir Temur 1371 – 1389 yillarda Mo‘g‘ulistonga qarshi 7 marta harbiy yurishlar qilgani tilga olinadi. Bu esa uning qaysi davlatlarni o‘ziga xavfli deb bilganini ham ko‘rsatadi. Mo‘g‘ullar ustidan qozonilgan g‘alablar natijasida mamlakatning sharqiy hududlari tahdidlardan xalos bo‘ldi.

1381-yilda Hirot, Seyiston, Mozandaron egallanadi. Saraxs, Sabzavor va unga yondosh hududlar Amir Temur hokimiyatini ixtiyoriy tan olinadi. Shu tariqa Movarounnahr va Xuroson yagona davlatga birlashtirildi.

Makur davrda Oltin O‘rda va Amir Temur davlati oralig‘ida Xorazm davlati o‘z mustaqilligini tiklagan va harbiy qudratini kuchaytirayotgan va hokimiyatda so‘fiylar sulolasи hukmronlik qilar edi. Amir Temur 1372, 1373, 1375, 1379, 1388 yillarda Xorazmga besh marta yurish qiladi.

Shunday qilib, Amir Temur bir necha yillar davom etgan kurash, diplomatik ta’sir ko‘rsatish vositalarini qo‘llash orqali mamlakatni mo‘g‘ullar zulmidan ozod etdi, feodal tarqoqlik, siyosiy separatizmni va ular vujudga keltiradigan, tinch aholining tinkasini quritadigan, xo‘jalik faoliyatini izdan chiqaradigan o‘zaro urushlar bartaraf qildi. Movarounnahr, Xuroson va Xorazm birlashtirilib, markazlashgan davlat barpo etishga muvaffaq bo‘lindi.

Amir Temurning harbiy yurishlari “uch yillik”, “besh yillik”, “etti yillik” urushlar nomini olgan. XIV – asrning 80-yillari o‘rtalariga kelib Xurosonda Sohibqiron hokmimiyyati o‘rnataladi. “Uch yillik” urush natijasida Ozarbayjon, Tabriz, Mozandaron, Eron bo‘ysundiriladi. 1392–1396-yillardagi “besh yillik” va 1398–1404 yillardagi “etti yillik” yurishlar natijasida Eron, Kavkaz orti, Shimoliy Hindiston, Suriya, Iroq, Kichik Osiyoning bir qismini egallanadi.

1387 – 1388 yillarda Oltin O‘rda xoni To‘xtamish Amir Temurning yo‘qligidan foydalanib Movarounnahrga harbiy yurishlar uyuştiradi. 1388-yilning yanvarida Amir Temurning qaytishidan xabar topgan mo‘g‘ullar chekinadi. Amir Temur amirlari – Husayn, Shayx Ali Bahodir va boshqalar dushmanni quvib etib, unga katta talofat etkazadilar. 1388-yil oxirida yana bir to‘qnashuv (Sagaron, Kattaqo‘rg‘on atroflarida) To‘xtamishning mag‘lubiyati va qochib ketishi bilan yakunlandi. Amir Temurning Oltin O‘rda xoni To‘xtamishga qarshi yana 1391,

1394 – 1395 yillarda harbiy yurish qiladi. Bundan maqsad mamlakat xavfsizligini ta'minlashga edi. 1395-yil bahorida Shimoliy Kavkazdagi Terek daryosi bo'yida To'xtamish va Amir Temur qo'shinlari o'rtasida jang bo'lib o'tadi va unda To'xtamish mag'lubiyatga uchraydi. Shundan so'ng Oltin O'rda poytaxti Saroy Berka, Saro Botu shaharlari ishg'ol etiladi. Natijada Oltin O'rda qudratiga qattiq zarba berildi. Amir Temur tomonidan Oltin O'rdanining ishg'ol etilishi esa uning tarkibiga kirgan rus knyazliklarining mustaqillikka erushuvida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

1399-yil martda Temur Hindistonga yurish qiladi va Shimoliy Hindiston va Kashmir hududlarni egallaydi. 1400-yilda Amir Temur qo'shinlari turk sultonii Boyazidga kurash olib boradi.

1402-yil 20-iyulda Amir Temur Anqara yonidagi jangda Boyazid qo'shinlarini tor-mor keltiradi, uning o'zini va o'g'lini asirga oladi. Ushbu g'alaba Yevropa monarxlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Chunki Boyazid Bolqon yarim orolini egallab, harbiy yurishlari Yevropa mamlakatlariga qarshi qaratilgan edi. Yevropa qirollari Boyazid misolidagi kuchli dushmanidan xalos bo'lishgan edi. Shuning uchun ham Fransiya qiroli Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV va Vizantiya imperatori Temurga o'z tabriknomalarini yuborgan.

Amir Temur 35 yil davomida harbiy yurishlar olib boradi. Ushbu yurishlar natijasida Movarounnahr, Xuroson, Xorazm, Kaspiy atrofidagi viloyatlar, hozirgi Afg'oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, Iraq, Janubiy Rossiya, Kavkaz orti va G'arbiy Osiyoning bir qator davlatlaridan iborat ulkan saltanat barpo etildi.

Amir Temur qudratli saltanatni vujudga keltirar ekan u o'zbek davlatchiligining Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar davridagi ilg'or an'analarini davom ettiradi va rivojlantiradi. Bu bilan o'zbek davlatchiligi o'zining yuqori bosqichiga chiqadi.

Amir Temur davlatida boshqaruva dargoh va vazirliklardan iborat bo'lgan. Dargoh tepasida oliy hukmdorning o'zi turgan. Davlat ahamiyatiga molik masalalar uning ko'rsatmasi bilan hal etilgan. Dargoh faoliyatini boshqarish, uning vazirliklari, mahalliy hokimiyat idoralari va umuman saltanatda kechayotgan

jarayonlar bilan bog‘liq ishlar oliy devon zimmasida bo‘lgan. Oliy devonda har kuni to‘rt nafar vazir, ya’ni ijroiya idoralari nomidan bosh vazir, harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri hozir bo‘lib, o‘ziga xos ravishda hukmdorga hisob berib turgan.

Amir Temur sultanatida diniy munosabatlar tizimi shayxulislom, a’lam, qozikalon, sadri a’zam, muhtasib, qoziyi ahdos, qozi askar, mudarris, mutavalli lavozimlari orali boshqarilgan.

Sohibqiron adolatli va qonunchilikka tayangan, davlatchilik asoslarini barpo etish bilan birga davlat yaxlitligi va kuch-qudratini mustahkamlashning asosiy omili bo‘lgan kuchli mudofaa tizimi yaratdi. Amir Temur o‘z sultanatining boshqaruv tizimini yaratishda usha davrning yirik va ko‘zga ko‘ringan harbiylari, amirlar va beklar, fozillar, olimu-ulamolar, o‘z pirlarining o‘gitlari hamda maslahatlariga tayangan edi. Amir Temur jamiyatni 12 tabaqaga ajratib ularning har birining manfaatlarini ta’minlashga va himoya qilishga ustuvor darajada ahamiyat berdi.

Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson. 1404-yil mayda Amir Temur Kichik Osiyodan Samarcandga qaytib keladi va Xitoyga bo‘ladigan yurishga tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi. 1404-yil noyabrdagi Amir Temur 200 minglik qo‘sish bilan Samarcandan Xitoy yurishiga chiqadi. Yurish davomida Amir Temur shamollab qoladi va 1405 yil 18 fevralda O‘tror shahrida vafot etadi.

O‘limidan oldin Amir Temur nevarasi Pirmuhammad Jahongirmi taxt vorisi etib tayinlaydi. Ammo Amir Temur Samarcandda dafn etilmasdanoq, taxt uchun kurash boshlanib ketadi. Kobul va Shimoliy Hindiston yerlarining hokimi bo‘lgan Pirmuhammad Samarcandga etib kelguncha Mironshoh Mirzoning o‘g‘li Xalil Sulton 1405-yilning 18 martida Samarcandni egallaydi va o‘zini Movarounnahr hukmdori deb e’lon qiladi.

Garchand Xalil Sulton nufuzli a’yonlar sarkadalarning ma’lum qismini mol-mulk evaziga o‘z tomonnga og‘dirib olgan bo‘lishiga qaramay, ko‘p o‘tmasdan kuchli norozilik va isyonlarga duch keladi. Xalil Sultonning xotini Shodimulk ko‘plab nojoiz ishlarni qiladi va ba’zi amaldorlarning mulklari tortib olinadi.

Xurosonda esa Temurning kenja o‘g‘li Shohruh Mirzo o‘z nomiga xutba o‘qittiradi.

Xalil Sultonga qarshi Turkiston hokimi Shayx Nuriddin, Farg‘ona hokimi Amir Xudoydod va O‘tror hokimi Berdibek isyon ko‘taradi. Xalil Sultonning ukasi Mirzo Sulton Husayn ham o‘z akasiga qarshi bosh ko‘taradi. Temur taxtining merosxo‘ri bo‘lgan Pirmuhammad Amudaryodan kechib o‘tib, Xalil Sultonga qarshi qo‘shin tortadi. 1405-yilning oxirlariga kelib Xurosonda Shohruh Mirzo, Balx, G‘azna va Qandahorda Pirmuhammad, G‘arbiy Eron va Ozarbayjonda Mironshoh Mirzonnng o‘g‘illari Umar Mirzo va Abubakr Mirzo hokimiyatlari o‘rnataladi. Turkiston, Sarbon, O‘tror, Sayram Amir Berdibek tasarrufida bo‘lsa, O‘ratepa va Farg‘onani Amir Xudoydod egallagan edi. Tez orada g‘arbiy hududlar ajralib chiqadi. Ozarbayjonda turkmanlarning Oq quyunli va Qora quyunli sulolalari kuchayadi. Xorazm esa Oltin O‘rda tomonidan ishg‘ol etiladi. Shu tariqa 27 ta davlat va viloyatlarni birlashtirgan Amir Temur sultanati parchalaniб ketadi. Buning asosiy sabablaridan biri – bu mamlakatning suyurg‘ol tariqasida shahzodalarga bo‘lib berilganligida ham edi. Ular esa o‘zlarining xazinasi va qo‘shiniga ega edi.

Temuriylarning toju-taxt uchun besh yil davom etgan o‘zaro urushlarga Shohruh Mirzo (1407 – 1447) chek qo‘yadi, Xuroson va Movarounnahrda o‘z hokimiyatini o‘rnataladi. U 1409-yilda Movarounnahrni katta o‘g‘li Ulug‘bekka topshiradi, o‘zi esa Hirota qaytadi. Shu tariqa Xuroson va Movarounnahrda Shohruh Mirzoning 40 yillik hukmronligi boshlanadi.

Temuriy shahzodalarining taxt uchun o‘zaro urushlari mamlakat xo‘jalik hayotini izdan chiqargan, turli vayronagarchiliklarni keltirib chiqargan edi. Shohruh Mirzoning esa, kuchli markazlashgan davlat qurishga intilishi, o‘z navbatida, xalq ommasining manfaatlari bilan mushtarak bo‘ldi. Shohruh Temur sultanatining barcha qismida o‘z hukmronligini o‘rnata olmadi, balki uning o‘zagini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi. Ammo Shohruh Mirzo ham deyarli barcha o‘lka, viloyat noiblari lavozimi qarindosh-urug‘larini tayinlaydi. Xususan, Balx va Badaxshon – Ibrohim Sultonga, Sheroz –

Suyurg‘at mishga, Kobul va Qandahor – Qaydu Mirzoga, Xurosonning bir qismi – Boysunqur Mirzoga, G‘arbiy Eron hamda Iroqi Ajamning bir qismi – Sulton Muhammadga, Fors viloyati – Abdullo Mirzolarga suyurg‘ol tarzida beriladi. Garchand Shohruh hukmronligi davrida mamlakatda osoyishtalik hukm surgan, savdo-sotiq o‘sgan, iqtisodiy rivojlanish ta’minlangan, madaniy hayotda ilm-fanga e’tibor susaymagan bo‘lsada, ammo suyurg‘ol sabab davlatchilikning tashkiliy-huquqiy asoslari zaif edi. Masalan, Shohruh nabirasi Sulton Muhammad Eronga noib etib tayinlangach tojdar bobosiga qarshi isyon ko‘taradi. Suyurg‘olchilikka asoslangan bunday sharoitlarda davlatchilik mustahkam bo‘lishi mumkin emas edi. Lekin o‘sha davrda mamlakatni suyurg‘ol tartibida boshqaruv an’anaga aylangan edi.

Ulug‘bek hozirgi insonparvarlik g‘oyalaridan juda uzoqda bo‘lgan, urushlar, zo‘ravonliklar ijtimoiy hayotning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lgan murakkab davrda yashadi. Shuning uchun ham u mamlakat hududlarini kengaytirish va markaziy hokimiyatni mustahkamlashga intildi. Mirzo Ulug‘bek 1414 – 1415 yillarda Farg‘onani amakivachchasi Ahmaddan tortib oladi. 1416-yilda Qashg‘ar hokimi Shayx Ali Tugay Ulug‘bek hokimiyatini tan oladi. Shimoldagi chegaralar daxlsizligini ta’minalash maqsadida Ulug‘bek 1424 yil kuzda Mo‘g‘ulistoniga qo‘sish tortadi va 1425-yil bahorda Issiqlul yaqinidagi jangda mo‘g‘ullarni tormor keltiradi. 1427-yil boshida Ulug‘bek Dashti Qipchoqka, Baroqxonga qarshi harbiy yurish qiladi, ammo mag‘lubiyatga uchraydi.

Shundan so‘ng u yigirma yil mobaynida o‘zi bosh bo‘lib harbiy yurishlarni amalga oshirmadi. 1447-yil otasi Shohruh Mirzo vafotiga qadar Ulug‘bek hukmdor sifatidagi faoliyatini mamlakatning iqtisodiy va madaniy hayotini ravnaq toptirishga karatdi. U Movarounnahrni dunyoning ilmiy markaziga aylantirishga harakat qildi. Uning davrida Samarqand, Buxoro, Kesh (Shahrisabz) ilm-fan va madaniyat markazlariga aylandi, “Ulug‘bek akademiyasi” faoliyat ko‘rsatdi.

Mirzo Ulug‘bek o‘zining qirq yillik hukmronligi (1409 – 1449) davrida xalq ommasining ahvolini yaxshilashga harakat qiladi, er solig‘ini bir necha barobar qisqartiradi. Ko‘plab sun‘iy sug‘orish inshootlari barpo etiladi. Samarqand,

Buxoro, Shahrисабз, Shosh va boshqa shaharlarda madrasalar, masjidu maqbaralar, karvonsaroylar qad rostlaydi, mamlakat daxlsizligi, tinchligi va osoyishtaligi, iqtisodiy, madaniy ravnaq ta'minlanadi, ilm-fan rivojlanadi. Movarounnahr shaharlari, ayniqsa, poytaxt Samarqandda gullab-yashnadi. Uning rahbarligi ostida o'sha davrda dunyoda tengi yo'q, ilm-fan va qurilish texnikasining eng so'nggi yutuqlari asosida barpo etilgan ilmiy observatoriya – rasadxona quriladi.

Mirzo Ulug'bek qanchalik oqilona siyosat yuritmasin, ilm-fan, savdo-tijorat, hunarmand ahliga homiylik ko'rsatmasin, ammo mamlakatning ichki parokandaligi ularning manfaatiga to'g'ri keladigan kuchlari mavjud edi. Markaziy hokimiyat tomonidan ba'zi yirik zamindorlarning suiiste'molchiliklari cheklanganida ular islomdagi ortodoksal (mutaassib) kuchlar bilan birlashib Ulug'bekka qarshi chiqadilar. Diniy jaholatparastlar o'z davrining buyuk allomasi bo'lган Ulug'bekni "islomga zid hukmdor" deb tashviqot yuritadilar. Bu esa, o'z navbatida, boshqa salbiy omillar bilan birgalikda, davlatni beqarorlik holatiga duchor etadi.

Fors va Iroqi Ajamda Shohruhning nabirasi Sulton Muhammad 1446-yilda bobosiga qarshi isyon ko'taradi va Hamadonni, Isfaxonni bosib oladi. Shohruh bu isyonni bostirib, 1447-yil 12-martda Hirota qaytishda Ray shahrida vafot etadi. Aslida qonuniy valiahd Ulug'bek bo'lsada, ammo taxtni Boysunqurning o'g'li Alouddavla egallaydi. Shu tariqa Ulug'bek Xurosonga qo'shin tortishga majbur bo'ladi. Mamlakat yana toju-taxt uchun urushlar domiga tortiladi.

Alouddavla 1447-yil bahorda Ulug'bekning katta o'g'li Abdulatif qo'shinini mag'lubiyatga uchratib, uning o'zini asir oladi. Ulug'bek o'g'li Abdulatifni asirlikdan qutqarish uchun taxtga da'vogar jiyani Alouddavla bilan sulh tuzishga majbur bo'ladi. Sulhga ko'ra Abdulatif asirlikdan ozod qilinadi, Ulug'bek esa Hirota taxtiga o'z da'vosidan voz kechadi. 1448-yil bahorda Ulug'bek va uning o'g'illari Abdulatif va Abdulaziz boshchiligidagi 90 ming kishilik qo'shin Xurosonga yurish boshlaydi. Alouddavla qo'shini Tarnob jangida mag'lubiyatga uchraydi va Hirota shahri egallanadi. Ulug'bek o'g'li Abdulatifni Hirota qoldirib o'zi Samarqandga qaytishga majbur bo'ladi.

Shu orada temuriy shahzodalardan yana biri Abulqosim Bobur qo'shinlari Hirotga yaqinlashadi, Abdulatif esa Hirotni tashlab qochadi. So'ogra Ulug'bek o'g'li Abdulatifni Balxga noib qilib tayinlaydi. Biroq Abdulatif otasi Ulug'bekning dushmanlarini atrofiga yig'adi. O'sha vaqtida Ulug'bek og'ir ahvolda qolgan edi: Dashti Qipchoq xoni Abulxayr Movarounnahrga bostirib kiradi va Toshkent, Samarqand, Buxoro atroflarini talab vayron qiladi. Ayni vaqtida, Samarqandda noib qilib qoldirilgan Ulug'bekning kichik o'g'li Abdulaziz faoliyatidan amirlarning noroziligi kuchayadi.

Mana shunday murakkab vaziyatdan foydalanib otasiga qarshi Abdulatif isyon ko'taradi va 1449-yil oktyabrda jangda Ulug'bek qo'shinlari engiladi. Abdulatif taxtni egallaydi va otasi Mirzo Ulug'bekni fatvo asosida 1449-yil 27-oktyabrda qatl ettiradi. Ammo uning hukmronligi olti oyga ham bormaydi. Abudlatif 1450-yil 8-mayda Ulug'bekning xos navkari Bobo Husayn tomonidan o'ldiriladi va uning boshi Samarqanddag'i Ulug'bek madrasasining peshtoqiga osib qo'yiladi.

Samarqand taxi Ulug'bekning jiyani va kuyovi Mirzo Abdulloga nasib etadi. Buxoro esa Mironshohning nabirasi Sulton Abu Saidga ixtiyoriga o'tadi. Abu Said Dashti Qipchoq hukmdori Abulxayrxonning harbiy yordamida 1451-yilda Mirzo Abdullo qo'shinlarini tor-mor keltiradi va uni o'ldiradi. Shundan so'ng Movarounnahrda Sulton Abu Said (1451 – 1469), Xurosonda esa Abulqosim Bobur (1452 – 1457) hukmronligi o'rnatiladi.

1457-yilda Abulqosim Bobur vafot etadi, shahzodalarning taxt uchun kurashidan foydalanib Abu Said Xurosonga harbiy yurish qiladi va Xurosonni o'z davlatiga qo'shib oladi. O'z hukmronligi davrida Abu Said markaziy hokimiyatni mustahkamlashga harakat qildi, bu yo'lda bir qancha ishlarni amalga oshirdi. Ammo shunga qaramasdan uning hokimiyati ham mustahkam emas edi. U Xuroson, Eron va Xorazmdagi siyosiy parokandaliklarga barham bera olmadi. Jumladan, Abulqosim Bobur vafotidan keyin temuriy shahzodalardan Sulton Husayn Boyqaro Xuroson taxi uchun harbiy harakatlarni boshlab yuborgan bo'lib,

1461 – 1464 yillarda Hirot, Obivard, Niso, Mashhad va Xorazmda hokimiyat uchun kurash olib bormoqda edi.

1469-yilda Sulton Abu Said G‘arbiy Eron uchun Oqquyunli turkmanlarga qarshi harbiy yurishda o‘ldiriladi. Vaziyatdan foydalangan Sulton Husayn Boyqaro (1438 – 1506) o‘sha yili Hirotni egallaydi va o‘zini Xuroson sultonini deb e’lon qiladi. Husayn Boyqaro davlati Xorazm, Xuroson va Eronning bir qismidan iborat bo‘lgan. Husayn Boyqaroning hukmronlik yillari o‘zaro kurashlardan xoli bo‘lmasada, ammo mamlakatning iqtisodiy va madaniy yuksalishi ta’minlangan edi. Biroq Husayn Boyqaro davlati ham suyurg‘ol tartibiga qurilgan tipik feudal davlati edi. Unda viloyatlar noiblari bo‘lgan shahzodalarining siyosiy mustaqilikká intilishi (siyosiy separatizm), davlat amaldorlari orasida o‘zaro fitna, sotqinlikning avj olishi, ayniqsa, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanmasligi va b., muqarrar ravishda davlatning inqirozga yuz tutishiga olib kelardi. Xususan, buni Husayn Boyqaroning nabirasi, temuriylar davlatini halokatdan saqlab qolish darajasidagi salohiyatga ega bo‘lgan, Alisher Navoiyning sevimli shogirdi Mo‘min Mirzoning qatl etilishi, undan keyin sulton va uning katta o‘g‘li o‘rtasidagi nizoda ham kuzatish mumkin. 1506-yilda Husayn Boyqaro vafotidan so‘ng Hirotda Badiuzzamon va Muzaffar Mirzo hokimiyati, ya’ni “qo‘sishhokimiyatchilik” o‘rnataladi. 1507-yilda Muhammad Shayboniyxon Badiuzzamon va Muzaffar Mirzo qo‘sishinlarini tor-mor keltiradi va Xurosonda ham temuriylar hukmronligiga barham beradi.

Movarounnahr esa Abu Said o‘g‘illari Sulton Ahmad (1469 – 4194), Sulton Mahmud (1494 – 1496) va Mahmudning o‘g‘li Sulton Ali Mirzo (1496-1501) tomonidan boshqarildi. Ammo, ushbu hukmdorlar davrida o‘zaro siyosiy tarqoqlik yanada kuchayadi. Dashti Qipchoqda kuchayib kelayotgan shayboniylarning Movarounnahrga yurishi arafasida temuriylar davlati toju taxt uchun o‘zaro urushlar natijasida nihoyatda zaiflashib qolgan, xalq ommasining ahvoli nochoralashib qolgan edi. Bundan esa, Movarounnahrni egallahda shayboniylar yaxshi foydalandilar.

XV asr oxirlaridan temuriy hukmdor Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo (1482 – 1530) temuriylar sultanatini saqlab qolish uchun Muhammad Shayboniyxonga qarshi olib og‘ir kurash olib boradi, ammo uning Eron shohi Ismoil Safaviy qo‘sishinlaridan foydalangani, shialar shohi Ismoil nomining xutbaga qo‘sib o‘qitilishi uning barcha harakatlarini yo‘qqa chiqaradi. Shayboniyxon esa o‘zining Movarounnahrga yurishini “dahriy” temuriylarga qarshi islomni himoya qilish uchun muqaddas urush – jihod deb nomlayotgan edi. Ana shundan so‘ng Bobur Mirzo Kobulga ketishga majbur bo‘ladi, keyinchalik Hindistonda Boburiylar davlatiga (1526 – 1858) asos soladi. Shu tariqa, Xuroson va Movaraunahrda o‘zbek milliy davlatchiligi tarixida alohida o‘rin tutgan, qariyb bir yarim asr umr ko‘rgan temuriylar davlati tarix hukmi ostida halokatga uchradi.

Amir Temur va temuriylar davri madaniyati. Amir Temur va temuriylar davlati davrida O‘rta Osiyoda madaniyat va ilm-fan har tomonlama rivyoojlandi, “Ikkinchi Uyg‘onish davri” sodir bo‘ldi. Amir Temur o‘z davlatining shon-shuhrati uchun Movarounnahr, ayniqsa, poytaxt Samarqand shahrini rivojlantirishga, uning obodonchiligiga katta e’tibor qaratdi. Samarqand, Shahrisabz va boshqa shaharlarida katta me’morchilik-qurilish ishlarini olib bordi. Buning uchun istilo qilingan mamlakatlardan, xususan, Hindistondan, Xorazmdan, Sheroz, Isfahon, Damashq va b. joylardan ko‘plab ustalar, hunarmandlarni Samarqandga ko‘chirib keltiradi. Amir Temur davrida Tabriz, Sheroz va Bag‘dodda ham qurilish ishlari olib borilgan, Turkistonda Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara ham bino ettirgan. Shuningdek, katta qurilish Shahrisabzda ham olib borilgan, bu erda Amir Temur otasi va uning o‘g‘li Jahongirga maqbara, jome masjidi va Oqsaroyni barpo ettiradi. Amir Temur binokorlik ishlariga alohida e’tibor bergen, xususan, buni Oqsaroy peshtoqiga yozilgan: “Agar bizning quvvat va qudratimizga ishonmasangiz, bizning imoratlarimizga boq” degan yozuvlar ham ifodalaydi.

Amir Temur davrida mo‘g‘ullar bosqinidan keyin vayronaga aylangan Samarqand qaytadan barpo etildi. Shahrar markazida Ko‘ksaroy va Bo‘stonsaroy, ko‘pplab masjidlar, madrasalar va maqbaralar qurildi.

Samarqandni o‘rab turgan Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Chinor, Bog‘i Bihisht, Bog‘i Baland, Bog‘i Nav, Bog‘i Shamol, Bog‘i Jahonnamo, Davlatobod singari bog‘lar yaratilgan. Shuningdek, Sharqning mashhur shaharlari bilan nomlanuvchi Dimishq (Damashq), Misr (Qohira), Bag‘dod, Sultoniya va Sheroz kabi qishloqlar bunyod etiladi.

Temuriylar hukmdorlardan Shohruh, Ulug‘bek, Sulton Abu Said va Husayn Boyqaro hukmronlik yillaridagi nisbiy osoyishtalik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o‘z navbatida fan va madaniyat ravnaqiga olib keldi. Shohruh va uning vorislari tomonidan barpo etilgan 150 dan ziyod mashhur obidalar, jumladan, “Bog‘i Zog‘on”, “Bog‘i jahon” qal'a maskanlari, “Gavharshodbegim” madrasasi, Boysunqur “Nigoriston” (Badiiy akademiyasi), yoxud Alisher Navoiy rahnamoligida Hirot va Xurosondada qurilgan 300 dan ziyod masjidlar, madrasalar, maqbaralar, xonaqohlar, hammomlar, shifoxonalar, saroylar, bog‘lar, rabotlar, karvonsaroylar, suv inshootlari, ko‘priklar, korizlar barpo etildiki, bular esa o‘z navbatida, Temuriylar davridagi o‘zgarishlar ko‘lamini ifodalaydi.

Temuriylar davrining o‘ziga xos jihatlaridan biri (milliy tarixning keyingi davrlarida ushbu holat kuzatilmaydi) – bu ijtimoiy, tabiiy va aniq fanlar, ya’ni barcha fanlar baravar (kompleks tarzda) rivojlandi. Ilm, san’at sohalarning taraqqiy etishida temuriy hukmdorlar xizmatini inkor qilib bo‘lmaydi. O‘rta asrchilik sharoitlarida esa fan ishlab chiqaruvchi kuchga aylanmaganligi sababli, ko‘proq, ma’rifatparvar hukmdorlar homiyligi ostida rivojlanishi mumkin edi.

Ana shunday hukmdorlardan biri, – bu buyuk alloma Mirzo Ulug‘bek edi. Ulug‘bek o‘tmishdoshlari Ahmad Farg‘oniy, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy va boshqa mutafakkirlarning munosib davomchisi bo‘ldi.

Ulug‘bek 1417-yilda Buxoroda, 1420-yilda Samarqandda, 1433-yilda G‘ijduvonda madrasalar qurdiradi. Ushbu madrasalarda diniy ilmlar bilan birga riyoziyot (matematik), handasa (geometriya), ilmi hay’at (astronomiya), tibbiyot (meditsina), tarix, geografiya singari dunyoviy fanlar ham o‘qitilgan. Samarqandda Ulug‘bek madrasasi o‘sha davrdagi yirik ilmiy va o‘quv markazlaridan bo‘lib, u

erda Ulug‘bekning o‘zi ham dars bergan. Mirzo Ulug‘bek 1424 – 1429 yillarda Samarqand yaqinida balandligi 31 metrdan iborat, asosiy uskunasi ulkan sekstant bo‘lgan rasadxona qurdiradi. Rasadxonada Ulug‘bek bilan birga o‘sha davrdagi mashhur matematik va astronomlardan “Aflatuni zamon” nomini olgan Qozizoda Rumiy, “o‘z davrining Ptolemeyi” nomi bilan shuhrat qozongan Ali Qushchi va G‘iyosiddin Jamshid Koshoniy ilmiy kuzatishlar olib borishgan.

Mirzo Ulug‘bekning ilmiy asarlaridan “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” (“Ko‘ragoniyning yangi astronomik jadvali”)da 1018 yulduzlarning o‘rni va holati o‘ta aniq holatda berilgan. Shuningdek, Mirzo Ulug‘bek “Tarixi arba’ ulus” (“To‘rt ulus tarixi”) nomli tarixiy asar va musiqa ilmiga bag‘ishlangan beshta risolaning ham muallifidir. Ulug‘bekning astronomiya maktabi o‘z davrining akademiyasi edi.

Temuriylar davrida ijtimoiy fanlar, xususan, tarix fani rivojlanishiga Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” asaridan tashqari Amir Temurning “Tuzuklari”, Bobur Mirzoning “Boburnoma” asari katta ta’sir ko‘rsatgan. Taniqli tarixchilardan Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Yazdiyning “Zafarnoma”, Xofizu Abruning “Zubdat at-tavorix”, Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla ul-sa’dain” va “Majma’ ul-bahrayn” (“Ikki saodatli yulduzning chiqish o‘rni va ikki azim daryoning quyilish joyi”), Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi”, Mirxondning etti jildli “Ravzat ul-safo” (“Poklik bog‘i”), Xondamirning “Makorimul axloq” (“Yaxshi fazilatlar”), “Xabibus siyar fi axboru afodul bashar” (“Xabarlar va bashariyat odamlaridan dilga yaqin siyratlari”) nomli asarlari hozirgacha ham o‘zining ilmiy qimmatini yo‘qotmagan.

Ulug‘bek o‘limidan so‘ng madaniy markaz Samarqanddan Hirotgako‘chadi. Xuroson hukmdori Sulton Husayn Boyqaro (1469 – 1506) va buyuk shoir, mutafakkir, davlat arbobi Alisher Navoiy (1441 – 1501) homiyligida Hirot fan va madaniyat o‘chog‘iga aylanadi. Ma’rifatli hukmdor Sulton Husayn Boyqaroning o‘zi ham “Husayniy” taxallusi bilan g‘azallar yozgan.

Temuriylar davrida xattotlik, tasviriy san’at va musiqa ham rivoj topdi. Mirali Tabriziy nasta’liq uslubini kashf etadi. Mashhur xattot “Kotiblar qiblasi” va

“Xattotlar sultoni” nomi ila ulug‘langan Sultonali Mashhadiy Nizomiy Ganjaviy, Fariddidin Attor, Hofiz, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro asarlarini ko‘chiradi. Shuningdek, kitobot san’ati rivojiga Shayx Muhammad, Junaid Naqqosh, Sultonali Mashhadiy, Abdujamil Kotib, Darvesh Muhammad Toqiy, Mirali Qilqalam va Sulton Muhammad Nur ham katta hissa qo‘shishgan.

Temuriylar davrida tasviriy san’at ham rivojlangan. Xususan, buni Mahmud Muzahhib, Shamsiddin Muhammad ibn Abdulhay, Shayx Turoniy, Abdulla Hiraviy, Ustoz Gung, Ustoz Jahongir asarlari orqali kuzatish mumkin. Ularning minityuralari o‘zining tabiiyligi va originalligi bilan ajralib turadi.

Hirot miniyatURA maktabining asoschisi Kamoliddin Behzod (1455 –1537) ijodi ham Temuriylar davrida tasviriy san’at qanchalik rivojlanligini ko‘rsatadi. “Moniyi Soniy” (“Ikkinch Moniy”) nomini olgan ulug‘ musavvir Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon kabi tarixiy shaxslar rasmlarini ham chizgan. Behzod mo‘yqalamiga oid rangtasvirlar, chunonchi, Yazdiyning “Zafarnoma”, Dehlaviyning “Layli va Majnun” dostoniga bag‘ishlangan manzaralari, Shayx Sa’diyning “Bo‘ston” va “Guliston”, Nizomiyning “Xamsa” asarlariga ishlangan miniyaturlari yohud Hirotdagi “Bog‘i Behisht”, “Ov qilayotgan Bahrom Go‘r”, “Tuyalar jangi” yuksak mahorat namunalaridir.

Badiiy adabiyot. XIV – XV asrlarda ma’naviy madaniyatning muhim tarkibiy qismlaridan bo‘lgan adabiyot ham keng rivojlangan. Bu davrda Qutb Xorazmiy, Haydar Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Durbek, amiri, Yaqiniy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Muhammad Solih va boshqalar yashab ijod qildilar.

XV asr adabiyoti rivojida Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning o‘rnini nihoyatda kattadir. Ulug‘ shoir va mutafakkir Alisher Navoiy o‘ttizdan ortiq badiiy asarlar muallifidir. Besh dostonidan iborat “Xamsa”, “Xazoin ul-maoniy”, “Mahbub ul-qulub”, “Liso ut-tayr” shular jumlasidandir.

Alisher Navoiy buyuk gumanist sifatida o‘z asarlarida inson qadr-qimmatini o‘sha davrdgi tartiblardan himoya qilaldi, feodal er egaligi munosabatlariningadolatsizligini, ayrim ruhoniylar va shayxlarning kirdikorlarini tanqid qildi. Alisher

Navoiy, eng avvalo, har bir kishi o‘z xalqining tarixini bilishi lozimligiga e’tibor qaratib, o‘tmishni chuqurroq o‘rganshga da’vat etadi. Bu bilan u shohlar va hukmdorlarning shajarasiyu, avlod-ajdodlarining tarixini emas, balki mamlakat va xalq tarixini o‘rgansh lozim deb qaraydi. Ulug‘ mutafakkir har bir xalqning tarixi mamlakatni xarob ahvolga solgan nima-yu, uning ravnaq topishiga imkon bergen narsa nima – shuni ko‘rsatib bermog‘i lozim deb hisoblaydi.

Shu bilan birga bu vaqtida fors-tojik adabiyoti ham har jihatdan rivojlandi. Kamol Xo‘jandiy, Xofiz Sheroyi, Abdurahmon Jomiy, Binoiy, Hiloliy va Vosifyi asarlari fors-tojik adabiyotining nodir xazinasiga aylandi. Xususan, Alisher Navoiy bilan zamondosh bo‘lgan Abdurahmon Jomiy (1414 – 1492) ham o‘zidan keyin yuzga yaqin adabiy va ilmiy asarlar qoldirdi. O‘z asarlarida u insonparvarlik g‘oyalarini tarannum etdi, zo‘ravonlik va jabr-zulmni qoraladi, odamlarni mehnatga, yaratuvchanlikka chorlaydi. Oddiy xalqni ezish va uning mehnati evaziga davru davron suruvchi hukmdorlar tabaqasini fosh etadi. Shoir saroydagi fisqu fujur, g‘iybatlardan qochadi va oddiy hayot kechiradi.

Shunday qilib, Amir Temur va Temuriylar davri Vatanimiz xalqlarining yuksalish bosqichi bo‘ldi. Bu davrda Amir Temur va temuriy hukmdorlarning bunyodkorlik faoliyati tufayli Movarounnahr va Xurosonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarida juda katta ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

Savollar va topshiriqlar

- 1.Amir Temur qanday tarixiy davrda siyosat maydoniga kirib keldi?
- 2.Amir Temur davlatining boshqaruvi tizimining o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
- 3.Amir Temurning harbiy sarkardalik mahoratini Anqara yonidagi jang misolida yoriting.
- 4.Mirzo Ulug‘bek hukmronligi yillarinda qanday bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan?
- 5.Temuriylar davlati inqirozining asosiy omillari nimalardan iborat edi?
- 6.Sulton Husayn Boyqaro davrida iqtisodiy va madaniy yuksalishning asosiy sabablarini nimada ko‘rasiz. Tahlil qiling.

- 7.Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat ravnaqining asosiy omillari?
- 8.Qanday omilllar asosida temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat ravnaqi sodir bo‘lgan.
- 9.Temuriylar davrida fan va ma’naviy madaniyat ravnaqi?
- 10.Alisher Navoiyning gumanizmi va uning o‘zbek ma’naviy madaniyati rivojidagi tarixiy roli.

9 – §. Movarounnahr Shayboniylar va Ashtarkoniylar sulolasи hukmronligi yilarida

Shayboniylar davlatining vujudga kelishi va uning inqirozi. O‘zbek davlatchiligining tarixi murakkab va turli ziddiyatlarga boy bo‘lib, uning rivojida nafaqat zafarli, balki inqirozli davrlar ham mavjuddir. XV asr oxirlarida Movarounnahrda temuriylar davlatining inqirozi yakuniy bosqichga kiradi: mamlakat bir necha mustaqil viloyatlarga bo‘linib ketgan, temuriy shahzodalar esa oliy hokimiyatga ega bo‘lishga intilardi. Quroli nizolar kuchaygan, urush xarajatlari mehnakash xalq ustiga yuk bo‘lib tushayotgan sharoitlarda tashqi kuchlarning mamlakatni bosib olishga intilishi qonuniyatli jarayon edi. Shunday sharoitlarda Movarounnahrga Dashti Qipchoqdan ko‘chmanchi o‘zbeklar davlati hukmdori Muhammad Shayboniyxonning hujumi boshlandi.

Dnepr va Qora dengizning shimoliy qirg‘oqlaridan janubda Xorazm, Sirdaryo quyi oqimidan va Balxash ko‘ligacha bo‘lgan yerlar XI asrdan Dashti Qipchoq deb nomlangan. XIV asr boshlarida Botuxon asos solgan Oltin O‘rda ikkiga ajraladi, uning sharqiy qismida “O‘zbakiya”, “O‘zbeklar mamlakati” deb nomlangan Oq O‘rda tashkil topadi. Shu erda 1428-yilda Jo‘jining o‘g‘li Shaybon avlodidan Abulkayrxon (1412 – 1468) mustaqil davlatga asos soladi. Movarounnahrda temuriy shahzodalar o‘rtasidagi nifoqdan foydalangan Abulkayrxon Xorazmnning bir qismi, Sirdaryo bo‘yidagi bir qancha shaharlarini

bosib oladi. 1468-yilda Abulxayrxon vafot etgach, uning davlati ham tarqalib ketadi.

XV asrning 80-yillarida Abulxayrxonning nabirasi, Budoq Sultonning o‘g‘li Muhammad Shayboniyxon (1451 – 1510) bobosining davlatini qayta tiklaydi va shayboniylar sulolasiga asos soladi. Muhammad Shayboniyxon Samarqand va Buxoro madrasalarida o‘qigan, o‘z davrining ma’rifatli kishisi, iqtidorli shoir edi. Shayboniyxon Movarounnahrga yurish qilib, shaharlarni birin ketin egallay boshlaydi. 1494-yilda Samarqand hukmdori Sulton Ali Mirzo vafotidan keyin temuriylar o‘rtasidagi yana qonli nizolar kuchayadi. Shunday sharoitlarda Shayboniyxon 1497- va 1499-yillarda Samarqandni qamal qiladi.

Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahrdagi asosiy raqibi Farg‘ona viloyatining hukmdori Zahiriddin Muhammad Bobur edi. U 1495-yilda 12 yoshda taxtga chiqadi. Boburning yozishicha, mazkur davrda Movarounnahr o‘zaro urushlar natijasida xalqning hukmdorlarga ishonchi ham qolmagan edi. 1500-yilda Bobur Mirzo Samarqandni egallaydi, ammo unda o‘z qo‘lida saqlab qololmaydi

Muhammad Shayboniyxon 1500 – 1501 yillarda Samarqand va Buxoroni, 1504–yilda Hisorni, 1504 – 1505 yillarda Urganchni, 1506 – 1507 yillarda Hirot, Marv, Astrobod, Nishopurni bosib oladi, Toshkent, Farg‘ona, Qandahor va Zamindovur viloyatlarini egallaydi. Shu bilan Movarounnahr va Xurosonda yagona davlat vujudga keladi. Muhammad Shayboniyxon dunyoviy va diniy hokimiyatni o‘zida mujassamlashtirgan “Imom uz – zamon, xalifat ur – rahmon” unvonini qabul qiladi. Shu bilan birga Movarounnahr aholisi Muhammad Shayboniyxon bilan kirib kelgan o‘zbek qabilalardan farqlanmagan, Chunki ular ham turkiylardan edi.

1510–yilda Marv yaqinidagi jangda Shayboniyxon Eron shohi Ismoil Safaviydan engiladi va halok bo‘ladi. Shoh Ismoil Xurosonni o‘z davlatiga qo‘sib olib va ko‘chmanchi o‘zbeklarga qarshi kurashayotgan Bobur Mirzoga yordam berishga kirishadi. 1512–yilda Bobur Samarqandni egallaydi, biroq 1513–yilda Bobur shayboniylardan mag‘lubiyatga uchraydi va Kobulga qaytadi. Bobur keyinchalik Afg‘oniston va Shimoliy Hindistonda Boburiylar imperiyasi (1526 –

1858)ga (Yevropa olimlarining xato talqinlari bo‘yicha “Buyuk Mo‘g‘ullar imperiyasi”ga) asos soladi.

Muhammad Shayboniy o‘limidan so‘ng shayboniylar udumiga ko‘ra taxtga yoshi katta bo‘lgan Shayboniyxonning amakisi Ko‘chkinchixon (1510-1530) keladi. Ammo uning davrida shayboniy sultonlar o‘rtasida nizolar kuchayadi. Shunday sharoitlarda Eron shohi Ismoil I Safaviy Xuroson, Xorazm va Shimoliy Afg‘oniston hududlarini ishg‘ol qiladi.

Ko‘chkinchixondan so‘ng hokimiyatga uning o‘g‘li Abu Said (1530 – 1533), keyin Shayboniyxonning ukasi Mahmud Sultonning o‘g‘li Ubaydullo sulton (1533 – 1540) keladi. Ubaydullaxon darida poytaxt Buxoroga ko‘chiriladi va davlat Buxoro xonligi deb ataladigan bo‘ldi. Ubaydullaxon vafotidan keyin yana taxt uchun urushlar boshlanib ketadi. Unda shayboniylar sulolasining yorqin vakili Abdullaxon (1534 – 1598) g‘olib chiqadi. U 1561-yilda taqvodorlikka berilgan otasi Iskandarni xon deb e’lon qiladi, lekin hokimiyat amalda Abdullaxon ixtiyorida edi. Faqat 1583-yilda Iskandarxon vafot etgandan keyin Abdullaxon II rasman taxtga egalik qiladi.

Abdullaxon II markazlashgan kuchli davlatni barpo etish maqsadida itoatsiz amirlar va sultonlarga qarshi ayovsiz kurash olib boradi. Mamlakatni birlashtirish yo‘lida olib borilgan uzoq kurashi natijasida Farg‘ona, Shahrisabz, Qarshi, Hisor, Samarqand, Toshkent, Shohruhiya, Sayram, Ohangaron, Balx, Badaxshon, Hirot, Xorazm hududlari o‘rnida yirik davlat vujudga keladi. Abdullaxon davlati janubda Hirotdan Mashhadgacha, shimolda Kaspiy va Orol dengizidan Issiqko‘lgacha bo‘lgan hududlarni qamrab olgan. Abdullaxon II davrida o‘zbek davlatchiligi yana bir marta yuksak darajaga ko‘tarildi.

1598-yilda Abdullaxon II vafot etadi va taxtga uning o‘g‘li Abdulmo‘min keladi, ammo u olti oydan so‘ng saroy fitnasining qurboni bo‘ladi. Bir guruh amirlar Abdullaxon II ning amakivachchasi Pirmuhammadni taxtga o‘tqazadilar. Ammo Pirmuhammad 1601-yilda Samarqand hokimi Boqi Muhammad bilan

bo‘lgan jangda halok bo‘ladi va bu bilan Shayboniyalar hukmronligi ham tugaydi. Shunday vaziyatda Xorazm o‘z mustaqilligini qayta tiklaydi.

Shayboniyalar davlatining qisqa yashashiga suyurg‘ol tizimi ham sababchi edi. Mamlakat hududlari suyurg‘ol sifatida shayboniy shahzodalar va qabila boshliqlariga berilishi, o‘z navbatida, ularning markaziy hokimiyatdan mustaqillikka intilishlariga olib kelardi. Suyurg‘ol egalari davlatga soliqlar to‘lamagan, o‘z hududlaridan keladigan daromadlardan o‘zlarining ixtiyoricha foydalanishgan. Davlatga asosiy soliq to‘lovchi oddiy xalq – fuqaro (raiyat) bo‘lib, tarixiy manbalarga ko‘ra boj, o‘lpon, soliq, jarima va majburiy to‘lovlarning 40 dan ortiq turi mavjud bo‘lgan. Aholi er va suvdan foydalanganlik uchun maxsus soliqlar, amaldorlar foydasiga to‘lovlар, feodal mulklarni saqlash uchun o‘lponlar, shahar devorlari, machitlar, madrasalar qurilishlari, sug‘orish inshootlari barpo etish, yo‘llar va ko‘priklar qurilishlari uchun turli to‘lovlarni to‘laganlar, majburiy ishlab bergenlar.

Ashtarxoniylar sulolasasi davrida davlatchilik. Shayboniyalar sulolasidan keyin hokimiyatga shayboniyxonlarga qarindosh bo‘lgan ashtarxoniylar keladi. Ashtarxoniylar chingiziylar sulolasasi, Jo‘ji avlodidan bo‘lib, Astraxan (Hoji Tarxon) da hukmronlik qilgan. 1556–yilda Astraxanni rus podshosi Ivan Grozniy qo‘sishinlari bosib olgach, manba tili bilan aytganda, “urus (nomila) mashhur nasroniyalar bosqini dastidan (qochib) Yor Muhammadxon farzandlari Jonimuhammad Sulton, Abbas Sulton, Tursun Muhammad Sulton, Pirmuhammad Sulton va ahli ayoli bilan Movarounnahrga keldi”.

O‘sha vaqtda rasman Buxoro xoni bo‘lgan, Abdullaxon II ning otasi Iskandar Sulton Yormuhammad va uning o‘g‘illari misolida taxt uchun bo‘lg‘usi raqobatchilarni ko‘rmaydi, ularga yaxshi munosabatda bo‘ladi. Iskandarxon Yormuhammadning o‘g‘li Jonimuhammad (Jonibek Sulton)ga qizini beradi va shu tariqa Yormuhammad oilasi Shayboniyalar saltanatida katta nufuzga ega bo‘ladilar.

Oxirgi shayboniyalar davrida boshlangan siyosiy anarxiya va o‘zaro urushlar sharoitida bir guruh zodagonlar 1601–yilda Jonibek Sultonni Buxoro taxtiga taklif etishadi. Jonibek Sulton esa o‘g‘li Dinmuhammad foydasiga taxtdan voz kechadi.

Ammo Dinmuhammad harbiy to‘qnashuvlarning birida halok bo‘ladi va xonlik taxtiga Jonibek Sultonning ikkinchi o‘g‘li Samarqand hokimi Boqimuhammad (1601 – 1605) keladi. Shu tariqa Mavorunnahrda Ashtarxoniyalar (Astraxan yoki Hoji Tarxonlik hukmdorlar) yoki Joniylar (Jonibek sulton nomidan) sulolasining hukmronligi boshlandi.

Boqi Muhammadxon siyosiy tarqoqlik va o‘zaro urushlarga barham berishga harakat qildi. U 1602–yilda Eron safaviylaridan Balxni qaytarib oladi, Andxud, Shibirg‘on, Maymana, Bag‘lon, Badaxshon va Hisorni bo‘ysundiradi. 1605–yilda Boqi Muhammadxon vafot etgach, taxtga uning ukasi Valimuhammad (1605 – 1611) keladi.

Vali Muhammadxon o‘z hukmronligini mustahkamlash maqsadida ma’muriy, harbiy islohotlar o‘tkazadi, mamlakat yaxlitligini saqlash yo‘lida shafqatsiz qonunlar joriy etadi. U Eron shohlariga qarshi Balx va Hirot uchun muvaffaqiyatli urushlar olib boradi. 1608-yilda bir guruhi amirlar Vali Muhammadga qarshi fitna uyushtiradi va u Eronga qochadi. Fitnachilar taxtga Boqi Muhammadning o‘g‘li Imomqulixonni (1611 – 1642) o‘tqazadilar. Vali Muhammad esa Eron shohi Abbos I yordamida taxtni qaytarib olishga harakat qiladi. 1611-yil oktyabrda Imomqulixon va Vali Muhammad qo‘shinlari o‘rtasida har qiluvchi jang bo‘lib o‘tadi, unda Vali Muhammad engiladi va qatl etiladi. O‘zaro urushlar natijasida mamlakatda ahvol shu darajaga etadikmi, o‘sha davr muarrixining yozishicha, “butun mamlakat er bilan yakson etilib”, aholi duch kelgan tomonga qochib ketadi.

Imomqulixon o‘zboshimcha mahalliy hokimlarga qarshi qattiq kurash olib boradi. Chunki ichki separatizm tufayli aholining turmushi og‘irlashayotgan, demakki, davlat xazinasiga soliq tushumlari ham kamayayotgan edi. Imomqulixon hokimlarning o‘zboshimchaligiga qarshi keskin choralar ko‘radi. Uning Xorazm va Xurosonga yurishlari muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Toshkent, Andijon va Turkiston shaharlariga xavf solib turgan qozoqlar va qalmiqlarga qarshi kurashadi. Imomqulixon mahalliy beklarni bo‘ysundirish, Eronga qarshi kurashda qozoq sultonlaridan foydalanadi. 1613–yilda Imomqulixon Toshkentni egallaydi va

unga hokim etib Iskandar Sultonni tayinlaydi. Ammo aholi Iskandar Sulton siyosatidan norozi bo‘lib qo‘zg‘olon ko‘taradi va u o‘ldiriladi. Imomqulixon katta qo‘shin bilan kelib qo‘zg‘oltonni shafqatsiz bostiradi, o‘g‘lining xuni uchun qirg‘inbarot o‘tkazadi.

Amalga oshirilgan keskin choralar va qattiqqo‘l siyosat tufayli Imomqulixon davrida markaziy hokimiyat kuchayadi, mamlakatdagi ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy vaziyat yaxshilandi. Muhammad Yusuf (ibn Xoji Baqo) o‘zining “Tarixi Muqumxoniy” asarida ta’kidlanishicha, “Imomqulixon nochorlar ishini engillashtirdi, arz bilan kelganlarni qaytarmadi. Uning zamonida na kambag‘al, na bechora qolmagandi. Chiqargan buyruqlari ijrosi borasida amaldorlariga qattik turdi, qorong‘i tushishi bilan oddiy kiyim kiyib vaziri va qo‘rchi bilan bozorlaru mahallalarni aylanib, oddiy xalkning haqiqiy ahvoldidan xabardor bo‘lib turardi”.

Imomqulixondan so‘ng taxtga uning ukasi Nodir Muhammad (1642 –1645) keladi. U viloyatlarni o‘zining o‘g‘illari, nabirasi va jiyanlariga taqsimlab beradi. Bu esa, tabiiyki, davlat asoslarini zaiflashtirgan, ichki separatizmni kuchaytirgan. 1645-yilda qozoq sultonlari mamlakatga bostirib kirishadi. Nodir Muhammadxon ularga qarshi o‘g‘li Abdulaziz boshchiligidagi qo‘shin jo‘natadi. Ammo amirlar Abdulazizni xon deb e’lon qilishadi. Nodir Muhammadxon mamlakatdan qochadi va Eron shohi Abbas yordamida hokimiyatni qaytarib olishga harakat qiladi, ammo muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Shundan so‘ng Nodir Muhammad esa Makkaga haj safariga ketadi va yo‘lda vafot etadi.

Abdulazizzon davrida ham mamlakatda tinchlik, barqarorlik qaror topmaydi. Xiva xonlari Abulg‘ozixon (1643 – 1663) 1655–yilda Qorako‘l, Buxoro atroflarini, 1662 – 1663 yillarda esa Anushaxon (1663 – 1687) Buxoroga yurish qilib, ko‘p yerkarni g‘orat qilishadi. Balxda hukmronlik qilayotgan Abdulazizzonning ukasi Subxonqli Sulton markaziy hokimiyatga itoat qilmay qo‘yadi. Abdulazizzon Balxni bo‘ysundirishga bir necha marta uringan bo‘lsada, ammo Subhonqli Sultonni mag‘lub eta olmaydi. Shundan so‘ng 1681–yilda Abdulazizzon Subhonqulixon foydasiga taxtdan voz kechadi.

Subhonqulixon (1680 – 1702) davrida ham mamlakatda tinchlik va osoyishtalik qaror topmaydi. Buxoro va Xiva o‘rtasida urushlar kuchayadi, natijada sug‘orish tizimi vayron bo‘ladi, dehkonchilikka putur etadi, xalqning ahvoli yomonlashadi, davlat xazinasiga soliq tushumlari ham kayib ketadi. Subxonqulixon qo‘shimcha soliqlarni joriy etib, bir necha yillik soliqlarni oldindan yig‘ib olish bilan xazinani to‘dirmoqchi bo‘ladi. Bu esa xalq orasida keskin noroziliklarga olib keladi. Shunday sharoitlarda Subhonqulixonga uning o‘g‘illari isyon ko‘tarishadi. Ba’zi amirlar va beklar ham markaziy hokimiyatga bo‘ysunmay qo‘yishadi. Xullas, tinimsiz o‘zaro urushlar, siyosiy boshboshdoqlik (anarxiya) avj olgan vaziyatda Subhonqulixon vafot etadi va taxt uning o‘g‘li Ubaydullaxonga o‘tadi.

Ubaydullaxon (1702 – 1711) markaziy hokimiyatini mustahkamlash va siyosiy tarqoqlikka chek qo‘yish siyosatini yurgizishga harakat qiladi. Ubaydullaxon xalq ommasi manfaatlarini ham himoya qilishga intiladi. Manbalarda yozilishicha, Ubaydullaxon Balx yurishida dehqonlarning ekinlarini payhon qilmaslik haqida buyruq beradi. Ubaydullaxon siyosiy tarqoqlikning oldini olish maqsadida yirik zodagonlar, amirlar va qabila boshliqlarining harbiy – siyosiy mavqeini pasaytirishga intilib, davlat boshqaruvi tizimiga hunarmandlar va savdogarlar tabaqasi vakillarini jalb qiladi. Bunday o‘zgarishlar markazlashgan hokimiyatdan manfaatdor amaldorlar tabaqasi (ratsional byurokratiya)ni shakllantirishga qaratilgan edi. Shuningdek, Ubaydullaxon juda katta mol-mulkka ega Jo‘ybor shayxlarini ham soliqqa tortadi. Ammo Ashtarxoniyalar sulolasining yorqin vakili Ubaydullaxon har qancha harakat qilmasin davlatning tanazzulini to‘xtata olmaydi.

Binobarin, davlat asoslarini kuchaytirishga Ubaydullaxon siyosati bo‘lginchilikka (separatizmga) moyil yirik mulkdorlar manfaatlariga to‘g‘ri kelmasdi. Shu sababli yirik zodagonlar, harbiy feodallar Ubadullaxonga qarshi fitna uyushtirishib, uni o‘ldirishadi. Fitna ishtirokchisi bo‘lgan Ubaydullaxonning ukasi Abulfayz (1711 – 1747) taxtni egallaydi va akasining qotillariga katta mol-mulklar beradi.

Abulfayzxon irodasi zaif, aksariyat kaltabin hukmdor bo‘lib aysh-ishratga moyil edi. Uning davrida siyosiy tarqoqlik nihoyatda kuchayadi, viloyat hokimlari markaziy hokimiyatga bo‘ysunmay qo‘yishadi.

Mamlakatda yirik harbiy feodallar, amirlar o‘rtasidagi siyosiy tarqoqlik avj olgan bunday sharoitlarda mang‘it urug‘idan bo‘lgan Muhammad Hakimbiy otaliq va Shahrisabz hokimi Ibrohimbiy kenagas o‘rtasida keskin kurash kelib chiqadi. 1722-yilda Ibrohimbiy kelib chiqishi Xiva xonlaridan bo‘lgan Rajab Sultonni Samarqand hokimi, o‘zini esa “amirlar amiri” deb e’lon qildi. Rajab Sulton boshchiligida Ibrohimbiy Buxoroga yurish qiladi va unga Muhammad Hakimbiy qarshi chiqadi. Ikki o‘rtadagi jangda Muhammad Hakimbiy mag‘lubiyatga uchraydi. Ammo Rajab Sulton Buxoroni egallay olmaydi va qozoq sultonlaridan yordam so‘raydi. 1723 – 1729 yillarda qozoq sultonlari Zarafshon va Qashqadaryo vohalarini talon-taroj etishadi, aholiga jabr-zulm o‘tqazishadi.

XVIII asrning 30-yillari o‘rtalarida Eronda hokimiyatga Nodirshoh (1736 – 1747) keladi. Nodirshoh Eron va Afg‘onistonda mustahkamlanib olgach, Buxoro xonligini istilo qilishga harakat qiladi. 1736-yilda Nodirshohning o‘g‘li Rizoqulixon qo‘smini Amudaryodan kechib o‘tadi va Muhammad Hakimbiy boshchiligidagi Abulfayzxon qo‘sminini tor-mor keltiradi. Buxoro xoniga yordam berish uchun Xivadan Elbarsxon katta qo‘sish bilan yo‘lga chiqadi. Shundan so‘ng Rizoqulixon Eronga qaytib ketadi.

1740-yilda Nodirshoh katta qo‘sish bilan Buxoroga yurish boshlaydi. Abulfayzxon engiladi va Eron shohining vassaliga aylanadi. Nodirshoh o‘zining ishongan odami Muhammad Hakimbiyni Buxoroning to‘la vakolatli hokimi etib tayinlanadi. Ya’ni, rasmiy xon Abulfayzxon amalda hokimiyatdan chetlatiladi. 1743-yilda Muhammad Hakimbiy vafot etadi va uning o‘g‘li Muhammad Rahim otasining o‘rniga Nodirshoh tomonidan tayinlanadi. Ammo bu orada Nodirshohning o‘zi ham fitna qurboni bo‘ladi va bundan foydalangan Muhammad Rahim Buxoroda hokimiyatni egallahga kirishadi. U 1747-yilda Abulfayzonni qatl ettiradi va uning o‘g‘li Abdulmo‘min (1747 – 1751)ni xon deb e’lon qildiradi. Keyin u ham o‘ldiriladi. Ubaydullaxon II (1751 – 1754) va Sherg‘ozixon (1754 –

1756) ham qisqa vaqt “qo‘g‘irchoq xon” vazifasi bajarishadi, ularning hayoti ham fojiali tugaydi. Shu tariqa Buxoroda 150 yil hukmronlik qilgan ashtarxoniyalar sulolasi yakun topadi.

Shayboniylar davridagi siyosiy-ma’muriy boshqaruv. Shayboniylar davlati cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lgan xon tomonidan boshqarilgan. Temuriylardan farqli ravishda shayboniylarda taxt otadan bolaga emas, balki suloladagi yoshi ulug‘ odamga o‘tgan. Ammo taxtga egalik qilishning bunday tartibi faqat dastlabki shayboniylar davrida amalda bo‘lgan. XVI asrning 40–yillaridan hokimiyat otadan farzandga merosiy o‘tish an’anasi qaror topa boshlagan.

Shayboniylar davrida viloyatlar hokimlarining harbiy, iqtisodiy jihatdan kuchaygandan so‘ng markaziy hokimiyatga bo‘ysunmasligi odatiy hol edi. Markaziy hokimiyat kuchaygan, markazlashtirish siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirgan hukmdorlar davrida mahalliy hokimlarning separatizmi kuch, zo‘rlik bilan bostirilgan. Va aksincha, markaziy hokimiyat zaiflashganda esa mahalliy hokimlar yana mustaqillikka intilishi tabiiy edi. Chunki feodal munosabatlar sharoitlarda mamalakat hududlari iqtisodiy jihatdan zaif bog‘langan, yagona ichki bozor shakllanmagan, tovar-pul munosabatlari rivojlanmagan bo‘ladi.

Shayboniylar davlatida oliy davlat idorasi dargoh bo‘lib, unga xon boshchilik qilgan. Bosh vazir devon ishlarini olib borgan. Davlatning oliy darajadagi mansablari vaziri a’zam, otaliq, naqib, ko‘kaldosh, xon yasovuli va boshqalardan iborat edi. Ijtimoiy hayot shariat qonunlari asosida tartibga solinganligi sababli shayxulislom oliy diniy lavozim bo‘lgan. Shayxulislom islom qonunlarining bajarilishini nazorat qilgan.

Shayboniylar davlatida harbiy amaldorlar, qo‘shin boshliqlarining ham siyosiy nufuzi nihoyatda katta bo‘lgan. Zero shayboniylar davlati o‘rta asrlarga xos tipik harbiy feodal davlati bo‘lganligidan oliy davlat mansablariga, eng avvalo, harb ishlarida o‘zlarini ko‘rsatgan kishilar tayinlangan, shu bilan birga urush vaqtlarida ma’muriy-siyosiy boshqaruv soha vakillari ham harbiy faoliyatga tortilgan edi. Ya’ni, harbiy feodal davlatlarda ma’muriy-siyosiy boshqaruv va

harbiy boshqaruv o‘rtasida keskin farqlar bo‘lmay, ular yagona bir tizim sifatida faoliyat ko‘rsatishgan.

Shayboniylar davlatida din peshvolari, shayxlar va xojalarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotdagi mavqeい yuqori bo‘lgan. Ayniqsa, Buxoro yaqinidagi Jo‘ybor qishlog‘idan chiqqan xojalarning nufuzi yuqori edi. Juda katta mol-mulk va bir necha ming muridlarga ega shayxlar nafaqat yirik zodagonlar yoki amaldorlarga, balki hukmdorlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

Shayboniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. Shayboniylar davrida iqtisodiy hayotda bir qancha o‘zgarishlar bo‘lib o‘tadi. Temuriylar davridagi er-mulklar shayboniylar va ko‘chmanchi zodagonlar ixtiyoriga o‘tadi. Mahalliy mulkdorlar mol-mulki mucodara etildi, egaciz qolgan yerlar o‘zlashtirildi, er-cuv qaytadan taqcimlandi. Bu davrda erga egalik munosabatlari suyurg‘ol tizimiga asoslangan. Ya’ni, zabit etilgan hududlar xon xonadoni vakillariga, harbiy amaldorlarga, qabila boshliqlariga bo‘lib berildi. Lekin suyurg‘ol mulklari markaziy hokimiyatdan muctaqil bo‘lishga intilar edi.

Shayboniylar davrida ijtimoiy va madaniy hayot temuriylar davridagidek rivojlanish bosqichiga chiqmasa ham, ammo ijtimoiy hayot rivojlanishdan to‘xab qolmadı. 1507 – va 1515–yillarda iqtisodni, ichki savdoni jonlantirish maqsadida pul islohotlari o‘tkaziladi. Abdullaxon II davrida o‘tkazilgan pul islohotlari xonlik iqtisodiy hayotining rivojiga, xususan, markaziy hokimiyat xazinasi mablag‘larining oshishi va savdoning jonlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Bu davrda suv inshootlari qurilishiga, irrigatsiya tizimini yaxshilashga katta e’tibor berildi: 1502–yilda Zarafshon daryosida suv ayirg‘ich, 1556 – 1585-yillarda Qashqadaryo, Zarafshon, Amudaryo, Murg‘ob va Vaxsh daryolaridan chiqarilgan bir qancha kanallar qazildi, yangi yerlar o‘zlashtirildi, suv ayirg‘ichlar va suv omborlari qurildi. Ayniqsa Abdullaxon II davrida 1000 dan ortiq rabot, cardoba, madracalar, macjid, ko‘prik va cuv omborlari, Buxoroda katta cavdo markazi – “Abdullaxon timi” qurilgan.

Shayboniylar davrida mulkiy munosabatlarda unchalik katta o‘zgarishlar ro‘y bermadi. Dashti Qipchoqdan kelgan o‘zbek qabilalari Mavarounnahrga kelib joylashib, temuriylar davridan qolgan iqtisodiy tizim, anchayin rivojlangan feodal munosabatlarni o‘zlashtirdilar. Bu davrda er eng asosiy boylik bo‘lib, unga egalik qilishning mulki sultoniy (davlat yerlari), mulki xolis (xususiy yerlar), vaqf (diniy muassasalarga qarashli yerlar) va qishloq jamoalari egalik qiladigan shakllari mavjud bo‘lgan. Davlat oldidagi xizmatlari uchun harbiy, ma’muriy amaldorlarga va din peshvolariga iqto, suyurg‘ol, tanho, jog‘ir, vaqf ko‘rinishida yerlar berilgan bo‘lib, ularda yersiz dehqonlar ishlaganlar. Dehqonlar asosiy soliq to‘lovchilar bo‘lib, ular juda ko‘p soliqlar va jarimalarni to‘lagan. Shuningdek, xiroj va zakotdan tashqari, tagjoy, jizya, ixrojat, tog‘ar, ulufa, qo‘nalg‘a, begar, madadi lashkar, boj, tuhfa, yasoq kabi soliqlarni ham to‘lagan, qo‘shimcha majburiyatlarni ham bajargan. Diniy muassasalar, nufuzli ruhoniylar soliqlar va majburiyatlardan ozod etilgan. Bu davrda qullar mehnatidan ham foydalanilgan. Savdo ishlari Hindiston, Eron, Usmoniylar davlati va Rossiya bilan olib borilgan.

Shayboniylar davlati ma’muriy jihatdan viloyatlarga bo‘lingan bo‘lib, davlat boshqaruvi markaziy va mahalliy amaldorlar (hokimlar, beklar) olib borishgan. Siyosiy boshqaruv (ierarxiyada) da xondan keyin ko‘kaldosh, otaliq, naqib, parvonachi, vaziri a’zam turishgan, shayx ulislom, qozi kalon, a’lam, imom, sadr, muftiy diniy sohani boshqarganlar, no‘yon, tug‘begi, tovochi, jevachi, qutvol, dorug‘a, to‘chiboshilar esa, harbiy boshqaruvni amalga oshirganlar.

Shayboniylar hukmronligi yillarida madaniy hayot temuriylar davridagidek darajada rivojlangan bo‘lmasada, ammo ilm-fan, madaniyat rivojlanishdan to‘xtab qolgani yo‘q. Hatto, muayyan darajada, temuriylar davriga xos ilmiy va madaniy an'analar ham davom etgan. Muhammad Shayboniyxon, Ko‘chkinchixon, Ubaydullaxon va Abdullaxon II ilm-fan va ma’rifat homiylari bo‘lib, ular o‘z davrining o‘qimishli kishilari edi. Masalan, Shayboniyxon she’riyat, tarix va xattotlikka qiziqqan. Ubaydullaxon ham “Ubaydiy” taxallucida ijod qilgan. Shayboniylar saroylarida boy kutubxonalar ham mavjud bo‘lgan.

Shayboniylar davrida ilm-fanning turli sohalari, xususan, riyoziyot (matematika), handasa (geometriya), tibbiyat, farmokologiya (dorishunoslik), ilmi nujum (astronomiya), tibbiyat, tarixnavislikka oid asarlar yaratilgan, adabiyot, xattotlik, musiqa rivoj topgan. Shu bilan birga diniy ilmlar, ilohiyot (teologiya), fiqh ham taraqqiy etgan.

Ashtarxoniyalar davrida siyosiy boshqaruvi va ma'muriy tizim. Ashtarxoniyalar davlati mutlaq monarxiya tipidagi davlat bo'lib xon rasman cheklanmagan huquqlar va vakolatlarga ega bo'lgan, hokimiyat merosiy tarzda otadan bolaga o'tgan. Bu davrda shayboniylar davlatiga nisbatan siyosiy boshqaruvi, davlat boshqaruvi tizimida sifatiy o'zgarishlar deyarli sodir bo'limgan (hokimiyat transformatsiyaga uchramagan). Shayboniylar davridagi singari, ashtarxoniyalar davlatida ham o'troq xalqlar xos davlatchiligi an'analari bilan birga ko'chmanchilar davlatchiligiga xos bo'lgan ayrim boshqaruvi tamoyillari ham saqlanib qolgan. Ashtarxoniyalar davlati shayboniylar davlatidan deyarlik farq qilmagan, markaziy va mahalliy boshqaruvda shayboniylar davridagi barcha lavozimlar caqlanib qolangan. Ya'ni, ashtarxoniyalar shayboniylar davlatining vorisiy davomchilari edi.

Davlat boshqaruvi markaziy va mahalliy boshqaruvdan iborat bo'lib, oliv davlat idorasi – dargohni xon boshqargan. Xon davlat hokimiyatining boshlig'i sifatida ichki va tashqi siyosatni belgilasada, ammo ashtarxoniy hukmdorlarning ko'pchiligi yirik amaldorlar, qabila boshliqlari, nufuzli ruhoniylar qo'lidagi "qo'g'irchoq xon"lardan edi. Garchi Nodirmuhammad, Subhonqulixon va Ubaydullaxon markaziy hokimiyatni mustahkamlashga, mahalliy separatizmga qarshi kurashgan bo'lsada, ammo ular muvaffaqiyat qozonishi qiyin edi. Chunki, buning uchun, eng avvalo, markazlashgan davlatdan real manfaatdor mulkdor ijtimoiy qatlamning etarlicha shakllanmaganligi, iqtisodiy omilning zaifligi bois markazlashgan davlatni shakllantirishga qaratilgan siyosat samarasiz yakunlangan.

Buxoro xonligi ma'muriy-hududiy jihatdan viloyatlarga, viloyatlar esa tumanlarga bo'lingan. O'zlarining maxsus boshqaruv apparati va qo'shinlariga ega bo'lgan mahalliy hokimlarning asosiy vazifasi – aholidan soliqlarni yig'ish,

ularning bir qismini xon xazinasiga yuborish va xon buyurgan vaqtda harbiy yurishlarda o‘z qo‘smini hamda oziq-ovqat zahirasi bilan qatnashishdan iborat bo‘lgan. Shuninng uchun ham viloyat hokimlarini xon tayinlasa ham, lekin ko‘p viloyatlar amalda mustaqil bo‘lib, ular xon hokimiyatiga faqat rasman bo‘ysunganlar. Mamlakat viloyatlari o‘rtasida iqtisodiy aloqalarning zaif bo‘lishi ham mahalliy hokimlarning ajralib chiqishga intilishi va o‘zaro urushlarni keltirib chiqargan.

Ashtarxoniyarda ham otaliq, naqib, dodxoh, qushbegi, parvonachi, devonbegi, miroxo‘r, yasovul, qurchi, shayxulislom, harbiy qozi, qozi kalon, a’lam, rais, bosh muftiy, harbiy muftiy, eshikog‘oboshi, mirzaboshi, munshiy, saroy kutubxonasi boshlig‘i, dasturxonchi kabi lavozimlar mavjud bo‘lgan. Shu bilan birga ular ma’lum bir o‘zgarishlarga uchragan. Masalan, ashtarxoniyalar zamonida otaliqning markaziy hokimiyatdagi nufuzi kuchaygan. “Ubaydullanoma” asarida otaliq “umdat al – umaro”, ya’ni “butun amirlar tabaqasining tayanchi” deb ta’riflanadi. Abulfayzxon davrida otaliq lavozimida bo‘lgan Muhammad Hakimbiy va uning o‘g‘li Muhammad Rahimbiy juda katta mavqega ega bo‘lib, bunday holat, oxir-oqibatda, xon hokimiyatning emirilishiga olib kelgan.

Ashtarxoniyalar saroyida ma’muriy yoki xo‘jalik-iqtisodiy sohalar amaldorlarining vakolatlari keng bo‘lib, muayyan vaziyatlarda, ular o‘zlarining asosiy mansab vazifalaridan tashqaridagi siyosiy boshqaruv, diplomatik va harbiy yo‘nalishlarga ham jalb etilgan.

Ashtarxoniyalar davlati boshqaruvining muhim jihatni shundaki, bu davrda ijtimoiy hayotda diniy mafkuraning hukmronligi sababli davlat boshqaruv apparatida shayxulislom, sadr, qozi kalonning mavqeい yuqori bo‘lgan. Ayni vaqtda davlat faoliyatiga din peshvolari, darvish guruhlari va ularning rahnamolari ham katta ta’sir ko‘rsatib turishgan.

Barcha islomiy davlatlardan bo‘lganidek, Buxoroda ham, shayxulislom mansabi diniy, diniy-mafkuraviy jihatdan juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Oliy diniy mansablarga Jo‘ybor shayxlaridan tayinlangan. Har bir viloyatning o‘z qozisi

bo‘lib, ularning faoliyatini qozi–kalon boshqarib turgan. Qoziyi-askar esa, qo‘shinda qozilik ishlarini bajargan.

Ashtarxoniyalar davrida Buxoro xonligi hududiy jihatdan ancha yo‘qotishlarga uchradi. Garchand, Imomqulixon Farg‘ona, Hisor, Turkiston va Balxni xonlikka qaytadan qaytaragan bo‘lsada, ammo Abulfayzxon davrida Qo‘qon va Xiva mustaqil davlatlarga aylandi.

Ashtarxoniyalar davrida er-mulk munosabatlari. Ashtarxoniyalar davrida erga egalik qilish munosabatlarida mulki cultoniy, xucuciy mulk, vaqf mulki, mulki xurri xolis shakllari hukmron edi. Mulki cultoniy – bu davlat yerlari bo‘lib, undan keladigan daromad xon xazinaciga tushgan. Davlat yerlaridan dehqonlar foydalanishgan va buning uchun maxsus soliqlarni to‘lashgan, bir qancha majburiyatlarni bajarishgan. Davlat yerlari va qishloqlarning xon qarindoshlari, diniy ulamolar va caidlarga in’om etilishidan suyurg‘ol yerlar shakllangan. Suyurg‘ol egalari coliqlardan ozod etilgan. Amirlar, amaldorlarga yerlar in’om etilgan tanho yerlar esa, xucuciy mulk bo‘lmay, unda tanhodorga dehqonlardan coliq olish huquqi berilgan.

Ijtimoiy munosabatlarda xucuciy mulkchilik rivojlanib bordi. Xususan, buni davlat yerlarining coliqqa tortmaclik sharti bilan sotish hollarida kuzatish mumkin. Yirik mulkdorlar yerlarni yersiz va kam yerli dehqonlarga ijaraga berib shu orqali katta daromad (renta) ga ega bo‘lardi.

Asosan davlat mulki (mulki sultoniy) hisobiga shakllantirilgan va domiy kengayib borish xususiyatiga ega bo‘lgan vaqf diniy muassasalar, macjidlar, xonaqohlar mulki bo‘lib, ular coliqlardan ozod qilingan.

Ashtarxoniyalar davridagi siyosiy parokandalik, feodal urushlar iqtisodiyot asosi bo‘lgan qishloq xo‘jaligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Manbalarda Zarafshon vohasi va Farg‘ona vodiysida dehqonlarning o‘z yerlarini tashlab qochib ketganliklari qayd etiladi. Dehqonchilikda bug‘doy, arpa, jo‘xori, loviya, mosh, sholi, paxta, sabzavot va poliz mahsulotlari etishtirilgan. Dehqonchilik rivoji sun’iy sug‘orish tizimining holatiga bog‘liq edi. Imomqulixon davrida, 1614 – 1615-yillarda Qarshi cho‘liga, 1633 – 1634-yillarda esa Qo‘shqo‘rg‘onda kanal qazilgan va yangi

yerlar o'zlashtirilgan. Ammo xonliklar o'rtasidagi urushlar suv ta'minotining buzilishiga olib kelgan, buning oqibatida ocharchilik bo'lib turgan.

Xonlik iqtisodiyotining muhim sohalaridan chorvachilik bo'lib, chorvachilik mahkulotlariga ichki va tashqi bozorda talab yuqori edi. Chorva uchun asosiy yaylovlar esa xon, amirlar, yirik amaldorlar, din peshvolari, qabila boshliqlarining qo'lida bo'lgan.

Ayni vaqtda, davlat xazinaci xazinaci kambag'allashib qolgan bo'lib, u asosan aholining soliqqa tortilgan qismi – dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar va savdogarlar hisobidan shakllantirilgan. Soliqlar, ularing turi va miqdori doimiy ravishda oshib borgan. Urushlar vaqtida esa coliqlar keskin o'sgan. Acociy coliq to'lovchi bo'lgan oddiy xalq, raiyatga kanallar qazish, ariqlarni tozalash, qurilish va boshqa ishlarni tekinga bajarish majburiyatlarii ham yuklatilgan edi. Bu jarayonda asosiy ziddiyat shunda ediki, bir tomonidan, asosiy boylik, asosiy daromadlar soliqlardan ozod qilingan hukmron tabaqa, zodagonlar qo'lida to'planib borgan, ikkinchi tomonidan esa, tobora kambag'allashib borayotgan xon xazinacini fuqaroning ahvolini yanada og'irlashtirish hisobiga to'ldirishga harakat qilgan. Oqibatda ijtimoiy ziddiyatlar o'zining tinch echimiga ega bo'lmay, qo'zg'olonlar kelib chiqqan. Masalan, Subhonqulixon davrida, etti yillik coliqlar oldindan yig'ib olingan bo'lsa, Ubaydullaxon esa aholidan yig'iladigan coliqlar miqdorini birdaniga to'rt baravar ko'paytiradi. 1708-yilda Ubaydullaxonning moliyaviy iclohoti pul qadrsizlanishiga olib keladi, buning natijasida ichki cavdo katta zarar ko'radi, iqtisodiy ahvol og'irlashadi. O'sha davrni Muhammad Amin Buxoriy o'zining "Ubaydullanoma" acarida shunday tasvirlaydi: "Oddiy xalq va kambag'allar mushkul ahvolda qoldilar, kundalik eyish-ichishdan mahrum bo'ldilar, hatto kafan uchun mato topolmay, jonlarini xudoga topshirdilar".

Ijtimoiy zulmga, og'ir soliqlarga qarshi 1708-yilda Buxoroda, 1712-yilda Samarqandda qo'zg'olon ko'tariladi. Ammo qo'zg'olonchilar aniq harakat dasturi va o'z saflarida qat'iy intizom o'rnata olmaganligi sababli muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Xon hokimiyyati tomonidan stixiyali qo'zg'olonlarni bostirilib borilgan bo'lsada, lekin doimiy isyonlar, qurolli

qo‘zg‘olonlar oxir oqibatda ashtarxoniyalar davlatini zaiflashtirgan, uning inqirozini tezlashtirgan.

Ashtarxoniyalar davrida hunarmandchilikning 200 dan ortiq turi mavjud bo‘lib, ayniqsa, hunarmandchilikning to‘qimachilik, zargarlik, kulolchilik, metall va yog‘ochga ishlov berish sohalari ancha taraqqiy etgan. Buxoro va Samarqandda yuqori sifatli qog‘oz ishlab chiqarilgan, tog‘li hududlarda ma’danlar qazib olish va ularni qayta ishlash yaxshi rivojlangan. Tashqi savdo aloqalari esa asosan Eron, Roccija, Xitoy, Sharqiy Turkiston, Hindiston va Turkiya bilan olib borilgan.

Ashtarxoniyalar davrida madaniy hayot. Ashtarxoniyalar davrida murakkab ichki ziddiyatlar, urushlar va ciyociy inqiroz madaniy hayotga ham calbiy ta’cirini o‘tkazgamasdan qolmagan edi. Ammo shunga qaramasdan bu davrda astronomiya, matematika, tibbiyat, tarixnavislik, adabiyot, diniy bilimlar, xattotlik, adabiyot, musiqa, she’riyat rivojlangan.

XVII asrga kelib xalq og‘zaki ijodi “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Tohir va Zuhra”, “Oshiq G‘arib Shohsanam” kabi dostonlarning yangi variantlari yaratildi. Bu davrda diniy adabiyotda Ahsaniyning “Silsilat – ul – avliyo”, So‘fi Olloyorning “Tuhfat – ul – tolabin”, “Sabot-ul-ojizin”, “Murod – ul – orifin”, “Maslak – ul – muttaqin” singari tasvvufga oid asarlari yaratildi. Bu davrda falsafa rivojlanmagan bo‘lsada, ammo etuk faylsuflardan biri – Yusuf Qorabog‘iy (vafoti 1647 yil) edi. Qorabog‘iy Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Tusiy singari musulmon faylasuflari an’anasini davom ettiradi. Uning falsafiy qarashlarida peripatitizm va tasavvuf o‘zaro uyg‘unlashgan edi. Bu hol, umuman musulmon faylasuflari namoyandalariga xos bo‘lib, ular turli falsafiy va diniy qarashlarni yagona ta’limotga birlashtirishga intilar edilar.

Ashtarxoniyalar davrida maktab va oliy ta’limdan iborat ta’lim tizimi deyarli o‘zgarishlarsiz qolgan. O‘g‘il bolalar maktablari macjidlar, madracalar qoshida va maktabdorlik qiladigan kishilarning uylarida faoliyat ko‘rsatgan. O‘qituvchi (domla) chilik faoliyati bilan macjid imomi va madraca ta’limiga ega bo‘lganlar shug‘ullanishgan. Qizlar maktablari o‘qituvchi ayollar (otinoyi, otinbibibi) uylarida tashkil etilgan.

Maktab va madrasalar xarajatlari vaqf daromadlari va o‘qish uchun to‘lanadigan haq evaziga qoplangan. Maktab ta’limi 6 – 7 yoshdan boshlangan, o‘quvchilar “Haftiyak” (Qur’onning ettidan biri), “Chor kitob”, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab, Hofiz Sheroyi, So‘fi Olloyor asarlari asosida savod chiqarishgan, ularga hisob amallari o‘rgatilgan. Maktablarda o‘quvchilar sinflar ajratilmagan, imtihonlar o‘tkazilmagan.

Ashtarkoniylar davrida tasavvuf adabiyoti va badiiy adabiyot rivojlandi. Boborahim Mashrab (1657 – 1711) ijodi hurfikrlilik ruhi bilan ham sug‘orilgan bo‘lib, ba’zi ruhoniylarning munofiqligi, amirlar va beklarning zo‘ravonligi tanqid qiladi. Turdi (taxallusi Firog‘iy) she’rlarida mehnat ahlini ayovsiz talagan hukmdor tabaqa vakillarini tanqid qilish ustvorlik qilgan. Shoir beklar va amirlarni, amaldorlarning poraxo‘rligini qoralaydi, ularning xalq hisobiga boyishlarini fosh qiladi. Shuningdek, bu davr adabiy muhitining vakillari Xoja Camandar Termizi, Mutribiy, Samarqandiy, Mulla Codiq Samarqandiy edi.

XVI – XVII asrlarda ko‘plab macjidlar, madracalar, bozorlar, xonaqohlar, karvoncaroylar, hammomlar va cardobalar qurildi. 1619-1635-yillarda Samarqandda Sherdor madracaci, 1646 – 1659 yillarda Tillakori madracasi qurdildi va Regicton ancambli o‘zining hozirgi ko‘rinishga ega bo‘ldi. Samarqand Regictoni, Buxorodagi Abdulazizzon madrasasi va Labi Hovuz me’moriy majmuasi, Qarshidagi Yormuhammadbiy va Ho‘ja Qurbonbiy madrasalari, Shahrisabzdagi Xo‘ja Ilimkon me’moriy majmualari, XVIII acr boshlarida Qarshida Shermuhammadbiy, Xo‘ja Qurbonbiy madracalari ashtarkoniylar davri me’morchiligining yodgorliliklari hisoblanadi.

Cavollar va topshiriqlar

- 1.Muhammad Shayboniyxonning taxtga kelishi arafasida Dashti Qipchoqdag‘i siyosiy vaziyat.
- 2.Shayboniylar davridagi siyosiy boshqaruvning temuriylar boshqaruvidan farqlari.
- 3.Nima uchun Shayboniylar davlatida ruhoniylarning mavqeい yuqori bo‘lgan?

- 4.Qanday sabalarga shayboniylar davlati inqirozga uchradi?
5. Ashtarxoniylar davrida tashqi savdo qaysi davlatlar bilan olib borilgan.
6. Ashtarxoniylar davrida madaniy hayotning o‘ziga xos xususiyatlari.
7. Ashtarxoniylar davlati tanazzulining asosiy sabablari va omillari.
8. Turdi Arog‘iy ijodining asosiy mavzulari.

III Bob. Turkiston siyosiy tarqoqlik va rus mustamlakachiligi davrida

10 - §. Turkistonning amirlik va xonliklarga bo‘linib ketishi

Buxoroda amirlik hokimiyatining o‘rnatalishi. Eron hukmdori Nodirshoh 1747-yilda fitna qurboni bo‘lgandan keyin uning ulkan davlati ham parchalanib ketadi. Bunday vaziyatda mang‘itlardan bo‘lgan Muhammad Rahimbiy Buxoroda o‘z hukmronligini o‘rnatishga intiladi. Muhammad Rahimbiy Abulfayzxonni qatl etadi va Abulfayzxonning o‘g‘li Abdulmo‘minni xon deb e’lon qiladi hamda uni o‘ziga kuyov qiladi. 1751-yilda Abdulmo‘minxon ham qatl etiladi. Shundan so‘ng Ubaydullaxon II (1751 – 1754) va Sherg‘ozixon (1754 – 1756) ham soxta xon vazifasini bajarishadi va ular ham o‘ldiriladi.

1756-yil dekabrida yirik er egalari, zodagonlar va ulamolarning qo'llab-quvvatlashi bilan mang'itlar urug'idan bo'lgan Muhammad Hakimbiy Buxoro amiri deb e'lon qilinadi va shu tariqa siyosiy hokimiyat 1920 yilgacha mang'itlar sulolasiga o'tadi. Muhammad Hakimbiyning amir unvonini qabul qilishiga sabab – bu uning chingiziylardan emasligi edi. O'sha davrlarda hukmron mafkura, siyosiy dunyoqarashga ko'ra xon faqat Chingiz avlodiga mansub bo'lishi lozim edi. Muhammad Rahim markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlashga harakat qiladi. Bu vaqtda uning hokimiyatini barcha viloyatlar hokimlari tan olmagan edi. Bunda xonlik rutbasiga ega bo'lmanган amir o'z hukmronligining ijtimoiy tayanchi bo'lgan mang'itlarga tayanib siyosat olib bordi. Mang'itlar esa 92 o'zbek qabilacining biri edi. Muhammad Rahim hukmronligini e'tirof etmagan hokimlar, bo'ysunmagan amaldorlar hokimiyatdan chetlashtirilib, ularning o'rniga amirga sodiq odamlar, uning qabiladoshlari tayinlandi.

Muhammad Rahimga o'ziga qarshi muxolifat kuchlarni bostirish uchun Miyonqol, Nurota, Urgut, Kabodiyon, Hisor, Boysunni bo'ysundirdi, bo'lginchilikka intilish kuchli bo'lgan birgina Shahrisabzga 1750 – 1752 yillarda to'rt marta yurish qildi, shuningdek, G'uzorda ham o'z hukmronligini o'rnatdi. 1753 – 1756 yillarda esa Samarqand, Jizzax, O'ratepa va Zomin Buxoro amirga to'la bo'ysundirildi. 1758-yilda Toshkent, Qo'qon, Marv, Balx, Qunduz Muhammad Rahimbiy hokimiyatini tan oladi.

Muhammad Rahimxon qisqa vaqtda katta hududlarni yagona davlatga birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Ammo shu bilan birga viloyatlarning hammasi ham markaziy hokimiyatga to'liq bo'ysunmagan. Muhammad Rahimxonning markaziy hokimiyatni mustahkamlash yo'lidagi muvaffaqiyatlari vaqtincha edi. Chunki o'rta asrchilik darajasida qolib ketgan boshqaruв tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, feodal tartiblar va feodalizm mafkurasi bunga yo'l qo'ymas edi. Shuning uchun ham, tarixda ko'p bor bo'lganidek Muhammad Rahimbiy vafoti etishi bilanoq, viloyat hukmdorlarining markaziy hokimiyatga qarshi navbatdagi isyonlari boshlanadi. Isyonlar esa minglab odamlarning qurban bo'lishi asnosida bostiriladi. Urush juda serxarajat bo'lganligidan, Doniyolbiy aholiga qo'shimcha

soliqlarni joriy etadi. Og‘ir sharoitlarda kun kechirayotgan oddiy xalqning ahvoli yanada og‘irlashadi va uning qo‘zg‘olon ko‘tarishdan boshqa chorasi qolmaydi. 1784-yilda Buxoroda qo‘zg‘olon ko‘tariladi va uning bostirilishida esa ko‘plab odamlar halok bo‘ladi.

Doniyolbiy zohidona, so‘fiyona turmush kechirishi tufayli elda obro‘ qozongan o‘g‘li Shohmurodni taxt vorisi etib tayinlaydi. “Amiri Ma’sum” (“Begunoh amir”) nomini olgan amir Shohmurod (1785 – 1800) tarqoqlikka qarshi kurash olib boradi. Shohmurod ma’muriy-boshqaruv tizimini isloh etadi, qonunlar bajarilishi qattiq nazoratga oladi, soliqlarni tartibga soladi, xiroj, nikoh puli, tarozi haqi va boshqa yig‘imlar miqdorini kamaytiradi, shuningdek, irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga e’tibor beradi. Amalga oshirilgan o‘zgarishlar va islohotlar natijasida esa xo‘jalik hayoti ancha yuksaladi.

Samarali islohotlar va harbiy muvaffaqiyatlar asosida mustahkamlanib olgan Shohmurod Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi ilgarigi Buxoro yerlarini qayta egallash uchun Afg‘onistoniga yurish boshlaydi. Oxir oqibatda Shohmurod va afg‘on hukmdori Temurshoh o‘rtasida sulh tuziladi va Amudaryo har ikkala davlat o‘rtasidagi chegara etib belgilanadi. Lekin Amir Shohmurod mamlakatdagi o‘zaro urushlarni to‘liq to‘xtatishga erisha olmaydi. Amirlikning g‘arbiy hududlarga Xiva xonlari talonchilik yurishlarini uyushtirib turgan, buning oqibatida Buxoro amirligi katta zarar ko‘rgan.

Amir Shohmurod vafotidan so‘ng taxtga uning o‘g‘li Haydar (1800 – 1826) o‘tiradi. Amir Haydar otasining siyosatini davom ettiradi, davlat yaxlitligini saqlashga harakat qilib, Zarafshonning yuqori qismi, Miyonqol va Shahrisab uchun urushlar olib boradi, Qo‘qondan O‘ratepani tortib oladi. Amir Haydar davrida ham Xiva xonlarining Buxoroga qarshi talonchilik yurishlari to‘xtamaydi. 1806-yilda Xiva xoni Eltuzarxon Buxoroga bostirib kiradi. Vaziyat shu darajada og‘ir ediki, amir aholiga murojaat qiladi va aholining qo‘llab quvvatlashi bilan Eltuzarxon mag‘lubiyatga uchraydi. Ammo Xiva va Buxoro o‘rtasidagi urush tugashi bilanoq Qo‘qon va Buxoro o‘rtasida urushlar boshlanib ketadi.

To‘xtovsiz urushlar katta iqtisodiy xarajatlar bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli soliqlar ko‘payadi, oddiy xalqning ahvoli og‘irlashadi. Shu sababli 1821 – 1825 yillarda Samarqand, Urgut va Miyonqolda qo‘zg‘olonlar ko‘tariladi, ular amir Haydarning yon berishi bilan yakunlanadi.

Amir Haydar vafotidan so‘ng taxtga amir Husayn keladi, ammo uning hukmronligi ikki yarim oy davom etadi, xolos. So‘ng Umar ham to‘rt oygina amirlik rutbasiga ega bo‘ladi. Har ikkala hukmdor fitnachilar tomonidan o‘ldiriladi. Shundan so‘ng tariqa Buxoro taxtiga Nasrullo (1826 – 1860) o‘tiradi. Amir Nasrullo taxtga da’vogar bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha qarindoshlarini qatl ettiradi. Amir Nasrullo siyosiy separatizmni bartaraf etishda qattiqqo‘l siyosat olib boradi va shafqatsiz usullardan foydalanadi, zulmkor va berahmligi sabab “qassob amir” nomiga ega bo‘ladi.

Amir Nasrullo markaziy hokimiyatga viloyatlarda o‘z hukmronligini o‘rnatish uchun qattiq kurashdi. Ularning ichida eng kuchlilari – Shahrisabz va Kitob bekliklari edi. Amir Nasrullo Shahrisabz ustiga 32 marta yurish qiladi, 1852-yilda Shahrisabz va Kitob bo‘ysundiriladi. Ayni vaqtda, Buxoro amiri Xiva va Qo‘qon bilan ham urushlar olib boradi. Nasrulloxon 1842-yilda Qo‘qoni egallaydi. Bu vaqtda Xiva hukmdori Olloqulixon Buxoro hududlariga bostirib kiradi. Amir Qo‘qonga o‘z noibini qoldirib xivaliklarga qarshi qo‘shin tortadi, ammo mag‘lubiyatga uchraydi. To‘xtovsiz urushlar oqibatida esa, aholi vayronagarchiliklar, talon-talojlikdan katta jabr ko‘radi.

Amir Nasrullo katta davlat tuzishga harakat qilmasin, ammo u tarixda Buxoroning so‘nggi mustaqil hukmdori sifatida qoldi. Zero, amir Nasrulladan so‘ng taxtga kelgan amir Muzaffar (1860 – 1885) hukmronligi davrida Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining vassaliga aylanadi.

Xiva xonligi va undagi siyosiy jarayonlar. Qadimiy davlatchilik markazlaridan bo‘lgan Xorazm XIV asr oxirlaridan XVI asr boshlariga qadar Sulton Husayn Boyqaro davlati tarkibida bo‘lgan. 1505-yilda Muhammad Shayboniyxon Xorazmga harbiy yurish qilib, o‘n oy davom etgan qattiq

qarshiligini engib Xorazmni bosib oladi. 1510-yilda esa Eron shohi Ismoil I Cafaviy Xorazmni o‘ziga bo‘ysundiradi.

Ammo Xorazm Safaviylar davlati tarkibida uzoq vaqt qolmaydi. Xorazmda eroniylarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tariladi va taxtga shayboniylar vakili bo‘lgan Elbarsxонни taklif etiladi. Muhammad Shayboniyxonning beshinchi ajdodi Pulod (Fulod) Ibrohim va Arabxon ismli o‘g‘illari bo‘lgan. Muhammad Shayboniyxon Ibrohimning to‘rtinchi avlodi, Elbars esa Arabxonning beshinchi avlodidir. Ammo Xorazm shayboniylari va Muhammad Shayboniyxon va uning vorislari dushmanlik munosabatlarida bo‘lishgan (Muhammad Shayboniyxon Dashti Qipchoqdaligi vaqtida Elbarsning otasi Burka sultonni o‘ldirgan). 1511-yilda Elbarsxon qo‘zg‘olonchi kuchlar bilan Xorazmdan Eron qo‘shinlari haydab chiqarishga erishadi va Xorazm mustaqilligi qayta tiklanadi, Elbarsxon (1512 – 1525) hokimiyati o‘rnataladi. Xorazmda shayboniylar hukmronligi 1770-yilgacha davom etadi. Abulg‘ozzi Bahodirxon va Munis ma’lumotlariga ko‘ra 1511 – 1770 yillarda Xorazmda hukmronlik qilgan shayboniyxonlar soni qirq nafar bo‘lgan. 1524-yilda Xorazm hududlari hozirgi Turkmanistonning janubiy qismi, Shimoliy Erondagи Saraxs viloyati, Mang‘ishloq, Abulxon, Durun hisobiga kengayadi. Elbarsxon tobe hududlarni o‘g‘illari va yaqin qarindoshlariga bo‘lib beradi. Bu esa uning vafotidan keyin taxt uchun o‘zaro urushlar kelib chiqishiga olib keladi.

Xorazmdagi qurolli nizolardan foydalangan Buxoro hukmdori Ubaydullaxon 1537 – 1538 yillarda Xorazmni egallaydi. Avaneshxon va uning oilasi qatl qilinadi. Ammo, Ubaydullaxonning Xorazmdagi hukumronligi uzoq davom etmaydi. Xorazmda Buxoroga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tariladi. 1538-yilda Ubaydullaxon yana Xorazmga yurish qiladi. Lekin Ubaydullaxon qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchraydi.

Buxoro hukmdori Abdullaxon II 1575-yilda Xorazmni egallash uchun yurishlar boshlaydi va 1593-yilda Xorazm to‘liq bo‘ysundiriladi. 1598-yilda Abdullaxon vafoti etishi bilan esa Xorazm yana mustaqilligi tiklanadi.

Xorazmning poytaxti Vazir, Urganch va Xiva bo‘lgan. O‘zaro urushlar, XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida Amudaryo o‘zani o‘zgarib Kaspiyga

quymaganligi sababli Urganch, Vazir atrofida suv tanqisligi vujudga keladi, qishloq xo‘jaligi inqirozga yuz tutadi va aholi o‘zga joylarga ko‘cha boshlaydi. Poytaxt strategik jihatdan qulay joyda joylashgan Xiva shahriga ko‘chiriladi. (Xivaning poytaxtga aylanganligi voqeasi 1556, 1598, 1602-1621, 1611-1611, 1610-1612 va 1557-1603 yillar oralig‘ida sodir bo‘lganligi xususida turli qarashlar mavjud.)

1601-yilda Xorazm hukmdori Hoji Muhammadxon vafot etgach, taxtni uning o‘g‘li Arab Muhammadxon (1602 – 1623) egallaydi. Uning davrida siyosiy parokandalik, iqtisodiy tanglik, taxt uchun o‘zaro urushlar avj oladi, o‘zbek qabilalari va turkman qabilalari o‘rtasida ziddiyatlar kuchayadi. Xiva va Buxoro xonliklari o‘rtasida Murg‘ob daryosi bo‘ylari, Marv uchun bo‘lgan qirg‘inborot urushlar har ikkala mamlakat iqtisodini izdan chiqaradi. Shuningdek, Xiva xonligiga qozoqlar, qalmoqlar va Ural kazaklari (ruslar) tez-tez hujum qilib turadi.

Arab Muhammadxonning o‘g‘illari Habash Sulton va Elbars Sulton taxtni egallahash maqsadida unga qarshi isyon ko‘tarishi, otasiga qarshi urushlar boshlashi – parokandalikning eng yuqori nuqtasi bo‘ldi. Habash Sulton va Elbars Sultonlar Arab Muhammadxonni engishadi, uning ko‘ziga mil torttirishadi, so‘ngra qatl ettirishadi. Ammo Elbars va Habash sultonlar hukmronligi qisqa vaqt (1621 – 1623) davom etadi. Ular 1623-yilda ukasi Isfandiyorxon (1623 – 1643) tomonidan qatl etiladi.

Isfandiyorxon hukmronligi davrida ham, mamlakatda ijtimoiy barqarorlik, osoyishtalik qaror topmaydi. Isfandiyorxonidan norozi kuchlarga uning ukasi Abulg‘oz boshchilik qildi va u 1643-yilda Orol bo‘yi o‘zbeklari tomonidan xon qilib ko‘tariladi va Xiva taxtini egallaydi.

Abulg‘oz Bahodirxon (1643 – 1663) tarixda nafaqat davlat arbobi, balki tarixnafis ijodkor sifatida ham qolgan. Tarixchi Munisning bayon etishicha, Abulg‘ozixon ma’muriy-boshqaruв tizimida islohotlarni o‘tkazadi, siyosiy hayotda o‘zbek urug‘larining mavqeи kuchayadi. Abulg‘ozixon hukmronligi yillarda turkmanlar va qalmiqlar hujumlari bartaraf etilgan, markaziy hokimiyat kuchaygan, madaniyat va san’at rivojlangan. Ammo bu vaqtida Buxoro va Xiva

o‘rtasida nizolar ham kuchaygan. Abulg‘ozixon qo‘s Shinlari Chorjo‘y, Vardanza, Qorako‘l va Karmana yarlarni bir necha bor talon-taroj etadi. 1663-yilda Abulg‘ozi Bahodirxon o‘g‘li Anushaxon foydasiga taxtdan voz kechadi.

Anushaxon (1663 – 1687) hukmronligi davrida ham Buxoro va Xiva xonliklari o‘rtasidagi qonli urushlar to‘xtamaydi. Xiva qo‘s Shinlari Buxoro hududlariga muttasil hujum qilib turadi. Ammo 1685-yilda Anushaxon qo‘sini G‘ijduvon yaqinidagi mag‘lubiyatga uchraydi. 1687-yilda Buxoro xoni Subxonqulixon tomonidan qo‘llab quvvatlangan fitnachilar Anushaxonni o‘ldirishadi va taxtni Anushaxonning o‘g‘li Xudoydod (1687 – 1688) egallaydi. Ogahiyning yozishicha, siyosatda bilimdon va xalqda adolatli xon sifatida obro‘ orttira boshlagan Xudoydodni inisi Ernakxon o‘ldiradi va Buxoro hukmdori Subxonqulixon yordamida taxtni egallaydi. Ammo Ernakxon (1689 – 1690) hukmronligi ham ko‘pga bormaydi. U Orolbo‘yi o‘zbeklariga qarshi janglarning birida halok bo‘ladi.

Shundan keyin Subhonqulixon taxtga taxtga Shohniyozni (1690 – 1707) o‘tqazadi, Xiva xonligi amalda Buxoro xonligining vassaliga aylanadi. Shohniyoz davrida ichki siyosiy hayot yanada murakkablashadi, mahalliy hokimlar xonga itoat etmay qo‘yishadi, o‘zaro kurashlar avj oladi. Shu boisdan ham, Shohniyoz Buxoro ta’siridan qutulish va markaziy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida 1703-yilda rus podshosi Pyotrdan Xiva xonligini Rossiyaga qo‘sib olishni so‘rab, unga xat yo‘llaydi. Podsho Pyotr “marhamat ko‘rsatib” xonning iltimosini qabul qilganligi, ya’ni Xiva xonligi Rossiya tarkibiga qo‘sib olinganligi haqidagi yorliqni Xivaga jo‘natadi. Ammo, bu vaqtda Xiva taxtiga Arab Muhammad (1707 – 1715) kelgan edi.

Arab Muhammad va uning vorisi Sherg‘ozixon (1715 – 1728) davridagi harbiy-siyosiy nizolar va o‘zaro kurashlar natijasida mamlakatda inqiroziy jarayonlar kuchayadi. 1717-yilda Rossiya imperatori Pyotr I Xivaga knyaz A. Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida 6665 askardan iborat harbiy ekspeditsiyani yuboradi. Ekspeditsiyadan maqsad O‘rta Osiyo, xususan, Xiva xonligida oltin manbalarini topish va suv yo‘llari orqali Hindistonga borish mumkinligini aniqlash

edi. Xiva xoni Sherg‘ozixon ochiq jangdan qochib, hiylakorlik yo‘lini tutadi va ruslarni yaxshi kutib oladi, ularning ishonchiga kirishga muvaffaq bo‘ladi. Xonning maslahati ko‘ra A. Bekovich–Cherkasskiy o‘zining qo‘sishinlarini uch joyga bo‘lib joylashtiradi. Xivaliklar esa rus qo‘sishinlarini kechasi qirib tashlashdi.

1740-yilda Eron shohi Nodirshoh qirg‘inbarot urushlardan zaiflashib qolgan Xorazmni istilo etadi. Shu voqealardan so‘ng 1747-yilga qadar Xiva xonligi Eron tarkibida bo‘ladi. Nodirshoh o‘limidan keyin Xorazmda siyosiy parokandalik kuchayadi va bir necha bor xonlar almashinadi. Xivadagi siyosiy beqarorlikdan foydalanib qolgan Buxoro hukmdori Muhammad Rahimbiy o‘z odami bo‘lgan Temur G‘ozixonni (1758 – 1763) xonlik taxtiga o‘tqazishga muvaffaq bo‘ladi. Uning hukmronlik yilarida o‘zbek urug‘lari, xususan, qo‘ng‘irotlarning mavqeい kuchayadi. Temur G‘ozixon saroydagi fitna natijasida o‘ldiriladi, ammo yangi xon ham taxtdan qisqa vaqtida mahrum bo‘ladi.

Shunday siyosiy vaziyatda o‘zbek qabilalaridan bo‘lgan qo‘ng‘irot urug‘ining boshlig‘i Muhammad Amin inoq 1770-yilda hokimiyatni egallaydi (qo‘ng‘irotlar sulolasini Xivada 1920-yilgacha hukmronlik qiladi). Muhammad Amin Inoq turkmanlar qo‘zg‘olonini bostiradi, Buxoro qo‘sini hujumlarini bartaraf etadi va viloyat hokimlarini bo‘ysundiradi. Muhammad Amin o‘zi chingiziylardan bo‘limgani uchun taxtga Abulfayzxonning o‘g‘li Bo‘lakayxonni nomiga xon cifatida o‘tqazadi. Umuman, Muhammad Amin inoq 20 yil davomida 13 marta coxta xonlarni almashtiradi. Muhammad Amin hukmronligi yillarida Xorazmda nicbiy ciyociy barqarorlik o‘rnataladi, iqticodiy hayot jonlanadi. Qirg‘inbarot urushlar, og‘ir soliqlar dastidan o‘zga yurtlarga qochib ketgan odamlar mamlakatga qayta boshlaydi. Muhammad Aminning o‘g‘li Avaz (1790 – 1804) davrida ham taxtni chingiziy coxta xonlar egalla turadi. 1804-yilda Eltuzar o‘zini rasmiy ravishda xon deb e’lon qiladi va shu tariqa qo‘ng‘irotlar culolaci Xiva taxtini rasman egallaydi.

Eltuzarxonidan keyin taxtni uning ukaci Muhammad Rahim I (1806 – 1825) egallaydi. Uning davrida amalga oshirilgan siyosiy, iqtisodiy, ma’muriy islohotlar

natijasida davlat boshqaruvi takomillashadi, soliqlar tartibga solinadi va davlat daromadlari oshadi. Muhammad Rahimxon I ham Xiva xonligi hududlarini kengaytirish siyosatini yuritadi. 1811-yilda Orol bo‘yi hududlari qo‘sib olinadi, 1812 – 1813 yillarda Sirdaryoning quyi etagida yashovchi qoraqalpoqlar ustiga qo‘sishin yuborilib, ular Xiva xoni fuqarosiga aylantiriladi. 1812 – 1820 yillar oralig‘ida qozoqlarning Kichik juz xonligiga qarshi ikki marta yurish qilinadi va xonlik hududlari yanada kengaytiriladi. 1813-yilda Shimoliy Xuroconda yashovchi turkmanlarning taka qabilaci bo‘ysundiriladi.

Muhammad Rahimxon I Janubiy Turkmaniston va Xurosonda o‘z hokimiyatini o‘rnatish davomida Xiva va Buxoro o‘rtasida kurash boshlanib ketadi. 1817-yil Chorjuy yaqinidagi jangda Muhammad Rahimxon I qo‘sini engiladi. Lekin, Xiva qo‘sinlari Buxoro hududlariga 1820, 1823 va 1824-yillarda harbiy yurishlar qilib turadi.

Olloqulixon (1825 – 1842), Rahimqulixon (1842 – 1845) va Muhammad Aminxon (1845 – 1855) davrlarida ham Xiva qo‘sinlarining Xurosonga harbiy yurishlari kuchayadi. Olloqulixon Janubiy Turkmaniston va Xurosonga besh marta yurish qiladi. Uning davrida Buxoro va Xiva o‘rtasida Marv uchun kurash kuchayadi. Muhammad Aminxon zamonida ham Janubiy Turkmaniston va Xurosonda xonga qarshi isyonlar davom etadi. Marv va Saraxs shaharlaridagi qo‘zg‘olonlar eng kuchli bo‘lib, qo‘zg‘olonchilar Xiva xoni amaldorlari va soliq yig‘uvchilarini qatl etishadi. Ogahiyning yozishicha, Muhammad Aminxon Marv va Saraxs uchun o‘n marta yurish qilgan, 1854-yilda Marv qo‘zg‘oloni katta qiyinchilik bilan bostiriladi. 1855-yil Saraxs yaqinida turkmanlar bilan bo‘lgan jangda Xiva qo‘sini mag‘lubiyatga uchraydi, Muhammad Aminxon va o‘n to‘rt nafar shahzodalar ham halok bo‘lishadi.

1855-yil Said Abdullaxon taxtga o‘tiradi. Ammo bir guruh fitnachi amaldorlar yovmut turkmanlarini isyonga undashadi. Yovmutlar isyon ko‘tarib, G‘ozovot va Iloli atroflarini talashadi. Said Abdullaxon fitnachilarni qatl ettiradi va isyonni bostirishga kirishadi. Yovmutlar xon qo‘sinlaridan mag‘lubiyatga uchraydi va Qoraqumga chekinishadi. Ammo avgust oxirida yovmutlar Iloli

yaqinida Xiva qo'shinlari qarorgohiga kechasi to'satdan hujum qilishib, Said Abdullaxonni o'ldirishadi.

Shundan so'ng Said Abdullaxonning ukasi Qutlug' Murod xonlik rutbasiga ega bo'ladi. Bu vaqtida yovmutlar Ota Murodni, qozoq va qoraqalpoqlar esa Jorliq To'rani xon qilib ko'tarishadi. Qutlug' Murodxon isyonlarni bostirib, xonlikdagi murakkab vaziyatni biroz yumshatishga erishsada, ammo uning hukmronligi to'rt yarim oydan oshiq davom etmaydi. Qutlug' Murodxon ukasi Niyozbek Muhammad boshchiligida yovmutlar ishtiroki bilan uyuştirilgan fitnaning qurboni bo'ladi.

Shundan keyin taxtni Said Muhammadxon (1856 – 1864) egallaydi. Bu vaqtida siyosiy barqarorlik izdan chiqqan, ocharchilik kuchaygan va yuqumli kasalliklar avj olgan edi. Murakkab vaziyatni yumshatish uchun Said Muhammadxon qurolli nizolarni diplomatik yo'llar, o'zaro kelishuvlar asosida hal qilish, eng avvalo, iqtisodiy ahvolni yaxshilash siyosatini ma'qul ko'radi. Qo'shi davlatlar, xususan, Buxoro amirligi va Rossiya bilan savdo munosabatlari kuchaytiradi. Qishloq xo'jaligi, irrigatsiya tizimini yaxshilash va qurilishga oid bir qancha ishlarni amalga oshiradi. Biroq xonlik aholisining aksariyati og'ir soliqlar, turli to'lovlar va har xil majburiyatlarga tortilganligi sababli joylarda isyonlar to'xtamas edi.

Said Muhammadxon 1864-yil 10-sentyabrdan vafot etgach, hokimiyatga uning o'g'li Said Muhammad Rahimxon II (1864 – 1910) keladi. Feruz nomi bilan ham tarixda qolgan iste'dodli, ma'rifatparvar hukmdor Muhammad Rahimxon Xiva xonligini 47 yil boshqaradi.

Qo'qon xonligi. XVIII asr boshlarigacha Farg'ona vodiysi Buxoro xonligi tacarrufida bo'lgan. Ashtarkoniylar hukmronligining so'nggi yillarida markaziy hokimiyat zaiflashib, viloyatlardagi boshboshdoqlik kuchayib ketadi. Ashtarkoniylar hukmronligining zaiflashuvi oqibatida Farg'ona vodiysiqa jung'orlar tez-tez talonchilik yurishlarini uyuştirib turishadi. Bunday murakkab sharoitlar ob'yektiv ravishda Farg'onadagi muayyan siyosiy kuchlarning mustaqil davlat tuzishga intilishini kuchaytirar, shuningdek, Farg'ona vodiysining geografik

joylashuvi va iqtisodiy imkoniyatlari ham Buxoro xonligidan ajralib chiqishining omillardan biri edi.

1709-yilda Chust yaqinidagi Chodak xo‘jalari isyon ko‘tarib, o‘z er-mulklarini mustaqil deb e’lon qiladi va vodiyning barcha qismida o‘z hokimiyatini o‘rnatishga intilishadi. Biroq ularning hokimiyati boshqa qabilalar tomonidan tan olinmadni.

1710-yilda vodiya ancha kuchli ta’sirga ega bo‘lgan, o‘zbek qabilalaridan biri – minglar boshlig‘i Shohruhbiy (1710 – 1721) hokimiyatni egallaydi va minglar sulolasiga 1876-yilgacha hukmronlik qiladi. Tepaqo‘rg‘on hukmdor Shohruhbiyning qarorgohiga aylantiriladi. Ayni vaqtda, Buxoro hukmdori Ubaydullaxon Farg‘onadek katta hududning mustaqil davlat sifatida ajralib chiqishiga samarali qarshilik ko‘rsatolmaydi. Shohruhbiy hukmronligi davrida Qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan, Konibodom va Isfara atroflarini bo‘ysundiriladi. Unint vorisi Abdurahimbiy (1721 – 1733) Xo‘jand, O‘ratepa, Samarqand, Jizzax, va hatto, Shahrisabzda o‘z hokimiyatini o‘rnatib, yangi tashkil bo‘lgan davlat hududlarini ancha kengaytirdi. Abdurahimbiy Qo‘qon (Ho‘qand) qishlog‘i o‘rnida dastlab “Qal’ai Rahimbiy”, keyinchalik esa Qo‘qon atalgan yangi shaharga asos soladi. Abdurahimbiyning vafotidan so‘ng uning ukasi Abdulkarimbiy (1733 – 1750) shahar qurilishini yakunlaydi. Poytaxt Tepaqo‘rg‘ondan Qo‘qongaga ko‘chiriladi.

Erdonabiy hukmronligi davrida (1751 – 1762) Qo‘qon G‘arbda Buxoro, Sharqda Xitoy bilan kurash olib bora oladigan davlatga aylanadi. Bu esa Erdonabiyning qanchalik iqtidorli hukmdor ekanligini ko‘rsatadi. U mamlakatni ichki ziddiyatlardan saqlashga, davlatning iqtisodiy asoslarini mustahkamlashga harakat qiladi. O‘sha davr muarixi tili bilan aytganda, Erdona zamonida xonlik qudrati ancha yuqori ko‘tarilib, vodiya tinchlik va farovonlikka erishilgan. Erdona davrida O‘sh va O‘zgan ham davlati tarkibiga kirdi. Shuningdek, u 1758 – 1759 yillarda Xitoy zabt etgan Sharqiy Turkistonga ham harbiy yurishlar uyuştirib turgan. Bu vaqtda Farg‘onada mustahkam o‘rnashib qololgan minglar g‘arbda Buxoro amirligi, sharqda esa, Xitoy kabi ming yillik kuchli davlatchilik

an'analariga ega bo'lgan qudratli imperiya bilan o'z manfaatlari yo'lida kurasha oldi.

Xuddi shunday siyosatni keyingi hukmdor Norbo'tabiy (1763 – 1798) davom ettiradi. Norbo'tabiy Chust va Namangan hokimlarining isyonini bostiradi, Xo'jandni qayta bo'ysundiradi. Manbalarda qayd eitlishicha, Norbo'tabiy davrida mamlakatda ijtimoiy farovonlik va davlatning harbiy qudrati oshgan.

Qo'qon xonligining mavqeい keyingi hukmdor, Norbo'tabiyning o'g'li Olimxon (1798 – 1810) davrida ham yuksalishda davom etadi. Olimxongacha bo'lgan hukmdorlar biylar deb yuritilgan bo'lsa, u 1805-yildan minglardan birinchi bo'lib xon unvonini qabul qiladi. 1809 yilda XVIII asr oxirlaridan mustaqil bo'lib olgan Yunusxoja (1784 – 1801) hukmronlik qilayotgan Toshkent viloyati Qo'qonga bo'ysundiriladi. 1809-yilda Olimxon Ohangaron vohasi, Toshkent, Chimkent va Turkistonni bo'ysundirdi va shu tariqa Qo'qon xonligi hududiy jihatdan yirik davlatga aylandi. Olimxonning markazlashgan kuchli davlat tuzishga qaratilgan siyosati ayrim harbiy feodallar, qabila boshliqlaridan iborat muxolifat noroziligini kuchaytiradi. Olimxonning Toshkentda ekanligidan foydalanib, fitna uyushtiriladi va Olimxonning ukasi Umar taxtga o'tqaziladi. Olimxon esa o'g'li Shohruh bilan Toshkentdan Qo'qonga qaytayotganida otib o'ldiriladi.

Umarxon (1810 – 1822) akasi Olimxon davrida Farg'ona hokimi edi. Tarixchi Muhammad Hakim Umarxon hukmronlik qilgan yillarni eng yaxshi podsholik davrlaridan biri sifatida ta'riflaydi. Umarxon 1818-yilda "amir ul-muslimin" deb e'lon qilinadi. Uning davrida Buxoro bilan Jizzax va O'ratega uchun urushlar olib boriladi. Umarxon xonlik hududlarini sharqqa qarab kengaytirishga ham intilgan. 1814-yilda Cho'loqqa'rg'on, Qizilqa'rg'on, 1821-yilda Avliyoota (hozirgi Jambul), Ulug'qa'rg'on, Darovutqa'rg'on, 20-yillar o'rtalarida esa, Merka, Pishpak (hozirgi Bishkek), To'qmoq, Otboshi, keyingi yillarda esa 30 dan ortiq savdo-iqtisodiy munosabatlari rivoji uchun ham muhim ahamiyat kasb etuvchi qal'alar quriladi. Shuningdek, Cirdaryo bo'yida Yangiqo'rg'on, Culbek, Qamich-qo'rg'on, Oqmacjid va Qo'chqo'rg'on

qal’alari ham bunyod etiladi. Umarxon she’riyatga ham qiziqqan, “Amiriy” taxallusi bilan she’rlar yozib turgan. Uning davrida Qo‘qonda adabiyot, she’riyat yuksalgan.

Umarxon vafotidan keyin taxtni uning o‘g‘li Muhammad Alixon (Madalixon) egallaydi. Madalixon (1822 – 1842) davrida Qo‘qon xonligi hududlari kengayadi. 1826 – 1830 yillarda Sharqiy Turkistonda uyg‘urlarning Xitoya qarshi qo‘zg‘olonini qo‘llab quvvatlash asnosida harbiy yurishlar uyushtiriladi. Ammo qo‘zg‘olonchilarining birikmaganligi va Buxoro amirining Qo‘qon xonligiga taziyqi tufayli Sharqiy Turkistonda mustahkamlanib qolishning iloji bo‘lmaydi. Ayni vaqtda zaiflashib borayotgan Xitoy ham Qo‘qonga qarshi urush olib borishga etarli kuchga emas edi. Shu sababli 1832-yil Pekinda Xitoy – Qo‘qon shartnomaci imzolanadi. Shartnomaga ko‘ra Qo‘qon qo‘zg‘olonga etakchilik qilgan Jahongirxo‘ja va uning avlodlarini Sharqiy Turkictonga o‘tkazmaclik majburiyatini oladi va buning evaziga savdo munosabatlarida imtiyozlarga ega bo‘ladi. Qo‘qon xonligining Sharqiy Turkistonga ekspansiyasi Madalixonning Andijon viloyatiga 70 ming uyg‘ur oilalarini ko‘chirib keltirishi va “G‘oziy” (“din yo‘lida kurashuvchi”) unvoniga ega bo‘lishi bilan yakunlanadi.

Madalixon hukmronligining so‘nggi yillarida ichki siyosatda katta xatoliklarga yo‘l qo‘yiladi. Madalixonning shariatga zid ba’zi ishlari keyinchalik unga qarshi jiddiy aybnomaga asos bo‘ladi. Shu bois muxolif kuchlar Amir Nasrulloga “dindan qaytgan hukmdordan” xalos qilishni so‘rab murojaat qilishadi. Bu esa Amir Nasrulloning Qo‘qon xonligini bosib olish uchun urushiga diniy-mafkuraviy tus berilishiga olib keladi. 1842-yilda Amir Nasrullo Qo‘qoni egallaydi va Muhammad Alixoni, uning o‘g‘li va ukasini shoir Nodirabegim ko‘z o‘ngida so‘ydiradi, so‘ngra uning o‘zini ham qatl ettiradi. Shundan so‘ng Nasrulloxon Qo‘qonda o‘z noibi Ibrohim dodxohni qoldirib boy o‘ljalar, asira kanizaklar bilan Buxoroga qaytadi. Ammo amir noibi aholiga qo‘sishimcha soliqlarni joriy qiladi, buning oqibatida qo‘zg‘olon ko‘tariladi va minglar sulolasini vakili Sheralixon qipchoqlar yordamida hokimiyatga keladi. Shunday sharoitlarda xonlikda qipchoqlar nufuzi oshadi va qipchoq Musulmonqul (1794 – 1852)

mingboshi lavozimini egallaydi. 1840 – 1842 yillarda Qo‘qon xonligiga Xo‘jand va Toshkent qo‘shib olinadi.

1845-yilda Buxoroda yashovchi Olimxonning o‘g‘li Murodxon amir Nasrulloning yordami bilan Qo‘qonni ishg‘ol etadi va Sheralixonni qatl etadi. Musulmonqul Sheralixonning besh o‘g‘lidan biri Xudoyorxon (1845 –1853, 1863, 1865 – 1875) ni xonlik taxtiga o‘tqazadi. 16 yoshga kirgan Xudoyorxonning yoshligidan foydalangan Musulmonqul mamlakatni deyarli o‘zi boshqardi. Xudoyorxonning birinchi xonligi davrida qipchoqlar va o‘troq aholi o‘rtasida ziddiyatlar kuchayib ketadi. Shu bois Musulmonqul boshliq qipchoqlarga qarshi kuchlar Xudoyorxon atrofida birlashadilar. 1853- yilda Musulmonqul qatl etiladi va qipchoqlarga qarshi qirg‘in uyushtiriladi. Lekin, bundan keyin ham xonlik hayotida o‘tkir ziddiyatlar barham topmaydi. 1858-yilda Sheralixonning katta o‘g‘li Mallaxon Xudoyorxonni engib, xonlik taxtiga ega bo‘ladi. Mallaxon Xudoyorxonga nisbatan kuchli davlat arbobi va qobiliyatli sarkarda edi. U qo‘shinda harbiy intizomni mustahkamlaydi, Xitoy va Rossiya bilan diplomatik aloqalarni o‘rnatadi, harbiy yurishlar oldidan olinadigan soliqlarni bekor qiladi, yangi yerkarni o‘zlashtirish, suv inshootlarini qurish, irrigatsiya tizimini yaxshilash bo‘yicha bir qancha ishlar qiladi. Ammo Mallaxonning hukmronligi uzoq davom etmaydi. 1863-yil 25-fevralda Mallaxon fitna qurbanini bo‘ladi va 17 yoshli Shoh Murod taxtga o‘tqaziladi. Ayrim qo‘shin boshliqlari va bir guruh amaldorlar esa Shoh Murodga ham qarshi fitna uyushtirishadi va Xudoyorxonni yana taxtga taklif etishadi.


Shunday qilib, Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi arafasida yagona hudud va yagona madaniy makonda yashab kelgan xalq uch davlatga bo‘linib ketgan edi. Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari o‘rtasida o‘zaro kurash, turli nizolar avj olgan bo‘lib, bunday hol Turkiston tarixining keyingi rivojiga salbiy ta’sir o‘tkazadi.

XVIII acrning ikkinchi yarmi — XIX acr boshlarida Toshkent. XVIII acrning ikkinchi yarmida Toshkent Cebzor, Beshyog‘och, Shayxontohur va Ko‘kcha singari mustaqil dahalaridan iborat edi. 1794-yilda daha hokimlari

o‘rtasida shahar hokimligi uchun kurashda Yunucxoja g‘olib chiqadi va mustaqil Toshkent hokimligiga asos soladi.

1799-yilga kelib Turkiston va uning atroflaridan Chu daryocigacha bo‘lgan yerlar, jumladan, Qorako‘l mavzei Toshkentga qo‘shib olinadi. Yunucxoja qozoq qabilalari bilan yaqin aloqada bo‘lgan. Yunucxoja qo‘smini asosan Katta juz qabilalaridan tuzilgan edi. Toshkent hokimligi Qo‘qon va Buxoro xonliklari, Orenburg va Cibir bilan bog‘laydigan karvon yo‘llari o‘tadigan Turkiston, Chimkent va Cayramni nazorat qilishga, Markaziy Ociyoning Roccyaning cavdo-iqtisodiy munocabatlarda etakchilik qilishga harakat qiladi. Shuningdek, Farg‘ona vodiycidan Rocciyaga boradigan karvon yo‘li ham Toshkentdan o‘tardi. 1799-yilda Qo‘qon xoni Olimxon qo‘sirlari Toshkentni bo‘ycundirish maqcadida yurish boshlaydi, ammo Yunucxoja qo‘sindan mag‘lubiyatga uchraydi. Shu bilan birga harbiy va iqtisodiy salohiyati jihatidan Qo‘qon xonligidan ancha zaif bo‘lgan Toshkent mustaqilligi uzoq vaqt mavjud bo‘lolmas edi. 1800-yilning kuzida Qo‘qon qo‘sirlari Yunusxoja qo‘sinlarini tor-mor qiladi. 1809-yilda esa, Toshkent Qo‘qon xonliliga to‘liq qo‘shib olinadi.

XIX asrning birinchi yarmidan Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoga harbiy ekspansiyasi kuchayib boradi. Yuzaga kelgan harbiy-siyosiy vaziyat Buxoro amiri, Xiva va Qo‘qon xonlarining umumiy dushmanqa qarshi kurashish uchun o‘zaro birlashishni talab etmoqda edi. Ammo Buxoro, Xiva va Qo‘qon hukmdorlari umumiy dushmanqa qarshi birlashmasdan, o‘zaro urushlar, ichki nizolar avj oladi. Bular esa Rossiya istilosining muvaffaqiyatiga xizmat qiladi.



Savol va topshiriqlar

- 1.Buxoroda Muhammad Rahimbiy hukmronligi o‘rnatilishiga qanday ichki va tashqi omillar ta’sir ko‘rsatgan.
- 2.Amir Shohmurod va uning vorislari davrida Buxorodagi ichki siyosiy vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlarini yoriting.
- 3.Qo‘qon xonligining vujudga kelgan vaqtidagi siyosiy vaziyatga baho bering.
- 4.XIX asrning birinchi choragida Buxoroda bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olonlar sabablari va oqibatlarini yoriting.
- 5.XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligi va Xiva xonligi munosabatlari keskinlashuvining sabablarini aniqlang.
- 6.Qanday sabablarga ko‘ra Xiva xonligida qo‘ng‘irotlar sulolasini hokimiyatga kelgan?
- 7.XIX asrning birinchi choragida Qo‘qon va Buxoro amirligi munosabatlari keskinlashuvi sabablarini yoriting.

8. Amir Nasrulloxonning Qo‘qonga yurishlari va Xudoyorxonning birinchi xonligi davrida qipchoqlar mavqeining kuchayishi o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishni aniqlang.

9. Yunucxoja hukmronligi davrida Toshkent hududlari aniqlang.

11 – §. XIX asrda o‘zbek xonliklarida siyosiy boshqaruv, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot

O‘rta Osiyodagi hududiy va siyosiy bo‘linish. XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarining iqtisodiy hayotida ijobiy o‘zgarishlar ro‘y beradi. Ammo mintaqaning o‘zaro birlashuviga uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar zaif edi. Mahalliy hokimlar va markaziy hokimiyat o‘rtasida qurolli nizolar doimiy davom etib turgan. Shahrisabz hokimlarining Buxoro amiriga, Orolbo‘yi o‘zbeklarining Xiva xonligiga qarshi harakatlari, Jizzax va O‘ratepa hokimlarining goh Buxoroga, goh Qo‘qonga yon bosishlari bilan bog‘liq o‘zaro urushlar iqtisodiy barqarorlikni yo‘qqa chiqarar edi.

Buxoro amirligining markazi unumdor tuproqli va suvga boy Zarafshon vodiysi bo‘lib, unda Samarqand va Buxoro joylashgan edi. Shuningdek, amirlikka Nurota va Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi Chorjo‘y, Qarshi, Karki yerlari ham tegishli bo‘lgan. Bu davrda Buxoro amirligi Qunduz, Andxuy, Shibirg‘on va Balx yerlaridan mahrum bo‘lgan edi.

XIX asrning birinchi yarmi davomida Buxoro amirlari hududlarni kengaytirishga har qancha urinmasinlar, ammo maqsadlariga erishmaydilar: vayron qilingan va istilo qilingan Marv uzoq vaqt Xiva xonlari bilan talash bo‘ladi. Marv oxir oqibatda Xiva xonlari tasarrufiga o‘tadi. Qo‘qon xonligidan tortib olingan hududlar ham yo‘qotiladi.

Xiva xonlarining ham davlat sarhadlarini kengaytirish uchun olib borgan kurashi muvaffaqiyatsiz yakun topadi. Xiva xonlarining hokimiyati shimoliy Xuroson (hozirgi janubiy Turkmaniston) mustahkam bo‘lmagan. Marv va uning atrofi Buxoro amirligi tomonidan tan olinmagan, bu doimiy urushlarga sabab bo‘lgan. Turkman qabilalarining aksariyati esa Xiva xonlari va Buxoro amirlari hokimiyatini to‘liq qabul qilavermagan. Xiva xonligini shimoliy qismi – Orolbo‘yi hududlari ham notinchlik manbai bo‘lib, bu yerlarda yashovchi orolbo‘yliklar, qozoqlar va qoraqalpoqlar qo‘zg‘olonlar ko‘tarib turishgan.

O‘rta Osiyo davlatlari orasida eng yoshi bo‘lgan Qo‘qon xonligining o‘z hududlarini kengaytirishga intilishi bu vaqtda bir muncha muvaffaqiyatli kechdi. Agar XVIII asr boshlarida Qo‘qon hududlari asosan Farg‘ona va Xo‘janddan iborat bo‘lsa, Olimxon (180–1809) hukmronligi yillarida Toshkent va Chimkent qo‘shib olinadi. Umarxon esa (1809 – 1822) Turkistongacha bo‘lgan hududlar, Sirdaryo atrofidagi yerlarni ham istilo etadi. Qo‘qon xoni hukmronligi Ettisuvning katta qismida o‘rnataladi. Strategik ahamiyatga ega bo‘lgan Jizzax va O‘ratepa uchun Buxoro bilan Qo‘qon o‘rtasida urushlarda goh u tomon, goh bu tomonning qo‘li baland keladi. Qorategin va Davozni bo‘ysundirishni ham qat’iy muvaffaqiyat deb bo‘lmasdi, Chunki mahalliy hokimlar xonga doimo bo‘ysunishgan. Qo‘qon xonlari Sharqiy Turkiston hisobiga o‘z yerlarini kengaytirishga intilishadi. Ammo u erda manchjurlar hukmronligi o‘rnataladi.

Buxoro amirligi hududi, aholisi va boshqaruv tizimi. O‘rta Osiyo xonliklari ichida Buxoro amirligi aholisining ko‘pligi, iqtisodiy va harbiy salohiyati bilan ajralib turar edi. XIX asr boshlarida Buxoro amirligi hududi taxminan 200 ming kv. km. bo‘lib, uning tarkibiga Zarafshon, Qashqadaryo, Surxon vohasi, Xo‘jand, Hisor, O‘ratepa, Panjikent va Janubiy Turkmaniston kirgan. Buxoro amirligi janubda, janubi-g‘arbda Eron va Afg‘oniston, G‘arbda Xiva xonligi, Shimolda qozoq juzlari va Qo‘qon xonligi bilan chegaradosh edi.

Buxoro amirligi ma'muriy jihatdan viloyatlarga bo'lingan bo'lib, ularni amir tayinlagan hokimlar va beklar boshqargan. Viloyatlar esa tumanlarga bo'lingan. Said Olimxon o'zining "Buxoro xalqining hasrati tarixi" asarida Buxoro amirligining davlat ma'muriy-hududiy bo'linishi xususida shunday yozadi: "Buxoro mamlakati 28 ta viloyat (bog'ot) ga bo'linar edi. Eng katta viloyatlarga amirning o'zi hokimlarni tayinlar edi. Bu viloyatlarga Nurota, Qorako'l, Boysun, Hisor, Dehnov, Qo'rg'on, Boljuvon, Ko'lob, Qubodiyon, Darvoz, Ro'shon, Samarqand, Miyonqol, Farob, Urmeton va Maschohlar kirar edi. Valiahdga qarashli mulk Qarshi hisoblanar edi."

Amirlik aholisi 2,5 mln. kishini tashkil etgan. Aholining etnik tarkibi o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, arablar, qoraqalpoqlar, qozoqlar, eroniylar, kam sonli yahudiylar, lo'lilar, hindlar, qalmiqlardan iborat edi. Islom dinida bo'limganlar, xususan, hindlar va yahudiylarning huquqlari juda cheklangan.

O'zbeklar aholining katta qismini tashkil etgan. Tojiklar Buxoro, Samarqand, Nurota, Urgut, Kitob, tog'li tumanlarda, Panjikent, Vaxsh, Hisor, Qorategin, Ko'lob, Shahrисabz, Qobadiyon va Yakkabog'da yashashgan. Turkmanlar Amudaryo atrofidagi yerlarda, kams onli arablar esa asosan Qarshi va Sherobodda yashashgan.

O'troq aholining aksariyati dehqonchilik, bog'dochilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Qishloq xo'jaligida paxta, bug'doy, sholi, jo'xori va boshqa mahsulotlar etishtirilgan. Chorvachilikda qorako'lchilik, hunarmandchilikda zargarlik, o'ymakorlik, zardo'zlik, temirchilik rivojlangan.

Amirlikda ishlab chiqaruvchi kuchlar rivoji o'sha davrdagi ilg'or mamlakatlarga nisbatan ancha orqada bo'lgan. Aholi turmush darajasi ham past bo'lib, bunga turli soliqlarning ko'pligi va o'zaro urushlar sababchi edi. O'rta asrlarga xos tartiblar, diniy mutaassiblik, feodal ishlab chiqarish munosabatlari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojidagi asosiy to'siq edi.

Buxoro amirligi mutlaq monarxiya bo'lib, amir cheklanmagan hokimiyatga ega edi. XIX asr boshlariga siyosiy tarqoqlikka qarshi kurashish, markazlashgan davlatning ijtimoiy tayanchini yaratish maqsadida amaldorlar tabaqasi

shakllantirishga katta e'tibor qaratildi. Bu vaqtda davlat xazinasidan maosh olib turgan amaldorlar soni o'sdi. Amir saroyida 300 dan ortiq amaldorlar xizmat qilgan bo'lsa, mahalliy ma'murlar 30000 kishini tashkil etgan. Ya'ni, davlat amaldorlari markaziy hokimiyat kuchayishidan manfaatdor bo'lib, ular markaziy hokimiyat zaiflashishidan manfaatdor bo'lgan mahalliy hokimlar, beklarga qarama qarshi turuvchi kuch sifatida shakllandı.

Buxoro amirligida amaldorlar vazifalari o'zgarib turgan, ular harbiy yurishlarda ham ishtirok etishgan. Chunki Yevropaning rivojlangan davlatlaridan farqli ravishda, davlat amaldorlari, hokimlar, soliq yig'uvchilar, qozilar va boshqa mansabdor shaxslarning faoliyatları va vazifalarini aniq belgilovchi qoidalar ishlab chiqilmagan edi.

Amir huzurida ba'zida Davlat kengashi ham chaqirilib turilgan. Besh nafardan yigirma nafargacha amaldorlardani iborat ushbu kengashda eng muhim masalalar ko'rib chiqilgan. Kengashda qozikalon, shayxulislom, naqib va rais ham qatnashgan.

Buxoroda davlat boshqaruvi mang'itlar hukumronligi davrida ham kuchli o'zgarishlarga uchramagan. Garchand, oliy hukmdor amir unvoni bilan hokimiyatni boshqargan bo'lsada, ammo boshqaruv tizimi shayboniyalar va ashtarxoniyalar davridagidan unchalik farq qilmagan.

Amirlikda eng yuqori davlat mansablariga amir mansub bo'lgan mang'itlardan tayinlangan. Saidlar, xo'jalar va ulamolar ham davlatdagı yuqori unvonlar va mansablarni egallahsgan. Eng yuqori davlat amaldori qushbegi, ya'ni bosh vazir edi. Viloyat va tuman hokimlari ham qushbegi tavsiyasiga binoan tayinlangan. Amirning ikkinchi vaziri qushbegi poyon (mir poyon) bo'lib, unga yasovulboshi, miroxo'r boshi, xazinachi, mirzalar, bakovulboshi va zakotchilar bo'ysungan.

Buxoro amirligida davlat boshqaruvi devonbegi – vazir vakolatlariga ega bo'lgan bevosita moliya va soliqlarni yig'ish uchun mas'ul shaxs, amirga doimo hamroh bo'lib yuruvchi hidoyachi, ko'kaldosh – (xon bilan bir onadan sut emgan kishi) xufiya ma'lumotlarni amirga etkazish bilan shug'ullangan, mushrif – xonga

in’om etilgan sovg‘alar va harbiy anjomlar ro‘yxati bilan mashg‘ul bo‘lgan, mirshabboshi – shaharlarda jamoatchilik xavfsizligiga javobgar, tungi qorovullar boshlig‘i, mirob – suv ta’mnotiniga javobgar amaldor, miroxo‘r – amirning ovlarini tashkil etishga mutasaddi, dasturxonchi – amir dasturxoniga, ziyofatlarga mas’ul, to‘qsobo – amir tug‘iga mas’ul harbiy mansabdor, parvonachi – amir farmonlarini etkazishga mas’ul amaldor, muftiy – qozi huquqiy masalalar, qonunlar bo‘yicha shug‘ullanuvchi amaldorlar va boshqalardan iborat bo‘lgan.

Amirlikning siyosiy hayotida Muhammad payg‘ambar, xalifalar, arab sarkardalarining avlodlari – saidlar, xo‘jalar, shayxlar, eshonlar va diniy ulamolarning roli kuchli edi. Ular davlat faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, juda katta er-mulkka, do‘konlarga, hunarmandchilik ustaxonalariga ega bo‘lishgan.

XIX asrning birinchi yarmida amirlikda oliy diniy mansab shayxulislom hisoblansada, ammo bu davrda uning vazifalari biroz toraygan edi. XIX asr o‘rtalaridan qozikalonning nufuzi kuchayadi. Amirlikda barcha fuqarolik, xo‘jalik va jinoiy ishlari shariat qonunlari, fiqh (islom huquqi) asosida ko‘rib chiqilgan va jazolar tayinlangan. Qozikalon davlatning oliy qozisi (sudyasi) bo‘lib uning huzurida a’lam va 12 muftylardan iborat devon faoliyat yurgizgan. Qozikalon poytaxtning bosh qozisi bo‘lib, ayni vaqtda, u barcha qozilar boshlig‘i vazifasini ham bajargan. Shu boisdan, odatda qozikalon tomonidan qozilar tayinlangan. Ushbu lavozimlarni faqat madrasa ta’limini olgan shaxslar egallashi mumkin bo‘lgan. Ammo, ba’zida qozilik lavozimi (ayrim boshqa lavozimlar ham) avloddan-avlodga meros tariqasida o‘tgan. Bunday hollar esa, boshqaruva tizimining sifatiga salbiy ta’sir etgan.

XIX asrning 30-yillarida Amir Nasrullo doimiy qo‘shin tuzadi. Harbiy boshqaruva bilan amiri lashkar, dodxoh (qo‘shin boshlig‘i), to‘qsabo, mingboshi shug‘ullangan. Ularga ponsadboshi (besh yuz askar etakchisi), yuzboshi, ellikboshi, o‘nboshilar bo‘ysungan. Urushlar vaqtida viloyatlar, bekliklardan yig‘iladigan askariy qismlarga esa mahalliy hokimlar, beklar bosh bo‘lishgan.

O‘sha davrdagi ilg‘or mamlakatlarga nisbatan qo‘shinning jangovarlik darajasi past bo‘lgan, askarlar pilta miltiq, o‘q-yoy, nayza, qilich, xanjar,

oyboltalar bilan qurollangan. Qo'shinda kichik to'plar ham mavjud bo'lgan. Amir qo'shini harbiy ta'lim ko'rgan, harbiy texnikasi yuqori, harbiy intizomi kuchli Yevropa qo'shinlaridan orqada edi. Davlatning yillik daromadi 2 mln. 300 ming so'm bo'lgani holda, uning 1 mln. 300 ming so'mi qo'shinni saqlashga sarflangan. Askarlar ko'proq jismoniy mehnat bilan band bo'lib, oziq-ovqat va kiyim-kechak etishmasligidan dezertirlik hollari ham uchrab turgan.

Xiva xonligining hududiy, ma'muriy tuzulishi, etnik, siyosiy va iqtisodiy tavsifi. Xonlikning aniq chegaralari haqida ma'lumotlar saqlanmagan. Ammo XIX asr o'rtalariga oid rus manbalarida Xiva xonlikning g'arbiy chegarasi Kaspiy dengizigacha, janubda esa Marv vohasi orqali Eronga tutashib ketganligi, shimolda esa Ural daryosigacha cho'zilganligi qayd etiladi. Xiva xonligi janubda Eron, sharqda Buxoro amirligi, g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Xiva xonligi hozirgi Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qozog'iston va Turkmanistonning bir qismini o'z ichiga olgan. Xonlikning yirik shaharlari Xiva, Kat, Yangi Urganch, Xazorasp, Gurlan, Mang'it, Qo'ng'iroq, Xo'jayli, Kardar (Hozirgi Chimboy) edi. Xiva xonligi ma'muriy jihatdan bekliklarga bo'lingan, ular beklar va to'ralar orqali boshqarilgan.

Aholi taxminan 800 ming kishidan iborat bo'lib, xonlikda o'zbeklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va kam sonli forslar ham yashagan. Aholining ko'pchilagini o'zbeklar tashkil etgan. Turkmanlar esa aholining to'rtadan bir qismini tashkil etgan. Qoraqalpoqlar dehqonchilik, chorvachilik va baliqchilik bilan shug'ullanishgan. Xiva xonligining shimoliy qismida qozoqlar yashagan.

XIX asrning o'rtalariga kelib xonlikda iqtisodiy hayotning birmuncha rivojlanishi natijasida shahar aholisi ko'payib borgan. Bu vaqtida xonlikning yirik shaharlari Xiva, Xazorasp, Xonqa, Yangi Urganch, Ko'hna Urganch va Qo'ng'iroq edi. Poytaxt Xivada 20 mingdan ortiq kishi yashagan.

Aholining aksariyati dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Xonlik hayotida o'zbeklarning qo'ng'iroq, nayman, qiyot, nukuz, uyg'ur, qangli, xitoy va qipchoq qabilalari etakchilik qilgan.

Xiva xonligida davlat tili o‘zbek tili bo‘lib, Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligidan farqli ravishda barcha davlat hujjatlari o‘zbek tilida yuritilgan.

Muhammad Rahim I (1806 – 1825) davrida o‘zaro urushlarning biroz kamayishi xonlikda islohot o‘tkazishga imkon beradi. Soliqlar tartibga solinishi, bojxona joriy etilishi va oltin tanga zarb etilishi iqtisodiy hayotga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

O‘rta Osiyodagi boshqa feodal davlatlar singari Xiva xonligi ham cheklanmagan mutlaq monarxiya tipidagi davlat edi. Xiva xonligi boshqaruva tizimining o‘ziga xosliklardan biri shunda ediki, unda xon huzurida Oliy Kengash doimiy faoliyat yurgizgan. Oliy Kengash majlislari xon tomonidan chaqirilgan va unda davlat ahamiyatiga molik muhim masalalar ko‘rilgan.

Xiva xonligida ham Buxoro, Qo‘qon singari qulchilik mavjud bo‘lgan. Qullar asosan forslar, ruslar va tatarlardan iborat bo‘lgan.

XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligida qushbegi eng nufuzli shaxs bo‘lgan bo‘lsa, Rossiya istilosiga arafasida devonbegi birinchi amaldor darajasiga chiqqan. Bu davrda inoq lavozimi o‘zining oldingi ahamiyatini biroz yo‘qotib, unga xoning yaqin qarindoshlari ega bo‘lishgan. 1873 – yilda inoqlar ichida eng kattasi “amir-ul-umaro” unvonida Xazoraspni boshqargan. Shuningdek, yuqori saroy mansablari qo‘shtebegi (moliya va soliq ishlariga mas’ul), mehtar (saroy xizmatkorlarining boshlig‘i), beklarbegi (ko‘chmanchi qabila oqsoqollarining faxriy unvon, soliqlarni xazinaga topshirishni nazorat qilgan), to‘ra – xon farzandlari, eshikog‘asi (xon qo‘riqchisi), mahram (xonning yaqin odamlari, xon maslahatchilari) lardan iborat edi. Oliy mansabdorlarining ba’zilari soliqlardan to‘la ozod qilingan.

Xiva xonligi ma’muriy-hududiy jihatdan Ko‘na Urganch, Yangi Urganch, Xazorasp, Gurlan, Xonqa, Qo‘shtebegi, Shohabbos, Pitnak, G‘azovot, Qiyot, Shovot, Toshhovuz, Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot bekliklari va noibliklariga bo‘lingan. Xiva noibligini xon va bosh vazir idora etgan.

Xiva xonligida qo'shin taxminan 40 ming kishidan iborat bo'lib, navkarlar oilalari soliqlardan ozod etilgan. Askarlar pilta miltiq, qilich, o'q-yoy va nayzalar bilan quollangan, shuningdek, qo'shinda to'plar ham bo'lган.

Qo'qon xonligining hududiy, ma'muriy tuzilishi, etnik, siyosiy va iqtisodiy tavsifi XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligi hududiy jihatdan O'rta Osiyodagi yirik davlat bo'lib, uning yerlari shimolda qozoq juzlari (bu vaqtda ular Rossiya imperiyasi tarkibida edi), Sharqda Sharqiy Turkiston, g'arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh edi. Janubiy hududlar esa, Qorategin, Ko'lob, Sho'g'non va Darvozdan iborat edi.

Qo'qon xonligining tabiiy-geografik xususiyatlaridan biri shunda ediki, uning hududlari tog' daryolari, vodiy yerlaridan iborat bo'lib, yerlarni sug'orishda suvni yuqoriga chiqarib beradigan, juda katta quvvat talab qiladigan chig'irlarga ehtiyoj yo'q edi. XIX asrning ikkinchi yarmida Qo'qon xonligining aholisi taxminan 3 million edi. Sug'orma dehqonchilik Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysida olib borilgan. Sahro, tog' va tog' oldi hududlarida yashovchi aholi esa ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi tarzda turmush kechirgan.

Qo'qon xonligi bekliklar, viloyat va sarkorlik kabi ma'muriy-hududiy birliklarga bo'lingan bo'lib, ularni xon tayinlagan beklar, hokimlar va sarkorlar boshqarishgan. Mahalliy boshqaruv asosan xonning yaqinlari, hukmron tabaqa vakillari va nufuzli qabila boshliqlaridan shakllantirilgan, bunda mansabdorlikka nomzodlarning (Xitoydan farqli ravishda) maxsus bilimlarga egaligi, boshqaruv malakalariga e'tibor berilmagan. Xudoyorxon davrida ettita beklikni xonning o'g'llari va yaqin qarindoshlari boshqarishgan. Viloyat hokimlari ham tumanlarni o'zlarining farzandlari va qarindoshlari orqali boshqarish an'analariga ega bo'lishgan. Mahalliy hokimlar o'zlarining qo'shinlariga ega bo'lib, ular zarur vaqtda xon buyrug'iga ko'ra belgilangan joyga etib kelishi lozim edi.

Qo'qon xonligi aholisining etnik tarkibi xil bo'lib, uning ko'pchiligin o'zbeklar tashkil qilgan. Shuningdek, xonlikda tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar va boshqa elat vakillari ham yashagan. Manbalarga ko'ra XIX asr boshlarida Xitoy tazyiqi sababli ba'zi qirg'iz, qozoq urug'lari, uyg'urlar va

qalmoqlar Farg‘ona vodiysiga ko‘chib kelishgan. Shuningdek, xonlikning ayrim joylarida kam sonli arablar, lo‘lilar, hindlar va afg‘onlar ham yashashgan.

Qo‘qon xonligida davlat boshqaruvi Buxoro va Xiva xonligidan unchalik farq qilmagan. Xon huquqlari hech qanday huquqiy me’yorlar va qonunlar bilan cheklanmagan. Xon avlodlari xonzoda, to‘ra deb ulug‘langan. Garchand siyosiy hokimiyat mutlaq monarxiyaga asoslangan bo‘lsada, ammo muayyan vaqtarda xon hokimiyati nominal ahamiyatga ega bo‘lib, ayrim saroy amaldorlari, qo‘shin boshliqlarining xonga ta’siri kuchli bo‘lgan. Siyosiy boshqaruvda xondan keyingi mansabdar shaxs vazir bo‘lib, u xondan mustaqil ravishda qarorlar qabul qilish huquqiga ega bo‘lmagan. (Keyinchalik vazir vakolatlari mingboshiga o‘tgan). Markaziy davlat boshqaruvi mingboshi, otalik, devonbegi, shayxulislom, qozikalon, parvonachi, shig‘ovul, sarkor, inoq, dasturxonchi, yasovulboshi qo‘lida to‘plangan bo‘lgan. Qo‘qon xonligidagi asosiy saroy mansablari – otaliq (xon farzandlarining murabbiyi), biy (qabila boshliqlari), devonbegi (xon devonining boshlig‘i), xazinachi (xon xazinasiga javobgar shaxs), inoq (xonning xos va sirdosh mulozimi), eshikog‘asi (xon soqchisi, xon qabuliga mas’ul shaxs), parvonachi (xonga kelgan xatlar va arizalarga mas’ul shaxs), dodxoh (fuqarolar manfaatini bayon etish huquqiga ega bo‘lgan amaldor), saroy qorovulbegisi (xon o‘rdasi soqchilarining boshlig‘i), dasturxonchi (xon dasturxoniga mas’ul), tunqator (tundagi xon soqchisi), oftobachi (xonning yuvinishi va taharatida xizmat qiluvchi), hidoyatchi (xonga yuborilgan sovg‘alarni qabul qiluvchi), shig‘ovul (elchilar va choparlarni xon huzuriga boshlab keluvchi), sarkor (saroy amaldorlarining boshlig‘i, xonga tegishli shifoxonalar, korxonalar va qurilishlarni ham nazorat qilgan), mirishkor (ovda xonga hamrohlik qiluvchi, ovga tegishli barchap narsaga javobgar shaxs), salomog‘asi (xon nomidan xalqqa salom beruvchi, kitobdor (saroy kitobxonasi uchun javob beradigan amaldor), risolachi (elchilar va ularning xat-xabarlariga javob berish uchun mas’ul bo‘lgan saroy amaldori), jarchi (xon farmonlarini e’lon qiluvchi), chopquchi (saroy ahli uchun pichoq, xanjar qilich yasovchi), shotir (odamlarni xon kelishidan ogohlantirib,

ularni ta’zimga chaqiruvchi), udaychi (xon oldida yurib unga baland ovoz bilan hamdu sano aytib boruvchi) lardan iborat edi²².

Qo’shinga mingboshi rahbarlik qilgan, keyinchalik uning vakolati kengayib bosh vazir vazifasi ham o’zlashtirilgan. Qo’shin beshyuzboshi (ponsad), yuzboshi va o’nboshi singari harbiy unvon sohiblari tomonidan boshqarilgan. Qo’qon xonligi qo’shining qurollanishi o’rta asrlar darajasida bo‘lib, askarlar qilich, nayza, piltali miltiq va o’rta asrlarga xos to‘plar bilan qurollangan edi.

Musulmon davlati sifatida Qo’qon xonligida ham ruhoniylar yuqori nufuzga ega qatlam sifatida katta imtiyozlarga ega bo‘lgan. Shayx ul-islom (oliy diniy unvon), xoja kalon (fikh olimi), sudur (vaqf daromadlariga mas’ul), o’roq (vaqf yerlarining xiroj va soliqlariga mas’ul), qozi kalon (qozilar faoliyatining nazoratchisi), qozi askar (qo’shin qozisi, “harbiy qozi”) singari diniy mansablar mavjud bo‘lgan. Muhtasib-raislar bozorlarda narx va savdo-sotiqni nazorat qilishgan, mirshablar esa jamoatchilik tartibini ta’minalashgan.

Xonliklardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot. XIX asrda O’rta Osiyo xonliklari iqtisodiyotining negizini sug’orma dehqonchilikka asoslangan qishloq xo’jaligi tashkil qilgan. Asosiy boylik er bo‘lib, ekin maydonlar va yaylovlarning asosiy qismi xon, uning qarindoshlari, hukmron doiralarga, yirik ruhoniylarga tegishli bo‘lgan. Ko‘pchilik dehqonlar yirik mulkdorlardan erni ijara olganlar. Ular ijara uchun hosilning 1/5 yoki 1/3 qismini to‘lashga majbur bo‘lishgan.

Amir eng katta er egasi bo‘lib, Buxoroda er egaligining to‘rt turi: davlatga tegishli yerlar (mulki sultoniy), xususiy yerlar, diniy muassasalarga tegishli (vaqf) va qishloq jamoalariga tegishli yerlar mavjud bo‘lgan. Davlatga tegishli yerlardan dehqonlar hosilning katta qismini tashkil etgan xiroj solig‘ini to‘lashgan.

Amirlikdagi xususiy yerlarni cheklashlarsiz meros qilib qoldirish mumkin bo‘lgan. Amirlikda dehqonlar foydalanadigan yerlar mulki xiroj deb atalgan. Mulki xiroj egalari erni sotish, meros qoldirish va hadya qilish huquqiga ega bo‘lgan. Bunday yerlardan hosilning uchdan biridan to beshdan birigacha bo‘lgan.

²² Bu haqda qarang: Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. Т., 2016.

Vaqf yerkari machitlar, mozorlar, xonaqo, madrasalarga er maydonlarini meros qoldirish va ehson qilish natijasida vujudga kelgan bo‘lib, u er egaligining alohida shaklini tashkil etgan. Ushbu yerlardan keladigan foydani vaqf egalari avlodlaridan tayinlanadigan mutavalli taqsimlagan.

Buxoro amirligida aholining sakson besh foizi dehqonchilik va chorvachilikda band bo‘lgan. Sug‘oriladigan va lalmi yerkarda bug‘doy, arpa, jo‘xori, poliz va sabzavot mahsulotlari etishtirilgan, bog‘dorchilik va sholikorlik ham yaxshi rivojlangan.

XIX asrning boshidan O‘rta Osiyo xonliklarida qishloq xo‘jaligida paxta etishtirish o‘sib bordi. Paxtaning asosiy qismi Rossiyaga sotilgan va Buxoro paxtasining narxi baland bo‘lgan.

Xo‘jalik hayotida chorvachilik ham rivojlangan. Tashqi bozorda qorako‘l terilariga talab yuqoriligi bois qorako‘lchilik va yilqichilik ham kuchli taraqqiy etgan.

Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarida erga egalik qilish shakllari juda o‘xhash bo‘lib, ular amlok – davlat eri, mulk – xususiy yerkaralar, masjid va madrasalar, diniy muassasalarga tegishli – vaqf yerkardan iborat bo‘lgan. Xiva xonligida ham asosiy er fondi hukmron tabaqaga tegishli bo‘lib, unda dehqonlarning katta qismi ijarador (“yarimchi”) sifatida mehnat qilishgan. Katta amaldorlar va yuqori lavozimdagagi harbiylarga katta miqdordagi yerkaralar bilan ta’minlangan. Aholi xiroj, zakot, tuz, mulk, suv, tegirmon, tomorqa, bog‘ solig‘i va boshqa bir qancha soliqlarni to‘lagan. Xonliklarda dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar va savdogarlar asosiy soliq to‘lovchi bo‘lib, manbalarda qayd etilishicha, xonliklarda 60 dan 90 gacha turdagagi soliqlar undirilgan. Xiva xonligida asosiy soliq “solg‘it” bo‘lib, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi qabilalar zakot, yaylovlari va suvdan foydalanganligi uchun ham turli soliqlar to‘lashgan. Shuningdek, dehqonlar soliqlari va turli to‘lovlardan tashqari kanallar qazish, suv inshootlari, yo‘llar, ko‘priklar qurishda hamda ularni ta’mirlash ishlarida tekinga ishlab berish majburiyatini ham o‘tashgan, bunday ishlar hashar yo‘li bilan bajarilgan. Qo‘qon xonligida ham sug‘orish inshootlari yaxshilangan, ariq va

kanallar kengaytirilgan. Xonlikda erga egalik qilishning mulki sultoniy (davlat yerlari), xususiy yerlar (xon va uning qarindoshlari, yirik amaldorlar va yuqori lavozimdagи harbiylar, yirik diniy ulamolarga iqto', suyurg'ol va tanho shakllarida berilgan yerlar), vaqf (diniy mahkamalar, xonaqolar, madrasa va masjidlarga qarashli yerlar), qishloq jamoalari va dehqonlar egalik qiladigan yerlar mavjud edi. Dehqonlar aksariyati yersiz bo'lib, ular ijaraga olingan yerlarda ishlash orqali kun kechirishar edi.

Xiva xonligida sun'iy sug'orish inshotlari, irrigatsiya tizimi faoliyatini ta'minlash davlat tomonidan olib borilgan. Chunki iqtisodiyotning asosiy tarmog'i bo'lgan dehqonchilik sun'iy sug'orishga asoslangan, davlat daromadi esa dehqonlardan yig'iladigan soliqlar hisobiga shakllangan. Suv xo'jaligini miroblar boshqarishgan. Xonliklarda ishlab chiqarish sohalari o'rta asrlar darajasida bo'lsa ham, ammo dehqonchilik madaniyati juda yuqori edi. Qishloq xo'jaligida asosan bug'doy, arpa, sholi, jo'xori, mosh, kunjut, no'xat, loviya, suli, beda va boshqa ekinlar etishtirilgan, shuningdek, polizchilik, bog'dorchilik va chorvachilik ham taraqqiy etgan.

XIX asrda O'rta Osiyo xonliklarida qo'l mehnatiga asoslangan hunarmandchilik ham rivojlangan. Hunarmandchilikda nafaqat sohaviy, balki hududiy mehnat taqsimoti shakllangan, ya'ni hunarmandchilik markazlari mahalliy xususiyatlarga asosan ixtisoslashgan edi. Masalan, Farg'ona shaharlarida atlas to'qish, pichoqchilik, do'ppichilik, Samarqandda qog'oz ishlab chiqarish, zargarlik, Buxoroda zardo'zlik, shishasozlik taraqqiy etgan.

XIX asrda siyosiy notinchliklar, o'zaro urushlarga qaramasdan xonliklarda ichki va tashqi savdo ham o'sib bordi. Xonlar, saroy amaldorlari va hokimlar ham o'zlarining ishonchli vakillari orqali savdoni moliyalashtirib turishganr. Tashqi savdo asosan Rossiya, Turkiya, Eron, Hindiston va Xitoy bilan olib borilgan. XIX asrda O'rta Osiyo xonliklarida Rossiya mollarining ulushi oshib borgan.

Xonliklardiagi madaniy hayot va uning xususiyatlari. XVIII asming oxirlardan O'rta Osiyo davlatlarida iqtisodiy hayotning birmuncha yuksalishi madaniy hayotga ham ta'sir ko'rsatdi. Bu vaqtida maktab va madrasa ta'limi

yuksaldi. Amirlik va xonliklarning barchasida madrasalar mavjud bo‘lib, ularda o‘qitish bir biridan deyarlik farq qilmagan. Vaqf mulklari orqali madrasalar moliyalashtirib turilgan. Odatda madrasalarni hukmdorlar, yirik amaldorlar, yirik din peshvolari va boy savdogarlar qurdirishgan. Madrasa ta’limi diniy bilimlar (Qur’oni Karim, hadislar, fiqh) bilan birga arab grammatikasi, tilshunoslik, adabiyot, tarix, mantiq, falakiyat, matematika, geometriya singari dunyoviy va aniq fanlarga oid bilimlar ham berilgan. Shuningdek, xonliklarda tibbiyot ilmi, geografiya, tabiatshunoslik ham taraqqiy etgan. Ammo aniq va tabiiy fanlar Yevropa fanidan ancha orqada qolgan edi. Ijtimoiy bilimlar sohalarida esa adabiyot va tarixnavislik ustuvor darajada rivojlangan. Kundalik-maishiy hayotda tibbiyot, me’morchilikda matematika va handasa, muhandislikdan foydalanilgan.

Qo‘qon tarixnavisligiga oid asarlar she’riy yoki qisman she’riy uslubda yaratilgan, ularning aksariyati hukmdorlarni madh etish, turli maqtovlardan iborat edi. Ammo mazkur asarlar o‘sha davr to‘g‘risida ma’lumot beruvchi qimmatli manbalar hisoblanadi. Shunday asarlar qatoriga Niyoz Muhammad Ho‘qandiyning “Tarixi Shohruhiy”, Mirza Olim ibn Mirza Raxim Toshkandiyning “Ansab-ul salotin va tavorix ul-xavoqin”, Otabek Fozil o‘g‘lining “Mufassal tarixi Farg‘ona”, Akmal Shermuhammad Xo‘qandiyning “Amirnoma”, Fazliy Farg‘oniyning “Umarnoma” va boshqa asarlarni kiritish mumkin.

O‘rta Osiyo davlatlarining barchasida me’morchilik, adabiyot, tarix, xattotlik va musiqa san’ati rivojlangan. Xususan, Buxoro amirligida ham me’morchilik va adabiy muhit taraqqiy etgan. Bu davrda Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Qarshi, G‘uzor, Kattaqo‘rg‘on va Dehnovda masjid va madrasalar bunyod etilgan. Buxorodagi Domullo Tursunjon madrasasi, Xudoydod me’moriy majmuasi, Ernazar elchi madrasasi, Qarshidagi Ali va Mir Muhammad madrasalari shular jumlasidandir.

XIX asr boshlaridagi Buxoro adabiy muhitining yirik vakillari shoir Hoziq, shoir Mujrim, Shavqiy (Muhammad Sharif), “Chor darvish”, “Mafiloro”, “To‘tinoma” singari asarlar muallifi Mulla Qurbon Xiromiy va b. edi. Ular o‘z asarlarida xalqparvarlik,adolatparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini ilgari

surganlar, ijtimoiy hayotdagи adolatsizliklarini tanqid qilganlar va shu bois ularning ayrimlari quvg‘in qilingan. Shuningdek, Ahmad Donish, Ochili Murod Miriy Katta Qo‘rg‘oniylar ham adabiyotga oid asarlar yaratganlar.

Buxoroda tarixnavislik ham rivoj topgan bo‘lib, tarixiy asarlarning aksariyatida mang‘itlar sulolasining tarixi yoritilgan. Mullo Ibodullaning “Tarixi amir Haydar”, Muhammad Sharifning “Dostoni amironi mang‘it”, Mir Olim Buxoriyning “Fathnomai sultoniy”, Mirzo Abdulazim Somiyning “Dahmai shohon”, “Tarixi salotini mang‘itiya”, Muhammad Sharif ibn Muhammad Naqining “Toju tavorih”, Ahmad Donishning “Mang‘itlar xonadoni hukumdorlari tarixidan qisqacha risola”, Mirzo Sodiq Munshiyning “Mang‘it hukmdorlari tarixi” shular jumlasidandir.

Bu davrda hattotlik jadal rivojlandi. Xattotlar davlat va xo‘jalik hayotiga oid hujjatlarni tayyorlashda, turli asarlarni ko‘chirish, madrasa va masjidlarga Qur’oni karim oyatlari, hadislar va turli hikmatlarni yozish bilan shug‘ullanishgan.

Xullas, XIX asrda Turkiston xonliklarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida bir qator ijobjiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Lekin xonliklar iqtisodining raqobatbardoshlik darajasi past bo‘lgan. Ayni vaqtida siyosiy beqarorlik va o‘zaro urushlar ijtimoiy hayot sohalariga keskin salbiy ta’sir qilgan.

XIX asrda Xiva xonligida taxminan 1500 maktab va 130 ta madrasa faoliyat yuritgan. Faqat Xivaning o‘zida 22 ta madrasa bo‘lib, ular ichida Muhammad Rahimxon, Sherg‘ozixon, Rahmonberdibiy, Olloqulixon, Xoja Mahram, Fozilbek, Davlat Qorako‘z, Bekniyoz devonbegi madrasalari yuqori mavqe kasb etgan.

XIX asrda Xiva xonligida ham madaniyat sohalari bir necha yo‘nalishlarda rivojlandi. Madaniy hayot ravnaqi, eng avvalo, ta’lim, adabiyot, tarixnavislik, me’morchilik va amaliy san’atda namoyon bo‘ldi. Bu davrda Muhammad Rizo Ogahiy, Muhammad Niyoz Nishotiy, Muhammad Tabibiy, Munis, Komil Xorazmiy, Komdon, Murodiy va boshqa shoirlar yashab ijod etgan. Ularnig orasida shoir, tarixchi, tarjimon Muhammad Rizo Ogahiy (1809 – 1874) alohida o‘ringa ega bo‘lib, u 1832-yilda “Ta’vizul oshiqon” (“Oshiqlar tumori”) devonini tuzadi. Muhammad Rahimxon I buyrug‘i bilan Shermuhammad Munis (1778 –

1829) XVIII – XIX asrlarda Xiva xonligining tarixiga oid “Firdavs ul-iqbol” (“Baxtu saodat jannati”) nomli asarini yozadi. Munis vafotidan keyin ushbu asarni uning jiyani Ogahiy 1872-yilgacha bo‘lgan voqealar bilan nihoyasiga etkazadi. Shuningdek, tarixchi Bayoni (1859 – 1923) ham Xorazm davlatchiligi tarixiga oid “Shajarai Xorazmshohiy” nomli asarini yaratadi.

O‘rta Osiyoda Xorazm me’morchiligi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. XIX asrda Xiva xonligida ko‘plab me’morchilik binolari, xususan, saroylar, masjidlar, madrasalar, xonaqolar, karvonsaroylar va yopiq bozorlar bunyod etilgan. Xivadagi Ichon (ichki) va Dishon (tashqi) qal’a nodir me’morchilik namunasidir.

XIX asrda Qo‘qon xonligida markaziy hokimiyatning kuchayishi ishlab chiqarish sohalarining bir qadar rivojlanishiga olib keldi, iqtisodiy jonlanish esa, o‘z navbatida madaniy hayotga ham ta’sir etdi. Poytaxt Qo‘qon va boshqa yirik shaharlarda qurilishlar olib borilgan bo‘lib, bu vaqtida asosan madrasalar, masjidlar, xonaqolar, qalandarxonalar, bozorlar, yo‘llar, ko‘priklar va hammomlar qurilgan. Katta qurilishlar hukmdorlar, xon qarindoshlari, yirik amaldorlar, sarkardalar tomonidan olib borilgan. Bu davrda Umarxon, Muhammadalixon, Nodirabegim, Xudoyorxon, Sulton Sayidxon, Sulton Murodbek, Musulmonqli mingboshi va boshqalar bir qancha me’moriy obidalarni qurdirishgan. 1842-yil Qo‘qon shahrida 15 ta madrasa faoliyat yuritgan. XIX asr o‘rtalarida Toshkentda ham qurilish ishlari avj olgan, xususan, Hazrati Imom majmuasi, Baroqxon madrasasi ta’mirlangan, Mo‘yi muborak madrasasi va Tillashayx jome masjidi qurilgan.

O‘rta Osiyoning barcha xonliklarida hammomlar qurilishiga katta ahamiyat berilgan. Buni esa islom dini xususiyatlari bilan ham izohlash mumkin. Aholi turar joylari esa hududlar xususiyatlari ifodalangan. Kambag‘al va qashshoq aholi kapalarda, paxsa yoki guvaladan tiklangan, bolsiz, zax, derazasiz kichik uylarda yashagan. Bunday uylarda yorug‘lik shiftdagি tuynuk va kirib-chiqiladigan eshikdan tushgan. Derazali uylar ham mavjud bo‘lib, ularning derazasiga oyna o‘rniga qopqoq yopilgan yoki chiy bo‘yra tashlab qo‘yilgan.

O‘rta Osiyo xonlikari madaniy hayotining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – bu adabiyotning etakchi mavqega ega bo‘lganligi edi. Sharqda hukmdorlar azaldan

she’riyat bilan ham shug‘ullanishgan. Xususan, Qo‘qon adabiy muhitining yirik vakillaridan bir – bu “Amiri” taxallusi bilan g‘azallar bitgan Umarxon edi. Shuningdek, Qo‘qon adabiy muhitining etakchi namoyandalari Fazliy, Mushrif, Huvaydo, Gulxaniy, Maxmur, Muhammad Yunus Toib, Muhsiniy, Nasimiy, Xo‘qandiy, Pisandiy, Nodirabegim, Uvaysiy, Anbar otin, Zebuniso, Dilshodi Barno edi. Qo‘qon xoni Umarxon va uning xotini Nodirabegim adabiy muhitga homiylik qilishgan. Ularning homiyligida saroy shoirlari Fazliy va Mushrif Qo‘qon shoirlarining “Majmuat ush-shuar” nomli tazkirasini yaratdi.

Buxoroda ham bir qancha etuk shoirlar va tarixchilar ijod qilishgan. Shulardan biri Mirza Sodiq Munshiy bo‘lib, bugungi kungacha uning “Devon” asari etib kelgan. Shuningdek, amirlikdan o‘z davrining yirik olimi, faylasuf, musavvir, mohir diplomat, madaniyat arbobi, ma’rifatparvar Ahmad Donish (1827-1897) singari o‘z davrining etuk bilim sohibi ham etishib chiqqan. U amir Nasrullo topshirig‘i bilan Rossiyaning Sankt-Peterburg va Moskva kabi shaharlarida bo‘lib elchilik guruhida ishtirok etgan. Ahmad Donish “Buxorodan Peterburgga sayohat”, “Buxoroyi sharif mang‘it amirlari muxtasar tarixi”, “Navodir ul-vaqoe” (“Nodir voqealar”), “Manozir ul-kavokib” (“Sayyoralarning joylanishlari”) asarlarining muallifidir.

Xonliklarida musiqa, baxshichilik, qiziqchilik, masxarabozlik, askiyabozlik, qo‘g‘irchoq va dorbozlik ham rivojlangan. Xalq og‘zaki ijodining namunalarida insonparvarlik, insoniylik, vatanparvarlik,adolat, haqiqatgo‘ylik, birodarlik kabi hech bir zamonda, jumladan, hozirda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan yuksak qadriyatlar tarannum etilgan.

Savol va topshiriqlar

- 1.O‘rta Osiyodagi siyosiy bo‘linish va uning iqtisodiy hayotga ta’siri.
2. XVIII asr oxirlarida O‘rta osiyoda feodal tarqoqlik omillari va sabablari.
3. Nima uchun XIX asr boshlarida Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarida iqtisodiy rivojlanish mintaqaning birlashuviga zamin

yaratmadı? Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari ijtimoiy-iqtisodiy hayotida umumiy o‘xshashlik.

4. Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari ijtimoiy-iqtisodiy hayotida umumiy o‘xshashlik jihatlarini tahlil qiling.
5. XIX asrning boshlarida Buxoro amirligiga qaysi hududlar kirgan?
6. XIX asrda O‘rta Osiyo xonliklarining ishlab chiqarishning qaysi sohalari rivojlangan.
7. Buxoro amiriligi, Qo‘qon va Xiva xonliklari harbiy texnikasining holati.
8. XIX asrning boshlarida Xiva xonligidagi yirik shaharlar va qishloq aholisi asosan nimalar bilan shug‘ullanishgan?
9. XIX asrda Qo‘qon xonligidagi davlat boshqaruvi va uning asosiy xususiyatlari.
10. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida xonliklardagi madaniy hayotning o‘ziga xos jihatlarini yoriting.

12 – §. Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi. Milliy ozodlik harakati va jadidchilik

Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olish sabablari. Rossiya hukmdorlari XVI asrdan Turkiston bilan qiziqib kelgan va G‘arbiy Yevropa davlatlari singari Osiyoning boy mamlakatlari bilan savdo aloqalarini o‘rnatishga harakat qilgan. Podsho Ivan Grozniy davrida Rossiya hududlari Sharqdagi yerlar hisobiga 2,4 marta kengayadi: 1552-yilda Qozon, 1556-yilda Ashtarxon (Astraxan) va 1581 – 1590 yillarda Sibir xonliklari bosib olinadi. Rossiya 1700 – 1725 yillardagi Shimoliy urushdagi g‘alaba tufayli Yevropaning kuchli davlatlardan biriga aylanadi va Sharqqa oid siyosatini ishlab chiqadi. 1713-yilda Astraxanda turkman savdogari Xo‘ja Nafasning Amudaryo qumlarida oltin ko‘pligi haqida gaplari rus imperatori Pyotr I ni qiziqtirib qo‘yadi. 1715-yilda I.Buxgols, 1716 – 1717 yillarda knyaz A. Bekovich–Cherkasskiy harbiy

ekspeditsiyalari Xiva xonligiga yuboriladi. Ammo har ikkala harbiy ekspeditsiya muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. A. Bekovich–Cherkasskiy ekspeditsiyasi Sherg‘ozixonning hiylasi tufayli qirib tashlanadi. Biroq Pyotr I O‘rtta Osiyoga kirib borish rejasidan voz kechmaydi. U Florio Benevenini 1721 – 1724 yillarda Xiva va Buxoroda elchi qilib yuboradi. Elchi xonliklar parokandalikda ekanligi, ularni osonlikcha engish mumkinligi, oltin to‘g‘risidagi ma’lumotlar esa xato ekanligi to‘g‘risidagi xulosalarga keladi, shuningdek, tarixiy, geografik va etnografik ma’lumotlarni to‘playdi.

Rossiya imperiyasi XIX asr boshlarida Turkiya, Shvetsiya, Eron va Fransiyaga qarshi, 1853 – 1856 yillarda esa Qrim va Kavkaz urushlari sababli o‘zbek xonliklariga qarshi agressiv siyosat olib borolmaydi. Lekin Rossiya imperiyasining ekspansiyasi ko‘p vektorli bo‘lib, imperator Nikolay I (1825 – 1855) davrida ham Rossiya Sharqqa intilishdan to‘xtamaydi.

XIX asrda Rossiya G‘arbiy Yevropadan iqtisodiy rivojlanishda ancha orqada edi. Garchand 1861-yilda krepostnoy huquq bekor qilinsada, ammo mamlakatda yirik pomeshchik er egaligi saqlanib qolgan, dehqonlarning ko‘pchiligi yersiz edi. Rossiya kapitalizmi mana shunday sharoitlarda rivojlanadi. Ichki bozori zaif, Yevropa bozoriga chiqish imkoniyatlari bo‘lmagan rus sanoati uchun esa sanoat mahsulotlari sotiladigan bozor va arzon xom ashyo zarur edi. Rossiya tovarlari sifat jihatdan Yevropa tovarlari bilan raqobatlasha olmasdi. Shu bois rus tovarlari Yevropa bozorini emas, O‘rtta Osiyo bozoriga yo‘naltirish zarur edi. Demak, bozor va arzon xom ashyo muammosining echimi o‘zbek xonliklarining istilosi bilan bog‘liq bo‘lgan.

O‘rtta Osiyo uchun Angliya va Rossiya o‘rtasidagi raqobat. XIX asrda G‘arbiy Yevropaning yirik davlatlari xom ashyo resurslari va yangi bozorlar uchun dunyoni bo‘lib olish uchun kurash boshlanadi. XIX asrning 30–yillarida Angliya va Rossiya manfaatlari Turkistonda to‘qnashadi. Bu vaqtga qadar rus manufakturachilari O‘rtta Osiyo bozorida monopol holatda edi. Ammo rus tovarlariga nisbatan sifatli bo‘lgan ingliz tovarlari mintaqaga bozoriga kirib kela boshlaydi. Ya’ni, har ikkala mustamlakachi davlatga arzon xom ashyo, tabiiy

boyliklar va o‘z mahsulotlarini sotish uchun bozor kerak edi. Britaniya va Rossiya O‘rta Osiyoda josuslikni va harbiy-diplomatik missiyalarni kuchaytiradi. Britaniya O‘rta Osiyoga 1825-yilda M. Murkroft, 1832-yilda A. Berns, 1844-yilda I. Volf, 1843-yilda Xiva va Buxoroga J. Abbotni, 1842-yilda Buxoroga xonliklarga harbiy-texnik yordamni yo‘lga qo‘yish va ularni Rossiyaga qarshi harbiy ittifoq tuzishga undash maqsadida Ch. Stoddart va A. Konnolini yuboradi. Ammo inglizlar harakati samarasiz yakunlanadi. Hatto Buxoro amiri inglizlarning ba’zilarini zindonga tashlaydi va qatl ettiradi. Voqelar jarayonining bunday kechishi esa Rossiya manfaatlariga to‘la mos kelar edi.

Buyuk Britaniyaning O‘rta Osiyoda faol siyosat olib borolmaganligiga uning Afg‘onistonda mustahkam o‘rnashib qololmaganligi ham sabab bo‘ldi. Lekin shunga qaramasdan inglizlarning Ost – Indiya kompaniyasi O‘rta Osiyo bozoridan rus tovarlarini siqib chiqarishga harakat qiladi. Bundan xavotirga tushgan Rossiya hukumati harbiy harakatlarni faollashtiradi va natijada O‘rta Osiyoni egallash uchun harbiy-strategik raqobatda Angliyaga nisbatan iqtisodiy zaif, ammo harbiy islohotlar tufayli jangovar qo‘shinga ega bo‘lgan Rossiya g‘olib chiqadi.

Rossiya imperiyasining Turkistonga harbiy yurishi boshlanishi. Turkistonni istilo qilish imperator Aleksandr II 1859- va 1861-yillardagi kengashlarda muhokama qilingan. 1864-yilning mayida Qo‘qon xonligiga Verniy qal’asidan yo‘lga chiqqan polkovnik Chernyaev qo‘mondonligidagi rus qo‘shinlari bostirib kiradi va Avliyoota, Suzoq qal’alari, iyulda Turkiston shahri egallanadi. G‘arbdan esa polkovnik Veryovkin qo‘shinlari hujum boshlaydi. Chernyaev qo‘shinlari Chimkentni qamal qilishadi va 14-sentyabrda shaharni egallahadi. 1864-yil oktyabrda polkovnik Chernyaevning Toshkentga hujumi muvaffaqiyatsiz yakunlanadi. Bu vaqtda Qo‘qon xonligining strategik ahamiyatga ega bo‘lgan Toshkent shahri baland va qalin mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan edi.

1865-yil 28-aprelda Chernyaev Toshkentga ikkinchi bor uyushtiradi. 1865-yil 9-mayda Toshkent himoyasining rahbari amirlashkar Alimqul va Chernyaev qo‘shinlari o‘rtasida jang bo‘lib o‘tadi. Jangda Alimqul halok bo‘ladi, Qo‘qon

qo'shini mag'lubiyatga uchraydi. 1865-yil 14-iyunda Chernyaev Toshkentni egallaydi va "obro'li shaxslar"dan shaharning "o'z ixtiyoril bilan" taslim bo'lgani haqidagi hujjatga qo'l qo'ydirib oladi. Ruslar tomonidan Toshkent egallanishida Abdurahmonbek, Saidazimboy va Soatboy singari boydar ("obro'li shaxslar")ning ham xizmati katta bo'lgan.

Rus istilochilar Buxoro xonligiga qarshi urush harakatlarini ikki mavsum, ya'ni 1866 va 1868-yillarda o'tkazadi. 1866-yilda general Romanovskiy Buxoro amirligini bosib olishga kirishadi. 1866-yil mayda Buxoro amiri qo'shinilarni tor-mor keltiriladi. Shundan so'ng 19-22 mayda Xo'jand, oktyabrdan O'ratega, Zomin, 11 – 18 oktyabrdan Jizzax egallanadi. Jizzax shahrini 10 ming askar himoya qilgan, ularda 53 to'p bor edi. Janglarda shahar himoyachilardan 6000 kishi halok bo'ladi, 2000 kishi asirga olinadi. Ruslar esa 100 ga yaqin askarni yo'qotishadi.

Shunisi qiziqliki, Qo'qon xonligini bosib olinayotgan vaqtida Buxoro amiri qo'qonliklarga yordamga kelmaydi, Buxoro amirligi istilosini vaqtida esa Qo'qon xoni Xudoyorxon jum turadi. Xudoyorxon esa amir Muzaffarning yordamida Qo'qon taxtiga uchinchi marta kelgan edi.

1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi va uning tarkibida Turkiston harbiy okrugi tuzildi. General-gubernator va okrug qo'mondoni etib general-ad'yutant K.P. fon Kaufman tayinlandi. 1868-yil 1-mayda Cho'ponota tepaligidagi jangda Buxoro qo'shnulari tor-mor etiladi, 2-mayda Samarqand zabit etiladi. 2-iyunda Zirabuloqda Amir Muzaffar yana mag'lubiyatga uchraydi. Shundan so'ng amir Muzaffar 1868-yil 23-iyunda Kaufman bilan sulk shartnomasini tuzishga majbur bo'ladi va Zirabuloqdan Xo'jand, O'ratega, Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'ongacha bo'lgan yerlar Rossiya ixtiyoriga o'tadi. Amir 500 ming tilla tovon (kontributsiya) to'lash, rus savdogarlarini uchun amirlikda qulay sharoitlar yaratish majburiyatini oladi. 1873-yilda Buxoro amirligi va Rossiya o'rtasida qo'shimcha shartnomasi tuziladi, unga muvofiq Buxoro amirligi mustaqil tashqi siyosat yuritish huquqidan mahrum bo'ladi.

Buxoro va Rossiya o‘rtasidagi sulhga amir Muzaffarning katta o‘g‘li Abdumalik (Katta to‘ra) qarshi chiqadi. Amir Muzaffar fon Kaufman yuborgan rus qo‘shinlari yordamida 1868-yil 21-oktyabrda qo‘zg‘olonchilarni tor-mor keltiradi.

Xiva xonligining istilo etilishi. Kaufman 1873-yil bahorida 12 mingdan ortiq askarlar bilan Xiva xonligiga yurish boshlaydi. Yurishga Orenburg, Mang‘ishloq, Krasnovodsk va Kavkaz okrugi qo‘shinlari jalb etiladi. Umumiyligida qo‘mondonlik Kaufman zimmasida edi. Muhammad Rahimxon II zamonaviy harbiy texnikaga ega, harbiy intizomi kuchli rus qo‘shinlariga qarshilik ko‘rsatishi qiyin edi. 1873-yil 18-mayda ruslar Xazoraspni, so‘ng Qo‘ng‘iroq, Xo‘jayli, Mang‘itni egallashadi. 29-mayda ruslar Xivaga etib kelishadi. Xon turkman ovullaridan biriga yashirinadi. Qamalda qolgan Xivadan Otajon to‘ra Kaufman huzuriga borib shaharni vayron etmaslikni so‘raydi. Kaufman shaharni zabt etib, Otajon to‘raga xonni topishni buyuradi, xon xazinasini va kutubxonasini egallaydi. Saroydagi qimmatbaho buyumlar va nodir qo‘lyozmalar Sankt-Peterburgga yuboriladi.

1873-yil 12-avgustda Kaufman va Muhammad Rahimxon II o‘rtasida Gandimiyon qishlog‘ida sulh shartnomasi imzolanadi. Unga ko‘ra Xiva xonligi ustidan Rossiya protektoratligi o‘rnataladi, Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi yerlar Rossiya tarkibiga o‘tadi, xon oltin hisobida 2 million 200 ming so‘m tovon (kontributsiya) to‘lash majburiyati oladi. Rossiyalik ishbilarmonlar, savdogarlar xonlik hududida bojsiz savdo qilish, er sotib olish, turli sanoat korxonalarini qurish huquqlariga ega bo‘lishadi, rus kemalarining Amudaryoda harakatlanishi uchun barcha imkoniyatlar yaratiladi.

Qo‘qon xonligining tugatilishi. Kaufman Xiva xonligini bosib olgandan so‘ng asosiy e’tiborni Qo‘qon xonligiga qaratadi. Bu vaqtida Qo‘qon xonligi chuqur siyosiy va iqtisodiy inqirozga uchragan, davlat boshqaruvi izdan chiqqan edi. 1868-yil 13-fevralda Kaufman va Qo‘qon xoni Xudoyorxon o‘rtasida shartnomasi imzolanadi, unga ko‘ra Rossiya bosib olgan hududlar xonlik tassarrufidan chiqariladi, rus savdogarlariga xonlikda hech qanday moneliksiz faoliyat yuritish huquqi berilgandi.

Qo‘qon xonligining hududiy jihatdan qisqarishi natijasida davlat xazinasiga soliqlar kamayib ketadi va shundan keyin Xudoyorxon yangi soliqlarni joriy qiladi. Yangi soliqlar esa aholi o‘rtasida norozilikni keltirib chiqarmasdan qolmasdi. Norozilik harakati tezda qurolli qo‘zg‘olonga aylanib, unga o‘zini Qo‘qon xoni Olimxonning nabirasi Po‘latxon deb e’lon qilgan Mulla Ishoq Hasan o‘g‘li boshchilik qiladi. Xudoyorxonning ba’zi amaldorlari, ukasi, o‘g‘illari Nasriddinbek va Muhammad Aminbek Po‘latxon tomonga o‘tib ketishadi. Xudoyorxon 1875-yil 22 iyulda Kaufmandan panoh izlab, Toshkentga qochadi. Qo‘zg‘olonchilar 1875-yil 9-oktyabrda Qo‘qonni egallahadi va Nasriddin taxtni egallaydi. Yangi xon ham Kaufman bilan iliq munosabatlarni o‘rnatishga harakat qiladi. Nasriddin va Kaufman o‘rtasidagi kelishuv oshkor bo‘lgach ba’zi yirik amaldorlar Mulla Ishoq Hasan o‘g‘lini Po‘latxon nomi bilan xon deb e’lon qilishadi. Kaufman rus qo‘shinlarini qo‘zg‘olonchilarga qarshi tashlaydi. 1876-yil fevralda qo‘zg‘olonchilar engiladi va Po‘latxon qatl etiladi.

1876-yil fevralda Qo‘qon xonligi tugatiladi va uning o‘rnida Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiruvchi Farg‘ona viloyati tashkil etiladi. 1879-yil iyulda Buyuk Britaniya Afg‘onistonning kichik, ammo strategik jihatdan muhim bir joyini egallaydi. Rossiya hukumati bunga tez munosabat bildirib, O‘rta Osiyon to‘liq imperiya tarkibiga kiritish maqsadida 1877-yilda Qizil Arvotni bosib oladi. 1879-yil iyulda rus qo‘shinlari turkmanlarga yurishga chiqadi, ammo ushbu yurish natijasiz tugaydi. 1880-yil mayda ikkinchi harbiy yurish boshlanadi va unga general M. Skobelyev qo‘mondonlik qiladi. Og‘ir janglardan so‘ng turkmanlarning oxirgi qal’asi – Go‘ktepa egallanadi. 1885-yilda turkman qabilalari to‘liq bo‘ysundiriladi, ayrim bo‘ysunmagan qabilalar esa Eronga o‘tib ketishadi. Shu tariqa 20 yilllik mustamlakachilik urushlaridan so‘ng O‘rta Osiyo to‘liq bo‘ysundiriladi.

Mag‘lubiyat sabablari va oqibatlari. O‘rta Osiyo xalqlari Rossiyadek harbiy-texnik jihatdan kudratli imperiyaga qarshi mardonavor kurash olib bordi. Ammo xonliklardagi o‘zaro kelishmovchiliklар, to‘xtovsiz urushlar, har xil ko‘rinishlardagi sotqinlik, siyosiy, harbiy boshqaruv, iqtisodiy va madaniy

hayotdagi qoloqlik, hukmdorlarning strategik darajada fikrlay olmasligi oqibatida Turkiston mustamlakaga aylandi.

Kengroq yondashiladigan bo'lsa, o'zbek xonliklarining mustamlakaga aylanishi bir qancha omillar ta'sirida ro'y berdi. **Birinchidan**, xalqni birlashtiradigan chinakam yo'lboshchilar topilmadi. Aholi o'rtasida og'ir soliqlar, amaldorlarning zo'ravonligi va poraxo'rlikdan norozilik kuchli edi. Boshqaruvtizimi, ayniqsa, harbiy boshqaruvtasralar davomida o'zgarmay kelayotgan, hukmdorlar va hukmron tabaqa Rossiyaga qarshi kurashish uchun mavjud imkoniyatlardan foydalanish o'rniga, ular o'zaro urushlardan bo'shashmaydi. **Ikkinchidan**, Rossiya harbiy kuchlarining salohiyati yuqori bo'lib, ular kuchli harbiy intizom kuchli, ilg'or harbiy texnika, zamonaviy qurol-yarog'lar bilan qurollangan edi. Xonlik qo'shinlari esa pilta miltiqlar, eskirgan to'plar, o'q-yoy, nayzalar bilan qurollangan, harbiy ta'lif zaif, harbiy intizom ham past edi. **Uchinchidan**, O'rta Osiyo xonliklarida o'rta asrlarga xos feodal tartiblar va ortodoksal mafkura hukmron edi. Patriarxal-feodal munosabatlar ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojiga asosiy to'siq edi. Bu vaqtda sanoat shakllanmagan, qishloq xo'jaligida esa agrotexnika oddiy, jo'n darajada bo'lган. Hukmron tabaqalar davr talabiga javob bermaydigan, umrini yashab bo'lган ishlab chiqarish usulini qattiq himoya qilishgan. Yagona ichki bozor, tovar-pul munosabatlari, ya'ni kapitalizm rivojlanmaganligi o'z navbatida mahalliy separatizmni, hokimlarning o'zboshimchaligini keltirib chiqarar edi.

Turkistonda mustamlakachilik boshqaruv usuli. 1867-yilning 11-aprelda Janubiy Qozog'iston va O'rta Osiyoning bosib olingan hududlarida Turkiston general-gubernatorligi tashkil etiladi. Turkiston general-gubernatori Rossiya imperiyasidagi boshqa birorta gubernator ega bo'lмаган keng huquqlar va katta imtiyozlarga ega bo'lib, 1867-yildagi manifestga binoan general-gubernatorga "o'lkani boshqarish uchun kerakli va zarur deb hisoblangan barcha tadbirlarni mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda amalga oshirish huquqi berilib, siyosiy, chegaraviy va savdo ishlarini hal qilish, qo'shi mamlakatlarga ularning Rossiya bilan o'zaro aloqalariga tegishli muzokaralar olib

borish va bitimlar imzolash, o‘zaro kelishuvga erishish va qarorlar qabul qilish uchun ishonchli vakillarni jo‘natishda cheklanmagan vakolatlar berildi”. Ya’ni, Turkistonda butun hokimiyat general–gubernator qo‘lida to‘plangan edi. General-gubernatorlik huzurida 7 – 10 kishidan iborat Kengash va to‘rt bo‘limdan iborat mahkama faoliyat yurgizgan. Birinchi bo‘lim ma’muriy nazorat ishlari, ikkinchi bo‘lim moliya-xo‘jalik, uchinchi bo‘lim soliqlar nazorati ishlarini, to‘rtinchi bo‘lim maxsus bo‘lim bo‘lib, u sud va huquq ishlarini boshqargan. General–gubernator bir vaqtning o‘zida imperatorningng noibi, harbiy okrug qo‘mondoni, bosh politseymester, bosh prokurorlik funkisiyalarini bajargan. Shuningdek, general-gubernator Buxoro amiri faoliyatini Rossiya imperatori agentligi, Xiva xonining faoliyatini esa Amudaryo bo‘limi boshlig‘i orqali nazorat qilgan. Xullas, juda katta vakolatlarga ega bo‘lgan general-gubernatorni mahalliy xalq bejiz “yarim podsho” deb atamagan.

Turkiston o‘lkasining ma’muriy markazi Toshkent shahri bo‘lib, uning sharqiy qismida rus fuqarolari yashaydigan Yangi shahar (“Noviy gorod”) ni bunyod etiladi.

Turkiston general-gubernatorligi ma’muriy jihatdan viloyatlar, uezdlar, uchastka, shahar, qishloq va ovullarga bo‘lingan. Viloyatni general, uezd boshlig‘ini polkovnik, uchastkani kapitan unvonidagi harbiylar boshqargan. Ma’muriy tuzulmaning o‘zagi uezd bo‘lib, uezd boshlig‘i ma’muriy, harbiy boshqaruv bilan birga politsiya boshlig‘i funksiyalariga ham ega edi. Uezd boshlig‘ini mahalliy xalq “hokim to‘ra” deb atagan.

Rossiya hukumati yangidan bosib olingen yerlar hisobiga Turkiston general-gubernatorligi tarkibida yangi ma’muriy–hududiy birliklarni tuzib borgan. Xususan, 1868-yilda Buxoro amirligidan bosib olingen hududlarda Zarafshon okrugi (markazi Samarqand), 1874-yilda Xiva xonligidan bosib olingen yerlarda Amudaryo bo‘limi (markazi Petro-Aleksandrovsk), 1876-yilda Qo‘qon xonligi hududlarida Farg‘ona viloyati (markazi Yangi Marg‘ilon (Skobelyev)) tashkil etilgan.

1867-yilgi “Muvaqqat Nizom” bo‘yicha Turkiston o‘lkasining sud tizimi – harbiy sud, imperianing umumiylar qonunlari asosida sud va xalq sudidan iborat edi. 1886-yilgi “Nizom” ga ko‘ra esa, sud tizimi sudlov palatasi, okrug sudlari, qo‘sishimcha mirovoy (sulhparvar) sudbyalar, faxriy mirovoy sudbyalardan iborat bo‘lgan.

Mahalliy aholi uchun sudlar alohida tartibga asoslangan bo‘lib, ular xalq sudlari deb nomlangan. Xalq sudlari saylab qo‘yiladigan va gubernator tasdiqlagan biylar tomonidan amalga oshirgan. O‘troq aholi uchun qozi sudlari saqlab qolingan.

Turkiston o‘lkasining ma’muriy markazi bo‘lgan Toshkent shahri maxsus Nizom orqali boshqarilgan. Unda Toshkent shahar Dumasi va boshqarma saylash belgilangan. Shahar Dumasini shahar hokimi boshqargan.

Toshkent shahar Dumasi a’zolarining uchdan ikki qismi yevropalik aholi yashaydigan yangi shahardan, uchdan bir qismi esa mahalliy aholi yashaydigan eski shahardan saylangan. Saylov yuqori mulkssenziga asoslangan bo‘lib, saylovchilar uch toifadan iborat edi. Ishchilar, dehqonlar, hunarmandlar va kambag‘al ziyolilar etarli mulkka ega bo‘lmaganligi sababli saylov huquqiga ega emas edilar.

Mustamlakachilik ma’muriyatining iqtisodiy va madaniy siyosati. Rossiya hukumatining Turkistondagi siyosati o‘lkani iqtisodiy jihatdan qaram etish, uning boyliklarini o‘zlashtirish, sanoatini xom ashyo bilan ta’minlovchi o‘lkaga va mahsulotlar sotiladigan bozorga aylantirish siyosatini yuritdi. Ushbu siyosat esa rus dvoryan-pomeshchiklari va burjuaziyasining manfaatlariga ximat qilishga qaratilgan edi.

Rossiya imperiyasi hukumati Turkistonda o‘zining o‘zining ijtimoiy bazasiga ega bo‘lishi uchun imperianing markazi guberniyalaridan doimiy notinchlik manbai bo‘lib kelgan yersiz va kam yerli dehqonlari ko‘chirib keltira boshladi. Chunki 1861-yilda krepostnoy huquqning bekor qilinishi dehqonlar masalasini echmagan, ko‘pchilik dehqonlar yersiz ozod qilingan edi. Ya’ni, ko‘chirish siyosati rus qishlog‘idagi o‘tkir ziddiyatlarni echishga qaratilgan edi.

Shuning uchun ham ilk rus qishloqlari 1875-yildayoq Avliyoota tumanida paydo bo‘lgan. 1886-yilda qabul qilingan “Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom”ga muvofiq rus dehqonlarini ko‘chirib keltirish kuchayib ketadi. Rossiya hukumatining “Osiyo Rossiyasida bo‘sh yotgan yerlardan” foydalanish borasida yaratgan imkoniyatidan foydalangan kam yerli yoki yersiz rus dehqonlari, kazaklar ruxsatsiz holda ko‘chib kela boshlaydi. 1891-1892 yillarda Rossiyada ro‘y bergen ocharchilik tufayli Turkistonga ko‘chib keluvchilar soni yanada oshdi.

Rossiyaning Turkistondagi iqtisodiy siyosati rus kapitalining manfaatlari himoya qilinishiga qaratilgan edi. Rus hukumati Turkistonga xorijiy sarmoyadorlar, hatto fuqaroligi bo‘lgan yahudiylarga tegishli kapitallar kirib kelishiga ro‘yxushlik bildirmagan. Shu bois xorij kapitali Turkistonga qiyinchilik bilan kirib kelgan va Turkistonda keyinchalik metropoliya bilan raqobatga kirishishi mumkin bo‘lgan qayta ishlash sanoatining (paxta va boshqa qishloq xo‘jalik xom ashyolarini dastlabki qayta ishlashdan tashqari) rivojlanishiga e’tibor bo‘lmadi. Bu vaqtda faqat Afg‘oniston, G‘arbiy Xitoy va boshqa qo‘shti Sharq mamlakatlaridan kapital kirishiga ruxsat berilgan. Bunday biryoqlama iqtisodiy siyosat esa mustamlaka iqtisodiyotining rivojiga zid edi. Rossiya imperiyasi Turkistondan o‘zining sanoat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari sotadigan bozor va arzon xom ashyo etkazib beradigan mintaqaga sifatida foydalanar edi.

Rossiya engil sanoati uchun mintaqada paxtachilikni rivojlantirish agrar siyosatning ustuvor yo‘nalishi bo‘lgan. Chunki AQSh paxtasini tashib keltirish qimmat bo‘lib, bu hol tayyor mahsulotning tannarxi oshishiga, uning raqobatbardoshligiga salbiy ta’sir ko‘rsatar edi. Shu sababli Rossiya hukumati O‘rta Osiyoda paxtachilikni rivojlantirishga strategik yo‘nalishlardan biri sifatida qaraydi. Yuqori mansabdorlardan bo‘lgan Krivoshein 1912-yilda shunday yozgan: “Turkiston bug‘doyining har bir pudi – rus va Sibir g‘allasiga raqobatchi; har qanday ortiqcha pud Turkiston paxtasi – Amerika paxtasiga raqobatchi”.

Rossiyaning Turkistondan bozor va xom ashyo manbai sifatida foydalanishi o‘lkada temir yo‘llar qurilishini taqozo qilardi. 1881-1886-yil Kaspiyorti temir yo‘li qurildi, 1898-yilda Toshkent va Andijon shaharlari temir yo‘l bilan bog‘landi. 1906-yilda Toshkent – Orenburg temir yo‘li quriladi va Turkiston Rossiyaning markaziy guberniyalari bilan bog‘lanadi. Temir yo‘llar qurilishi natijasida Turkistonga Rossiyadan ko‘plab malakali ishchilar, injener-texnik kadrlar ko‘chirib keltirilgan.

XIX asrning 90-yillaridan Turkistonda metropoliya moliya kapitalining roli kuchayib bordi. Agar 1865-yildan 90-yillargacha mustamlakachilik davrida xalq xo‘jaligida sanoat kapitali ustuvorlik qilgan bo‘lsa, 90-yillardan boshlab moliya kapitali hukmronligi boshlandi. Rus sanoatchilari uchun Turkiston mahsulotlar sotadigan bozor va xom ashyo manbaiga aylanadi. Turkistondan Rossiyaga asosan jun, ipak, quruq mevalar, teri va paxta olib ketilgan. Metropoliyadan mustamlakaga esa tekstil mahsulotlari (paxtadan bo‘lgan gazlamalar, jun matolar), metall buyumlar, neft mahsulotlari, shakar, spirtli ichimliklar, galantereya, chinni buyumlar va boshqa tovarlar keltirilgan.

Bu vaqtda Turkistonda paxta tozalash, yog‘, spirt ishlab chiqarish, vinochilik, pivo tayyorlash, tamaki fabrikalari, tog‘-kon sanoati paydo bo‘ldi va foydali qazilmalar sanoat darajasida o‘zlashtirila boshlandi. Iqtisodiy o‘zgarishlar natijasida Toshkent, Samarqand, Andijon, Qo‘qon kengaydi, Ashxobod va Mari singari ovullar ma’muriy markazlarga aylandi, Skobelyev, Kazalinsk, Verniy, Krasnovodsk kabi yangi shaharlar barpo etildi.

Turkistonning Rossiya bilan iqtisodiy aloqalari tovar-pul munosabatlарining rivojlanishiga olib keldi. Soliqlar faqat pul orqali to‘lashga o‘tilishi ham qishloqda pul munosabatlari va sudxo‘rlik kapitalining o‘sishiga yordam berdi. 1882-yilda Turkiston o‘lkasini taftish etgan Girs, qishloqning pul kreditiga nisbatan, ayniqsa, davlat to‘lovlarini yig‘ish davrida ehtiyoji yuqoriliginи, bundan mahalliy sudxo‘rlar, rus

boylari 40 %dan 60 % evazigacha qarz berishlarini qayd etadi. Ba’zi sudxo’rlar 120 % gacha qarz berishgan. XX asr boshlarida qishloq aholisining katta qismi esa kambag‘allar va qashshoqlardan iborat bo‘lib, ular katta foizli qarzlar evaziga o‘z yerlaridan mahrum bo‘lishardi.

Turkistonda sanoat korxonalarining shakllanishi, qishloq xo‘jaligida tovar ishlab chiqarishga asoslangan xo‘jaliklarning oshishi va ularga xizmat ko‘rsatuvchi moliya institatlari va bank tizimining vujudga kelishi, ya’ni kapitalistik munosabatlar rivojlanishi natijasida paxta tozalash zavodlari, do‘konlari, tegirmonlar, yirik plantatsiyalarga egalik qiluvchi va metropoliya bilan iqtisodiy aloqalar kuchli bo‘lgan mahalliy burjuaziya va ishchilar sinfi ham shakllana boshladi. 1867 – 1900 yillarda Turkiston (Samarqand, Sirdaryo va Farg‘ona viloyatlari)da 170 ta sanoat korxonasi ishga tushirildi. 1900 – 1910 yillarda 220, 1910 – 1914 yillarda esa 180 ta sanoat korxonasi ochildi. Bu korxonalarda 18-20 ming ishchi ishlagan. 1913-yil ma’lumotlariga ko‘ra yalpi sanoat mahsulotlarining 80 % paxtaning dastlabki ishlovi, 15 % yog‘ – moy, qishloq xo‘alik xom ashvosining qayta ishloviga, 5 % esa sanoatning boshqa tarmoqlariga to‘g‘ri kelgan. Sanoatda mehnat sharoitlari og‘ir bo‘lib, ish vaqt 17 – 18 soatgacha davom etgan. Mahalliy ishchilarga rus ishchilariga nisbatan bir yarim baravar kam ish haqi to‘langan.

Mustamlakachilik davrida ta’lim sohasida ham bir qancha o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Maorif va madaniyat sohalarida ruslashtirish siyosati olib borildi. Mustamlaka ma’muriyati va rus burjuaziyasiga xizmat qiladigan mahalliy kadrlarni etishtirish maqsadida 1884-yilda Toshkentda birinchi rus–tuzem maktabi ochildi. XIX asr oxirida ularning soni yuzdan oshdi. Shu bilan birga katta yoshli kishilarga rus tilini o‘rgatish uchun maxsus maktablar va kechki kurslar ham tashkil etilgan.

Turkistonda sog‘liqni saqlash tizimi ham (asosan shaharlarda) bir qadar shakllantirildi, ilk bor xotin-qizlar ambulatoriyalari tashkil etildi. Sog‘liqni saqlash sohasida asosan yevropaliklar ishlashgan.

Rossiyaning Turkistondagi mustamlakachilik siyosatiga dialektik yondashmoq zarurdir. Bir tomondan, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida mustamlakachilik siyosati olib borildi. Boshqa tomondan esa, Turkistonga rus madaniyati orqali Yevropa madaniyati, ilg‘or texnologiyalar ham kirib kela boshladi. Ammo mazkur jarayon o‘lka aholisining muayyan katta qismi, kambag‘allar va yo‘qsillar hayotini engillashtirmas edi.

Rossiya imperiyasining mustamlakachiligi va milliy ozodlik harakati.

Rossiyaning Turkistondagi mustamlakachilik siyosati mahalliy aholining noroziligin kuchaytirmsdan qolmasdi. Mustamlakachilikka qarshi harakatlar O‘rta Osiyo bosib olinayotgan vaqtdayoq boshlangan, ammo ular quroq yordamida bostirilib kelingan. Rus mustamlakachilariga qarshi kurash tarixida Farg‘ona vodiysi va Qirg‘izistonning tog‘li hududlarida “Oloy malikasi” nomini olgan Qurbonjon dodxoh yorqin iz qoldirgan. U 1876-yilning oxiriga qadar rus qo‘shiniga qarshi kurashadi. 1878-yilda Mingtepa (Andijon)da ham mustamlakachilarga qarshi qurolli chiqish bo‘lib o‘tadi. 1885-yilda esa Farg‘ona viloyatida Darveshxon to‘ra va Mo‘minbiy boshchiligidagi isyon boshlanadi. Isyonchi guruqlar Andijon, O‘sh, Marg‘ilon uezdlarida mustamlaka ma’murlariga hujum uyuştirishadi, ammo kuchlar teng bo‘lmagan kurashda isyonchilar mag‘lub bo‘lishadi. Garchi qurolli chiqishlar muvaffaqiyatsizlikka uchrasada, ammo ular izsiz ketmaydi. Qo‘zg‘olonlar natijasida soliqlarni undirish jarayonidagi suiste’molchiliklarga bir qadar chek qo‘yiladi.

Milliy-ozodlik harakati tarixida 1892-yil “Vabo isyoni” nomini olgan Toshkent qo‘zg‘oloni katta iz qoldirgan. Ba’zi tarixiy adabiyotlarda qo‘zg‘olon mustamlaka ma’murlari vabo tarqalishining oldini olishdagi qo‘pol siyosatiga qarshi chiqish sifatida ta’riflangan. Ammo qo‘zg‘olon mustamlaka siyosatiga qarshi qaratilgan edi. 1892-yil martda Afg‘onistonda paydo bo‘lgan vabo 7-iyunga kelib Toshkentga etib keladi. Ma’murlar kasallik tarqamasligi uchun shoshilinch choralar ko‘rishadi. Eng avvalo shahardan chiqish va kirish qattiq nazoratga olinadi, vabodan o‘lganlarni shahar ichkarisidagi qabristonlarga ko‘mish taqiqlanadi. Shahar tashqarisida 4 ta yangi qabriston ochilishi e’lon qilinadi, lekin

bitta qabriston ochiladi. Aholi orasida vaboga chalinganlarning yo‘q qilinishi, murdalarning qabrlardan chiqarib tashlanayotgani to‘g‘risida mish-mishlar kuchayadi. 1892-yil 24-iyunda “Vabo isyoni” (yoki “Toshotar voqeasi”) deb nom olgan qo‘zg‘olon boshlanadi va mingga yaqin kishi shahar mahkamasiga yo‘l oladi. Shahar boshlig‘i polkovnik S.Putinsev, hokim va mirshablarni do‘pposlanadi. Ammo etib kelgan askarlar qo‘zg‘oltonni shafqatsiz bostirishadi. Odamlar askarlar o‘qdan qochib o‘zlarini Anhorga tashlashadi va undan 80 ga yaqin jasad topilgan. Qo‘zg‘olonchilardan 8 kishi dorga osib o‘ldirilishga, 15 kishi 2 yil turmaga hukm etiladi. Keyinchalik o‘lim jazosi umrbod surgun bilan almashtiriladi.

1898-yil 17-mayda Andijon yaqinida Mingtepa qishlog‘ida Muhammadali eshon – Dukchi eshon boshchiligidagi qo‘zg‘olon boshlanadi. Dukchi eshonning maqsadi Farg‘onada mustaqil xonlikka asos solish edi²³. Qo‘zg‘olonchilar 17-mayda Andijonga yurishadi, ularning soni 2000 kishiga etadi. Qo‘zg‘olonchilar qo‘qqisdan rus garnizoniga hujum qilishadi va 22 askar halok bo‘ladi. Ammo ruslarning harbiy kuchlari etib kelib, qo‘zg‘oltonni bostirishadi. 1898-yil 12-iyunda Dukchi eshoni osib o‘ldiriladi. Shuningdek, qo‘zg‘olonchilardan 380 kishi ham o‘limga hukm etiladi, ammo o‘lim jazosi surgunga almashtiriladi.

1914-yilda “Bo‘lingan dunyoni qaytadan bo‘lib olish” maqsadida boshlangan Birinchi jahon urushida Rossiya Antanta tarafida urushga kiradi. Iqtisodiy, harbiy va ilmiy-texnik jihatdan ittifoqchilaridan orqada bo‘lgan Rossiya urush natijasida yanada og‘ir ahvolga tushib qoladi, uning qarzlari urushdan oldingidan ham oshib ketadi²⁴. Urush yillarida harbiy buyurtmalar tufayli bir

²³ O‘scha davrda Dukchi eshonga munosabat turlicha bo‘lgan. Tarixchi va shoirlardan Muqimiy, Zavqiy, To’ib, Mirza Azim ad – Din Samiy, Xo‘ja Sobiri, Nadim Namangoni, Marg‘iloniy, Umidiy Havoiy va Toshxo‘ja Asiriy Dukchi eshonga mutassib shaxs sifatida qarashgan.

²⁴ Agar 1914-yilda Rossiya hukumatining tashqi qarzi 5404 mln. so‘m bo‘lsa, 1917-yilning oktyabriga kelib 14860 mln. so‘mga etadi. 1917-yil boshlarida dunyodagi barcha davlatlarning tashqi qarzi paritet bo‘yicha 16385 mln. dollar bo‘lsa, unda Rossiyaning ulushi 5937 mln. dollar, ya’ni 36,2% edi. Bu qarzlarni qoloq agrar Rossiya imperiyasi hech qachon to‘lolmas, shu bois u haqiqiy yarim mustamlaka davlatga aylanishi qonuniyatli jarayon edi. (Bu haqda qarang: Фиск Г. Финансовое положение Европы и Америки после войны. М., 1926. С. 394. Таблица XV.)

hovuch boylar haddan tashqari boyigani holda mehnatkashlar ahvoli yanada og‘irlashadi, mamlakatda ocharchilik boshlanadi.

1916-yil 25-iyunda imperator Nikolay II “Imperiyadagi rus bo‘lmagan erkak aholini harakatdagi armiya rayonlarida mudofaa inshootlari va harbiy aloqa yo‘llari qurish uchun olib boriladigan ishlarga, shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo‘lgan boshqa har qanday ishlarga jalb qilish haqida” Farmon e’lon qiladi. Unga ko‘ra Sibirъ, O‘rta Osiyo, Qozog‘iston va Kavkazortidagi 19 yoshdan 43 yoshgacha 400 ming nafar mahalliy erkak aholi front ortidagi ishlarga safarbar qilinishi lozim edi. Qimmatchilik va etishmovchilik sharoitlarda mardikorlikka safarbarlik xalq noroziligin kuchaytirib yuboradi. 1914-yil iyulda Xo‘jandda, so‘ng Toshkent, Marg‘ilon, Samarqand, Jizzax, Kattaqo‘rg‘onda, Qo‘qon, Andijon uezdlarida qo‘zg‘olonlar ko‘tariladi. 1916-yil 13-iyulda milliy-ozodlik harakatida yorqin iz qoldirgan Jizzax qo‘zg‘oloni boshlanadi. Qo‘zg‘olonga Nazirxo‘ja Eshon boshchilik qilib, u Jizzax begi deb e’lon qilinadi. Qo‘zg‘olonchilar temir yo‘llar va ko‘priklarni buzib tashlashadi. Ikki yarim ming kishilik jazo otryadi etib kelgandan keyin qo‘zg‘olon shafqatsiz bostiriladi. Garchand 1916-yilgi qo‘zg‘olon mag‘lubiyatga uchrasada, ammo u mustamlaka hukumatini sarosimaga solib qo‘yadi.

Jadidchilik mafkurasi va harakati. Turkistonda XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida jadidchilik nomi bilan ataluvchi ma’rifatparvarlik harakati vujudga keladi. Umuman, ma’rifatparvarlik harakatini barcha ma’rifiy millatlar tarixida kuzatish mumkin. Xususan, G‘arbiy Yevropada ma’rifatparvarlik davri XVIII asr va XIX asr bosolarini qamrab oladi. Yevropada ma’rifatparvarlik harakatiga D.Didro, J.-J.Russo, Sh.Monteskъe, Volter kabi buyuk fransuz inqilobini mafkuraviy jihatdan tayyorlagan faylasuflar, I.Gerder, J.Viko singari tarixchilar, huquqshunoslar etakchilik qilgan bo‘lsa, Turkistonda esa adabiyot ahli rahnamolik qilgan. Ma’rifatparvarlar qarashlaridagi umumiylik shundaki, ular jamiyatdagi barcha illatlarning bosh sababchisini jaholatda ko‘rishadi, undan ilm-fan, ma’rifat

orgali xalos bo‘lish mumkin deb hisoblashadi. Agar fransuz ma’rifatparvarlari jaholat sababchisini dinda ko‘rishgan bo‘lsa, jadidlar esa dinga, jumladan, islomga salbiy munosabatda bo‘lishmagan.

Umuman, musulmon Sharqida islohotchilik harakatiga Jamoliddin Afg‘oniy (1839 – 1897) va Muhammad Abdo (1848 – 1903) asos solgan. Turkiyadagi konstitusionalizm uchun harakatlar: Tanzimat (1840 – 1860), “Yosh usmonlilar” (1865 – 80), “Yosh turklar” (1889 – 1918) va 1908 – 1909 yillardagi demokratik-inqilobiy harakatlar turkiylar dunyosida aks sado berishi aniq edi. Rossiya imperiyasida esa jadidchilik harakati paydo bo‘lishida qrim-tatar aslzodalaridan Ismoilbek G‘aspirali (1851 – 1914) nomi bilan bog‘liqdir. Ismoil G‘aspiralini barcha jadidlar singari nima uchun tarixda bir vaqtlar oldinda bo‘lgan musulmonlar iqtisodda, boshqaruvda, qonunchilikda, texnikda, fanda, ta’limda, sog‘liqni saqlashda qoloqlikka yuz tutishi sabablari qiziqtiradi va ularni ilmsizlikda ko‘radi, maorifni rivojlantirish va milliy matbuotni shakllantirish zarurligi xususida xulosaga keladi. Ismoilbek G‘aspirali ta’limning jamiyat taqdiridagi o‘rnini tushungan zukko shaxs edi. U 1884-yilda “Tarjimon” gazetasida shunday yozadi: “Suyukli do‘stilarim, bizning uchun eng go‘zal ish ilm va maorif ishidir. Eng muqaddas intilish ilmga, maorifga intilishdir. Chunki insonni inson etgan mehnat va bilimdir. Bilim madaniy turmush (sivilizatsiya)ga etishish vositasidir”. Bunday yondashuv o‘z davri uchun juda katta progressiv ahamiyatga ega edi. Chunki fan, ta’lim va ishlab chiqarish jamiyat rivojini ta’minlaydigan, o‘zaro bog‘liq va bir biriga faol ta’sir ko‘rsatib turuvchi sohalardir.

Ismoil Gaspirali maktablarda diniy bilimlar bilan birga dunyoviy fanlarni ham o‘qitilishi zarurligini asoslaydi. Uning o‘zi 1884-yilda birinchi jadid maktabini ochadi, o‘quv dasturi tuzadi va darsliklar yozadi. Musulmon ta’limi tarixida ilk bor, qisqa vaqt (40 kun)da o‘quvchilarning savodini yangicha usul – “usuli jadid” bilan chiqaradi. Ismoil G‘aspirali jadid matbuotining ham asoschisidir. U 1883-yilda rus va turkiy tillarda chop etilgan “Tarjimon” gazetasini ochadi.

Ismoil G‘aspirali 1893-yilda Turkistonga keladi va ziyolilar, ulamolar bilan uchrashadi. Buxoroda amir Muzaffar roziligi bilan “Muzaffariya” maktabini ochadi.

Turkistonda jadidchilik harakatining yirik vakillari Maxmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy edi. “Usuli jadid” maktablarida shariatga oid bilimlar bilan birga ximiya, tarix, astronomiya, geometriya, fizika va boshqa dunyoviy fanlar ham o‘qitilgan.

Jadidlar tarixiy xotirani tiklashga va mustahkamlashga ham alohida e’tibor berishgan. Zero milliy tarixiy xotirasiz milliy uyg‘onishga erishish, demak-ki, milliy yuksalishga erishib bo‘lmaydi. Buni esa jadidlar yaxshi anglaganlar. Shu bois Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston aholisiga “hozirgi dunyoda yashash, ziyoli, komil va odil” bo‘lish uchun o‘z vatani tarixini o‘rgansh zarurligini ta’kidlaydi.

Jadidlar milliy matbuot va milliy teatrga ham asos solganlar. Munavvar qori 1906-yilda “Xurshid” (“Quyosh”) jurnalini tashkil etadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1913-yilda “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnalini chiqara boshlaydi. U “Nashriyoti Behbudiya” nashriyoti va “Kutubxonai Behbudiya”ni tashkil etadi. O‘zbeklardan chiqqan ilk huquqshunos Asadullaxo‘ja o‘g‘li Ubaydullaxo‘ja 1914-yilda “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona” gazetalarini ochadi. Munavvar qori teatrga shunday yuksak baho beradi: “Teatrning asl ma’nosи “ibratxona” yoki “ulug‘lar maktabi” degan so‘zdir. Teatr sahnasi har tarafi oynaband qilingan bir uyga o‘xshaydurki, unga har kim kirsa o‘zining husn va qabihini, ayb va nuqsonini ko‘rib ibrat olur”.

Jadidlarga mutaassib ruhoniylar va mustamlaka ma’murlari qarshi turishgan. Mustamlaka ma’muriyati 1911-yilda 50 ga yaqin jadid maktablari yopiladi. 1913-yilda Buxoro amirligida ham jadid maktablari yopiladi. Mutaassib (ortodoksal) kuchlar, ya’ni qadimchilar jadidlarning ta’lim, teatr, dunyoviylikka doir yangiliklariga keskin salbiy munosabatda bo‘lishgan. Ular uchun hatto tarix fani ham be’manilik edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy mutaassibchilikni fosh qilar ekan, Qur’on va hadislar ham tarixga daxldor ekanligini ko‘rsatib bergen.

Mustamlakachilarning jadidlarga nisbatan repressiv siyosati esa o‘z navbatida jadidchilikning siyosiy oqimga aylanishiga ta’sir qilgan. Shu tariqa jadidchilik madaniy-ma’rifiy harakatdan milliy-ozodlik mafkurasiga aylana borgan.

Savollar va topshiriqlar

- 1.Qanday sabablarga ko‘ra XIX asrda O‘rta Osiyoda Angliya va Rossiya manfaatlari to‘qnashgan.
- 2.Rossiyaning O‘rta Osiyonini bosib olishining ijtimoiy-iqitsodiy sabablarini yoriting.
- 3.Turkiston general-gubernatorligi qachon va qanday maqsadda tuzildi?
- 4.Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi shartnomaning mazmunini yoriting.
- 5.Xiva xonligining istilosini va Gandimiyon sulh shartnomasini izohlang
- 6.Qo‘qon xonligidagi qo‘zg‘olonlar sabablari va oqibatlarini tahlil eting.
- 7.Mustamlakachilik davridagi iqtisodiy va madaniy siyosatni yoriting.
- 8.Mustamlakachilikka qarshi qo‘zg‘olonlar omillarini tahlil qiling.
9. Jadidchilik mafkurasining mazmun-mohiyatini ochib bering.

IV Bob. O‘zbekiston sovet hokimiyati yillarida

13 – §. Turkistonda sovet hokimiyatining o‘rnatalishi

1917–yilgi fevral inqilobi va oktyabr to‘ntarishi. Podsho Rossiyasining Birinchi jahon urushi (1914 – 1918) frontlaridagi mag‘lubiyatlari, askarlarning ko‘plab nobud bo‘lishi, chor generallarining uquvsizligi va harakatdagi armiyada o‘q-dori, qurol-yarog‘ etishmasligi, janglardagi ko‘plab qurbanlar askarlar orasida urushga qarshi norozilikni kuchaytiradi. Urush tufayli xo‘jalikning hayotining izdan chiqishi, ayni vaqtda, harbiy buyurtmalar tufayli bir hovuch korchalonlarning haddan tashqari boyib ketishi, narxlarning oshishi, oziq-ovqat, non etishmasligi, ishsizlik tufayli inqilobiy vaziyat vujudga keldi. Urush tufayli Turkiston iqtisodiyoti ham og‘ir ahvolga tushib qoladi. Sanoatda ahvol tang bo‘lib, uning etakchi tarmog‘i bo‘lgan paxta tozalash sanoatida ishlab chiqarish hajmi 1917–yilda 1915–yilga nisbatan ikki barobardan ko‘proq qisqaradi. Frontlardagi mag‘lubiyat, podsho ma’muriyatidagi korrupsiya, ishsizlik, ocharchilik, qimmatchilik, pul qadrsizlanishi, qashshoqlik, dehqonlarning yersizlikdan aziyat chekishi, ya’ni tizimli inqiroz Rossiyada 1917–yilda 27–fevralda inqilobiga sabab bo‘ldi. Fevral inqilobi natijasida Rossiyada 300 yil hukmronlik qilgan Romanovlar sulolasini va uning so‘ngi vakili imperator Nikolay II taxtdan ag‘dariladi va Muvaqqat hukumat tuziladi.

Fevral inqilobi o‘zining xarakteriga ko‘ra burjua-demokratik inqilobi bo‘lib, uning asosiy vazifasi krepostnoy tuzumning qoldig‘i bo‘lgan yirik pomeshchik er egaligini tugatish, kapitalistik munosabatlar va demokratik tartiblarni qaror toptirish edi. Fevral inqilobidan keyin Rossiyada bir vaqtning o‘zida ikki hokimiyat organi: o‘zida xalq hokimiyati kurtaklari ifodalangan Ishchi va askar deputatalari sovetlari va burjuaziya diktaturasi organi – Muvaqqat hukumat vujudga keldi. 1917–yil 1–sentyabrda Rossiya respublika deb e’lon qilinadi.

Muvaqqat hukumat hukumat burjuaziya manfaatlarini ko‘zlab siyosat yurgizadi, inqilobni keltirib chiqargan muammolarning hech birini, ayniqsa,

aholining 85% dehqonlardan iborat bo‘lgan, dehqonlarinng katta qismi esa kam yerli va yersiz bo‘lgan mamlakatda er muammosini hal etilmaydi, bir hovuch korchalonlar uchun boyish manbai bo‘lgan urushni “g‘alabagacha davom ettirish”ni e’lon qiladi. Mamlakat taqdiriga bunday befarqlik keyinchalik 1917–yil oktyabrda V.I. Lenin boshchiligidagi bolsheviklar partiyasining hokimiyatga kelishini ta’minlaydi.

Fevral inqilobi natijasida Turkiston general–gubernatorligi, viloyatlarda esa harbiy gubernatorlik boshqaruvi bekor qilinadi. Ularning o‘rnida Muvaqqat hukumatning Turkiston Qo‘mitasi tuziladi va viloyat komissarlari instituti joriy etiladi.

Fevral inqilobidan keyin butun mamlakatda aholining siyosiy faolligi oshib ketadi va siyosiy partiylar faoliyati kuchayadi. Xususan, Turkistonda ham jadidlar va islom ulamolarining tashabbuslari bilan 1917–yil martda “Sho‘roi Islomiya”, 1917–yil iyunda “Sho‘roi Ulamo”, 1917–yil iyulda “Turk Adami Markaziyati” (“Turk federalistlari partiyasi”), 1917–yil sentyabrda esa “Ittifoqi muslimin” partiylari tuziladi. Turkiston siyosiy hayoti kun tartibida muxtoriyat asosiy masala bo‘lib qoladi.

1917–yil aprel va sentyabrda Butunturkiston musulmonlarining I va II qurultoylari bo‘lib o‘tadi. Unda Turkiston Muxtoriyati tashkil etish g‘oyasini ilgari surib, hokimiyatni ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarga o‘tishi inkor etiladi. 1917–yil 20–sentyabrida Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston va Qozog‘iston musulmonlarining qurultoyidagi asosiy masala Turkiston o‘lkasining siyosiy tuzumini belgilash edi.

Muvaqqat hukumatning Rossiyanı urushdan olib chiqmaganligi, korrupsiya, agrar masalaning hal etmaganidan bolsheviklar unumli foydalanadi. Bolsheviklar partiyasi xalqning katta qismini o‘z tarafiga og‘dirib uchun “Butun hokimiyat Sovetlarga!”, “Xalqlarga tinchlik”, “Yer dehqonlarga”, “Zavodlar va fabrikalar ishchilarga!”, “8 soatlik ish kuni!” kabi hatto savodsiz odamlar uchun ham manfaatli va tushunarli bo‘lgan dasturiy shiorlardan oqilona foydalanishadi. Ya’ni, bolsheviklar taktikasi shiorlar orqali murakkab marksizm ta’limotini targ‘ib

qilishga emas, balki odamlarning hayotiy ehtiyojlari orqali marksizm g‘oyalarini amalga oshirishga qurilgan edi. Shuningdek, 1917-yil fevrala oyida 20-30 ming a’zosi bo‘lgan bolsheviklar partiyasining 1917-yil oktyabr to‘ntarish hokimiyatda kelishi va mustahkamlanib olishida zodagonlar tabaqasi tomonidan “qora xalq”, “qora suyak” deb nom olgan kambag‘allar, yo‘qsillarning bolshevizmda “eng qadrli” sinf sifatida e’tirof etilishi ham odamlar ongiga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatgan.

1917-yil 24 – 25 oktyabrdagi (yangi sanada 7 – 8 noyabr) V.I. Lenin boshchiligidagi bolsheviklar va so‘l esyerlar Petrogradda Muvaqqat hukumatni ag‘darib tashlaydi. Butun hokimiyat Petrograd ishchi va soldat deputatlari sovetining organi – Harbiy-inqilobi qo‘mita qo‘liga o‘tadi. 1917-yil 25-oktyabr kechasi Butunrossiya ishchi va soldat deputatlari sovetlarining II s’yezdi ish boshlaydi. S’ezd tinchlik va er to‘g‘risidagi dekretlarni qabul qiladi. S’ezdda mamlakatning qonun chiqaruvchi hokimiyati – Butunrossiya Markaziy Ijroiyya Qo‘mitasi va V.I. Lenin boshchiligidagi yangi hukumat – Xalq Komissarlari Soveti tuziladi. 1917 – yil 2–noyabrdagi “Rossiya xalqlari huquqlari Deklaratsiyasi” e’lon qilinadi. Unda barcha xalqlarning tengligi, ularning o‘z taqdirini o‘zlari belgilashi huquqlari e’tirof etilgan edi. Sovet hokimiyati 1917-yil noyabrdan va 1918-yil fevralgacha Rossiyaning barcha hududlarida o‘rnataladi. 1917-yil oktyabrdan 1918-yil fevralgacha bo‘lgan vaqtida Rossiya hududlarida sovet hokimiyati o‘rnataladi.

Turkiston markazi Toshkentda bolsheviklar boshchiligidagi 28– oktyabrdagi qurolli qo‘zg‘olon boshlanadi va 1–noyabrdagi Muvaqqat hukumatning Turkiston qo‘mitasi hibsga olinadi. 1917-yil 15-noyabrdagi Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan O‘lka ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarining III s’ezdida bolshevik F. Kolesov rahbarligida 8 nafar so‘l eser va 7 nafar bolsheviklardan iborat Turkiston o‘lkasi Xalq Komissarlari Soveti tuziladi. Dastlabki vaqtida Turkiston XKS mahalliy aholi vakillari yo‘q edi. Turkiston XKS Petrogradda V.I. Lenin boshchiligidagi Xalq Komissarlari Sovetini Markaziy hukumat sifatida tan oladi.

Bolsheviklar hokimiyatga kelishi bilan o‘lkada Muvaqqat hukumat tuzulmalari, politsiya mahkamalari tugatiladi, ularinng o‘rnida yangi boshqaruv tizimi va xalq militsiyasi shakllantiriladi. 1917-yil 28-noyabrda esa sovetlarga qarshi qurolli harakatni bostirish maqsadida ishchilardan tuzilgan Qizil gvardiya tuziladi.

1918-yil 20-aprel va 1-mayda o‘lka Sovetlarining V qurultoyida RSFSR tarkibidagi Turkiston Avtonom Sovet Sotsial istik Respublikasi (TASSR) tuzilganligini e’lon qilinaadi. Unda Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi (MIQ) va Xalq Komissarlari Soveti (XKS) saylanadi.

1918-yil 17-25-iyunda Turkiston bolsheviklarining o‘lka konferensiyasida RKP(b) tarkibidagi Turkiston Kompartiyasi tuziladi. Bu vaqtda bolsheviklarning umumiy soni ikki ming kishi atrofida edi. Bolsheviklar partiyasida mahalliy xalq vakillarining nufuzini oshirish maqsadida 1919-yil martda Turkiston Kompartiyasi huzurida O‘lka musulmonlari byurosi (“Musbyuro”) tuziladi. 1918-yil oktyabrdan TASSR Konstitutsiyasi qabul qilinadi, unda Turkiston RSFSRning tarkibiy qismi ekanligi belgilanadi.

1919-yil 19-yanvarda Toshkenda K.Osipov boshchiligidagi bolsheviklarga qarshi isyon ko‘tariladi va 14 nafar Turkiston xalq komissarlari o‘ldiriladi. Biroq isyon tez orada bostiriladi.

RSFSR hukumati Turkistonda o‘z ta’sirini yanada mustahkamlash maqsadida 1919-yil kuzida Toshkentga favqulodda katta vakolatlarga ega bo‘lgan Sh. Eliava boshchiligidagi M. Frunze, F. Goloshchekin, V. Bokiy, V. Kuybishev va Ya. Rudzutakdan iborat bo‘lgan guruh (Turkkomissiya) ni jo‘natadi. Maqsad TASSRda sovet hokimiyatini mustahkamlash va bolsheviklar mavqeini har jihatdan kuchaytirish edi.

Turkiston muxtoriyati. V.I. Lenin imzolangan “Rossiya xalqlari huquqlari Deklaratsiyasi”, “Ezilgan va ekspluatatsiya qilinuvchi xalqlar huquqlari Deklaratsiyasi”, “Rossiya va Sharq musulmonlariga” murojaatida, shuningdek, Bolsheviklar partiyasining dasturida millatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi huquqlari ilgari surilgan edi. Bundan ruhlangan siyosiy kuchlar 1917–yil 26–

noyabrdagi Qo‘qonda o‘lka musulmonlarining IV favqulodda qurultoyda Turkiston Muxtoriyati tuzilganligi e’lon qilinadi. Qurultoy qarorida shunday deyiladi: “Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da’vat etgan xalqlarning o‘z huquqlarini o‘zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Federativ Rossiya respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e’lon qiladi, shu bilan birga muxtoriyatning qaror topish shakllarini Ta’sis majlisiga havola etadi”. “Turkistonda yashab turgan milliy ozchilik aholi huquqlarining muttasil himoya qilinishini tantanali ravishda e’lon qiladi”. Turkistonning beshta viloyatidan 200 nafardan ziyod vakil qatnashgan ushbu qurultoyda “Sho‘roi Islomiya”, “Sho‘roi Ulamo”, Musulmon harbiylari Sho‘rosi va o‘lka yahudiylar jamiyatining vakillari ham qatnashadi. Kun tartibiga o‘lkani boshqarish shakli, Turkiston Markaziy musulmonlar kengashini qayta saylash, Turkiston Ta’sis majlisi, miliitsiya, moliya va boshqa masalalar qo‘yiladi.

Qurultoyda Ta’sis majlisi chaqirilgunga qadar hokimiyat Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq Majlisi (54 kishidan iborat) ixtiyorida bo‘lishligi ta’kidlandi. Shuningdek, Turkiston Muxtoriyatining oliv organi, 12 kishidan iborat Muvaqqat Kengash tuziladi.

Muvaqqat kengash tarkibida ishbilamonlar va ziyolilardan iborat bo‘lib, uning faoliyatida ishchi, dehqon va kosiblar vakillari qatnashmagan. Muvaqqat kengashning maqsadi Turkiston mustaqilligini asta-sekin tiklash edi. 1917-yil dekabrda Turkistonning yirik shaharlarida muxtoriyatni yoqlab chiqishlar bo‘lib o‘tadi. Ammo bolsheviklar muxtoriyat tarafdorlari mitinglarini tarqatib yuboradi.

Qo‘qonda 1917–yil 25–dekabrda 200 kishidan iborat musulmon ishchi, askar va dehqonlarining I favqulodda qurultoyi ochiladi. Qurultoyda muxtoriyat ma’qullandi va RSFSR XKS Raisi V.I. Leninga Turkiston muxtoriyatini e’tirof etishni so‘rab telegramma yuboriladi.

V.I. Lenin boshchiligidagi RSFSR hukumati va unga bo‘ysunuvchi Turkiston XKS muxtoriyatni qabul qilishi mumkin emas edi. Bolsheviklar o‘zlarini ishchi, dehqon, umuman, kambag‘allar manfaatlarining himoyachisi deb bilishardi, ularning nazarida Turkiston muxtoriyati boyolar (ekspluatatorlar) hokimiyati edi.

Shu bois ham 1918-yil 19 – 26 yanvarda bo‘lib o‘tgan Turkiston o‘lka sovetlarining IV s’ezdida Turkiston muxtoriyatining legitimligi butunlay inkor etiladi va uning a’zolarini hibsga olinishi xususida qaror qabul etiladi²⁵.

Bir tomondan, Qo‘qon (Turkiston) muxtoriyati, eng avvalo, harbiy jihatdan zaif bo‘lganligi bois bolsheviklar hukumatining qurolli kuchlariga qarshi turolmasdi. Ikkinchi tomondan, muxtoriyatchilarda bolsheviklardan farqli ravishda umumiy maqsadga erishish yo‘lida o‘zaro birikuv, temir intizom ham yo‘q edi. 1918-yil 18-fevralda “Ulamo” jamiyati tashabbusi ostida Muxtoriyatda to‘ntarish amalga oshirilib, Mustafo Cho‘qaev boshchiligidagi hukumat ag‘dariladi va hokimiyatni Kichik Ergash egallaydi. Bolsheviklar boshchiligidagi Turkiston sovet hukumati esa tezkorlik bilan harakat qiladi. 1918-yil 14-fevralda Farg‘ona viloyatida harbiy holat e’lon qilinadi. Toshkentdan harbiy kuchlar va millatchi arman dashnoqlari Qo‘qon muxtoriyatini bostirish uchun yuboriladi. Ayni vaqtda Bolsheviklar ta’siri kuchli bo‘lgan Qo‘qon ishchi va askar deputatlari soveti ham muxtoriyatchilarni taslim bo‘lishga chaqiradi. 19 – 21 fevraldaggi janglarda Turkiston Muxtoriyati mag‘lubiyatga uchraydi.

Turkiston Muxtoriyati tugatilishi natijasida ko‘plab qurbanlar bo‘ldi, tinch aholi jabr tortdi. Bu haqda sovet davlati arbobi D. Manjara shunday deydi: “Milliy siyosatda yo‘l qo‘yilgan xatolarimiz tufayli Qo‘qon muxtoriyati vujudga keldi. Uni yo‘qotish paytida yana bir xatoga yo‘l qo‘ydik. Qurol-yarog‘i deyarli bo‘limgan muxtoriyatchilar joylashgan eski shaharni qamal qilish o‘rniga, biz to‘plardan o‘qqa tutdik, keyin dashnoqlarning qurolli to‘dalarini ishga soldik. Natijada talontaroj, nomusga tegish, qirg‘in boshlandi. Bundan muxtoriyatchilarga aloqasi bo‘limgan tinch aholi katta zarar ko‘rdi”.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi vaziyat. 1917-yil oktyabrdan Bolsheviklar hokimiyatga kelishi bilan ishlab chiqarishning strategik sohalari, yirik sanoat, banklar, aloqa, pochta davlat tasarrufiga o‘tadi, er osti va er usti boyliklari umumxalq mulki deb e’lon qilinadi. 1917-yil oxirlaridan ishlab chiqarish

²⁵ 1917-yil 26-30-dekabrda (1918 yil 8 – 12-yanvarda) Qo‘qon shahrida bo‘lib o‘tgan erli ishchi, askar va dehqon deputatlari I favqulodda qurultoyida Turkiston XKS mehnat komissari P.Poltoratskiy xalqimiz tarixidagi ilk demokratik hukumatni “boylar muxtoriyati” deb ataydi..

korxonalarida ishchi nazorati joriy qilinadi. 1918-yil martda sanoat korxonalarining 10%da ishchi nazorati o‘rnataladi. 1918-yilning birinchi yarmida o‘lka sanoatining etakchi tarmoqlari – paxta tozalash, yog‘-moy zavodlari, paxtaning mavjud barcha zaxiralari, bosmaxonalar, banklar, temir yo‘llar, ko‘mir va neft konlarining bir qismi, 330 dan ortiq sanoat korxonasi davlat tasarrufiga o‘tkaziladi.

Sovetlarning II Butunrossiya s’ezdi (1917 yil, oktyabr) kam yerli va yersiz dehqonlar uchun manfaatli bo‘lgan “Er to‘g‘risida”gi dekretni qabul qiladi. Unda erga xususiy mulkchilik bekor etiladi, yirik zamindorlarning yerlari kam yerli va yersiz dehqonlarga bo‘lib berilishi belgilangan edi. Dehqonlar ixtiyoriga o‘tkazilgan yerlardan qishloq ahli teng asosda foydalana boshlaydi. 1917-yil 6-dekabrdan Turkiston XKS qabul qilgan qarorda shunday deyiladi: “Davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan yerlardan tashqari, barcha yerlar darhol viloyat va uezd er qo‘mitalari hisobiga o‘tkazilsin, bunday qo‘mitalar bo‘lmagan joylarda dehqon va musulmon deputatlari viloyat va uezd kengashlari ixtiyoriga berilsin, ular endi er qo‘mitalarini tashkil etishga kirishmoqlari lozim”.

1918-yil mayda boshlangan fuqarolar urushi va chet el intervensiysi natijasida Sovet Rossiysi frontlar halqasi ichida qoladi. Markaziy rayonlardan uzilib qolgan Turkistonda Kaspiyorti, Orenburg-Aktyubinsk va Ettisuv frontlari tashkil etiladi. Sovetlarga qarshi harakat Turkistonda, ayniqsa, Farg‘onada avj oladi, natijada bolsheviklar rejimi og‘ir ahvolda qoladi.

Mana shunday murakkab, oziq-ovqat mahsulotlari o‘ta taqchilligi sharoitlarida bolsheviklar hukumati nafaqat harbiy sohada, shu bilan birga iqtisodiy sohada “harbiy kommunizm” siyosatini yurgizadi. Bir qarashda “harbiy kommunizm siyosati” urush va xo‘jalik vayronagarchiligi tufayli ochlikka mahkum xalqni oziq-ovqat bilan ta’minalash edi. Aslida esa ushbu siyosat shahar va qishloq o‘rtasida tovar-pul munosabatlarisiz mahsulot ayriboshlashga asoslangan, uning mohiyati Qizil Armiya va sovet hokimiyatining ijtimoiy tayanchi bo‘lgan ishchilar sinfini oziq-ovqat bilan ta’minalashdan iborat edi. Ayni vaqtda “harbiy

“kommunizm” inqilobni harbiy yo‘l bilan himoya qilish va sotsialistik davlat qurish usuli sifatida bolsheviklar foydalangan vaqtinchalik siyosat ham edi.

Oziq-ovqat razvyorstkasi dehqonlar hosilidan ularga kerakli ma’lum bir qismini qoldirib, qolganini davlat foydasiga o‘zlashtirishdan iborat edi. “Harbiy kommunizm” davrida pul-tovar munosabatlari taqiqlandi.

Xorazm va Buxoroda demokratik harakatlar. Xiva xonligi va Buxoro amirligining emirilishi. 1917-yilgi fevral inqilobi natijasida Xiva xonligi va Buxoro amirligida ham demokratik harakatlar shakllana boshladi. Xususan, xonlikda “Yosh xivaliklar” harakati siyosiy rejimni o‘zgartirish, xon hokimiyatini cheklash va demokratik o‘zgarishlarga qaratilgan edi. Ya’ni, “Yosh xivaliklar”ning dasturiy maqsadi mamlakatda konstitutsiyaviy monarxiya boshqaruv usulini joriy etish va bu orqali mustabid xon tuzumiga barham berish, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy-siyosiy va madaniy sohalarda tub islohotlarni amalga oshirish, ya’ni jamiyatni zamonaviylashtirish (modernizatsiya etish) zarurligi o‘z ifodasini topgandi.

1917-yil 5-aprelda Xiva xoni Isfandiyorxon siyosiy vaziyat nazoratdan butunlay chiqib ketishidan xavfsirab, o‘zi ham imperator Nikolay II ahvoliga tushishidan qo‘rqib manifest e’lon qilishga majbur bo‘ladi. Manifestda mamlakatda konstitutsiyaviy monarxiya o‘rnatalishi va 30–50 kishidan iborat yirik ruhoniylar, yirik savdogarlar, sanoatchilar va zodagonlardan saylanadigan Majlis va Nozirlar Kengashi tuzilishi e’lon qilinadi. 1917-yil 26-aprelda Majlis ish boshlaydi va unda Majlis raisi etib Bobooxun Salimov, hukumat raisi etib Husaynbek Matmurodov saylanadi.

Dastlab xon temir yo‘l qurish, yangi jadid maktablarni ochish to‘g‘risida va’dalar beradi. Ammo Isfandiyorxon va saroy ahli demokratik o‘zgarishlarga dushmanlik pozitsiyasida bo‘lib, ular umrini yashab bo‘lgan, zamon talablariga javob bermaydigan o‘rta asrlarga xos boshqaruv tizimni saqlab qolishga intilishadi.

1917-yil iyunda Isfandiyorxon “Yosh xivaliklar” harakati etakchilarini hibsga oladi. “Yosh xivaliklar”ning ko‘pchiligi mamlakatdan qochishga majbur bo‘lishadi.

1917-yil oktyabr qo‘zg‘oloni va Turkistonda bolsheviklarning hokimiyat tepasiga kelishi Xiva xonligidagi siyosiy vaziyatning o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Xonlikning ichkarisi va tashqaridagi demokratik kuchlar, aholining qashshoq, kambag‘al qismining ham siyosiy faolligi oshib boradi. Ayniqsa, Ko‘hna Urganch, Xo‘jayli, Qo‘ng‘iroq, Taxta, Porsuda noroziliklar kuchayadi. Bu vaqtida Isfandiyorxon turkmanlar sardori Junaidxonga qarshi ham kurash olib borayotgan edi. Kuchlar nisbati Isfandiyorxon foydasiga bo‘limganligidan Isfandiyorxon 1918-yil yanvarida Junaidni Xiva qo‘shiniga qo‘mondon etib tayinlashga majbur bo‘ladi. Bu esa siyosiy vaziyatni yanada murakkablashtirib yuboradi, pirovardida, Junaidxon Isfandiyorxonni qatl ettiradi va taxtga “qo‘g‘irchoq” xon Said Abdullani o‘tqazadi. Junaid davrida o‘troq xalqning ahvoli og‘irlashadi va odamlar Amudaryo bo‘limiga, Petro-Aleksandrovske (To‘rtko‘l) shahriga qochib o‘tishi kuchayadi. Voqealarning bunday rivojidan bolsheviklar oqilona foydalanishadi. Qochoqlar qizillar qo‘shiniga qabul qilinishadi va ularning ishtirokida ham N.A.Shaydakov va N.M.Shcherbakov boshchiligidagi harbiy qismlar tuziladi.

1918–yil noyabr oxirlarida Junaidxon qo‘shinlari Amudaryodan o‘tib, To‘rtko‘lni qamal qiladi. Lekin Chorjo‘ydan Amudaryo orqali etib kelgan harbiy kuchlar Junaidxon hujumi bartaraf etiladi va u bilan sulh tuziladi.

1919–yil dekabrda Qizil Armiya qismlari, o‘zbek va turkmanlar tashkil topgan harbiy guruhlar Junaidxonga qarshi harbiy harakatlarni boshlab yuborishadi. Junaidxon mag‘lubiyatga uchraydi va 1920-yil 2-fevralda Xiva egallanadi. Xiva xonligida Shcherbakov va Shaydakov boshchiligidagi Qizil Armiya harbiy qismlari kuchi yordamida siyosiy tuzum o‘zgaradi va hokimiyat besh kishidan iborat Inqilobiy qo‘mita ixtiyoriga o‘tadi. Uning tarkibiga “Yosh xivaliklar” va turkman qabilalari vakillari kiritiladi. Inqilobiy qo‘mita raisi etib “Yosh xivaliklar” rahbari D. Sultonmurodov tayinlanadi va “Yosh xivaliklar” manifesti e’lon qilinadi.

Manifestda Xorazmda feodal tartiblarni barham toptirish va burjua-demokratik rivojlanish yo‘lini aks etgan shunday keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar o‘tkazish e’lon qilingan bo‘lib, unda Xon va uning hukumati

tomonidan mamlakatni mutlaq boshqarishni butkul barham toptirish; Xiva xoniga, to‘ralar va vazirlarga tegishli bo‘lgan mablag‘lar va mulklarni xalq mulki deb e’lon qilish; kambag‘allar hayotini yaxshilash yo‘lida yirik zamindorlar yerlaridan foydalanish; bolalarmi bepul o‘qitish uchun maktablar ochish; shaharlar va aholi manzilgohlarida bepul shifoxonalar va sog‘lomlashtirish muassasalari ochish; Xiva xoni va beklar tomonidan kambag‘al aholidan tortib olingan yerlar, mulk va boshqa narsalarni qaytarib berish; majburiy mehnatga jalb qilish (begor)ni butunlay yo‘q qilish belgilangan edi.

1920-yil 27-30 aprelda Xivada bo‘lib o‘tgan xalq vakillarining Butunxorazm qurultoyida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligini e’lon qilinadi va “Yosh xivaliklar” etakchilaridan Polvonniyoz Yusupov rahbarligida 15 kishidan iborat hukumat – Xalq Nozirlar Kengashi saylanadi. 1920-yil iyunda RKP(b) ta’sirida Xorazm Kommunistik partiyasi tashkil etiladi. Bu vaqtida kommunistlar soni ming kishi atrofida edi, ammo ular uyushgan va aniq harakat dasturiga ega va Sovet Rossiyaning ta’sir agenti ham edi. Xorazm Xalq Sovet Respublikasi va Sovet Rossiysi o‘rtasida 1920-yil 13-sentyabrda ittifoq shartnomasi imzolanadi. Ushbu ittifoq shartnomasi va keyinchalik tuzilgan harbiy-siyosiy va iqtisodiy kelishuvlarga asosida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi Sovet Rossiysi bilan harbiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi aloqalarni kuchaytirdi. Bu bilan XXSR Sovet Rossiyaning ta’siriga tushib qoladi. Shunga qaramasdan, respublikaning ko‘plab mahalliy rahbar kadrlari mustaqilliklik uchun intilishadilar. Xususan, buni 1923-yil bahorida XXSR savdo-sanoat noziri K.Nurullaev Moskvada RSFSR bilan bo‘layotgan muzokaralarda Xorazm foydasiga ish ko‘rgani sababli chaqirilib, hibsga olinishida ham ko‘rish mumkin.

1923-yilning yozi va kuzida Xorazmda siyosiy kurash kuchayib ketadi. 1923-yil oktyabrda IV Butunxorazm Sovetlari Qurultoyi XXSR Xorazm Sovet Sotsial istik Respublikasi (XSSR) deb e’lon qilinadi va mamlakatning sotsial istik qurilish yo‘liga o‘tishini huquqiy jihatdan belgilab bergen yangi Konstitutsiya qabul qilinadi. Unda Xorazmda Sovetlar rahbarligida amalga oshirilgan o‘zgarishlar natijasida mamlakat o‘z rivojlanishida yangi, sotsial istik

bosqichiga kirganligi ta’kidlanadi va erga bo‘lgan xususiy mulkchilikni bekor qilinadi, barcha yerlar umumxalq mulki deb e’lon qilinadi. Vaqf mulklari maorif nozirligi ixtiyoriga o‘tadi.

Xullas, XXSR va keyinchalik XSSRning qisqa muddatli tarixiy rivojlanishi murakkab sharoitlarda kechdi. Xorazm Respublikasining ichki ishlariga aralashish, mahalliy sharoitlarni hisobga olmaslik, markazning ko‘rsatmasi bilan hali ob’yektiv sharoitlar etilmagan mamlakatning “sotsial istik respublika” deb e’lon qilinishi va boshqa omillar sovetlashtirish jarayonini tezlashtirdi.

Buxoro amirligining ag‘darilishi. Rossiyadagi 1917-yildagi fevral inqilobi Buxoro amirligida ham ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni yanada tezlashtirib yubordi. Bu vaqtda Buxoroda jadidchilik harakatidan o‘sib chiqqan va 1910-yildayoq shakllanib ulgurgan “Yosh buxoroliklar” tashkilotining faoliyati ancha kuchaygan edi. Taraqqiyparvar ziyoli yoshlardan iborat bo‘lgan “Yosh buxoroliklar” keng xalq ommasi manfaatlarining ifodachisi edi. Harakatining maqsadi dastlab mamlakatda demokratik islohotlarni o‘tkazish, konstitutsiyaviy monarxiyani qaror toptirish, maorifni yaxshilash kabi masalalardan iborat edi.

1917-yil 7-aprelda amir “Yosh buxoroliklar” talablari asosida islohotlar o‘tkazish haqida farmon chiqarishga majbur bo‘ladi. Farmonda amirlikdagi boshqaruv tizimini o‘zgartirish, amaldorlarni saylab qo‘yish, Buxoroda shahar xo‘jaligi, xalq ta’limi va sog‘liqni saqlashni boshqarish uchun amaldorlar, savdogarlar va ulamolardan iborat majlis tuzish, soliqlarni muqobillashtirish, aniq davlat byudjetini o‘rnatish, savdo-sotiqni kuchaytirish, fanni rivojlantirish masalalari qamrab olingan edi.

1917-yil 9-aprelda jadidlar Buxoroda islohotlarni ma’qullab namoyish o‘tkazadilar. Ammo namoyish tarqatib yuboriladi, “Yosh buxoroliklar” ta’qib ostiga olinadi.

1917-yil oktyabr to‘ntarishidan keyin Sovet Rossiysi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi munosabatlar keskinlashib ketadi. Bolsheviklar Buxoro amirligi mustaqilligini tan olsada, ammo ular buxoro jadidlarini qo‘llab-quvvatlaydi. 1918-yil yanvarda “Yosh buxoroliklar” partiyasining dasturi qabul qilindi. Dasturda

amirlikda konstitutsiyaviy monarxiyani o‘rnatish, mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va harbiy mustaqillikni ta’minlash, madaniy taraqqiyotga erishish, dehqonchilik va soliq tizimiga e’tibor qaratish, zamonaviy armiyani tashkil etish, ikki yillik majburiy harbiy xizmatni joriy etish, davlat hisobidan maktablar va oliy o‘quv yurtlari ochish masalalari qamrab olingan, 10 ta nozirlikdan iborat Nozirlar Sho‘rosi tuzish taklif etilgan edi.

1918-yil 2-martda Turkiston XKS raisi F. Kolesov boshchiligidagi harbiy qismlar Buxoroga Kogon temir yo‘li yoqalab muvaffaqiyatsiz hujum uyushtiradi. Shundan so‘ng Said Olimxon Buxoro jadidlarini qattiq ta’qib ostiga oladi. F.Xo‘jayevning guvohlik berishicha, “Yosh buxoroliklar” va ularning tarafdarlaridan uch ming kishi qatl etiladi.

1918-yil sentyabrda Toshkentda “Yosh buxoroliklar”ning bir qismi tomonidan Buxoro kommunistik partiyasi tuziladi. 1920-yil yanvarda Toshkentda F.Xo‘jayev boshchiligidagi “Yosh buxorolik inqilobchilar partiyasining Turkiston Markaziy byurosi” tashkil etiladi va uni Turkkomissiya hamda RSFSR hukumati e’tirof etadi.

1920-yil 13-14 iyunda “Yosh buxoroliklar” partiyasining Turkiston Markaziy byurosi birlashgan konferensiyasida F.Xo‘jayev tuzgan Dastur qabul qilinadi. “Yosh buxoroliklar” dasturida amir hokimiyatini tugatish, demokratik respublika tuzish aks etgan edi.

1920-yil 29-avgustda Chorj’oyda amirga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tariladi. Qo‘zg‘olonchilar sovet hukumatidan “yordam” so‘raydi. Bu Qizil Armiya qismlarining Buxoro amirligiga bostirib kirishiga bahona bo‘ladi. Qizil askarlar 20 ming kishilik amir qo‘shindan kam bo‘lsada, ammo harbiy texnika va qurol-aslahalar bilan yaxshi quollangan edi.

1920-yil 2-sentyabrda Amir Olimxon Buxoroni tashlab qochadi va hokimiyat Muvaqqat Butunbuxoro Inqilobiy qo‘mita qo‘liga o‘tadi. 1920-yil 14-sentyabrda BKP MQ va Muvaqqat Butunbuxoro Inqilobiy qo‘mitasining birlashgan majlisi bo‘lib o‘tadi. Majlisda A.Muhitdinov boshchiligidagi qonun chiqaruvchi oliy organ – Butunbuxoro Inqilobiy qo‘mitasi va F. Xo‘jayev

raisligida Xalq Nozirlar Kengashi (hukumat) tuziladi. 6 – 8 oktyabrdagi bo‘lib o‘tgan I Butunbuxoro qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) tashkil etilganligi e’lon qilinadi.

1921-yil 4-martda Moskvada BXSR va RSFSR o‘rtasida Ittifoq shartnomasi va iqtisodiy bitim imzolandi. RSFSR hukumati Buxoro Respublikasini to‘la o‘z ta’siriga oldi. Zero BXSRdagi hokimiyatda bo‘lgan partiya – Buxoro kommunistik partiyasi Rossiya kompartiyasi (RKP (b))ga bo‘ysunar edi.

RKP (b) MQ 1922-yil mayda “Turkiston-Buxoro ishlari haqida” qaror qabul qilinib, unda O‘rta Osiyoda, xususan, Buxoroda “sotsial istik tuzumni mustahkamlash” belgilangan edi. Shuningdek, RKP (b) MQ ning 1923-yil 12-iyunda qabul qilgan Buxoro masalasiga doir maxsus qarori ham bu davlatning ichki ishlariga aralashish edi. Unda Buxoroning rivojlanish jarayonini “sotsial istik iz”ga burib yuborish maqsadi ko‘zda tutilgandi. Buxoro manfaatlarini himoya etgan, inqilobiy harakatning faol ishtirokchilari bo‘lgan M. Aminov, A. Fitrat, Yoqubzoda va boshqalar respublika hukumati tarkibidan chiqariladi.

1921-yil sentyabrida BXSR Konstitutsiyasi qabul qilinadi. 1923-yil martida O‘rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi tuziladi va unga BXSRning ham kiritiladi. RSFSR hukumati tazyiqida mamlakatda sotsial istik o‘zgarishlar amalga oshirildi. Bu vaqtda Buxoro hukumatida kommunistlar ta’siri kuchli edi. Shu sababdan ham 1924-yil sentyabrdagi V Butunbuxoro qurultoyi BXSRni Buxoro Sovet Sotsial istik Respublikasi deb e’lon qiladi. 1924-yildagi milliy-davlat chegaralanishi natijasida esa BSSR davlat sifatida tugatiladi, uning hududlari O‘zbekiston va Turkmaniston SSR tarkibiga kiritiladi.

Turkistonda sovetlarga qarshi kurash. Turkistonda nisbatan qisqa vaqtda sovet hokimiyati o‘rnatilgach, eng avvalo, bolsheviklarning iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlariga qarshi harakat vujudga keldi. Sovet davrida ushbu harakat “bosmachilar harakati”, “aksilinqilobiy kuchlar bosqini” deb nomlangan edi.

1918-yil bahoridan sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat boshlanib, uning o‘chog‘i dastlab Farg‘ona vodiysi edi. Keyinchalik qurolli harakat asta-sekin O‘zbekistonning boshqa hududlarini qamrab oladi.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida davlat organlari asosan yevropaliklardan iborat, mahalliy xalq vakillariga keyinroq o‘rin berila boshlangan. Ayni vaqtida mahalliy shart-sharoitlarni bilmaslik, diniy e’tiqodga e’tiborsizlik, aniqrog‘i, ruhoniylarga taraqqiyot dushmani reaksiyonerlar, ishchi-dehqon manfaatlarini himoya qiladigan yangi tuzum dushmani sifatida munosabatda bo‘lish ham norozilik paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Turkiston Muxtoriyatining bostirilishi ham ziyolilar qatlamida sovet hokimiyatidan norozi kuchlarni shakllantirdi.

Sovet hokimiyatining boylar, yirik zamindorlar, vaqf mulklarining katta qisminin tortib olish, davlat tasarrufiga o‘tkazishi va kambag‘allarga bo‘lib berish siyosati ham sovet tuzumiga qarshi kuchlarni faollashtirdi.

1918-yil bahoridan Farg‘ona vodiysida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatga Kichik va Katta Ergash, Madaminbek, Shermuhammadbek, Xolxo‘ja Eshon, Rahmonqul, Islom Pahlavon, Aliyor, To‘ychi qo‘rboshilar etakchilik qilishadi. 1918-yil fevralda Kichik Ergash halok bo‘ladi. 1918- yil kuzida Katta Ergash 15 ming jangchidan iborat qo‘shinga boshchilik qilardi. Madaminbekning 5 ming, Shermuhammadbekning 6 ming, Parpi qo‘rboshining 3,6 ming, Xolxo‘janing 3 ming, Muhiddinbekning 4,5 ming, Jonibek qo‘rboshining esa 5,7 ming jangchisi bor edi .

1918-yil martda qo‘rboshilar qurultoyida Katta Ergash “Amir al–Muslimin” unvonida vodiy qo‘rboshilarning etakchisi eitb, uning o‘rinbosarlari etib Madaminbek va Shermuhammadbek saylanadi. Madaminbek (1892 – 1920) harbiy mahorati va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega shaxs edi. 1919-yil o‘rtalariga kelib Madaminbek qo‘shini 25 ming kishiga etadi. 1919-yil aprelda Madaminbek qo‘shini qizillarga qarshi bir necha janglarda g‘alabaga erishadi.

Sovetlarga qarshi harakatning asosiy ijtimoiy negizi boy tabaqalar, yirik egalari, ruhoniylarning yuqori qatlami, savdogarlar, ziyolilarning ma’lum bir qismi tashkil etar, shuningdek, o‘rtalik hol dehqonlar, hunarmandlar ham ishtirot etgan. Ayniqsa bolsheviklar tomonidan diniy qatlam vakillariga nisbatan salbiy munosabat, mahalliy aholi vakillarining boshqaruvi organlarida nisbatan kamligi,

inqilobiy mafkura (“qashshoqlarning vatani bo‘lmasligi”) asosida olib borilgan siyosat ichki norozilikni kuchaytirgandi. Keyinroq yo‘l qo‘yilgan bunday holatning nomaqbulligini bolsheviklar rahbariyati ham tushungan. Xususan, bu xususda Farg‘ona fronti qo‘mondoni M.Frunze shunday deydi: “.... Bu erdag‘i sovet hokimiyati ilk tuzilishi davrida rus va yerli ishchi, dehqon ommalarini o‘ziga tortish o‘rniga, mehnatkash xalqni o‘zidan uzoqlashtirish uchun ko‘lidan kelgancha harakat qildi. Ishlab chiqarishning natsionalizatsiya qilinishida faqat burjuaziyaning mulki emas, balki o‘rta hol dehqonlarniki ham tortib olindi.Bu erda harakat qilgan qizil askar qismlari, inqilobni himoya qilgan ba’zi rahbarlar yerli mehnatkash xalqning tub manfaatlari bilan hisoblashmadi, uning arzu–dodiga quloq solmadi. Bosmachilik harakati shu asosda vujudga keldi. Bosmachilik – oddiy qaroqchilar emas. Shunda ularni tez yo‘q qilish mumkin bo‘lardi”. TASSR XKK raisi Q. Otaboyev esa 1922-yil iyulida Turkiston MIQ IV plenumida so‘zlagan nutqida bu harakatni xalq ko‘zg‘oloni sifatida baholagan edi: “Biz 4 yil davomida bu harakatga hatto to‘g‘ri baho berishni ham bilmadik, u xalq ko‘zg‘oloni bo‘lgani holda bosmachilik deb atadik. Bosmachilik mohiyatan talonchilik degan ma’noni anglatadi, bizning ushbu harakatga bergen noto‘g‘ri ta’rifimiz masalani hal etishda noto‘g‘ri yondashuvlarga olib keldi. Va alaloqibat 4 yil davomida biz bu harakatning biron bir jihatini tugata olmadik”.

1919-yil kuzda Madaminbek Farg‘onaning katta qismida o‘z hukmronligini o‘rnatishga muvaffaq bo‘ladi. Madaminbekka K. Monstrov boshchiligida rus dehqonlaridan tuzilgan harbiy kuchlar ham qo‘shiladi. Chunki bolsheviklarning iqtisodiy siyosatidan o‘ziga to‘q rus dehqonlari ham norozi edi. 1919-yil 22-oktyabrda Madaminbek boshchiligida **Farg‘ona Muvaqqat Muxtoriyat hukumati** tuziladi.

1919-yil oktyabr oxirida Andijonga yaqin Oyimqishloqda Farg‘ona vodiysi qo‘rboshilari qurultoyi bo‘lib o‘tadi. Unda vodiyyda harakat qilayotgan 150 qo‘rboshi dastalari to‘rtta lashkarboshi: Madaminbek, Ergash, Shermuhammadbek

va Xolxo‘ja Eshon qo‘mondonligi ostiga birlashtirildi²⁶. Qurultoyda qo‘rboshilar boshlig‘i (islom qo‘shinlarining oliv bosh qo‘mondoni – “Amir al-muslimin”) qilib Madaminbek saylanadi. Biroq qo‘rboshilar o‘rtasidagi ichki ixtiloflar kuchli edi. Ba’zi qo‘rboshilar esa Madaminbekka ochiqdan ochiq bo‘ysunmaydi.

1920–yil yanvar o‘rtalarida harbiy tashabbus Qizil Armiyaga o‘tadi va qo‘rboshilar birin ketin mag‘lbiyatga uchray boshlaydi. Shunday sharoitlarda Madaminbek bolsheviklar bilan yarashuv bitimini tuzishdan boshqa iloji qolmaydi. Madaminbekning bolsheviklar tomoniga o‘tishi qo‘rboshilar tomonidan xiyonat sifatida baholanadi. 1920–yil 14–mayda Madaminbek qo‘rboshilar bilan muzokara vaqtida o‘ldiriladi.

Shundan so‘ng Farg‘onada sovet hokimiyatiga qarshi kurash ko‘lamni pasayib boradi. 1920 – 1924 yillarda kichik guruqlar jang harakatlarini olib borishgan. Ammo ular o‘rtasida ham birlik bo‘lmagan.

1920 – 1924 yillarda bolsheviklarga qarshi kurash Buxoro va Xorazm respublikalarida ham avj oladi. Bu erda sovetlarga qarshi kurash murakkabligi bilan Turkiston o‘lkasining boshqa joylaridan farq qilgan. Chunki Buxoro amirligida “Yosh buxoroliklar”, Xiva xonligida esa “Yosh xivaliklar” kabi demokratik kuchlar bolsheviklar yordamida hokimiyatga kelishgan edi. Shu sababdan BXSR va XXSRdagi qurolli muxolifat bir vaqtning o‘zida ikki kuchga: Qizil Armiya qismlariga va bolsheviklar yordamida hokimiyatni egallab olgan demokratik kuchlarga ham qarshi urush olib borishgan.

Buxoroda aksilsoviet harakat etakchilaridan Ibrohimbek (1889 – 1931) edi. Uning maqsadi Buxoroda amir hokimiysi qayta tiklash edi. Ibrohimbek amir Olimxon tomonidan “Islom lashkarboshisi” unvoniga ega bo‘ladi. U Qorategin va Darvoz viloyatlarida amirlik davridagi boshqaruvni tiklaydi. Ibrohimbek 1931–yilda asir olinadi va sud hukmi bilan otib o‘ldiriladi.

Buxoroning markaziy va g‘arbiy hududlarida Mulla Abdulqahhor (1884 – 1924) boshliq aksilsoviet kuchlar harakatlangan. Mulla Abdulqahhor 1924–yil

²⁶ Farg‘ona VDA, 435-fond, 1-ro‘yxat, 220-yig‘ma jild, 102-varaq..

yoz va kuzda faol harbiy harakatlar olib boradi. Ammo janglarning birida Mulla Abdulqahhor halok bo‘ladi.

Xorazmda qizillarga qarshi kurashga turkmanlarning yovmut urug‘i boshlig‘i Qurbon Mamed Sardor – Junaidxon etakchilik qiladi. Junaidxon 20000 kishidan iborat qo‘shin tuzishga muvaffaq bo‘ladi va 1920-yilning yozida Ko‘hna Urganch, Xo‘jayli, Iloli va Taxtani egallab, ko‘plab qizil askarlarni asirga oladi. Shundan so‘ng Junaidxon sovet qo‘mondonligiga maktub yo‘llaydi, unda Qizil Armiya qismlari Xorazmdan chiqib ketmasa, asirlarni o‘ldirishini bildiradi. Biroq Junaidxon talabi rad etiladi, natijada asirlar qatl etiladi.

1924–yil 10 – yanvarda Junaidxon tomonidan Xiva shahrining qamali boshlanadi. RKP(b) MQ O‘rta Osiyo byurosi Junaidxonga qarshi qo‘shimcha harbiy qismlarni jo‘natadi. Natijada Junaidxon mag‘lubiyatga uchraydi.

Istiqlolchilar mag‘lubiyatining sabablari. Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi harakatning mag‘lubiyatga uchrashi bir qancha ob’yektiv va sub’ektiv omillarga bog‘liq edi. Birinchidan, bolsheviklar fuqarolar urushi va 14 chet el mamlakatlarining Rossiyaga qarshi intervensiysi sharoitida kuchli armiyani tuzib, uni zamonaviy qurol–yarog‘lar va harbiy texnika bilan ta’minlay olishdi. 1919-yilda Farg‘ona Qizil Armiya tasarrufida 115376 nafar jangchi, 11112 ta pulemyot, yuzlab to‘plar, bronopoezdlar, o‘nlab samolyotlar va boshqa quollar bor edi. Qo‘rboshilar guruhlari zamonaviy aslahalarga ega bo‘lishsada, ammo ularda harbiy boshqaruv zaif, yagona qo‘mondonlik yo‘q edi. Qo‘rboshilarning kelishuvlari odatda bajarilmasdan qolardi. Ikkinchidan, istiqlolchilar o‘rtasida g‘oyaviy birlik zaif edi. Bolsheviklarga qarshi kurashda jadidlar, ruhoniylar va qo‘rboshilar o‘rtasida birlik etishmadni. Aksariyat qo‘rboshilarning g‘oyaviy-siyosiy salohiyati mavjud strategik maqsadlarni tushunishga va amalga oshirishga etmas edi. Bolsheviklardan farqli ravishda istiqlolchilar kambag‘allar, qashshoqlar manfaatlarini himoyasi bo‘yicha qandaydir progressiv iqtisodiy platforma ham ishlab chiqilmagan edi. Uchinchidan, Bolsheviklar o‘zлari yo‘l qo‘ygan xatolarni tuzatish, qo‘rboshilar bilan muzokaralar olib borish, o‘zlariga qarshi

kurashganlarni avf etish, ayniqsa, aholi orasida ulushi katta bo‘lgan kam yerli va yersiz kambag‘al dehqonlar, batraklar va yollanma ishchilar manfaatlarini bir qadar himoyalash, soliqlarni kamaytirish, bepul maktab ta’limi, bepul tibbiy xizmatni joriy etish orqali kuchlar nisbatini o‘z foydasiga hal etishga imkon topishdi.

Savollar va topshiriqlar

- 1.Fevral inqilobi natijasida Rossiyada va Turkistonda qanday siyosiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?
- 2.“Sho‘roi Islomiya” tashkiloti qanday maqsadlarda tashkil etilgan? Qanday kuchlar “Sho‘roi Ulamo” tashkilotini tuzadilar?
- 3.Umumturkiston musulmonlarining I va II qurultoylarida qanday masalalar ko‘rilgan?
- 4.Turkistonda Sovet hokimiyati qay tarzda o‘rnatildi?
- 5.Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining siyosiy va etnik tarkibi qanday edi?
- 6.Turkiston Muxtoriyatini mag‘lubiyati asosiy sabablarini tahlil qiling
- 7.Turkiston avtonom (muxtor) sovet sotsial istik respublikasining tuzilishi qanday maqsadlarni ko‘zda tutardi?
- 8.Farg‘ona vodiysida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli qarshilikning asosiy sabablari nimalardan iborat edi? Ularga kimlar boshchilik qilishgan?
- 9.1917–yilgi fevral va oktyabrъ o‘zgarishlari ta’sirida Xiva va Buxoroda ijtimoiy-siyosiy vaziyatning rivojlanib borishi
- 10.Qanday sabablarga ko‘ra sovet hokimiyatiga qarshi kuchlarlar mag‘lubiyatga uchraydi? Tahlil qiling.

14 – §. 20 – 30-yillarda O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayat

O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish va O‘zbekiston SSRning tashkil topishi. 1921 – 1924 yillar O‘zbekiston tarixida aksilsoviet kuchlarga

qarshi kurash, xalq xo‘jaligini tiklash, yagona markazdan turib sotsialistik qurilish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan ifodalanadi. Shuningdek, partiya, harbiy, ma’muriy va iqtisodiy sohalarda markazlashtirish siyosati olib borildi.

1922-yil mayda mintaqada asosiy boshqaruv organi bo‘lgan RKP(b) MQ Turkbyurosi O‘rta Osiyo byurosiga aylantirildi. 1920 – 1923 yillarda Turkistonga markazdan doimiy ravishda rahbar kadrlar va nazoratchilar yuborilib turilgan, Turkiston, Buxoro va Xorazm Respublikalarida 200 ming kishilik Qizil Armiya qismlari joylashgan. 1923-yil martda mintaqaga respublikalarini iqtisodiy birlashtirish maqsadida O‘rta Osiyo iqtisodiy kengashi (SredazEKOSO) tuziladi.

Bolsheviklar 1920-yillar boshlarigacha jahon proletar inqilobi boshlanishini kutib sotsialistik o‘zgarishlarni amalga oshirishdi. Chunki marksizm bo‘yicha sotsialistik davlat dushman kapitalistik mamlakatlar qurshovida yashab qolishi mumkin emassi. 1918 – 1919 yillarda Finlyandiya, Germaniya, Vengriya va Slovakiyada sotsialistik inqiloblar mag‘lubiyatga uchraydi, 1919-yilda Angliyadagi inqilobiy vaziyat inqilobga aylanmaydi. Shunday sharoitlarda bolsheviklar rahbari V.I. Lenin “bir mamlakatda sotsializm g‘alabasini ta’minlash” konsepsiysi ishlab chiqadi.

1922-yil 29-dekabrda Moskvada RSFSR, USSR, ZSFSR va BSSR delegatsiyalari SSSRni tuzish to‘g‘risida RKP(b) MQ Plenumi tasdiqlagan Deklaratsiya va Shartnoma loyihasini imzolaydi. 1922-yil 30-dekabrda Moskvada Butunittifoq Sovetlarining I s’ezdi SSSRni tuzish to‘g‘risidagi Deklaratsiya loyihasi va Ittifoq Shartnomasini tasdiqlaydi.

SSSR tuzilgandan keyin RSFSR tarkibidagi Turkiston ASSRni milliy respublikalarga bo‘lishga yo‘l tutildi. Markaziy hukumat olib borayotgan milliy siyosatdan norozi ba’zi mahalliy rahbarlar Turkiston yaxlitligini saqlab qolishga harakat qilishdi. Xususan, 1920-yil yanvarda Turkiston ASSR MIQ raisi T.Risqulov Turkiston ASSRni Turk Respublikasi, Turkiston Kompartiyasini Turk kompartiyasi, deb o‘zgartirishni taklif etadi. Markaziy hukumat esa Turkistonni O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Turkmaniston Respublikalariga bo‘lish tarafdori edi.

1924-yil 5-aprelda RKP(b) MQ Siyosiy Byurosi va RKP(b) MQ O‘rtal Osiyo Byurosida milliy chegaralanish loyihasini tayyorlovchi komissiya tuziladi. Loyiha RKP(b) O‘rtal Osiyo Byurosining 1924-yil 2-iyundagi yig‘ilishida ma’qullanadi. Ba’zi mahalliy rahbar kadrlar, Xorazm va Buxoro Respublikalari vakillarining noroziligiga qaramasdan 1924-yil iyulda RKP(b) MQ Siyosiy Byurosi O‘rtal Osiyoda milliy chegaralanish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

1924-yil 25-sentyabrda RKP(b) MQ Siyosiy Byurosi, 9 va 11-oktyabrda RKP(b) MQ milliy chegaralanishini ma’qullashadi. SSSR MIQ ham milliy chegaralanishni ma’qullaydi. Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Respublikalari o‘rnida O‘zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, O‘zbekiston SSR tarkibida Tojikiston ASSR, Qirg‘izlar yashaydigan hududlar RSFSR tarkibida Qoraqirg‘iz (Qirg‘iziston) muxtor viloyati, qozoqlar yashaydigan hududlar RSFSR tarkibida Qozog‘iston ASSR, qoraqalpoqlar yashaydigan hududlar Qozog‘iston ASSR tarkibida Qoraqalpog‘iston avtonom viloyati tashkil etiladi.

O‘zbekiston SSRda butun hokimiyat O‘zbekiston SSR sovetlarining ta’sis s’ezdiga qadar Muvaqqat inqilobiy qo‘mita (rais F. Xo‘jayev)ga o‘tadi. 1925-yil 13-fevralda Buxoroda Butuno‘zbek sovetlarining I s’ezdida “O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilganligi to‘g‘risidagi Deklaratsiya” qabul qilindi. 1925-yil mayda O‘zbekiston SSSR tarkibiga kiradi. 1925-yil fevral-may davomida O‘zbekiston SSR poytaxti Buxoro shahri edi. 1925-yil apreldan 1930-yil sentyabrgacha O‘zbekiston SSR poytaxti Samarcand shahri bo‘lgan. 1930-yil 20-sentyabrda esa O‘zbekiston SSR hukumati raisi F.Xo‘jayev poytaxtni bir kechada Toshkentga ko‘chiradi.

1925-yil 8-fevralda Buxoroda O‘zbekiston Kommunistik (bolsheviklar) partiyasi tashkil etildi. Shu yili O‘zbekiston komsomoli (O‘zLKSM), respublika kasaba uyushmalari ham tuziladi. 1927-yilda O‘zbekiston SSRning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilinadi. Ammo Konstitutsiya sinfiy mazmunda bo‘lib, unda mulkdorlar huquqlari cheklangan edi.

1936-yilgi SSSR Konstitutsiyasi asosida 1937-yil fevralda O‘zbekiston SSRning ikkinchi Konstitutsiyasi qabul qilinadi. 1929-yilda Markaz tashabbusi

bilan Tojikiston ASSR O‘zbekiston SSR tarkibidan chiqarilib, SSSR tarkibiga kiritiladi. Shuningdek, Qozog‘iston ASSR, keyin RSFSR (1932 – 1936) tarkibida avtonom viloyat bo‘lgan Qoraqalpog‘iston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi darajasida O‘zbekiston SSR tarkibiga kiritiladi.

Kadrlarni tayyorlash va o‘zbeklashtirish siyosati. Bolsheviklar hokimiyatni egallagach milliy masalani ko‘rib chiqishga majbur edi. V.I. Lenin ham podsho Rossiyasini “xalqlar turmasi” deb atagan edi. Turkistonda 1918 – 1919 yillarda yuqori rahbarlik lavozimlarda mahalliy millatlarga mansub shaxslar ulushi atigi 5 foizni tashkil etgan²⁷.

Mustabid kommunistik ta’limot va mafkura bo‘yicha asosiy inqilobiy kuch – bu “kishanlaridan boshqa yo‘qotadigan hech nimasi bo‘lmagan” ishchilar va kambag‘al dehqonlar sinfi bo‘lgan. Shu sababli partiya, davlat va xo‘jalik organlariga mas’ul lavozimlarni egallahda ishchilar sinfiga mansublik muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Masalan, 1924-yilda Turkiston sovetlari XII qurultoyining 356 delegatidan 117 nafari ishchilar bo‘lib, ular o‘lka aholisining 1 foizidan kamroq‘ini tashkil qilgan ishchilar vakilligi edi, aholining 80 foizini tashkil etadigan dehqonlar vakilligi ham shuncha edi.²⁸ Davlat apparatidagi, boshqaruv tizimidagi ishchilar va boshqa ijtimoiy qatlamlar nisbatida bundan ham ko‘proq tafovut ko‘zga tashlanadi. Turkiston ASSRda ishchilar sinfi esa asosan yevropaliklardan iborat edi. 20-yillarda mahalliy aholiga mansub kadrlarni shakllantirishga e’tibor qaratildi. Davlat muassasalari va oliy hokimiyat tuzilmalari rahbarlari tarkibida milliy kadrlar salmog‘i o‘sma bordi. Agar ularning ulushi 1922-yilda 20,4 foizga teng bo‘lsa, 1923-yilga kelib bu raqam 24 foizni tashkil etdi.²⁹

Bolsheviklar ziylolarga shubha bilan qaragan. Chunki sinfiy yondashuvga ko‘ra ziyolilar “ekspluatatorlarga xizmat qiluvchilar” edi. Shu sababli Bolsheviklar hukmati uchun sotsial izmga sadoqatli “xalq ziyolilari” qatlagini shakllantirish muhim vazifalardan edi. O‘zbekistonda milliy ziyolilar juda ozchilik bo‘lgani bois

²⁷ O‘zbekiston MDA, R-17-fond, 2-ro‘yxat, 11-a-ish, 118-varaq.

²⁸ Вахабов М.Г. Формирование узбекской социальной исторической нации. – Т., 1961. Б. 350.

²⁹ O‘zbekiston MDA, R-25-fond, 1-ro‘yxat, 406-ish, 12-varaq.

xalq xo‘jaligi va madaniyat sohalari uchun mutaxassislar tayyorlash maqsadida kommunistik universitetlar, akademiyalar, turli kurslar, oliy o‘quv yurtlari tashkil etildi. 1925-1930-yillarda sovet, jamoat, xo‘jalik organlarga rahbarlik ishlariga ko‘tarilgan mahalliy kadrlarning aksariyati ishchilar, dehqonlar va batraklardan chiqqan edi. Bu davrda mahalliy texnik ziyolilar shakllana boshladi. Rus injenyerlari va texnik xodimlari milliy texnik ziyolilar shakllanishiga katta hissa qo‘shdi.

1924-yilda 31-dekabrda O‘zbekiston SSR Inqilobiy Qo‘mitasining “Buxoro va Xorazm Respubliklaridagi barcha tashkilotlarda, shuningdek, O‘zbekiston SSR bo‘yicha hamma volost tashkilotlarida ish yuritishni mahalliy millat vakillari tiliga o‘tkazish to‘g‘risida” qarori qabul qilindi. 1924-yil 24 – 25 sentyabrdan O‘zbekiston Kommunistik partiyasi plenumida davlat apparatini mahalliylashtirish, mahalliy millat vakillarini partiya, sovet, xo‘jalik ishlariga jalb qilish yuzasidan qaror qabul qilindi. Mahalliylashtirish siyosatida davlat apparatini quyidan yuqorigacha mustahkamlash uchun mahalliy tilda tashkil etish, o‘zbek tilida ta’limni rivojlantirish, maktablar, klublar, o‘quv zallari, kutubxonalar, teatrlar ochish, xalq ommasiga etib boradigan gazetalarni nashrini oshirish rejalashtirildi. 1927-yil 16 – 24 noyabrdan O‘zbekiston Kommunistik partiyasining III s’yezdida “Davlat apparatini mahalliylashtirish va yerlik millat ishchilarini ishlab chiqarishga jalb qilish” bo‘yicha qaror qabul qilindi.

Qarorda “O‘zbeklashtirish – O‘zbekiston mehnatkashlarini sotsial izm qurilishiga tortish uchun zarur bo‘lgan asosiy vositalardan biridir, Chunki keng mehnatkashlar ommasi ijodiy tashabbus ko‘rsatmasa, sotsial izm qurib bo‘lshmaydi. Ayni bir vaqtda ommani partiya, sovet, kasaba soyuz tashkilotlariga va ishlab chiqarishga jalb qilmasdan turib, uning ijodiy tashabbus ko‘rsatishiga erishish mumkin emas.

Tojikistonda biz apparatni *tojiklashtirimiz* lozim, O‘zbekistonda esa umuman hammka mayda millatlarga nisbatan bizning vazifamiz O‘zbekistondagi barcha organlar orqali ulaprga normal xizmat ko‘rsatishdan iborat bo‘lishi lozim”

deb belgilangan edi³⁰. O‘zbekistonda mahalliylashtirish siyosati XX-asrning 30-yillarining oxirlarida tugadi.

“Yangi iqtisodiy siyosat” va uning asosiy xususiyalari. Rossiyada bo‘lganidek, Turkistonda ham birinchi jahon urushi, undan keyin 1918-1922-yillardagi fuqarolar urushi iqtisodiyotni butunlay izdan chiqqan edi. Xo‘jalik aloqalarining izdan chiqishi, ishlab chiqarishning to‘xtab qolishi, pulning keskin qadrsizlanishi (giperinflyasiya) sharoitlarida oziq-ovqat taqchilligi, ocharchilik va ishsizlik kuchayadi. 1921-yilda Turkistonda qishloq xo‘jalik mahsulotlari 1914-yildagi darajaga nisbatan 48,8foiz ga qisqargan, irrigatsiya tizimi va chorvachilikka katta ziyon etgan, chorva 1920-yilda uch baravardan ziyod qisqargan edi. 1915-yilda mavjud bo‘lgan 24 mln. boshdan faqat 8112 ming bosh mol saqlanib qolgandi.³¹

Turkistonda 1920-yilda sanoat ham inqirozda bo‘lib, qayta ishslash, qazib chiqarish tarmoqlari va transport izdan chiqqan edi. Sanoat yalpi mahsulotining umumiy hajmi 1920-yilda 1914-yildagiga nisbatan 80 foiz kamaygan, shulxa, paxta yog‘i, paxta tolasi ishlab chiqarish 17 baravar pasayib ketgandi. Temir yo‘llarda parovozlarning beshdan bir qismi ishlayotgan, toshko‘mir va neft qazib chiqarish esa kundalik ehtiyojni ham qoplamas edi.³²

Shunday sharoitlarda bolsheviklar “harbiy kommunizm” siyosatidan voz kechish yo‘llarini izlay boshlashadi. 1921-yil RKP(b) X s’ezdi “Yangi iqtisodiy siyosat” (NEP)ga o‘tishni belgilaydi. Uning mazmuni “Harbiy kommunizm”dan voz kechish, oziq-ovqat razvyorstkasini oziq-ovqat solig‘i bilan almashtirish, savdoni liberallashtirish, ishlab chiqarishda, xizmat ko‘rsatish va boshqa sohalarda o‘rtta va mayda darajadagi xususiy tadbirkorlikka ruxsat etish, yollanma mehnatdan foydalanishga ruxsat berishdan borat edi. 1921-yil aprelda Turkiston ASSR MIQ oziq-ovqat, em-xashak va xomashyo razvyorstkasini soliqlar bilan almashtirish

³⁰ Ўзбекистон Коммунистик партияси съездларининг резолюция ва қарорлари. –Тошкент: ЎзССРДавлат нашриёти, 1958. Б.229-241.

³¹ Ирригация, селское хозяйство и животноводчество. 1922, № 1-2. С. 29-30.

³² О‘zR MDA, 27-fond, 28-ro‘yxat, 496-yig‘ma jild, 35-varaq.

to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Unda dehqonlar noroziligiga sabab bo‘lgan oziq-ovqat razvyorstkasi o‘rniga hosilning 10 foiz miqdorida oziq-ovqat solig‘i belgilandi. Soliqlar tabaqlashtirilib, kambag‘allardan olinadigan soliqlar kamaytirildi va ishlab chiqarishni boshqarishda iqtisodiy omillardan foydalanishga harakat qilindi.

“Yangi iqtisodiy siyosat”dan asosiy maqsad dehqon xo‘jaliklarini oyoqqa turg‘izish va shu orqali xalq xo‘jligini jonlantirish bo‘lgan. Sanoat mahsulotlarining asosiy iste’molchisi bo‘lgan qishloq xo‘jligini rivojlantirmasdan sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarini ham rivojlantirib bo‘lmash edi. Agrar sohani tiklashda kooperatsiyadan keng foydalanildi. Kooperatsiya yuz minglagan mayda dehqon xo‘jaliklari va sanoat korxonalari, ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida manfaatli iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish, mehnat unumdoorligini o‘stirishga, dehqonlar va ishchilarning moddiy-iqtisodiy ta’minotini yuksaltirishga, sanoat korxonalarini xom ashyo bilan ta’minalashga xizmat qilishi lozim edi. Bu yo‘lda kredit kooperatsiyasi ham rivojlantirildi. Rossiya imperiyasi davridan dehqon xo‘jaliklarini kreditlash – qarz berish sudxo‘rlik bilan shug‘ullanuvchi boylar va savdo kapitali juda yuqori foizlarda qarz berib kelangan edi. 1923–yildan davlat tomonidan sudxo‘rlikka qarshi kurash maqsadida past foiz stavkalarida kambag‘al dehqonlarga moliyaviy yordam ko‘rsatgishga qaratilgan o‘zaro yordam jamiyatni va uning joylardagi 809 ta filiali ochiladi.

Turkistonda sanoat uchun muhim bo‘lgan agrar soha tarmoqlari, jumladan, paxta, qand lavlagi, tamaki va boshqa texnik ekinlarni rivojlantirishga e’tibor beriladi. Rossiyaning markaziy rayonlaridan 300000dan ortiq kishi Turkistonga ko‘chirib keltirildi.

“Yangi iqtisodiy siyosat” negizi leninchcha “davlat kapitalizmi” modelidan iborat bo‘lib, unda xo‘jalik yuritishda nosotsialistik shakllari tiklanishi nazarda tutilgan. Biroq iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatga ega sohalar, birinchi navbatda, yirik sanoat davlat ixtiyorida qoldi. Ishlab chiqarish korxonalarda rejalashtirish va xo‘jalik hisobini joriy etildi.

Ko‘rilgan choralar so‘m bilan korxonalarini nazorat qilishni va ishlab

chiqarish demokratiyasini bir qadar ta'minladi. Davlat tomonidan sanoatni qayta tashkil etishning maqbul shakli sifatida yirik ishlab chiqarish birlashmalari – trestlar tashkil etildi. 1921–yil oxirida Turkistonda xo‘jalik hisobidagi 99 ta yirik korxonani birlashtirgan 10 ta trest tashkil etildi. Paxtachilik va paxta tozalash korxonalari soni 144 taga etdi. Sanoatda paxtaga bo‘lgan talab ortishi natijasida paxta ekini maydonlari 1924–yilda 1921–yilga nisbatan uch marta ko‘paydi.

Ishlab chiqarish korxonalarini xo‘jalik hisobiga o‘tkazilishi iqtisodiyotning tiklanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Turkiston Respublikasi Oliy Xalq Xo‘jalik Kengashi tasarrufida ishlamay turgan korxonalar 46 foiz dan 28 foizga tushdi.³³ Yangi sanoat korxonalari, temir yo‘llar qurildi. 1921–yilda katta quvvatga ega Xilkovossement zavodi, Farg‘ona pillachilik fabrikasi, Toshkent guruch zavodi, Qizilqiya, Xilkovo temir yo‘l shahobchalari qurildi, Chirchiqda gidroelektrstansiya (GES) 1925-yilda ishga tushirildi. 1924-yilda O‘zbekistonda Bekobodssement zavodi, 9 ta elektrostansiya, 2 ta metall ishlash zavodi, 2 ta tikuvchilik va 1 ta pillakashlik fabrikalari va boshqalar ishga tushirildi.

“Yangi iqtisodiy siyosat” jamiyatda ishchilar soni ko‘paytishiga ham ta’sir qildi. 1922–yil yanvarda ishchilar va xizmatchilarning soni 6244 kishi bo‘lsa, 1925–yil yanvarda ularning soni 14824 kishiga etdi. Ishchilarning 30 foizi mahalliy millatlar vakillaridan iborat bo‘ldi.

Xo‘jalik hayotining tiklanishi, ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan birga jamiyatda ijtimoiy qutblashuv ham kuchaygan edi. Shuning uchun ham siyosiy sohada “Yangi iqtisodiy siyosat” sinfiy kurash kuchayishiga sababchi bo‘layotgani, yangi boylar, eski burjuaziya qoldiqlari, savdogarlar (“nepman”lar), ruhoniylar va boshqa “ekspluatator unsurlar” qaytadan bosh ko‘tarayotganligi xususidagi mafkuraviy bosim ham kuchayib bordi. Bu esa 20-yillar oxirlaridan “yangi iqtisodiy siyosat”dan voz kechilishiga ta’sir ko‘rsatdi. Boshqa tomonidan esa, Turkistonda ishlab chiqarish sur’atlari yuqori bo‘lgani bilan, YaIMning 1914-yildan ham past edi. 1924/25-xo‘jalik yilida respublika sanoati yalpi mahsulotining

³³ O‘zR MDA, 25-fond, 1-ro‘yxat, 108-yig‘ma jild, 6-varaq.

miqdori 1914—yilgi darajaning faqat 65 foizini tashkil etgan. Bu esa o’sha davrda iqtisodiy, harbiy va madaniy salohiyati bo‘yicha g‘arbnинг industrial mamlakatlaridan ancha orqada bo‘lgan SSSRni qisqa vaqtida iqtisodiy inqirozlardan xoli, industrial, harbiy, madaniy jihatdan dunyodagi etakchi davlatga aylantirishdek bolshevistik maqsadlarga to‘g‘ri kelmasdi.

Industrlashtirish siyosati. XX asrning 20-yillari o‘rtalarida SSSR 75 foiz aholisi qishloqlarda yashaydigan qoloq agrar mamlakat edi. Mamlakatning iqtisodiy rivoji uchun esa industrialashtirish talab etilar edi. Industrlashtirish natijasida xalq xo‘jaligining etakchi tarmog‘i bo‘lgan og‘ir sanoat vujudga keladi, industrlashtirish asosida ishlab chiqarish qurollari, ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish, metall, ko‘mir, neft, gaz qazib chiqarish, qayta ishlash, elektr energiyasini ishlab chiqarish, mashina va mexanizmlar, turli jihozlar, asbob-uskunalar va qurilish materiallari ishlab chiqariladi. Industrlashtirish mamlakat iqtisodiyotida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ustun bo‘lishi, agrar mamlakatning industrial rivojlangan mamlakatga aylanishini ta’minlaydi. Ya’ni, industrlashtirish iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun texnologik bazis sifatida ahamiyatlidir. Ayni vaqtida industrlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari, sur’ati, mablag‘ manbalari, maqsadlari va ijtimoiy oqibatlari har bir mamlakatning tarixiy va iqtisodiy shart-sharoitlari, hukmron ishlab chiqarish (mulkchilik) munosabatlari bilan belgilanadi. Dunyoda dastlab industrlashtirish XVIII-asrning oxiri va XIX asrning birinchi choragida “dunyo ustaxonasi” – Buyuk Britaniyada, so‘ngira G‘arbiy Yevropa mamlakatlari va AQSh amalga oshirilgan. Industrlashtirish natijasida esa g‘arb mamlakatlari taraqqiyotda oldinga ketishgan.

SSSRda industrlashtirishning asosi bo‘lib Rossiyanı elektrlashtirish bo‘yicha davlat komissiyasi (GOELRO) kabi ko‘lami va ahamiyati jihatidan tarixda kam uchraydigan reja bo‘ldi. GOELRO xalq xo‘jaligini elektrlashtirish negizida 10 – 15 yilga mo‘ljallangan birinchi kompleks rivojlantirish rejasi edi. Ushbu loyiha 1920-yilda V.I. Lenin rahbarligida 200dan ziyod etakchi olimlar, yirik mutaxassislardan iborat bo‘lgan davlat komissiyasida ishlab chiqilgan. GOELRO energetikani

rivojlantirish va mamlakatda ishlab chiqaruvchi kuchlarni ratsional joylashtirishga qaratilgan.

GOELRO rejasi bo‘yicha 10 – 15 yilda 30 ta elektr stansiyalari (20 ta IES va 10 ta GES) qurish, sanoat mahsulotini ishlab chiqarish inqilobgacha bo‘lgan darajaga nisbatan 80 – 100 foiz o‘sishi lozim edi. Rejada transport rekonstruksiyasi bilan birga temir yo‘l magistrallarini elektrlash, yangi temir yo‘llarni qurish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash, agroximiya qoidalarini joriy qilish, irrigatsiya va melioratsiyani rivojlantirish, oxir oqibatda, ishlab chiqarishning barcha sohalarini elektrlash va mexanizatsiyalash va mehnat sharoitlarini tubdan o‘zgartirish negizida mehnat unumdorligini oshirish, mo‘ljallangan qurilishlarni barcha zarur narsalar bilan ta’minlovchi sanoat korxonalarini ham qurish, elektroenergetikada g‘arbdan oldinga o‘zib ketish belgilangan edi. Sovet hukumati GOELRO rejasi bajarilishida xususiy tadbirkorlarni soliq imtiyozlari va davlat kreditlari bilan qo‘llab quvvatladi.

1931–yilda GOELRO rejasi oshirilib bajarildi. Elektr energiyasini ishlab chiqish rejadagi 1913-yilga nisbatan 4,5 marta ko‘p ishlab chiqish o‘rniga, 7 marta ko‘paydi, shuningdek, ko‘mir, neft, torf, temir marganes rudalarini qazib olish, po‘lat va cho‘yan ishlab chiqarish ham rejadagidan ko‘p bo‘ldi. Ammo SSSR g‘arb mamlakatlariga nisbatan iqtisodiy jihatdan zaif edi. O‘zbekiston sanoati esa asosan paxta tozalash, yog‘-moy ishlab chiqarish, konserva tayyorlash korxonalaridan iborat bo‘lgan. 1925-yil VKP(b) XIV s’ezdida asosiy strategik maqsadlardan biri sifatida “sotsialistik industrorashtirish” ekanligi belgilandi.

Industrorashtirish murakkab tarixiy sharoitlarda va ziddiyatli tarzda kechdi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning zaifligi, mahalliy ishchilar sinfi, injener-texnik xodimlarning shakllanmaganligi, umumiyl savodxonlikning pastligi – industrorashtirish jarayonida katta qiyinchiliklar tug‘dirgan. 1927–yilda O‘zbekiston xalq xo‘jaligida qishloq xo‘jaligining salmog‘i 62,6foiz, sanoat salmog‘i 38,4foizni

tashkil etgan, ammo sanoat ishlab chiqarishining 90foiz qishloq xo‘jaligi xom ashvosini qayta ishlashga asoslangan edi³⁴.

O‘zbekistonda industrorashtirish birinchi (1928 – 1932), ikkinchi (1933 – 1937) besh yilliklar va urush tufayli tugallanmay qolgan uchinchi besh (1938 – 1943) yillikda amalga oshirildi. Birinchi besh yillikda O‘zbekistonda 289 ta sanoat korxonasi ishga tushirildi, 79 ta korxona qayta tashkil etildi, sanoatning asosiy ishlab chiqarish fondlari 3 baravar, neft qazib chiqarish 2,5 baravar, metall ishlash sanoati mahsulotlari 6 baravar, ssegment ishlab chiqarish 3,5 baravar oshdi. Engil sanoatning ko‘nchilik, poyabzal ishlab chiqarish, tikuvchilik sohalari va ip gazlama ishlab chiqarish sur’atlari muttasil oshib bordi³⁵. O‘rta Osiyoda paxtachilik mashinasozligida birinchi sanoat korxonasi bo‘lgan “Toshqishloqmash”, Quvasoyssement zavodlari qurildi, “Chirchiqqurilish”, Toshkent to‘qimachilik kombinati qurilishi olib borildi. Farg‘onada to‘qimachilik fabrikasi va yog‘ zavodi, Toshkent, Buxoro va boshqa shaharlarida tikuvchilik fabrikalari ishga tushirildi. Sanoat quvvatlarining ishga tushirilishi energetika sohasini kengaytirishni taqozo etganligi bois ko‘plab yangi elektr stansiyalari qurildi. 1925 – 1940-yillarda sanoat va aholini elektr bilan ta’minlovchi GESlar soni 49 taga etdi.

Ikkinchi besh yillikda O‘zbekistonda 189 ta sanoat korxonasi, Farg‘onada yigirish-to‘qish fabrikasi, Xavdog, Uchqizil neft konlari, Toshkent matbaa kombinati, Qo‘qon superfosfat zavodi, Buxoroda issiqlik elektr stansiyasi, Qodiriya va Bo‘rjar stansiyalari, Toshkent lak-bo‘yoq zavodi va boshqalar barpo etildi, qishloq xo‘jalik mashinasozligi kabi ishlab chiqarishning yangi sohalari vujudga keldi. Chirchiq, Olmaliq, Angren, Bekobod, Yangiyo‘l singari sanoat shaharlari paydo bo‘ldi.

O‘zbekistonda sanoat korxonalarini yaratish mahalliy manfaatlar emas, balki umum davlat ehtiyojlari asosida rejallashtirilgan edi. Masalan, Chirchiqdagi azotli

³⁴ O‘zR MDA, 58-fond, 5-ro‘yxat, 15-yig‘ma jild, 3-varaq.

³⁵ O‘zR MDA, 89-fond, 1-ro‘yxat, 1947-yig‘ma jild, 38-39-varaqlar.

o‘g‘itlar zavodi va Toshkent to‘qimachilik kombinatini barpo etish O‘rta Osiyo mintaqasida paxtachilikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan edi.

Uchinchi besh yillik ham sanoat rivojlanishida yangi bosqich bo‘ldi. 1941–yil o‘rtalariga kelib 134 ta yangi sanoat korxonasi ishga tushirildi. Ular orasida Chirchiq elektr-kimyo kombinati, Toshkent to‘qimachilik kombinatining ikkinchi navbatи singari sanoat gigantlari ham bor edi. Chirchiq GESi, Olmaliq mis eritish kombinati, Quvasoy GRESi, Tovoqsoy va Samarqand GESini qurish, Angrendagi ko‘mir koni ishga tushirilishi jadal sur’atlarda bordi³⁶. Yirik sanoat korxonalarining ko‘pchiligi esa ittifoq tasarrufida edi.

Industrlashtirish yirik sanoatda ishchilar sonini 3,5 baravar ko‘payishiga olib keldi. 1940-yilda O‘zbekiston ishchilar sinfining sanoatdagi qismi 165 ming kishidan iborat edi.

1941-yilda industrlashtirish natijasida O‘zbekistonning sanoat salohiyati 1445 ta yirik va o‘rta, 19 mingga yaqin mayda korxonalardan iborat bo‘ldi. O‘zbekiston SSSRdagi mehnat taqsimotiga ko‘ra rangli va nodir metallar, oltingugurt, volfram, molibden, paxta tolasi, xom ipak etkazib beruvchi mintaqalar edi.

Qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish. 1917–yil oktyabr to‘ntarishigacha O‘zbekistonda yersiz va kam yerli dehqonlar boy zamindorlar qo‘lida ishlab kelishgan. Bolsheviklar hukmati million-million dehqonlarni o‘z tomoniga og‘dirib olish maqsadida “Er to‘g‘risida”gi dekretni qabul qilishgan edi. Dekretga muvofiq er davlat mulkiga aylantirildi, yirik er egaligi tugatilgan, kam yerli va yersiz dehqonlarga yer bo‘lib berilgan. Bolsheviklar siyosati erni jamoalar ixtiyoriga berish, qishloqda yirik sotsialistik xo‘jaliklarni shakllantirishga qaratilgan edi. 1920-yil Turkiston sovetlarining XI s’ezdida yer – suv islohoti, yerlarni musodara qilish va mahalliy aholidan yevropaliklar foydasiga tortib olingan yerlarni qaytarish ko‘rib chiqildi. Shundan so‘ng podsho Rossiysi davrida Turkistonga ko‘chirib keltirilgan ruslarning yerlari tortib olina boshlandi. Keyinroq vaqf yerlari, boylar, savdogarlar, ulamolar va yuqori tabaqalar yerlari ham kamaytirildi.

³⁶ Узбекистан за 15 лет. Стат. сборник. –Т., 1939. С. 34.

1919-yil bolsheviklarning qishloqda ijtimoiy tayanchi mustahkamlanishi maqsadida kambag‘allar qo‘mitalari tuzildi. Keyinchalik kambag‘allar qo‘mitalari o‘rnida yersiz, kambag‘al dehqonlarni birlashtirgan “Qo‘shchi” uyushmasi tuziladi. 1921-yilda “Qo‘shchi” uyushmalariga 160 mingdan ziyod kambag‘al dehqonlarni birlashgan edi.

Turkiston ASSRda 1921 – 1922 yillardagi yer – suv islohoti yirik yer egalariga qarshi kurash ostida o‘tdi. Boylar va qishloq burjuaziyasidan 1,7 mln. desyatina er tortib olindi, ularning 117 ming desyatinasini yersiz kambag‘allarga berildi, qolgan qismida “Qo‘shchi” uyushmalari tuzildi. Yer – suv islohoti natijasida jami 4801 ta boy xo‘jaliklar tugatildi. 13036 ta badavlat mulkdorlarning ortiqcha yerkari tortib olindi.

“Yangi iqtisodiy siyosat” tufayli 20-yillar o‘rtalariga kelib qishloq ahlining iqtisodiy ahvoli bir oz yaxshilandi. Ammo qishloq xo‘jalogining yalpi mahsuloti 1913-yildagi darajaning 47,2 foizni tashkil etardi.

SSSR va O‘zbekistonda XX asrning 20-yillari oxiri – 30-yillarda qishloq xo‘jaligi kollektivlashtirildi. Qishloqda yirik er egaligining tugatilishi natijasida yakka tovar xo‘jaliklari g‘allaning asosiy qismini shaxsiy iste’mol uchun qoldirib, bozorga kam g‘allani chiqarilgan. 1927-yilda bozorda g‘alla 1913-yildagiga nisbatan ikki marta kam edi. Sotsialistik industrillashtirish jarayonida esa mamlakatda har yili shahar aholisi 1,5 – 2 mln. kishiga ko‘payib, oziq-ovqat tanqisligi kuchaygan.

Inqilobgacha Rossiya imperiyasida har 10 – 12 yilda g‘alla tanqisligi ro‘y berib turgan, oqibatda millionlagan kambag‘al dehqonlar ochlikdan o‘lib ketishgan. Lenin va Stalin konsepsiysi bo‘yicha Rossiyadek sovuq iqlimli ulkan mamlakatda oziq-ovqat muammosining echimi qishloqda mayda tovar xo‘jaliklaridan sotsialistik kollektiv xo‘jaliklarga o‘tishga bog‘liq edi. Konsepsiaga ko‘ra mamlakat aholisining oziq-ovqatga ehtiyojini qondirish uchun qishloq ishlab chiqaruvchi kuchlarini yuksaltirish, mehnat resurslari malakasini oshirish, dehqonchilik va chorvachilikda yangi texnikani joriy qilish, bu bilan

sanoatni ham rivojlantirish, fan yutuqlarini keng miqyosda qo'llash, mehnatni tashkil etishni yaxshilash kollektiv xo'jaliklar orqali mumkin edi.

VKP(b) XV s'ezdi (1927) qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish siyosatini belgiladi va kollektivashtirish O'zbekiston uchun ham asosiy vazifaga aylandi. Dastlab kollektiv xo'jalik (kolxoz)ga a'zo bo'lish ixtiyoriy edi. 1929-yil boshlarida dehqonlarning 3,4foiz kolxozlarga a'zo edi.

O'zbekiston Kompartiyasi MQ va hukumati 1930-yil 17-fevralda "Kollektivlashtirish va qulog xo'jaliklarini tugatish to'g'risida"gi qaror qabul qiladi va unda yoppasiga kollektivlashtirish belgilanadi. 1930-yilda O'zbekistondagi dehqon xo'jaliklarining 34.4 foiz kolxozlarga jalb qilindi. 1931 – yilda kolxoz qurilishi chorvador rayonlarga ham yoyiladi. 1930 – 1932 yillarda ma'muriy-siyosiy va iqtisodiy bosim natijasida kollektivlashtirish yuqori sur'atlarda amalga oshirildi. Kollektivlashtirishda kampaniyabozlik, mahalliy sharoitlarni hisobga olmaslik bir qancha salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Kolxozga kirishga majbur qilingan dehqonlar tomonidan uy hayvonlarini sotishi, so'yishi va boshqa joylarga haydab ketishi ko'paydi va natijada chorva soni kamayib ketdi.

Quloglashtirish siyosati. XX asrning 20–yillarida sovet hokimiyati qishloq aholisini uchta guruhga – kambag‘al, o‘rtahol va boy-qulog³⁷ dehqon xo'jaliklariga ajratgan. Kolxoz qurilishi quloglar sinf sifatida tugatilishini ham anglatardi. Bolsheviklar nazdida quloglar qishloq burjuaziyasi, ya’ni yollanma mehnatdan foydalananib boyligini ko‘paytiradigan ekspluatator sinf edi. O'zbekistonda qulog xo'jaliklari umumiyligi dehqon xo'jaliklarining 5 foiz ni tashkil etgan. Kollektivlashtirish davomida esa 15 foiz xo'jaliklar quloglashtirildi. 1930-yilda boy-quloglar toifasiga kiritilgan 2648 dehqon xo'jaliklari tugatilgan bo‘lsa, 1931-yil avgustga kelib yana 3828 qulog xo'jaliklari tugatiladi. 1933-yilda O'zbekistondan Ukraina, Shimoliy Kavkaz va Sibirga 5500 qulog oilalari surgun qilingan.

³⁷ ““Qulog” rus tilidagi “kulak” so‘zidan kelib chiqqan. Ushbu so‘z dastlab o'zbek tilidagi rasmiy hujjatlar va matbuotda “mushtumzo‘r” so‘zi orqali ifodalangan. Tez orada qulog siyosiy atamasi qo'llanila boshlandi. Lekin “mushtumzo‘r”, “kulak” so‘zları ham ishlataligan.

1932-yil oxirida O‘zbekistonda kollektiv xo‘jaliklar barcha dehqon xo‘jaliklarining 81,7 foizni, 1937-yilda 95 foizni tashkil etgan. 1939-yilda esa bu ko‘rsatkich 99,2 foizga chiqadi. Kollektivlashtirish natijasida paxta etishtirish ko‘paydi: 1935-yilda 1 mln. tonna, 1939-yilda 1,5 mln. tonna, 1941-yilda esa 1 mln. 656,2 ming tonna paxta etishtirildi. Shu tariqa O‘zbekiston SSSRning paxta etishtiradigan asosiy bazasiga aylandi.

Kolxozlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish maqsadida davlat tomonidan mashina-traktor stansiyalari (MTS) tashkil etildi. MTSlar vazifasi kolxozlarga texnika bilan yordam ko‘rsatishdan iborat edi. Natijada og‘ir jismoniy mehnat kamayishishga, mahsuldarlik ko‘paytishiga, daromad oshishiga, qishloqda texnik-xodimlar, texnik ziyorilar qatlami shakllanishiga erishilgan.

Mazkur davrda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun irrigatsiya va melioratsiya tizimini takomillashtirishga ham jiddiy e’tibor berilgan. 20-30 yillarda ham ko‘plab kanallar, suv inshootlari va suv omborlari qurildi, irrigatsiya tarmoqlari yaxshilandi. 1929 – 1933 yillarda irrigatsiya sohasiga 234,9 mln. rubl sarflandi.

1939–yil 1–avgustda hashar yo‘li bilan uzunligi 270 km. bo‘lgan Katta Farg‘ona kanali qurilishi boshlandi. XX asrning ulkan qurilishlaridan bo‘lgan, o‘zbek, qirg‘iz, va tojik xalqlari turmush darajasi yaxshilanishga ta’sir qilgan ushbu kanal qurilishi rekord muddat – 45 kun davom etdi. Kanali qurilishi natijasida 60 ming hektar cho‘l yerlari o‘zlashtirildi, 500 ming hektar er sug‘orildi. 1937 – 1940 yillarda esa yana 200 ming hektar erga suv chiqarildi.

Siyosiy repressiyalar. 1929–yilda O‘zbekistonda partiya saflarini “tozalash” bo‘lib, kompartiya a’zolarining 25,6 foizi partiyadan chiqarildi. 30-yillarda I.V. Stalin repressiya orqali harbiy, siyosiy oppozitsiyaga barham berib, kommunistik rejimni mustahkamladi. Siyosiy repressiyalar Stalinning “sotsializm rivojlagan sari sinfiy kurash ham kuchayib boradi” degan konsepsiyasiga tayangan. Bu vaqtida VKP(b)da fraksiyalarga barham berildi, L. Trotskiy, N. Buxarin, L. Kamenev, G. Zinovev, A. Rikov, M. Tomskiy singari partiya va davlat arboblari

hamda ularning tarafdorlari repressiya qilindi. Siyosiy repressiyalardan rahbar kadrlar va ziyolilar ham aziyat chekishdi.

Siyosiy repressiyalar 1937 – 1938-yillarda o‘zining cho‘qqisiga chiqadi. O‘zbekiston rahbarlaridan A. Ikromov va F. Xo‘jayev “burjua-millatchilik aksilinqilobiy tashkiloti markazi”, A. Qoriyev “Musulmon ruhoniylarning millatchi-isyonchilar tashkiloti”, “Aksilinqilobiy o‘ng trotskiychi joususlar tashkiloti markazi”, S.Xo‘janov “Aksilinqilobiy millatchi qozoqlar tashkiloti”, “Buxoro va Turkiston baxt-saodati” nomli sovetlarga qarshi aksilinqilobiy tashkilot, respublika komsomoli MQ kotibi I.Ortiqov va boshqalar turli aksilinqilobiy joususlik-isyonchilik tashkilotlari tuzishda ayblanadi. 1937-yil O‘zKP MQ kotiblari va bo‘lim mudirlari S. Boltaboyev, I. Xudoyqulov, A. Sexer, M. Shermuhamedov, M. Usmonov, Q. Beregin, komsomol rahbarlaridan F. Tarasov, xalq komissarlari A. Islomov, M. Tursunxo‘jayev, viloyat partiya qo‘mitalari kotiblari D. Rizayev, K. Boltayev, N. Isroilov, I. Irismatov repressiyaga uchraydi.

30-yillarda repressiya milliy ziyolilar vakillariga ham qaratiladi. Munavvar Qori Abdurashidxonov, Mahmud Hodiev (Botu), Ubaydulla Asadullaxo‘jaev, Ashurali Zohiriy, Mashriq Yunusov (Elbek), Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Otajon Hoshimov, Usmon Nosir va boshqa o‘zbek adabiyotining yirik vakillari repressiyaga uchraydi.

“Hujum” harakati. Oktyabr to‘ntarishidan so‘ng erkaklar va xotin-qizlarning teng huquqliligi o‘rnataladi. Ayollar huquqlarini ta’minlash, balog‘atga etmagan qizlarni erga berishni taqiqlash bo‘yicha qonunlar qabul qilinadi. Ilm olish, erkaklar bilan teng huquqli bo‘lish, ijtimoiy hayotda o‘z qobiliyatlarini va iqtidorlarini namoyon etish ayollar manfaatiga mos edi. XX asrning 20-yillarida o‘zbek xotin-qizlarini ijtimoiy ozod qilish siyosati kuchayib bordi. 1926-yil sentyabrdagi VKP(b) MQ O‘rtal Osiyo byurosi xotin-qizlarni ozodlikka chiqarish, paranjini tashlash harakatini tezlashtirish bo‘yicha qaror chiqardi. Ayollarni ozodlikka chiqarishga qaratilgan harakat “Hujum” nomini oldi. 1927-yil bahoriga kelib 100 ming ayol paroji tashlaydi. Ayollar ijtimoiy foydali mehnatga tortildi. 1927 – 1929 yillarda sudsizlarning xalq maslahatchilari orasida o‘zbek ayollari 563

nafarga etdi, 2343 nafar ayollar esa davlat organlariga saylandi. “Hujum” kampaniyasi onalik va bolalikni himoyalashga ham qaratilgandi. Davlat tomonidan moliyalashtirgan yaslilar va bolalar bog‘chalari ko‘paydi.

Ammo xotin-qizlarni ozod qilishga keskin (radikal) yondashildi, asrlar davomida shariat qonunlari asosida kechgan ijtimoiy hayot xususiyatlari e’tiborga olinmadni. “Hujum” harakati vaqtida mutassib kuchlar faol xotin-qizlarni jismoniy yo‘q qilishga intilishgan. Ular qo‘lida 1927 – 1928-yillarda 2,5 mingdan ortiq ayollar qurbon bo‘lishgan.

Madaniy hayot, adabiyot va san’at rivoji. Sovet davlati mafkuraviy manfaatlardan kelib chiqqan holda savodsizlikni tugatish, maktablar qurish, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimi uchun kadrlarni tayyorlash, fan, madaniyat sohalarini rivojlantirish, ya’ni “madaniy inqilob”ga e’tibor qaratdi. Maqsad mehnatkash xalqni kommunistik ruhda tarbiyalash, ularni sotsializm ishiga safarbar qilish edi.

Aholi salomatligini muhofaza qilish bo‘yicha ham bir qancha ishlar qilindi, bepul tibbiy xizmat joriy qilindi. Yuqumli kasalliklarga qarshi kurash va ommaviy vaksinatsiya yo‘lga qo‘yildi. Turkiston Sog‘liqni saqlash xalq komissarligi tizimida 1924-yilda 371 shifokor, 541 feldsher, 134 akusher, 40 stomatolog va 202 farmasevt mehnat qilgan. 1940-yilda esa O‘zbekistonda ikkita tibbiyot oliy o‘quv yurtida 2755 talaba tahsil olgan, 4900 kishidan iborat 30 ta o‘rta tibbiyot muassasalari mavjud bo‘lib, davolash muassasalarida 2561 shifokor va 11536 o‘rta tibbiyot xodimlari ishlagan. Biroq o‘zbek shifokorlari 7 foizni tashkil etgan. 1927 – yilda onalik va bolalikni muhofaza qilish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. 1928 – 1932-yillarda bezgakning oldi olinishi uchun respublikada 28 ta tropik stansiya va 250 dan ortiq ixtisoslashgan punktlar ochildi. “Qashshoqlar kasali” – silga qarshi kurash olib borildi, teri-tanosil kasalliklari dispansyerlari, chechakka qarshi emlash punktlari tashkil etildi va natijada bezgak, sil, chechak, rishta va boshqa shu kabi kasalliklar keskin qisqardi.

1920-yil 17-sentyabrda Turkiston ASSR hukumati 8 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan aholi o‘rtasida savodsizlikni tugatish to‘g‘risida dekret qabul qildi va savodsizlikka qarshi kurash boshlandi. Butun mamlakat bo‘ylab savodsizlikni

tugatish kurslari tashkil etildi. 1928 – 1932-yillarda O‘zbekistonda 700 ming kishi savodsizlik kurslarini tugatgan bo‘lsa, 1933 –1937 yillarda esa 1 mln. 400 ming kishining savodi chiqarildi.

1925 – 1941 yillarda maktablar soni ham ko‘payib bordi. 1924-yilda O‘zbekistonda 160 ta sovet maktablari tashkil qilinib, ularda 17209 o‘quvchi ta’lim olgan bo‘lsa³⁸, 1941-yilda esa maktablar soni 5504 taga va o‘quvchilar soni esa 1 mln. 315 mingga etdi.

1928-yilda arab alifbosidan lotin alifbosiga, 1940-yilda esa arab alifbosidan kirillitsaga o‘tildi. Natijada asrlar davomida davom etib kelayotgan madaniy vorisiylik buzildi, yosh avlod arab alifbosidagi kitoblarni o‘qishdan mahrum bo‘ldi.

20-yillar oxiridan oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari tarmog‘i ham kengaydi. Samarqandda O‘zbekiston Davlat universiteti, Buxoro, Farg‘ona, Namangan, Andijon, Marg‘ilon, Toshkent, Nukus, Urganch, Xiva shaharlarida oliy va o‘rta maxsus bilim yurtlari ochildi. 1932-yilda respublikadagi 31ta oliy o‘quv yurtida ming talaba o‘qigan bo‘lsa, 1941-yilga kelib oliy ta’lim talabalari soni 18 mingga etdi. Ayni vaqtda oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida mahalliy millatлага mansub talabalar soni ham oshib bordi. Oliy o‘quv yurtlaridagi professor-o‘qituvchilari asosan yevropaliklardan iborat edi.

30-yillarda ko‘plab oliy o‘quv yurtlari tashkil etildi va pedagogik kadrlar tanqisligiga barham berish maqsadida o‘nlagan o‘qituvchilar institutlari ochildi. 1932-yilda oliy o‘quv yurtlari soni 31 ta bo‘lib. ularda 12,2 mingdan ziyod talabalar tahsil olishgan. 1937-yilda talabalar soni 15,5 mingga, 1941-yilda esa 18 mingga etdi. Urushdan oldingi besh yilliklarda 100ga yaqin o‘rta maxsus o‘quv yurtlari ham tashkil etilgan.

1918-yil mayda jadidlar tashabbusi bilan Toshkentda universitet ochiladi. Uning negizida 1920-yil sentyabrda Turkiston Davlat Universiteti tashkil qilindi va unga Rossiyaning markaziy shaharlaridan professor-o‘qituvchilar jalb etildi. 30-yillarda O‘zbekistonda bir qancha ilmiy-tadqiqot institutlari tashkil etildi. Ilm-fan

15 Узбекистан за 15 лет. Т., 1939. С. 79; Народное образование в Узбекистане. Т., 1947. С. 18-19.

rivojlanishi jarayonida mahalliy ilmiy ziylilar qatlami ham shakllanib bordi. O‘zbekiston fani rivojida Butunitifoq paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti (SoyuzNIXI), Madaniy qurilish, Sanoat-iqtisod, Sanoat qurilishi, Gidrometrologiya instituti, Geliotexnika laboratoriyasi, Astronomiya observatoriysi va boshqa ilmiy-tadqiqot muassasalari etakchi rol o‘ynagan. Bu davrda ijtimoiy fanlar ham taraqqiy etdi. Ya. G‘ulomov, S. Tolstov, M. Masson, V. Shishkin, O. Nabiev va A. Okladnikov singari etuk arxeolog olimlar fan rivojiga katta hissa qo‘shdilar. Shuningdek, 1940-yil 9-yanvarda SSSR Fanlar akademiyasining O‘zbekiston filiali ta’sis etilishi, 1943-yil 4-noyabrdha O‘zbekiston Fanlar akademiyasining tashkil etilishi ham ilmiy salohiyatni yuksaltirdi.

20 – 30 yillarda madaniy hayotda ham muayyan ijobiy o‘zgarishlar bilan birga noxush hollar ham o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Xususan, ko‘plab madrasalar va masjidlar yopildi, “Jangari xudosizlar ittifoqi” singari uyushmalar tuzildi, diniy qadriyatlar ateizm nishoniga aylandi.

20 – 30 yillarda madaniyat va san’at namunalaridan keng xalq ommasi bahramand bo‘la boshladi. Sovet hokimiyatining o‘rnatalishi teatr ishiga ham o‘zgarishlar olib kirdi. 1918 – 1920 yillarda havaskor teatr to‘garaklari, yarim professional teatr truppalarini tashkil etildi. Milliy teatr san’ati taraqqiyotiga Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889 – 1929) samarali hissa qo‘shdi. Hamza 1918-yil sentyabrdagi “Musulmon truppassi”ni tashkil etadi va “O‘lka musulmon siyosiy drama truppassi” nomi bilan Turkiston fronti Siyosiy boshqarmasi ixtiyoriga o‘tkaziladi. 1918 – 1924 yillar o‘zbek sovet teatrining shakllanish davri bo‘ldi. 1929-yilda ilk o‘zbek musiqali teatri, 1933-yilda esa Hamza nomli akademik drama teatri (hozirgi O‘zbek Milliy akademik teatri) tashkil etildi. 1936-yilda Toshkentda konservatoriya ochildi.

XX asrinin 20-yillarida o‘zbek milliy kinosi shakllandi. “Ikkinchi xotin”, “Masjid gumbazlari ostida”, “Soyabon arava”, “Ravot qashqirlari”, “Chodira” filmlari ishlandi. 1925 – 1926 yillarda yigirmadan ortiq to‘la, 30 dan ortiq qisqa metrajli filmlar yaratildi. 1930-yilgacha filmlar asosan rus rejissyorlari tomonidan ishlagan. 1937-yilda o‘zbekona hayot, milliy ruhiyat aks etgan “Qasam” nomli

birinchi o‘zbek ovozli filmi (rejissyor A. Usolsev-Graf) yaratildi. 1940-yillarda o‘zbek kinematografiyasining oltin fondidan joy olgan “Nasriddin Buxoroda” (rejissyor Ya. Protazanov), “Tohir va Zuhra” (rejissyor N. G‘aniyev), “Alisher Navoiy” (rejissyor K. Yormatov) filmlari tasviirna olinadi.

Mustabid sovet tuzumi sharoitlarida 20 – 30 yillarda vaqtli matbuot va madaniy-oqartuv muassasalari ham rivojlandi. Mahalliy xalqlar tillarida kitoblar, gazetalar va jurnallar nashr etish yo‘lga qo‘yildi, ko‘plab madaniyat muassasalari bunyod etildi. 1932-yilda respublikada 707 ta kutubxona, 3087 ta klub, 409 ta kino qurilma, 32 ta teatr, 13 ta muzey mavjud edi. 1937 – 1940 yillarda O‘zbekistondagi shaharlar va qishloqlar to‘liq radiolashtirildi. 40-boshlariga kelib kutubxonalar, klublar va badiiy havaskorlik jamoalari ikki baravarga ko‘paydi. Xullas, 30-yillarda madaniy sohada kommunistik mafkura ta’sirida bo‘lsada, madaniy yuksalish ro‘y berdi.

20-yillarda o‘zbek adabiyotida marksizm-leninizmning ta’siri kuchaya bordi. Bu vaqtda adabiyotda jadidlar nufuzi katta edi. Ammo 20-yillar oxiridan proletar adabiyotining gegemonlik uchun kurashi jadid adabiyoti rivojiga imkon qoldirmadi. Shunday bo‘lsada, jadid adabiyoti o‘zbek sovet adabiyoti vujudga kelishida asos bo‘ldi. G‘afur G‘ulom, Oybek, G‘ayratiy, Mirtemir, Abdulla Kahhor, Hamid Olimjon kabi ijodkorlar jadidlardan san’at mohiyatini tushunishda, mahorat sirlarini egallashda ko‘p narsa o‘rgandilar.

30-yillarda Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir ijodlariga izn berilmadi. Badiiy asarlarda g‘oyaviy inson, kommunist obrazi asosiy mavzuga aylandi. Ammo 20 – 30 yillarda o‘zbek adabiyoti muvaffaqiyatlarga ham erishdi. Rus va jahon adabiyoti namunalari o‘zbek tiliga to‘xtovsiz tarjima etildi, milliy adabiyotda realizm kuchayadi. Abdulla Qodiriy “O‘tgan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari orqali o‘zbek romanchiligiga asos soldi. Abdulla Qahhorning “Sarob”, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” (birinchi kitobi), Oybekning “Qutlug‘ qon”, Sadreddin Ayniyning tarixiy va avtobiografik romanlari yaratildi. Nazmda Oybekning “Chimyon daftari” turkumi, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Uyg‘un, Mirtemir, Usmon Nosir va

boshqa shoirlarning lirik asarlari yaratildi. Dramaturgiyada Hamzaning “Burungi qozilar yoxud Maysaraning ishi”, “Paranji sirlaridan bir lavha yoxud Yallachilar ishi”, G‘ulom Zafariyning “Halima” singari pesalari paydo bo‘ldi.

30 – yillarda O‘zbekistonda tasviriy san’at ham rivojlandi. Bu vaqtida O‘. Tansiqboyev, B. Hamdamiy, Usta Mo‘min va boshqa bir qator rassomlar, shuningdek, birinchi o‘zbek ayol rassomi Sh. Hasanova ijod qilishgan hamda rassomchilik san’ati rivojiga ulkan hissa qo‘shishgan. 1932-yilda O‘zbekiston SSR Rassomlar uyushmasi tashkil qilinishi ham tasviriy san’at rivojishida muhim voqeа bo‘ldi.

Savollar va topshiriqlar

- 1.Qanday maqsadlarda “Madaniy inqilob” va “Hujum” harakatini amalga oshirilgan?
- 2.O‘zbekistonda savodsizlikni tugatishdan ko‘zlangan maqsadlar nimalardan iborat bo‘lgan?
3. O‘zbekistonda industrlashtirish natijalari va kollektivlashtirish oqibatlarini yoriting.
4. Mamlakatimizda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim qanday maqsadlarda rivojlantirildi?
- 5.XX asrning 30-yillarida O‘zbekistonda fan va madaniyat sohalari rivojlanishining omillarini aniqlang.
6. O‘zbekistonda nima sababdan eski maktablar tugatilgan?
7. XX asrning 30-yillarda o‘zbek adabiyoti va san’ati qanday omillar asosida rivojlandi?
8. O‘zbek adabiyoti rivojida jadid adabiyotining roli va ahamiyati.
- 9.O‘zbekistonda 1937 – 39-yillardagi repressiya sabablari va oqibatlarini tahlil qiling.

15 – §. Ikkinci jahon urushi yillarida O‘zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘sghan hissasi

Ikkinci jahon urushi va uning sabablari. 1933-yilda Germaniyada fashistlar partiyasining hokimiyatga kelishi bilan Yevropadagi siyosiy vaziyat o‘zgara bordi. Angliya, Fransiya va AQSh “beparvoligida” fashistlar Germaniyasi 1919 – 1922 yillardagi Versal – Vashington shartnomalaridan bir tomonlama chiqadi va qisqa vaqtida g‘arb kapitali ishtirokida 300 ta yangi harbiy zavodlar quriladi, sanoat modernizatsiya qilinadi. 1940-yil sentyabrda Germaniya, Italiya va Yaponiya (“Byerlin – Rim – Tokio” o‘qi) o‘rtasida harbiy-siyosiy va iqtisodiy ittifoq tuziladi.

Angliya va Fransiya fashistlar Germaniyasini “tinchlantirish” siyosati olib borayotgan sharoitlarda SSSR Eropada kollektiv xavfsizlik tizimini taklif etadi. Ammo Angliya va Fransiya hukumatlari Sovet Ittifoqoning yagona antifashistik frontni tashkil etish bo‘yicha takliflarini qabul qilishmaydi. Shunday sharoitlarda SSSR hukumati siyosiy izolyasiya va ikki frontda urush olib borishdan qochib, yaqinlashib kelayotgan urushga tayyorgarlik ko‘rish uchun Germanianing davlatlararo munosabatlarni yo‘lga qo‘yish haqidagi taklifini qabul qiladi. 23-avgust 1939-yilda Moskvada SSSR va Germaniya o‘rtasida o‘zaro hujum qilmaslik to‘g‘risida 10 yil muddatga Sharhnama (“Molotov – Ribbentrop pakti”) tuziladi. Sharhnama bilan birga maxfiy bayonнома imzolanib, unda Polsha yerlarini o‘zaro bo‘lib olish belgilangan edi. Germaniya Boltiqbo‘yi mamlakatlarga da’vo qilishdan voz kechadi, Latviya, Litva va Estoniya SSSRning ta’sir doirasiga o‘tadi.

Germaniya 1939-yil 1-sentyabrda Polshaga bostirib kiradi. Polshaning harbiy ittifoqchilari Angliya va Fransiya 3-sentyabrda Germaniyaga urush e’lon qiladi va shu tariqa Ikkinci jahon urushi boshlanadi. Ammo Angliya va Fransiya harbiy harakatlarni olib bormaydi, shu bois ushbu urush “g‘alati urush” nomi bilan tarixda qolgan.

1940-yil aprelda nemis qo'shinlari ikki kunda Norvegiya va Daniyani, 1940-yil 14-mayda Gollandiyani, 28-mayda Belgiyani bosib olishadi. 1940-yil 14-iyunda Parij taslim bo'ladi: Vermaxt dunyodagi yirik mustamlakachi davlat bo'lgan Fransiyani juda qisqa vaqtda tor-mor keltiradi. 1941-yil martda Yugoslaviya va Gretsiya istilo qilinadi. Gitler Britaniyani havodan bombardimon qilish orqali uni taslim bo'lishga majbur qilishga harakat qiladi.

Sovet Ittifoqi 1939-yil 17-sentyabrdan G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belorussiyani, 1940-yil iyunda esa Boltiqbo'yi respublikalarini egallaydi va shu tairqa chegaralar mamlakat markazidan uzoqlashtiriladi. Harbiy-strategik nuqtai nazardan, Boltiqbo'yi davlatlairning egallanishi boshlanadigan urushda muhim ahamiyatga ega bo'lsada, ammo siyosiy-huquqiy jihatdan Litva, Latviya, Estoniyaning SSSRga qo'shib olinishi davlatlar suverenitetining qo'pol buzilishi edi.

1941-yil 22-iyunda gitlerchilar Germaniyasi o'zaro hujum qilmaslik haqidagi shartnomani buzib, SSSRga bostirib kiradi. Ayni vaqtda Germaniya ittifoqchilari – Italiya, Finlyandiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya ham SSSRga qarshi urushga kiradi. Garchi Ispaniya urushda neytralitet e'lon qilsada, ammo uning 47 ming kishidan iborat "Zangori diviziysi" Germaniya tarafida turib SSSRga qarshi urushadi. Bu vaqtda 300 millionlik Yevropaning qudratli iqtisodiyoti va resurslari fashistlar Germaniyasi uchun ishlayotgan edi. Germaniyaning "Barbarossa" rejasiga ko'ra Qizil Armiya qarshiligi 1941-yilning kuziga qadar sindirilishi lozim edi.

Mazkur o'rinda SSSR Ikkinchidan jahon urushini boshlamaganligi isboti uchun kamida uchta argument keltirish mumkin. **Birinchidan**, SSSRning oliv rahbariyati (VKP(b) MQ va SSSR XKS) ning urush boshlash haqida siyosiy qarori bo'lmaqan³⁹. **Ikkinchidan**, Ishchi-Dehqon Qizil Armiyasining Bosh shtabida tomonidan ishlab chiqilgan va SSSR oliv rahbariyati tasdiqlagan urush rejasi yo'q

³⁹ Yirik moliyaviy-iqtisodiy guruhlarning qo'llab quvvatlashi bilan hokimiyatga kelgan A. Hitler 1925-yildayoq o'zining "Mening kurashim" kitobida Germaniya uchun SSSRning bosib olinishi hayotiy zaruriyat ekanligini ilgari surgan.

edi. Har qanday davlat urush boshlamoqchi ekan, harbiy rejaga ega bo‘ladi, (xuddi fashistlar Germaniyasining “Barbarossa” rejasidek). **Uchinchidan**, urush boshlash uchun iqtisodiyotni harbiy izga solish (iqtisodiyotni militarlashtirish) rejasi ham zarur. SSSRda bunday reja ham bo‘lmay, u faqat fashistlar Germaniyasining Sovet Ittifoqiga bostirib kirgandan keyin yaratilgan.

Ikkinchi jahon urushi (Birinchi jahon urushi singari) g‘arb kapitalizmi ziddiyatlarining qonuniy mahsuli edi. Odatda bo‘lingan dunyoni qaytadan bo‘lib olish urushlar orqali kechgan.

Urush boshlanishi bilan SSSR xalqlari, jumladan, O‘zbekiston xalqining nemis-fashist bosqinchilariga qarshi fidokorona kurashi boshlandi. 1941 yil 30 iyunda I. Stalin raisligida Davlat Mudofaa Qo‘mitasi (DMQ)ning tuzildi va butun hokimiyat unga o‘tdi. 1941–yil 8– avgustda I.V. Stalin Oliy bosh qo‘mondon lavozimini egallaydi.

Urushning dastlabki kunlarida respublikaning shahar va tuman harbiy komissariatlariga frontga yuborish bo‘yicha 14 mingdan ortiq ariza tushgan. Bu o‘zbekistonliklarning vatanparvarlik burchlarini qanchalik yuksak daraja anglashlarini, ularning bosqinchilargan qarshi kuchli nafratini ko‘rsatadi. Yuz minglab o‘zbekistonliklar frontga jo‘nadilar. Turkiston harbiy okrugidan 1941-yil iyundan 1942-yil oxirigacha harbiy safarbarlik asosida 109 ta harbiy qo‘shilma tuzildi, harakatdagi armiya va rezervga 86 diviziya va brigada jo‘natildi.

O‘zbekiston hukumati milliy harbiy qismlar tuzish tashabbusi bilan ham chiqdi. 1941-yil 13-noyabrdan 1942-yil martigacha 14 ta milliy harbiy qo‘shilma, jumladan, 9 ta o‘qchi brigada, 5 ta otliq askarlar diviziysi tuzilib frontga jo‘natildi.

O‘zbekistonda urushning dastlabki kunlaridan mudofaa jamg‘armasiga xalq ommasining tashabbusi bilan shaxsiy jamg‘armalar, fuqarolarning qimmatbaho buyumlari, oziq-ovqat mahsulotlari topshirildi. Mamlakatimiz aholisi mudofaa jamg‘armasiga jami 649,9 mln. so‘m pul, 22 million so‘mlik qimmatbaho buyumlar, 55 kilogramga yaqin oltin, kumush va boshqa qimmatbaho buyumlar

topshirdi.

1942-yil dekabrda “O‘zbekiston kolxozchisi” tank kolonnasi qurilishi uchun respublika kolxozchilarining shaxsiy jamg‘armalaridan 260 million so‘m to‘plandi. Davlat zayomi, pul-buyum lotereyasi sotish evaziga yig‘ilgan 4,2 milliard so‘mlik mablag‘ dushman ustidan g‘alaba qozonishga sarflandi. Shuningdek, aholi frondagi jangchilarga doimiy ravishda issiq kiyimlar, kurtkalar, po‘stinlar, kigiz etiklar, sharflar, qo‘lqoplar, paypoqlar va boshqa narsalar yuborilib turildi. Faqat urushning faqat dastlabki olti oyida frontga 421,5 ming turli issiq buyumlar yuborilgan edi.

Urush sababli butun mamlakatda bo‘lgani singari O‘zbekistonda ham aholini oziq-ovqat va sanoat mollari ta’minlash yomonlashadi. Shahar aholisini oziq-ovqat bilan ta’minlash me’yorlangan taqsimot (“kartochka”) tizimiga o‘tkaziladi. Ishchilar va xizmatchilar kuniga 400 – 500 gp. non olar, ularning qaramog‘idagilar esa yuqoridagi miqdordan 1,5 barobar kamroq olishardi. Kolxozchilar mehnat kunlariga naturada (mahsulot bilan) haq olishgan. Ammo qiyinchiliklarga qaramasdan malakatimizga evakuatsiya qilinganlar, yaradorlar va nogironlar, frontchilar oilalariga doimiy g‘amxo‘rlik ostida bo‘lishdi. Bu esa xalq dahosining insonparvarligiga yorqin misoldir.

Gitlerchilar rejasiga ko‘ra urush SSSR xalqlari o‘rtasidagi milliy nizolarni keltirib chiqarishi, natijada mamlakat parchalanib ketishi lozim edi. Fashistlarning direktiv hujjatlarida rus xalqiga rus bo‘lmagan xalqlarni qarama-qarshi qo‘yish, ular o‘ratsida milliy nifoq solish belgilangan edi. Ammo umumiyl kulfat Sovet Ittifoqidagi barcha millatlar va xalqlarni umumiy dushmanga qarshi birlashtiradi. Xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik fashizm mafkurasidan ustun keldi. Shu jihatdan o‘zbek xalqi ham xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikning yorqin namunalarini ko‘rsatdi. O‘zbekiston urush yillari Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya va Boltiqbo‘yi respublikalaridan jami bir milliondan ortiq kishini qabul qildi. Ulardan 200 ming nafari bolalar edi. Xalqimiz urush azoblaridan aziyat chekkan odamlarni mehmondo‘stlik bilan qarshi oldi, ularga boshpana, non, kiyim-kechak berdi, etimlarning boshini siladi. Yuzlab o‘zbek oilalari urush tufayli ota-onalaridan

ajralgan bolalarni o‘z qaramog‘lariga oldi. Toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov va uning turmush o‘rtog‘i Bahri opa Akromova turli millatga mansub 14 bolani o‘z tarbiyalariga oldilar. Kattaqo‘rg‘onlik Hamid Samadov ham 12 bolani asrab oldi. Buxorolik Muazzam Jo‘raeva va Ashurxo‘jaevalar 8 nafardan bola oldilar. 1943-yil oxiriga kelib shaharlarda 4672 bola, qishloqlarda esa, 870 bola o‘zbek oilalari tomonidan tarbiyaga olingan edi.

Urush arafasida respublikada 106 ta bolalar uyida 12 ming bola tarbiyalanayotgan bo‘lsa, 1945-yilga kelib, ularning soni O‘zbekiston viloyatlarida va Qoraqalpog‘istonda 263 ta bolalar uyida 31300 bolaga etdi. 1943-yilda bolalar bog‘chalarida tarbiyalanayotgan 53072 boladan 15108 nafari evakuatsiya qilingan bolalar edi. Ya’ni, tarixda kam kuzatiladigan bunday insonparvarlik orqali O‘zbekiston xalqi fashizmga qarshi kurashda o‘zining ma’naviy boyligi va bag‘rikenlik fazilatlarini namoyon etdi.

Urush yillarida O‘zbekiston frontda yarador bo‘lgan jangchilarni sifatli davolash tibbiy tizimi shakllandi. 1941-yil 1-oktyabrgacha O‘zbekiston sog‘liqni saklash xalq komissarligi tizimida 14950 o‘ringa ega bo‘lgan 47 gospital tashkil etildi. Birgina Moskva, Kalinin, Rostov va boshqa viloyatlardan 48 harbiy gospital ko‘chirib keltirilgan edi. Evakuatsiya qilingan gospitallarga eng yaxshi binolar ajratib berildi. 1942-yil oxirida O‘zbekistonda 39140 o‘ringa ega bo‘lgan 113 ta evakuatsiya gospitallari evakuatsiya qilingan. Gospitallarda 164382 yarador keltirilgan, ulardan 87 foizi to‘liq davolangan. Gospitallarni 750 dan ortiq korxona, tashkilot, kolxoz va sovxozi gospitallarni otaliqqa olib, ularni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’milagan.

Urush yillarida O‘zbekiston sanoati va qishloq xo‘jaligi. Urush butun mamlakat xo‘jaligi, uning hayotini tubdan o‘zgartirib yubordi. Urush davrining eng murakkab masalalaridan – bu iqtisodiyotni harbiy izga solish edi. Mamlakat xalq xo‘jaligini harbiy ehtiyojlarga moslashtirish juda og‘ir sharoitlarda kechdi. Harbiy mahsulot ishlab chiqarishni keskin ko‘paytirish, sanoat korxonalarini g‘arbdan sharqqa ko‘chirish va uni o‘ta qisqa vaqtida ishga tushirish zarur edi. Chunki ushbu vaqtda SSSR aholisining deyarli 40 foizi yashaydigan, ko‘mirning 63 foizi qazib

olinadigan, po‘latning 50 foizi tayyorlanadigan, donning 38 foizi etishtiriladigan, mashinasozlik, jumladan, ko‘pgina mudofaa korxonalari joylashgan hududlar bosqinchilar tasarrufida edi.

Urushning borishi mamlakat sanoat ishlab chiqarishi va qishloq xo‘jaligining front ehtiyojlari talablariga javob bera olishiga bevosita bog‘liq, ya’ni kuchli armiya uchun kuchli iqtisodiyot zarur edi. Shuning uchun ham siyosiy rahbariyat iqtisodiyotni harbiy izga qayta qurishga ustivor ahamiyat berdi. Iqtisodiyotni militarlashtirish fuqarolar urushi yillarida sinovdan o‘tgan bolshevistik usullar asosida amalga oshirildi. 26-iyundan ishchilar va xizmatchilar uchun ishdan tashqari vaqtida majburiy ishlab berish joriy etildi. Katta yoshdagilar uchun ish kuni olti kunlik ish haftasida 11 soatgacha uzaytirildi, mhnat ta’tillari bekor qilindi. 1941- yil dekabrdan harbiy korxonalarga ishchilar biriktirib qo‘yildi, mehnat intizomini buzganlarga qattiq jazo belgilandi. Ammo odamlar qonunlardan qo‘rqqanidan emas, balki mamlakat ozodligi uchun fidokorona mehnat qildilar, ommaviy entuziazm keng tarqaldi.

SSSR g‘arbiy mintaqalaridan O‘zbekistonga evakuatsiya qilingan sanoat korxonalarini qisqa muddatlarda ishga tushirish amalga oshirildi. Urushning dastlabki vaqtlarida ishchi kuchining tanqisligi, xom ashyo, yoqilg‘i, dastgohlar, asboblar etishmasligiga qaramasdan 1941-yil dekabrdayoq, Toshkentdagi 63 ta korxona va respublikadagi boshqa 230 ta korxona front uchun ishlay boshladi. O‘zbekistonga hammasi bo‘lib 104 ta zavod va fabrika evakuatsiya qilindi. Ular orasida Leningrad to‘qimachilik mashinalari zavodi, “Rosselmash”, “Krasniy Aksay”, Sumsk kompressor va Dnepropetrovsk karborund zavodlari, Moskvadagi “Elektrokabel” va “Pod’yomnik” zavodlari, Temir yo‘llar xalq komissarligining mashinasozlik zavodi, V. Chkalov nomidagi aviatsiya zavodi, “Krasniy put” zavodi, Kievdagi “Transsignal” zavodi, Stalingrad kimyo kombinati va boshqa shu kabi sanoat gigantlari bor edi.

Evakuatsiya qilingan zavod va fabrikalarni tiklashda oddiy talabalar, maktab o‘quvchilari, uy bekalari, fan va madaniyat xodimlari, ishchilar, kolxozchilar fidokorona mehnat qildilar. Tinchlik sharoitlarida yillar davomida qilinadigan

ishlar urush davrida oylar, hatto kunlar mobaynida bajarildi. Masalan, O‘zbekistonga ko‘chirib keltirilgan “Rosselmarsh” zavodi 25 kunda, “Krasniy Aksay” zavodi 29 kunda ishga tushirildi. Sanoat korxonalarini ishga tushirishda gohida shunday bo‘lardiki, stanoklar devorlarni tiklash bilan bir vaqtda o‘rnatilar, hatto zavodlar tomi yo‘q binolarda mahsulotlar ishlab chiqara boshlar edi.

Respublikada harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishning o‘sishi bilan birga energetika bazasini kengaytirish vazifasi ham keskin bo‘lib qoldi. Chunki sanoat korxonalari, umuman, har qanday ishlab chiqarish uchun, avvalo, elektr energiyasi zarur. Bu vazifa ham sharaf bilan bajarildi. Faqat birgina 1942 – 43 yillarda elektr energiyasi ishlab chiqarish 4 baravar ko‘paydi. 1943-yilda O‘zbekistonda eng yirik gidroelektrstansiya – Farhod GESi qurilishi boshlandi. Urush yillarida 7 ta yirik va 30 ga yaqin kichik GESlar qurildi, elektr energiyasini ishlab chiqarish qariyb 2,5 baravarga, ya’ni 1940-yilda 462 mln kilovatt soatdan 1945-yilda 1187 mln. kilovatt soatga ko‘paydi.

O‘zbekistonda urush yillarida jami 280 ta yangi korxona barpo etildi. Sanoat potensiali 1945-yilga kelib 1940-yildagiga nisbatan deyarli ikki baravar ko‘paydi, neft qazib olish 4 baravardan ziyod, metall ishlash tarmoqdari mahsulotlari 4,8, mashinasozlik mahsulotlari 13,4 baravar, ko‘mir qazib chiqarish 30 baravardan ko‘proq, po‘lat va prokat eritish 2 baravar, elektr energiya ishlab chiqarish 2,42 marta ortdi. Aviatsiya, stanoksozlik, og‘ir mashinasozlik, qora va rangli metallurgiya singari sanoatning yangi tarmoqlari vujudga keldi.

Urush yillarida ko‘mir, neft konlaridan foydalanish sur’atlarini oshirish, yangi konlarni ochish borasida ham katta ishlar qilindi. Agar 1940-yilda O‘zbekistonda 3,4 mln tonna ko‘mir qazib olingan bo‘lsa, 1945-yilga kelib 103 mln tonna, ya’ni 30 marta ko‘proq ko‘mir qazib olindi. Urushning suronli yillarida neft ishlab chiqarish 4 marta ko‘paydi va 1945-yilda 478 ming tonnadan oshdi.

O‘zSSR XKS 1942-yil 17-iyunda Bekobodda metallurgiya zavodi qurish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Zavod qurilishida 30 mingdan ziyod kishi qatnashadi. O‘zbekistonning birinchi metallurgiya zavodi 1944-yil 5-martda ishga

tushirildi. 1945-yil fevralda Bekobod metallurgiya zavodining ikkinchi navbatini ham mahsulot bera boshladi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarining kengayishi ishchi kadrlarga talabni ham oshirdi. 1942-yil 13-fevraldan ishlab chiqarishga ishlamayotgan, ammo mehnatga layoqatli xotin-qizlar, o'smirlar, nafaqaxo'rlar safarbar qilindi. Ishlab chiqarishida ayniqsa xotin-qizlar salmog'i ortib bordi. Agar 1940-yilda sanoatda ishlovchilar orasida xotin-qizlar salmog'i 34 foizi tashkil etgan bo'lsa, 1942-yilga kelib bu ko'rsatkich 63,5 foizga etgan edi.

Urush yillarida ishchilar sinfi yoshlari hisobiga ham oshib bordi. Yoshlardan malakali ishchi kadrlar tayyorlashni kengaytirish maqsadida 1942-yil oxirida mavjud 14 ta hunar maktabi va 45 ta FZO maktabi (fabrika-zavod ta'limi)ga qo'shimcha 15320 o'quvchidan iborat 31 ta FZO maktabi ochildi. Ko'rilgan choratadbirlar natijasida urushning faqat ikki yili mobaynida O'zbekistonda ommaviy kasblarda 105673 sanoat ishchisi tayyorlandi. 1945-yilda ishchilar sinfining soni 196,2 mingga etdi, bu esa 1941-yilga nisbatan 54,6 mingga ko'p edi. Ochlik, doimiy charchoq, og'ir mehnat sharoitlariga qaramasdan ilg'or ishchilar kunlik normalarini 300 – 400, hatto 500 foizga qadar bajargan.

1943-yilga kelib SSSR harbiy ishlab chiqarishda Germaniyadan o'tib ketadi. Bunda esa oziq-ovqat tanqisligi, og'ir mehnat sharoitlariga qaramasdan mehnat frontida jasorat ko'rsatgan O'zbekiston xalqining ham munosib ulushi bor edi. O'zbekistonda sanoati frontga 2100 ta samolyot, 17342 ta aviamotor, 2318 ming dona aviabomba, 17100 ta minomyot, 4500 birlikdan iborat minalarni yo'q qiluvchi qurol, 60 mingga yaqin harbiy-kimyoviy apparatura, 22 mln. dona mina va 560 ming dona snaryad, 1 mln. dona granata, dala radiostansiyalari uchun 3 mln. radiolampa, qariyb 300 mingta parashyut, 5 ta bronepoezd, 18 ta harbiy-sanitariya va hammom-kir yuvish poezdi, 2200 ta ko'chma oshxonalar va boshqa ko'pgina harbiy anjomlar etkazib berdilar. Faqat respublika engil sanoat xalq komissarligi korxonalarining o'zi 1941 – 1945 yillarda 7518,8 ming gimnastyorka, 2636,7 ming paxtali nimcha, 2861,5 ming armiya etigi tayyorlab berildi.

Urush yillarida respublikamizda 280 ta yangi korxonalar qurilib ishga tushirildi. Buning naitjasida 1945-yilga kelib sanoat ishlab chiqarishi urush arafasidagiga nisbatan deyarli ikki baravar ortdi, neft qazib olish 4, metall ishlab chiqarish 4,8, mashinasozlik mahsulotlari 13,4 baravar, ko‘mir qazib chiqarish 30, energiya ishlab chiqarish 2,42 baravar ko‘paygan.

Ayniqsa urush davrida temir yo‘l transportining ahamiyati juda oshib ketadi. O‘zbekistonda temir yo‘l transporti faoliyati yuqori darajada tashkil etildi. Temir yo‘lchilarning fidokorona mehnati natijasida 1941–1942 yillarda evakuatsiya qilingan sanoat korxonalari, ulardagi asbob-uskunalar 17,5 ming vagonda tashib berildi. 1941 – 1945 yillarda temir yo‘l tarmoqlari ikki baravar uzaydi. Toshkent – Angrenugol, Boysun – Otqulog – Turangli, Toshkent tovar stansiyasi temir yo‘llari ishga tushirildi.

Nemis-fashist bosqinchilariga qarshi umumxalq kurashida qishloq xo‘jaligi mehnatkashlarining ham ulushi katta bo‘ldi. Urush boshlangan vaqtida esa agrar sohadagi vaziyat murakkab edi. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi asosan paxta etishtirishga ixtisoslashtirilgan, g‘alla Rossiya va Ukrainadan keltirilar edi. SSSRning g‘alla etishtiriladigan asosiy rayonlarni dushman bosib olganligidan, O‘zbekistonda g‘alla etishtirishni ko‘paytirish hayotiy zaruriyatga aylandi. MTSlar, kolxozlar va sovxozlardan traktorlar, transport vositalarining harbiy maqsadlarga jalb etilishi ham agrar ishlab chiqarishning moddiy-texnika bazasi zaiflashtirib, qo‘l mehnatining ulushini ko‘paytirgandi. Masalan, 1941-yilda O‘zbekistonda 27888 mexanizator bo‘lgan bo‘lsa, 1942-yilda ularning soni 2775 kishiga tushadi. Shuningdek, mehnatli yaroqli erkaklar ko‘pchiligining Qizil Armiyaga chaqirilishi va harbiy sanoatga jalb etilishi mehnat resurslari taqchillagini keltirib chiqardi.

Urush davrda qishloq xo‘jalik ekinlarining nisbati ham sezilarli ravishda o‘zgardi. Agar urushdan oldin har bir tumanda ekin ekilgan maydonlarning 90 foizi paxtaga to‘g‘ri kelsa, urush yillarida bu maydonlar kamayadi. Paxtadan bo‘sagan yerlarga g‘alla, sabzavot va poliz ekinlari, beda ekildi. Bu esa oziq-ovqat resurslarini ko‘paytirish imkonini berdi. Lekin shunga qaramasdan paxta

etishtirish ustuvor yo‘nalishlardan bo‘lib qolaverdi. Urush davrida g‘allakorlar 82 mln. pud g‘alla, 213 ming sentner sholi etishtirdilar.

Urush yillarida ko‘plab yangi sug‘orish inshootlari bunyod etildi va irrigatsiya tizimi yaxshilandi. Hashar yo‘li bilan O‘zbekistonda Shimoliy Toshkent, Yuqori Chirchiq, Shimoliy Farg‘ona, So‘x – Shohimardon, Uchqo‘rg‘on kanallari, Kattaqo‘rg‘on suv omborlarining qurildi. 1942 –1943 yillarda O‘zbekistonda sug‘orma ekin maydoni 546 ming gettarga ko‘paydi.

Xullas, urush yillarida O‘zbekistonda 4 mln. 806 ming tonna paxta xomashyosi, 1282 ming tonna don, 54,1 ming tonna pilla, 482 ming tonna kartoshka va sabzavot, 57,5 ming tonna meva va uzum, 36 ming tonna quruq meva, 159 ming tonna go‘sht, 22,3 ming tonna jun tayyorlandi.

Fan, maorif va madaniyat. O‘zbekistonning barcha ilmiy va madaniy resurslari front ehtiyojlariga qaratildi. SSSR Fanlar akademiyasining O‘zbekiston Filiali (O‘zFAN) ilmiy–tadqiqot ishlarni muvofiqlashtirib turdi. Bu vaqtida uning tarkibi geologiya, energetika, kimyo institatlari, botanika va tuproqshunoslik instituti, til, adabiyot va tarix instituti, iqtisodiy tadqiqotlar byurosi, fizika-matematika sektori va boshqa ilmiy bo‘linmalardan iborat bo‘lgan. 1943-yil noyabrda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tuzilishi katta tarixiy voqeа bo‘ldi.

Og‘ir sharoitlarga qaramasdan respublikda oliv o‘quv yurtlari va texnikumlarining soni ham ko‘payib bordi. Urush vaqtida O‘zbekistonga 31 ta oliv o‘quv yurti va 7 ta akademiya evakuatsiya qilindi.

Ilmiy yo‘nalishlar mamlakatning mudofaa qudratini yuksaltirishga qaratildi. Shundan kelib chiqqan holda mahalliy xom ashyoni o‘rgansh, er osti boyliklarini izlab topish, ishlab chiqarish sohalarida ilg‘or fan-texnika yutuqlarini joriy etish kuchaydi. Agrar sohaga ixtisoslashgan institutlar olimlari qishloq xo‘jaligida hosildorlikni oshirish va yangi ekinlarini joriy qilish, chorvachilikni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy ishlar olib borishdi. Ayniqsa kimyo, geologiya, farmatsevtika, o‘simlikshunoslik, botanika, texnika, tibbiyot, metallurgiya va mashinasozlik sohalarida olimlar katta muvaffaqiyatlarga erishdilar.

Shuningdek, ijtimoiy fan olimlari, jumladan, faylasuflar, tarixchilar, sharqshunoslar, adabiyotshunoslar fashizmga qarshi mafkuraviy kurash olib bordilar, jamiyatda insonparvarlik va vatanparvarlik qadriyatlarni ilmiy asoslarda o‘rganshni kuchaytirdilar.

Urush yillarida ilk bor ikki jildlik “O‘zbekiston xalqlari tarixi” singari fundamental asar yaratishga kirishildi. Arxeolog olimlar Ulug‘bek rasadxonasi, Afrosiyob va Varaxsha shaharlarida qazishmalar olib borishdi.

Sharqshunos olimlar o‘zbek xalqining boy madaniy merosini o‘rganshga katta e’tibor berdilar va qadimgi qo‘lyozmalarni o‘rgansh va ilmiy izohlash ishlari bilan samarali shug‘llandilar. Adabiyotshunos va tilshunoslar o‘zbek adabiyoti tarixi va hozirgi zamon o‘zbek tili grammatikasi sohasida tadqiqotlar olib bordilar, o‘zbekcha–ruscha, ruscha–o‘zbekcha lug‘atlar, Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati ustida ishladilar.

Fashizmga qarshi umumxalq kurashiga o‘zbek adabiyoti ham munosib hissa qo‘shdi. Mirzakalon Ismoiliy, Ilyos Muslim, Nazarmat, Adham Rahmat, Nazir Safarov, Ibrohim Rahim, Zinnat Fatxullin, Adham Hamdam singari yozuvchilar va jurnalistlar o‘zbek tilida nashr etilgan front gazetalarida xizmat qildilar. Urush yillarida Oybekning “Navoiy”, “Qutlug‘ qon” romanlari, “Mahmud Torobiy” dramasi, Abdulla Qahhorning “Oltin yulduz” qissasi, Uyg‘un va Izzat Sultonning “Alisher Navoiy”, Uyg‘unning “Qasam”, “Bir qadam orqaga chekinilmasin” va “Maktub”, Hamid Olimjonning “Muqanna”, “Qo‘lingga qurol ol”, “Sharqdan G‘arbga ketayotgan do‘stga”, “Jangchi Tursun”, “Roksananing ko‘z yoshlari”, Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi”, “Ona kuzatmoqda”, “Kapitan Gastello”, G‘afur G‘ulom “Sen — etim emassan”, “Men yahudiy”, “Men seni kutaman, o‘g‘lim”, “Bizning ko‘chamizda ham bayram bo‘lajak” kabi nazmiy va nasriy asarlari yaratildi va ular o‘zbek adabiyotining oltin fondidan joy oldi.

Urush yillarida O‘zbekistonda teatr ham rivojlandi. Bu vaqtida 35 ta mahalliy va 16 ta ko‘chirib keltirilgan teatr jamoasi faoliyat ko‘rsatdi va 203 ta yangi postanovka tayyorlandi.

Suronli urush yillarda respublikamizda 30 dan ortiq konsert brigadalari tashkil etildi. Ular harakatdagi armiyada, Turkiston harbiy okrugi qismlari va gospitallarda ko‘plab konsertlar qo‘yib berishdi. Bu vaqtida o‘zbek kinematografiyasi ham jadal rivojlandi. “Nasriddin Buxoroda”, “Tohir va Zuhra” kabi badiiy filmlar “O‘zbekfilm”ning oltin fondiga aylandi.

O‘zbekiston xalqi urush yillarida fashistlar bilan “hamkorlik” qilishda ayblanib, badarg‘a qilingan xalqlarga ham bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘ldi. 1943–1944 yillarida O‘zbekistonga 175 mingdan ortiq chechenlar, 157 ming ingushlar, 150 mingdan ortiqroq qrim tatarlari, o‘n minglab mesxeti turklari, greklar ko‘chirilib keltirilgan edi. O‘zbek xalqi Vatanidan badarg‘a qilingan xalqlarga moddiy va ma’naviy ko‘mak berdi.

O‘zbekistonlik jangchilarining jasoratlari. Urushning dastlabki kunlaridanoq ko‘plab o‘zbekistonlik jangchilar mardik va jasorat namunalarini ko‘rsatdilar. Dushman hujumiga birinchi duch kelgan Brest qal’asining ko‘pmillatli himoyachilari orasida O‘zbekistondan Ahmad Aliyev, Doniyor Abdullayev, Bobokomil Kashanov, Uzoq O‘tayev, Nurum Siddiqov, Madamin Hojiyev, E.Ya. Liss, Rahimboy Arslonboyev, Saidahmad Boytemirov, F.I. Laenkov va boshqalar bor edi. Ular so‘ngi tomchi qonlari qolguncha dushmanga qarshi mardonavoar jang qildilar.

Fashistlar urushda harbiy komissarlarni asirga olishmagan, ular urush qonunlariga xilof ravishda otib tashlangan. Harbiy asirlarga ham shafqatsiz munosabatda bo‘lingan, ulardan tekin ishchi kuchi sifatida foydalanilgan. Dushman bosib olgan joylarda mehnatga layoqatli yoshlar Germaniyaga haydab ketildi.

1941-yil kuz-qish oylaridagi Vermaxtning Ikkinci jahon urushidagi birinchi yirik mag‘lubiyatga uchragan Moskva ostonalaridagi janglarda o‘zbekistonlik jangchilar yuksak harbiy mahorat ko‘rsatdilar. 353 – tog‘-o‘qchi polki jangchisi Qo‘chqor Turdiev 1941-yil 25-oktyabrda razvedkada bir o‘zi DZOT va 9 nafar dushmanni yo‘q qilib, ulardan 3 nafarini asir oladi. Bu jasorati

uchun Q. Turdiev o‘zbekistonlik jangchilardan birinchi bo‘lib Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni bilan taqdirlangan.

Turkiston harbiy okrugida tashkil etilgan general-mayor I.V. Panfilov qo‘mondonligidagi 316-o‘qchi diviziyasi mislsiz jasorat ko‘rsatdi. Bunda o‘zbekistonlik Abdulla Tog‘aev, Mamadali Madaminov, leytenant Pilyugin boshliq jangchilar jasoratlarini alohida qayd qilish mumkin. Moskva himoyachilari orasida o‘zbek qizi Zebo G‘aniyeva ham bor edi. U 1942-yil 21-maygacha 23 fashistni yo‘q qilgan. Zebo G‘aniyeva janglardagi jasorati uchun Qizil Bayroq ordeni bilan mukofotlandi. Moskva ostonasidagi janglardagi jasoratlari tufayli 1753 nafar o‘zbekistonlik jangchilar “Moskva mudofaasi uchun” medali bilan mukofotlandilar.

O‘zbekistonlik jangchilar Stalingrad janglarida qahramonona jang qilishdi. Ulardan 2738 kishi “Stalingrad mudofaasi uchun” medali bilan mukofotlandi. Kavkaz uchun olib borilgan janglarda birinchi o‘zbek generali Sobir Rahimov qo‘mondonligidagi diviziya muhim g‘alabalarga erishib, 8 mingdan ortiq dushmanni qirib tashlagan. S. Rahimov 38 yoshida general-mayor unvoniga, “temir general” degan faxrli nomga ega bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida general-mayor S. Rahimovning harbiy strateg sifatidagi salohiyatini ko‘rsatadi. Eng og‘ir janglarga general S. Rahimovning shaxsan o‘zi boshchilik qilgan. Uning taqdirlov varaqasida shunday deyiladi: “Diviziyaning hujum harakatlarida o‘zining jasur, qat’iy va mard general ekanligini namoyish etdi... 241-o‘qchi polkka yetakchilik qilish davomida polkning asosiy yo‘nalishda oldinga siljishini ta’minladi. Janglarda yaralangan bo‘lsa ham vazifa bajarilmaguniga qadar jang maydonini tashlab ketmadi”. General S. Rahimov 1945-yil 26-martda Polshadagi Dansig (Gdansk) shahrini egallashda halok bo‘ladi va unga o‘limidan so‘ng Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni beriladi.

Urushda tub burilish yasagan 1943-yil yozidagi Oryol-Kursk yo‘nalishidagi shiddatli janglarda ko‘rsatgan jasoratlari uchun o‘zbekistonlik A. Shukurov, V. Shalandin, M. Abdullin, A. Solihovlar Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga

sazovor bo‘lishdi. Dneprni kechib o‘tishdagi qahramonliklari uchun 26 o‘zbek jangchisi Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga ega bo‘ldi.

O‘zbekistonlik jangchilar partizanlik urushida ham faol qatnashdilar. Bunda M. Topiboldiyev, J. Otaboyev, I. Musayev, A. Hakimov, I. Qosimov va boshqalarning nomlari ham urush tarixida o‘chmas joy olishgan.

O‘zbekistonliklar Chexoslovakiya, Avstriya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya, Jugoslaviya, Polshani fashistlardan ozod qilishda, Germaniyani egallashda, Gretsiya, Italiya va Fransiyada qarshilik ko‘rsatish harakatlarida ishtirok etishgan.

Sovet Ittifoqi xalqlari, jumladan, O‘zbekiston xalqining jasorati sababli fashistlar Germaniyasiga qarshi urush 1945-yil 9-mayda g‘alaba bilan yakunlanadi. SSSR hukumati ittifoqchi davlatlar bilan o‘zaro kelishuv va Sharqdagi xavfni bartaraf etish sababli 1945-yil 9-avgustda Yaponiyaga qarshi urush boshlaydi. Yaponiyaga qarshi urushda 6770 nafar o‘zbekistonlik jangchilar ishtirok etib, 1945-yil 2-sentabrda Yaponiyaning taslim bo‘lishi va Ikkinchiji jahon urushi yakunlanishiga o‘zlarining hissasini qo‘shishdi.

German fashizmiga qarshi ayovsiz urushda Qoraqalpog‘iston mehnatkashlari ham munosib hissa qo‘shdilar. Qoraqalpog‘istondan 61618 kishi nemis-fashistlarga qarshi mardonavor jang qildi. 25 mingdan ziyod kishi esa ishchi batalonlarida mehnat qilishdi. Frontga ketganlarning ko‘pchiligi (34 mingdan ziyod kishi) halok bo‘ldi. Qoraqalpog‘istonlik jangchilardan 20 mingi orden va medallar bilan mukofotlandi. Ulardan 20 nafar jangchi Sovet Ittifoqi Qahramoni degan yuksak unvoni sohibi bo‘ldi, 6 nafar kishi esa “Shuhrat” ordenining uchala darajasi nishondori bo‘lishdi.

Qoraqalpog‘iston ASSR harakatdagi armiyaning mustahkam tayanchiga aylandi. Urush yillarida front uchun 284 ming 500 tonna paxta, 78 ming 700 tonna don, 15200 tonna go‘sht, 571 ming tonna yog‘, 609 tonna jun, qariyb 100 mingta qorako‘l teri, 622,3 tonna tuzlangan, quritilgan va dudlangan baliq, 200 mln. bankadan ortiq konserva va boshqa ko‘p mahsulotlar etishtirib berildi. Qoraqalpog‘istonlik mehnatkashlar mudofaa fondi uchun o‘zlarining shaxsiy

jamg‘armalarini ham ayamadilar. Tanklar, samolyotlarlar qurilishi uchun 10 mln. so‘m va obligatsiyalar, davlat harbiy zayomlari orqali esa 30 mln. 755 ming so‘m yig‘ildi. Dehqonlarning shaxsiy xonadonlaridan mudofaa fondiga 25,5 tonna jun, deyarlik 5 ming tonna don, 228,6 tonna go‘sht va boshqa ko‘p mahsulotlar topshirildi. Bundan tashqari Qoraqalpog‘istonliklar frontlarga, partizanlarga va fashist bosqinchilaridan ozod etilgan hududlar aholisiga katta moddiy yordam ham ko‘rsatdilar. Shuningdek, og‘ir hayot sharoitlariga qaramasdan evakuatsiya qilingan 35 ming kishiga g‘amxo‘rlik ko‘rsatildi.

Insoniyat tarixidagi eng dahshatli Ikkinchi jahon urushida 60 milliondan ziyod, xususan, sobiq SSSRdan 27 mln. odam halok bo‘lgan. Ya’ni, fashizm balosi ulkan qurbanliklar evaziga daf etildi. O‘zbekistondan esa bir yarim million urushdan qatnashib, undan 263005 kishi halok bo‘lgan, 132 670 kishi bedarak yo‘qolgan. O‘zbekistonda ulug‘ vatan urushida halok bo‘lganlar va fashizm ustidan qozonilgan g‘alaba 9 – may “Xotira va qadrlash” kuni sifatida nishonlanadi. Frontlarda halok bo‘lgan har bir vatandoshimizning nomi “Xotira” kitobidan joy olgan.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston xalqi nafaqat SSSR xalqlariga, balki butun insoniyat taqdiriga juda katta tahdid solgan fashizm singari cheksiz yovuzlikni yo‘q qilishga munosib hissa qo‘shti, va ayni vaqtda, o‘zining ko‘plab asl farzandlaridan judo bo‘ldi. Shuning uchun ham hozirgi va bo‘lg‘usi avlodlarning, har bir insonning muqaddas burchi – bu fashizm, millatchilik, irqchilik singari balo-qazolarning paydo bo‘lmasligi, ya’ni tinchlik uchun doimo kurashib yashashdir.

Savollar va topshiriqlar

1. Ikkinchi jahon urushi kelib chiqishining asosiy sabablari
2. Urush sharoitlarida xalq xo‘jaligi tizimida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?
3. O‘zbekiston urush yillari Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya va Boltiqbo‘yi respublikalaridan qancha odam ko‘chirib keltirilgan?

4. Respublikada harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishi o‘sishi qanday omillar asosida ro‘y bergan?
5. Urush yillarida O‘zbekiston sanoatida qanday o‘zgairshlar sodir bo‘ldi?
6. Urush yillarida qishloq xo‘jalik xodimlari g‘alabaga qanday hissa qo‘shdi?
7. Urush yillarida O‘zbekistonda fan va madaniyat rivojini tahlil eting
8. Ulug‘ Vatan urushi frontlarida O‘zbekistondan qancha jangchilar qatnashgan v ulardan qanchasi halok bo‘lgan?
9. German fashizmiga qarshi urushda Qoraqalpog‘iston mehnatkashlarining g‘alabaga qo‘shgan hissasini yoriting.
10. “Xotira va qadrlash kuni”ning tarixiy ahamiyatini tahlil qiling

16 – §. 1945 – 1985 yillarda O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti. “Qayta qurish” siyosati va SSSRning parchalanishi

Urushdan keyingi xalqaro vaziyat va xalq xo‘jaligining tiklanishi. Ulug‘ Vatan urushidan keyin SSSR xalq xo‘jaligini qayta tiklash juda og‘ir sharoitlarda, tashqi moliyaviy-iqtisodiy yordamlarsiz kechdi. Kishilik tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, dunyoda hech bir mamlakat SSSR kabi Ikkinchiji jahon urushi yillaridek talafot ko‘rmagan. Urushda 27 millio. odam halok bo‘lgan, millionlagan odamlar nogiron bo‘lib qolgan 1710 shahar va posyolka vayron qilingan, milliy boylikning 30 foizi yo‘qotilgan, 11 mln. kishi boshpanasiz, ekin maydonlari 1, 5 baravar kamayib ketgan edi.

Urushdan keyin xalqaro vaziyat ham murakkablashib, kechagi ittifoqchi davlatlar o‘rtasida “sovuv urush” boshlanib ketadi. Garchand SSSR urushdan juda katta yo‘qotishlar bilan chiqsada, ammo buyuk davlat sifatida jahonda tan olinadi. Sovet Ittifoqi rahbari I.V. Stalin g‘alabadan foydalanib Sharqiy Yevropa mamlakatlarida kommunistik tuzum o‘rnatalishiga – tashqi agressiyalardan himoyalovchi “bufer zona” – Sharqiy Yevropada sotsialistik davlatlarni tuzishga erishdi.

Shu bilan birga SSSR va AQSh etakchiligidagi g‘arb davlatlari o‘rtasida munosabatlar keskinlashining iqtisodiy sabablari ham bor edi: SSSR 1945-yil dekabrida AQSh dollarini xalqaro valyutaga aylatirgan Bretton – Vuds moliyaviy

tizimiga kirish bo‘yicha kelishuvlarni ratifikatsiya qilmaydi. I.V. Stalin AQSh dollariga muqobil valyutani yaratish yo‘lini tanlaydi.

1946-yil 5-martda Fultonda U. Cherchill AQSh prezidenti G. Trumen huzurida o‘zining nutqida Sovet Ittifoqini G‘arbgan qarshi asosiy tahdid sifatida baholaydi. I. Stalin esa unga javoban 1946-yil 14-martda “Pravda” gazetasidagi intervyyusida U. Cherchillni “SSSR bilan urushga chaqirish”da ayblaydi. Shu tariqa kechagi ittifoqchilar o‘rtasida “sovuj urush” boshlanadi. SSSR AQShning yadro quroliga monopol egalik qilishiga chek qo‘yish va o‘zining mudofaa qobiliyatini kuchaytirish uchun juda katta resurslarni harbiy sohaga sarflashga majbur bo‘ladi. 1949-yilda AQSh tashabbusida SSSR va sotsialistik mamlakatlarga qarshi Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti (NATO) harbiy-siyosiy bloki tuziladi. 1955-yilda kelishuvlarga xilof ravishda GFRning NATOga a’zo bo‘lishiga javoban SSSR etakchiligida sotsialistik davlatlar Varshava shartnomasi tashkilotini tuzishadi va shu tariqa 36 yil davomida dunyo ikki qutbga bo‘linadi.

Shuning uchun urushdan keyin SSSR, jumladan, O‘zbekiston xalq xo‘jaligi faqat ichki resurslardan foydalanish hisobiga tiklana boshlanadi. Kapital mablag‘lar cheklangan, malakali ishchilar va muhandis-texnik kadrlar etishmagan sharoitlarda O‘zbekiston Rossiya, Ukraina, Belorussiyaning urushda vayron bo‘lgan xalq xo‘jaligini tiklashda ham yordam berishi kerak edi.

1945–yil mayda Davlat Mudofaa Komiteti mudofaa korxonalarining bir qismini xalq iste’moli uchun tovarlar ishlab chiqarishga o‘tkazish to‘g‘risida qaror chiqardi. 1945–yil sentyabrda DMK faoliyati tugatiladi. Mamlakatni boshqarish Xalq Komissarlari Soveti (1946–yildan SSSR Ministrlar Soveti) qo‘liga o‘tadi. 1946–yil martda SSSR Oliy Soveti xalq xo‘jaligini rivojlantirishning 1946 – 1950 yillarga mo‘ljallangan rejasini tasdiqlaydi. Ushbu rejada vayron bo‘lgan xo‘jalikni tiklash, sanoat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni urushdan oldingi darajaga etkazish va yanada oshirish belgilangan edi. Xalq xo‘jaligini tiklash kuchli markazlashgan boshqaruvi tizimi asosida olib borildi.

1946–yil avgustda O‘zbekiston SSR Oliy Kengashida respublika xalq xo‘jaligini rivojlantirishning 1946 – 1950 yillarga mo‘ljallangan davlat

rejasiga tasdiqlandi. Reja bo'yicha xalq xo'jaligining barcha sohalariga 3 mldr. 900 ming so'm kapital mablag' ajratildi.

1947-yilda Sovet Ittifoqi o'zining urushdan oldingi iqtisodiy salohiyatini to'liq tiklaydi. 1950-yilda sanoat 1940-yilga nisbatan ikki marta o'sdi. (Agar qiyoslaganda bu vaqtda AQSh moliyaviy yordamidan foydalangan G'arbiy Yevropaning hech bir davlati o'zining urushgacha bo'lган darajasiga chiqmagan). Harbiy soliq, ish vaqtidan tashqari mehnat bekor qilindi va mehnat ta'tili tiklandi. Sanoatning etakchi sohalarida ish haqi oshirildi. 1947-yilda oziq-ovqat kartochkalari bekor qilinadi. (Quruqlikda urush harakatlari olib borilmagan Angliyada oziq-ovqat kartochkalari 1952-yilda bekor qilingan.) 1948-yildan to 1954-yilgacha oziq-ovqat mahsulotlari va xalq iste'mol mollari arzonlashtirib borildi. Umumiy hisobda xalq ommasining fidokorona mehnati tufayli narxlar deyarlik ikki yarim baravar arzonlashgan.

Sanoat sohalarining rivoji. Ikkinci jahon urushi qiyinchiliklarini mardonavor enggan O'zbekiston xalqining mehnati natijasida to'rtinchchi besh yilikda (1946 – 1950)da sanoat mahsulotining yalpi hajmi 71 foizga ko'paydi, bu urushdan oldingi darajadan 1,9 barobar ko'p edi. Sanoatning xalq xo'jaligidagi salmog'i 47,7 foizni tashkil qildi. Shu yillarda 150 ta sanoat korxonasi ishga tushib, ular orasida Bekobod metallurgiya, Qo'qon va Samarqand superfosfat zavodlari va boshqa yirik korxonalar bor edi. Urushdan keyingi yillarda gaz, oltin qazib chiqarish sanoati vujudga keldi. Ushbu besh yillikda 8ta yirik va o'rta hajmdagi elektrostansiyalar ishga tushirildi. 1940-yilga nisbatan elektr energiyasiini ishlab chiqarish 1985-yilda 180 barobarga oshdi. Qora va rangli metallurgiya, mashinasozliq metallga ishlov berish va kimyo sanoati jadal rivojlandi. Qoraqalpog'istonda ham sanoat rivoji yo'lga qo'yildi. Amudaryo mintaqasini respublika va mamlakatning boshqa hududlari bilan bog'laydigan Chorjuy – Qo'ng'irot temir yo'li qurildi. Shu bilan birga, Sovet davlati mablag'larni O'zbekiston uchun noan'anaviy tarmoqlar, avvalo og'ir sanoatga sarfladi (og'ir sanoat salmog'i 1950-yilda 1940-yildagi 13,5 % o'rniga 47,2 %ga

etdi)⁴⁰. Urushdan keyingi dastlabki yillarda korxonalarining asosiy qismi xalq iste'moli uchun mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tdi.

Urushdan keyin sanoat korxonalarining ixtisoslashuvi va kooperatsiyasi rivojlanadi. 1948-yilda “Tashselmash” zavodida paxta terish mashinalari ishlab chiqariladi. 1969-yilda Toshkent traktor zavodi ishga tushiriladi. 60 – 70 yillarda mashinasozlik sohasida ishlab chiqarish quvvatlari o'sdi. Sanoat mahsuloti umumiy hajmida mashinasozlik hissasi 1970-yilda 15,9 foizga etadi. Mashinasozlik sanoati mahsuloti hajmining o'sish sur'atlari keyingi yillarda ham yuqori sur'atlarda o'sib bordi. 1990-yillarga kelib mashinosozlik sanoati 100dan ortiq korxonalardan iborat bo'lib, unda traktorsozlik, qishloq xo'jalik mashinasozligi, paxta tozalash sanoati mashinasozligi, elektrotexnika sanoatining salmog'i katta edi. 1960-yilda mashinasozlik sanoatida yigirma ikki nomdag'i mashinalar, mexanizmlar va asboblar ishlab chiqarilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1970–yilda – 29, 1980-yilda – 39, 1993 yilda – 38 ni tashkil etdi.

1946 – 1990 yillarda radioelektronika, elektrotexnika, transport samolyotsozligi kabi yangi sanoat tarmoqlari vujudga keldi va jadal rivojlandi. 1948-yilda radiodetallar, elektrotexnika sanoati uchun izolyatorlar ishlab chiqaradigan “Mikond” zavodi ishga tushirildi. 1970– yillar oxirida respublikada o'ndan ziyod eletrotexnika zavodlari bor edi. 1982-yilda EHM ishlab chiqaradigan “Algoritm” zavodi, 1986-yilda esa mikrosxemalar, mikroelektronika elementlari, masofadan boshqarish sistemalari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan “Zenit” zavodi ishga tushirildi.

O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan savdo va madaniy aloqalari ham kengayib bordi. 1950–yillarda O'zbekiston dunyoning 32 mamlakatiga sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilgan bo'lsa, 80–yillar boshlarida 90 ta xorijiy mamlakat bilan savdo aloqalarini o'rnatdi. Sovet Ittifoqi respublikalari orasida xorijga mahsulot chiqarish bo'yicha O'zbekiston

⁴⁰ Экономическая история советского Узбекистана (1917 –1965 гг.). – Т., 1966. 236-6.

RSFSR va Ukrainadan keyingi uchinchi o‘rinda turgan. Eksport mahsulotlari 250 xildan ortiq bo‘lgan.

O‘zbekistonda xalq xo‘jaligini rivojlantirish rejalari Ittifoq hukumatida ishlab chiqarilib, unda mahalliy sharoitlar unchalik hisobga olinmagan. Sovet hukumatining 1946–yil 2–fevraldagি O‘zbekistonda paxtachilikni tiklash va yanada rivojlantirish choralar to‘g‘risidagi qarori paxta yakkahokimligi (monokultura)ni kuchaytirdi.

1945 – 1985 yillarda metallurgiya ham rivojlandi. 1962–yilda O‘zbekiston metallurgiya sanoatida uzluksiz po‘lat quyish qurilmasi, 1970–1980–yillarda esa elektr yordamida po‘lat eritish kompleksi ishga tushirildi. Po‘lat eritish 1985–yilda 1,2 million tonnaga etdi.

1946 – 1985 yillarda uran, oltin, mis, qo‘rg‘oshin, rux, volfram, tabiiy gaz, toshko‘mir va boshqa foydali qazilma konlari ishga tushirildi. Xususan, 50–yillarda Olmaliq – Angren sanoat rayonida mis, qo‘rg‘oshin, rux, volfram, molibden va boshqa nodir metallar koni topildi va Olmaliq kon-metallurgiya kombinati barpo etildi. 60 – 70 yillarda oltin qazib olish sanoati yaratildi, mis rudasini qayta ishlovchi kombinatlar ishga tushirildi.

70 – 80-yillarda O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarish salohiyatining 65 foizi Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Farg‘ona vodiysida joylashgan edi. O‘zbekistonning shimoliy va janubiy viloyatlarida, Qoraqalpog‘istonda esa **Sanoat**, aksincha, sust rivojlangan edi.

Transportni rivojlantirish esa sanoat markazlarini birlashtirishga e’tibor qaratildi. Chorjo‘y – Qo‘ng‘irot (uzunligi 600 km. dan ziyod), Navoiy – Uchquduq, Sirdaryo – Jizzax Samarqand – Qarshi temir yo‘li qurildi. 1972–yilda qurilgan Qo‘ng‘irot – Beynov temir yo‘li O‘rta Osiyo respublikalarini Volgabo‘yi va Kavkaz bilan bog‘laydi.

1946 – 85 yillarda havo transporti ham jadal rivojlandi, aviatsiya sanoati ham o‘sib bordi. 1941–yilda Toshkentga Ximki shahridan aviatsiya zavodi evakuatsiya qilingan edi. Urush yillarida harbiy samolyotlar ishlab chiqargan Toshkent aviatsiya zavodi negizida 1972–yilda V.P. Chkalov nomidagi Toshkent

Aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. Uning tarkibi Toshkent aviatsiya zavodi (bosh korxona), Andijon mexanika zavodi, Farg‘ona mexanika zavodi va Toshkent kislorod zavodidan iborat bo‘lgan. O‘sha vaqtida Toshkent aviatsiya zavodi nafaqat SSSRda, balki dunyodagi yirik aviatsiya korxonalaridan biri bo‘lgan.

Xizmat ko‘rsatish sohasi kam rivojlandi va bu hol aholining mehnatga layoqatli qismining ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilinishiga to‘sinqinlik qildi. Sanoatda, qurilishda milliy kadrlar nisbatan kam edi. Malakali ishchi kadrlar tanqisligi esa boshqa respublikalardan mehnat resurslari hisobiga qoplandi. 70-yillardan sanoatda ishlab chiqarish sur’atlari oldingilarga nisbatan susaydi.

50 – 80 yillarda O‘zbekistonda qurilish, engil va paxta sanoati yuqori sur’atlarda rivojlandi. 1985-yilda qurilish materiallarini ishlab chiqarish sanoati 1851 korxona, 11 ta yirik uysozlik kombinatlaridan iborat edi.

70 – 80 yillarda Buxoro to‘qimachilik kombinati, Andijon ip-gazlama kombinati, Nukus ip-gazlama kombinati, Jizzax paxta yigiruv va boshqa yirik fabrikalar hamda ularning joylardagi filiallari barpo etildi. Biroq O‘zbekistondagi to‘qimachilik sanoati paxta tolasining 10 foizini tayyor mahsulotga aylantirish quvvatiga ega edi.

Shuningdek, oziq-ovqat sanoatining yog‘-moy, konserva, non, un yormasi, qandolat, go‘sht, sut, baliq, choy, tamaki, vinochilik tarmoqlari o‘sdi. Oziq-ovqat sanoatida inson salomatligi uchun zararli bo‘lmagan mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan bo‘lib, mahsulotlar turli kimyoviy moddalar, har xil zararli qo‘srimchalardan, gen darajasidagi o‘zgartirishlardan (GMO)lardan xoli ekologik toza edi.

Qishloq xo‘jaligi va undagi o‘zgarishlar. Urushdan keyingi yillarda paxta yakkahokimligi yana kuchayib bordi. SSSR XKS va VKP(b) MQning 1945-yil 15-iyuldagagi “O‘zbekistonda paxtachilikni qayta tiklash va yanada rivojlantirish choralarini to‘g‘risida”gi va SSSR XKSning 1946-yil 2-fevraldagagi “1946 – 1953-yillarda O‘zbekistonda paxtachilikni qayta tiklash va yanada yuksaltirish rejasi va tadbirlari to‘g‘risida” qarorlar qabul qilindi. Ularda O‘zbekiston SSSR asosiy paxta

etishtiruvchi mintaqasi bo‘lishi kerakligi o‘z ifodasini topgan edi. Shu bois mablag‘larning katta qismi paxtachilikka yo‘naltirildi. Ammo agrar soha qiyinchiliklar bilan rivojlandi. 1947 – 1948 yillarda paxta tayyorlash bo‘yicha davlat rejasi bajarilmadi. 1949-yildan ahvol birmuncha o‘zgardi. 1950-yili 2 mln. 222 ming tonna paxta etkazib berildi, hosildorlik gektaridan 20,7ssentnerga etdi. 1950-yildan paxtaning xarid narxi oshirilib, 1 tonnasiga 2200 so‘m, ya’ni avvalgidan ikki baravar ko‘p haq to‘landi.

Umuman, 1946 – 1985 yillarda paxta etishtirish 5,5 baravar ko‘paydi, paxta ekiladigan maydonlar esa 1 mln. ga dan ortdi. Respublikada paxta yakkahokimligi tarkib topdi. Paxta maydonlarining salmog‘i 1980-yilda o‘rtacha 75 foiz edi. Shuningdek, ipak qorako‘l teri va boshqa xom ashyo etkazib beruvchi respublikaga aylantirildi.

1958 – yilda oldin davlat ixtiyorida bo‘lgan MTS texnikalarining jamoa xo‘jaliklariga sotilishi jamoa xo‘jaliklarining iqtisodiga jiddiy zarar etkazdi. Qishloq xo‘jalik texnikasi, ehtiyyot qismlar, yoqilg‘i narxlari esa ikki marta oshirildi.

O‘zbekistonda irrigatsiya – melioratsiya tizimi ham 50-yillar oxiridan keng ko‘lamda rivojlanib bordi. Janubiy Mirzacho‘l, markaziy Mirzacho‘l kollektori qurilishi va Shimoliy Mirzacho‘l kanalining kengaytirilishi natijasida qisqa muddatlarda Mirzacho‘lning qo‘riq yerkari o‘zlashtirildi. Shuningdek, Amu-Qorako‘l va Amu-Buxoro kanallari, Jizzax suv ombori, Qarshi magistral kanali, Kuyukmozor, To‘dako‘l va Talimardon suv ombori barpo qilindi. Farg‘ona vodiysida Katta Andijon va Katta Namangan kanallari va sig‘imi 2 millard m.³ li yirik Andijon suv ombori qurildi.

Yangi yerkarni o‘zlashtirish yangi sovxozi, yangi shaharlar va posyolkalar bunyod etish bilan birga olib borildi. Faqat 1956 – 65 yillarda o‘zlashtirilgan joylarda 456 ming kv. metr turar – joy binolari, maktablar, bolalar bog‘chalari, kasalxonalar, oshxonalar, madaniy maishiy muassasalar qurildi. Elektr liniyalari o‘tkazildi, xo‘jaliklar, turar joy binolari gazlashtirildi. 1957-yilda Yangier, 1961-yilda Guliston va boshqa bir qancha shaharlar bunyod etildi.

1946 – 65-yillarda O‘zbekistonda 600 ming gektar sug‘oriladigan yerlar qishloq xo‘jalik oborotiga kiritilgan bo‘lsa, 1966–85 yillarda esa 1,6 million gektar yangi yerlar o‘zlashtirildi. 1985-yilda 23 suv ombori, 197 ming km uzunlikdagi kanallar mavjud edi. Ayni vaqtida kanallar va suv omborlari ko‘payishi atrof-muhitga salbiy ta’sir ham ko‘rsatdi. Sirdaryo va Amudaryo suvi kamayishi natijasida Orol dengizining sathi pasaydi.

Yangi o‘zlashtirilgan qo‘riq yerdarda 160 sovxoz tashkil etildi. 7,7 mln kv. metr turar joy, 37 ming o‘rinli maktabgacha ta’lim muassasalari, 102 ming o‘rinli umumta’lim maktablari barpo etildi.

Qishloq xo‘jaligini mutaxassis kadrlar bilan ta’minlashda ham ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Qishloq xo‘jaligi uchun kadrlar qishloq hunar-texnika bilim yurtlarida, texnikumlar va oliy qishloq xo‘jaligi o‘quv yurtlarida tayyorlangan. 1945-yilda respublikada 3 ta oliy qishloq xo‘jaligi o‘quv yurti va 12 ta texnikum bo‘lsa, 1980-yilda qishloq xo‘jaligi uchun mutaxassislar tayyorlaydigan texnikumlar soni 44 ga etdi. 1985-yilda qishloq xo‘jaligida 10 ming nafardan ziyod o‘rtalik maxsus ma’lumotli va 5 ming nafardan ziyod oliy ma’lumotli mutaxassislar mehnat qilgan.

Ijtimoiy siyosat. Madaniy hayot, ta’lim va fan. Mustabid tuzum davrida ijtimoiy soha ham jadal rivoj topdi. Aholini yashash sharoitlari yaxshilanib bordi. 1946 – 1985 yillarda turar joy fondi to‘rt baravardan ziyod ko‘paydi. Ko‘plab yangi shaharlar, ko‘plab mikrorayonlar bunyod etildi, Toshkent shahri 1966-yilgi zilziladan keyin qayta qurildi.

Sog‘liqni saqlash tizimi ham birmuncha rivojlandi, uning moddiy-texnik bazasi kuchaytirildi va soha uchun kadrlar tayyorlash ko‘payib bordi. Garchand ushbu davrda sog‘liqni tizimi aholiga bepul xizmat ko‘rsatsada, ko‘plab davolanish muassasalari, sanatoriy profilaktoriylar ishga tushirilsada, ularda davolanish uchun xarajatlar ammo 80-yillarning o‘rtalariga kelib sohada muammolar paydo bo‘lib qolgan edi.

1945 – 86 yillarda ta’lim tizimi ham rivojlanib bordi. 1956-yilda etti yillik, 1975-yilda esa o‘n yillik umumiylar majburiy ta’limga o‘tildi. Umumta’lim

maktablaridagi o‘quvchilar soni qariyb 3,5 baravar ortdi, maktablar soni 7000 ga, 1990-yilda esa 9000 ga etdi. Ammo qishloq joylarida qulayliklarga ega bo‘lmagan maktablar ko‘p edi. Shuningdek, oliy va o‘rta maxsus ta’lim ancha o‘sdi. 50-yillarda Andijon meditsina instituti, Toshkentda elektrotexnika–aloqa, Jismoniy tarbiya institutlari, 60-yillarda Andijon Paxtachilik instituti, Farg‘ona Politexnika instituti, Samarqand Arxitektura-qurilish instituti, Termiz, Sirdaryo, Toshkent viloyat Pedagogika institutlari tashkil etildi. 70-yillarda esa Nukus Davlat universiteti, Toshkent Avtomobil-yo‘llar instituti, Pediatriya instituti va boshqalar tashkil etildi. 1985-yilda mamlakatimizda oliy o‘quv yurtlarining soni 42ta edi. 1960 – 1980 yillarda O‘zbekistonda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun minglab oliy ma’lumotli mutaxassis va ilmiy kadrlar tayyorlandi. Ayni vaqtda O‘zbekistonlik minglab mutaxassislar, jumladan, shifokorlar, mashinasozlar, paxtakorlar, irrigatorlar va ipakchilik mutaxassislar Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar.

1945 – 85 yillarda ilm-fan sohasi rivoj topdi, ko‘plab ilmiy tadqiqot institutlari, laboratoriylar, ilmiy stansiyalar tashkil etildi. 80-yillar boshlarida Fanlar akademiyasi tarkibida Qoraqalpog‘iston ASSR filiali va 35 ta ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyat ko‘rsatdi. 38 ming ilmiy xodim, shu jumladan, 1215 nafar fan doktori, 15664 nafar fan nomzodlarii fanning turli sohalarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishdi. Aniq, texnika va fundamental fanlar sohalarida, xususan, kibernetikada, g‘o‘za seleksiyasida, tibbiyotda yirik muvaffaqiyatlarga erishildi. Bu yillarda ijtimoiy-gumanitar fanlar ham rivojlandi. Arxeolog, etnograf, antropolog olimlarning izlanishlari natijasida o‘zbek xalqining etnogeneziga oid asarlar yaratildi. Ammo ijtimoiy-gumanitar fanlarda rasmiy sovet mafkurasining ta’siri kuchli bo‘lgan.

O‘zbekistonda ilmiy-tadqiqot muassasalari 1960-yilda 64 taga, 1970- yilda 90 taga etdi, 80-yillar o‘rtalarida esa ular soni 100 tadan ortdi. Ularda fanning turli sohalarida tadqiqotlar olib borildi, yuqori malakali ilmiy kadrlar etishib chiqdi.

60-yillarning birinchi yarmida O‘zbekistonda Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan 50dan ortiq talaba ta’lim oldi, ular paxtachiliq irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash sohalariga ixtisoslashgan edi. 80-yillarda O‘zbekistonning 25ta oliv o‘quv yurtida 84ta mamlakatdan, jumladan, Osiyodagi 21 mamlakatdan 3 mingdan ortiq talaba tahsil oldi. Shuningdek, har yili O‘zbekistonning o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida 270 nafardan ziyod xorijlik yoshlari o‘qigan.

1946 – 90 yillar boshlarigacha madaniy-ma’rifiy muassasalar soni ham o‘sib bordi. Agar 1960-yillarda respublikada 2.977 klub bo‘lgan bo‘lsa, 1970-yilda esa ularning soni 3.441taga etdi. Kutubxonalar ham tegishli ravishda 3.438 tadan 5.822 taga, muzeylar soni 14 tadan 26 taga, kinoqurilmalar soni 2.178 tadan 3.988 taga oshdi. Respublika bo‘yicha kutubxonalar fondi 1950 – 1970 yillarda o‘n barobarga ko‘paygan.

40-yillarning oxirlari va 50-yillarning boshlarida madaniyat xodimlari, badiiy ijodkorlar vakillari repressiyaga uchradi. Abdulla Qahhor, Oybek, Mirtemir, Hodi Zaripov, Turob To‘la, Sobir Abdulla, Hamid Sulaymonov singari shoirlar va yozuvchilar mafkuraviy xatolarga yo‘l qo‘yilganlikda ayblandi. 1951-yil Turob To‘la, Kamtar Otaboyev, Mirtemir, A.Bobojonov, Sobir Abdulla, Habibiy asarlari xalqlar do‘stligiga zid deb tanqid qilindi. Maqsud Shayxzoda, Shukrullo, Shuhrat, Said Ahmad kabi adiblar ozodlikdan mahrum etildi. Stalin vafotidan keyin qatag‘on qilinganlar, jumladan, A.Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat va boshqalar oqlandi.

1983-yilda “paxta ishi” degan nomda paxtachilik sanoati, kolxozi, sovxoz rahbarlari, davlat organlari rahbarlari tazyiqqa olinadi. “Paxta ishi” jarayonida ayrim jinoyatlar ochib tashlanganligini e’tirof qilgan holda, ammo bu bilan butun xalqni qoralab bo‘lmash edi. Moskva matbuotining ba’zi vakillari esa o‘zbek xalqining yuziga qora chaplashga harakat qilishdi. T. Gdlyan va N. Ivanov boshliq tergov guruhining noqonuniy faoliyati tufayli 1989-yilgacha “paxta ishi” bo‘yicha 4,5 mingdan ko‘proq kishi sudlandi.

1953-yilda N.Xrushchev hokimiyatga kelganidan keyin va 1964- yilda L. Brejnev rahbarligi davrida ham partiya nomenklaturasining roli kuchayib

bordi. SSSR Konstitutsiyasining 6-moddasida esa KPSS – jamiyatni boshqaruvchi partiya ekanligi belgilab qo‘yilgan edi. Shu bois kompartiya nafaqat mafkuraviy hukmronlikni, balki davlat organlari, sovetlar, kasaba uyushmalarini, ishlab chiqarish boshqaruvini ham o‘z qo‘liga olgandi.

50 – 80 yillar adabiyoti o‘ziga xos edi. Oybekning “Nur qidirib”, “Oltin vodiydan shabadalar”, “Quyosh qoraymas”, Abdulla Qahhorning “Qo‘shchinor chiroqlari”, “Sinchalak”, Sh.Rashidovning “Qudratli to‘lqin”, “G‘oliblar”, “Bo‘rondan kuchli” Shuhratning “Shinelli yillar”, Said Ahmadning “Ufq”, O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi”, “Diyonat”, Hamid G‘ulomning “Toshkentliklar”, Rahmat Fayziyning “Hazrati Inson”, P. Qodirovning “Yulduzli tunlar”, “Uch ildiz”, O‘.Umarbekovning “Odam bo‘lish qiyin”, O‘.Hoshimovning “Nur borki, soya bor” asarlari o‘zbek romanchiligining ajoyib namunalariga aylandi. She’riyat G‘ulom G‘ulom, Zulfiya, A. Oripov, E. Vohidov, N. Narzullayev, B. Boyqobilov, E. Oxunova, O. Hojiyeva, H. Xudoyberdiyeva, Omon Matjon, Rauf Parfi va boshqa ko‘plab shoirlar ijodi bilan hamohang rivoj topdi.

1946 – 1985 yillarda O‘zbekistonda teatr va musiqa san’atining barcha sohalari, jumladan, milliy opera va balet san’ati rivojlandi. Kino san’ati ham madaniy o‘zarishlarning muhim tarkibiy qismi bo‘ldi. Kinematograflar yorqin avlod etishib chiqdi. K. Yormatov, Sh. Abbosov, A. Hamroev, R. Botirov, E. Eshmuhammedov, H. Ahmarov va boshqalar o‘zbek kinosining rivojlainshiga ulkan hissa qo‘shdilar. Ayni vaqtda ijodkorlarning asarlarida mehnatkashlar hayoti, xalq ommasining sotsialistik qurilishlardagi jasorati ulug‘lashi lozim edi.

“Turg‘unlik” davri va “Qayta qurish” siyosati. XX asrning 60-yillardan davlat rivojining muhim strategik yo‘nalishlaridan bo‘lgan mafkuraviy sohada ham jiddiy xatolarga yo‘l qo‘yildi. 80-yillarda esa “Lenin ta’limotiga sadoqatga qasamyod qilgan” rahbar kadrlar, mafkuraviy sohaga mas’ul rasmiylar va nazariyotchilar nafaqat rivojlanish modellarini yaratishga, jamiyatdagi mavjud muammolarni tushunishga ham ojiz bo‘lib, ular tarixiy sharoitlar talablariga mos emas edi. Ya’ni, dunyodagi eng kuchli ikki davlatdan biri bo‘lgan SSSR, eng avvalo, intellektual (falsafiy) jabhada mag‘lubiyatga uchraydi. Zamon talablariga

moslasha olmaslik ta'sirida ishlab chiqarish sur'atlari pasaydi, sotsialistik iqtisodiyotda ichki ziddiyatlar kuchaydi. Davlat byurokratiyasi ham rivojlanishda oldinga ketishga qaratilgan o'zgarishlarga qarshi edi.

1985-yil aprelda KPSS MQ Plenumida KPSS Bosh kotibi M. Gorbachyev "qayta qurish" va "oshkoraliq" siyosatini e'lon qiladi. Ijtimoiy-siyosiy hayotni demokratlashtirish, iqtisodiy o'sishni xo'jalik hisobi, pudrat va fan-texnika yutuqlari asosida ta'minlash ilgari suriladi. Biroq M. Gorbachyov va uning hammaslaklari olib borgan "qayta qurish"ning konsepsiysi yo'q edi. Eng qizig'i, dunyo tarixida hech bir siyosiy rahbar M. Gorbachyov singari o'z mamlakatini o'zi tushuntirib, asoslab berolmaydigan manzilga etaklamagan edi. Bu esa o'z navbatida 1987-yilda o'z safida 19,5 milliondan ko'proq a'zo va a'zolikka nomzodni birlashtirgan KPSS rahbariyati, partiya nomenklaturasining saviyasini ko'rsatadi.

Mamlakatning real imkoniyatlari hisobga olinmasdan xalq xo'jaligining barcha sohalarini bir vaqtning o'zida rivojlantirishga qaratilgan "qayta qurish" siyosati muvaffaqiyat qozonishi dargumon edi. Bu hol, oxir oqibatda, cheklangan mablag'larning samarasiz ishlatalishiga, moliya va ishlab chiqarishning izdan chiqishiga, mehnat unumdarligi pasayishiga olib keldi.

Ayrim respublikalarda esa millatlararo nizolar uyushtirila boshlandi. Shulardan biri 1989-yilda Farg'ona vodiyi va Toshkent viloyatida bo'lib o'tdi va buning oqibatida ko'plab odamlar halok bo'ldi.

1989-yil 23-iyunda O'zbekiston Kommunistik partiyasi MQ Birinchi kotibi etib I.A. Karimov saylanadi. 1989-yil 21-oktyabrda "O'zbekiston SSRning davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilinib, o'zbek tili davlat tili deb e'lon qilinadi.

1990-yil 24-martda ittifoqdosh respublikalar orasida birinchi bo'lib O'zbekiston Kommunistik partiyasi MQ birinchi kotibi I.A. Karimov O'zbekiston SSR Prezidenti qilib saylandi.

Sovet Ittifoqining inqirozi. 80 – yillar oxiri – 90-yillar boshlarida, ya'ni "qayta qurish" siyosatining inqirozi tufayli SSSR tarkibidagi respublikalar siyosiy elitasi va ziyorilar orasida mustaqillikka intilish kuchayib bordi. Bu vaqtda kelib

SSSR Prezidenti M. Gorbachyovning obro’si tushib ketgan, mamlakatda iqtisodiy tanglik kuchayib, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari kartochkalar orqali tarqatilayotgan edi. Siyosiy vaziyat esa 1990-yilda Boltiqbo‘yi respublikalari, Gruziya va Ozarbayjon Oliy Kengashlari Sovet Ittifoqi tarkibidan chiqqanligini e’lon qilishganidan so‘ng yanada chigallashadi.

O‘zbekistonning mustaqilligi yo‘lida Oliy Kengashning XII chaqiriq ikkinchi sessiyasida (1990 yil 20 iyun) qabul qilingan “Mustaqillik Deklaratsiyasi” muhim qadam bo‘ldi. “Mustaqillik Deklaratsiyasi”da o‘zbek xalqining asrlar davomida erishgan davlat qurilishi va madaniy taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajribasi va an’analari hisobga olindi.

Sovet Ittifoqidagi siyosiy va iqtisodiy inqiroz sharoitlarida prezident M. Gorbachyov va uning hammaslaklari yangi Ittifoq shartnomasi tuzishga harakat qilishadi. 1991-yil fevral-martda Ittifoq shartnomasi loyihasi qayta tayyorlandi. 1991-yil 17-martda SSSRni yangilangan tartibda saqlab qolish uchun Butunittifoq referendumi o‘tkaziladi. Referendum natijalariga ko‘ra, yangilangan SSSR tarkibida O‘zbekistonning mustaqil teng huquqli respublika bo‘lishiga 9 mln. 215 ming 571 nafar fuqaro yoki ovoz berishda qatnashganlarning – 93,9 foizi yoqlab ovoz berishadi.

1991-yil 3-iyunda “Mustaqil Davlatlar Ittifoqi to‘g‘risida shartnoma” loyihasi tayyorlanadi va ittifoqdosh respublikalar Oliy Sovietlariga muhokamaga yuboriladi. O‘zbekiston SSR Oliy Sovietida shartnoma loyihasi muhokama qilinadi va Mustaqil Davlatlar Ittifoqini tuzish va respublikalar vakolatlarini kengaytirish to‘g‘risida takliflar beriladi.

1991-yil iyul oxirlarida “Mustaqil Davlatlar Ittifoqi to‘g‘risida shartnoma” loyihasi to‘liq tayyorlanadi va imzolash 1991-yil 20-avgustga qoldiriladi. Ammo yangi ittifoq shartnomasi Sovet Ittifoqini yangilanmagan shaklda saqlab qolish tarafdarlari bo‘lgan kuchlarga ma’qul kelmaydi. 1991 yil 19 – 21 avgustda bir guruh davlat rahbarlari (SSSR vitse-prezidenti G. Yanaev, SSSR Bosh vaziri V. Pavlov, SSSR Davlat xavfsizligi qo‘mitasining raisi V. Kryuchkov, SSSR mudofaa vaziri D. Yazov, SSSR ichki ishlar vaziri B. Pugo, SSSR Mudofaa Kengashi

Raisining birinchi o‘rinbosari O. Baklanov, SSSR dehqonlar uyushmasi raisi V.Starodubsev, SSSR sanoat, qurilish, transport va aloqa davlat korxonalari uyushmasi prezidenti I. Tizyakov) Favqulodda holat davlat qo‘mitasi (GKChP) tuzib, davlat to‘ntarishini amalga oshirishga urinishadi.

SSSRda vujudga kelgan bunday siyosiy tanglik vaqtida O‘zbekiston SSR Prezidenti I.A. Karimov Hindistonda rasmiy vizitda edi. U Toshkentga qaytib keladi va O‘zbekistonda favqulodda holat joriy etishga hojat yo‘qligi, respublikada ichki vaziyat barqarorligi, qonunga xilof ko‘rsatmalar bajarilmasligi lozimligini e’lon qiladi. 1991-yil 20-avgustda O‘zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri rahbarlari ishtirokida qo‘shma majlisi bo‘lib o‘tadi. Unda mamlakatda tinchlik, osoyishtalikni saqlash, har qanday ig‘vogarona harakatlarning oldini olish, intizom va tartibni saqlash, mish-mishlar va ehtiroslarga berilmaslik lozimligi ilgari surildi. Bayonotda O‘zbekistonning “Mustaqillik Deklaratsiya”sini amalga oshirish yo‘lidan borishi ko‘rsatildi.

1991-yil 21-avgustdagি O‘zbekiston SSR Prezidenti farmoniga binoan O‘zbekiston hududida hokimiyat va boshqaruв idoralari, korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalar qabul qilgan barcha qarorlar SSSR va O‘zbekiston SSR Konstitutsiyalariga hamda qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlariga va Vazirlar Mahkamasi qarorlariga mos bo‘lishi lozimligi belgilanadi. Shuningdek, Favqulodda holat davlat qo‘mitasining SSSR Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi hamda qonunlariga zid keladigan farmonlari va qarorlari haqiqiy emas deb e’lon qilindi.

1991-yil 21-avgustda Favqulodda holat davlat qo‘mitasi (GKChP) muvaffaqiyatsizlikka uchraydi va shundan so‘ng Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi tarqatib yuboriladi. Shu tariqa o‘zining SSSR nihoyasiga etib boradi.

Savollar va topshiriqlar

1. Urushdan keyingi yillarda O‘zbekistonda sanoat va qishloq xo‘jaligini rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsating.

- 2.Urushdan keyin xalq xo‘jaligini tiklashda boshqaruv usulini tahlil qiling.
3. O‘zbekistonda Ikkinchı jahon urushidan keyin sanoat ishlab chiqarishi qanday sur’atlarda rivojlangan.
4. Sovet Ittifoqi davrida O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan savdo va madaniy aloqalarini yoriting.
5. 50 – 80 yillarda O‘zbekistonda qurilish, engil va paxta sanoatining rivojlanish xususiyatlari.
6. 1946 – 1985 yillarda agrar siyosat va paxta yakkahokimligining o‘rnatalishini tahlil eting.
7. 1945 – 85-yillarda O‘zbekistonda ilm-fan sohasidagi qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lgan?
8. Qanday sabablarga ko‘ra “Qayta qurish” siyosati amalga oshmaydi?
9. 80-yillar oxiri – 90-yillar boshlarida SSSR inqirozining asosiy omillari va sabablarini aniqlang.
10. “O‘zbekiston SSRning davlat tili haqida”gi Qonunning asosiy mazmuni nimalardan iborat edi?

V Bob. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston rivoji.

17 – §. O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi. Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi

Davlat mustaqilligi. SSSR inqiroz kuchaygan sharoitlarda, Oliy Kengash 1991-yil 26-avgustda “O‘zbekistonning Davlat mustaqilligi to‘g‘risida” qonun loyihasini tayyorlash va 31-avgustda Oliy Kengashning navbatdan tashqari **VI** sessiyasini chaqirish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari sessiyasisida “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida” va “O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi masalalar ko‘rildi. Sessiyada Birinchi Prezident I.A. Karimov ma’ruza qilib, 1991-yil o‘rtalarida Markaziy hukumat olib borayotgan ichki siyosatni tahlil qildi va 19 – 21 avgustda Moskvada Favqulodda holat davlat komiteti faoliyati respublikalar mustaqilligiga qarshi qaratilganligi xususida fikr bildirdi. Oliy Kengash deputatlari qizg‘in muhokamalardan keyin “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida”gi Qonun va Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Bayonot qabul qilindi. O‘zbekiston SSR O‘zbekiston Respublikasi nomiga o‘zgartirildi va 1-sentyabr – Mustaqillik kuni deb e’lon qilindi.

“O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida”gi Qonun 17 moddadan iborat bo‘lib, mustaqil respublika uchun vaqtincha konstitutsiya rolini o‘ynadi. Ushbu qonunda O‘zbekiston mustaqil demokratik davlat, deb e’lon qilindi, ma’muriy-hududiy tuzilishi, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilash qonunlashtirildi, er, er osti boyliklari, suv va o‘rmonlar, o‘simgilik va hayvonot dunyosi, tabiiy va boshqa resurslar, respublikaning ma’naviy boyliklari O‘zbekiston Respublikasining milliy boyligi ekanligi belgilab qo‘yildi, O‘zbekiston Respublikasi o‘z tarkibidagi

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bilan birga, mustaqil, demokratik davlat ekanligi o‘z aksini topdi.

“O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunni bajarish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 6-sentyabrdagi Farmoniga asosan Mudofaa ishlari vazirligi tashkil qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining vujudga kelishida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 14-yanvardagi Qarori katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu Qarorga muvofiq, mamlakat hududida joylashgan sobiq Sovet Ittifoqi Qurolli kuchlari, harbiy o‘quv yurtlari, muassasa va tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasi tasarrufiga olindi. Shu tarzda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini barpo etishning dastlabki davri yakunlandi. 1993–yil 29-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq 14 – yanvar “Vatan himoyachilari kuni” deb belgilandi.

Dunyo siyosiy xaritasida O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida o‘z faoliyatini boshlashida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991–yil noyabrda bo‘lgan VIII sessiyasida 1991–yil 29-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida” referendum hamda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o‘tkazish to‘g‘risida” qarorlarining qabul qilinishi tarixiy ahamiyat kasb etdi.

1991-yil 29-dekabrdagi umumxalq referendumi bo‘lib o‘tdi. Referendumda 9898707 kishi yoki saylov ro‘yxatiga kiritilganlarning 94,1 foizi qatnashdi. Ovoz berishda qatnashganlarning 98,2 foizi O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini ma’qullab ovoz berishdi.

O‘sha kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining saylovi muqobililik asosida o‘tdi. Oliy lavozimga ikki nomzod: O‘zbekiston XDP va O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi nomzodi I.A. Karimov va “Erk” Demokratik partiyasidan Saloy Madaminov (Muhammad Solih) nomzodlari qo‘yildi. Saylovlar yakuniga ko‘ra 8 million 514 ming 136 ovoz yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi Islom Karimov nomzodini, 1

million 220 ming 474 saylovchi (12,3 %) Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi.

Davlat ramzlari va Konstitutsiyaning qabul qilinishi. Ma'lumki, har bir davlat o'zining bayrog'i, gerbi va madhiyasi singari davlat ramzlariga ega bo'lishi lozim. 1991-yil 15-fevralda O'zbekiston Oliy Kengashi "O'zbekistonning davlat ramzlari to'g'risida" qaror qabul qiladi va unda O'zbekiston SSR Konstitutsiyasining yangi loyihasini tayyorlovchi komissiyaga O'zbekiston SSRning Davlat bayrog'i, Gerbi va Madhiyasiga doir takliflar hamda ular to'g'risida Nizomlar tayyorlash belgilangan edi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrida bo'lib o'tgan VIII sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. 1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 10-dekabrida bo'lib o'tgan XI sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Sessiyada shoir Abdulla Oripov (1941 – 2016) va bastakor Mutal Burhonov (1916 – 2002) tayyorlagan madhiya varianti tasdiqlandi.

1990-yil iyunda 64 kishidan iborat Konstitutsiyaviy Komissiya ish boshladi. Komissiya 2,5 yil davomida Konstitutsiya loyihasini tayyorlash jarayonida xalqaro huquq normalari, BMT hujjatlari, "Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi" g'oyalari, dunyoning rivojlangan mamlakatlar konstitutsiyaviy hujjatlari va ayni vaqtida milliy davlatchiligidagi boshqaruvtizimi, uning huquqiy an'analarini ham har tomonlama o'rGANildi.

1992-yil 26-sentyabrda Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Umumxalq muhokamasi davomida tushgan minglab takliflar o'rganib chiqildi va noyabrdan ikkinchi marta matbuotda bosib chiqildi. Shundan keyin O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi

1992-yil 8-dekabrdan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq XI sessiyasida qabul qilindi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi BMT Nizomi, “Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi”, Xelsinki Ahdnomasi, Parij, Madrid xartiyasi va boshqa xalqaro hujjalarning asosiy g‘oyalariga to‘la mos keladi. Asosiy Qonunimizning demokratik-gumanistik mohiyati, eng avvalo, uning inson, uning qadr-qimmati va huquqlari oliy qadriyat sifatida e’tirof etishilishida namoyon bo‘ladi. Zotan, har qanday demokratik huquqiy tizim o‘zida inson manfaatlari, uning xavfsizligini mujassamlashtirishi kerak. Hatto, barqaror iqtisodiy o‘sishning ham birlamchi sharti – bu inson manfaatlari, ijtimoiy amaliyot talablaridan kelib chiquvchi qonunlarning ustuvorligidir.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi inson huquqlari sohasida milliy qonunchilik jarayoni uchun asos bo‘ldi. O‘zbekiston parlamenti inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy qoidalarini rivojlantirib borib respublika “Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida”gi qonunni qabul qildi. Amaldagi qonun hujjalari monitoringi instituti, inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz tashkil etildi. Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili BMTning Inson huquqlari bo‘yicha markazi, Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi bilan hamkorligi yo‘lga qo‘ygan. Xullas, O‘zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi negizida ko‘plab qonunlar, kodekslar, milliy dasturlar ishlab chiqildi va qabul qilindi.

Konstitutsiya muqaddima, olti bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iborat bo‘lib, birinchi bo‘limda Konstitutsyaning asosiy prinsiplari bayon etilgan. Unda davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunning ustunligi, tashqi siyosatning bosh yo‘nalishlari o‘z ifodasini topdi. Asosiy Qonunning ikkinchi bo‘limi inson va fuqarolarning asosiy huquqari, erkinliklari va burchlariga bag‘ishlangan. Bunda O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanligi, O‘zbekistonning barcha hududida yagona fuqarolik o‘rnatalganligi, fuqarolarning

shaxsiy huquqlari va erkinliklari, vijdon erkinligi va uning kafolatlanishi yoritilgan. Insonning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga bevosita hamda o‘z vakillari orqali qatnashishlari, siyosiy partiyalar va harakatlarga qo‘shilish huquqlari belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga hozirgi kunga qadar 11 marta o‘zgartirishlar va qo‘sishimchalar kiritilgan. 2003-yil aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Unga muvofiq Konstitutsiyaga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat bo‘ldi. Prezidentlik muddati 7 yilga uzaytirildi. Prezident lavozimini egallagan shaxs vakolati muddati tugagandan so‘ng Senat a’zosi lavozimini egallashi belgilandi. 2007-yil 11-aprelda Konstitutsiyaning 89-moddasidan Prezident Vazirlar Mahkamasining Raisi ekanligi to‘g‘risidagi huquqiy norma kuchini yo‘qotdi. 89-moddada “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat boshlig‘idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini va hamkorlikni ta’minlaydi”, deb belgilab qo‘yildi. Konstitutsiyaning 93-moddasi 15-bandi va 102-moddasining ikkinchi qismi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti viloyatlar hokimlarini va Toshkent shahar hokimini qonuniga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi”, deb o‘zgartirildi. 2011-yil 18-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritildi. Konstitutsiyaning 98-moddasiga “O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Qonunchilik palatasining saylovlarda eng ko‘p deputatlik o‘rinini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o‘rinlarini olgan siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi. Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a’zolari umumiyligi sonining yarmidan ko‘pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a’zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi...”, degan o‘zgartirishlar kiritildi. Oliy Majlis

Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi berilishi mumkinligi ham belgilab qo‘yildi. 2011-yil 12-dekabrdagi qonunga binoan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakat Prezidenti 5 yil muddatga saylanishi haqidagi o‘zgartirish kiritildi. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 15-oktyabrda qabul qilingan Qonuni bilan 105-moddasining birinchi qismidagi “ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini” degan so‘zlar “raisni (oqsoqolni)” degan so‘zlar bilan almashtirildi.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston o‘z siyosiy mustaqilligini mustahkamlash, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishga qaratilgan siyosiy islohotlar va o‘zgarishlarni amalga oshirish yo‘lidan bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlari sohasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan beshta strategik yo‘nalish belgilab berilgan edi:

1.Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmini ta’minlash;

2.Inson huquqdari bo‘yicha Xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillari va normalari asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish;

3.Qabul qilingan qonunlarga og‘ishmay amal qilish mexanizmini ishlab chiqish va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qonun ustuvorligini ta’minlash;

4.Sudlov islohotini amalga oshirish yo‘li bilan sud tizimini demokratlashtirish;

5.Aholi, ayniqsa, yoshlar va mansabdor shaxslar, huquq-tartibot idoralari xodimlari o‘rtasida huquqiy tarbiya ishlarini tubdan yaxshilash, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish.

O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat shakllantirilishi va rivojlantirilishida xalqaro huquqiy tamoyillar va demokratik davlatlar tajribasi, deyarlik uch ming yillikdan ibora o‘zbek davlatchiligining tarixiy tajribasiga va ma’naviy qadriyatlarga tayanilmoqda.

Ma'lumki, huquqiy davlatda huquq ustuvorlik qiladi. Huquq ustuvorligi esa, birinchi navbatda, demokratiyaning asosiy tamoyillaridan bo'lgan inson huquqlarining ta'minlanishi bilan bog'liqdir. XX asr oxirida inson huquqlari masalasi umumbashariy darajaga chiqdi. Xususan, bunda BMT tomonidan 1995 – 2005 yillarni global miqyosda “Inson huquqlari o'n yilligi”, deb e'lon qilinishi ham bejiz emas.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 13 – moddasida “O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, qadr-qimmati, erkinligi, sha'ni va boshqa daxlsiz huquqlari oliv qadriyat hisoblanadi”, deb belgilab qo'yilgan. Shu bois O'zbekistonda barcha fuqarolar bir xil huquqlar va erkinliklarga egadirlar, ular jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar. O'zbekistonda har bir fuqaro yashash, shaxsiy daxlsizlik, turar joy daxlsizligi, bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, so'z va e'tiqod erkinligiga ega bo'lib, bu huquqlar davlat tomonidan himoya qilinadi. Shuningdek, fuqarolar hohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi bir dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga egadir.

Istiqlol yillarda Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, uning huquqiy mexanizmini takomillashtirish yo'lida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. 1995-yil 23-fevralda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman) lavozimi ta'sis etildi. O'zbekiston Prezidentining 1996-yil oktyabrdagi farmoniga muvofiq esa Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi tuzildi.

Milliy parlamentning shakllanishi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach demokratiya talablariga javob beradigan milliy parlament – Oliy Majlis shakllandı. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliv vakillik organi, ya'ni qonun chiqaruvchi hokimiyatidir. Oliy Majlisga birinchi saylov 1994-yil 25-dekabrda bo'lib o'tdi. Bunga qadar uning vakolatlarini O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi amalga oshirgan.

1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi qonunda Oliy Majlisga saylash tartibi belgilab berilgan. Unga ko‘ra Oliy Majlis deputatlari fuqarolar tomonidan umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida, yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadi. O‘zbekiston 18 yoshga to‘lgan fuqarolarining saylash huquqiga, 25 yoshga to‘lgan fuqarolar esa Oliy Majlisga saylanish huquqiga egadirlar.

O‘zbekistonda parlamentarizm rivojlanishi bosqichma-bosqich amalgalashirildi. Agar milliy parlament tarixiga nazar solsak, qonun chiqaruvchi hokimiyat 1990 – 1994 yillarda Oliy Kengash nomi bilan atalib, u 150 deputatdan iborat edi. 1995–2004-yillarda esa Oliy Majlis nomi bilan atalgan 250 deputatdan iborat bir palatali faoliyat yurgizgan. 2002-yil yanvarda O‘zbekiston Respublikasining parlamentini ikki palatali parlamentga aylantirish bo‘yicha referendum o‘tkazildi. Referendumda qatnashganlarning 93,65 foizi ikki palatali parlamentni yoqlab ovoz berishdi. Referendum asosida “Referendum yakunlari va davlat hokimiyati tashkil etishning asosiy prinsiplari to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida” va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi. 2005-yildan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat bo‘ldi. Qonunchilik palatasida 150 deputat, Senatda esa 100 nafar senator faoliyat ko‘rsatadi. Senatga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan 6 nafardan, jami 84 kishi saylanadi. 16 nafar Senat a’zosi esa Prezident tomonidan tayinlanadi.

Davlat boshqaruvi tizimidagi islohotlar. Mustaqilika erishilgandan keyin mamlakatimizda boshqaruv tizimida tub o‘zgarishlar amalgalashirildi. 1992-yil 4-yanvarda ijroiya hokimiyatining samarali faoliyatini ta’minalash Vazirlar Mahkamasining Bosh vaziri lavozimi ta’sis etildi. Vazirlar Mahkamasining a’zolari Bosh vazir, uning o‘rinnbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mitalari raislari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining raisidan iboratdir.

Vazirlar Mahkamasi davlat budgetini ishlab chiqadi, Oliy Majlisga taqdim etadi va uning bajarilishini ta’minalaydi; Oliy Majlisga davlat budgeti bajarilishi

bo‘yicha hisobot beradi; yagona moliya, kredit va pul siyosati yuritishini ta’minlaydi; madaniyat, fan, maorif, ijtimoiy ta’minot, ekologiya sohasida yagona davlat siyosatini olib boradi, mudofaa, davlat xavfsizligi, tashqi siyosatni amalga oshirishni ta’minlaydi; fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini, qonunchilikni ta’minlash, xususiy mulk va jamoat tartibini muhofaza qilish, jinoyatchilikka qarshi kurash chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

2017-yil 27-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faoliyatini takomillashtirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosarlari, hukumat apparati tarkibiy bo‘linmalari rahbarlarining samarali va natijali ishini ta’minlash, ularning shaxsiy mas’uliyatini kuchaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi tuzilmasi qayta shakllantirilib, yangi komplekslar va vazirlik tashkil etildi. Qarorga binoan Vazirlar Mahkamasi tuzilmasiga O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari – Investitsiyalar, innovatsion rivojlantirish, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari faoliyatini muvofiqlashtirish, turizm masalalari kompleksi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari – Ta’lim, sog‘liqni saqlash, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport masalalari kompleksi rahbarlari lavozimlari joriy etildi.

Milliy davlatchilik tarixi tajribasida asosida 1992-yil yanvardan O‘zbekistonda hokimlik instituti ta’sis etildi. Respublikaning 12 viloyati va Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan va tegishli Xalq deputatlari Kengashlari sessiyasida tasdiqlanadigan hokimlar boshchiligidagi hokimliklar tashkil qilindi.

Hokimlar viloyat, tuman va shahar ijroya hokimiyatiga boshchilik qilib, ular Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan miqdorda birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlarga ega bo‘ladi. Mahalliy ijroya hokimiyati organlari boshqarmalar, bo‘limlar va bo‘linmalardan iborat bo‘lib, ularning tuzilishi va tashkil etilish tartibi, faoliyati tegishli nizomlar asosida belgilanadi.

O‘zbekistonda davlat boshqaruvini samarali tashkil etish ishlari davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoevning diqqat markazida bo‘lmoqda. Xususan, 2017-yil 8-sentyabrdan Prezident Shavkat Mirziyoev “O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmonni imzoladi. Farmon 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda muhim qadam bo‘lib, davlat va jamiyat qurilishida yangi sahifani oolib berdi.

O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishning 6 ta asosiy yo‘nalishi belgilandi. Birinchi yo‘nalish ijro etuvchi hokimiyyat organlari faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga bag‘ishlangan. Ikkinci yo‘nalish ijro etuvchi hokimiyyat organlarining vazifalarini, ularni amalga oshirish mexanizmlari va javobgarlik sohalarini aniqlashtirishni nazarda tutadi. Uchinchi yo‘nalish iqtisodiyot tarmoqlariga ma’muriy ta’sirni qisqartirish va boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirish hisoblanadi. To‘rtinchi yo‘nalishda vertikal boshqaruv tizimi va ijro etuvchi hokimiyyat organlari hamkorligining mexanizmlarini takomillashtirish nazarda tutilgan. Beshinchi yo‘nalish davlat boshqaruvi tizimiga strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllari, innovatsion g‘oyalar, ishlanma va texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan. Oltinchi yo‘nalishda professional davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishning ta’sirchan mexanizmlarini o‘rnatish belgilangan.

Sud-huquq tizimidagi islohotlar. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va 1993-yil 2-sentyabrdan qabul qilingan “Sudlar to‘g‘risida”gi qonun asosida sud tizimida demokratik islohotlar amalga oshirildi. Prezident shavkat Mirziyovning 2016-yil 21-oktyabrdan qabul qilingan “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2017-yilning 21-fevralidagi “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi Farmonlarida sud-huquq sohasidagi nafaqat huquqiy, balki tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, ular sudsarning chinakam mustaqilligini ta’minlash, odil sudlovnii amalga oshirish faoliyatiga aralashishlar oldini olishni ta’minlashga qaratilganligi bilan xususiyatlidir.

2017-yilda “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minlashga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun ham O‘zbekistonda sud hokimiysi qonun ustuvorligini ta’minlashga qaratildi. Keyingi yillarda sud, prokuratura, ichki ishlar idoralari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimi takomillashib bormoqda. Faqat 2018-yilning yanvar-sentyabrida respublika bo‘yicha sodir etilgan jinoyatlar 2017-yilning shu davriga nisbatan 38 foizga kamaygan, 261 ta chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, tuzalish yo‘liga kirgan shaxslar avf etildi.

Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va Mahalla instituti. 1993-yil 2-sentyabrda Oliy Kengashning o‘n ikkinchi chaqiriq uchunchi sessiyasida “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi bu hujjat qishloq, shaharcha va ovullarda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining huquqiy maqomini belgilab berdi.

Har qanday demokratik voqelikda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda fuqarolarning ishtirokini ta’minlashga qaratilgandir. O‘zbekiston Konstitutsiyasida belgilanidek, “shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular ikki yarim yil muddatga rais (oqsoqol)ni uning maslahatchilarini saylaydi. O‘zini-o‘zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi”.

Fuqarolar yig‘inini rais (oqsoqol) tegishli xalq deputatlari Kengashi yoki hokim bilan kelishilgan holda zaruratga qarab chaqiradi. Shuningdek, fuqarolar yig‘ini xalq deputatlari Kengashi, hokim tomonidan yoki shu hududda yashayotgan

fuqarolarning uchdan bir qismi tashabbusi bilan chaqirilishi mumkin. “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunda fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqol) va uning maslahatchilarini saylash tartibi aaniq belgilangan. Fuqarolar yig‘inlarda qatnashish huquqiga ega bo‘lgan barcha aholining yarmidan ko‘prog‘i ishtirok etgan taqdirda yig‘inlar vakolatli deb hisoblanadi, vakillar yig‘ilishlari esa vakillarning kamida uchdan ikki qismi kelganda vakolatli hisoblanadi. Fuqarolar yig‘ini (yig‘ilishi)ni olib borish uchun rayosat saylanadi. Yig‘inni rais (oqsoqol) yoki uning maslahatchilari olib boraib, qarorlar ochiq ovoz berish orqali va ko‘pchilik ovoz berish bilan qabul qilinadi.

O‘zbekistonda tarix sinovlaridan o‘tgan mahalla instituti o‘ziga xos “demokratiya darsxonasi” hisoblanadi. 1993-yil 2-sentyabrda mahalla institututini rivojlantirish maqsadida “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi va unda shaharcha, qishloq va ovullarda, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolar yig‘inlari o‘tkaziladigan bo‘ldi. Fuqarolar yig‘ini esa o‘zini-o‘zi boshqarish organi bo‘lib, mahalla raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari ikki yarim yil muddatga saylanadi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev rahnamoligida mahalla institutining nufuzini oshirish, vazifa va vakolatlari doirasini yanada kengaytirishga qaratilayotgan alohida e’tibor samarasida u jamiyatimizni yangilash borasida amalga oshirilayotgan ulkan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy islohotlarda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 3-fevraldagagi “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligini yanada yuksaltirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilandi. Shu tariqa mahalla institutining ijtimoiy hayotimizdagi nufuzi tobora oshib borishiga erishilmoqda.

Saylov tizimidagi isolhotlar. Fuqarolarning siyosiy huquqlari tizimida saylov instituti muhim ahamiyat kasb etadi. Zero saylovlar orqali fuqarolar

bevosita yoki o‘z vakillari yordamida davlat va jamiyat muammolarinii echishda, ijtimoiy hayotni boshqarishda qatnashishadi. Shuning uchun har qanday demokratik davlatning o‘ziga xos belgisini erkin, adolatli saylovlar tashkil etadi.

O‘zbekistonda bevosita saylov usuli orqali davlat boshlig‘i – Prezident va Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi deputatlari saylanadi. Saylash yo‘li bilan xalq deputatlari mahalliy Kengashlari ham shakllantiriladi. Saylov referendum kabi xalq irodasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri namoyon etadi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda demokratik saylov tizimi shakllandi. Bunda esa xalqaro huquq tamoyillari, rivojlangan demokratik davlatlar tajribasiga tayanilgan holda saylov qonunchiligi yaratilishdi.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida” (1991-yil 18-noyabr), “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida” (1993-yil 28-dekabr) va “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida” hamda “Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida” (1994-yil may), “Saylov erkinligi yanada ta’milanishi va saylov qonunchiligi yanada rivojlantirilishi munosabati bilan “O‘zbekiston respublikasi oliy majlisiga saylov to‘g‘risida”gi hamda “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi (2012-yil 19-dekabr) qonunlar asosida olib boriladi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaga muvofiq 18 yoshga to‘lgan fuqarolarning saylash huquqiga ega bo‘lib, har bir fuqarosi saylov jarayonlarida bir ovozga ega bo‘lib, 35 yoshdan kam bo‘lmagan shaxs O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, 25 yoshga to‘lganlar Oliy Majlisga, 21 yoshga to‘lganlar viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylanish huquqiga egadir.

O‘zbekistonda o‘tgan davr mobaynida, xususan, 1991, 2000, 2007, 2015, 2016-yillarda o‘tkazilgan prezident saylovi hamda 1994, 1999, 2004 va 2009, 2014-yillarda vakillik organlariga o‘tkazilgan saylovlarda erkin va adolatli saylov o‘tkazish bo‘yicha katta tajriba to‘plandi.

Ommaviy axborot vositalari sohasidagi sifaity o‘zgarishlar. Mustaqillik yillarida ommaviy axborot vositalari miqori oshib va shu bilan birga ular sifat

jihatdan taraqqiy etib bordilar. 2018-yilda O‘zbekistonda 1500 dan ortiq ommaviy axborot vositalari faoliyat ko‘rsatgan.

E’tiborga molik jihat shundaki, keyingi yillarda ommaviy axborot vositalarining tarkibi ham o‘zgarib bormoqda. Xususan, barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalaridir. Shuningdek, keyingi yillarda global tarmoqda Uz domenli veb-saytlar, axborot portallari soni 400 dan oshib ketgani, ularning aksariyati xorijiy tillarda faoliyat ko‘rsatayotgani, ushbu yo‘nalishda Internet jurnalistikasi jadal rivojlanmoqda.

O‘tgan yillarda “To‘rtinchi hokimiyat” – OAV vakillarining erkin ijod qilishi, shaxs va jamiyat, fuqaro va davlat ravnaqi yo‘lida xizmat qilishi uchun keng sharoitlar yaratilmoqda. Ayniqsa, oxirgi vaqtarda milliy jurnalistika maydonini kengaytirish, jurnalistlar huquqlari va manfaatlarini ta’minlash maqsadida ko‘p ishlar qilindi. Jumladan, matbuot va ommaviy axborot vositalarini liberallashtirish va rivojlantirish, so‘z erkinligini ta’minlashga qaratilgan, demokratik talablar va standartlarga javob beradigan 10ga yaqin qonunlar qabul qilindi. OAV samarali faoliyati ta’minlanishi uchun O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, Milliy matbuot markazi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi kabi tashkilotlar tashkil etilgan. Keyingi paytda ularning qatoriga Xalqaro press-klub ham qo‘shildi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda siyosiy partiyalar siyosiy tizimda faoliyat yuritishi uchun huquqiy asoslar yaratildi Hozirgi vaqtida mamlakatimizda beshta siyosiy partiya: O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi (1991), “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi (1995), Milliy tiklanish demokratik partiyasi (1995), O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (2003) va O‘zbekiston ekologik partiyasi (2019) mavjuddir.

Yoshlar ittifoqi tashkiloti va uning ijtimoiy nufuzining oshib borishi.
Mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma’naviy etuk va jismonan

sog‘lom barkamol avlodni voyaga etkazish, ularning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatiga aylangan. Yoshlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida 1996-yil 17-aprelda respublika yoshlarining “Kamolot” nodavlat xayriya-jamoat jamg‘armasi tashkil etildi. “Kamolot” jamg‘armasining asosiy vazifasi yoshlar muammolari va ehtiyojlarini o‘rgansh, ularni hal etish yuzasidan dasturlar tuzish va davlat ko‘magida amalga oshirishdan iborat bo‘ldi.

2001-yil 25-aprelda O‘zbekiston Respublikasi “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tuzildi. Uning asosiy maqsadi yoshlarni birlashtirish, sog‘lom turmush talablari asosida tarbiyalash, jamiyatda munosib o‘rnini egallashga ko‘maklashish, ularning manfaatlarini himoya qilish, yoshlar o‘zlarini to‘la namoyon etishi uchun zarur sharoitlar yaratib berish va boshqalardan iborat bo‘lib, mustaqillik yillarida bu borada muhim yutuqlarga erishildi. Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo‘lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kasbga yo‘naltirish va bandligini ta’minalash, tashabbuslarini rag‘batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etishda xatolar va kamchiliklar mavjud edi. Shu sababli mazkur sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi va O‘zbekiston “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining 2017-yil 30-iyunda bo‘lib o‘tgan IV-qurultoyi qaroriga muvofiq, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoev rahbarligida mamlakatimizda O‘zbekistonda yoshlarning ijtimoiy hayotda o‘z o‘rinlarini topishi uchun munosib sharoitlar va imkoniyatlar yaratish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kasbga yo‘naltirish va bandligini ta’minalash, tashabbuslarini rag‘batlantirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish bilan bog‘liq bir muhim

vazifalarni belgilab berildi. 2018-yil 1-iyuldan respublikaning barcha tumanlari va shaharlarida “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi amalga oshirila boshladi.

Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda va ularning soni doimiy o’sib bormoqda. 2018-yilda respublikada turli sohalarda 9700 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari mavjud bo‘lib, ular O‘zbekiston Konstitutsiyasi va “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonun asosida faoliyat ko‘rsatishmoqda.

Mustaqillik yillarida qabul qilingan ilk qonunlardan biri “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun bo‘ldi. Qonunda eng ommaviy jamoat tashkiloti bo‘lgan kasaba uyushmalarining huquqiy maqomi aniq belgilab berildi. O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasiga 14 ta tarmoq kasaba uyushmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 ta viloyat, Toshkent shahar kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmalari, 6,1 mln.dan ortiq kasaba uyushmalari a’zolari birlashgan. O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi ijtimoiy-mehnat sohasiga, mehnatkashlar va kasaba uyushmalarining huquqlariga oid qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarini ishlab chiqishda faol ishtirok etib kelmoqda.

O‘zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi nufuzini yanada oshirish, ularning manfaatlarini himoya qilish, ayollar muammolarini hal etish maqsadida 1991-yil 27-dekabrdan O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi tuzildi. Ushbu jamoat birlashmasi o‘zini o‘zi boshqaradigan nodavlat notijorat tashkiloti hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi jamiyatda xotin-qizlarning rolini oshirish, ularning manfaatlarini himoya qilish, ayollarni har jihatdan qo‘llab-quvvatlash, oilani, onalik va bolalikni himoya qilish, ularning ijtimoiy hayotdagi faolligini ta’minlashdan iborat.

Xulosa sifatida aytganda, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining institutlari shakllandi va doimiy ravishda rivojlantirilib borilmoqda.

Savol va topshiriqlar

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 31-avgustda bo‘lgan sessiyasida qanday hujjatlar va “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Oliy Kengash Bayonoti”ning asosiy mazmuni nimalardan iborat edi.
- 2.Oliy Kengashning “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e’lon qilish to‘g‘risida”gi qaror mazmuni nimalardan iborat?
- 3.O‘zbekiston Davlat mustaqilligining tarixiy ahamiyatini tushuntiring.
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida BMT tomonidan qabul qilingan qanday deklarsiyalar va konvensiyalar g‘oyalari aks etgan.
- 5.O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat shakllanishi va rivojlanishida qanday tamoyillarga asoslandi?
- 6.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasining faoliyat yo‘nalishlarini qiyosiy taqqoslang.
- 7.O‘zbekiston fuqarolarining huquqlari va burchlari nimalardan iborat?
- 8.O‘zbekistonning saylov tizimi va sud-huquq tizimi qanday prinsiplarga tayanadi.
- 9.O‘zbekistondagi siyosiy partiyalar va ular o‘rtasidagi mafkuraviy farqlar.
- 10.O‘zbekistonda Yoshlar ittifoqining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

18 – §. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning iqtisodiy, ma’naviy va madaniy hayoti

Bozor munosabatlariga o‘tish va uning xususiyatlari. O‘zbekiston sovet davrida bir tomonlama rivojlangan, agrar-industrial davlat bo‘lib, er osti va er usti boyliklari, tabiiy resurslariga egalik qilolmasdi. Strategik ahamiyatga ega yirik korxonalar esa ittifoq vazirliklari tasarrufida bo‘lgan. SSSRda xalq xo‘jaligi yagona davlat rejasi asosida rivojlangan, ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilik bo‘lmagan, tovarlar hajmi, narxlar va taqsimot yagona markazdan boshqarilgan. Moliya, bank-kredit tizimi ham sotsial istik iqtisodiyot talablari va

ehtiyojlari asosida shakllangan edi. SSSR tarkibiga kirgan respublikalar mustaqil iqtisodiy siyosat olib borish huquqiga ega bo‘lishmagan.

Mustaqillikka erishish bilan O‘zbekistonda sotsial istik xo‘jalik yuritish shaklidan voz kechildi, bozor munosabatlarini qaror toptirish va rivojlanadirishning o‘ziga xos yo‘li – taraqqiyotning “O‘zbek modeli” ishlab chiqildi. “O‘zbek modeli”ning asosi tamoyillari iqtisodning siyosatdan ustunligi, davlat – bosh islohotchi, qonun ustuvorligi, kuchli ijtimoiy siyosat va bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish tamoyillaridan iborat edi.

O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tishda ilg‘or mamlakatlar tajribasi, xalq xo‘jalik xususiyatlari, milliy iqtisodiyot imkoniyatlari va demografik vaziyat hisobga olindi. Shu bois O‘zbekistonda “shok terapiyasi” – “falajlab davolash”ga asoslangan, aholisining iqtisodiy nochor qatlamlarini og‘ir ahvolga solib qo‘yadigan yo‘ldan emas, balki ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish yo‘lidan borildi.

Iqtisodiy islohotlar xususiy mulkchilikni qaror toptirishga, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvga qaratildi.

Islohotlarning birinchi bosqichida iqtisodiyotga oid 100 dan ortiq qonunlar qabul qilindi va ular islohotlarning huquqiy asosi bo‘ldi.

Davlat mulkining xususiylashtirilishi va xususiy mulkchilik institutining qaror topishi. Ma’lumki, bozor munosabatlarining asosini ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilik tashkil etadi. Shu bois davlat tashabbusi bilan 1991-yil 18-noyabrda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risidagi qonun qabul qilindi va davlat mulkini xususiylashtirish bo‘yicha 20 dan ortiq maxsus dasturlar ishlab chiqildi. Oliy Majlisning “Ayrim korxonalar va molmulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning ba’zi masalalari to‘g‘risida”gi qarori xususiylashtirish ko‘lамини kengaytirdi, bozor muhitini yaratish uchun huquqiy shart-sharoitlarni vujudga keltirdi. Shu maqsadda “Mulk to‘g‘risida”gi, “Chet el investitsiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Garov to‘g‘risida”gi

va boshqa bir qator qonunlarga o‘zgartirishlar kiritildi. Davlat mulkini xususiylashtirish bo‘yicha kim oshdi savdolari o‘tkazildi.

1992 – yil fevralda Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish Davlat qo‘mitasi ta’sis qilindi va u 1994-yilda Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash Davlat qo‘mitasiga aylantirildi.. Xususiylashtirishning ilk bosqichida umumiy uy-joy fondi, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko‘rsatish korxonalari, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini tayyorlovchi xo‘jaliklar, 54 mingga yaqin korxona va objeekt davlat tasarrufidan chiqarildi. Shuningdek, davlat ixtiyorida bo‘lgan bir milliondan ortiq kvartira yoki davlat uy-joy fondining 95 foizdan ortiqrog‘i fuqarolarning xususiy mulkiga aylandi. Davlat mulkini xususiylashtirish tufayli mamlakatda ko‘p ukladli iqtisodiyot va mulkdorlar sinfi shakllandi.

Agrar islohotlar. Istiqlol yillarida agrar sohadagi islohotlarga ustuvor darajada ahamiyat berildi va qishloq xo‘jaligida ko‘p ukladli ishlab chiqarish shakllantirildi. Sobiq SSSR davrida O‘zbekistonga asosiy oziq-ovqat mahsulotlari, xususan, g‘allaning 82 foizi, kartoshka, go‘sht va go‘sht mahsulotlarining 50 – 82 foizi, sut va sut mahsulotlarining 60 foizi tashqaridan keltirilgan. Oziq-ovqat muammosini ichki imkoniyatlar hisobidan hal qilish, don mustaqilligini ta’minalash dolzarb vazifa edi. Bu borada qishloq aholisiga shaxsiy tomorqa uchun qo‘sishma ravishda 550 ming hektar er berilishi va shaxsiy tomorqalar 700 ming hektarga etishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Agrar islohotlar qishloq xo‘jalik tizimini tubdan o‘zgartirdi. Ya’ni, qishloq xo‘jaligidagi davlat tasarrufidagi mulk xususiylashtirildi va qishloq xo‘jaligida nodavlat sektorining ulushi 100 foizni tashkil etdi. Amalga oshirilgan agrar islohotlar natijasida qishloq ahlining mehnatga munosabati o‘zgardi, dehqonlar va fermyerlar arning egasiga aylandi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018 – yil 17 –apreldagi “Qishloq va suv xo‘jaligi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni agrar soha rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Farmonda yirik ishlab chiqarish klasterlarini tashkil etish ham

belgilandi. Xususan, bu borada 2019-yil 23-yanvarda paxta, g‘alla, meva-sabzavot va yangi klastyerlar xususida hukumat qarori loyihasi tayyorlandi. Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligidagi islohotlardan maqsad – iqtisodiy foyda ko‘rish bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash va xalq farovonligini oshirishdan iborat ekanligi aniq belgilangan.

2018-yilda klaster usulida paxta etishtirishni kamida 52 foizga etkazish uchun 48 ta paxta-to‘qimachilik klasterini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Shu bilan birga, g‘alla va meva-sabzavot klastyerlari faoliyatini rivojlantirish, urug‘chilikda yangi navlarni yaratish maqsadida, tajriba-seleksiya ishlarini tubdan jonlantirish, buning uchun urug‘chilik va seleksiya bilan shug‘ullanadigan institatlarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, davlat-xususiy sheriklik asosida urug‘chilik klastyerlarini tashkil qilish choralari ko‘rilmoxda.

Avtomobil va temir yo‘llari. Istiqlol yillarida iqtisodiyotning qon tomirlari bo‘lgan avtomobil va temir yo‘l transporti ham rivoj topdi. Toshkent viloyatini mamlakatning sharqiy qismi bilan bog‘laydigan Qamchiq dovoni avtomobil yo‘li 1998-yilda boshlanib, 2000-yilda foydalanishga topshirildi. Shu tariqa mamlakatimiz orqali avtomobil yo‘li bilan Xitoygacha borish uchun imkoniyat ochildi. Mustaqillik yillarida mamlakat iqtisodiyoti rivojida katta ahamiyatga ega yagona temir yo‘l tizimi shakllantirildi. Xususan, 2001-yilda Navoiy – Uchquduq – Sultonuvaystog‘ – Nukus temir yo‘li, 2007-yil 24-avgustda bo‘lgan Toshguzar – Boysun – Qumqo‘rg‘on temir yo‘l liniyasi ishga tushirildi, 22-iyun 2016-yilda O‘zbekiston va Xitoy hamkorligining yirik va istiqbolli loyihasi ijrosi – Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo‘li hamda Qamchiq tunneli rasmiy ochildi. Hozirgi vaqtda Toshkent – Samarqand, Toshkent – Qarshi, Toshkent – Buxoro yo‘nalishlarida yuqori tezlikda harakatlanuvchi “Afrosiyob” elektrpoezdi qatnovi yo‘lga qo‘yilgan. 2018-yil 26-dekabrda Toshkent va YuNESKO tomonidan Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan Xiva shahriga temir yo‘l olib borildi.

So‘nggi yillarda avtomobil yo‘llari qurilishi va ta’miri sifatiga yondashuv tubdan o‘zgardi. Avtomobil yo‘llarini loyihalash, qurish, ta’mirlash, bu ishlarni moliyalashtirishni qamrab olgan kompleks tizim ishlab chiqildi. Faqat 2017-yilda

Investitsiya dasturiga asosan 264,4 km umufoydalanuvdagi avtomobil yo'llarida qurilish va rekonstruksiya qilish ishlari bajarildi, 179,4 km avtomobil yo'li foydalanishga topshirildi. Xalqaro ahamiyatdagi A-380 "G'uzor – Nukus – Qo'ng'irot – Beyneu" avtomobil yo'lining 355-440 km qismlaridassementbeton qoplamali yo'l qurildi, 175,5 km umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llari kapital ta'mirlandi, 2850 km umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llari esa ta'mirlandi. 2017-yil davomida 3673 km.dan ortiq uzunlikdagi mintaqaviy avtomobil yo'llari ta'mirlandi, bu esa – 2016 yilning shu davridagiga nisbatan 3,4 marta ziyod demakdir.

Iqtisodiyotning barqarorlashuvi va rivojlanishi. Har qanday islohotlar odamlar hayotini yaxshilashi lozim. O'zbekistondagi islohotlar ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini bunyod etishga qaratildi. Iqtisodiy islohotlar strategiyasi asosan ishlab chiqarishning pasayishini to'xtatish, iqtisodiy yuksalishning asosi sifatida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish va barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun sharoitlarni yaratish singari muhim vazifalarini hal etishga yo'naltirildi.

Istiqlol yillaridagi olib borilgan iqtisodiy islohotlar natijasida makroiqtisodiy barqarorlikka erishildi. Barqarorlashtirish siyosati esa, eng avvalo, bu makroiqtisodiyotda muvozanatni saqlash, ishlab chiqarishning keskin darajada pasayishiga, ommaviy ishsizlikka yo'l qo'ymaslik, pul qadrsizlanishining boshqarilishini ta'minlash, to'lov balansini me'yorda saqlashga qaratilgan davlat siyosatidir. 1991–2002 yillarda iqtisodiyotga jalb etilgan jami investitsiyalar 28,4 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi.

O'zbekistonda makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishda jahon tajribasi, MDH davlatlarida yo'l qo'yilgan kamchiliklar o'r ganildi. 1991-yil oxirlari va 1992-yilda O'zbekiston jiddiy iqtisodiy sinovlardan o'tishiga to'g'ri keldi. SSSR parchalanishi natijasida iqtisodiy aloqalar buzildi, ishlab chiqarish keskin pasaydi, moliya va xom ashyo taqchilligi yuz berdi. Boshqa respublikalar bilan bog'lanib qolgan yirik korxonalar to'xtab qolish darajasiga etib keldi. Umumiyl iqtisodiy bo'hron natijasida aholining yashash darajasi tushib ketdi. Oziq-ovqat mahsulotlari, eng

muhim dori darmonlar turlari chetdan olib kelinishi sababli ushbu sohalarda qiyinchiliklar paydo bo'ldi.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar natijasida 1996-yildan oldingi yilga nisbatan, 2001-yildan esa 1991-yildagi darajaga nisbatan YaIM hajmi o'sishi ta'minlandi.

2016-yil Shavkat Mirziyoev davlat rahbari etib saylangach mamlakat iqtisodiyotida zamon talablariga javob beradigan, samarali islohotlarni amalga oshirish strategiyasi yo'li tanlandi.

Eng avvalo, iqtisodiyotni yangi asosda tashkil etish va yanada erkinlashtirish, uning huquqiy asoslarini takomillashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish bo'yicha qonunlar, farmonlar va qarorlar, puxta o'ylangan dasturlar qabul qilindi. 2018-yil oxirigacha 161 ta yirik sanoat ob'yekti ishga tushirildi. Toshkent issiqlik elektr stansiyasida qo'shimcha ravishda 2,5 milliard kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqarishga mo'ljallangan bug'-gaz qurilmasi barpo etildi.

2017-yilda Olmaliq kon-metallurgiya kombinati tomonidan "Yoshlik – 1", "Yoshlik – 2" konlari o'zlashtirishga kirishildi.

Shuningdek, 2016-yildan mamlakat iqtisodiy siyosatida noreal raqamlar ortidan quvish, amalga oshmaydigan xomxayollarni haqiqat sifatida taqdim etish kabi ish uslubi tubdan qayta ko'rib chiqildi. Inson manfaati va amaliy natijadorlik islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi. Ana shu chora-tadbirlar natijasida 2017-yilda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari 5,5 foizni tashkil etdi, eksport hajmi esa, 15 foizga ko'paydi, tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosи 854 million AQSh dollariga etdi.

2017-yilda mamlakatimizda 12 ta erkin iqtisodiy va 45 ta sanoat zonasи tashkil etildi. 2017-yilda yangi sanoat korxonalarini qurish, xizmat ko'rsatish ob'yektlarini ishga tushirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobidan 336 mingdan ziyod yangi ish o'rnlari tashkil etildi. 2018-yilda "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"

davlat dasturi doirasida 21 trillion so‘m va 1 milliard dollarga teng 76 mingta loyihani amalga oshirildi.

Sanoat, qishloq xo‘jaligi, kapital qurilish, transport-kommunikatsiya, servis va xizmat ko‘rsatish sohalarida salmoqli yutuqlar qo‘lga kiritildi. 2018-yilda Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom va Osiyo taraqqiyot banklari, boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikdagi investitsiyalar hajmi 8,5 milliard dollarni tashkil etdi. 2018-yilda yurtimizda, chet el investitsiyalari hisobidan qiymati 23 milliard dollarlik 456 ta loyiha amalga oshirildi. 2019-yilgi Investitsiya dasturiga mazkur soha bo‘yicha umumiy qiymati 27,8 milliard dollarlik 26 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

Bank-moliya sohasidagi o‘zgarishlar. Mamlakatimizda moliya muassasalarini isloh qilish va yanada rivojlantirish “o‘zbek modeli” asosida bosqichma-bosqich amalga oshirildi va natijasida qisqa muddatda O‘zbekistonning mustaqil bank tizimi yaratildi. 1991-1993 yillarda O‘zbekistonning rubl zonasida bo‘lib turgan davridagi iqtisodiy siyosati ishlab chiqarishning pasayishiga va aholi turmush darajasi tushib ketishiga yo‘l qo‘ymaslikka, savdo balansining ahvolini yaxshilashga takomillashtirishga qaratildi. Siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning ikki xil tabiatga egaligi, ya’ni bir tomondan siyosiy mustaqillik, boshqa tomondan esa rubl zonasida, yagona iqtisodiy makonda turganlik holati mamlakatimiz uchun o‘ziga xos bir davr edi. Bunday holat pul-kredit siyosatini belgilashda ham o‘ziga xos yo‘lni ishlab chiqishni taqozo etardi.

1991-yil 15-fevralda qabul qilingan “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonun, keyin unga kiritilgan qo‘sishimcha va o‘zgartirishlar bank sohasini isloh qilish, erkin bozor sharoitlariga mos bank muassasalarini tashkil etish yo‘llarini belgilab berdi. Ushbu qonunga ko‘ra SSSR Davlat Bankining mintaqaviy bo‘limi O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Bankiga aylantirilib, unga pul emissiyasi, hukumat hisob varaqlariga xizmat ko‘rsatish, oltin-valyuta zahiralarini saqlash, banklar faoliyatini nazorat qilish, pul-kredit siyosatini amalga oshirish va boshqa

vazifalar topshirildi. 1994-yil 1-iyulda O‘zbekiston Respublikasining pul birligi – so‘m muomalaga kiritildi.

Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichida narxlar erkinlashtirildi. Ushbu jarayon esa kompensatsiya to‘lovleri, bolalar uchun nafaqalar, eng kam ish haqi, pensiya, nafaqalar va stipendiyalar oshirib borilishi orqali olib borildi.

Shuningdek, bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida bozor infrastrukturasi ham shakllantirildi. 58 ta tovar va xomashyo birjalari, biznes inkubatorlar, auditorlik va konsalting firmalari, savdo uylari va auksionlar tashkil etildi.

2017-yildan milliy valyutani erkin konvertatsiya qilishga kirishildi. Yuridik va jismoniy shaxslar xorijiy valyutani tijorat banklaridan cheklovsiz sotib olish va erkin sotish imkoniga ega bo‘ldi. Shu bilan birga, oltin-valyuta zaxira faqat bir yilda 1,1 milliard AQSh dollariga ko‘paydi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda neft-gaz va kimyo sanoati jadal rivojlandi. 1997-yilda yiliga 2,5 mlrd. kubometr gaz haydash quvvatiga ega bo‘lgan *Ko‘kdumaloq kompressor stansiyasi*, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi. 1996-yilda neft mustaqilligiga erishildi. 1991-yilda 2,9 mln. tonna neft (gaz kondensati bilan birgalikda) mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2000-yilda bu ko‘rsatkich 7,5 mln. tonnadan oshdi, gaz qazib chiqarish 41,8 mlrd. kub metrdan 56,4 mlrd. kub metrga o‘sdi. 2012-yilda esa 3,8 mln. tonna ko‘mir 63 mlrd. kubometr gaz qazib chiqarildi. 1997-2007-yillarda Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasining 1 mlrd. AQSh dollari hajmida qurilish ishlari amalga oshirildi.

Miliy avtomobilsozlikning vujudga kelishi va gaz-kimyo sanoati rivoji. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda avtomobilsozlik sanoati vujudga keldi va mamlakatimiz dunyoda avtomobil ishlab chiqaruvchi 28-mamlakatdan biriga aylandi. 1992-yil iyunda O‘zbekiston Prezidentining Janubiy Koreya Respublikasiga qilgan rasmiy tashrifi chog‘ida ikki davlat o‘rtasida o‘zar o‘qitishni hamkorlikni rivojlantirish to‘g‘risida dastlabki hujjatlar imzolandi. 1992-yil avgustda esa Janubiy Koreyaning “DEUMotors” kompaniyasi bilan hamkorlikda avtomobil ishlab chiqaruvchi qo‘shma korxona barpo etish to‘g‘risida kelishuv imzolandi. “O‘zDEUavto” korxonasi qurilishi 1996-yil 19-iyulda

tugallandi. Ushbu yirik sanoat korxonasining umumiyligi qiymati 658 million AQSh dollarini tashkil etdi. 1999-yil 16-martda Samarqandda Yaponiyaning Sudzuki kompaniyasi bilan hamkorlikda avtobuslar, yuk tashish mashinalari ishlab chiqaradigan avtomobil zavodi ish boshladi. Shuningdek, Samarqandda avtobus va yuk mashinalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “SamKochAvto” zavodi qurildi.

Keyingi yillarda engil va to‘qimachilik sanoati yuqori sur’atlarda rivojlanib bormoqda. Engil sanoat aholi bandligining yuqori darajasini, iqtisodiy va sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shib kelmoqda. Umuman, O‘zbekiston engil sanoati etakchi va jadal rivojlanib borayotgan sohalardan biridir. 2017 – yilda mamlakat umumiyligi sanoat hajmida engil sanoat ulushi 30 foizga yaqin bo‘lgan, YaIMdagi ulushi 4 foizga yaqin, noziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hajmida esa – 44 foizdan ortiq. So‘nggi yillarda ishlab chiqarish hajmining yillik o‘sishi taxminan 18 foizni, eksport esa 10 foizni tashkil etdi. O‘zbekiston dunyodagi eng yirik tabiiy to‘qimachilik tolalari, ip kalava va trikotaj ishlab chiqaruvchi mamlakatlardan biridir. Respublikada 7000 dan ziyod to‘qimachilik korxonalar mavjud. Mamlakat iqtisodiy rivojlanishida to‘qimachilik sohasining muhim ahamiyatidan kelib chiqib, O‘zbekistonda 2017 – 2019 yillarda to‘qimachilik va tikuvchilik-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi amalga oshirilmoqda. Dasturga muvofiq, 2020–yilga kelib ip kalava ishlab chiqarishni 2,5 baravar, tayyor matolarni – 2,8 baravar, noto‘qima materillarni – 1,5 baravar, trikotaj matolarni – 2,7 baravar oshirish rejalashtirilgan.

Ijtimoiy soha va undagi o‘zgarishlar. Iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy himoya o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni bir-biridan ajralgan holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu bois O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning dastlabki vaqtlaridan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini himoyalash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar olib borildi. Mustaqillik yillarida mamlakatda 70 mln. kv.m. turar joylar, 19,5 ming o‘rinli kasalxonalar, 95,7 ming marta tashrifli poliklinikalar, 805,9 ming o‘rinli maktablar, 15,3 ming o‘rinli akademik litseylar, 126,5 ming o‘rinli kasb-hunar kollejlari qurilib foydalanishga topshirildi. Aholini

toza ichimlik suvi bilan ta'minlash va gazlashtirish bo'yicha davlat dasturlari amalga oshirildi. 1991-2000 yillarda 22,6 ming km. suv quvurlari va 54,1 ming km. gaz tarmoqlari yotqizildi. 2013-yilga kelib qishloq aholisining markazlashgan tarmoqlar orqali toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 75,8 foizni, tabiiy gaz bilan ta'minlash darajasi esa 76,2 foizni tashkil etdi.

2016-yil ikkinchi yarmidan jamiyat hayotining barcha sohalarida bo'lgani kabi ijtimoiy sohada ham tub sifatiy o'zgarishlar boshlandi. Davlat siyosatining g'oyat muhim yo'nalishi bo'lgan ijtimoiy sohani isloh qilish bo'yicha dasturlar amalga oshirila boshlandi. Aholini, ayniqsa, byudjet sohasi xodimlari, kam ta'minlangan oilalarni uy-joy muammosi juda qiynab kelardi.

Afsuski, Prezident Shavkat Mirziyoevga qadar bu og'ir ijtimoiy muammoga deyarli e'tibor berilmay kelingan edi. Xalqning talablari va istaklarini inobatga olib, 2017-yilda imtiyozli ipoteka kreditlari asosida arzon uy-joylar qurila boshlandi. 2018-yil oxirigacha shahar va qishloqlarimizda 3,5 million kvadrat metrdan ziyod namunaviy uylar va ko'p qavatli uylar bunyod etildi. Ushbu raqam avvalgi yillarga nisbatan taqqoslanadigan bo'lsa, 2007-yilga nisbatan 20 barobar, namunaviy uy-joylar qurish dasturi boshlangan 2010-yilga nisbatan 3,5 barobar, 2014-yilga nisbatan esa 2 barobar ko'p uy-joy qurilganini ko'rish mumkin.

Ta'kidlash joizki, 2017-yilda birinchi marta aholi uchun arzon, barcha qulayliklarga ega ko'pqavatli uy-joylar qurilishi boshlandi. 2017-yilda 800 ming kvadrat metrdan ziyod ana shunday uy-joylar foydalanishga topshirildi. Birgina Toshkent shahrining o'zida joriy yilda 420 ming kv. metr ko'pqavatli uy-joy fondi foydalanishga topshirildi.

2018-yilda Prezident Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan aholi farovonligini oshirish maqsadida ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar miqdori o'tgan yillarga nisbatan sezilarli ravishda oshirildi. Xususan, pedagog xodimlar ish haqi birinchi marta 50-foizgacha ko'paytirildi. 2018-yilda aholining real umumiylar daromadlari 2017-yilga nisbatan 12 foizga oshdi.

“Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz” kabi dasturlar doirasida 2 trillion so‘mga yaqin mablag‘ ajratilib, joylarda 2 ming 600 dan ortiq biznes loyihalari amalga oshirildi.

2018-yil qishloqlar, mahallalarni obod qilish bo‘yicha ulkan ishlar boshlangan yil bo‘ldi. Xususan, “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari xalqimiz tomonidan katta mammuniyat bilan kutib olindi. Bu boradagi qurilish va obodonlashtirish ishlariga 3 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Natijada 416 ta qishloq yangicha qiyofaga ega bo‘ldi.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda dinlararo bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik ta’minlandi va O‘zbekistonda yashayotgan 130 ga yaqin turli millat va elatlarning madaniyatlari rivojlanishiga keng sharoitlar yaratildi. Hozirgi vaqtida O‘zbekistonda 120 ta milliy madaniyat markazlari faoliyat yuritmoqda. 2018-yilda O‘zbekistonda 16 diniy konfessiya ro‘yxatga olingan va 2200 dan ortiq diniy tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Diniy tashkilotlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi soddalashtirildi, ro‘yxatdan o‘tkazishda to‘lanadigan davlat boji 5 martaga kamaytirildi. 11 ta diniy ta’lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. 1999-yilda Toshkentda ochilgan Islom Universiteti 2018-yilda Islom akademiyasiga aylantirildi. 2018-yilda O‘zbekistonda NNTlar va diniy tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha eng ko‘p normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilidi.

Xullas, mustaqillik yillarida iqtisodiyotda erkin bozor munosabatlari qaror topdi. Iqtisodiy tanazzul davridan makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishildi, xususiy mulkchilik qaror topdi vam shu tariqa ko‘p ukladli iqtisodiyot vujudga keldi.

Ta’lim va ilm-fan sohasining rivojlanishi. Istiqlol yillarida sovet ta’lim tizimi tubdan o‘zgartirildi. 1992-yilda viloyatlarda joylashgan 12 ta pedagogika institutlari universitetlarga aylantirildi. Qurolli Kuchlar Akademiyasi, Ichki ishlar akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent aviatsiya instituti, Navoiy tog‘-konchilik instituti, Toshkent moliya instituti va boshqa bir qancha oliy o‘quv yurtlari tashkil etildi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda 84 dan ortiq oliy o‘quv yurtlari mavjud bo‘lib, yurtimizda Buyuk Britaniyaning Xalqaro Vestminster universiteti, M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Toshkentdagi filiali, I.M. Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz davlat universiteti filali, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Italiyaning Turin politexnika universiteti filiali, Toshkentda G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi filiali, Janubiy Koreyaning Inha universiteti filiali, Olmaliqda Rossianing “Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti “MISiS” filiali va boshqa bir qancha oliy o‘quv yurtlari faoliyat yuritmoqda.

1997-yil 27-avgustda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga ko‘ra umumiyl o‘rta ta’lim 9 yil bo‘ldi, uch yillik akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari asosida o‘rta maxsus bilim va kasb-hunar ta’limi joriy etildi. 1997-2001-yillarda 300 ga yaqin yangi turdagil ta’lim muassasalari ochildi, oliy o‘quv yurtlari qoshida 46 ta litsey tashkil etildi. O‘zbekistonda 1997-yildan 2017-yilgacha 1400 dan ortiq kasb-hunar kolleji, 200ga yaqin akademik litsey bor edi. Ammo, bu borada qoniqarli natijalarga erishilmadi. Shuning uchun 2017-yil umumta’lim va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi o‘zgarishlarga uchradi. Xalq qabulxonalarini va Prezidentning virtual qabulxonasiga tushgan takliflar, respublika maktablaridagi bitiruvchilarining ota-onalari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalaridan kelib chiqib, 12-yillik majburiy ta’limdan 11-yillik ta’limga qaytildi.

1997-yilda qabul qilingan “Talim to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq 5 yillik oliy ta’limdan 4 yillik bakalavriat va 2 yillik magistratura bosqichlaridan iborat ikki bosqichlik tizimga o‘tildi.

Prezident Shavkat Mirziyoev 2017-yil iyunda “2017/2018 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq ishlab chiqarishdan ajralmagan holda bilim olishni ta’minlash maqsadida qator oliy ta’lim muassasalarining maxsus sirtqi bo‘limlarida bakalavrлarni tayyorlash tashkil etildi.

1992-yil martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida ilmiy kadrlar tayyorlanishini tashkil etuvchi vakolatli organ – Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tuzildi. O‘zbekiston olimlari ilm-fanning barcha sohalarida, xususan, innovatsion iqtisodiyot, energetika va energiya xomashyoni tejash, axborot-kommunikatsiya, kimyo, nanotexnologiya, genetika, qishloq xo‘jaligi, ekologiya, tibbiyat, farmakologiya, geologiya, geofizika, seysmologiya yo‘nalishlarida tadqiqotlar olib borishdi.

1992-yil iyulda O‘zbekiston Prezidentining “Ilm-fanni davlat yo‘li bilan qo‘llab quvvatlash va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish to‘g‘risida”gi farmoni asosida respublika olimlari xorijiy mamlakatlarda tajriba oshirish yo‘lga qo‘yildi. 1997-yil Xorazm Ma’mun akademiyasi Fanlar akademiyasining mintaqaviy bo‘linmasi sifatida tashkil etildi.

O‘zbekiston Prezidentining 2012-yildagi “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq dissertatsiya himoya qilish va fan doktori ilmiy darajasini berish bo‘yicha oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limning bir bosqichli tizimiga o‘tildi. Ammo buning natijasida O‘zbekistonda ilmiy salohiyat pasayib ketdi. 2017-yil fevraldan xalqaro standartlariga mos keluvchi, falsafa doktori va fan doktori darajalarini beruvchi ikki bosqichli tizimga o‘tildi.

2016-yil O‘zbekistonda fan tarixida tub burilish vaqtি bo‘ldi. Davlat rahbari Shavkat Mirziyoevning 2016-yil 30-dekabrdan, ya’ni Prezidentlik faoliyatining ilk kunlarida Fanlar akademiyasining a’zolari bilan tarixiy uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. 2017-yil 17-fevralda esa, mamlakat Prezidentining “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori asosida 9 ta ilmiy tadqiqot muassasalari O‘zFA tarkibiga qaytarildi, ba’zilari qaytadan tuzildi. Zero zamonaviy jamiyatni ilm-fansiz tasavvur etib bo‘lmaydi: fan – asosiy ishlab chiqaruvchi kuchga aylangan bugungi kunda fan va texnikani rivojlantirmasdan ijtimoiy taraqqiyotga erishish mumkin emas.

Prezident Shavkat Mirziyoevning 2017 – yil 24 – maydagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga binoan O‘zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qadimiy qo‘lyozmalarni saqlash, o‘rgansh, ilmiy asosda tadqiq etish va targ‘ib qilish bo‘yicha mamlakatimizdagi etakchi ilmiytadqiqot muassasasi etib belgilandi. Ushbu qaror yozma manbalarni tadqiq etuvchi sharqshunoslар va manbashunos-olimlar uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

O‘zRFA haqiqiy a’zoligiga oxirgi saylov 1995-yilda bo‘lib, o‘tgan yillarda akademiklar soni ikki martadan ko‘p qisqarib, 2017–yilda ulardan atigi 63 nafar qolgan edi. Prezident Shavkat Mirziyoevning 2017 –yil 29 – dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zolarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni mamlaktimizda fan rivojida tarixiy voqeа bo‘ldi. Farmon asosida ko‘p yillardan keyin Fanlar akademiyasining 32 nafar yangi haqiqiy a’zolari saylandi.

Prezident Shavkat Mirziyoev 2017 – yilda “Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Unda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion va ilmiy-texnik rivojlantirish sohasida jamiyat va davlat hayotini har tomonlama rivojlantirishga, mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi sifatida Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi.

Ma’naviy madaniyat sohalarining rivoji. Istiqlolning dastlabki yillaridan ma’naviyatga, madaniy merosga, tarixiy xotira yangicha munosabat davlat miqyosi darajasiga chiqdi. Bu davrda jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan ulush qo‘sghan buyuk ajdodlarimiz – Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Xo‘ja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur va boshqa mutafakkirlarning merosi targ‘ib etildi va o‘rganildi. Zero inson, jamiyat ma’naviyatini yuksaltirishda ma’naviy meros, buyuk ajdodlar tarixini bilish nihoyatda muhimdir.

Xalqimizning azaliy qadriyati “Navro‘z” bayrami 1991 – yildan boshlab mamlakatda Prezident farmoniga ko‘ra, 21 – martda umumxalq bayrami sifatida

nishonlanadigan bo‘ldi. Qadimiy Navro‘zning tiklanishini esa mamlakat aholisi ko‘tarinki ruhda kutib oldi.

1996 – yil O‘zbekistonda va YuNESKO qaroriga ko‘ra jahon miqyosida Amir Temur tavalludining 660 yilligi keng nishonlandi. Toshkent, Samarqand, Shahrисabzga Amir Temur haykal o‘rnatildi, mamlakatimiz poytaxtida Temuriylar tarixi davlat muzeyi tashkil etildi. Prezident Shavkat Mirziyoevning 2017 – yil 5 – iyuldagи “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmoni bandlaridan birida respublikaning barcha harbiy akademik litseylariga “Temurbeklar maktabi” nomi berildi. Bundan maqsad ma’naviy barkamol, jismoniy va ruhiy jihatdan sog‘lom, vatanparvar insonni tarbiyalash va respublika oliy harbiy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun O‘zbekiston xalqi va Prezidentiga sodiq, fidoyi nomzodlarni tayyorlashni ta’minlashdir.

1999-yilda milliy qahramon, sarkarda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi, Alpomish dostonining 1000 yilligi keng nishonlandi.

Istiqlol yillarda badiiy adabiyot Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Odil Yoqubov, To‘lepbergen Qayipbergenov, Rauf Parpi, Primqul Qodirov, Xurshid Davron, Sirojiddin Sayyid, Tohir Malik ijodlari orqali kamol topdi. Ularning asarlarida yuksak insoniy ideallar, buyuk ma’naviy qadriyatlar kuylandi.

Mustaqillik yillarda kino va teatr san’ati ham rivojlandi. Bu vaqtda ko‘plab hujjatli va badiiy filmlar yaratildi. Respublika Prezidentining 1995-yil 20-oktyabrdagi “O‘zbekistonda teatr va musiqa san’atini yanada rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 1998-yil 26-martdagи “O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida”gi farmonlari asosida teatrlarning moliyaviy ahvoli yaxshilandi.

2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining tarixiy ahamiyati. 2016-yil 4-dekabrda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Prezidenti saylovi yirik tarixiy voqeа bo‘ldi. Demokratiya tamoyillari va zamonaviy saylov talablarga mos

tarzda ochiq va oshkora o‘tgan saylov jarayonini nufuzli xalqaro tashkilotlar va ko‘plab kuzatuvchi kuzatib bordi.

Barcha demokratik saylov talablariga to‘la javob beradigan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi nomzodi shavkat Miromonovich Mirziyoev saylovchilar umumiy sonining 88,61 foiz ovozini olib, g‘olib bo‘ldi.

2016-yil 14-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida Shavkat Mirziyoev nutq so‘zlab, davlatimiz rahbari mamlakatimiz oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifalarga atroficha to‘xtalib shunday dedi: “Bizning vazifamiz – to‘plangan tajriba va ilg‘or xalqaro amaliyotga suyangan holda, o‘zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat’iy amalga oshirishdan iborat. Shu borada yaqin va o‘rta muddatga belgilangan marralarga erishish uchun qat’iyat bilan harakat qilishimiz zarur. Shu maqsadda 2017 – 2021 yillarda O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini ishlab chiqish yaqin kunlarda yakunlanadi”.

2017-yil 7-fevralda Prezident Shavkat Mirziyoevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni e’lon qilindi. Harakatlar strategiyasi loyihasi aholi orasida muhokamaga qo‘yildi, ko‘plab takliflar bildirildi, xususan, “Qonun hujjatlari ta’sirini baholash tizimi” portalidagi 1310ta takliflar va mulohozalar asosida “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat dasturining jami 41 ta bandi qayta ko‘rib chiqildi. Harakatlar strategiyasi loyihasining keng jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilishi O‘zbekiston tarixida uchramagan.

2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi mamlakatni kompleks rivojlantirish dasturi bo‘ldi. Binobarin, globallashuv jarayonlari kuchayayotgan, jahon miqyosida moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotgan sharoitlarda dunyo mamlakatlari taraqqiyot dasturlarning ming minmiengmingmingmingmingming mingmingiga o‘zgartirishlar kiritishni ob’yektiv zaruratga aylantirgan edi.

Strategiyada davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash va o'zaro manfaatli tashqi siyosat milliy taraqqiyotning asosiy yo'nalishlari sifatida belgilangan. Harakatlar strategiyasining har bir ustuvor yo'nalishi mamlakatimiz taraqqiyoti uchun ulkan tarixiy ahamiyatga egadir.

Xalq orasida "Harakatlar strategiyasi" degan nom bilan mashhur bo'lib, jamiyat hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib borayotgan mazkur dasturning samarali amalga oshirilishi har bir fuqaroning, eng avvalo, ertangi kunning egalari bo'lgan yoshlarning mazkur jarayonda bevosita ongli ishtiroki, ularning vatanparvarlik, insonparvarlik tamoyillariga asoslangan fuqarolik madaniyatiga bog'liqdir.

Savollar va topshiriqlar

- 1.Sobiq SSSR davri rejali iqtisodiyotining mazmun-mohiyati nimalardan iborat edi?
- 2.O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishda qanday yo'lni tanladi?
- 3.Mustaqillikning dastlabki yillarda bozor munosabatlarini tartibga soluvchi qanday qonunlar qabul qilindi?
- 4.O'zbekistonda xususiy lashtirish qanday maqsadlarni ko'zlagan edi.
- 5.Zamonaviy iqtisodiyotda kichik va o'rta biznesning o'rni qanday?
- 6.O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining ahamiyatini izohlang.
- 7.O'zbekiston iqtisodiyotida agrar sektor qanday o'rinni egallaydi?
- 8.Hozirgi davrda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlardan ko'zlangan maqsad nima? Misollar bilan tushuntiring.
- 9.Harakatlar strategiyasining yo'nalishlari o'zaro bir biri bilan qanday bog'langan?
- 10.Harakatlar strategiyasining tarixiy ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?

19 – §. O‘zbekistonning tashqi siyosati va xalqaro aloqalari

O‘zbekistonning geostrategik imkoniyatlari va uning tashqi siyosati asosiy tamoyillari. O‘zbekiston ulkan tabiiy boyliklar, neft va gazning yirik zaxiralariiga egadir. Mamlakatimiz oltin zaxiralari buyicha dunyoda to‘rtinchi o‘rinni, ishlab chiqarish buyicha esa ettinchi o‘rinni egallaydi. O‘zbekistonda yirik uran zaxiralariiga ham ega bo‘lib, u uran qazib olish bo‘yicha dunyodagi o‘nta davlatga kiradi. O‘zbekiston muhim strategik xom ashyo bo‘lgan paxta etishtirish bo‘yicha dunyoda oltinchi o‘rinni, uni eksport qilish buyicha esa uchinchi o‘rinni egallaydi. Shuningdek, O‘zbekiston geostrategik imkoniyatlari Yevropa va Osiyoni bog‘laydigan xalqaro magistral yo‘llar o‘tgan O‘rta Osiyoning markazida joylashganligi va demografik, ilmiy, industrial salohiyat, rivojlangan qishloq xo‘jaligida ham namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga O‘zbekistonning barqaror rivojlanishishiga salbiy ta’sir qiluvchi quyidagi omillar ham mavjuddir:

- O‘zbekiston janubda diniy ekstremizm, narkobiznes o‘chog‘i bo‘lgan va fuqarolar urushi davom etayotgan Afg‘oniston.
- O‘zbekiston dengiz kommunikatsiyalaridan uzoqdaligi (O‘zbekiston ikki mamlakatdan keyingina okeanga chiqadigan dunyodagi ikkita mamlakatdan bittasidir. Dengiz kommunikatsiyalaridan uzoqlik ham iqtisodiy aloqalarni birmuncha cheklaydi, Chunki suv transporti eng arzon hisoblanadi).
- Suv resurslarining taqchilligi, ekologik muammolar va boshqalar.

Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O‘zbekiston mintaqaning barqarorlik qaror topishidan, yaxshi qo‘sniqchilik munosabatlari o‘rnatalishidan manfaatdordir. Shu bois O‘zbekistonning tashqi siyosati tinchlikparvarvarlikka, o‘zaro hamkorlikka asoslangangan. O‘zbekiston tashqi siyosati Konstitutsiyamiz normalariga, “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risidagi”gi “Mudofaa to‘g‘risida”gi qonunlarimizga, O‘zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasiga, BMT hamda Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining

prinsipleriga, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar va bitimlaridan kelib chiqadigan majburiyatlariga asoslanadi.

O‘zbekiston quyidagi tamoyillarga asoslangan holda tashqi siyosatni yuritmoqda:

- hamkorlik qilishda mafkuraviy qarashlardan qat’i nazar ochiqlik;
- teng huquqlilik va o‘zaro manfaat, suverenitet, hududiy yaxlitlik, chegalarar daxlsizligini hurmat qilish;
- davlatlarning ichki siyosatiga aralashmaslik, munozaralarni tinch yo‘l bilan hal etish, kuch yoki tahdid kuchlarini qo‘llamaslik;
- harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaslik, o‘z hududida xorijiy harbiy bazalarning joylashuviga yo‘l qo‘ymaslik, xorijiy harbiy operatsiyalarda ishtirok etmaslik.

O‘zbekiston 1992-yilning 2-martida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining yakunlovchi aktiga imzo chekib, Xel’sinki shartnomasi majburiyatlariga qo‘sildi. O‘zbekiston BMT, ShHT, MDH singari xalqaro tashkilotlarning teng huquqli a’zosi, jahondagi yirik bank va moliyaviy uyushmalar bilan hamkorlik qiladi. Dunyodagi 30 dan ortiq davlatda – AQSh, Rossiya, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Pokiston va boshqalarda O‘zbekiston elchixonalari va konsulliklari ishlab turibdi.

2017-yil 19-sentyabrda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so‘zlab, unda O‘zbekistonda kechayotgan tub demokratik o‘zgarishlar, Harakatlar strategiyasi BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan to‘la hamohang ekanligi, mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish, Orol dengizining qurishi bilan bog‘liq oqibatlarni bartaraf etish, Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatalishi global masalalar markazida bo‘lishi lozimligi, xalqaro terrorizm va ekstremizm, Orol muammosini hal etish masalalari, BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish hamda BMT Bosh Assambleyasining “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini qabul qilish bo‘yicha bir qator takliflar o‘z aksini topdi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston faol tashqi siyosati tufayli ishonchli hamkor sifatida mamlakatimizning xalqaro obro‘sni tobora ortib bormoqda. Davlatlararo munosabatlarda o‘zaro ishonch va do‘slikni yanada mustahkamlash tashqi siyosiy faoliyatning asosiy vazifalardan biriga aylanmoqda. Masalan, 2018-yilda 18 ta davlatlararo rasmiy tashriflar amalga oshirildi va 52 milliard dollarlik 1 ming 80 ta loyiha bo‘yicha o‘zaro kelishuvlarga erishildi.

O‘zbekistonning Rossiya Federatsiyasi, XXR, AQSh va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi munosabatlari. 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida xalqaro munosabatlardagi hozirgi murakkab sharoitda mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini yanada chuqurlashtirish O‘zbekiston tashqi siyosatining bosh maqsadi ekanligi ifodalangan. Ayniqsa, xalqaro tashkilotlar, xalqaro mintaqaviy tashkilotlar, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan, mitaqamizdagi qo‘shni mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, gumanitar, diplomatik, siyosiy sohalarda konstruktiv hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan asosiy vazifalar sirasiga kiradi. Shu jihatdan, O‘zbekiston tashqi siyosati uchun dunyoning rivojlangan davlatlari, qo‘shni mamlakatlar va xalqaro mintaqaviy integratsion tuzilmalar bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish ustuvor yo‘nalish hisoblanadi.

O‘zbekiston dunyoning yirik davlatlari manfaatlari to‘qnashadigan, mineral xomashyo resurslariga boy mintaqada joylashgan. Murakkab geosiyosiy va geostrategik voqeliklarda esa O‘zbekistonning tashqi siyosiy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari aniq bo‘lib, bu uning Rossiya, AQSh, Xitoy, Germaniya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Hindiston va boshqa mamlakatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishda manfaatdor ekanligida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonning Rossiya singari siyosiy, harbiy-texnik va iqtisodiy jihatdan katta salohiyatga ega davlat bilan bilan aloqalari ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Ayni vaqtda barqaror Markaziy Osiyo Rossiya manfaatlariga javob beradi. Chunki

Rossiyaning janubiy chegaralari yaqinida keskinlik o‘chog‘lari uning xavfsizligiga ham tahdid tug‘diradi.

O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida har tomonlama hamkorlikni rivojlantirishda 1992-yil 30-mayda tuzilgan davlatlararo munosabatlarning asoslari, do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risida asos bo‘ldi. 2004-yilda imzolangan Strategik hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma, 2005- yil noyabrda tomonlar o‘rtasida “Rossiya Federatsiyasi va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida strategik ittifoqchilik munosabatlari” to‘g‘risida shartnoma tuzildi. 2012-yilda esa Strategik hamkorlikni rivojlantirish to‘g‘risidagi deklaratsiya imzolandi. Ushbu kelishuvlar va shartnomalar esa O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasidagi aloqalarni yanada yaqinlashtirdi.

Rossiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, harbiy-texnikaviy, madaniy va gumanitar sohalarda aloqalarda, ayniqsa, 2017-yil aprelb oyida Prezident Shavkat Mirziyoevning Rossiyaga davlat tashrifi o‘zaro munosabatlarda tarixiy yangi sahifani ochib berdi. Mazkur tashrif doirasida mintaqalararo hamkorlik, vaqtinchalik mehnat faoliyatini olib borish, neft va gaz, bank-moliya, bojxona, sog‘liqni saqlash, fan, tibbiy ta’lim, turizm, qurilish, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalar bo‘yicha 16 milliard AQSh dollarga 50 ta hujjat imzolandi.

O‘zbekiston – Rossiya munosabatlarida savdo-iqtisodiy aloqalar muhim o‘ringa egadir. O‘zbekistonda Rossiya mashinasozlik, metallurgiya, farmatsevtika, agrosanoat va boshqa sohalarda yirik loyihalarni amalga oshirmoqda. 2018-yil oxirlariga kelib O‘zbekiston iqtisodiyotida Rossiya investitsiyasi 8,5 mlrd AQSh dollaridan ziyod mablag‘ni tashkil etdi. Faqat 2018-yilning o‘zida o‘zida ikki mamlakat o‘rtasidagi tovar aylanmasi hajmi 6 milliard AQSh dollariga etdi. Yaqin yillarda ushbu ko‘rsatkich 10 milliard AQSh dollariga etkazilishi rejalashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida Xitoy Xalq Respublikasi ham ustuvor ahamiyatga egadir. Chunki jahonda obro‘-nufuzi kuchayib borayotgan Xitoy O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarida etakchi o‘ringa ega. Xitoy va O‘zbekiston o‘rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yil yanvarida o‘rnatalgan.

O‘zbekiston – Xitoy munosabatlarining huquqiy asoslarini “Do‘slik va hamkorlikning sherikchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnoma (2005)”, “Strategik sheriklik o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiya (2012)”, “Do‘slik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma (2013)”, “Ikkitononlama strategik hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va rivojlantirish haqidagi qo‘shma deklaratsiya (2013)”, “O‘zbek-Xitoy hamkorligini yanada kuchaytirish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiya (2014)”, Strategik hamkorlik to‘g‘risidagi o‘zaro anglashuv bitimi (2016) va Xalqaro avtomobil transport yo‘li to‘g‘risidagi bitim (2017) lardan iborat 220 dan ortiq hujjatlar tashkil etadi.

Istiqlol yillarida ikki davlat rahbarlarining o‘zaro tashriflari va uchrashuvlari an’anaga aylangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 1992, 1994, 1999, 2005, 2011, 2012-yillarda, 2017-yilda esa Prezident Shavkat Mirziyoev Xitoya tashrif buyurdi.

XXR raislaridan sszyansszzemin (1996 yil), Xusszintau (2004, 2010 yillar), Sisszin’pin (2013 yil, 2016 yil (ShHT Toshkent sammitida) O‘zbekistonga rasmiy tashrif buyurishdi. Xitoy va O‘zbekiston munosabatlari o‘zaro do‘slik vam ishonchga qurilgan. Shuning uchun ham XXR Raisi Sisszin’pin “Xitoy bilan O‘zbekiston manfaatlari va taqdiri mushtarak, quvonch va tashvishni birgalikda baham ko‘radigan teng huquqli hamda o‘zaro manfaatdor sheriklardir” – deb ta’kidlaydi⁴¹.

2017-yil 11 – 13 mayda Prezident Sh.Mirziyoevning Xitoya davlat tashrifi bilan O‘zbekiston – Xitoy munosabatlarida yangi davr boshlandi. Unda umumiyligi 23 mlrd. dollar bo‘lgan 105 ta hujjatlar imzolandi.

2019-yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev XXR Raisi Sisszin’pinning taklifiga binoan 24 – 27 aprelda “Bir makon, bir yo‘l” ikkinchi xalqaro forumi tadbirlarida ishtiroy etish uchun amaliy tashrif bilan Xitoyda bo‘ldi va unda o‘zaro hamkorlikning yangi istiqbollari belgilandi.

⁴¹ Халқ сўзи, 2016 йил 21 июн

O‘zbekiston va XXR o‘rtasidagi strategik hamkorlik, savdo-iqtisodiy, investitsion va moliyaviy aloqalar o‘zaro manfaatdorlikka, tenghuquqlilikka asoslananadi. O‘zbekiston tashqi savdosida Xitoy etakchi o‘rinni egallab, 19,8 foizni tashkil etadi. 2018-yilda Xitoy va O‘zbekiston o‘rtasida tovar ayrboshlash 5 millard 677 million AQSh dollaridan oshdi. 2019-yilning birinchi kvartalida O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida tovar ayrboshlash 50 foizga o‘sdi. O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan Xitoy kapitali va investitsiyalarining hajmi 8 milliarddan oshdi. O‘zbekistonda Xitoy kapitali ishtirokida 1100 dan ortiq korxona ro‘yxatdan o‘tgan.

O‘zbekiston va Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasida davlatlararo aloqalar mustaqillikning dastlabki yillarda yo‘lga qo‘yilgan. 1992-yilda AQSh va O‘zbekiston o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatildi. 1992-yil martda Toshkentda AQSh elchixonasi, 1996-yilda AQShda O‘zbekiston elchixonasi ochildi.

O‘zbek – Amerika munosabatlarining jadal rivojlanishida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018-yil 15–17 mayda AQShga rasmiy tashrifi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Unda O‘zbekiston – AQSh hamkorligining holati va uni rivojlantirish istiqbollari, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar muhokama qilindi, “O‘zbekiston va Amerika Qo‘shma Shtatlari: strategik sheriklik yangi davrining boshlanishi” nomli Qo‘shma bayonot, turli sohalarda, xususan, energetika, ikki tomonlama savdo munosabatlarini kengaytirish, oliy ta’lim va akademik tadqiqotlar, qishloq xo‘jaligi sohasida hamkorlik bo‘yicha ahslashuv protokollari qabul qilindi, O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishi va 2018-yilda Toshkentda Markaziy Osiyo savdo forumini o‘tkazishda hamkorlik to‘g‘risidagi anglashuv memorandumlari imzolandi. O‘zbekiston Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki va AQSh Eksport-import banki o‘rtasida qo‘shma loyihalarni moliyalashtirish to‘g‘risida memorandum qabul qilindi, shuningdek, harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlik, parlamentlararo aloqalar, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik muhokama qilindi. Tashrif davomida O‘zbekiston va AQSh kompaniyalari o‘rtasida 20 dan ziyod shartnomalar imzolandi, ularni to‘liq amalga oshirish natijasida 4,8 mlrd. dollardan ortiq mablag‘larni tashkil etadi.

2018-yil dekabrdan AQSh davlat kotibi Mayk Pompeo qarori bilan O‘zbekiston birinchi marotaba diniy erkinliklar sohasida alohida xavotir uyg‘otadigan davlatlar ro‘yxatidan chiqarildi. O‘zbekiston tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Kamilov boshchiligidagi delegatsiya 2019-yil 16-18-iyulda Vashingtonda bo‘lib o‘tgan “Diniy erkinliklarni ilgari surish bo‘yicha ikkinchi vazirlar konferensiyasi”da ishtirok etdi. Bu esa O‘zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoev rahbarligida amalga oshirilayotgan tarixiy o‘zgarishlar va demokratik islohotlarning jahon hamjamiyati, jumladan, AQSh tomonidan e’tirof etilishi bo‘ldi.

O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi izchil munosabatlar o‘rntilgan bo‘lib, uning huquqiy negizini 1996-yilda imzolangan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim hisoblanadi. 1999-yil 1-iyuldan amalga kirgan ushbu bitim siyosiy, savdo-iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar, intellektual mulkni himoya qilish, qonunchilik, demokratiya va inson huquqlari bo‘yicha hamkorlik, qonunchilik, noqonuniy immigratsiyaga qarshi kurashish va gumanitar sohalardagi hamkorlikni qamrab olgan.

2007-yildan Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston har yili inson huquqlari, odil sudlov masalalari bo‘yicha Bryussel va Toshkentda muloqot o‘tkazib keladi.

Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar Shavkat Mirziyoevning Prezident lavozimini egallagandan keyin sifatiy o‘zgarishlarga uchradi. Yevropa Ittifoqi O‘zbekistonda inson huquqlarini ta’minlash, odil sudlojni amalga oshirish, sudlarning chinakam mustaqilligiga erishish, muqobil jazo turlarini kengaytirish yo‘lidagi tub islohotlarni har tomonlama ma’qullamoqda. Xususan, 2017-yilning aprelda O‘zbekistonga tashrif buyurgan Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili Peter Burian Yevropa Ittifoqi 2017 – 2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini qo‘llab-quvvatlashni ma’lum qildi. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan do‘slik va o‘zaro hamkorlikka asoslangan siyosatini yuqori baholamoqda. Zero Prezident Shavkat Mirziyoev rahbarligida O‘zbekistonda olib borilayotgan

tub o‘zgarishlar va islohotlar inson qadr-qimmati, xalq manfaatlari ta’minlanishiga qaratilgandir. Shu boisdan ham 2017-yil mayda O‘zbekistonga ilk marta BMT Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari tashrif buyurdi va Harakatlar strategiyasi asosida izchil islohotlar o‘tkazilayotganligi, bu jarayonda inson huquqlarini ta’minlash ustuvor darajada ekanligini e’tirof qildi.

Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston o‘rtasida hamkorlik aloqalari aniq chora-tadbirlar asosida rivojlanmoqda. Xususan, 2017-yil fevralda Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston o‘rtasida qayta tiklanadigan energiya sohasida hamkorlik memorandumi imzolandi. 2018-yil 23-noyabrda Bryusselda Yevropa Ittifoqining Tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo‘yicha oliv vakili, Evrokomissiya raisi o‘rnbosari F. Mogerini va O‘zbekiston Tashqi ishlar vaziri A. Komilovning uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Yevropa Ittifoqining O‘zbekiston bilan hamkorligi Yevropa parlamenti vakillari, Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili, Yevropa moliya institutlari, Yevropa tashqi aloqalar xizmati hamda Yevropa Komissiyasi va boshqa darajalarda keng yanada rivojlanib bormoqda.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatga Yevropa biznesi va investitsiyasining kengroq kirib kelishini ta’minlamoqda. Masalan, faqat 2018-yilning to‘qqiz oy davomida O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi savdo aylanmasi 2,23 milliard AQSh dollarini tashkil etgan va ushbu ko‘rsatkich oshib bormoqda.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi. O‘zbekiston tashqi siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan biri – bu Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan hamkorlik, do‘stlik aloqalarini har tomonlama mustahkamlashdan iborat. Mintqa mamlakatlari o‘rtasida o‘xshash jihatlar ko‘p. Tariximiz, madaniyatimiz, tilimiz va milliy qadriyatlarning uyg‘unligi, o‘z navbatida, mintqa xalqlari o‘rtasida yaxshi qo‘sni chilik munosabatlari o‘rnatalishining asoslardandir.

1993-yil 4-yanvarda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Toshkentda uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda Markaziy Osiyo Hamdo‘stligi tuzildi. 2017-

yilda Prezident Shavkat Mirziyoev O‘zbekistonning yangi mintaqaviy siyosatiga asos soldi, bu bilan O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatida yangi davr boshlandi. Prezident Shavkat Mirziyoev hali o‘zining saylovoldi dasturidayoq O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida Markaziy Osiyo asosiy ustuvor yo‘nalish ekanini ilgari surgan edi.

O‘zbekistonning pragmatik va konstruktiv siyosati natijasida Mvarkaziy Osiyoda qisqa vaqt ichida yangicha siyosiy vogelik shakllandi. Mintaqadavlatlari o‘rtasidagi munosabatlar manfaatlarni o‘zaro hisobga olish va hurmat qilish, ochiqlik va ishonch bilan sifatlana boshladi. Shuning uchun ham BMT singari nufuzli xalqaro tashkilotda O‘zbekistonning qo‘shni mamlakatlarga nisbatan yangicha bo‘lgan ochiq va yaxshi qo‘shnichilik siyosati ijobiy baholandi va hatto mintaqaviy bahslarni hal etishda O‘zbekiston tajribasidan foydalanish taklifi ham bildirildi.

Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarning iliqlashishi esa, birinchi navbatda, oddiy odamlar hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Prezident Shavkat Mirziyoevning siyosiy irodasi va tashabbusi bilan O‘zbekistonning yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini o‘rnatishda mintaqaviy faolligi kuchaymoqda. Shavkat Mirziyoev qisqa vaqt ichida Turkmaniston, Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘iziston bilan o‘zaro ishonch va do‘stlikka asoslanga aloqalarni mustahkamlashga, mavjud bo‘lib kelgan muammolarni o‘zaro hurmat va konstruktiv muloqot asosida hal etishga katta hissa qo‘shmoqda. Uning tashabbusi mintaqadagi integratsiya jarayonlari uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochishga xizmat qiladi. Ayni vaqtda mazkur yo‘lda dastlabki, ammo juda muhim qadamlar tashlaganayotganligini ham qayd etish zarur. Zero Prezident Shavkat Mirziyoev: “20 yillik qalin muz eritilishi kerak. Shundan so‘ng konstruktiv qo‘shnichilik munosabatlarini tiklasa bo‘ladi. Bu vaqt talab etadi, bu esa oson emas”, deb ta’kidlagan edi.

So‘nggi yillarda oliy darajadagi uchrashuvlar muntazamlik kasb etib, ularda o‘zaro munosabatlarni rivojiga xalal berib kelayotgan chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya masalalari bo‘yicha kelishuvlarga kelindi.

O‘zbekiston – Qozog‘iston. O‘zbekistonning Qozog‘iston bilan munosabatlari Markaziy Osiyoda o‘zaro tinchlik, yaqin qo‘sningchilik munosabatlari yanada rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston uchun Qozog‘iston Markaziy Osiyodagi muhim hamkorlardan sanaladi. Zero qardosh o‘zbeklar va qozoqlar ming yillardan beri birgalikda yashab keladilar. Hozirda Qozog‘istonda 710 000 o‘zbek millatiga mansub kishilar yashashadi. 136 ta maktabda (bundan 14 tasi to‘liq o‘zbek maktablari) o‘zbek tilida ta’lim beriladi. O‘zbekistonda esa 1 milliondan ortiq qozoqlar yashaydi. 398 ta maktabda qozoq tilida ta’lim beriladi.

O‘zbekiston va Qozog‘istonning ikki tomonlama munosabatlari 1992-yil iyundagi O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma asosida olib borildi. Hozirgacha O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi hamkorlik bo‘yicha ikki tomonlama xususiyatga ega bo‘lgan 200 hujjat imzolangan. O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi Abadiy do‘stlik shartnomasi (1998) va Strategik sheriklarik to‘g‘risidagi shartnoma (2013) ulardan eng asosiyalaridir. 2017 yil martda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Qozog‘istonga davlat tashrifi ikki davlat munosabatlarini yuqori pog‘onaga ko‘tardi.

Xullas, O‘zbekiston – Qozog‘iston hamkorligi tobora kengayib bormoqda. 2018 yilda mamlakatlar o‘rtasida tovar aylanmasi taxminan 50 foizga o‘sib, 3 mlrd AQSh dollariga etdi. 2020 yilda esa o‘zaro savdo hajmi 5 milliard AQSh dollariga etishi kutilmoqda.

Keyingi yillarda Qozog‘iston va O‘zbekiston o‘rtasida madaniy aloqalar ham jadal rivojlanmoqda. 2018-yilda Qozog‘istonda O‘zbekiston yili va 2019-yilda esa O‘zbekistonda Qozog‘iston yili o‘tkazildi.

O‘zbekistonning – Qирғизистон. O‘zbekistonning Qирғизистон bilan aloqalari 1993-yilda o‘rnatilgan diplomatik munosabatlarga borib taqaladi. Uch yildan keyin esa ikki davlatlar o‘rtasida Mangu do‘stlik shartnomasi imzolangan. Ikki tomonlama hamkorlikda 1992-yilda tuzilgan O‘zbekiston bilan Qирғизистон o‘rtasida do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro yordam haqida shartnoma, 1993-yilda

imzolangan 1994–2000-yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish to‘g‘risida Bayonot muhim ahamiyat kasb etdi.

2017-yildan esa O‘zbekiston va Qирг‘изистон munosabatlariда yangi tarixiy davr boshlandi, mavjud muammolar konstruktiv echimga ega bo‘lib borib yaqin qo‘shnichilik munosabatlari sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi. 2017-yil sentyabrda Prezident Shavkat Mirziyoevning Qирг‘изистonga rasmiy safari bo‘lib, unda ikki davlat chegaralari xususida bitim imzolandi. Etti yil yopilib yotgan chegara postlari ochildi. 2017-yil 13-dekabrda esa Qирг‘изистон Prezidenti Sooranbay Jeenbekov O‘zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi. Unda 140 million dollarlik shartnomalar, shuningdek, moliyaviy hamkorlik to‘g‘risidagi bitim va 2018-2021 yillarga mo‘ljallangan savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va gumanitar hamkorlik to‘g‘risidagi dastur imzolandi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston – Qирг‘изистон o‘rtasida savdo hajmi ortib, elektrotexnika, qurilish materiallari sanoati va boshqa sohalarda qo‘shma kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston va Qирг‘изистон o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi ortib bormoqda. 2017-yilning yanvar–noyabrь oylarida o‘zaro savdo ko‘rsatkichlari 56 foizdan ziyodga o‘sib, 235 million dollarga etdi. Yaqin yillarda esa uning hajmini 500 million dollarga etkazish mo‘ljallanmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston – Qирг‘изистон – Xitoy temir yo‘l liniyasini qurish loyihasi ishlab chiqilmoqda.

2018-yilda Toshkent va Samarqandda Qирг‘изистон madaniyati va san’ati kunlari o‘tkazildi. O‘zbekistonda atoqli qirg‘iz adibi Chingiz Aytmatov tavalludining 90 yilligi keng nishonlandi. O‘sh shahrida esa ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy nomidagi maktab ochildi.

O‘zbekiston – Tojikiston. O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasida esa 1992-yil 22-oktyabrda diplomatik munosabatlар o‘rnatilgan. O‘zbekiston o‘zining tashqi siyosatida, avvalo, qo‘shni davlatlar, xususan, Tojikiston bilan do‘stlik, yaqin qo‘shnichilik munosabatlari muhim ahamiyatga egadir. O‘zbek va tojik xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik munosabatlari esa tarixiy ildizlarga ega. O‘zbek va tojik xalqlarini umumiylar tarix va o‘xshash an‘analar va qon-qardoshlik iplari bog‘lab

turadi. Prezident Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, “O’zbek va tojik xalqlari bir daraxtning ikki shoxi, bir daryoning ikki irmog‘iga o‘xshaydi. Bizning muqaddas dinimiz, erimiz va suvimiz bir. Quvonchu tashvishlarimiz, taqdirimiz mushtarak. Ajdodlarimizning ezgu an’analarini davom ettirib, xalqlarimiz do’stligini mustahkamlashimiz va asrab-avaylashimiz kerak”.

O’zbekistonda tojik millatiga mansub nufusi 1,5 millionga yaqin kishi yashaydi. Respublika tojik milliy madaniyat markazining joylarda 10 ta filiali faoliyat yuritadi. 245 umumta’lim maktabida ta’lim tojik tilida olib boriladi. Tojik tilida chop etilayotgan 4 davriy bosma nashr mavjud, o’nlab teleko’rsatuv va radioeshittirishlar efirga uzatilmoqda.

2017-yil O’zbekiston va Tojikiston munosabatlarida tub burilish bo’ldi. Shu yilning aprelida Dushanbeda ilk bor O’zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlar ko’rgazmasi o’tkazildi va 25 yillik tanaffusdan keyin Dushanbe va Toshkent o’rtasidagi aviareyslar qayta tiklandi. 2017-yil mayda esa birinchi marta Tojikistonda O’zbekiston madaniyati kunlari bo’lib o’tdi.

Prezident Sh.Mirziyoevning 2018-yil 9-10 martda Tojikistonga davlat tashrifi O’zbekiston va Tojikiston munosabatlari tarixida yangi zarhal sahifa ochdi. Tashrif Tojikiston – O’zbekiston munosabatlari qayta tiklandi, barcha sohalardagi aloqalar rivojlanishiga kuchli turtki bo’ldi, uning natijasida o’zaro hamkorlikni siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, energetika va boshqa etakchi sohalarda rivojlantirishga doir jami 27 hujjat imzolandi. Ayni vaqtida O’zbekiston – Tojikiston hamkorligi Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlik o’rnatalishining muhim omillaridan bo’lmoqda.

2018-yil 17-avgustda Tojikiston Respublikasining Prezidenti Emomali Rahmonning O’zbekistonga davlat tashrifi natijasida ikkala mamlakat o’rtasida qisqa muddatda o’rnatalgan mustahkam hamkorlik va konstruktiv muloqot yanada mustahkamlandi va natijada keyingi vaqtida mamlakatlarimiz o’rtasida tovar aylanmasi o’sib bormoqda. 2018-yilning birinchi yarmida o’zaro savdo hajmi 35,1 foiz ortdi. O’zbekistonda Tojikiston kapitali ishtirokida 39 korxona, Tojikistonda esa o’zbekistonlik sarmoyadorlar tuzgan 8 korxona faoliyat yurgizmoqda. 2018 yil

apreldan O‘zbekistondan Tojikistonga tabiiy gaz etkazib berish tiklandi. Tojikistondan esa elektr energiyasini sotib olish hajmi ortmoqda.

O‘zbekiston – Turkmaniston. O‘zbekiston va Turkmaniston munosabatlari asosida ikkala mamlakatning tub manfaatlari yotibdi. O‘zbekiston uchun Turkmaniston jahon bozoriga eng qisqa yo‘lni ochadi. O‘zbekiston dunyo dengizlari va okeanlariga eng yaqin yo‘l Turkmaniston orqali o‘tadi. Uning hududlari orqali 600–700 km yo‘l hisobiga Eron portlariga chiqish mumkin va bu omil O‘zbekiston transport-logistikasini yuqori darajaga ko‘taradi, uning samaradorligini oshiradi. Ya’ni, O‘zbekiston o‘zining sanoat va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini, avtomobillarini jahon bozoriga chiqarish uchun Turkmaniston orqali o‘tadigan temir yo‘ldan faol foydalanishi mumkin. O‘zbekiston uchun Turkmaniston orqali o‘tuvchi avtomobil yo‘llari ham juda qulay. Eron portlariga avtomobil yo‘llari orqali 24 soatda etib borish mumkin. Shuningdek, O‘zbekiston Turkmanistonning gazni qayta ishslash, agrosanoat, kimyo sanoati sohalariga chuqurroq kirib borish salohiyatiga ega.

Turkmaniston uchun esa O‘zbekiston Markaziy Osiyoda katta salohiyatga ega davlat, yirik bozor sifatida qiziqish uyg‘otadi. Turkmaniston mintaqada aholisi eng ko‘p bo‘lgan (33 million) bo‘lgan O‘zbekiston uchun yangi mehnat bozori vazifasini o‘tashi mumkin. Xullas, O‘zbekiston va Turkmaniston orasida savdo-iqtisodiy, tranzit, ilmiy-texnikaviy va boshqa sohalardagi aloqalarni rivojlantirish imkoniyatlari juda kengdir.

1991-yilda O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risida shartnoma imzolandi. 1996-yil yanvarda ikki davlat o‘rtasida do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro yordam to‘g‘risidagi shartnoma tuzildi. 1991-yildan to 2016-yilgacha O‘zbekiston va Turkmaniston davlat rahbarlarining 11 marta oliv darajadagi uchrashuvlari bo‘lib o‘tdi.

2017-yil O‘zbekiston va Turkmaniston munosabatlarida tarixiy yil bo‘ldi. Prezident Sh.Mirziyoevning O‘zbekiston Prezidenti sifatida ilk xorijiy tashrifi 2017-yil 6-7 martda Turkmanistonga bo‘ldi. O‘zbekiston Prezidenti Turkmanistonga uch marotaba tashrif buyurdi. O‘zbekiston va Turkmaniston

Prezidentlarining o‘zaro manfaatli va faol muloqotining davomi sifatida 2018 yil 23 aprelda Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi va uning dorasida savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish masalalariga doir 20 ga yaqin hujjat imzolandi. O‘z navbatida ikki tomonlama bunday tashriflar ikkala mamlakatning strategik darajadagi o‘zaro munosabatlari yuqori sur’at baxsh etdi. Shu bois faqat 2018-yilning birinchi choragida mamlakatlar o‘rtasida tovar ayirboshlash 55 foizga o‘sdi, 2020-yilda esa tovar ayirboshlash hajmi 500 million dollarga etishi mo‘ljallanmoqda.

O‘zbekistondan Turkmanistonga qishloq xo‘jaligi texnikasi, sarxil va qayta ishlangan meva-sabzavotlar, mineral o‘g‘itlar, qurilish materiallari, kimyo, sanoat, tekstil mahsulotlari eksport qilinadi. Turkmanistondan O‘zbekistonga neft va neft mahsulotlari, mexanik uskunalar, polimyerlar va boshqa kimyo sanoati mahsulotlari keltiriladi. O‘zbekiston va Turkmaniston aloqalari energetika sohasida ham kuchaymoqda. Mamalakatimiz Turkmaniston – O‘zbekiston – Qozog‘iston – Xitoy gaz quvuri energetik loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirokchisidir.

O‘zbek – turkman munosabatlari gumanitar sohada ham keng rivojlanib bormoqda. Yaqin vaqtdan O‘zbekiston olivy ta’lim muassasalarida Turkmanistondan ko‘plab yoshlar tahsil olishmoqda. Mamlakatimizda turkman madaniyatining rivoji uchun keng sharoitlar yaratilgan, 44 mакtabda ta’lim turkman tilida olib boriladi. 2017-yil mayda Toshkent shahri ko‘chalaridan biriga Maxtumquli nomi berildi, Maxtumquli me’moriy yodgorligi va “Ashxobod saylgohi” barpo etildi.

Xulosa sifatida aytganda, O‘zbekistonda tarixan qisqa vaqtida xalqaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish borasida ulkan o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. O‘zbekistonning tinchliksevar, yaxshi qo‘shnichilikka asoslangan tashqi siyosati esa xalqaro jamoatchilik tomonidan keng e’tirof etilmoqda.

Savollar va topshiriqlar

- 1.O‘zbekistonning geosiyosiy va geostrategik imkoniyatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?
- 2.O‘zbekistonning tashqi siyosati qanday tamoyillarga qurilgan?
3. O‘zbekiston qaysi xalqaro tashkilotlarning a’zosi?
- 4.O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida strategik sherikchilik munosabatlarini izohlang.
O‘zbek – Xitoy aloqalari qaysi sohalarda olib borilmoqda?
- 6.O‘zbekistonning MDH mamlakatlari bilan aloqalari qanday tamoyillarga qurilgan? O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilang.
- 7.O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida strategik sherikchilik munosabatlari qanday tamoyillarga asoslangan.
- 8.O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro hamkorlik samarasi qaysi sohalarda namoyon bo‘lmoqda?
9. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018-yil 15-17 mayda AQShga rasmiy tashrifida qanday kelishuvlarga kelindi va shartnomalar imzolandi?
10. 2017-yil 19-sentyabrda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqining tarixiy ahamiyatini yoriting.

Muhim tarixiy voqealar

1,2 – 1 million yil avval – O‘rta Osiyoda ilk paleolit (qadimgi tosh davri). Seleng‘ur g‘ori (Farg‘ona vodiyi) dan topilgan tosh qurollar va ibtidoiy odam qoldiqlari.

700 – 600 ming yilliklar – 40-ming yilliklar – Ko‘lbuloq makoni (Toshkent viloyati) – qadimgi tosh davri yodgorligi.

100 – 40 ming yilliklar – O‘rta paleolit (inson olovdan foydalanishni o‘rgandi) – muste davri. Neandertal odam yashagan davr.

12 – 7 ming yilliklar – Mezolit (O‘rta tosh) davri.

Miloddan avvalgi 6 – 3 ming yilliklar – Joytun madaniyati. Qadimgi ziroatkorlar va chorvadorlarning dastlabki makonlari. Ishlab chiqarish xo‘jadligiga o‘tish.

Miloddan avvalgi 4 – 3 ming yillik o‘rtalari – Eneolit (mis-tosh davri). Namozgohtepa (Turkmaniston), Sarazm (Tojikiston).

Miloddan avvalgi 3 – 2 ming yilliklar Jez davri. G‘ildirak va kulolchilik charxining vujudga kelishi.

Miloddan avvalgi 2-ming yillik – O‘zbekiston hududida ziroatchilik vujudga kelishi, xom g‘isht va paxsadan uy-joylar qurilishi.

Miloddan avvalgi IX – VIII asrlar Temir davriga o‘tish. Avestoning eng qadimgi qismlarining yaratilishi.

Miloddan avvalgi VIII – VII asrlar — Qadimgi Xorazm va Baqtriya davlatlarining vujudga kelishi

Miloddan avvalgi 530 – 329 yillar — O‘rta Osiyo Eron ahomaniylari hukmronligi ostida.

Miloddan avvalgi 329-yil — Makedoniyalik Aleksandrning O‘rta Osiyoga yurishi.

Miloddan avvalgi 329 – 327 yillar — Spitamen boshchiligidagi yunon-makedon bosqinchilariga qarshi kurashi.

Miloddan avvalgi 312 – 250 yillar — O‘rta Osiyoda Salavkiylar hukmronligi.

Miloddan avvalgi 250 – 140 yillar — Yunon – Baqtriya davlati mavjud bo‘lgan davr.

Miloddan avvalgi III – II asrlar — Qang‘ davlatining tashkil topishi, rivojlanishi

Miloddan avvalgi 175 – 140 yillar — Qang‘ davlatining So‘g‘d va Shoshni qo‘sib olishi.

Miloddan avvalgi III – I asrlar — Davan (Farg‘ona) davlatining tashkil topishi, rivojlanishi.

Miloddan avvalgi I milodiy IV asrlar — Kushonlar davlati mavjud bo‘lgan davr.

305-yil — Xorazmda Afrig‘iyalar sulolasasi hukmronligining o‘rnatalishi.

V – VI asrlar — eftallar sulolasasi hukmronligi.

551 – 715 yillar — O‘rta Osiyo Turk hoqonligi tarkibida.

VI asrning 80-yillari — Turk hoqonligining g‘arbiy va sharqiy qismlarga bo‘linib ketishi.

VII asrning ikkinchi yarmi — Arablarning O‘rta Osiyoga harbiy yurishlari.

704 – 715 yillar — Arab sarkardasi Qutayba ibn Muslimning Movarounnahrni zabitishi.

769 – 783 yillar — Muqanna qo‘zg‘oloni.

806-yil — Rof’e ibn Lays qo‘zg‘oloni.

821 – 873 yillar — Xurosonda Tohiriyalar sulolasasi hukmronligi.

864 – 888 yillar — Movarounnahrda Nasr ibn Ahmad Somoniy hukmronligi.

873 – 900 yillar — Xurosonda Safforiylar hukmronligi

888 – 907 yillar — Ismoil Somoniy hukmronligi.

977 – 997 yillar — Sobuqteginning G‘aznaga hukmronligi

995-yil – Xorazmda Afrig‘iyalar sulolasining tugatilishi.

995 – 997 yillar — Xorazmda Ma’mun ibn Muhammad hukmronligi.

999 – 1005-yillar — Buxoroning Bug‘roxon tomonidan zabit etilishi.

Movarounnahrda Qoraxoniylar hukmronligining o‘rnatalishi

998 – 1030 yillar — Mahmud G‘aznaviy hukmronligi

999 – 1017 yillar — Xorazmda Abdul Abbos Ma’mun ibn Ma’mun hukmronligi.

1043-yil — Saljuqiylar tomonidan Xorazmning bosib olinishi.

XII asr birinchi yarmi Qoraxitoylarning Movarounnahrga bostirib kirishi.

1118 – 1157 yillar Sulton Sanjar hukmronligi

1127 – 1156 yillar — Xorazmshoh Otsiz ibn Qutbiddin Muhammad hukmronligi.

1141-yil — Katvon cho‘lida Sulton Sanjar qo‘shinlarining qoraxitoylar tomonidan tor-mor qilinishi.

1156 – 1172 yillar — Xorazmshaoh Elarslon hukmronligi

1172 – 1200 yillar — Xorazmshaoh Takash ibn Elarslon hukmronligi

1200 – 1220 yillar — Muhammad Xorazmshaoh hukmronligi

1219-yil — Chingizzonning O‘rta Osiyoga yurishi

1219 – 1220 yillar — Mo‘g‘ullar tomonidan O‘tror, Buxoro va Samarqand shaharlarining bosib olinishi. Temur Malik tomonidan Xo‘jand shahrining mudofaa qilinishi

1221-yil — mo‘g‘ullar tomonidan Termiz, Balx, Urganch shaharlari, Xuroson va Afg‘onistonning zabit etilishi.

1220 – 1231 yillar — Xorazmshaoh Jaloliddin Manguberdining mo‘g‘ullarga qarshi kurashi.

1238-yil — Buxoroda Mahmud Torobiy qo‘zg‘oloni.

1238 – 1289 yillar — Mas‘ud Yalavochning Movaraunnahrga noibligi.

1337-yil — Xurosonda sarbadorlar harakatining boshlanishi

1358 – 1361 yillar — Mo‘g‘uliston xoni Tug‘luq Temurning Movarounnahrga yurishi

1365-yil — Ilyosxo‘janing Movarounnahrga yurishi.

1365 – 1366 yillar — Samarqandda sarbadorlar qo‘zg‘oloni.

1370 – 1405 yillar — Amir Temur hukmronligi.

1386 – 1389 yillar — Amir Temurning Eronga (uch yillik) yurishi

1389-yil — Amir Temurning To‘xtamishga qarshi yurishi.

1391-yil — Qunduzcha yonidagi jang.

1392 – 1396 yillar — Amir Temurning besh yillik yurishi.

1394 – 1395 yillar — Amir Temurning To‘xtamishga qarshi uchinchi yurishi.

1398-yil — Amir Temurning Hindistonga yurishi.

1398 – 1404 yillar Amir Temurning etti yillik yurishi.

1402-yil — Anqara jangi

1405 yil — Amir Temurning vafoti.

1409 – 1449 yillar — Mavarounnahrda Ulug‘bek hukmronligi.

1417-yil — Ulug‘bekning Buxoroda madrasa qurdirishi.

1417 – 1425 yillar — Samarqandda Ulug‘bek madrasasining qurilishi.

1428 – 1429 yillar — Ulug‘bek rahbarligida Samarqand rasadxonasing bunyod etilishi.

1441 – 1501 yillar — Alisher Navoiyning hayoti va faoliyati.

1449-yil — Mirzo Ulug‘bekning fojiali vafoti.

1451 – 1469 yillar — Xuroson va Mavarounnahrda Abusaid Mirzo hukmronligi.

1469 – 1594 yillar — Mavarounnahrda Sulton Ahmad Mirzo hukmronligi.

1483 – 1530 yillar — Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati.

1500 – 1501 yillar — Shayboniyxonning Samarqand va Buxoroni egallashi.

1507-yil — Shayboniyxonning Hirotni egallashi.

1510-yil — Shayboniyxonning Eron ўzohi Ismoil I bilan to‘qnashuvi va halok bo‘lishi.

1510 – 1530 yillar — Ko‘chkunchixon hukmronligi.

1511-yil — Xorazm xonligining tashkil topishi.

1533 – 1539 yillar — Ubaydullaxon hukmronligi.

1539-yil — Ubaydullaxonning Xorazmni egallashi.

1557 – 1598 yillar — Abdullaxon II hukmronligi

1598 – 1601 yillar — Shayboniylar sulolasining so‘nggi vakillari Abdulmo‘min va Pirmuhammad II hukmronligi.

1601 – 1605, 1605 – 1661 yillar — Boqimuhammad va Valimuhammad hukmronligi.

1602 – 1623 yillar — Xorazmda Arab Muhammad hukmronligi.

1611 – 1642 yillar — Buxoro xonligida Imomqulixon hukmronligi.

1613-yil — Toshkentda Imomqulixonga qarshi qo‘zg‘oloni.

1613 – 1619 yillar — Samarqandda Sherdor va Tillakori madrasalarining qurilishi.

1616-yil — Xivada Arab Muhammad madrasasining qurilishi.

1623 – 1642 yillar — Xorazmda Isfandiyorxon hukmronligi.

1643 – 1663 yillar — Xivada Abdulg‘oz I hukmronligi.

1645 – 1681 yillar — Buxoroda Abdulazizzon hukmronligi.

1663 – 1687 yillar — Xivada Anushaxon hukmronligi.

1681 – 1702 yillar — Buxoroda Subxonqulixon hukmronligi.

1688 – 1702 yillar — Xivada Shohniyoz hukmronligi.

1702 – 1711 yillar — Buxoroda Ubaydullaxon II hukmronligi.

1702 – 1714 yillar — Xiva xonligida Arab Muhammad II hukmronligi.

1708 – 1709 yillar — Samarqand va Buxoroda xalq qo‘zg‘olonlari.

1710-yil — Shohruhbiy tomonidan Farg‘ona vodiysida o‘zbeklarning ming urug‘i hukmronligidagi davlatga asos solinishi.

1711 – 1747 yillar — Buxoroda Abulfayzxon hukmronligi.

1740-yil — Eron shohi Nodirshohning O‘rta Osiyoga yurishi.

1753 – 1758 yillar — Buxoroda Muhammad Rahimbiy hukmronligi.

1770 – 1790 yillar — Muhammad Ali Inoqning Xivada hokimiyatga kelishi.

1785 – 1800 yillar — Buxoroda amir Shohmurod hukmronligi.

1798 – 1810 yillar — Qo‘qonda Olimxon hukmronligi.

1800 – 1825 yillar — Buxoroda Amir Haydar hukmronligi.

1804 – 1806 yillar — Xivada Eltuzarxon hukmronligi.

1806 – 1825 yillar — Xivada Muhammad Rahim I hukmronligi.

1822 – 1842 yillar — Qo‘qonda Muhammadalixon (Madalixon) hukmronligi.

1826 – 1860 yillar — Buxoroda amir Nasrullo hukmronligi.

1842-yil — Amir Nasrulloning Qo‘qonni bosib olishi.

1864 – 1910 yillar — Xorazmda Muhammad Rahimxon II (Feruz) hukmronligi.

1845 – 1858 yillar — Qo‘qon xoni Xudoyorxonning birinchi hukmronlik davri.

1853-yil — Oqmachit istehkomining ruslar tomonidan egallanishi.

1855 – 1856 yillar — Qoraqalpoqlar qo‘zg‘oloni.

1858 – 1862 yillar — Qo‘qonda Mallaxon hukmronligi.

1860 – 1885 yillar — Buxoroda Amir Muzaffar hukmronligi.

1862 – 1863 yillar — Qo‘qonda Xudoyorxonning ikkinchi marta taxtga kelishi.

1864-yil — Rus qo‘shinlarining Avliyoota, Turkiston va Chimkent shaharlarini bosib olishi.

1865-yil 17-iyun — general Chernyaev tomonidan Toshkentning bosib olinishi.

1866 – 1875 yillar Qo‘qonda Xudoyorxonning uchinchi marta hukmronligi.

1866-yil 2 – va 18 – oktyabr — rus mustamlakachilari tomonidan O‘ratepa va Jizzaxning bosib olinishi.

1867-yil 11-iyul — Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi.

1868-yil 2-iyun — Buxoro amiri qo‘shinlarining Zirabuloqdagi mag‘lubiyati.

1868-yil 23-iyun — Buxoro bilan Rossiya o‘rtasidagi tuzilgan bitimga ko‘ra Buxoroning qaram davlatga aylantirilishi.

1868-yil — Toshkentda birinchi tipografiya va litografiyaning ishga tushirildi.

1870-yil — Toshkentda Turkiston ommaviy kutubxonasining ochilishi

1873-yil 18-sentyabr — Pomirga tutash bekliklarni Buxoro ixtiyoriga o‘tkazish haqida Rossiya va Buxoro o‘rtasida shartnomaga tuzildi.

1873-yil 29-may — Rossiya imperiyasi tomonidan Xivaning bosib olinishi.

1873-yil 12-avgust — Xiva xonligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasida Gandimiyon shartnomasining imzolanishi.

1873 – 1876 yillar — Farg‘ona vodiysida Po‘latxon qo‘zg‘oloni.

1876-yil 19-fevral — Qo‘qon xonligining tugatilishi.

1881-yil — Kaspiyorti viloyatining tashkil etilishi.

1885 – 1910 yillar — Buxoroda Said Abdulahad hukmronligi.

1886-yil — Farg‘onada birinchi paxta tozalash zavodining qurilishi.

1888-yil — Temir yo‘l Samarcandgacha etkazilgan.

1891 – 1892 yillar Turkistonga rus dehqonlarining ommaviy ko‘chirib keltirilishi.

1892-yil iyun — Toshkent qo‘zg‘oloni

1894-yil — Buxoroda birinchi rus-tuzem maktabining ochilishi.

1895 – 1899 yillar — Samarcand – Andijon temir yo‘lining qurilishi.

1899-yil — Andijon va Yangi Marg‘ilon temir yo‘l shoxobchalari va Samarcand – Toshkent temir yo‘lining ishga tushirilishi.

1890 – 1906 yillar — Toshkent – Orenburg temir yo‘lining qurilishi.

1900-yil — Mirzacho‘lda yangi yerlar o‘zlashtirilishining boshlanishi.

1906-yil — Toshkent temir yo‘lining ishga tushirilishi. O‘rta Osiyo va Orenburg temir yo‘llarining qo‘shilishi.

1907-yil 17-aprel — Toshkentda ikkinchi Davlat Dumasiga saylovlari.

1908-yil — arxeolog V.L. Vyatkin tomonidan Ulug‘bek rasadxonasi (Samarqand) xarobalarining ochilishi.

1910 – 1920 yillar — Buxoro amirligida Said Olimxon hukmronligi.

1910 – 1911 yillar — Turkistonda mustamlaka ma’muriyati tomonidan yangi usul maktablarining ommaviy yopilishi.

1912 – 1914 yillar — Turkistonda Qo‘qon – Termiz, Qo‘qon – Andijon – Farg‘ona – Jalolobod temir yo‘llari qurilishi.

1912-yil — Gorchakovo – Skobelyev, Qo‘qon – Namangan, Kogon – Buxoro temir yo‘llari shaxobchalarining ishga tushirilishi.

1916-yil — O‘rta Osiyoda mardikorlikka qarshi xalq qo‘zg‘olonlari.

1916-yil 13–29 iyul — Jizzax qo‘zg‘oloni

1917-yil 7-fevral — Rossiyada burjua-demokratik inqilobi.

1917-yil 14-mart — Toshkentda “Sho‘roi Islomiya” tashkiloti tuzildi.

1917-yil 16-aprel — Butunturkiston musulmonlarining I qurultoyi ochildi.

1917-yil 1–2-may — Moskvada Butunrossiya musulmonlarining I Qurultoyi.

1917-yil iyun — “Shuroi Ulamo” tashkilotining tuzilishi.

1917-yil 21–31 iyul — Qozon shahrida Butunrossiya musulmonlarining II Qurultoyi.

1917-yil 17–20 sentyabr — Butunturkiston musulmonlarining II qurultoyi.

1917-yil 1(14) noyabr — Toshkentda sovet hokimiyatining o‘rnatalishi.

1917-yil 12–15 noyabr — Butunturkiston musulmonlarining III qurultoyi bo‘lib o‘tdi.

1917-yil 15–22 noyabr — Turkiston o‘lka sovetlarining III qurultoyi va unda Turkiston Xalq Komissarlari Soveti tuzildi.

1917-yil 26–27 noyabr — Qo‘qonda Turkiston musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi va unda Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishi.

1917-yil 25-dekabr — Qo‘qonda o‘lka musulmon ishchi, askar va dehkonlarining I favqulodda qurultoyi bo‘lib o‘tdi.

1918-yil 19 – 21 fevral — Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi.

1918-yil mart — Junaidxon tomonidan Xiva taxtiga Said Abdullaning o‘tqazilishi.

1918-yil mart — Buxoro-Kogon yo‘nalishida Kolesov qonli voqeasi yuz berdi.

1918-yil mart – aprel — Farg‘ona vodiysida sovet hokimiyatiga qarshi harakatning boshlanishi.

1918-yil 21-aprel — Toshkentda Turkiston Xalq universitetining ochilishi.

1918-yil 20-aprel – 1-may — Toshkentda Butunturkiston Sovetlarining V Qurultoyi va unda Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (TASSR) tuzilishi.

1918-yil iyun — Turkiston Kommunistik partiyasining tashkil etilishi.

1918-yil oktyabr — Turkiston o‘lka sovetlari IV qurultoyida TASSR birinchi Konstitutsiyasining qabul qilinishi.

1918-yil oktyabr — Junaidxonning Xorazmda hukmronligining o‘rnatalishi.

1919-yil 19-yanvar — Toshkentda Osipov isyoni.

1919-yil mart — O‘lka musulmon kommunistlari byurosi (o‘lka Musbyuro) tuzildi.

1919-yil oktyabr — Markazdan Toshkentga katta vakolatlarga ega bo‘lgan Turkkomissiya yuborildi.

1920-yil 2-fevral — Xivada xonlik hokimiyati ag‘darildi.

1920-yil 27 – 30 aprel — Butunxorazm xalq vakillari I qurultoyi Xorazm Xalq Soviet Respublikasining tuzilishi.

1920-yil 2-sentyabr — Buxoroda amirlik hokimiyati ag‘darildi.

1920-yil 13-sentyabr — RFederatsiyasi hukumati bilan XXSR o‘rtasida ittifoq shartnomasi tuzildi.

1920-yil 6 – 8 oktyabr — Butunbuxoro xalq vakillari I qurultoyi, Buxoro Xalq Soviet Respublikasining tuzilishi.

1921-yil 4-mart — Moskvada BXSR bilan RSFSR o‘rtasida ittifoq shartnomasi imzolandi.

1921-yil — Tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish va o‘rgansh ishi bo‘yicha Turkiston qo‘mitasi tashkil qilindi.

1921 – 1922 yillar — Turkiston ASSRning Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqand viloyatlarida dastlabki yer - suv islohoti o‘tkazildi.

1922-yil 30 – 31 dekabr — Moskvada Butunittifoq sovetlarining I s’ezdi. SSSR tuzish to‘g‘risidagi Deklaratsiya va ittifoq Shartnomasi imzolanishi.

1923-yil 5 – 9 mart — Toshkentda O‘rta Osiyo Respublikalarining I iqtisodiy konferensiyasi bo‘ldi. Unda O‘rta Osiyo iqtisodiy Kengashi (Sredazbyuro) tuzildi.

1924-yil — O‘rta Osiyoda milliy-davlat chegaralanishi.

1924-yil 27-oktyabr — O‘zbekiston Sovet Sotsial istik Respublikasi tuzildi.

1925-yil 6–12 fevral — O‘zbekiston kompartiyasining I ta’sis s’ezdi.

1925-yil 13-fevral — Buxoroda “O‘zbekiston Sovet Sotsial istik Respublikasi tuzilganligi to‘g‘risidagi Deklaratsiya”ning qabul qilinishi.

1925-yil may — O‘zbekiston SSR SSSR tarkibiga kiritildi.

1928-yil — Arab imlosi asosidagi o‘zbek yozuvidan lotin yozuviga o‘tish.

1933-yil — Toshkent observatoriyasining tashkil etilishi.

1937-yil — Moskvada I o‘zbek san’ati va adabiyoti dekadasi bo‘lib o‘tdi.

1939-yil — Farg‘ona kanalining qurilishi.

1940-yil — O‘zbekistonda lotin yozuvidagi alfavitdan kirillitsa yozuviga o‘tildi.

1940-yil 9-yanvar — O‘zbekiston davlat Fan qo‘mitasi SSSR FANing filialiga aylantirilishi.

1941-yil 22-iyun — fashistlar Germaniyasining SSSRga bostirib kirishi.

1943-yil 4 noyabr — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining tashkil etilishi.

1944-yil mart — Bekobodda O‘zbekiston metallurgiya zavodining ishga tushirilishi.

1944-yil — chechenlar, ingushlar, qrim-tatarlari, mesxeti turklari, pont greklari O‘zbekistonga ko‘chirib keltirildi.

1945-yil 7-may — Bekobod shahri tashkil topdi.

1951-yil 10-iyul — Olmaliq shahri tashkil topdi.

1953 yil 22-sentyabr — Taxiatush shahri bunyod etildi

1956-yil 5-noyabr — Toshkent televizion markazi ishga tushdi.

1959-yil — Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi.

1958–1960-yillar — Jarqoq – Buxoro – Samarqand – Toshkent gaz quvuri qurilishi.

1961-yil 8-may — Guliston shahrining bunyod etilishi

1961–1965-yillar — Buxoro – Ural gaz quvuri qurilishi.

1962-yil — Navoiy-Uchquduq temir yo‘lining qurilishi.

1962-yil — Jizzax-Mehnat temir yo‘li qurilishi.

1964–1966-yillar — Muborak –Toshkent – Chimkent – Bishkek – Almata gaz quvuri qurilishi.

1964-yil — Navoiy kimyo kombinati (2002-yildan “Navoiyazot” AJ) ishag tushirilishi.

1964-yil — Toshkenda “Yulduz” tikuvchilik kombinatining ishga tushishi.

1964 – 1967 yillar — Qashqadaryo viloyatida Pachkambar muv omborining qurilishi.

1965-yil — Chordara suv omborining qurilishi.

1966-yil — O‘rta Osiyoda birinchi bo‘lib Kibernetika institutining ochilishi.

1966-yil — Toshkenda Seysmologiya institutining tashkil etilishi.

1966-yil — Taxiatush gidrouzelining qurilishi.

1967-yil — Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyining tashkil etilishi.

1972-yil 20-iyul — Zaravshon shahrining tuzilgan vaqtı.

1977-yil 6-noyabr — Toshkent metrosining Chilonzor yo‘nalishi ishga tushirildi.

1978-yil 19-aprel — O‘zbekiston SSR yangi Konstitutsiyasi qabul qilinishi.

1978–1979 yillar — Toshkentda balandligi 350 metrli televizion minora qurilishi.

1979-yil — O‘zbekiston FA “Kibernetika” ishlab chiqarish birlashmasining tashkil etilishi.

1989-yil 23-iyun — Islom Karimovning O‘zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Qo‘mitasi birinchi kotibi etib saylanishi.

1989-yil 21-oktyabr — O‘zSSR Oliy Kengashi “O‘zbekiston SSR ning Davlat tili to‘g‘risida” Qonunning qabul qilinishi.

1989-yil 1-dekabr — “Qoraqalpog‘iston ASSR davlat tili to‘g‘risida” Qonun qabul qilinishi.

1990-yil 24-mart — O‘zbekiston SSRda Prezident lavozimining ta’sis etilishi.

1990-yil 24-mart — Islom Karimov O‘zbekiston SSR Oliy Sovet sessiyasida Prezident lavozimiga saylanidi.

1990-yil 20 iyun — O‘zSSR Oliy Soveti “Mustaqillik Deklaratsiyasi”ni qabul qildi.

1990-yil 14-dekabr — Qoraqalpog‘iston Oliy Sovetida “Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat suvereniteti to‘g‘risida Deklaratsiya” qabul qilinishi.

1991-yil 31-avgust — O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e’lon qilindi, “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida” konstitutsiyaviy Qonun qabul qilindi.

1991-yil 1-sentyabr — O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni.

1991-yil 1-noyabr — O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining tashkil topishi.

1991-yil 18-noyabr — O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i qabul qilindi.

1991-yil 29-dekabr — O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida referendum o‘tkazildi.

1991-yil 29-dekabr — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti etib I.A.Karimovning saylanishi.

1991-yil dekabr — MDH tuzilishi.

1992-yil yanvar — O‘zbekistonda hokimlik institutining ta’sis etilishi.

1992-yil 28-yanvar — “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy kompaniyasining tashkil etilishi.

1992-yil 26-fevral — O‘zbekiston EXHT ga a’zo bo‘lishi.

1992-yil 28-fevral — Prezident farmoni bilan 8 ta viloyat pedagogika institutlarining universitetlarga aylantirilishi.

1992-yil 2-mart — O‘zbekiston Respublikasining BMTga qabul qilinishi.

1992-yil 16-mart — Toshkentda AQSh elchixonasining ochilishi.

1992-yil 2-iyul — O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi qabul qilinishi.

1992-yil 8-dekabr — O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining qabul qilinishi.

1992-yil 10-dekabr — O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining qabul qilinishi.

1993-yil 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni.

1993-yil sentyabr — Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi nishonlanishi.

1993-yil oktyabr — Toshkentda BMT vakolatxonasi ochilishi.

1993-yil 29-oktyabr O‘zbekiston YuNESKO ga a’zo bo‘lishi.

1994-yil aprel — Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazining tashkil etilishi.

1994-yil 30-aprel — O‘rta Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyati tashkiloti tashkil topdi.

1994-yil 5-may “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni, “Mustaqillik” ordeni ta’sis etilishi.

1994-yil 1-iyul O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so‘mning muomalaga kiritilishi.

1994-yil 1-sentyabr — GFR poytaxti Bonnda O‘zbekistonning Yevropada birinchi elchixonasi ochilishi.

1994-yil oktyabr — Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi jahon miqyosda nishonlanishi.

1994 yil 25-dekabr — O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov.

1995-yil 18-fevral — “Adolat” sotsial demokratik partiyasining tuzilishi.

1995-yil 23-fevral — Inson huquqlari bo‘yicha Oliy Majlis vakili (Ombudsman) institutining ta’sis etilishi.

1995-yil 26-mart — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolat muddatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirish bo‘yicha referendumning o‘tkazilishi.

1995-yil 3-iyun — Milliy tiklanish demokratik partiyasining tuzilishi.

1995-yil iyul — Toshkentda EXHT ning mintaqaviy byurosi ochildi.

1995-yil 21-dekabr — O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida” yangi tahrirdagi Qonuni qabul qilindi.

1996-yil yanvar — “Oltin meros” xalqaro xayriya jamg‘armasi tuzildi.

1996-yil aprel — Amur Temur tavalludining 660 yilligi jahon miqyosida nishonlanishi.

1996-yil 26-aprel — “Amir Temur” ordeni, “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni ta’sis etilishi.

1996-yil 25-iyun — O‘zbekistonning AQSh da elchixonasi ochilishi.

1996-yil iyul — O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida sherikchilik hamda hamkorlik to‘g‘risida shartnomaga tuzilishi.

1996-yil 19-iyul — “O‘zDEUavto” qo‘shma korxonasining ochilishi.

1996-yil 18-oktyabr — Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilishi.

1997-yil 9 – 10 yanvar — Bishkekda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston o‘rtasida abadiy do‘slik haqidagi shartnomaning imzolanishi.

1997-yil 22-avgust — Buxoro neftni qayta ishslash zavodining ishga tushirilishi.

1997-yil 25-avgust – 2-sentyabr — Samarqandda “Sharq taronalari” birinchi xalqaro festivalining o‘tkazilishi.

1997-yil 29-avgust — O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilinishi.

1997-yil oktyabr — Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi nishonlanishi.

1998-yil 17-avgust — “El-yurt hurmati” ordenining ta’sis etilishi

1998-yil oktyabr — Samarqandda Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi nishonlanishi va yodgorlik majmuining ochilishi.

1998-yil oktyabr — Farg‘ona shahrida Ahmad al-Farg‘oniya haykal o‘rnatalishi va bog‘ bunyod etilishi.

1998-yil 28-dekabr — “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasining tashkil etilishi.

1999-yil 16-fevral — Toshkentda terrorchi kuchlar tomonidan portlashlar sodir etildi.

1999-yil mart — “SamKochavto” qo‘shma korxonasining ochilishi. “Otayo‘l” rusumli avtobus va yuk avtomobilari ishlab chiqarila boshlanishi.

1999-yil 9-may — Toshkentda “Xotira maydoni” majmuasining ochilishi.

1999-yil — Toshkent islom universiteti ochilishi.

1999-yil 5-noyabr — Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi nishonlanishi.

1999-yil 5-dekabr — O‘zbekiston Respublikasi ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisiga saylovlar bo‘lib o‘tdi.

2000-yil 9-yanvar — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi. I.A.Karimov O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylandi.

2000-yil 12-may — Toshkentda “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuining ochilishi.

2000-yil 30-avgust — “Jaloliddin Manguberdi” ordeni ta’sis etildi.

2000-yil 16–17 noyabr Burhoniddin Marg‘inoniy tavalludining 910 yilligi va Imam Abu Mansur Moturidiy tavalludining 1130 yilligi nishonlanishi.

2001-yil 23-mart — “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tashkil topdi.

2001-yil 24-aprel — Navoiy–Uchquduq–Sulton Uvaystog‘–Nukus temir yo‘lining ochilishi.

2001-yil 14–15 iyun — O‘zbikiston “Shanxay forumi”ga a’zo bo‘ldi. Uning nomi Shanxay Hamkorlik Tashkiloti deb o‘zgartirildi.

2001-yil avgust — Toshkent metrosi Yunusobod yo‘nalishining ishga tushirilishi.

2001-yil dekabr — Sho‘rton gaz-kimyo majmuasining ishga tushirilishi.

2002-yil 27-yanvar Ikki palatali parlament tuzish masalasida O‘zbekiston Respublikasining referendumi bo‘lib o‘tdi.

2002-yil 28-fevral — O‘rtta Osiyo Hamkorlik Tashkiloti tashkil etildi.

2002-yil 2-aprel — Termiz shahrining 2500 yilligi nishonlandi.

2002-yil 27-avgust — Toshkentda “Qatag‘on qurbanlari xotirasi” muzeyining ochilishi.

2003-yil 24-aprel — “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” Qonunning qabul qilinishi.

2004-yil — Mehr-muruvvat yili

2004-yil 17-iyun — ShHT Toshkent sammiti.

2005-yil — Sihat-salomatlik yili

2005-yil 27-yanvar — O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati tashkil etildi.

2005-yil 4-may — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Andijon shahrida sodir bo‘lgan voqealar munosabati bilan Toshkent shahrida mamlakatimiz va xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillari uchun matbuot anjumani o‘tkazdi.

2006-yil — Homiylar va shifokorlar yili

2006-yil 24-yanvar — Qo‘ng‘irot soda zavodining ishga tushirilishi.

2006-yil — Toshkentda ShHT a’zo davlatlarining tashqiiqtisodiy va tashqi savdo faoliyatiga mas’ul

2007-yil — Ijtimoiy himoya yili.

2007-yil 24 avgust — Toshguzar – Boysun – Qumqo‘rg‘on temir yo‘l liniyasining ochilishi.

2007-yil 25-avgust — Samarqand shahrining 2750 yilligi yubileyi nishonlandi

2007-yil 7-sentyabr — Marg‘ilon shahrining 2000 yilligi nishonlanishi.

2008-yil — “Yoshlar yili”.

2008-yil — Boku shahrining Ozodlik maydonida Alisher Navoiy haykalining ochilishi.

2008-yil 18-dekabr — O‘zbekistonda “General Motors” korporatsiyasi bilan hamkorlikda dvigatellar ishlab chiqaradigan “General Motors Powertrain Uzbekistan” qo‘shma korxonasi tashkil etilishi.

2009-yil — “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili”.

2008-yil 2-dekabr — Navoiy viloyatida “Navoiy” erkin iqtisodiy-sanoat zonasining tashkil etilishi.

“Shashmaqom musiqasi” YuNESKO tomonidan “Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi durdonasi” ro‘yxatiga kiritilishi.

2010-yil — “Barkamol avlod yili”.

2009-yil 28-avgust — Toshkentda “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyining ochilishi.

2009-yil 1-sentyabr — Toshkent shahrining 2200 yillik yubileyi munosabati bilan Toshkent shahri “Mustaqillik” ordeni bilan mukofotlandi.

2009-yil 4-sentyabr — Samarqandda “JV MAN Auto-Uzbekistan” O‘zbekiston-Germaniya qo‘shma korxonasining ochilishi.

2011-yil — “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili”.

2011-yil 26-avgust — Toshkent va Samarqand shaharlari o‘rtasida yuqori tezlikda harakatlanuvchi “Afrosiyob” poezdi qatnovining yo‘lga qo‘yilishi.

2011-yil 16-noyabr — Toshkent shahrida “Ma’rifat markazi” majmuasining ochilishi.

2012 yil 13 aprel — “Angren” maxsus industrial zonasining tashkil etilishi.

2013-yil 18-mart — “Jizzax” maxsus industrial zonasining tashkil etilishi.

2014-yil 24 mart — Toshkentda Inha (Janubiy Koreya) universitetining filiali tashkil etilishi.

2014-yil 1-oktyabr — Toshkentda “Minor” jome’-masjidining ochilishi.

2015-yil 29-yanvar — Kurash 2018-yilgi Indoneziyaning Jakarta shahrida o‘tkaziladigan XVIII-yozgi Osiyo o‘yinlari dasturiga rasman kiritilishi.

2015-yil 6-aprel — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida Islom Abdug‘anievich Karimov 90,39 foiz ovoz bilan g‘alaba qozonishi.

2015-yil 22-avgust — Yuqori tezlikda harakatlanuvchi “Afrosiyob” elektropoezdi Toshkent – Qarshi yo‘nalishida ilk qatnovi.

2015-yil 1-oktyabr — “Nasaf” poezdining Toshkent – Qarshi yo‘nalishining Kitobgacha uzaytirilishi.

2015-yil oktyabr — Ustyurt gaz-kimyo majmuasi ishga tushirilishi.

2016-yil 13-may – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil etildi.

2016-yil 23-24 iyun — Toshkentda Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining majlisi.

2016-yil 23-iyun — Angren – Pop elektrlashtirilgan temir yo‘li va Qamchiq tunnelining ochilishi.

2016-yil 25-avgust — Toshkent–Buxoro yo‘nalishida yuqori tezlikda harakatlanuvchi zamonaviy “Afrosiyob” elektr poezdining ilk qatnovi.

2016-yil 27-avgust — Qamchiq dovonidan o‘tuvchi “Andijon-Toshkent” yo‘nalishidagi ilk poezd qatnovi.

2016-yil 2-sentyabr — O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov (1938-2016) vafot etdi.

2016-yil 8-sentyabr — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifalarini o‘tash O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Shavkat Mirziyoevga yuklatildi.

2016-yil 4-dekabr — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida Shavkat Mirziyoev 88,61 foiz ovoz yig‘di.

2016-yil 14-dekabr — Shavkat Mirziyoev rasmiy ravishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimini egalladi.

2017 yil — “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”.

2017-yil 7-fevral — Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmonning imzolanishi.

2017-yil 3-mart – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash to‘g‘risida” Qarori qabul qilindi.

2017-yil 13-mart — Shanxay universitetida Alisher Navoiy haykalining ochilishi.

2017-yil 23-iyun — Prezident Shavkat Mirziyoev O‘zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish haqidagi qarorni imzoladi

2017-yil 30-iyun — O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev “Kamolot” tomonidan yoshlari ijtimoiy harakati negizida O‘zbekiston yoshlari ittifoqini tashkil etish taklifining kiritilishi.

2017-yil 10-11 noyabr — BMT shafeligida Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha "Markaziy Osiyo: yagona tarix va

umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik" mavzuida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.

2018-yil – “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”.

2018-yil 16-aprel — Toshkent islom universiteti negizida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining tashkil etildi.

2018-yil 19-oktyabr — Rossiya Federatsiyasi prezidenti Vladimir Putin O‘zbekistonga davlat tashrifi.

2019-yil — “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”.

2019-yil 20-fevral — O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan “Prezident maktablarini tashkil etish-tadbirlari to‘g‘risidagi” Qarorning qabul qilinishi.

2019-yil 19-mart — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan “Jazo muddatini o‘tayotgan, qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan bir guruh shaxslarni afv etish to‘g‘risida”gi Farmonning imzolanishi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2019.
2. Shavkat Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iy bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1 – jild. –T.: “O‘zbekiston”, 2017.
3. Shavkat Mirziyoev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2 – jild. –T.: “O‘zbekiston”, 2018.
4. Shavkat Mirziyoev. Buyuk kelajagimini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017.
5. Karimov I.A. Asarlar. T. 1 – 24. –T.: “O‘zbekiston”, 1996-2016.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2010.
7. Abdurahimova N., Ergashev F. Turkistonda Chor mustamlaka tizimi. –T., 2002.
8. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. // Tanlangan asarlar. T.1. –T., “Fan”, 1968.
9. Avesto. Asqar Mahkam tarjimasi. –T., “Sharq”, 2001.
10. Azimov H.I. O‘zbekiston tarixi (1917-1945 yillar). –T.: Sharq, 2011.
11. Amir Temur jahon tarixida. –T., “Sharq”, 1996.
12. Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. –T.: O‘zbekiston, 2015.
13. Ahmedov B. Sohibqiron Temur (hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati). –T., 1996.
14. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. –T., “Ma’naviyat”, 1999.
15. Boys M. Zoroastriysy. Verovanie i obychai. –M., 1987.
16. Buniyodov Z. Anushtegin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). –T.: G‘afur G‘ulom, 1998.
17. Buyuk siymolar, allomalar (I-II kitob). –T.: Meros, 1995.
18. Vamberi Xerman. Buxoro yoki Movarounnahr tarixi. –T., 1990.
19. Davlatova Sh. O‘zbekistonda boshqaruv strukturasining shakllanishi va taraqqiyotida milliy masalaning tutgan o‘rni (XX asrning 20-yy.) –T., 2016.
20. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. –T.: O‘qituvchi, 1994.
21. Jaloliddin Manguberdi. –T., “Sharq”, 1999.

22. Ziyoev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. – T.: Sharq, 1998.
23. Ziyoev H. O‘zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. –T., 2001.
24. Ziyo A. O‘zbek davlatchiligi tarixi (eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). –T., “Sharq“, 2000.
25. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. I-II kitoblar. –T., 1992.
26. Ibrohimov N. Ibn Battuta va uning O‘rta Osiyoga sayohati. –T., 1993.
27. Istoriya Uzbekistana. T. III (XVI v. – pervaya polovina XIX veka). –T.: Fan, 1993.
28. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. –T.: Cho‘lpon, 1994.
29. Muhammadjonov A.R. Qadimgi Buxoro. –T., “Fan” 1991.
30. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. –T.: Fan, 1968.
31. Narshaxiy. Buxoro tarixi. –T., 1993.
32. Noveyshaya istoriya Uzbekistana. Uchebnik dlya VUZov. –T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2018.
33. Noveyshaya istoriyassentralynoy Azii: problemy, teoriii i metodologii / Otv. red. i sost.: A.K.Alikperov. M.A.Rahimov. – M.: IV RAN, 2018.
34. Polvonov N.T. O‘zbekiston tarixidan xrestomatiya. –T., 2018
35. Rahimov M., Raxmatullaev Sh., Tursunova R., Nazarov R. Ocherki noveyshey istorii Uzbekistana. –T., 2015.
36. Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullaev E.V. Qadimgi O‘zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. –T.: Adolat, 2001.
37. Sagdullaev A. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarida. –T.: Universitet, 1996.
38. Sagdullaev A., Aminov B., Mavlonov O‘., Norqulov N. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat qurish taraqqiyot. –T., 2000.
39. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. –T.: O‘zbekiston, 1997.
40. Temur tuzuklari. –T.: G‘afur G‘ulom, 1991.
41. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. –T., “Qomuslar bosh tahririyati”, 1996.

42. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. –T., 1964.
43. Usmonov Q., Oblomurodov N. O‘zbekiston tarixi. Oliy ta’lim muassalari uchun darslik. –T.: Moliya, 2015.
44. Xodjayov T.K., Xodjaeva G.K. Istoricheskaya antropologiya. Uzbeki. –M.: Nauka, 2011.
45. shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchinchi kitob. –T.: Sharq, 2016.
46. shamsutdinov R.T. Ikkinci jahon urushi va front gazetalari. –T.: Akademik nashr, 2017.
47. Shaniyazov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. –T.: “Sharq”, 2001.
48. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. –T.: “Sharq”, 1997.
49. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsilotlari. –T.: “O‘zbekiston–Yozuvchi”, 1999.
50. O‘zbekiston tarixi. 1-qism. –T.: Universitet, 1999.
51. Erkayev A. O‘zbekiston yo‘li. –T.: Ma’naviyat, 2011.
52. Eshov B. O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi. –T., 2015.
53. Yaspers K. Smysl i naznachenie istorii. –M.: Izd. polit. literatury, 1991.
54. O‘zbekiston tarixi. Oliy o‘quv yurtlarining nomutaxassislik fakultetlari talabalari uchun darslik. –T., 2005.
55. O‘zbekiston tarixi xrestomatiyasi. 1-jild. Eng qadimgi yozma manbalar. Avesto. –T.: Fan, 2014.
56. O‘zbekiston o‘rta asrlarda. –T., 2003.
57. O‘zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. –T.: “Sharq”, 2000.
58. O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinci kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. –T.: “Sharq”, 2000.
59. O‘zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. –T.: “Sharq”, 2000.
60. Qirg‘izboev M. Fuqarolik jamiyat: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. –T.: O‘zbekiston, 2010.

61. G‘ulomov Ya.G‘. Qadimgi madaniyatimizning izlaridan. –T.: Fan, 1960.
62. Haydarov M. 1928-1937 yilarda davlat boshqaruvidagi ziddiyatlar: maqsadlar, muammolar, echimlar. // Jamiyat va boshqaruv jurnali. №3 (81), 2018.
63. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. I-II kitoblar. T.: “Sharq”, 1999-2000.

Internet saytlari

1. www.president.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.press-service.uz
4. www.mfa.uz
5. www.gov.uz
6. www.e-tarix.uz
7. www.uza.uz